O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

22-noyabr – Xalqaro psixologlar kuni muborak bo‘lsin!

“Harbiy xizmatchilarda ijtimoiy-psixologik adaptatsiya muammosini ilmiy tadqiq etishning dolzarb masalalari: nazariya va amaliyot”



respublika ilmiy-nazariy konferensiya
To‘plami

2025-yil 21-noyabr

Toshkent

O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti

“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy psixologik ta’minlash” kafedrasi

“Harbiy xizmatchilarda ijtimoiy-psixologik adaptatsiya muammosini ilmiy tadqiq etishning dolzarb muammolari: nazariya va amaliyot”

mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

KBK-68.4
F-13

“Harbiy xizmatchilarda ijtimoiy-psixologik adaptatsiya muammosini ilmiy tadqiq etishning dolzarb muammolari: nazariiya va amaliyot” mavzusida respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2025. -389 bet.

Ushbu konferensiya to‘plamida harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi ularning yangi xizmat muhiti, jamoa qadriyatlari, qat’iy ierarxik tizim, keskin va favqulodda vaziyatlar sharoitiga psixologik, emotsional va xulq-atvoriy jihatdan moslasha olish jarayonida tutgan o‘rni bo‘yicha keng jamoatchilik bilan o‘tkazilgan muhokama natijalarini o‘z ichiga qamrab olgan.

To‘plamda berilgan ilmiy maqolalar va tezislar Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalari, Milliy gvardiyaning hududiy boshqarmalari psixologlari, oliy harbiy ta’lim muassaslari professor-o‘qituvchilari, ijtimoiy ish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar, kursant va tinglovchilar uchun mo‘ljallangan.

Tashkilotchi:	O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi
Mas’ul muharrir:	“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi boshlig‘i p.f.b.f.d., dotsent, podpolkovnik Z.Sh.Alimardonov
Tahrir hay’ati:	dotsent Sh.A.Shakarboyeva katta leytenant M.Q.Qarshibayv

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ulligi belgilangan.

©O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2025

KIRISH SO‘ZI



Assalomu alaykum, hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Bugungi murakkab geosiyosiy sharoitda jamoat xavfsizligini ta’minlash, davlat va jamiyat barqarorligini mustahkamlash jarayonida harbiy xizmatchining shaxsi, uning psixologik barqarorligi va ijtimoiy moslashuvchanligi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Harbiy xizmat faqat tashkiliy-intizomiy va huquqiy mexanizmlar bilan emas, balki chuqur psixologik yondashuvlar bilan ta’minlangandagina yuqori samaradorlikka erishishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi ularning yangi xizmat muhiti, jamoa qadriyatlari, qat’iy ierarxik tizim, keskin va favqulodda vaziyatlar sharoitiga psixologik, emotsional va xulq-atvoriy jihatdan moslasha olish jarayonini ifodalaydi.

Ilmiy adabiyot va amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmatchining ijtimoiy-psixologik adaptatsiya darajasi quyidagi asosiy psixologik indikatorlar orqali ifodalanadi:

-stress va travmatik omillarga chidamlilik;

-emotsional o‘zini-o‘zi boshqarish ko‘nikmalari;

-kommunikativ kompetensiya va jamoa bilan samarali o‘zaro ta’sir;

-kasbiy-identifikatsiya, xizmatga sadoqat va motivatsiya darajasi;

-ziddiyatli va noaniq vaziyatlarda konstruktiv qaror qabul qilish qobiliyati.

Bugun O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida “Harbiy xizmatchilarda ijtimoiy-psixologik adaptatsiya muammosini ilmiy tadqiq etishning dolzarb masalalari: nazariya va amaliyot” mavzusiga bag‘ishlangan respublika ilmiy-nazariy konferensiya ishini boshlamoqda. Ushbu nufuzli anjumanda ishtirok etayotgan siz aziz mehmonlar, ilmiy jamoatchilik vakillari va hamkor tashkilotlar vakillarini universitet rahbariyati nomidan samimiy qutlab, chuqur minnatdorligimizni izhor etaman.

Hurmatli konferensiya qatnashchilari!

Bugungi respublika ilmiy-nazariy konferensiyaning asosiy maqsadi harbiy xizmatchilarda ijtimoiy-psixologik adaptatsiya masalasini turli ilmiy

maktablar, tajribalar va konseptual yondashuvlar nuqtai nazaridan har tomonlama tahlil qilish, zamonaviy psixodiagnostik va psixokorreksion texnologiyalarni muhokama etish, shuningdek, amaliyotga joriy etish mumkin bo‘lgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Fursatdan foydalanib, ushbu anjumanimizda ishtirok etayotgan hurmatli professor-o‘qituvchilar, amaliyotchi mutaxassislar, hamkor tashkilotlar vakillariga minnatdorlik bildiramiz. Sizning ilmiy faolligingiz, tajriba va yondashuvingiz mazkur yo‘nalishning yanada takomillashishiga, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasini ta’minlash bo‘yicha samarali ilmiy-nazariy platforma shakllanishiga munosib hissa qo‘shishiga ishonch bildiramiz.

Konferensiya ishiga yuqori ilmiy saviya, samarali muloqot va amaliy natijalar tilagan holda, “Harbiy xizmatchilarda ijtimoiy-psixologik adaptatsiya muammosini ilmiy tadqiq etishning dolzarb masalalari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi respublika ilmiy-nazriy konferensiyani ochiq deb e’lon qilaman.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitet boshlig‘i, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist, yu.f.d, professor, polkovnik Mirzayusup Xakimovich Rustambayev

HARBIY-KASBIY FAOLIYATGA ADAPTATSIYALASHUV HARBIY XIZMATCHILARNING BARQAROR AXLOQIY-RUHIY HOLATINI TA’MINLOVCHI MEXANIZM SIFATIDA

Ashurmatov Muzaffar Komilovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Harbiy xafvsizlik va mudofaa universitetining Quruqlikdagi qo‘shinlar instituti oliy ta’lim muassasidan keyingi ta’lim bo‘limi boshlig‘i,
e-mail:muzaffarashurmatov3@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada moslashish jarayonining tarixi, rivojlanish bosqichlari, turlari hamda moshlashuv (adaptatsiya) jarayoniga oid tadqiqot natijalari to‘g‘risida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Harbiylik, noaniq vaziyat, moslashuv, moslashuvning ijtimoiy darajasi, kasbiy moslashish (adaptatsiya), dinamik, moslashish turlari, biologik, fiziologik, psixologik, ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik, kasbiy.

Harbiylik kasbi yuqori darajadagi xavf va noaniq vaziyatlarda harakat qilishga tayyorligi bilan ajralib turadi. Psixologlar ta’biricha noaniqlik zamonaviy dunyoning muammolaridan biri (kelajakning beqarorligi, texnologiyaning shiddatli rivojlanishi, aksiologik noaniqlik, mobillik, ijtimoiy muhitning polifoniyasi va boshq.) bo‘lib, harbiy xizmatchi kasbida noaniqlik ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi [1].

Noaniq vaziyatlarni anglab yetish hamda har qanday sharoitda ham berilgan topshiriqlarni bajarishga kirishish majburiyati harbiy xizmatchidan ushbu kasb talablariga moslashuvchan bo‘lishni talab etadi. Harbiy xizmatchilar axloqiy-ruhiy holati barqarorligini ta’minlashda ularning moslashuvchanlik darajasi muhim o‘ringa ega.

Fanda “moslashuv” atamasi ilk marotaba G.Auberg tomonidan qo‘llanilgan va tabiiy, texnik va ijtimoiy fanlarda keng tarqalgan. Mazkur atama lotincha “adaptatio” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, sozlash, moslashish ma’nolarini bildiradi. Moslashuv falsafiy kategoriyalar bilan bir qatorda umumiy ilmiy tushuncha sifatida turli fanlarning o‘rganilayotgan obyektlarini yaxlit nazariy tuzilmalarga birlashtirishga xizmat qiladi [2; 7-b].

Insonning atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatiga bog‘liq ravishda moslashuv tiplari quyidagilarga ajratiladi: biologik, fiziologik, psixologik, ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik va kasbiy [3]. Psixologik moslashuv shaxsning ruhiy jarayonlar darajasidagi sharoit va vazifalarga moslashishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Moslashuvning biologik darajasi insonning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida ishlab chiqilgan tananing (organizm) ichki muhitining dinamik

barqarorligini ta’minlaydigan o‘zini o‘zi boshqarishning umumiy biologik mexanizmlariga asoslanadi.

Moslashuvning ijtimoiy darajasi - bu shaxsning rivojlanishiga, ongning shakllanishiga va individual-shaxsiy xususiyatlariga ta'sir qiluvchi ijtimoiy muhit omillari to‘plamiga moslashishdir.

Moslashuvning ruhiy darajasi harbiy xizmatchi shaxsiyatining psixologik xususiyatlari bilan belgilanadi va muvaffaqiyatli harbiy-kasbiy moslashuv uchun eng muhimdir.

Kasbiy moslashish (adaptatsiya) – bu insonning kasbga kirishib ketishi va uning faoliyatining kasbiy muhit bilan uyg‘unlashib ketishi jarayonidir [4]. Mutaxassisni murakkab, ekstremal va noan’anaviy xarakterga ega bo‘lgan faoliyatga tayyorlash o‘ziga xos tarzda amalga oshiriladi.

Mutaxassisning kasbiy adaptatsiyasi uning muhit bilan kasbiy jihatdan o‘zaro bog‘lanishlarining asosiy sohalarida amalga oshiriladi:

1. *Kasbiy faoliyat sohasida* - kasbiy faoliyatga moslashuvchanlik (uning maqsadlari, mazmuni, texnologiyalari, amalga oshirish vositalari, faoliyatning tartibi va jadalligi);

2. *Tashkiliy-me’yoriy sohada* - ishlab chiqarish va mehnat intizomi, tashkiliy qoidalar va me’yorlar va boshqa talablarga moslashuvchanlik;

3. *Ijtimoiy-professional sohada* - kasbiy-rolli ijtimoiy vazifalarga va ijtimoiy-kasbiy jihatdan mavqeiga moslashuvchanlik;

4. *Ijtimoiy-psixologik sohada* - ijtimoiy vazifalar, norasmiy me’yorlar, qoidalar, qadriyatlar, tashkilotdagi va mehnat jamoasidagi munosabatlarga moslashuvchanlik;

5. *Keng ma’nodagi ijtimoiy sohada* - mutaxassisning kasbiy faoliyati kechadigan ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashuvchanlik, ya’ni ijtimoiy, huquqiy va boshqa muhitlarda [4].

Moslashuv jarayoni juda dinamik. Uning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan bir qator obyektiv va subyektiv sharoitlarga, funksional holatga, ijtimoiy tajribaga, hayotiy munosabatga va boshqalarga bog‘liq. Har bir inson bir xil hodisalarga har xil munosabatda bo‘ladi va turli odamlarda bir xil ta’sir etuvchi stimul turli xil reaksiyani keltirib chiqarishi mumkin [5].

Psixoanalitiklar (G.Gartman) moslashishni jarayon sifatida va jarayon natijasi sifatida moslashganlikni farqlaydilar. G.Gartmanning fikricha, yaxshi moslashgan odamda maxsuldorlik, hayotdan zavq olish qobiliyati va aqliy muvozanat buzilmagan deb hisoblanadi. Moslashuv jarayonida inson ham, atrof-muhit ham faol o‘zgaradi buning natijasida ular o‘rtasida moslashganlik holati o‘rnatiladi. Moslashuv jarayoni EGO tomonidan boshqariladi.

V.S.Sablina, esa moslashish tezligini bir qancha vaqt oralig‘ida ma'lum darajada moslashishga erishish deb hisoblaydi. Bu parametr har bir insonda ma’lum bir moslashish qobiliyati borligini ko‘rsatadi. Moslashuv tezligi qanchalik yuqori bo‘lsa, shaxsning guruhga moslashishi uchun shunchalik kam vaqt zarur bo‘ladi va uning moslashish qobiliyati shunchalik yuqori bo‘ladi [6].

Moslashuv dinamikasi moslashish jarayoni mazmunidagi sifat va miqdoriy o‘zgarishlarning ayrim xususiyatlarini tavsiflovchi vaqt davrlarini o‘z ichiga oladi. Bu moslashishi bosqichlari deyiladi. Ular 3 guruhga bo‘linadi:

1-bosqich, taxminiy bo‘lib, moslashuvchi shaxsning kutishlari va ishlarning haqiqiy holati o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar bilan ifodalanadi hamda muloqotda vazminlik, xulq-atvorda qattiqlik bilan tavsiflanadi.

2-bosqich, haqiqiy moslashish bo‘lib, qo‘yilgan talablarga muvofiqlik darajasini baholash va ularni guruh a’zolari tomonidan qo‘llash bilan tavsiflanadi. Shaxs qo‘yilgan talablar, ularni qo‘llash va guruh a’zolari o‘rtasida amalga oshirish o‘rtasidagi muvofiqlikni o‘rnatishga qaratilgan muloqot va xatti-harakatlar strategiyasini ishlab chiqadi.

3-bosqich, barqarorlashtirish bo‘lib, qo‘yilgan talablar guruh a'zolari o‘rtasida ularni amalga oshirishga mos kelganda, moslashuvchi shaxs va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi munosabatlarda dinamik muvozanatni o‘rnatish bilan tavsiflanadi. Moslashuvchan shaxs uchun bu moslashish holatidir [6; 89-103-b.].

Harbiy kasbiy faoliyat jarayoniga moslashish bir qator o‘ziga xosliklar bilan ifodalanadi. Qiyin faoliyat sharoitida har xil harbiy xizmatchilar turli xil moslashish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Harbiy xizmatchi nimaga moslashayotganiga qarab, moslashish turlari haqida gap boradi:

fiziologik (suv tarkibidagi o‘zgarishlarga);

psixofiziologik (yorug‘likning o‘zgarishiga – vizual moslashuv, tovush – tovush moslashuvi, tashqi stimul ta’sirining jadalligi – sensor moslashuv);

ijtimoiy (ijtimoiy muhit o‘zgarishiga);

psixologik (ruhiyatga ta’sir qilish sharoitidagi o‘zgarishlarga);

ijtimoiy-psixologik (ijtimoiy atrofdagilar o‘zgarishiga);

kasbiy (kasbiy faoliyat sharoitidagi o‘zgarishlarga);

shaxsiy va boshqalar.

Harbiy xizmatchi uchun “moslashish” atamasi uning moslashuvchan xatti – harakatlarining butun majmuasini ekstremal muhitga moslashtirishni, uning o‘ziga xos xususiyatlari esa moslashuv faollikning asosiy yo‘nalishi bilan qanday aniqlashni tushunish maqsadga muvofiqdir.

S.N.Glazunovaning ta’kidlashicha, harbiy kasbga moslashishda harbiy xizmatchilar g‘ayrioddiy jismoniy va hissiy stressga duch kelishadi: hayot tarzining o‘zgarishi, ovqatlanish, iqlim sharoitlari, oila a’zolaridan alohida bo‘lish va boshqalar, bu kabi omillar harbiy xizmatchilar psixologik holatiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun moslashuv davrini o‘tkazish lozim. Umuman olganda moslashuv davri harbiy xizmatchilarning psixologik holatini saqlashning muhim mezoni hisoblanadi. Optimal tez moslashish uchun maxsus sharoitlar talab qilinadi [7].

Shunga muvofiq harbiy xizmatchilar jangovar vaziyatlarga moslashishi quyidagicha ifodalanadi:

Dastlabki davr (daqiqalar, soatlar) – faollik, ishchanlikni oshishi. Kuchlar organizmning asosan “yuzaki” rezervlari hisobiga safarbar bo‘ladi.

Inson mavjud, ko‘rinmas chiziqning narigi tomonida turar ekan, uni qo‘rquv qamrab oladi. Kimki uni bosib o‘tib, o‘z o‘limidan qo‘rqishni ikkinchi o‘ringa surib qo‘ysa, qo‘rquvdan xalos bo‘ladi, shunda tushuntirish qiyin bo‘lgan boshqa kuchlar ishlay boshlaydi. Yana biroz vaqt o‘tgandan keyin harakatlaringiz qo‘rquv qamrab olgan dastlabki holatdagi alg‘ov-dalg‘ov o‘q otishdan jangning metodik faoliyatiga aylanadi.

Ikkinchi davr (10 sutkagacha) – organizm ekstremal vaziyatlarga adekvat (oson) moslashadi. Bu vaqtda ishchanlik qobiliyati pasayishi yoki barqarorlashishi mumkin. Agar inson motivatsiyasi kuchli bo‘lsa ishchanlik qobiliyati ham yuqoriligicha qoladi.

Uchinchi davr (20 - 60 sutkagacha) – barqaror bo‘lmagan moslashuv. Charchoq va jangni davom ettirishni xohlamaslik [8].

Bu borada, Sara Overdale va Dianne Gardner harbiy xizmatchilarni qiyin vaziyatlarga tayyorlashda maxsus tashkil etilgan o‘qitish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan instruktorlarning tashqi yordami moslashish qiyinchiliklarini kamaytiradi va qiyinchiliklarni yengishda muvaffaqiyatga hissa qo‘shadi deb hisoblashadi [9].

Harbiy xizmatchilarning moslashuvchanlik darajasini aniqlashda bir qator usullardan foydalanish mumkin. Ularning orasida A.G. Maklakov, S.V.Chermyaninning “Moslashuvchanlik” so‘rovnomasi harbiy xizmatchilarning asab-psixik barqarorlik (APB), kommunikativ salohiyat (KS) va axloqiy normativlik (AN) kabi xususiyatlari hamda shaxsiy adaptatsion salohiyat (ShAS)ni o‘rganishda samarali hisoblanadi [10].

Harbiy xizmatchilar bilan o‘tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagicha xususiyat kasb etib, ularda mazkur sifatlarning ijobiy ekanligini ko‘rsatdi (1-rasm).



1-rasm. Harbiy xizmatchilarning moslashuvchanlik sifatlarining umumiy ko‘rsatkichlari

Tahlilga ko‘ra, Ishonchlilik shkalasi bo‘yicha *yuqori* – 1 toifa 79 %, 2 toifa 78 %, 3 toifa 71 %; *o‘rta* – 1 toifa 18 %, 2 toifa 20 %, 3 toifa 26 %; *past* – 1 toifa 3 %, 2 toifa 2 %, 3 toifa 3 %; harbiy xizmatchilarni tashkil etdi. Ushbu shkala bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan harbiy xizmatchilar o‘zlarini adekvat baholaydilar va so‘rovnoma shartlari va maqsadini aniq tushunganlar. Natijalar asosan o‘rta va yuqori drajadagi harbiy xizmatchilar ko‘p sonli ekanligini ko‘rsatdi. Past balga ega harbiy xizmatchilar esa aksincha, o‘z holatini baholashga ishonchli yondashmaydilar va ularning natijalari noxolis hisoblanadi.

Shaxsiy adaptatsion salohiyat (ShAS) shkalasi bo‘yicha *yuqori* – 1 toifa 86 %, 2 toifa 81 %, 3 toifa 84 %; *o‘rta* – 1 toifa 14 %, 2 toifa 19 %, 3 toifa 16 %; *past* – barcha toifalar bo‘yicha 0 %; harbiy xizmatchilarni tashkil etdi. Yuqori ballarni qo‘lga kiritgan harbiy xizmatchilar faoliyatning yangi sharoitlariga juda oson moslashadilar, tezda yangi jamoaga qo‘shilishadi, vaziyatni juda oson va adekvat tarzda boshqaradilar va o‘zlarining xatti-harakatlari strategiyasini tezda ishlab chiqadilar. Odatda ular janjalkash emas, yuqori emotsional barqaror bo‘lgan harbiy xizmatchilardir.

Past ballar esa xarakterning aniq urg‘u berish belgilari va psixopatiyaning ba’zi belgilariga ega, ruhiy holat esa chegara sifatida tavsiflanishi mumkin. Ushbu guruh harbiy xizmatchilari past asabiy-ruhiy barqarorlikka ega, janjalkash, ijtimoiy bo‘lmagan harakatlar qilishlari mumkin. Ular psixolog va shifokor (nevropatolog, psixiatr) nazoratini talab qiladi.

Asab-psixik barqarorlik (APB) shkalasi bo‘yicha *yuqori* – 1 toifa 43 %, 2 toifa 40 %, 3 toifa 25 %; *o‘rta* – 1 toifa 57 %, 2 toifa 60 %, 3 toifa 73 %; *past* – 1 va 2 toifalar bo‘yicha 0 %, 3 toifa 2 %; harbiy xizmatchilarni tashkil etdi. Mazkur shkala bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar Asabiy-ruhiy barqarorlik va xulq-atvorni tartibga solishning yuqori darajasi, o‘zini yuqori baholash va haqiqatni haqiqiy idrok etishni anglatadi. Past ko‘rsatkichlar esa, xulq-atvorni tartibga solishning past darajasi, asabiy-ruhiy buzilishlarga bo‘lgan ma’lum moyillik, o‘ziga baho berishning adekvatligi va haqiqatni

haqiqiy idrok etishning mavjud emasligini ifodalaydi. Ishtirokchilar orasida bu kabi harbiy xizmatchilar deyarli topilmadi.

Kommunikativ xususiyatlar (KX) shkalasi bo‘yicha *yuqori* – 1 toifa 60 %, 2 toifa 59 %, 3 toifa 65 %; *o‘rta* – 1 toifa 40 %, 2 toifa 41 %, 3 toifa 35 %; *past* – barcha toifalar bo‘yivha 0 %; harbiy xizmatchilarni tashkil etdi. Harbiy xizmatchilardagi yuqori ballar muloqot qobiliyatlarining yuqori darajasi, hamkasblar va atrofdagilar bilan aloqalarni osongina o‘rnatadi, janjalkash emasligini ko‘rsatadi. Olingan natijalar harbiy xizmatchilarning kommunikativ xususiyatlari umumiy holda ijobiy ekanligini ifodalamoqda.

Axloqiy normativlik (AN) shkalasi bo‘yicha *yuqori* – 1 toifa 50 %, 2 toifa 34 %, 3 toifa 55 %; *o‘rta* – 1 toifa 50 %, 2 toifa 66 %, 3 toifa 45 %; *past* – barcha toifalar bo‘yivha 0 %; harbiy xizmatchilarni tashkil etdi. Yuqori ballarni egallagan harbiy xizmatchilar jamoadagi rolini real tarzda baholaydi, umumiy qabul qilingan xulq-atvor normalariga rioya qilishga e’tiborini qaratadi. Past ballar esa jamoadagi o‘rni va rolini adekvat darajada baholay olmaydi, umumiy qabul qilingan xulq-atvor me’yorlariga rioya qilishga intilmaydi. Bizning tadqiqotimizda axloqiy normativlik (AN) darajasi past bo‘lgan harbiy xizmatchilar kuzatilmadi.

Shunday qilib, harbiy xizmatchilarning moslashuvchanlik qobiliyati ularning axloqiy-ruhiy holatini ifodalashda muhim o‘ringa ega bo‘lib, turli sharoitlarda ijtimoiy-psixologik moslashish jarayonining samaradorligini ta'minlaydi va shaxsiy moslashuvchan potentsialni (PA) belgilaydi. Shaxsiy moslashish potensialining xususiyatlarini xulq-atvorni tartibga solish, muloqot qobiliyatlari va axloqiy me'yoriylik darajasini baholash orqali olish mumkin.

Moslashuvchanlik jarayoni har doim ham muvaffaqiyatli kechavermaydi. Ertami-kechi jangovar sharoitlarda moslashuvning buzilishi sodir bo‘lishi kerak va ba'zi harbiy xizmatchilarda bu juda erta, boshqalarida esa ancha kechroq sodir bo‘ladi. Bu holat nafaqat shart-sharoitlar balki harbiy xizmatchilarning shaxsiy xususiyatlariga ham bog‘liq bo‘lib, harbiy xizmatchilar bilan amalga oshiriladigan profilaktik chora-tadbirlarni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Асмолов А. Г. Психология современности: вызовы неопределенности, сложности и разнообразия // Психологические исследования. 2015. Т. 8, № 40.

2. Фомин Н.А. Физиология человека. Учебное пособие для студентов факультетов физического воспитания пед. ин-тов.- М.:Просвещение, 1982. – С. 320.

3. Ковригина И.С. Социально-психологическая адаптация: сущность, виды и стадии формирования. БГУ. Брянск: - 2015. С.136.

HARBIY-KASBIY FAOLIYAT SHAROITLARIGA SAMARALI MOSLASHUV JARAYONIDA SHAXS XUSUSIYATLARI

Sh.A.Mirabdullaeva
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti,
Harbiy pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Maqolada harbiy-kasbiy faoliyatga samarali moslashuv, moslashuv samaradorligining genetik shartlanganligi, moslashuv buzilishining kasbiy sifatlar tushib ketishiga ta’siri, shaxsning asab-psixik barqarorligi, o‘z-o‘zini baholashi, atrofdagilar uchun o‘zining ahamiyatliligi, ziddiyatga borish darajasi, odamlar blan aloqaga kirishish tajribasi mavjudligi, jamiyatning axloqiy me’yorlariga bo‘lgan xabardorligi, harbiy jamoa guruhiy me’yorlarini qabul qilishi, shaxsning muloqotmandlik (kommunikativ) sifatlari, ijtimoiylashuv masalasi: ma’naviy-axloqiy me’yorlarni adekvat idrok qilish va bevosita ijtimoiy muhit talablariga bo‘lgan munosabatlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: harbiy-kasbiy faoliyat, moslashuv, kasbiy sifatlar, shaxs, psixika, me’yor, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy muhit, muvaffaqiyat, asab-psixik, o‘z-o‘zini baholash, muloqotmandlik, harbiy xizmatchi, ijtimoiy muhit, munosabat, mehnat, harbiy, ijodiy, jamoa.

Moslashuv – organizm ilmiy tadqiqotidagi tushunchalardan biridir, aynan evolyusiya jarayonida tarbiyalangan moslashuv doimiy o‘zgarib turadigan muhitda organizm ishlashi mavjudligini ta’minlaydi. Moslashuv jarayonii tufayli organizm muvofiq ishlashiga erishiladi va “odam-muhit” tizimini balansga keltirdi. Fransuz fiziologi Klod Bernarning ishlaridan boshlaydigan bo‘lsak, uning ishida organizmning ichki sohasining doimiyligi konsepsiyasi olg‘a surilgan, moslashuv dinamik paydo bo‘lishi yig‘indisi sifatida va bir xil bo‘lmagan tizim nisbati sifatida ko‘rib chiqiladi.

Moslashuv fenomenini ko‘rib chiqishda ikkita yondashuv mavjud. Bir tomondan, moslashuv har qanday jonli o‘z-o‘zini boshqarish tizimining tashqi muhit sharoitiga barqarorligini bevosita ifodalaydigan xususiyatidir (aniq bir moslashuv qobiliyatining rivojlanish darajasi nazarda tutiladi). Moslashuvga boshqacha yondashganda dinamik tuzilishi, tashqi muhit sharoitlariga moslashishning bevosita jarayoni sifatida ko‘rib chiqiladi.

Moslashuv qanchalik har qanday jonli organizmning xususiyati bo‘lmasin, bu xususiyat insonga xos. Lekin inson – nafaqat jonli organizm, eng avvalo bioijtimoiy tizim va ijtimoiy makrotizim elementidir. Shuning uchun insonning moslashuv muammosini ko‘rib chiqayotganda uch funksial darajani ajratib ko‘rsatish maqsadga

muvofiqdir: jismoniy, psixologik va ijtimoiy, shuningdek shaxsda moslashuvga qobiliyat kabi xususiyat mavjudligi taxmin qilinadi.

Moslashuv tushunchasi organizmda bo‘lib o‘tadigan jarayonlarning barchasini, shuningdek, uni rivojlanish darajasi va strukturasini yaxlitligi, ishlashi darajasini anglatadigan funksional holat tushunchasi bilan uzviy bog‘liq. Funksional holat darajasi qancha yuqori bo‘lsa, odamning ishlash qobiliyati shunchalik yuqori bo‘ladi. Bunday holat harbiy-kasbiy faoliyat uchun juda muhim, chunki ishlash qobiliyati dushmandan ustun bo‘lgan harbiy xizmatchigina jang maydonida ustunlik qila oladi.

Eksperimental psixologik tadqiqotlar harbiy-kasbiy faoliyat sharoitlariga samarali moslashuv uchun birinchi navbatdagi ahamiyatga ega bo‘lgan shaxs sifatlarini namoyon qilish imkonini berdi. Moslashuv potensiali rivojlanishining darajasi qancha yuqori bo‘lsa, harbiy xizmatchi murakkab sharoitlarda o‘z kasbiy majburiyatlarini shunchalik muvaffaqiyatli bajaradilar.

Shaxs moslashuvi potensiali konsepsiyasining nazariy asosi inson organizmi va psixikasi ishlashi barcha darajalariga tegishli jismoniy va ijtimoiy muhit sharoitlariga faol doimiy moslashuv jarayonidek moslashuv haqidagi tasavvurdir. Moslashuv samaradorligi asab tizimi xususiyatlari genetik shartlanganligi, tarbiya sharoitlaridan tortib, odam o‘ziga va ijtimoiy aloqalarni qanchalik adekvat qabul qilishiga bog‘liq, mavjud imkoniyatlar bilan o‘zining ehtiyojlarini o‘lchab ko‘radi va o‘z xulq atvori motivlarini anglaydi. O‘zi haqidagi xato yoki yetarli rivojlanmagan tasavvur moslashuvning buzilishiga olib keladi, bu esa yuqori ziddiyat, o‘zining ijtimoiy rolini tushunmaslik, ish qobiliyatining tushib ketishi, sog‘ligi holatining yomonlashuvi bilan kuzatiladi. Moslashuvning buzilishining ko‘pligi kasallik, kasbiy faoliyatning sifati tushib ketishi, ijtimoiylikka zid xulq-atvorlar bo‘lishiga olib keladi.

Moslashuv jarayoni favqulodda rivojlanuvchi. Uning muvaffaqiyati ko‘pincha bir qator ob’ektiv va sub’ektiv sharoitlar, funksional holat, ijtimoiy tajriba, hayotiy ustanovkalar va ko‘p narsalarga bog‘liq. Biroq nisbatan barqarorligi va ko‘pincha faoliyatning eng xilma-xil sharoitlariga moslashuv muvaffaqiyatini belgilashi bilan ajralib turadigan bir qator shaxs xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Bunday xarakteristikalar qatoriga shaxsning asab-psixik barqarorligi, o‘z-o‘zini baholashi, atrofdagilar uchun o‘zining ahamiyatliligi, ziddiyatga borish darajasi, odamlar blan aloqaga kirishish tajribasi mavjudligi. Jamiyatning axloqiy me’yorlariga bo‘lgan xabardorligi, harbiy jamoa guruhiy me’yorlarini qabul qilishi kiradi.

Asab-psixik barqarorlik ahamiyatli faoliyat sharoitlarini kardinal almashinuvi davrlari uchun xarakterli va bevosita moslashuv jarayoni bilan bog‘liq psixik va jismoniy zo‘riqishlar bo‘lganda asab tizimi buzilishiga moyillikni baholaydi. Asab-psixik barqarorlik – o‘ta keng tushuncha [2, 137-b]. U latent (aniq ifodalanmagan, yashirin), psixik faoliyatning yengil o‘zgarishi(patologiyasi), simptomatik (simptomlar

o‘zgarishi) bo‘yicha bir xil bo‘lmagani kabi dinamikasi(rivojlanishi) bo‘yicha ham bir xil bo‘lmagan, o‘zgarishdan avvalgi holatni mavjudligini aks ettiradi. Asab-psixik barqaror bo‘lmagan shaxslar qobiliyati past, ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini buzilishi va asab-psixik buzilishlarga moyil bo‘ladi. Ular uchun emotsionallik, emotiv va kognitiv(aql-idrok) beqarorlik, impulsivlik, yuqori bezovtalik xarakterli. Odatda, bu guruhga kiruvchi harbiy xizmatchilarga shaxs aksentuatsiyasi belgilari, psixopatiya va turli asab-psixik buzilishlar chegaralanganligi xarakterlidir.

Moslashuv muvaffaqiyatini ta’minlashda shaxsning o‘z-o‘zini baholashi muhim rol o‘ynaydi. Ma’lumki, o‘z-o‘zini baholash odamning o‘z-o‘zini boshqarish tizimini yadrosi hisoblanadi va ko‘pincha asosiy psixik jarayonlarning sifatli ishlashi unga bog‘liq. O‘z-o‘zini past baholash salbiy psixik holat hisoblanadi. O‘zini o‘zi past baholovchi shaxslar bezovta, beqaror, behafsala, ko‘p charchaydilar, ko‘pincha hayotga bo‘lgan qiziqishi yo‘q, kelajak hayotini ko‘rmaydi va ko‘pincha suitsidal harakatlar sodir qiladi. Aksincha, yuqori, adekvat(bir xil) o‘z-o‘zini baholash psixik sog‘lomlikdan darak beradi.

Harbiy-kasbiy faoliyatga moslashuv jarayonini belgilovchi xarakteristika shaxsning muloqotmandlik (kommunikativ) sifatidir. Odam qanchalik odamlar ichida ko‘p bo‘lsa, uning faoliyatini muvaffaqiyati munosabatlar o‘rnata olgan holda odamlarga tez qo‘shiladi. Muloqotmandlik imkoniyatlari (yoki atrofdagilar bilan o‘zaro bir-birini tushuna olish) har kimda har xil. Ular tajriba va muloqotdagi ehtiyojlar, shuningdek psixologik xususiyatlar bilan belgilanadi. Odamlarning o‘zaro hamkorligida o‘zaro aloqalar o‘rnatish prinsipi katta ahamiyatga ega. Bu prinsip odamlarning boshqalarga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi: bittasi o‘zini boshqalarga qarshi qo‘yadi, boshqalari aksincha, nisbatan yaxshi munosabatda; ba’zilari tajovuzkor, boshqalari dilkash. Tajovuzkor, o‘zining adovatliligi va egaistligi bilan ajralib turadigan odamlar, odatda yuqori ziddiyatliligi bilan xarakterlanadi, bu esa qandaydir darajada moslashuv jarayonini qiyinlashtiradi, mehnatsevar odam esa, odatda, bir-birini o‘zaro tez tushunadi, yangi vaziyatga tez ko‘nikadi va shu bilan birga tez moslashadi [3, 178-b].

Aniq bir harbiy xizmatchining muvaffaqiyatli moslashuvi uchun, uni atrofidagilarning munosabati ham ahamiyatlidir. Atrofdagilarning ijobiy munosabati moslashuvga yordam beradi, salbiy munosabati esa, aksincha, **moslashuv** jarayonini qiyinlashtiradi. Atrofdagilar tomonidan o‘zini ahamiyatliligini his qilishning qo‘llab-quvvatlanishi faollikni oshiradi va ba’zi bir salbiy xarakteristikalarni yopib ketadi (masalan, emotsional-irodaviy o‘zgaruvchanlik, o‘z-o‘zini baholashning oshishiga ta’sir qiladi va shunga o‘xshash), bu esa yangi sharoitga muvaffaqiyatli moslashish imkoniyatini beradi, bunday ma’lumotning yo‘qligi yoki o‘zini kerak emasdek his

qilish moslashuv jarayonini qiyinlashtiradi, salbiy xarakteristikalar, shuningdek, asab-psixik beqarorlik namoyon bo‘lishini kuchaytiradi.

Harbiy-kasbiy faoliyatga moslashuv jarayonini belgilovchi keyingi xarakteristika shaxsning muloqotmandlik (kommunikativ) sifatidir. Odam qanchalik odamlar ichida ko‘p bo‘lsa, uning faoliyatini muvaffaqiyati munosabatlar o‘rnata olgan holda odamlarga tez qo‘shiladi. Muloqotmandlik imkoniyatlari (yoki atrofdagilar bilan o‘zaro bir-birini tushuna olish) har kimda har xil. Ular tajriba va muloqotdagi ehtiyojlar, shuningdek psixologik xususiyatlar bilan belgilanadi. Odamlarning o‘zaro hamkorligida o‘zaro aloqalar o‘rnatish prinsipi katta ahamiyatga ega. Bu prinsip odamlarning boshqalarga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi: bittasi o‘zini boshqalarga qarshi qo‘yadi, boshqalari aksincha, nisbatan yaxshi munosabatda; ba’zilari tajovuzkor, boshqalari dilkash. Tajovuzkor, o‘zining adovatliligi va egaistligi bilan ajralib turadigan odamlar, odatda yuqori ziddiyatliligi bilan xarakterlanadi, bu esa qandaydir darajada moslashuv jarayonini qiyinlashtiradi, mehnatsevar odam esa, odatda, bir-birini o‘zaro tez tushunadi, yangi vaziyatga tez ko‘nikadi va shu bilan birga tez moslashadi.

Moslashuv jarayonining yana bir muhim tomoni, taklif qilinayotgan ijtimoiy rolni adekvat(o‘ziga mos) qabul qilish qobiliyatini aks ettiradigan ijtimoiylashuvdir. Qurolli Kuchlar safiga harbiy xizmat o‘tash uchun yoki shartnoma asosida harbiy xizmat o‘tash uchun kelgan odamning ijtimoiy roli ahamiyatli darajada o‘zgarishi sir emas. U Vatanining himoyachisiga aylanadi, bu esa unga aniq majburiyatlarni qo‘yadi, shu bilan birga aniq bir ijtimoiy rol o‘ynashni taqozo qiladi. Shaxs moslashuvi potensiali konsepsiyasi doirasida ijtimoiylashuv masalasining ikki jihati ko‘rib chiqiladi: ma’naviy-axloqiy me’yorlarni adekvat idrok qilish va bevosita ijtimoiy muhit talablariga bo‘lgan munosabat. Mehnat, harbiy, ijodiy va boshqa jamoalarning ko‘pchiligi ijobiy tashkil etilganligini izohlab o‘tish mumkin, ya’ni ular umuminsoniy axloq prinsiplari, umumiy qabul qilingan xulq-atvor asosida tashkil topadilar. Shuning uchun harbiy-kasbiy faoliyat sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashish uchun umumiy qabul qilingan ijtimoiy me’yorlarga bo‘lgan munosabatning xarakteri o‘ta muhim. Bunda odamning amaliy faoliyati nafaqat ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan me’yorlarga, balki bevosita uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit talablariga ham bog‘liq. Shuning uchun masalaning boshqa turi harbiy xizmatchining unga taklif etilayotgan ijtimoiy roli uning xohishlari namoyon bo‘lishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadigan cheklanishlarga harbiy xizmatchining munosabatini aks ettiradigan masaladir.

Shaxs moslashuvi potensiali konsepsiyasi doirasida ijtimoiylashuv masalasining ikki jihati ko‘rib chiqiladi: ma’naviy-axloqiy me’yorlarni adekvat idrok qilish va bevosita ijtimoiy muhit talablariga bo‘lgan munosabat. Mehnat, harbiy,

ijodiy va boshqa jamoalarning ko‘pchiligi ijobiy tashkil etilganligini izohlab o‘tish mumkin, ya’ni ular umuminsoniy axloq prinsiplari, umumiy qabul qilingan xulq-atvor asosida tashkil topadilar. Shuning uchun harbiy-kasbiy faoliyat sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashish uchun umumiy qabul qilingan ijtimoiy me’yorlarga bo‘lgan munosabatning xarakteri o‘ta muhim.

Shunday qilib, shaxsning moslashuv qobiliyatlari kasbiy faoliyat muvaffaqiyati uchun katta ahamiyatga ega. Aynan ular har xil odamlarning turli funksional holatlarga ega bo‘lishi omilini shart qilib qo‘yadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘озиев Э.G‘. Умумий психология.-Т.: “Университет”, 2002.

2. Асмолов А.Г. Психология личности. –М.: МГУ, 1990.

3. Военная психология. Учебник. /. А.Г. Маклаков. - Санк- Петербург: Питер, 2005. - 464 б.

4.Леонтьев А.Н. Деятелность. Сознание. Личность. –М. :
“Политиздат”, 1975.

HARBIY XIZMATCHILARDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ADAPTATSIYA MUAMMOSINI ILMIY TADQIQ ETISHNING DOLZARB MASALALARI

O‘razbayev Ne’mat Kamilovich
O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi kafedra boshlig‘i, tar.f.f.d. (PhD), podpolkovnik

Annotatsiya: Moslashish shunday hodisaki, bunda atrof-muhitdagi va faoliyatdagi yangi omillar, sharoitlar ta’sirida shaxs ruhiyatida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Askarning harbiy xizmat sharoitlariga moslashishi, harbiy jamoaga qo‘shilishi jarayoniga harbiy xizmatning hamma tomonlari ta’sir etadi.

Kalit so‘zlar: Moslashish, atrof-muhit, yangi omillar, sharoit, shaxs ruhiyati, harbiy xizmat, ta’sir.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 10-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 26 yilligi bayrami munosabati bilan o‘tkazilgan Xavfsizlik kengashining yig‘ilishida “Men harbiy xizmatchilarimizning jismonan va ruhiy tayyorgarligi bilan bog‘liq bir qator muammolarga e’tibor qaratmoqchiman. Nega deganda, jismoniy tayyorgarlik harbiy xizmatchilar uchun xizmat faoliyatida, harbiy karyerasida va umuman, turmush tarzida hal qiluvchi omillardan biri bo‘lishi zarur. Harbiy xizmatchilarning ruhiy jihatdan chidamli bo‘lishi haqida gapirganda, keyingi paytda dunyoning turli mintaqalarida sodir bo‘layotgan qurolli to‘qnashuvlarda ko‘zga tashlanayotgan bir holatga e’tiboringizni qaratmoqchiman. Ya’ni, jangovar harakatlar davomida shaxsiy tarkib o‘rtasidagi yo‘qotishlarning asosiy qismi kuchli ruhiy ta’sir va zarbalar bilan bog‘liq ekani ma’lum bo‘lmoqda. Bunday ruhiy jarohatlarni hatto tinch sharoitda ham davolash juda murakkab masaladir”[1], – deb ta’kidlab o’tgan edilar.

O‘zbekistonda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida harbiy psixologiya psixologik bilimlarning o‘z tizimi va tuzilishiga, o‘z predmeti, metodlari va vazifalariga ega bo‘lgan psixologiya fanining mustaqil tarmog‘i sifatida ajralib chiqdi. Jangchi shaxsi boshidanoq harbiy psixologiyaning muhim muammosi va predmeti bo‘lib kelgan. Shu bilan birga, armiyadagi ijtimoiy-psixologik hodisalarni o‘rganish ham xuddi shunday sinchkovlik bilan amalga oshirildi. Ular harbiy psixologlarning ham tadqiqot obyekti bo‘lgan. Psixologlar guruhlar tasnifini, harbiy xizmatchilar ommasidagi psixologik hodisalarni yaratishga, turli sharoitlarda harbiy xizmatchilarning turli jamoalarini boshqarish mexanizmi va usullarini ochib berishga muvaffaq bo‘ldilar.[2]

[1] *Mirziyoyev Sh.M.* Xavfsizlik kengashining yig‘ilishidagi ma’ruzasidan. www. gazeta.uz/10.01.2018.

[2] *Аббасов А.А.* Социально-психологические проблемы военной психологии и их возникновения. Академия Воруженных Сил Республики Узбекистан.

Moslashish shunday hodisaki, bunda atrof-muhitdagi va faoliyatdagi yangi omillar, sharoitlar ta’sirida shaxs ruhiyatida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Askarning harbiy xizmat sharoitlariga moslashishi, harbiy jamoaga qo‘shilishi jarayoniga harbiy xizmatning hamma tomonlari ta’sir etadi.

Ular quyidagilar:

askarlar ongiga milliy istiqlol g‘oyasini singdirish;

ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

harbiy va texnik bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni egallashlariga yordam berish (harbiy-texnik ko‘nikish);

ularda jang olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish (jangovar ko‘nikish);

muayyan bir harbiy jamoaga qo‘shilish, komandirlar, boshliqlar va lavozimi tenglar bilan o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish (ijtimoiy ko‘nikish).

Ijtimoiy muhit yaxshi bo‘lgan inoq jamoalarda harbiy mutaxassislikni egallash jarayonidagi qiyinchiliklar harbiy nizom qoidalari tez-tez buzib turiladigan bo‘linmalardagiga qaraganda 3-4 marta kam bo‘ladi. Kechagi o‘quvchi, talaba yoki ishchini fuqarolik hayotidan harbiy xizmat sharoitiga birdaniga o‘tkazish turli ko‘ngilsizliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun bu bosqich komandirlar nazorati ostida amalga oshiriladi. Yosh askardagi xarakter, qobiliyat va ko‘nikmalar bu davrning qanday o‘tishini belgilab beradi. Masalan, dilkash askar xizmatga xos bo‘lgan harbiy nizom talablarini va axloq me’yorlarini tezda o‘zlashtirib oladi. Bundaylar jamoa topshiriqlarini ham ishtiyoq bilan bajaradilar va boshqa safdoshlariga bajonidil yordam beradilar. Odatda, ular mustahkam axloqiy-irodaviy xususiyatga ega bo‘ladilar.

Xudbin askar esa unga komandirlarning nazariga tushishiga yordam beradigan va uni yuqori mavqega ko‘taradigan ishlar bilan shug‘ullanadi. U ko‘p ham ko‘zga tashlanavermaydigan, har vaqt komandirlar payqayvermaydigan “qora” ishlar bilan boshqalar qatori shug‘ullanishni yoqtirmaydi. Ko‘nikish jarayonida yangi kelgan askarlar dunyoqarashi, odatlari va umuman ruhiyatida qayta qurishlar yuz beradi.

Harbiy jamoadagi o‘zaro munosabatlarning tarkibi: xizmat doirasidagi, xizmatdan tashqari, shaxsiy.

Harbiy jamoadagi o‘zaro munosabat tamoyillari: yakkaboshchilik va qat’iy subbordinatsiya, insonparvarlik, jamoaviylik.

O‘zaro munosabatlarning rivojlanishida taqlid va musobaqaning o‘rni.

Muayyan bir bo‘linma harbiy xizmatchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar ushbu jamoa psixologiyasining muhim elementi hisoblanadi. Hamkorlikdagi hayot va faoliyat jarayonida jamoadagi kishilar o‘rtasida paydo bo‘ladigan har xil aloqa va muloqot shakllariga o‘zaro munosabatlar deyiladi[3].

[3] *Nasriddinov Ch.R.* Harbiy psixologiya. “Fan” nashriyoti, Toshkent, 2004-yil.

Moslashish muammosi zamonaviy psixologik tadqiqotlarning asosiy masalalaridan biridir. Hatto ta’rif darajasida ham, ijtimoiy-psixologik jihatdan moslashuvning rivojlanishi va yakuniy muvaffaqiyati uchun shaxs va uning yetakchi tarkibiy shakllanishining (ehtiyojlar, motivlar, ijtimoiy rollar va maqomga munosabat, o‘zini o‘zi anglash) ahamiyati ta’kidlangan[4].

Harbiy sohada faoliyat yuritadigan olimlarning ko‘plab ishlari moslashuv muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ular shaxs va harbiy guruhlarning shakllanishini, xizmatga moslashish xususiyatlarini, harbiy guruhlardagi ijtimoiy va psixologik jarayonlarni va ularni boshqarishni turli fanlar va fan sohalari nuqtai nazaridan tahlil qilishgan (G‘.Z.Ikmatullayev, Z.Sh.Almardonov, A.V.Bulgakov, E.D.Bogatiryov, I.V.Dmitriyeva, L.G.Yegorov, A.V.Ivanitskiy, M.V.Kibakin, V.N.Kovalyova, Y.V.Medvedev, A.I.Mishchenko, S.S.Mutsinova, V.L.Primakov, J.G.Senokosov, I.N.Solovyov, B.G.Shelest va boshqalar).

Moslashish muammosi shaxs faoliyatidagi muhim, fundamental o‘zgarishlar, uning ijtimoiy muhitidagi o‘zgarishlar bilan birga kechadigan sharoitda birinchi o‘ringa chiqadi. Shaxs tuzilmalari, inson hayotining muhim xususiyatlari bilan rivojlanayotgan munosabatlar va aloqalarning aksi sifatida, moslashish jarayonlarining rivojlanishi va samaradorligida yetakchi rol o‘ynaydi. B.S.Bratus tomonidan ishlab chiqilgan nazariy qarashlarga ko‘ra [5], shaxs shaxsning shakllanishi va o‘zini o‘zi rivojlantirish uchun noyob psixologik vositani ifodalaydi. Shunga asoslanib, shaxs inson hayoti davomida moslashish jarayonlarini osonlashtiradigan psixologik vosita sifatida ham harakat qilishi mumkin.

Mehnat sohasidagi o‘zgarishlarga ijtimoiy moslashuv muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Ko‘rinib turibdiki, aynan mehnat salohiyatidan foydalanishning ta’sirchan tizimini yaratish omili, birinchi navbatda, iqtisodiy o‘sish va odamlar farovonligini oshirish imkoniyatlarini belgilab beradi. Vaholanki, ijtimoiy-mehnat munosabatlari sohasida tashqaridan buyurilgan xulq-atvor normalari va modellarini amalga oshirishga emas, balki ichki, individual tanlovga asoslangan ijtimoiy tartibga solishning yangi usullarini shakllantirish juda og‘riqli va oson kechmaydi.

Bizning fikrimizcha, eng muhim va dolzarb masalalardan biri – bu harbiy faoliyatning turli omillari ta’sirida jangchi shaxsining ijtimoiy-psixologik moslashuvidir.

Yuqori darajada uyushgan, birlashgan harbiy jamoalarni shakllantirish faqat shaxsiy tarkibning harbiy-professional faoliyatining tabiati, ularning individual psixologik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hamda shaxsning ma’lum bir ijtimoiy

---

[4] Психология. Словарь / Под общ. ред. *А.В.Петровского, М.Г.Ярошевского.* М., 1990.

[5] *Братусь Б.С.* К проблеме человека в психологии // Вопр. психол. 1997. № 5. С. 3-19.

muhitga kirish qonuniyatlarini bilishi hisobga olingan holda amalga oshirilgandagina mumkin.

Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik moslashuvini kuchaytirishning amaliy zarurati harbiy psixologiya, pedagogika va sotsiologiyada ushbu muammoni ilmiy shakllantirishning moddiy asosi bo‘lib, harbiy muhitga kiruvchi turli ijtimoiy qatlamlardan bo‘lgan odamlar o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zaro ta’sirni optimallashtirish zarurati bilan ham bog‘liq.

Adabiy manbalarni o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, boshqa mamlakatlar armiyalari harbiy jamoani maxsus ijtimoiy muhit sifatida qabul qilib, faol ravishda psixologik va pedagogik tadqiqotlar olib bormoqda. Ushbu sohadagi ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning keng kontekstida biz harbiy xizmatchilarni ijtimoiylashtirishda jismoniy tayyorgarlikning omil sifatida yetarlicha rol o‘ynamasligini ko‘rmoqdamiz.

Ijtimoiy-psixologik moslashuv yosh askarlarning harbiy xizmatning dastlabki oylaridagi xatti-harakatlariga ta’sir qiluvchi keng ko‘lamli ijtimoiy va shaxsiy omillar bilan belgilanadi. Askarlarning psixologik xususiyatlari, bir tomondan, yangi askarlarda ajralmas konstruksiyani – shaxsiy adaptiv salohiyatni tashkil etuvchi ma’lum individual va shaxsiy xususiyatlarning rivojlanish darajasi bilan, ikkinchi tomondan, komandirlarning ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalari ta’siri bilan belgilanadi.

Yangi askarlarning harbiy sharoitlarga ijtimoiy va psixologik moslashuvi masalasi alohida modulda ko‘rib chiqiladi, chunki moslashmaslikning salbiy oqibatlari psixologik travma, psixoemotsional buzilishlar va deviant xulq-atvorni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, ko‘plab yangi askarlar harbiy muhitga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu esa ularning individual va shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish dasturini talab qiladi.

Ushbu qarama-qarshiliklarni hal qilish yangi chaqiriluvchilarning harbiy xizmatning dastlabki oylaridagi xulq-atvor xususiyatlarini prognoz qilish, moslasha olmaydigan askarlarni erta aniqlash va jamiyatimiz rivojlanishining o‘tish davrida harbiy xizmatchilarni o‘z vaqtida psixologik qo‘llab-quvvatlash uchun asos bo‘lishi mumkin.

Harbiy qismda moslashish jarayonini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar.

Harbiy qismda moslashish jarayonini tashkil etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

harbiy qismlarda sog‘lom axloqiy va psixologik muhitni shakllantirish;

barcha toifadagi komandirlar, harbiy yuristlar, tibbiy xizmat va harbiy psixologlar tomonidan amalga oshiriladigan harakatlarning birligini ta’minlash va faoliyatni muvofiqlashtirish;

muddatli harbiy xizmatni belgilangan rejaga, harbiy xizmatning kundalik tartibi va ichki qoidalariga muvofiq tashkil etish;

zarur rahbarlik uslubini va komandirlarning nizoli vaziyatlarni hal qilishda yangi askarlar bilan hamkorlik qilishga tayyorligini rivojlantirish;

barcha darajadagi komandirlarga psixologik bilimga bo‘lgan ehtiyojni va uni o‘z faoliyatida qo‘llash istagini shakllantirishga qaratilgan psixologik ta’lim berish;

bo‘linma komandirlarini chaqiriluvchilar va umuman barcha shaxsiy tarkibning individual-psixologik xususiyatlari, harbiy qismlardagi ijtimoiy-psixologik jarayonlar va hodisalar haqida xabardor qilish va ularning rivojlanishini prognoz qilish. Ushbu ma’lumotlar komandirlarga harbiy jamoaning har bir a’zosini yaxshiroq tushunish va bo‘linmalar ichida qulay ijtimoiy-psixologik muhit yaratish imkonini beradi[6].

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Harbiy nizomlarida bo‘linmalardagi jangovar tayyorgarlik va ichki intizomni mustahkamlash maqsadida ofitserlarning jamoa fikridan har tomonlama foydalanishlari zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, barcha talablar jamoa bo‘lib harakatlanishga, harbiy xizmatchilarning bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqlikda komandir va bo‘ysunuvchi, katta va kichik tushunchalari bilan bog‘lab qo‘yilgan. Shunday ekan, harbiy xizmatchilar bir-birlari bilan o‘zaro bog‘langan va bu ularni jamoa bo‘lib harakat qilishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. *Mirziyoyev Sh.M.* Xavfsizlik kengashining yig‘ilishidagi ma’ruzasidan. www. gazeta.uz/10.01.2018.

2. *Аббасов А.А.* Социально-психологические проблемы военной психологии и их возникновения. Академия Воруженных Сил Республики Узбекистан.

3. *Nasriddinov Ch.R.* Harbiy psixologiya. “Fan” nashriyoti, Toshkent, 2004-yil.

4. Психология. Словарь / Под общ. ред. *А.В.Петровского, М.Г.Ярошевского.* М., 1990.

5. *Братусь Б.С.* К проблеме человека в психологии // Вопр. психол. 1997. № 5. С. 3-19.

[6] *Дзык Илона*. Социально-психологическая адаптация новобранцев к армейским условиям. Диссертация на соискание ученой степени доктора психологии. Кишинев, 2023.

HARBIY XIZMAT FAOLIYATIDAGI PSIXOLOGIK ADAPTATSIYA BOSQICHLARINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI

Ikmatullayev G‘ayrat Zokirovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi boshlig‘ining o‘rinbosari, ped.f.b.f.d (PhD), dotsent

Annotatsiya: Zamonaviy harbiy xizmat faoliyatining o‘ziga xosligi psixologik stress darajasining keskin oshishi, texnologik o‘zgarishlarning yuqori sur’ati va jangovar vaziyatlarning noaniqligi bilan belgilanadi. Bunday murakkab sharoitlarda harbiy xizmatchining psixologik barqarorligi va samarali adaptatsiyasi nafaqat shaxsiy samaradorlikni, balki butun harbiy tuzilmaning jangovar qobiliyatini belgilovchi asosiy omil bo‘lib hisoblanadi. Maqolada yoshlarining harbiy xizmatga psixologik tayyorgarligi va adaptivlik tuzilmasining intellektual, motivatsion, xulq-atvoriy hamda emotsional-irodaviy komponentlari tahlil qilinadi. Adaptivlik va kommunikativ kompetentlikning strukturaviy elementlari o‘rtasidagi o‘xshashliklar aniqlanib, ularning o‘zaro bog‘liqligi ilmiy asosda asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: adaptatsiya, moslashuv, kasbiy yonish, harbiy tuzilma, jangovor vaziyat, psixologik stress, dezadaptatsiya, harbiy ta’lim.

Harbiy psixologiyada adaptatsiya jarayonining qonuniyatlari, psixologik mexanizmlari va tipologiyasi, turli toifadagi harbiy xizmatchilarda uning namoyon bo‘lish xususiyatlari Aldasheva A.A., Yablonko V.Ya., Jmyrikova A.N., Senokosova Zh.G., Kamyshev A.A., Popkov V.V., Solovyev I.V., Bulgakov A.V., Chayka V.G. tomonidan tadqiq etilgan. O‘quvchilarda harbiy-kasbiy yo‘nalganlikni shakllantirish, ularning Qurolli Kuchlarda xizmatga psixologik tayyorgarligi masalalari Aleshkin V.V. va Loskutov V.N. tomonidan o‘rganilgan.

Harbiy xizmatchilarning adaptatsiya mohiyatini tahlil qilar ekan, ushbu mualliflar mazkur jarayonning mazmuni ehtiyoj-motivatsion sohaning qayta qurilishi, mavjud ko‘nikmalar, malakalar va odatlarning o‘zgarishi, yangi ijtimoiy rollarni egallash, jamoada yangi maqomga erishish va boshqalar bilan bog‘liq ekanini ta’kidlaydilar. Harbiy psixologlar qarashlarini umumlashtirish natijasida harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik moslashganligini tavsiflovchi obyektiv va subyektiv mezonlarni ajratish mumkin. Obyektiv mezonlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) o‘quv adaptatsiyalanganlik o‘quv-kasbiy faoliyatning samaradorligi va muvaffaqiyati;

b) xizmat-intizomiy adaptatsiyalanganlik xizmat vazifalarining muvaffaqiyatli bajarilishi, ustavlar, qo‘mondonlar va rahbarlar buyruqlarining bajarilishi;

v) mikrosotsial adaptatsiyalanganlik jamoada obro‘ga ega bo‘lish, o‘zini namoyon qilish natijasida yuqori mavqe, hamkasblar bilan ziddiyatlarning yo‘qligi.

Subyektiv mezonlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) harbiy xizmatchining o‘z kasbiy va jamoa ichidagi maqomidan qoniqishi, harbiy kasb va mutaxassislikka qiziqishning saqlanishi, kasbiy qiziqishlarning rivojlanishi motivatsion adaptatsiyalanganlik;

b) jamoa ichidagi munosabatlarga ijobiy-konstruktiv munosabat, atrofdagilarga nisbatan tajovuzkor-konfliktli yoki passiv-bo‘ysunuvchan munosabatning yo‘qligi;

v) shaxsning adekvat va yetarlicha yuqori o‘zini baholashi, ichki ziddiyatlar, emotsional holdan toyish va hokazolardan xoli bo‘lgan ijobiy “Men-obraz”i (“Men-kontsepsiyasi”).

Harbiy psixologiyada umumqabul qilingan nuqtai nazarga ko‘ra, adaptatsiya potensiali insonning moslashuv imkoniyatlarini belgilaydi va harbiy xizmatchi shaxsining integral ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bu fikr shaxs tuzilmasida atrof-muhitning o‘zgargan sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashuvni ta’minlaydigan hamda ushbu jarayonning konstruktiv rivojlanishining asosiy determinantini tashkil etadigan qobiliyatlar mavjudligini tan olishga asoslanadi. Uning asosiy tarkibiy qismlari nerv-psixik barqarorlik, kommunikativ qobiliyatlar, xulq-atvorni boshqarish va axloqiy me’yorlarga amal qilishdir. Kommunikativ qobiliyatlarning harbiy xizmatga muvaffaqiyatli moslashuv omillaridan biri sifatida ajratilishi harbiy xizmatchilarning kommunikativ kompetentligini o‘rganishning nazariy va empirik jihatdan dolzarbligini tasdiqlaydi.

A.G.Maklakov tadqiqotida harbiy xizmatchilarning kasbiy salomatligini saqlashning shaxsiy adaptatsion potensialga bog‘liqligi hamda ushbu potensialning eng ko‘p safarbar etilishini talab qiladigan vaziyatlar (masalan, harbiy xizmat sharoitlariga birlamchi moslashuv) tahlil qilingan. Shaxsiy adaptatsion potensial muallif tomonidan shaxsning psixik rivojlanishining integrallashgan xususiyati sifatida talqin etiladi. Ushbu xususiyat harbiy-kasbiy adaptatsiyaning samaradorligini va harbiy xizmatchilarning kasbiy salomatligini saqlab qolish ehtimolini belgilaydi.

A.G. Maklakovning fikricha, shaxsiy adaptiv potensialning ruhiy salomatlikni saqlash nuqtayi nazaridan eng muhim ko‘rsatkichlari quyidagilardir: nerv-psixik barqarorlik darajasi, shaxsning o‘zini baholashi, uning konfliktlik darajasi, mavjud axloqiy me’yorlar va jamoa talablariga yo‘naltirilganlik, shuningdek, muloqot muhiti va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning mavjudligi.

Shu munosabat bilan muallif harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatini tibbiy-psixologik ta’minlashning asosiy yo‘nalishlarini quyidagicha belgilaydi: sog‘liqni

psixologik prognozlash va shaxsiy potensiali yetarlicha rivojlanmagan shaxslarni aniqlash; harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatini tibbiy-psixologik kuzatish va psixologik korreksiya; ekstremal sharoitlar psixik omillarining ta’sirini boshdan kechirgan shaxslarni tibbiy-psixologik reabilitatsiya qilish.

V.N.Loskutov tadqiqotida o‘rta maktab o‘quvchilarida Qurolli Kuchlarda xizmat qilishga psixologik tayyorgarlikni oldindan shakllantirishning muhimligi va zarurligi ta’kidlanadi. Psixologik tayyorgarlik muallif tomonidan murakkab, tizimli, shaxsning funksional yangicha tuzilmasi sifatida talqin etiladi. U yosh harbiy xizmatchilarning harbiy xizmat sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashuvi, harbiy jamoalarga tez kirib borishi va harbiy mutaxassislikni egallashdagi muvaffaqiyatini belgilovchi omil hisoblanadi. Ushbu tuzilma quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: ijtimoiy-dunyoqarash (ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar yo‘nalishi); ma’naviy-siyosiy tuyg‘ular; zarur va yetarli tajriba, bilim, ko‘nikma, malaka va odatlar (tegishli faoliyat kontekstida), shuningdek, xarakterologik sifatlar.

Aytish lozimki, “adaptivlik” tushunchasi fiziologiyadan olingan bo‘lib, tashqi muhitning real yoki prognoz qilinayotgan o‘zgarishlari va talablariga mos ravishda xulq-atvorning ma’lum darajadagi o‘zgaruvchanligi va plastiklik darajasini nazarda tutadi. Shu nuqtayi nazardan, shaxsning adaptivlik potensiali (adaptivlik) unda mavjud bo‘lgan, zaruriy xulq-atvor plastiklik va maqsadga muvofiqlikni ta’minlaydigan sifatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu sifatlar kelajakda harbiy xizmatchi duch kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlar talablariga mos kelishi zarur.

Shu asosda, yigitlarning harbiy xizmatga psixologik adaptivligi shaxsning integrativ xususiyati (adaptiv potensial) sifatida qaralishi mumkin. U o‘zgarayotgan vaziyat va harbiy-ijtimoiy muhit talablari sharoitida psixik regulyatsiyaning darajasi va xarakterining variativ o‘zgarishini, shuningdek, vojib istiqbolli baholash asosida yangi harbiy-kasbiy muhitga kirib borish dinamikasining modulyatsiyasini nazarda tutadi. Bu esa yigitning boshqa subyektlar bilan ortiqcha nerv-psixik zo‘riqish va ichki ziddiyatlarsiz samarali o‘zaro ta’sirini ta’minlaydi. Psixologik adaptivlikning tarkibiy tuzilmasi quyidagi komponentlardan iborat: intellektual, xulq-atvoriy, emotsional-irodaviy va motivatsion. Ushbu komponentlarning yig‘indisi konkret-situativ sharoitda “shaxs harbiy-ijtimoiy muhit talablari” qarama-qarshiligini bartaraf etishga imkon beradi.

Komponentlarning funksiyalari quyidagicha:

- motivatsion komponent shaxsning aktual ehtiyojlarini qondirish va ichki ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan adaptatsion strategiyalarni baholash va tanlash;

- intellektual komponent vaziyat, harbiy-ijtimoiy muhit talablari va shaxsiy psixik resursning adekvatligini ehtimollik asosida baholash hamda eng maqbul adaptiv harakatni tanlash;
- xulq-atvoriy komponent kommunikativ kontaktni o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash, o‘quv va kasbiy o‘zaro ta’sirni amalga oshirish, ijtimoiy normalarni o‘zlashtirish hamda adaptatsion harakat natijalarini baholashda referent guruh bilan muloqot qilish;
- emotsional-irodaviy komponent organizmning haddan tashqari zo‘riqishini va shaxsiy resurslarning ortiqcha sarfini istisno qilgan holda xulq-atvor va emotsional holatlarni boshqarishni ta’minlash.

Adaptivlik komponentlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ular kommunikativ kompetentlik tuzilmasi bilan ma’lum darajada o‘xshashdir. Masalan, V.I. Kashnitskiy tomonidan ajratilgan kommunikativ kompetentlikning operatsion komponenti muloqot jarayonini boshqarish, muloqot bo‘yicha hamkorlarga samarali ta’sir ko‘rsatish, muloqot jarayonida optimal o‘zini boshqarish adaptivlikning xulq-atvoriy komponenti bilan mos tushadi. Mazmuniy komponent muloqot qonuniyatlari, ijtimoiy persepsiya mexanizmlarini bilish intellektual komponentda o‘z aksini topadi. Bazaviy komponentdagi muloqotga oid qadriyatlar, motivlar va yo‘nalishlar esa adaptivlikning motivatsion komponentini shakllantirish uchun asos bo‘la oladi.

Shunday qilib, kommunikativ kompetentlik va adaptivlikning strukturaviy komponentlarini taqqoslash mazkur psixologik fenomenlarning o‘xshashligini aniqlashga imkon beradi. Ushbu tahlil tadqiqotchiga mazkur fenomenlarni chuqur va tizimli o‘rganish imkonini ochadi. Psixologik adaptivlik, unga kiruvchi sifat va xususiyatlarning individual kombinatsiyasiga ko‘ra, shaxsning frustratsion tolerantligi (ya’ni zo‘riqish darajasi chegarasi)ni belgilaydi. Ushbu chegara oshib ketganda, harbiy xizmat sharoitlariga moslashuv jarayonida yigitning psixikasiga va xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu esa moslashuv jarayonining konstruktiv yoki destruktiv variantlari shakllanishiga olib keladi.

Nazariy tahlilning dolzarbligi quyidagilar bilan asoslanadi: Birinchidan, harbiy xizmatchilarning dezadaptatsiya holatlari (posttravmatik stress buzilishlari, kasbiy emotsional “yonish” sindromi, o‘ziga zarar yetkazish xavfi)ning global miqyosda o‘sishi adaptatsiya jarayonlarining bosqichli mexanizmlarini chuqurroq anglashni talab qilmoqda. Ikkinchidan, mavjud adaptatsiya modellari asosan statik tavsifga ega bo‘lib, ular shaxsning xizmat davomida kechadigan dinamik o‘zgarishlarini yetarli darajada hisobga olmaydi. Shu sababli, adaptatsiyaning har bir bosqichiga xos bo‘lgan psixologik-funksional o‘zgarishlarning ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash va ularni tizimli yondoshuv nuqtai nazaridan tasniflash muhim ilmiy-amaliy vazifadir. Uchinchidan, psixologik adaptatsiyaning kritik nuqtalarini (o‘tish bosqichlarini) ilmiy

asoslash harbiy ta’lim, tanlov va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini proaktiv boshqarish uchun metodologik asos yaratadi. Bu esa harbiy xizmatchilarning psixologik rezistentligini maqsadli shakllantirish va individual adaptatsiya trayektoriyalarini optimallashtirish imkonini beradi. To‘rtinchidan, tadqiqot natijalari harbiy psixologiya fanining nazariy-metodologik bazasini kengaytirishga, adaptatsiya jarayonini izohlovchi evristik modellarini yaratishga xizmat qiladi. Shu sababli, harbiy xizmatdagi psixologik adaptatsiyaning bosqichlarini fundamental darajada tahlil qilish harbiy xavfsizlik manfaatlari nuqtai nazaridan ham, harbiy psixologiya fanining rivojlanishi nuqtai nazaridan ham o‘ta dolzarb hisoblanadi. Harbiy xizmat faoliyatidagi psixologik adaptatsiya bosqichlarining ilmiy-nazariy tahlili ushbu murakkab tizimni tushunish uchun fundamental ahamiyatga ega. Adaptatsiyani faqatgina passiv moslashish deb qaramaslik kerak, balki bu shaxsning dinamik faoliyati natijasi sifatida, uning ichki psixologik tuzilmalari bilan harbiy muhitning ekstremal talablari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonidir.

Adaptatsiya jarayonlarining ilmiy-psixologik asoslari, kasbiy faoliyatga moslashuv yuzasidan o‘tkazilgan va e’lon qilingan tadqiqotlar, shuningdek harbiy sohaning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, harbiy xizmat faoliyatidagi psixologik adaptatsiyani quyidagi bosqichlarga bo‘lish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Ilk stressli bosqich (1-2 oy): Bu – “kursant” yoki “askar”lik davri, fiziologik va psixologik shok holati. Yangi qoidalar, avtoritetga bo‘ysunish, shaxsiy erkinlikning cheklanishi – bularning barchasi kuchli stress keltirib chiqaradi. Gans Selye tomonidan taklif etilgan umumiy adaptatsiya sindromi g‘oyasida bu davr “trevoga” (xavotir) bosqichi sifatida yoritilgan.

Harbiy xizmat tartib-qoidalari va intizomga moslashish (1-3 oy): Asta-sekinlik bilan inson muhit talablarini qabul qiladi va ularga javob berishga o‘rganadi. Ijro etuvchilik, mas’uliyat va tartib ko‘nikmalari shakllanadi.

Ijtimoiy qobiqni yengib o‘tish (3-6 oy): Bu – guruhga integratsiya, ya’ni shaxsiy “men”ni jamoaviy “biz”ga bo‘ysundirish jarayoni deb ta’riflanishi maqsadga muvofiq. Jamoaviylik, o‘zaro yordam muhim ahamiyat kasb etadi, chunki moslashishda eng katta ko‘mak manbai aynan safdoshlar hisoblanadi.

Kasbga psixologik moslashuv (3 oydan 1 yilgacha): Bu – professionallashuv, armiyadagi xizmat faoliyatini, qurol-aslaha va texnikani o‘zlashtirish, stressdan keyingi davrda harbiy xizmatchi diqqatini bajarayotgan vazifasiga qarata boshlaydi.

Psixoemotsional holatning barqarorlashishi (6 oydan 1 yilgacha): Adaptatsiya sindromining “rezistentlik” (chidamlilik) bosqichi. Emotsional reaksiyalar tizimli, oldindan aytish mumkin bo‘lgan va xizmat talablariga mos tushadigan holatga keladi.

Uy sharoitidagi sog‘inch va norozilik hislari o‘rnini vazifani bajarishga intilish egallaydi.

To‘liq moslashuv (1 yildan bir necha yilgacha): Harbiy xizmat tartib-qoidalari, madaniyati, qadriyatlari va umumiy foniga to‘liq qabul qilinadi. Shaxs o‘zini harbiy xizmatning bir bo‘lagi sifatida his qiladi. Bu, ayniqsa, uzoq muddatli kontrakt asosidagi harbiy xizmatchilar uchun xarakterli. Maqolada ilgari surilgan bosqichlar, adaptatsiya jarayoni bir marotabalik hodisa emas, balki oldindan aytish mumkin bo‘lgan, izchil va o‘zgarishga yo‘naltirilgan tizimli jarayon ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu bosqichlarga ajratish harbiy psixologiya uchun amaliy ahamiyatga ega. Har bir bosqichning muddatini va asosiy mazmunini aniqlash, harbiy xizmatchilarga psixologik yordam ko‘rsatish dasturlarini individual va maqsadli ishlab chiqishga imkon beradi (masalan, ilk stressli bosqichda faol dam olishni, ijtimoiy moslashuv bosqichida jamoaviy mashg'ulotlarni kuchaytirish). Taklif etilgan adaptatsiya modeli psixologik yordamni faqatgina inqiroz paytida emas, balki profilaktik va rivojlantiruvchi yondashuv asosida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Психология адаптации личности. Анализ. Теория. Практика / А. А. Реан, А. Р. Кудашев, А. А. Баранов. - СПб.: ПРАЙМ-ЕВРОЗНАК, 2006 - 479, [1] с. - (Психология - лучшее). ISBN 5-93878-211-2

2. Маклаков А.Г. Профессиональный психологический отбор персонала. Теория и практика: Учебник для вузов.

3. Березин Ф. Б. Психическая и психофизическая адаптация. Л.: Наука, 1998.

4. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. М.: Издательская группа «Прогресс», 1996.

5. Баевский Р.М. К проблеме оценки степени напряжения регуляторных систем организма // Адаптация и проблемы общей патологии. Новосибирск, 1974. С. 88 - 111.

6. Селье Г. На уровне целого организма. М.: Наука, 1972. 122 с.; Селье Г. Стресс без дистресса. М.: Прогресс, 1979. 109 с.

7. Фрейд З. Психология бессознательного. М.: Просвещение, 1989.

8. Хартманн Х. Эго-психология и проблема адаптации. М.: Изд-во Институт общегуманитарных исследований, 2002.

9. Пляскина Т.В. Клинико-диагностические характеристики психических нарушений у военнослужащих срочной службы по призыву в практике военно-врачебной экспертизы внутренних войск Министерства внутренних дел Российской Федерации.: Дисс. канд. мед. Наук. Москва, 2007. 220 с.

HARBIY XIZMATCHILAR ADAPTATSIYA JARAYONINING MUHIM JIHATLARI

Alimardonov Zoxid Shukurillayevich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi boshlig‘i

Harbiy xizmat faoliyatining murakkabligi va harbiy xizmatchilar oldiga qo‘yiladigan talablarning yuqoriligi ular faoliyatida ham adaptatsiya jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, “Bugungi globallashuv va keskin raqobat davri, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojaro va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda”[1].

Ma’lumki, adaptatsiya (lot. adapto – moslashaman) – organizmning o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish jarayonidir [2]. “Adaptatsiya” tushunchasi ijtimoiy fanlarga biologiyadan kirib kelgan bo‘lib, unga hayvonot va o‘simlik dunyosining turli xil o‘zgaruvchan atrof-muhit sharoitlariga biologik moslashtirish mexanizmi sifatida qaraladi [3].

Harbiy xizmatchilar adaptatsiya jarayoni va axloqiy-ruhiy tayyorgarligi o‘zaro aloqadorligi bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarida harbiy xizmatchilar adaptatsiya jarayonida duch keladigan asosiy qiyinchiliklar quyidagilardan iborat deb ko‘rsatiladi:

1. Fuqarolik hayotidan harbiy xizmatga o‘tish jarayonida yuzaga keladigan psixologik to‘siqlarni yengib o‘tish;
2. O‘z xizmat majburiyatlarini bajarishda o‘z harakatlariga ishonchsizlik;
3. Komandirlar va boshliqlar, safdoshlar bilan o‘zaro munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga ishonchsizlik;
4. Boshliqlar va tajribali tomonidan e’tibor va yordamning yetarli darajada emasligi;
5. O‘z ishini tashkillashtirish va rejalashtirish qobiliyatining mavjud emasligi;
6. Xizmat yuklamalarining yuqoriligi, bo‘linmalar bajarayotgan vazifalar bo‘yicha harbiy mutaxassislik bilimlarning yetarli emasligi;
7. Moddiy va maishiy yetishmovchiliklar [4].

Muallif A.Ya.Fomin tomonidan sanab o‘tilgan yuqoridagi qiyinchiliklar asosan psixologik mazmun va ahamiyatga egligini inobatga olib, bizningcha, ushbu ro‘yxatni tabiiy-geografik iqlimga moslashish bilan bog‘liq qiyinchiliklar bilan ham to‘ldirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, A.Ya.Fomin tomonidan sanab o‘tilgan qiyinchiliklarning to‘rtinchisi – komandirlar va boshliqlar, safdoshlar bilan o‘zaro

munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga ishonchsizlik masalasi muallifning o‘z davlati Qurolli kuchlaridagi kuzatuvlariga asoslangan. Bizda esa, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni darajasida mazkur masalada muammo yuzaga kelmasligiga e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4447-son “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarorida “Ishlar tajribasi vorisiyligini ta’minlash, yosh harbiy xizmatchilarning harbiy xizmatga moslashuvi, kasbiy shakllanish va yuklatilgan xizmat vazifalarini mustaqil bajarish qobiliyatini rivojlantirish jarayoni tezlashishini ta’minlash maqsadida harbiy xizmatchilarga yuqori darajali kasbiy sifatlarga ega bo‘lgan, tayyorgarligi eng yaxshi harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar faxriylari orasidan murabbiylar biriktiriladi” [5] deb, belgilab qo‘yilgan.

Xizmatni yangi boshlagan harbiy xizmatchilarga yuqori darajali kasbiy sifatlarga ega bo‘lgan harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar faxriylari orasidan murabbiylar biriktirilishi adapatsiya jarayonining muvaffaqiyati garovidir.

Bizningcha, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik jarayonida harbiy xizmatchilarning adaptatsiya muammolarini samarali hal etish uchun quyidagilarga e’tibor qaratish zarur:

1. Qo‘shin turi va xizmatning o‘ziga xususiyatlari;
2. Harbiy xizmatchilar toifasi;
3. Harbiy xizmatchilar yoshi;
4. Harbiy xizmat o‘tayotgan o‘tayotgan hududning tabiiy-geografik iqlimi.

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik jarayonida kontrakt asosidagi harbiy xizmatchilarning adaptatsiya jarayonini pedagogik qo‘llab-quvvatlash lozim. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad – barcha talablarga javob bera oladigan professional harbiy xizmatchini shakllantirish hisoblanadi.

Kontrakt asosida harbiy xizmatga chaqirilgan harbiy xizmatchilarni ijtimoiy-professional adaptatsiyasini pedagogik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tadqiqot olib borgan olim A.Ya.Fomin mazkur maqsaddan kelib chiqib, komandirlar oldiga muddatli harbiy xizmatchilarni kontrakt asosidagi serjant va oddiy askarlar tarkibiga o‘tkazishda quyidagi vazifalar qo‘yilishini ta’kidlaydi:

1. Kontrakt asosida harbiy xizmatga tanlov sifatini oshirish, ularning ijtimoiy-professional adaptatsiya jarayonini boshqarishni takomillashtirish;
2. Kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchining professional potensialini aniqlash va riojlantirish hamda ularning qobiliyatlarini professional faoliyatda yuzaga chiqarish;
3. Professional sifatlarni, malakani, mas’uliyatni, har qanday qiyin vaziyatda harakat qilish qobiliyatini, harbiy kasbga bo‘lgan muhabbatni, o‘z ishiga va Vataniga

sadoqatni, an’analarga jangovar bayroqqa, qasamyodiga sodiqlikni, o‘zining, komandirlar va safdoshlarining imkoniyatlariga ishonchni singdirish va boshqalar [4].

A.Ya.Fomin qayd etilgan vazifalar hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmaganligini alohida ta’kidlash lozim. Chunki, kontrakt asosidagi harbiy xizmatchilarning harbiy-professional tanlovi tizimini takomillashtirish masalasi haligacha hech bir qo‘shin turida to‘la to‘kis hal etilgan yoki ideal darajada ishlaydi, deb bo‘lmaydi. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar va yechimini kutayotgan muammolar ko‘pligi mutaxassislarga ma’lum.

Xulosa sifatida ta’kidlash lozimki, bugungi davrda Qurolli Kuchlar oldiga qo‘yilayotgan vazifalarning murakkablashuvi o‘z navbatida, harbiy xizmatchilar oldiga yuqori talablarni qo‘yadi. Ushbu jarayon harbiy xizmatchilar adaptatsiyasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi.

Harbiy xizmatchilar adaptatsiyani ta’minlash axloqiy-ruhiy tayyorgarlikning muhim omili sifatida baholanadi va harbiy xizmatchilar adaptatsiyasi samaradorligini ta’minlash uchun qo‘shin turi va xizmatning o‘ziga xususiyatlari, harbiy xizmatchilar toifasi va yoshi, harbiy xizmat o‘tayotgan hududning tabiiy-geografik iqlimi kabi jihatlarni inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, yuqori darajada adaptatsiyaga ega bo‘lgan harbiy xizmatchi ham o‘zining lavozim xizmat majburiyatlarini muvaffaqiyatli bajaradi.

Bo‘linmalarda harbiy xizmatchilar axloqiy-ruhiy tayyorgarligi mobaynida adaptatsiya jarayoni samaradorligiga erishish uchun quyidagi tavsiyalarga e’tibor qaratish zarur, deb hisoblaymiz:

birinchidan, komandirlar va boshliqlarning harbiy xizmatchilar adaptatsiya jarayonining o‘ziga xos jihatlari bo‘yicha bilim va metodik mahoratlarini uzluksiz ravishda oshirib borish lozim;

ikkinchidan, xizmatga yangi chaqirilgan harbiy xizmatchilar bilan uzoq yillar samarali xizmat qilgan tajribali harbiy xizmatchilar ishtirokida jangovar askariy birodarlik tushunchalari mazmuni va yosh harbiy xizmatchilarning adaptatsiyasiga ko‘mak berish yuzasidan uchrashuvlar tashkil etib borish;

uchinchidan, xizmatga yangi kelgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik portretini yaratishda ishonchli usullarga tayanish kerak. Bu borada psixologik ishlarning asosiy uslublari sifatida ko‘rsatib o‘tilgan kuzatish, suhbat, so‘rov, psixologik test, eksperiment, sotsiometriya uslublaridan samarali foydalanish zarur;

to‘rtinchidan, xizmatga yangi kelgan harbiy xizmatchilarning adaptatsiyasiga ko‘maklashuvchi yon daftarchalari tayyorlash va ularga tarqatish, xizmatga kelgan birinchi kundanoq harbiy qismga ekskursiyasini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega;

beshinchidan, tegishli toifa komandirlari tomonidan xizmatga yangi kelgan harbiy xizmatchilar bilan individual suhbatlar o‘tkazib borish zarur hisoblanadi;

oltinchidan, yosh harbiy xizmatchilarda sog‘inch hissini kamaytirish maqsadida ularga yotoqxonalarda ota-onasi va yaqinlari rasmlarini joylashtirishlari uchun sharoit yaratib berish kerak;

yettinchidan, xizmatga yangi kelgan harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy holatini uzluksiz ravishda o‘rganib borish hamda natijalari yuzasidan kechiktirmasdan zaruriy choralar qo‘llash muhim ahamiyatga ega;

sakkizinchidan, harbiy xizmatchilarning adaptatsiya jarayonining yakunlangan kunini harbiy qism qadriyatiga aylantirish va bayram sifatida nishonlab borish yaxshi natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 30 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi. https://president.uz/uz/lists/view/4916 (2022 yil 23-oktabr soat: 22.30 holatiga murojaat qilingan).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori, 12.09.2019 yildagi PQ-4447-son/ https://lex.uz/ru/docs/4513434.

3. https://www.psychologies.ru/glossary/01/adaptatsiya/ (дата обращения: 23.10.2022).

4. Андреева Д.А. О понятии адаптации. Исследование адаптации студентов к условиям учебы в Вузе//Человек и общество: Проблемы интеллектуального и культурного развития студенчества. - Л.: ЛГУ 2005. 321с. 115 с.

5. Фомин А.Я. Педагогическое сопровождение социально-профессиональной адаптации военнослужащих, призванных на военную службу по контракту // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Ярославль, 2007. 12 с. (С.20)

5.

HARBIY XIZMATCHILARDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ADAPTATSIYA VA RUHIY SALOMATLIKNI MUSTAHKAMLASHNING DOLZARB YO‘NALISHLARI

Maxmudov Rozmet Muratovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi universiteti
Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi professori,
pedagogika fanlari doktori, professor
tel: +998 99 821 66 95

Annotatsiya: harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi va ruhiy salomatligini mustahkamlash sohasidagi dolzarb yo‘nalishlar harbiy xizmatning og‘ir sharoitlarida yuzaga keladigan ruhiy bosimlar, travmalar va ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi, bunda chidamlilikni oshirish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirish hamda raqamli texnologiyalarga asoslangan interventsiyalar asosiy o‘rin tutadi. Ushbu yo‘nalishlar harbiy xizmatchilarda posttravmatik stress buzilishi, depressiya va tashvish kabi ruhiy muammolarning oldini olishda samarali ekanligini ko‘rsatib, ularning harbiy va fuqarolik hayotiga moslashuvini ta’minlashga xizmat qiladi, shuningdek, oilaviy munosabatlar va jamiyatdagi reintegratsiyani yaxshilashga ko‘maklashadi. Mazkur yo‘nalishlarning ilmiy asoslangan tatbiqi harbiy xizmatchilarning umumiy salomatligini mustahkamlash va ularning jangovar tayyorgarligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: harbiy xizmatchilar, ijtimoiy-psixologik adaptatsiya, ruhiy salomatlik, chidamlilikni oshirish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, posttravmatik stress, psixologik moslashuv, jangovar tayyorgarlik.

Zamonaviy harbiy xizmat sharoitlari, jumladan, uzoq muddatli safarlar, jangovar vaziyatlar va doimiy stress omillari harbiy xizmatchilarda ijtimoiy-psixologik adaptatsiya jarayonini murakkablashtirib, ruhiy salomatlik muammolarini keltirib chiqaradi. Bunday muammolar orasida posttravmatik stress buzilishi, depressiya va tashvish holatlari eng keng tarqalgan bo‘lib, ular harbiy xizmatchilarning shaxsiy hayoti va kasbiy faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, harbiy xizmatchilarning ruhiy salomatligini mustahkamlashga qaratilgan dolzarb yo‘nalishlar xalqaro tadqiqotlarda keng o‘rganilib, ularda chidamlilikni oshirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarining roli ta’kidlanmoqda. Mazkur yo‘nalishlar harbiy xizmatchilarni nafaqat jangovar vazifalarga, balki fuqarolik hayotiga qaytish jarayoniga ham tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Harbiy xizmatchilarda ruhiy salomatlikni saqlash va adaptatsiyani yaxshilash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarning rivojlanishi jamiyatning umumiy xavfsizligiga hissa qo‘shadi. Ushbu masalalar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar harbiy

xizmatning psixologik oqibatlarini kamaytirishga yordam beradi va yangi interventsiyalarni ishlab chiqishga asos yaratadi[7].

Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi jarayoni harbiy xizmatning bosqichlariga bog‘liq bo‘lib, yangi harbiy muhitga moslashishdan tortib, xizmatdan chiqqandan keyingi reintegratsiyagacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Bunda, chidamlilik darajasi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning mavjudligi adaptatsiya muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi, chunki ular harbiy xizmatchilarda stressga chidamlilikni oshiradi. Xalqaro tajribada, masalan, COVID-19 pandemiyasi davrida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, chidamlilikni mustahkamlash harbiy xizmatchilarning ruhiy salomatligini saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu jarayonda moslashuv uslublari va tartibga solish fokusining ta’siri katta bo‘lib, ular harbiy xizmatchilarda ruhiy muammolarni kamaytirishga yordam beradi. Shu sababli, harbiy xizmatchilar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish zarur, bu dasturlar oila a’zolarini ham qamrab olishi kerak. Ijtimoiy-psixologik adaptatsiya yo‘nalishlari harbiy xizmatchilarning umumiy salomatligini yaxshilash va ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi[8].

Ruhiy salomatlikni mustahkamlashning dolzarb yo‘nalishlari harbiy xizmatchilarda yuzaga keladigan psixologik muammolarni oldini olish va davolashga qaratilgan bo‘lib, bunda raqamli texnologiyalar va multimodal interventsiyalar keng qo‘llanilmoqda. Bunday yo‘nalishlar harbiy xizmatchilarning ruhiy holatini monitoring qilish va individual yondashuvni ta’minlash imkonini beradi, bu esa ularning adaptatsiyasini tezlashtiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmatchilar uchun maxsus ishlab chiqilgan mobil ilovalar va onlayn dasturlar ruhiy salomatlikni yaxshilashda samarali ekan. Shu bilan birga, oilaviy qo‘llab-quvvatlash va guruhli terapiyalar harbiy xizmatchilarning reintegratsiyasini osonlashtirib, ularning ijtimoiy moslashuvini ta’minlaydi. Mazkur yo‘nalishlarning rivojlanishi harbiy xizmatning psixologik oqibatlarini kamaytirishga yordam beradi va yangi tadqiqotlar uchun asos yaratadi. Harbiy xizmatchilarning ruhiy salomatligini mustahkamlash jamiyatning xavfsizligi va barqarorligiga hissa qo‘shadi[9].

Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi harbiy xizmatning dastlabki bosqichlarida muhim rol o‘ynaydi, chunki yangi muhitga moslashish jarayoni psixologik bosim va emotsional qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunda, chidamlilikni oshirishga qaratilgan dasturlar harbiy xizmatchilarda stressga chidamlilikni rivojlantirib, ularning ruhiy salomatligini mustahkamlashga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, chidamlilik darajasi yuqori bo‘lgan harbiy xizmatchilar depressiya va tashvish holatlariga kamroq duch keladi. Shu sababli,

[7] Bottiani, J. J., Bradshaw, C. P., & Maras, M. A. Pathways to mental health care in active military populations across the Five-Eyes nations: An integrated perspective. 2021. Clinical Psychology Review, 89, Article 102100. https://doi.org/10.1016/j.cpr.2021.102100
[8] Cao, F., Li, J., Xin, W., Yang, Z., & Wu, D. The impact of resilience on the mental health of military personnel during the COVID-19 pandemic: Coping styles and regulatory focus. Frontiers in Public Health, 11, Article 1240047. - 2023. https://doi.org/10.3389/fpubh.2023.1240047
[9] Allen, R. R., Malik, M. A., Aquin, C., Herceg, L., Brémault-Phillips, S., & Sevigny, P. R. Digital health interventions for military members, veterans, and public safety personnel: Scoping review. JMIR mHealth and uHealth, 13, Article e65149. - 2025. https://doi.org/10.2196/65149

harbiy tayyorgarlik dasturlariga chidamlilikni oshirish elementlarini kiritish zarur bo‘lib, bu ularning ijtimoiy moslashuvini tezlashtiradi[10]. Natijada, bunday yondashuv harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligini oshiradi va ruhiy muammolarni oldini oladi. Ushbu jarayonda individual psixologik maslahatlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular harbiy xizmatchilarda emotsional barqarorlikni ta’minlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli dasturlar PTSD va depressiya simptomlarini kamaytirishda samarali ekan. Shu sababli, harbiy tuzilmalarda raqamli vositalarni keng joriy etish zarur bo‘lib, bu adaptatsiyani yaxshilaydi. Natijada, texnologiyalarning qo‘llanilishi harbiy xizmatchilarning ruhiy salomatligini mustahkamlashda yangi imkoniyatlar ochadi. Ushbu jarayonda maxfiyklik va ma’lumotlar himoyasi masalalari muhim ahamiyatga ega[11].

Multimodal yondashuvlar harbiy xizmatchilarning adaptatsiyasini mustahkamlashda kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olib, psixologik, jismoniy va ijtimoiy komponentlarni birlashtiradi. Bunday yondashuv harbiy xizmatchilarda ruhiy muammolarni bartaraf etishga yordam berib, ularning reintegratsiyasini tezlashtiradi. Xalqaro tadqiqotlarda multimodal interventsiyalar PTSD simptomlarini kamaytirishda yuqori samaradorlikni ko‘rsatgan. Shu bilan birga, jismoniy mashqlar va yoga dasturlari harbiy xizmatchilarning emotsional barqarorligini oshiradi. Natijada, multimodal yo‘nalishlar harbiy xizmatchilarning umumiy salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvda individual ehtiyojlarni hisobga olish muhim bo‘lib, u harbiy xizmatchilarning moslashuvini osonlashtiradi[12].

Harbiy xizmatchilarning ruhiy salomatligini mustahkamlashda profilaktika choralarining roli katta bo‘lib, ular ruhiy muammolarni erta bosqichda oldini olishga qaratilgan. Bunday choralar harbiy xizmatchilarda stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirib, adaptatsiyani yaxshilaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, profilaktik dasturlar harbiy xizmatchilarning ruhiy holatini barqarorlashtirishda samarali ekan. Shu sababli, harbiy tayyorgarlikda profilaktik elementlarni kiritish zarur bo‘lib, bu ularning salomatligini saqlaydi. Natijada, profilaktika yo‘nalishlari harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligini oshiradi. Ushbu jarayonda psixologik skrining tizimini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Oila va jamiyat bilan reintegratsiya harbiy xizmatchilarning adaptatsiyasida muhim bosqich bo‘lib, bunda oilaviy qo‘llab-quvvatlash dasturlari ruhiy salomatlikni mustahkamlashga ko‘maklashadi. Bunday dasturlar harbiy xizmatchilarda izolyatsiya hisini kamaytirib, emotsional munosabatlarni yaxshilaydi. Xalqaro tajribada oilaviy terapiyalar harbiy xizmatchilarning reintegratsiyasini osonlashtirgan. Shu bilan birga, jamiyatdagi qo‘llab-

[10] Liu, B., Liu, L., Zou, M., Jin, Y., Song, L., Ren, L., Li, M., Feng, Y., Li, F., & Yang, Q. Relationships between resilience, perceived social support, and mental health in military personnel: A cross-lagged analysis. BMC Public Health, 24(1), Article 3433. 2024. https://doi.org/10.1186/s12889-024-20907-w

[11] Allen, R. R., Malik, M. A., Aquin, C., Herceg, L., Brémault-Phillips, S., & Sevigny, P. R. Digital health interventions for military members, veterans, and public safety personnel: Scoping review. JMIR mHealth and uHealth, 13, Article e65149. - 2025. https://doi.org/10.2196/65149

[12] Geraci, M., Smith, J., & Johnson, K. Evidence integration review of multimodal interventions for PTSD in veterans. Journal of Veterans Studies, 11(2), 2025. 45–78. https://doi.org/10.21061/jvs.v11i2.683

quvvatlash tizimlari harbiy xizmatchilarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlaydi[13]. Natijada, reintegratsiya yo‘nalishlari harbiy xizmatchilarning ruhiy salomatligini saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu jarayonda maxsus seminarlar va treninglar ishlab chiqish zarur.

Chidamlilikni oshirish treninglari harbiy xizmatchilarning ruhiy salomatligini mustahkamlashning asosiy yo‘nalishi bo‘lib, ular emotsional regulyatsiyani rivojlantiradi. Bunday treninglar harbiy xizmatchilarda stressga chidamlilikni oshirib, depressiya riskini kamaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, chidamlilik dasturlari harbiy xizmatchilarning adaptatsiyasini yaxshilaydi. Shu sababli, harbiy tuzilmalarda muntazam treninglar o‘tkazish zarur bo‘lib, bu ularning salomatligini saqlaydi. Natijada, chidamlilik yo‘nalishlari harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligini oshiradi. Ushbu jarayonda individual yondashuvni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy-psixologik adaptatsiyada moslashuv uslublarining roli katta bo‘lib, ular harbiy xizmatchilarning ruhiy holatini belgilaydi. Bunday uslublar harbiy xizmatchilarda muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirib, adaptatsiyani tezlashtiradi. Xalqaro tadqiqotlarda moslashuv uslublari ruhiy muammolarni kamaytirishda samarali ekanligi isbotlangan[14]. Shu bilan birga, regulyator fokusni oshirish harbiy xizmatchilarning emotsional barqarorligini ta’minlaydi. Natijada, moslashuv yo‘nalishlari harbiy xizmatchilarning salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda maxsus dasturlarni ishlab chiqish zarur.

Ruhiy salomatlikka yo‘naltirilgan raqamli ilovalar harbiy xizmatchilarning adaptatsiyasini yaxshilashda zamonaviy vosita bo‘lib, ular doimiy psixologik yordamni ta’minlaydi. Bunday ilovalar harbiy xizmatchilarda simptomlarni monitoring qilib, erta aralashuv imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli vositalar PTSD ni kamaytirishda yuqori samaraga ega. Shu sababli, harbiy tuzilmalarda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Natijada, ilovalar harbiy xizmatchilarning ruhiy salomatligini mustahkamlashda yangi imkoniyatlar ochadi. Ushbu jarayonda foydalanuvchi interfeysini yaxshilash muhim[15].

Multimodal interventsiyalar harbiy xizmatchilarning ruhiy muammolarini kompleks hal qilishga qaratilgan bo‘lib, psixologik va jismoniy komponentlarni birlashtiradi. Bunday interventsiyalar harbiy xizmatchilarda depressiya va PTSD simptomlarini kamaytirib, reintegratsiyani osonlashtiradi. Xalqaro tadqiqotlarda multimodal yondashuvlarning samaradorligi isbotlangan. Shu bilan birga, jismoniy mashqlar harbiy xizmatchilarning emotsional holatini yaxshilaydi. Natijada, multimodal yo‘nalishlar harbiy xizmatchilarning

[13] O‘Neal, E. T., & Mancini, J. A. Social and psychological support for military personnel and families: A scoping review of interventions related to international deployment. Journal of Veterans Studies, 10(1), Article 533. 2024. https://doi.org/10.21061/jvs.v10i1.533

[14] Cao, F., Li, J., Xin, W., Yang, Z., & Wu, D. The impact of resilience on the mental health of military personnel during the COVID-19 pandemic: Coping styles and regulatory focus. Frontiers in Public Health, 11, Article 1240047. - 2023. https://doi.org/10.3389/fpubh.2023.1240047

[15] Allen, R. R., Malik, M. A., Aquin, C., Herceg, L., Brémault-Phillips, S., & Sevigny, P. R. Digital health interventions for military members, veterans, and public safety personnel: Scoping review. JMIR mHealth and uHealth, 13, Article e65149. - 2025. https://doi.org/10.2196/65149

salomatligini mustahkamlashga ko‘maklashadi. Ushbu jarayonda individual ehtiyojlarni hisobga olish zarur[16].

Profilaktik choralar harbiy xizmatchilarning adaptatsiyasini mustahkamlashda asosiy o‘rin tutib, ruhiy muammolarni oldini olishga yordam beradi. Bunday choralar harbiy xizmatchilarda stress boshqaruvini rivojlantirib, salomatlikni saqlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, profilaktika dasturlari harbiy xizmatchilarning moslashuvini yaxshilaydi. Shu sababli, harbiy tayyorgarlikda profilaktik elementlarni kiritish muhim. Shu sababdan, profilaktika yo‘nalishlari harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligini oshiradi. Ushbu jarayonda muntazam skrining o‘tkazish zarur[17].

Oilaviy reintegratsiya dasturlari harbiy xizmatchilarning ijtimoiy adaptatsiyasini yaxshilashda muhim bo‘lib, oila a’zolari bilan munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan. Bunday dasturlar harbiy xizmatchilarda emotsional izolyatsiyani kamaytirib, ruhiy salomatlikni oshiradi. Xalqaro tajribada oilaviy terapiyalar samarali ekanligi ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, jamiyatdagi qo‘llab-quvvatlash harbiy xizmatchilarning moslashuvini ta’minlaydi[18]. Natijada, reintegratsiya yo‘nalishlari harbiy xizmatchilarning salomatligini saqlaydi. Ushbu jarayonda maxsus treninglar o‘tkazish muhim.

Chidamlilik treninglari harbiy xizmatchilarning emotsional regulyatsiyasini rivojlantirishda asosiy vosita bo‘lib, stressga chidamlilikni oshiradi. Bunday treninglar harbiy xizmatchilarda depressiya riskini kamaytirib, adaptatsiyani tezlashtiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, chidamlilik dasturlari ruhiy salomatlikni mustahkamlashda samarali. Shu sababli, harbiy tuzilmalarda muntazam treninglar zarur[19]. Natijada, chidamlilik yo‘nalishlari harbiy xizmatchilarning tayyorgarligini oshiradi. Ushbu jarayonda guruhli mashg‘ulotlar qo‘llash muhim.

Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi va ruhiy salomatligini mustahkamlashning dolzarb yo‘nalishlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, chidamlilikni oshirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlari ruhiy muammolarni bartaraf etishda asosiy rol o‘ynaydi. Bunday yo‘nalishlar harbiy xizmatchilarda posttravmatik stress va depressiyani kamaytirib, ularning jangovar tayyorgarligini oshiradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va multimodal interventsiyalar adaptatsiyani yaxshilashga ko‘maklashib, individual yondashuvni ta’minlaydi.

Asosiy qismdan kelib chiqib, quyidagi xulosalar beriladi: birinchidan, chidamlilikni oshirish treninglari harbiy xizmatchilarning stressga chidamliligini rivojlantirib, ruhiy salomatlikni mustahkamlaydi; ikkinchidan, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlari oila va jamiyat

[16] Geraci, M., Smith, J., & Johnson, K. Evidence integration review of multimodal interventions for PTSD in veterans. Journal of Veterans Studies, 11(2), 2025. 45–78. https://doi.org/10.21061/jvs.v11i2.683

[17] Bauer, A., Newbury-Birch, D., Robalino, S., Ferguson, J., & Wigham, S. Is prevention better than cure? A systematic review of the effectiveness of well-being interventions for military personnel adjusting to civilian life. PLoS ONE, 13(5), Article e0190144. - 2018. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0190144

[18] B.N.Sirliev, Farfiev Yo.A. Psixosomatik holat va harbiy xizmatchilarning holati: nazariy va amaliyot. Metodik qo’llanma. -T.: IIV Akademiyasi. 2019. – B.117.

[19] E. Yu. Agzamova. Psixologik trening asoslari. o’quv qo’llanma. - Toshkent, IIV Akademiyasi. 2021. - B.121.

bilan reintegratsiyani osonlashtirib, adaptatsiyani yaxshilaydi; uchinchidan, raqamli interventsiyalar ruhiy holatni monitoring qilish imkonini berib, muammolarni erta bartaraf etadi; to‘rtinchidan, multimodal yondashuvlar psixologik va jismoniy komponentlarni birlashtirib, kompleks yechimlarni taqdim etadi. Bunday xulosalar harbiy xizmatchilarning ruhiy salomatligini saqlashda yangi imkoniyatlar ochadi. Shu sababli, mazkur yo‘nalishlarni rivojlantirish harbiy tuzilmalarning samaradorligini oshiradi. Natijada, xulosalar tadqiqotlarning amaliy ahamiyatini ta’kidlaydi.

1. Harbiy tuzilmalarda chidamlilikni oshirish uchun virtual realklik asosidagi immersiv trening dasturlarini joriy etish, bu dasturlar harbiy xizmatchilarda real jangovar vaziyatlarni simulyatsiya qilib, emotsional chidamlilikni rivojlantiradi va ruhiy muammolarni oldini oladi.

2. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini mustahkamlash uchun harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari uchun birgalikda ishtirok etadigan onlayn platformalarni yaratish, bu platformalar orqali doimiy aloqa va psixologik maslahatlarni ta’minlash.

3. Raqamli interventsiyalarni rivojlantirishda sun’iy intellektga asoslangan chat-botlarni qo‘llash, ular harbiy xizmatchilarning ruhiy holatini real vaqtda tahlil qilib, shaxsiy tavsiyalarni beradi va adaptatsiyani tezlashtiradi.

4. Multimodal yondashuvlarni takomillashtirish uchun harbiy xizmatchilar uchun integratsiyalashgan salomatlik markazlarini tashkil etish, bu markazlarda psixologik terapiya, jismoniy mashqlar va ijtimoiy tadbirlarni birlashtirib, kompleks reintegratsiyani ta’minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘Neal, E. T., & Mancini, J. A. Social and psychological support for military personnel and families: A scoping review of interventions related to international deployment. *Journal of Veterans Studies, 10*(1), Article 533. 2024. https://doi.org/10.21061/jvs.v10i1.533

2. Cao, F., Li, J., Xin, W., Yang, Z., & Wu, D. The impact of resilience on the mental health of military personnel during the COVID-19 pandemic: Coping styles and regulatory focus. *Frontiers in Public Health, 11*, Article 1240047. - 2023. https://doi.org/10.3389/fpubh.2023.1240047

3. Liu, B., Liu, L., Zou, M., Jin, Y., Song, L., Ren, L., Li, M., Feng, Y., Li, F., & Yang, Q. Relationships between resilience, perceived social support, and mental health in military personnel: A cross-lagged analysis. *BMC Public Health, 24*(1), Article 3433. 2024. https://doi.org/10.1186/s12889-024-20907-w

4. Bauer, A., Newbury-Birch, D., Robalino, S., Ferguson, J., & Wigham, S. Is prevention better than cure? A systematic review of the effectiveness of well-being interventions for military personnel adjusting to civilian life. *PLoS ONE, 13*(5), Article e0190144. - 2018. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0190144

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРЕДИКТОРЫ АДАПТАЦИИ КАДРОВОГО РЕЗЕРВА У ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Абдуллажанова Дилнозахон Султанбековна
Доктор психологических наук (DSc), профессор, профессор кафедры «Воспитательно-психологического обеспечения служебной деятельности»

Аннотация: В статье рассматриваются социально-психологические предикторы адаптации кадрового резерва военнослужащих в современных условиях. Особое внимание уделяется личностным, коммуникативным, эмоционально-регулятивным и средовым факторам, определяющим успешность включения военнослужащих в систему военного управления и их готовность к исполнению командных функций. Проанализированы предикторы мотивации служебно-боевой деятельности, профессиональной идентичности, стрессоустойчивости, саморегуляции, дисциплинированности, коммуникативной компетентности и принятия воинских норм. Подчёркнута роль воинской среды, командирского стиля, сплочённости подразделения и института наставничества. Представлены выводы о необходимости целенаправленного развития данных предикторов в системе подготовки кадрового резерва.

Ключевые слова: Военное управление, кадровый резерв; профессионально-боевая подготовка, адаптация; социально-психологические предикторы; профессиональная идентичность; корпоративная культура; мотивация; коммуникативная компетентность; эмоциональная саморегуляция военнослужащих

Социально-психологические предикторы адаптации кадрового резерва военнослужащих представляют собой совокупность личностных, эмоционально-регуляторных, коммуникативных и организационно-средовых факторов, определяющих успешность включения военнослужащих в выполнение будущих командных и управленческих функций. Согласно подходу, представленному в современных исследованиях военной и организационной психологии [4], адаптация военнослужащих, претендующих на включение в кадровый резерв, выступает системным процессом, охватывающим когнитивные, мотивационно-ценностные, поведенческие и межличностные компоненты профессионального развития. В условиях трансформации системы обороны, интенсификации подготовки личного состава, усложнения служебно-боевой деятельности и повышения уровня психоэмоциональных нагрузок проблема адаптации резервистов приобретает

стратегическое значение. Нарастающие требования к управленческой компетентности, стрессоустойчивости и готовности к принятию решений в неопределённых ситуациях определяют необходимость выявления ключевых факторов, влияющих на профессиональную надёжность будущих командиров. Именно способность военнослужащего – кандидата в кадровый резерв – быстро и эффективно интегрироваться в военную профессиональную среду, освоить функциональные требования управленческой деятельности, принять нормы и ценности воинского коллектива и обеспечить необходимый уровень самоорганизации становится определяющим фактором его дальнейшей профессиональной успешности. В исследованиях подчеркивается, что процесс адаптации резервистов связан не только с формированием компетенций, но и с глубокой перестройкой системы саморегуляции, мотивационных установок и межличностных стратегий взаимодействия.

Особенность адаптации военнослужащих, входящих в кадровый резерв, заключается в двойственной структуре предъявляемых требований: с одной стороны, они должны отвечать стандартам общей военной подготовки и профессиональной выносливости, а с другой – осваивать функции командира, организатора, наставника и управленца. Эти виды деятельности требуют значительной зрелости личности, включающей высокий уровень самоосознания, выраженную дисциплинированность, способность к эмоциональной саморегуляции, развитую стрессоустойчивость и готовность к действиям в условиях неопределённости. Особую значимость приобретает способность военнослужащего брать на себя ответственность за подчинённых, демонстрировать лидерскую инициативу и осуществлять эффективную коммуникацию в условиях дефицита времени, высокой нагрузки или потенциальной угрозы. Такие качества обеспечивают успешность выполнения управленческих функций и определяют уровень доверия, формируемый у подчинённых и коллег.

Одним из ключевых социально-психологических предикторов адаптации военнослужащих, входящих в кадровый резерв, выступает мотивационная направленность личности. В исследованиях подчёркивается, что внутренняя профессиональная мотивация является фундаментальным фактором успешной адаптации в военной среде, обеспечивая устойчивость поведения, продуктивность деятельности и готовность к принятию сложных управленческих решений [1]. Внутренняя мотивация к службе, включающая осознанное стремление выполнять служебный долг, поддерживать высокий уровень дисциплины, развивать компетентность и реализовывать потребность в профессиональном росте, формирует устойчивую ценностно-смысловую

позицию резервиста по отношению к будущей командной роли. Такие военнослужащие демонстрируют высокую степень ответственности, инициативность и склонность к самосовершенствованию, что существенно ускоряет процесс освоения новых управленческих функций. Сформированная мотивационная направленность значительно снижает риск дезадаптации, способствует эффективному включению в служебно-операционный процесс, улучшает способность к долгосрочному планированию и усиливает устойчивость к операционному и боевому стрессу [6]. Напротив, низкий уровень профессиональной мотивации, ориентация исключительно на внешние или формальные показатели (звания, льготы, стимулы), отсутствие внутренней потребности в компетентностном росте и саморегуляции коррелируют с повышенной вероятностью эмоционального выгорания, межличностных конфликтов, снижением эффективности службы и отказом от дальнейшего продвижения по командно-управленческой траектории [3].

Вторым значимым социально-психологическим предиктором выступает военно-профессиональная идентичность, включающая принятие норм, ценностей и традиций военной службы, переживание принадлежности к воинскому коллективу, осознание собственной миссии и личной значимости в обеспечении безопасности государства. В современной психологии профессиональная идентичность рассматривается как стержневой компонент формирования личности специалиста, определяющий его поведенческие стратегии, устойчивость к стрессу и качество межличностного взаимодействия [1], [8]. Для военнослужащего, входящего в кадровый резерв, полноценная военно-профессиональная идентичность является критически важной, поскольку именно через неё осуществляется интеграция в управленческую роль, формируется готовность к лидерству и укрепляется способность действовать в экстремальных и неопределённых условиях (Бодров, 2019). Сформированная идентичность обеспечивает внутреннюю согласованность профессиональных мотивов, укрепляет уверенность в социально значимой роли военного, способствует развитию ответственности перед подразделением и способствует повышению эффективности командного взаимодействия [7].

Военнослужащий, обладающий высоким уровнем военно-профессиональной идентичности, демонстрирует большую уверенность при принятии решений, лучше выстраивает отношения с подчинёнными, устойчивее переносит психоэмоциональные нагрузки и проявляет выраженный лидерский потенциал [5]. Напротив, диффузная или недостаточно сформированная профессиональная идентичность увеличивает риск ролевой неопределённости, внутренней неуверенности, тревожности, что приводит к

затруднениям в адаптации к командно-управленческой деятельности и снижению общей эффективности служебной деятельности [9]. Таким образом, мотивационная направленность и военно-профессиональная идентичность представляют собой базовые социально-психологические предикторы, определяющие успешность профессиональной адаптации военнослужащих кадрового резерва, их готовность к лидерству и способность эффективно функционировать в управленческой роли [4]. Внутренняя мотивация к службе, осознанное стремление выполнять служебный долг, готовность к профессиональному росту и принятию ответственности формируют устойчивую ценностную позицию резервиста, снижая риск дезадаптации и способствуя продуктивному включению в служебный процесс. С другой стороны, низкая мотивация, ориентация исключительно на формальные показатели и отсутствие стремления к самосовершенствованию затрудняют адаптацию, повышают вероятность эмоционального напряжения, межличностных конфликтов и отказа от дальнейшего профессионального *продвижения [2].

Важным социально-психологическим предиктором адаптации резервистов являются волевые и регулятивные качества, включающие самодисциплину, самоконтроль, способность к произвольной саморегуляции и умение сохранять устойчивость в условиях высоких нагрузок [3]. Военная служба предъявляет высокие требования к точности, организованности, ответственности и способности выдерживать длительные периоды стрессового воздействия. Военнослужащие, обладающие развитой регуляцией, легче адаптируются к командной деятельности, устойчиво функционируют при повышенных служебных перегрузках и демонстрируют способность к мобилизации личных ресурсов при необходимости оперативного принятия решений [5].

Refleksiya «Men» — obrazi egasining ongiga taalluqli jara-yondir. Masalan, ko‘chada bir tanishingizni uchratib qoldingi ch. Siz tinmay unga o‘z yutuqgaringiz va mashg‘ulotlaringiz haqida gapirmoqdasiz. Lekin gap bilan bo‘lib, uning qaergadir shosha-yotganligiga e’tibor bermadingiz. Shu narsani siz uning be-toqatlik bilan sizni tinglayotganligidan, hayoli boshqa yerda turganligidan bilib qolasiz va shu orqali ayni shu paytda «mahmadona, laqmaroq» bo‘lyb qolganingizni sezasiz. Keyingi safar shu o‘rtog‘ingiz bilan uchrashganda, oldingi xatoga yo‘l qushaslik uchun «O‘rtoq, shoshmayapsanmi?» deb so‘rab ham qo‘yasiz. Ana shu ilgarigi refleksiyaning natijasidir. Ya’ni, suhbatdosh o‘rniga turib, o‘zishizga tashlangan nazar («men unga qanday ko‘rinyapman») — refleksiyadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Umumiy psixologiya. T. Ukituvchi, 1992.
2. Ye.I.Rogov. Obshaya psixologiya (kurs leksii). M.,1998.
3. Uzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.Uzbekiston, 1999.
4. Atlas po psixologii. M., 1998.
5. E.Goziev. Tafakkur psixologiyasi. T., Ukituvchi, 1990.
6. E.Turakulov, S.Raximov. Abu Rayxon Beruniy ruxiyat va ta’lim xakida. 1992.
7.Umumiy psixologiyadan amaliy ishlar. T.,Ukituvchi,1978
8.I.Xudoyberganov. Shaxs va milliy psixologiya. T.,Uzbekiston,1994.

HARBIY XIZMATCHILARDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ADAPTATSIYANING ZAMONAVIY MUAMMOLARI

Qoraboev Abdulaziz Abduraxmonovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi universiteti
Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), podpolkovnik
tel: +998 97 081 82 79

Annotatsiya: maqolada harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasining zamonaviy muammolari ilmiy tahlil qilingan. Harbiy muhitning qat’iy tartibi, doimiy stressogen omillar, oilaviy muammolar, posttravmatik stress buzilishlari va harbiy jamoa ichidagi murakkab munosabatlar adaptatsiya jarayonini murakkablashtirishi ko’rsatib beriladi. Adaptatsiyaning psixologik mexanizmlari, dezadaptatsiyaning belgilari, shuningdek, ularni bartaraf etishning yo’llari o’rganilgan. Keng empirik materiallar asosida ishlab chiqilgan amaliy takliflar harbiy psixologik xizmatning samaradorligini tubdan oshirishga qaratilgan.

Kalit so’zlar: adaptatsiya, stress, dezadaptatsiya, posttravmatik stress buzilishi, psixologik rezilientlik, oilaviy munosabatlar, readaptatsiya, ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, emotsional barqarorlik, professional moslashuv, psixologik trening, mentorlik tizimi.

Harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligi davlatimiz mudofaa qobiliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Zamonaviy geosiyosiy vaziyat, harbiy mojarolarning kuchayishi, axborot-psixologik urushlar harbiy muhitning stressogenligini yanada oshirmoqda. O’zbekiston Qurolli Kuchlarida majburiy harbiy xizmat tizimi mavjud bo’lgan sharoitda yoshlarning psixologik tayyorgarlik darajasi jiddiy muammo bo’lib qolmoqda. Yangi chaqirilgan askarlarning aksariyati fuqarolik hayotdan keskin farq qiladigan qat’iy tartib-qoida va buyruqlarga bo’ysunishga duch keladi, bu esa boshlang’ich dezadaptatsiyaning kuchayishiga olib keladi.

Ijtimoiy-psixologik adaptatsiya shaxsning yangi ijtimoiy muhitga moslashuvi, o’zining ichki resurslarini faollashtirib, talablarga muvofiq o’zgartirish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Harbiy xizmat sharoitida bu jarayon bir necha bosqichdan iborat: boshlang’ich stress fazasi, faol moslashuv va barqaror funktsionallashuv. Biroq globallashuv, raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi, yoshlar subkulturasining o’ziga xosligi harbiy jamoa ichidagi munosabatlarni murakkablashtirmoqda. Shu bilan birga, xizmatdan qaytgan veteranlarning fuqarolik hayotiga qaytishida posttravmatik stress, ijtimoiy izolyatsiya va kasbiy ko’nikmalarning yo’qolishi jiddiy to’siqlar yaratadi. Ushbu muammolar nafaqat

individual darajada, balki butun harbiy tuzilmaning jangovar tayyorgarligiga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Harbiy psixologiyada ijtimoiy-psixologik adaptatsiya muammolari uzoq yillardan buyon o’rganib kelinadi. Rossiyalik olim So’romyatnikov I.V. o’zining “Psixicheskaya adaptatsiya voennoslujahix k usloviyam boevoy deyatelnosti” monografiyasida adaptatsiyani individual shaxsiy xususiyatlar va kollektiv munosabatlarining o’zaro ta’siri natijasi deb hisoblaydi[20]. U adaptatsiyaning uch bosqichini ajratib ko’rsatadi: orientatsiya, moslashuv va integratsiya. I.V.So’romyatnikovning ushbu tasnifi amaliy ahamiyatga ega, chunki O’zbekiston harbiy qismlarida ham aynan shu bosqichlar kuzatiladi. Biroq, uning ishida zamonaviy raqamli muhit va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri etarlicha yoritilmagan, bu esa bugungi kunda bo’shliq hisoblanadi. I.V.So’romyatnikovning yondashuvini O’rta Osiyo sharoitiga moslashtirib, raqamli detoksikatsiya elementlarini qo’shish orqali takomillashtirish lozim.

Qozog’istonda psixolog olimlarning “Voennaya psixologiya i pedagogika” o’quv qo’llanmasida harbiy kollektivdagi ijtimoiy-psixologik iqlimning adaptatsiyaga ta’sirini tahlil qiladi[21]. Unda boshliqlarning boshqaruv uslubi (avtoritar, demokratlik, liberal) adaptatsiya darajasiga bevosita ta’sir qilishini isbotlaydi. Demokratlik uslubdagi komandirlar qo’l ostidagilarning adaptatsiya ko’rsatkichlari 25-30% yuqori bo’ladi, biroq empirik ma’lumotlar nisbatan kam, u ko’proq nazariy xulosalarga e’tibor berilgan. Uning ushbu modeliga rezilientlik o’lchovini qo’shish ijtimoiy-psixologik adaptatsiya jarayoni takomillashgan bhlar edi.

Tojikistonlik olim B.Yuldashev “Harbiy xizmatchilarda oilaviy-psixologik moslashuv muammolari” maqolasida uzoq muddatli ajraliqlarning PTSR rivojlanishiga olib kelishini ta’kidlaydi. U oilani adaptatsiyaning asosiy buferi deb hisoblaydi. B.Yuldashevning fikrlari dolzarb, chunki O’zbekistonda ham oilaviy videoaloqa imkoniyatining cheklanganligi jiddiy muammo hisoblanadi. Biroq uning tadqiqotida profilaktik choralar etarlicha ishlab chiqilmagan – masalan, onlayn oilaviy psixologik maslahatlar tizimi taklif qilinmagan. Ushbu yondashuvini kengaytirib, “oilaviy rezilientlik” kontseptsiyasini kiritishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Rossiyalik harbiy psixolog A.G.Karayani “Psixologicheskaya gazeta”dagi maqolasida readaptatsiyani uzoq davom etuvchi, ko’p bosqichli jarayonligini ko’rsatgan va uni davlat darajasida tashkil etishni talab qiladi. A.Karayanining fikrlari katta taassurot qoldiradi – u xizmatdan qaytganlarning 40%ida suitsid xavfi

[20] Сыромятников И.В. Психическая адаптация военнослужащих к условиям боевой деятельности. Монография. – М.: Военный университет, 2007. – 248 с.
[21] Марьин М.И., Петров В.Е., Сафронов А.Д. Военная психология и педагогика. Учебное пособие. – Алматы: Академия Вооруженных Сил РК, 2019. – 320 с.

borligini statistik ma’lumotlar bilan isbotlaydi[22]. Biroq A.G.Karayanining ishida madaniy o’ziga xoslikka etarlicha e’tibor berilmagan – O’rta Osiyoda oila va jamoat roli yuqori baholanadi.

Xorijiy olimlardan Brett T. Litz va hamkorlari “Moral injury and moral repair in war veterans” maqolasida moral travma kontseptsiyasini ilgari suradilar[23]. Ular zamonaviy urushlarda axloqiy qadriyatlar buzilishini PTSRning yangi turi deb hisoblaydilar. Ushbu yondashuv inqilobiy bo’lib, bu O’zbekiston harbiylari uchun ham muhim, chunki harbiy operatsiyalarda axloqiy dilemmalar ko’paymoqda. Biroq ularning tadqiqoti AQSh va Iroq mojarosiga asoslangan, shu sababli O’rta Osiyo mentalitetiga moslashtirish talab qilinadi. Axloqiy jarohat profilaktikasi uchun maxsus treninglarni joriy qilinishi harbiy xizmatchilarda stress holatlarini oldini oladi va uzoq muddatli faoliyat olib borishga zamin yaratadi.

Tadqiqotchilar R.R.Sinclair, T.W.Brittlar “Building psychological resilience in military personnel” kitobida rezilientlikni oshirishning batafsil dasturini taklif qiladi[24]. Ular BAT (Battlefield Awareness Training) metodini ishlab chiqqanlar. O’zbekistonda bunday treninglarni joriy qilish jangovar tayyorgarlikni sezilarli oshiradi. Biroq ularning modeli qimmat va maxsus mutaxassislarni talab qiladi, shuning uchun uni soddalashtirish va mahalliylashtirish lozim.

O’zbekistonlik olim Sh.Sh. Sharipov o’zining dissertatsiyasida harbiy xizmatchilarda koping-strategiyalarning o’ziga xosligini o’rganadi. U muammoga yo’naltirilgan kopingning samaraliroq ekanini isbotlaydi[25]. Sh.Sharipovning fikrlarini o’z tajribam bilan tasdiqlayman – O’zbekiston askarlarida emotsional-koping ko’p uchraydi, bu esa dezadaptatsiyaga olib keladi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, muammo juda ko’p qirrali bo’lib, faqat kompleks yondashuv orqali hal qilish mumkin.

Tadqiqotda so’rovnomalar natijalariga ko’ra, respondentlarning 42% da adaptatsiya darajasi past va o’rtacha past, 28% da PTSRning klinik belgilari aniqlangan. Yangi chaqirilganlar guruhida stress darajasi 72%ni tashkil qildi, rezilientlik esa eng past ko’rsatkichga ega (Mq58,4). Oilaviy



1-rasm. Adaptatsiya darajasi

[22] Караяни А.Г., Караяни Ю.М. Семья как важнейший институт социально-психологической реадаптации участников боевых действий // Психологическая газета. – 2023. – 13 сентября. Караяни А.Г. Психологическая реадаптация участников боевых действий // Психологическая газета. – 2023. – №5.

[23] Litz B.T. et al. Moral injury and moral repair in war veterans: A preliminary model and intervention strategy // Clinical Psychology Review. – 2009. – Vol. 29, № 8. – P. 695-706.

[24] Sinclair R.R., Britt T.W. (Eds.). Building psychological resilience in military personnel: Theory and practice. – Washington, DC: American Psychological Association, 2015. – 268 p.

[25] Шарипов Ш.Ш. Копинг-стратегии военнослужащих в условиях стресса: дис. ... канд. психол. наук. – Ташкент, 2022. – 178 с.

munosabatlarning sifati bilan adaptatsiya o’rtasida yuqori ijobiy korrelyatsiya (rq0.68, p<0.001) topildi (1-rasmga qarang).

Natijalar A.Karayanining xulosalarini to’liq tasdiqlaydi – harbiy jamoa muhiti va rahbarlik uslubi adaptatsiyaning 38% dispersiyasini tushuntiradi. Biroq bizning tadqiqotda axloqiy jarohat (Litz B.T. kontseptsiyasi) 18% holatlarda aniqlandi, bu esa O’rta Osiyo uchun yangi ma’lumot hisoblanadi.

R.R.Sinclair, T.W.Brittlarning rezilientlik modeli asosida o’tkazilgan pilotaj trening (nq80) rezilientlikni 29% ga oshirdi, bu esa uning samaradorligini isbotlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ko‘rib chiqish zarur:

- Jamoat xavfsizligi universitetida – 3 oylik modulli dastur asosida koping, emotsional intellekt va axloqiy qaror qabul qilishni o’rgatish o’quv kurslarini tashkil etish;
- harbiy qismlarda “Oilaviy psixologik ko’prik” platformasini (psixologik maslahatlar) joriy qilish;
- virtual reallik asosidagi “Stress-inkubator” – jangovar vaziyatlarni simulyatsiya qilib, adaptatsiyani oldindan shakllantirish;
- harbiy jamoada sog’lom muhitning doimiy monitoringi – har oyda anonim “Psixologik barometr” so’rovlarini tashkil etish kabi tadbirlar harbiy xizmatchilarda adaptatsiya jarayonining samaradorligini oshiradi.

Umuman olganda quyidagi xulosalarga kelish mumkin, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi juda murakkab, ko’p omilli va dinamik jarayon ekanini yana bir bor isbotladi. Zamonaviy muammolar – raqamli qaramlik, axloqiy jarohat, oilaviy ajralishlar – eski yondashuvlar bilan hal qilib bo’lmaydigan darajaga etmoqda.

Taklif qilingan yangi tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish O’zbekiston Qurolli Kuchlarining psixologik xavfsizligini tubdan oshirib, jangovar samaradorlikni yuksaltiradi. Kelajak tadqiqotlari uzluksiz monitoring va xorijiy tajribani mahalliylashtirishga qaratilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Сыромятников И.В. Психическая адаптация военнослужащих к условиям боевой деятельности. Монография. – М.: Военный университет, 2007. – 248 с.
2. Марьин М.И., Петров В.Е., Сафронов А.Д. Военная психология и педагогика. Учебное пособие. – Алматы: Академия Вооруженных Сил РК, 2019. – 320 с.
3. Караяни А.Г., Караяни Ю.М. Семья как важнейший институт социально-психологической реадаптации участников боевых действий // Психологическая газета. – 2023. – 13 сентября. Караяни А.Г. Психологическая реадаптация участников боевых действий // Психологическая газета. – 2023. – №5.

PSIXOLOGIK MOSLASHUV JARAYONIDA HARBIY XIZMATCHILARDA AGRESSIYA NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Rejametova Irada Ikramshikovna
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Jahon psixologiyasida harbiy xizmatchilar orasidagi agressiv xulq-atvor muammosini o’rganishga alohida tadqiqot yo’nalishi sifatida e’tibor qaratilmoqda. Tadqiqotlarda agressivlikning biologik, psixologik, ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik determinantlari va agressiv xulq-atvor reprezentatsiyasiga xos xususiyatlari o‘rganilgan. Mazkur yo‘nalishda harbiy xizmatchilardagi agressiv xulqni bartaraf etishning turli usullari va yuzaga kelish shart-sharoitlarini ifodalovchi psixologik mexanizmlarini aniqlash hamda joriy etish masalasining muhimligiga e’tibor qaratilmoqda. Ayni vaqtda harbiy xizmatchilar xulqidagi og‘ishlar, agressivlik, emotsional beqarorlik, hissiyotlarni boshqara bilmaslik kabi holatlar dolzarb muammolar sifatida qaralmoqda

Kalit so‘zlar: psixologik adaptatsiya, agressiya, assertive xulq, hissiyot, betoqatlik, emotsional beqarorlik, deviatsiya.

Insonning agressiv xulq-atvori hodisasini tahlil qilish, uning sabablarini tushunishga qaratilgan birinchi urinishlar ilm-fangacha bo‘lgan davrda - din sohasida amalga oshirilgan va agressiyakorlikning sabablarini turli pozitsiyalardan ko‘rib chiqadigan falsafiy tadqiqotlarda davom ettirilgan. Umuman olganda, ushbu muammoni o‘rganishning dastlabki davrlarida agressivlik insonning ijobiy mohiyatiga zid bo‘lgan xatti-harakatlar sifatida baholanadigan yondashuv ustunlik qildi. A.Rean mazkur tushunchani “axloqiy-gumanistik” deb ta’riflagan. XIX asrda tabiiy va gumanitar fanlarning rivojlanishi agressiya va uning sabablarini tushunishga ma’lum turtki berdi. Shunday qilib, Charlz Darvin o‘zining yoki boshqa turining vakillarini yo‘q qilishni (aslida agressivlikdir) tabiiy tanlanish va tirik mavjudotlarning o‘zini o‘zi saqlab qolish mexanizmlaridan biri deb hisobladi.

A.A.Reanning fikriga ko‘ra, bu holatlar agressiya muammosiga yangi yondashuvning paydo bo‘lishiga olib keldi, unga ko‘ra bu tirik mavjudotning omon qolishi va moslashishiga yordam beradigan biologik maqsadga muvofiq xulq-atvor shaklidir. Psixologiya fani doirasida XIX asr oxiridan agressiya hodisasi o‘rganila boshlandi. Agressiyaning tabiati haqidagi dastlabki psixologik qarashlar soddalashtirildi, ularda empirik asos yo‘q edi, buning natijasida ma’lum instinktlar

qayta tiklandi (“U.Jeymsning fikricha dushmanlik instinkti”, agressiya (“jangovarlik instinkti”) U.Makkdugal va boshqalar tomonidan o‘rganildi.

Agressiya muammosini o‘rganishda 1960-yillarda bir qator tabiiy va gumanitar fanlar (psixologiya, sotsiologiya, biologiya, ekologiya) bo‘yicha bilimlarni umumlashtirish, shuningdek, ilmiy metodologiyaning rivojlanishi natijasida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishildi. Agressiyani o‘rganishda yangi eksperimental texnologiyalar faolroq qo‘llanila boshlandi. Aynan o‘sha paytda empirik bilimlar to‘plandi va agressiyani o‘rganishning asosiy nazariy tamoyillari shakllantirildi. Bular A.Bass, L.Berkovits, A.Bandura va boshqalar kabi tadqiqotchilarning ishlari edi. Keyinchalik zo‘ravonlik va agressiya muammolari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan davriy nashrlar, xususan, «Child Abuseand Neglect» (“Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik va qarovsizlik”) «Aggressive Behavior» (“Agressiv xatti-harakatlar”), «Journal of Interpersonal Violence» (“Shaxslararo zo‘ravonlik jurnali”) va boshqalar. Bu qisman G‘arb jamiyatida (birinchi navbatda, AQShda) zo‘ravonlik jinoyatining tarqalishi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, agressiya hodisasini o‘rganish sovuq urush davridagi ijtimoiy-siyosiy muhit tomonidan rag‘batlantirildi.

Agressiyaga oid ko‘pgina tadqiqotlarning uslubiy asosi istisnolar mavjud bo‘lsa-da, neobexeviorizm bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Shunday qilib, etnolog K.Lorens Freyd nazariyasiga yaqin bo‘lgan tug‘ma agressivlilik instinktining mavjudligi haqidagi g‘oyani ilgari surdi, E.Fromm agressiyani neofreydizm nuqtai nazaridan ko‘rib chiqdi. Kognitivizm (agressiyani idrok etish va boshqalar) doirasida ham ma‘lum tadqiqotlar o‘tkazildi. Rus psixologiyada 1980-yillarning oxirigacha agressiya hodisasiga G‘arbdagidek e’tibor berilmagan. Agressiv xulq-atvor muammosining alohida jihatlari, xususan, psixofiziologik, tibbiy va kriminologik o‘rganildi. Chet el, xususan, Freydning agressivlik nazariyalarini tanqid qilgan yagona nashrlar bundan mustasno. Aksariyat ilmiy manbalarda «agressiya» va «agressiya xulq» atamalari umuman ishlatilmagan. Marksistik metodologiya, birinchi navbatda, har qanday xatti-harakatlarning, shu jumladan agressiv xatti-harakatlarning ijtimoiy omillarini o‘rganishga qaratilgan. Shu sababli, psixologik, pedagogik va kriminologiya fanlari doirasida agressiv shaxs, jinoyatchi “ijtimoiy muhitning mahsuli”, deb hisoblangan “ijtimoiy hodisa” sifatida qaraldi.

Shu bilan birga, chaqiruv yoshidagi yoshlarning uchdan bir qismidan ortig‘i majburiy harbiy xizmatni o‘tashga nisbatan ijobiy munosabatga ega emas. Ko‘plab yigitlar armiyadagi hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni yengib o‘tish borasida o‘z imkoniyatlarini pes-simizm bilan baholaydilar. Yoshlarning adaptatsion imkoniyatlari pastligi ularning harbiy-kasbiy shakllanish jarayonini ancha cho‘zilishiga va psixologik jihatdan murakkablashishiga olib kelmoqda. Bu jarayon ko‘pincha xizmat jamoalarida yuzaga keladigan shaxslararo nizolar, harbiy

xizmatdan bo‘yin tovlash, suitsidal urinishlar, jinoyatlar va boshqa noxush holatlar bilan hamohang kechadi.

Shaxs adaptatsiyasini bugungi kunda mahalliy (Yu.A. Aleksandrovskiy, F.B.Berezin, V.N.Grigoryeva, V.V.Grisenko, M.A.Gulina, L.G.Dikaya, A.G.Maklakov, A.A.Nalchadjyan, V.A.Petrovkiy, A.A.Rean, S.A.Shapkin va boshqalar) hamda xorijiy (A.L.Kristof, R.S.Lazarus, D.S.Myers, J.K.Norem, H.Thome va boshqalar) tadqiqotchilar o‘rganib kelmoqdalar. Yondashuvlar rang-barang bo‘lishiga qaramay, adaptatsiya jarayonini o‘rganish nazariy va amaliy tadqiqotlarni talab etadi. Amaliy psixologiya nuqtai nazaridan, insonning o‘zgargan hayotiy sharoitlarga moslashuvini ta’minlashda muhim bo‘g‘in shaxsning psixologik hamda psixik o‘zini-o‘zi boshqarish mexanizmlarida ishtirok etuvchi xususiyatlari va holatlarini baholash orqali noadekvat xulq-atvorni oldindan prognoz qilishdir.

Shubhasiz, yigitlar nizoli vaziyatlarga turlicha qaraydilar, ularni har xil talqin qiladilar va shaxslararo yoki guruhiy tangliklarni bartaraf etishda jismoniy kuch yoki og‘zaki tahdidlarni qo‘llashning maqbulligini ham har xil baholaydilar. Harbiy xizmatning o‘ziga xos sharoitlarida nizolarni hal qilish jarayonida shaxs tanlov vaziyatiga tushadi va bu tanlov ma’lum darajada psixik zo‘riqish keltirib chiqaradi. Ushbu zo‘riqish esa konstruktsiyaga yoki destruktsiyaga olib boruvchi yo‘nalishda hal bo‘lishi mumkin. Shaxsning tanlov xarakteri konstruktiv yoki destruktiv uning hayotidagi har qanday vaziyatda o‘z aksini topadi.

Konstruktiv agressiya shaxsning atrof-muhitga faol-izlanish tarzida munosabat bildirishini, hayotga faol va ijodiy yondashuvini, boshqalar bilan samarali munosabatlar o‘rnatish qobiliyatini ta’minlaydi. U emotsional kechinmalarni, afzalliklarni, qarashlarni, fikr va g‘oyalarni ochiq ifodalash, shaxsiy hayotiy maqsadlarni shakllantirish, ularga erishish va ularni asosli ravishda himoya qilish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Bunday shaxs konstruktiv-agressiv ijtimoiy-energetik to‘qnashuvlarda (munozaralarda) qatnasha oladi, mavjud ziddiyatlarga qaramay, produktiv shaxslararo aloqalarni o‘rnata oladi va ularni qo‘llab-quvvatlaydi. Konstruktiv agressiya shuningdek, hamdard bo‘lish qobiliyati, keng qamrovli qiziqishlar hamda boy fantaziya olamini ham o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, konstruktiv agressivlik ma’lum darajada xavfga ega bo‘lib, u shaxsning aniq bir vaziyatda o‘z pozitsiyasini qo‘rquv, ishonchsizlik, zo‘riqish, kinoya, istehzo, jahl, shubha, ranjish yoki qarshi tomonga nisbatan har qanday boshqa hujumkor ifodalarsiz ravshan va aniq bayon eta olish imkoniyatini nazarda tutadi. Destroktiv agressivlik va dushmanona reaksiyalar namoyon bo‘lmagan holdagi «xavfga borish» (risk qilish) harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik moslashuviga ko‘maklashadi. Aksincha, ortiqcha janjalkashlik, emotsional qo‘pollik, tajovuzkor o‘zini-o‘zi tasdiqlash uslubida namoyon bo‘ladigan «xavfga borish» xatti-

harakatlari atrof-muhitga nisbatan destruktiv-agressiv munosabat shakllanishiga zamin yaratadi va yoshlarning harbiy xizmat sharoitlariga ijtimoiy-psixologik moslashuvini qiyinlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Реан А. А. Агрессия и агрессивность личности [Текст] / А. А. Реан // Психологический журнал. - 1996. - Т. 17. - №5. – С. 4.
2. Сукиасян С. Г. Агрессия: социальный или биологический феномен? [Текст] / С. Г. Сукисян. - Ер.: Асогик, 2002. – 177 с.
3. Фромм Э. Анатомия человеческой деструктивности [Текст] / Э. Фром. - М.: АСТ, Neoclassic, 2014. - 624 с.
4. Ахметшина Ф.А. Воспитание эмпатической культуры в вузе [Текст] / Ф.А. Ахметшина // Вестник ТИСБИ. - 2002. - Вып.1. - С. 32-34.
5. Лоренц К. Агрессия (так называемое «зло») [Текст] / К. Лоренц. – М.: РИМИС, 2012. - 352 с.
6. Фромм Э. Анатомия человеческой деструктивности [Текст] / Э. Фром. - М.: АСТ, Neoclassic, 2014. - 624 с.
7. Колчина Л.П. Связь поведенческого и вербального показателей социальной агрессивности и агрессивности при фрустрации [Текст] / Л. П. Колчина // Темперамент / Под ред. В. С. Мерлина. - Пермь, 1976. -С. 45-64.
8. Левитов Н.Д. Психическое состояние агрессии [Текст] / Н. Д. Левитов// Вопросы психологии. – 1972. - № 6. – С. 168–173.

OLIY HARBIY TA’LIM KURSANTLARIDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ADAPTATSIYANING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Sh.A.Shakarboyeva
Jamoat Xavfsizligi universiteti katta o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola oliy harbiy ta’lim kursantlarida ijtimoiy-psixologik adaptatsiyaning psixologik mexanizmlarini o’rganishga bag'ishlangan. Oliy harbiy ta'lim muassasasidagi yangi ijtimoiy muhit va akademik talablar kursantlar uchun qiyin vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Maqolada, kursantlar tomonidan amalga oshiriladigan psixologik mexanizmlar, masalan, ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, stressni boshqarish strategiyalari va moslashuvchanlik kabi omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, ijtimoiy aloqalar va o’z-o’zini anglash jarayonlarining kursantlarning ruhiy holati va moslashuviga ta'siri ko‘rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: ijtimoiy-psixologik adaptatsiya, psixologik mexanizmlar, ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, stressni boshqarish, moslashuvchanlik, ijtimoiy aloqalar, o’z-o’zini anglash, ruhiy holat.

Ijtimoiylashtirish va ijtimoiy-psixologik adaptatsiya har bir shaxsni madaniy, psixologik va ijtimoiy sohaga tegishli turli omillarga moslashtirishni anglatadi. Ijtimoiylashtirish jarayonida har bir shaxs o‘z atrofida sodir bo‘lgan hodisalarga va muayyan faoliyatga yoki atrof-muhitga mos kelishi kerak. Ushbu konsepsiyaning ikkita komponenti ham har bir shaxsning o‘z qiziqishlarida: ijtimoiy tomondan va shaxsiy, ya’ni psixologik jihatdan adaptatsiyada uchraydi. Bu ko‘rsatkich atrofdagi haqiqatni yetarlicha his qilish qobiliyatini aks ettiradi, inson jamiyatdagi mavjud me’yor va an’analarni qabul qilgan va hisobga oladigan obyektidir.

Ijtimoiy psixologiyada psixologik adaptatsiya muammosi haqida olimlarimizning turli xil fikr-mulohazalari mavjud bo‘lib, ularni tahlil qilish jarayonida muhim xulosalar chiqarishimiz mumkin. Ijtimoiy-psixologik adaptatsiya ko‘rsatkichlarini ikki mezonga ajratishimiz mumkin ya’ni, obyektiv va subyektivdir. Obyektiv mezonlarga shaxsning ishdagi va o‘qishlaridagi yutuqlari, belgilangan vazifalarni va talablarni bajarishi, shuningdek, jamoada va uning maqomidagi pozitsiyasini ko‘rsatadigan indikator kiradi. Subyektiv mezonlarga shaxsning o‘z ishiga qiziqishi va doimiy rivojlanish istagi, shuningdek, boshqa odamlar bilan konstruktiv hamkorlik munosabatlari kiradi. Bizga ma’lumki hozirgi zamonaviy dunyoga ijtimoiy va psixologik tomondan adaptatsiya har bir shaxsning individual shaxs xususiyatlariga va jamiyatda tutgan o‘rni, hamda mavqeyiga, olgan ta’limiga bog‘liq bo‘ladi.

Bugungi kunda ijtimoiy hayotda ta’lim va ijtimoiy-madaniy sohalarda bir qator o‘zgarishlar yuzaga kelmoqda. Ana shunday o‘zgarishlar shaxslardan shaxsiy rivojlanishi va adaptatsion qobiliyatini talab qiladi. Ushbu maqsadga erishishning asosiy shartlaridan biri oliy harbiy ta’lim kursantlarning yangi ta’lim sharoitlariga moslashishini ta’minlash ta’lim jarayonining bosqichlarida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy-psixologik adaptatsiyaga shaxsning ijtimoiy hayotidagi hodisalar majmui sifatida qaraladi. Shaxsda uning rivojlanishini xulq-atvor, yo‘nalishlar, atrof-muhitga munosabatlarni ijtimoiy xulq-atvor normalari bilan uyg‘unlashtirish, ijtimoiy kompetensiya elementlarini o‘zlashtirish, yangi ijtimoiy rollar va funksiyalarni tushunish, o‘zini tutish qobiliyatini shakllantirish kabi xususiyatlar ta’minlab beradi. U dastlabki ta’limdan oliy ta’limga o‘tish davrida alohida ma’no kasb etadi. Biz ma’lumki, ijtimoiy hayotga moslashish o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi, u yillar davomida inson ongida shakllanib boradi.

Psixologlar adaptatsiya jarayoniga alohida e'tibor berishadi bu insonning muvaffaqiyatli hayotini ta'minlaydigan shaxsiy xususiyatlar, qobiliyat va ko‘nikmalar tizimi sifatida adaptatsiya Y.Kolomenskiy va E.Pankoning so‘zlariga ko‘ra, adaptatsiya quyidagi mezonlar bilan belgilanadi: bilim, ko‘nikma, asosiy fanlardan ko‘nikmalarni o‘zlashtirish muvaffaqiyati, o‘qishga munosabat. V.Andropova, M.Koltsova, G.Xripko o‘z salomatlik holatini bolalarning moslashish kursining asosiy mezonlaridan biri deb hisoblaydi. Aqliy rivojlanish qonuniyatlari L.Bojovich, L.Vigotskiy, V.Davidov, A.Zaporojes kabi olimlarning ilmiy tatqiqot ishlarida ko‘rib chiqilgan. Shaxsiy shakllanish davrida adaptatsiya nafaqat yangi sharoitlarga, balki ta’limning yangi va murakkab shakliga, ijtimoiy o‘zaro ta’sirda ham amalga oshiriladi ayni paytda ijtimoiy xulq-atvor jadal shakllanadi, o‘zini o‘zi qadrlash shakllanadi, boshqalar bilan munosabatlar, tanqidiylik, talabchanlik kabi xususiyatlar yuzaga keladi. Ijtimoiy-psixologik adaptatsiyaning psixologik mexanizmlari bu-ijtimoiy muhitga moslashish jarayonini anglatadi. Shaxsning ijtimoiy rollari, normativlari va hodisalarga javob berish qobiliyatini ifodalaydi.

Tadqiqotimiz muammosidan kelib chiqib ijtimoiy-psixologik adaptatsiya jarayonini o‘rganar ekanmiz, asosan rivojlanishning asosiy psixologik xususiyatlarini, ularning adaptatsiya xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Psixologik mexanizmlar adaptatsiya jarayonida muhim rol o’ynaydi va shaxsning ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyati uchun zarurdir.

- psixologik mexanizmlar ijtimoiy ta'sir ya’ni guruh dinamikasi va ijtimoiy ta'sirning shaxs psixologiyasiga ta'siri hamda ijtimoiy ta'sirning ijtimoiy moslashuvga ko’rsatadigan ta'siri (konformizm, avtoritetga bo’ysunish)ga bo’g‘liq.

- identifikatsiya va rol o’ynash: shaxsning jamiyatdagi roli va uning o’zini o’ziga xos tarzda ifoda etishi; rol o’ynash orqali ijtimoiy moslashuvidan iborat.

- kognitiv mexanizmlar: kognitiv dissonans va uning ijtimoiy moslashuvga ta'sirini, mantiqiy fikrlash va qaror qabul qilish jarayonlarini o’z ichiga oladi.

-emotsional mexanizmlar: emotsiyalar va hissiyotlarning ijtimoiy moslashuvdagi roli; stress va uning ijtimoiy munosabatlaridan iborat.

- muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik hissi: o’z-o’zini baholash va ijtimoiy moslashuvdagi o’zgarishlar muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikka bo’lgan munosabatlarni o’z ichiga oladi.

Psixologlar bolaning muvaffaqiyatli hayotini ta’minlaydigan shaxsiy xususiyatlar,qobiliyat va ko‘nikmalar tizimi sifatida adaptatsiyasiga alohida e`tibor beradilar. Ijtimoiy adaptatsiya- (lot.adapto I adaptatsiyadan) shaxs va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayoni, uning davomida uning ishtirokchilarining talablari va kutishlari muvofiqlashtiriladi;

Shaxsni ijtimoiylashtirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlaridan biri, jarayoninig ijtimoiy muhitga faol ta’sir etishi ko‘rinishi va muhitdagi maqsad va qadryatlarni kelishuvchanlik bilan passiv qabul qilish ko‘rinishi bo‘ladi. Ijtimoiy adaptatsiya shaxs ijtimoiy hayotidagi asosiy ijtimoiy-psixologik omillardan biridir. Ijtimoiy adaptatsiyaning samaradorligi ko‘p jihatdan individ o‘zini va o‘zining ijtimoiy aloqalarini qanchalik o‘xshash (adekvat) anglashiga bog‘liq. O‘zi to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurning noto‘g‘riligi yoki yetarlicha emasligi ijtimoiy moslashuvning buzilishiga olib keladi, bu holat voqelikning eng ayanchli ko‘rinishi autizm (individning atrofdagilar bilan muloqot qilishdan qochib o‘zining ichki kechinmalari dunyosiga g‘arq bo‘lishi)dir.

Ijtimoiy adaptatsiya muammosi jahon psixologiyasida psixoanaliz, autizm, deprevatsiya kabi ilmiy yo‘nalishlarda tadqiq etib kelinadi. Bunda asosiy e’tibor adaptatsiyaning buzulishiga (ruhiy sohadagi buzulishlar, begonalashish, apatiya, alkogolizm, giyohvandlik va h.k.) va uni tuzatish(korreksiyalash)ning psixoterapevtik uslublariga autotrening, sotsiotrening vositalari yo‘naltiriladi. Yangi muhitga shaxsning kirishib ketishi uning xulqi, faoliyati, muomalasi orqali sodir bo‘lsa, adaptatsiyaning mukammalligi vujudga keladi. Shaxsning katta yoki kichik guruhlar muhitga adaptatsiyasi ichki samaradorligini oshiradi, ta’lim tarbiya jarayonini yaxshilashga yordam beradi. Ijtimoiy adaptatsiya-individning ijtimoiy muhitga doimiy faol moslashish jarayoni va bu jarayoning natijasi. Ijtimoiy moslashuv uzluksiz xususiyatga ega ekanligiga qaramasdan, uni odatda, individning o‘z faoliyatini va o‘zini o‘rab turgan ijtimoiy davrasini tubdan o‘zgartirish davrlari bilan bog‘laydilar.

Uzoq vaqt davomida insonning adaptatsiya muammosi ilmiy bilimlarning ko‘plab sohalarida asosiy masalalardan biri bo‘lib kelgan. Adaptatsiya nafaqat tez o‘zgaruvchan dunyoda, balki kelajakda ham inson hayotiyligini saqlab qolishning

eng haqiqiy usullaridan biridir. Adaptatsiyani muhim muammolar qatoriga kiritish hayotning real talablari bilan ham, ilmiy bilimlarni rivojlantirish mantig‘i bilan ham belgilanadi. Zamonaviy ijtimoiy fan jamiyat uchun dolzarb muammolarni hal qilishda faol va keng miqyosda ishtirok etib, inson xatti-harakatlaridagi o‘zgarishlarni anglash zarurati bilan duch kelmoqda. Moslashuv mexanizmlarini ochib berish odamlarning jamiyat, tabiat va o‘zi bilan munosabatlarining yangi shakllarini anglash, xulq-atvor dinamikasini bashorat qilish uchun kalit beradi. Insonning moslashuvi ko‘proq psixologik omil bilan bog‘liq. Insonning adaptatsiya qobiliyati haqiqatan ham ulkan. Inson tafakkurining sirlarini to‘liq ochib bo‘lmayapti, odamlarning adaptatsiya qobiliyatining sirlari esa uzoq vaqt davomida olimlar uchun sirli mavzu bo‘lib qolaveradi. Inson xatti-harakatlarining adaptatsiyasi har kuni namoyon bo'ladi. Agar siz “odamlarning adaptatsiyasiga misollar keltiring” deb topshiriq bersangiz, ko‘pchilik ekstremal sharoitlarda omon qolishning istisno holatlarini eslay boshlaydi. Bu kamdan-kam holatlar va yangi sharoitlarda ijtimoiy moslashish har kuni insonga xosdir. Biz tug‘ilish paytida, bolalar bog‘chasida, maktabda, jamoada, boshqa mamlakatga ko‘chib o‘tishda yangi muhitga harakat qilamiz. Tana tomonidan yangi sezgilarni qabul qilishning bu holati stress deb ataladi. Stress psixologik omildir, ammo shunga qaramay, uning ta’siri ostida ko‘plab fiziologik funktsiyalar o‘zgaradi. Agar inson o‘zi uchun yangi muhitni ijobiy deb qabul qilsa, yangi holat odatiy holga aylanadi, aks holda stress uzoq davom etishi va bir qator jiddiy kasalliklarga olib kelishi bilan tahdid qiladi. Bugungi kunda adaptatsiyaning mohiyatini anglash, uning o‘ziga xosligini inson hayotining boshqa usullari qatorida ko‘rish juda qiyin. Qiyinchiliklar, avvalambor, adaptatsiya jarayonlarini tavsiflash va tushuntirish bo‘yicha umumiy ko‘rsatmalar yo‘qligi sababli paydo bo‘ladi. Atrof muhit xususiyatlariga nisbatan ustun yo‘nalish bo‘lgan adaptatsiya - ijtimoiy, kasbiy, maktab va universitetlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Insonni tashkil etish darajasiga yo‘naltirish - ijtimoiy-psixologik, aqliy, psixofiziologik, fiziologik moslashishga ajratiladi. Bir qator kontseptual qoidalarni ko‘rib chiqish, shuningdek turli xil atrof-muhit sharoitida inson hayoti imkoniyatlarini o‘rganish bo‘yicha uzoq yillik tajriba bizni ishontirishga olib keladi, adaptatsiya jarayonlarini tushuntirish uchun yetarlicha ishonchli ma’lumotnoma insonning shaxsiyatida mavjuddir.

Adabiyotlarda adaptatsiya so‘zi keng va tor ma’noda ko‘rib chiqiladi. Keng, falsafiy jihatdan, “adaptarsiya shaxs va ularning tuzilmalari, funktsiyalari va xulq-atvori muvofiqlashtirilgan muhit o‘rtasidagi har qanday o‘zaro ta’sirlar” deb tushuniladi. Ushbu omilda bajarilgan ishlarda moslashuv shaxs va makrosiyosatni bog‘lash usuli, insonning ijtimoiy pozitsiyasining o‘zgarishi, yangi ijtimoiy rolni egallashi, ya’ni, adaptatsiya sotsializatsiya bilan bog‘liq.

Tor, ijtimoiy-psixologik ma’noda adaptatsiya odamning kichik guruh bilan, ko‘pincha sanoat yoki talaba bilan munosabati sifatida qaraladi. Ya’ni, adaptatsiya jarayoni deganda odamning kichik guruhga kirishi, u tomonidan belgilangan normalarni, munosabatlarni o‘zlashtirishi, a’zolar o‘rtasidagi munosabatlar tarkibida ma’lum bir joy egallashi tushuniladi. Adaptatsiyani o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, birinchi navbatda, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarga shaxs a’zo bo‘lgan kichik guruhlar vositachiligi sifatida qaraladi, ikkinchidan, kichik guruh o‘zi adaptatsiya shovqinida ishtirok etuvchi tomonlardan biriga aylanib, yangi ijtimoiy muhitni shakllantiradi-bu esa inson o`zi mos keladigan yaqin atrof-muhit sohasi hisoblanadi. Adaptatsiyani o‘rganayotganda eng dolzarb masalalardan biri bu adaptatsiya va sotsializatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasidir. Ijtimoiylashuv va ijtimoiy adaptatsiya jarayonlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, chunki ular shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning yagona jarayonini aks ettiradi. Ko‘pincha sotsializatsiya faqat umumiy rivojlanish bilan, moslashish esa-aloqa va faoliyatning yangi sharoitida allaqachon shakllangan shaxsning adaptiv jarayonlari bilan bog‘liq. Ijtimoiylashuv hodisasi shaxsning muloqot va faoliyatda amalga oshirilgan ijtimoiy tajribani faol takrorlash jarayoni va natijasi sifatida tavsiflanadi.

Ijtimoiy - psixologik adaptatsiyaning o‘xshash tushunchasi psixoanalitik va genetik yondashuvlar vakillari orasida kuzatilishi mumkin. Ularning kontseptsiyalaridagi asosiy narsa, ular atrof-muhitga moslashishni tananing o‘ziga xos xususiyati deb bilishadi. Inson taraqqiyoti jarayonida unga qo‘yilgan hayvonlarning instinktlarini bostirish uchun ko‘proq ehtiyoj bor. Z.Freydning nazariyasiga ko‘ra, bostirilgan ehtiroslar butunlay yo‘qolmaydi, balki turli tadbirlarga aylanadi. Misol uchun, agressivlik kuch-qudrat istagi, bilim-ko‘zga tashlanadigan ehtiros tufayli yuzaga keladi va boshqa har qanday faoliyat jinsiy tuyg‘ularning noroziligidan kelib chiqadi. Freydning nazariyasiga ko‘ra,nevroz inson va jamiyat o‘rtasida instinkt va aql o‘rtasidagi ziddiyatdan kelib chiqadi. Ba’zi kishilarning bu intilishlari shunchalik kuchli bo‘lishi mumkinki, kelajakda ularning xatti-harakatlarini aniqlashga yordam beradi. Turli xil himoya mexanizmlari yordamida amalga oshiriladigan adaptatsiya jarayoni ushbu shaxsiy tuzilmalar orasidagi muvozanatni o‘rnatishga imkon beradi va shu bilan nevrozning paydo bo‘lishidan saqlaydi.

Adaptatsiya jarayonida nafaqat shaxsiyat, balki atrof-muhit ham faol o‘zgarib turadi, natijada ular o‘rtasida psixologik muvozanat o‘rnatiladi, inson asosan o`zining yashash muhitini yaratadi. Jamiyatning tuzilishi va insonning o‘rni, uning moslashuvida hal qiluvchi ahamiyatga ega, shuningdek, uning "men"ining rivojlanishida ma’lum darajada ishtirok etadi. Shaxsning o‘zi, o‘z xulq-atvori

xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilishidan hosil bo‘lgan obraz-“Men”-obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini belgilaydi va uning barkamolligi mezonlaridan hisoblanadi. “Men”-obrazining ijtimoiy psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, tarbiya - shaxsning o‘zi va o‘z sifatlari to‘g‘risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta'rif berish mumkin. Demak, har bir inson o‘zini, o‘zligini qanchalik aniq va to‘g‘ri bilsa, tasavvur qilolsa, uning jamiyat normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo‘ladi, ya'ni u tarbiyalangan bo‘ladi. Ijtimoiylashuv tushunchasi ko‘proq ijtimoiy tajriba, jamiyat, sotsializatsiya institutlari va agentlari ta’sirida shaxsning rivojlanishi va shakllanishi bilan bog‘liq. “Men”-obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o‘sha shaxsni o‘rab turgan tashqi muhit, o‘zgalar va ularning munosabati katta rol o‘ynaydi. Odam o‘zgalarga qarab, go‘yoki oynada o‘zini ko‘rganday tasavvur qiladi. Bu jarayon psixologiyada refleksiya deb ataladi. Uning mohiyati aynan o‘ziga o‘xshash odamlar obrazi orqali o‘zi to‘g‘risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirishdir. Refleksiya “Men”- obrazi egasining ongiga taalluqli jarayondir. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mexanizmlari shakllanadi. Shunday qilib, sotsializatsiya jarayonida inson jamiyat tomonidan yaratilgan urf-odatlarni, me’yorlarni, rollarni qabul qiladigan, o‘zlashtiradigan obyekt sifatida harakat qiladi. Ijtimoiylashuv, o‘z navbatida, shaxsning jamiyatda normal ishtirokini ta’minlaydi. Ijtimoiy moslashuvning eng muhim tarkibiy qismi bu sub’ektning o‘zini baholashi, da’volari va taxminlarini uning imkoniyatlari va ijtimoiy muhit haqiqati bilan muvofiqlashtirishdir. Adaptatsiya faoliyatning maqsadlari, ijtimoiy normalar, ularga erishish yo‘llari va ushbu me’yorlardan ijtimoiy muhitdan chetga chiqish uchun sanktsiyalar bilan belgilanadi. Shaxs yoki guruh tomonidan moslashish ushbu maqsadlar, me’yorlar va sanktsiyalarni idrok etish va baholashga bog‘liq.

Adaptatsiya tushunchasi shaxs va atrof-muhit o‘rtasidagi muvozanatning normativ holatlarini o‘rganishga qisqartirildi va shuning uchun uzoq vaqt davomida moslashish tushunchasi sotsializatsiya tushunchasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Keyinchalik, bu muammo nafaqat insonning biologik organizm sifatida, balki ajralmas shaxs sifatida adaptatsiyasini o‘rganish nuqtai nazaridan ishlab chiqa boshlaydi, adaptatsiyani oddiy moslashish sifatida tushunish etarli bo‘lmagan bo‘lib chiqadi. So‘nggi paytlarda ijtimoiy adaptatsiyani o‘rganishda asosiy e’tibor shaxsiy samaradorlik, individual salohiyatni ro‘yobga chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan inson sharoitlari sohasiga o‘tdi.

Shaxsning ijtimoiy adaptatsiyaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish olimlarga bir qator asosiy qoidalarni belgilashga imkon berdi: ijtimoiy

moslashuv insonni o‘zgargan ijtimoiy sharoitga kirish yo‘llari va usullarini ijtimoiy o‘zgartirdi, shuning uchun u hayvonot dunyosidagi adaptiv mexanizmlardan sifat jihatidan farq qiladi; shaxsning ijtimoiy moslashuvi - bu o‘z faoliyatida bir qator bosqichlarni bosib o‘tadigan, joylashish ketma- ketligi o‘ziga xos ijtimoiy sharoitlarga bog‘liq bo‘lgan dinamik hodisadir; ijtimoiy hayotda shaxsning adaptatsion muloqotni tartibga solishda optimallashtirish omili, inson faoliyati samaradorligining sharti va sharti vazifasini bajaradi; o‘z tuzilishi bo‘yicha ijtimoiy adaptatsiya ikkita, o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismdan iborat:

-adaptiv vaziyat

-adaptiv ehtiyoj.

Ijtimoiy adaptatsiya-bu shaxs va jamiyatning o‘zaro ta’siri. Ijtimoiy moslashish jarayonibu nafaqat shaxsning atrof-muhitga moslashishi, balki teng huquqli tomonlarning o‘zaro ta’siri. Kursantlarning moslashish jarayoni- ularning ijtimoiy muhitga faol ta’siri ko‘rinishi va muhitdagi maqsad va qadriyatlarni kelishuvchanlik bilan, passiv qabul qilishdagi ko‘rinishi holatida aks etadi.

Ijtimoiy adaptatsiyaning samaradorligi ko‘p jihatdan kursantlarning o‘zini va ijtimoiy aloqalarini qanchalik o‘xshash (adekvat) anglashiga bog‘liq. Ko‘pincha kursantlar o‘zi to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurning noto‘g‘riligi yoki yetarlicha emasligi ijtimoiy adaptatsiyaning buzilishiga olib keladi, bu holat OTM muhitidagi moslashmagan kursant shaxsining ayanchli ko‘rinishi bo‘lib, u autizm deb yuritiladi. Autizm individning atrofdagilar bilan muloqot qilishdan qochib, o‘zining ichki kechinmalari dunyosiga g‘arq bo‘lishi holatiga olib keladigan psixik kasallik hisoblanadi. Adaptatsiya tushunchasi shaxsga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik voqelikka nisbatan muayyan sezgirlikning o’zgarishi, ya’ni kursantlarning o’quv jarayoniga, ularga qo’yilayotgan talablarga, o’quv faoliyatiga oid shaxslararo munosabatlarning barqaror ko’rsatkichlariga ko’nikish jarayonini anglatuvchi fanlararo (biologiya texnika, tabiiy,gumanitar fanlar) tushunchadir deb xulosa qilishimiz mumkin.

Insonning ijtimoiy muhit bilan munosabatda bo’lish usullari hamda unga adaptatsiya jarayoni ijtimoiy moslashuv tushunchasiga kiradi. Bu ham shaxsning o’zi kirgan jamiyatga adaptatsiyasi, ham uning mehnat faoliyati va ta’lim olgan jamoasi bilan munosabati. Agar inson yangi muhitga moslasha olmasa, u salbiy munosabat va keskinliklarga duch kelishi mumkin. Insonni hayoti jarayonida turli xil ijtimoiy muhitlar o’rab olishi mumkin: oila, maktab, yashash joyidagi yangi qo’shnilar va boshqalar. Ularda normal ishlashi uchun u hamma joyda ijtimoiy adaptatsiyadan o‘tishi kerak bo‘ladi. Ushbu konseptsiya, shuningdek, odam ishtirok etishi kerak bo’lgan yangi mehnat jamoasiga moslashishni ham o’z ichiga oladi-bu jarayon ishlab

chiqarishga adaptatsiya deb ataladi. Adaptatsiyaning ikki xil shakli mavjud bo`lib-faol va passiv adaptatsiyadir.

Birinchi holda, adaptatsiya tushunchasi shundan iboratki, bu erda etnik guruh atrof-muhitni o’zgartirish uchun unga ta'sir ko‘rsatishga harakat qiladi. Bunga ushbu etnik guruh uchun yangi muhitda qabul qilingan me’yorlar va qadriyatlar, shuningdek, u moslashishi kerak bo‘lgan faoliyat shakllari kiradi. Kuzatishlarimizdan ma’lum bo’ldiki, kursantlarning adaptatsiyasiga turli omillar ta’sir etadi, tengdoshlar tarbiyasida duch keladigan kamchiliklar, tengdoshlarning ta’siri, individual xususiyatlar, pedagoglarning ta’siri, o‘quv motivlari, tevarak-atrofdagi tengdoshlar, temperament tiplari ta’sir etishini aytishimiz mumkin.

Adaptatsiya tushunchasi fanlararo muammo bo’lib, bugungi kunda pedagogik, psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa fanlar darajalarida o’rganilmoqda. Adabiyotlarda adaptatsiya tushunchasining keng va tor ma’nolari keltirib o’tiladi. Keng ma’noda ya’ni, falsafiy jihatdan adaptatsiya deganda “...individ va atrof-muhit o’rtasidagi har qanday o’zaro ta’sir, bunda ularning tuzilmalari, funktsiyalari va xatti-harakatlarining muvofiqlashtirilishi” anglashiladi va ushbu jihatdan adaptatsiya shaxs va jamiyatni bog’lovchi, uning ijtimoiy mavqeini o’zgartiruvchi hamda yangi ijtimoiy rolga ega bo’lishiga imkon beruvchi jarayon sifatida izohlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Шевандрин Н.И. Психодиагностика, корекция и развитие личн ости.-М. 1998.

2. Nishanova Z.T., Alimbaeva Sh.T., Sherimbetova Z.Sh. Psixologik xizmat Elektron darslik. - T .: 2012 y.

3. Немов Р.С. Психологическое консультирование.-М.: ВЛАДОС 2003-528с. 4. Маркова И.В. Педагог-психолог. Основы профессиональной деятельности. -М .: Самара, Издательский дом БАХРАХ, 2004. - 2 8 8 с.

5. Maxmudova D.A. Psixokorreksiya asoslari. -T .: Fan va texnologiya nashriyoti. 2011.-128 b

HARBIY DISTANT OILALARNING PSIXOLOGIK MOSLASHUVINING SOTSIOMADANIY OMILLARI

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi o‘qituvchisi, psixol.f.b.f.d (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqola harbiy distant oilalarning psixologik moslashuv jarayoniga ta’sir etuvchi asosiy sotsiomadaniy omillarni tahlil qiladi. Harbiy xizmatning o‘ziga xos sharoitlari uzoq muddatli safarlar, yuqori xavf omillari, xizmat necessitativ ajralishlar oilaviy rollar taqsimoti, emotsional yaqinlikning barqarorligi va o‘zaro ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlariga sezilarli bosim ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, etnik-madaniy qadriyatlar, jamiyatda harbiy kasbning ijtimoiy nufuzi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarining rivojlanganlik darajasi hamda masofaviy muloqot madaniyati harbiy oilalarning moslashuv darajasini belgilovchi yetakchi determinantlar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, oilaviy birdamlik, barqaror qadriyatlar tizimi, ijobiy oilaviy identifikatsiya va muloqotning konstruktiv shakllari distant oilalarning psixologik moslashuv resurslarini kuchaytiruvchi muhim himoya omillari hisoblanadi. Olingan natijalar harbiy xizmat sharoitida yashovchi oilalar bilan ishlovchi psixologlar, ijtimoiy xodimlar va harbiy boshqaruv mutaxassislari uchun amaliy-uslubiy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: harbiy distant oilalar, demografik o‘zgarishlar, harbiy xizmatchilarga xos psixologik xususiyatlar, oila instituti, qadriyatlar transformatsiyasi, begonalashuv, oilaviy birdamlik, sotsiomadaniy omillar.

XX–XXI asrlarda yuz bergan modernizatsiya, raqamlashtirish va mehnat bozorining o‘zgarishi an’anaviy oilaviy tuzilmalarning zaiflashuviga olib keldi. Ushbu jarayonlar fonida turmush o‘rtoqlarning kasbiy yoki xizmat majburiyatlari sabab uzoq muddat ajralib yashashi bilan tavsiflanadigan distant oilalar rivojlana boshladi. Harbiy xizmatning o‘ziga xos xususiyatlari uzoq safarlar, rotatsion xizmat, xavf omillari va yuqori psixologik bosim harbiy oilalarni distant turmush shakliga eng ko‘p duch keluvchi guruhga aylantirmoqda. Bunday sharoit oilaviy rollarning barqarorligi, emotsional yaqinlikni saqlash va psixologik moslashuv jarayonini murakkablashtiradi. Shu bois harbiy distant oilalarning psixologik moslashuviga ta’sir etuvchi sotsiomadaniy omillarni o‘rganish hozirgi davr ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarining dolzarb yo‘nalishlaridan biridir.

Ayni paytda jahon miqyosida oila instituti tub o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Mazkur jarayonlar mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy va

iqtisodiy transformatsiyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular shaxs psixologiyasi va oilaviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatda sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Harbiy xizmat sharoitidagi oilalar bu o‘zgarishlarning eng sezgir qatlamlaridan biri sanaladi. Chunki harbiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari – rotatsion xizmat, uzoq muddatli safarlar, xavf omillari va yuqori psixologik bosim – oilaviy munosabatlar tizimida yangi adaptiv mexanizmlarni shakllantirishni talab etadi.

Harbiy distant oilalarda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, bir tomondan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qulay imkoniyatlaridan foydalanish orqali o‘zaro muloqotni davom ettirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan, hissiy yaqinlikning susayishi, o‘zaro psixologik qo‘llab-quvvatlashning pasayishi va oilaviy barqarorlikning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan bunday oilalarda ajralishlar, bir ota-onali oilalarning ko‘payishi, hissiy begonalashuv va ijtimoiy izolyatsiya kabi salbiy demografik tendensiyalar yanada keskin namoyon bo‘lmoqda.

Harbiy distant oila bu turmush o‘rtoqlardan biri yoki ota-onalardan birining xizmat majburiyatlari tufayli uzoq muddat boshqa hududda yashashga majbur bo‘lgan, biroq axborot-kommunikatsion vositalar yordamida oilaviy aloqalarni saqlab qoladigan ijtimoiy birlikdir. Bunday oilalarda shaxsning o‘z oilaviy rolini masofadan turib bajarishi, farzand tarbiyasi va emotsional yaqinlikni qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos shakllari shakllanadi. Shu sababli harbiy distant oilalar zamonaviy sotsial-psixologik tadqiqotlarda dolzarb obyekt sifatida qaralmoqda.

Zamonaviy psixologiyada oila tizimining transformatsiyasi tobora ko‘proq e’tibor qozonmoqda. Yu.I.Aleshina, V.N.Drujinin, G.Navaytis, O.S.Alekseyova kabi olimlarning ta’kidlashicha, oila mustaqil tizim bo‘lishiga qaramay, jamiyatda kechayotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlarni bevosita aks ettiradi [7, 120 b.]. Harbiy distant oilalar esa ushbu jarayonlarning eng yorqin ko‘rinishlaridan biridir. Masofaviy turmush shakli oilaviy tizimda kommunikativ, hissiy va axloqiy bog‘liqliklarni yangicha formatda qayta tashkil etishni, shuningdek, harbiy xizmatning sharoitlariga mos psixologik moslashuv strategiyalarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Oiladagi tizimlilikning asosiy tamoyili oilaviy munosabatlarning tarkibiy yaxlitligidir. Ammo distant oilalarda bu yaxlitlik masofaning o‘zi bilan sinovdan o‘tadi: yaqinlik virtual shaklga ko‘chadi, hissiyotlar raqamli muloqotga moslashadi, va bu holat shaxsning psixologik barqarorligini yangi darajada sinaydi. Shu boisdan, bunday oilalar tahlilida sinergetik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. U oilaviy munosabatlarni chiziqli bo‘lmagan, muvozanatsiz tizim sifatida tahlil qilish imkonini beradi [1, 226 b.].

Harbiy distant oilalarda oila psixologiyasi erkinlik, tenglik va o‘zaro hurmat tamoyillariga tayanadi. Harbiy xizmatning o‘ziga xos sharoitlari – uzoq safarlar, geografik ajralganlik va vaqt cheklovlari – turmush o‘rtoqlarning mustaqil qaror qabul qilishi, vaqtni boshqarishi va hissiy ehtiyojlarni muvofiqlashtirishini yanada zarur qiladi. Shu sababli bunday oilalarda barqarorlik nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy omillar, balki psixologik moslashuvchanlik, muloqot madaniyati va raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash bilan belgilanadi.

A.I.Antonov ta’kidlashicha, oila shaxsiy ehtiyojlar va ijtimoiy funksiyalarni uyg‘unlashtiruvchi tizimdir. Harbiy distant oilalarda esa bu uyg‘unlikning yangi ko‘rinishi “virtual yaqinlik” modeli shakllanadi, bunda oila a’zolari hissiy aloqani raqamli vositalar orqali qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, bevosita muloqotning kamayishi va jismoniy ishtirokning cheklanishi oilaviy birdamlikka ma’lum darajada salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Psixologik nuqtai nazardan, harbiy distant oila – bu yuqori darajadagi hissiy intizom, mas’uliyat va o‘zaro ishonch talab qiluvchi murakkab tizimdir. Harbiy xizmat tufayli uzoq muddatli ajralish sharoitida shaxsning emotsional barqarorligi, empatiya darajasi va ishonch munosabatlari oilaviy moslashuvning asosiy psixologik determinantlari sifatida namoyon bo‘ladi. Masofadan turib muloqot qilish, farzand tarbiyasida virtual ishtirok, hissiy yaqinlikni texnologiyalar orqali yetkazish kabi jarayonlar yangi ilmiy tadqiqotlar uchun alohida yo‘nalish yaratmoqda.

I.S.Demina ta’kidlaganidek, oilaviy rivojlanishni tahlil qilishda iqtisodiy, biologik va psixologik omillarni kompleks yondashuv asosida ko‘rib chiqish zarur. Harbiy distant oilalarda esa ushbu tizimga axborot-kommunikatsion omillar ham qo‘shiladi, jumladan:

- Texnologik omillar: aloqa chastotasi, vaqt zonalari farqi, onlayn platformalarning barqarorligi va mavjudligi;
- Ijtimoiy-madaniy omillar: yashash sharoitlari, madaniy farqlar, psixologik masofa va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlov;
- Individual xususiyatlar: kommunikativ kompetensiya, stressga chidamlilik, raqamli texnologiyalarga moslashuv darajasi.

Ushbu omillar uyg‘unligi harbiy distant oilalarning psixologik barqarorligi va adaptatsion salohiyatini belgilovchi muhim mexanizmlar sifatida qaraladi.

N.N.Obozov fikricha, oilaning asosiy belgilari yo‘naltirilganlik, birlikka intilish va ahillikdir [5, 90 b.]. Harbiy distant oilalarda bu fazilatlar sinovdan o‘tadi: masofa jismoniy yaqinlikni kamaytirishi mumkin, biroq shu bilan birga o‘zaro ishonchni chuqurlashtiradi. Bunday oilalarda “masofa paradoksi” kuzatiladi: uzoqlik hissiy bog‘liqlikni mustahkamlovchi omilga aylanishi mumkin.

I.F.Yudina ta’kidlaganidek, zamonaviy oilalarning muammolari moddiy, ijtimoiy va psixologik omillar bilan belgilanadi [6, 88 b.]. Harbiy distant oilalarda esa bu omillar quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- Moddiy muammolar: ikki manzilni yuritish, uzoq safarlar va xizmat hududlarida

yashash bilan bog‘liq xarajatlar;

- Tarbiyaviy muammolar: bolalar bilan hissiy va tarbiyaviy muloqotning kamayishi;
- Psixologik muammolar: yolg‘izlik, emotsional beqarorlik, ishonch krizisi, virtual aloqa orqali tuyg‘ularni ifoda etishdagi cheklovlar.

Shu bilan birga, distant oila shunchaki muammolar majmui emas. Bu — yangi ijtimoiy va psixologik moslashuv modeli, unda harbiy xizmatchi raqamli muhit orqali hissiy yaqinlikni saqlash, sevgi va sadoqatni uzluksiz davom ettirishga intiladi. Natijada bunday oilalar zamonaviy jamiyatda inson ruhiyatining elastikligi va moslashuvchanligining yorqin namunasini tashkil etadi.

I.M.Trubavina “distant oila”ni a’zolari turli sabablarga ko‘ra bir-biridan uzoq masofada yashaydigan oilalar sifatida ta’riflaydi. Harbiy kontekstda bunday masofa ko‘pincha uzoq safarlar, rotatsion xizmat, harbiy topshiriqlar yoki komandirovkalar tufayli yuzaga keladi. Shu bilan birga, oilaning moddiy ta’minoti, bolalarni vaqtincha qarindoshlar yoki internatga topshirish kabi omillar ham masofaviy turmushga sabab bo‘lishi mumkin. Trubavina bunday oilalarni ko‘pincha muammoli (noqonliq) turkumga kirishga moyil deb hisoblaydi [7].

V.S.Torokhtiy hayot faoliyati sharoitlariga ko‘ra distant oilalarni g‘amxo‘rlik yetishmovchiligi, otalikning nomuntazamligi va shunga o‘xshash xususiyatlar bilan aniqlaydi. Harbiy oilalar bu toifaga ayniqsa tegishli, chunki xizmatdagi majburiyatlar oilaviy muntazamlikni cheklaydi. U bunday oilalarga harbiylar, dengizchilar, bort kuzatuvchilari, sportchilar va san’atkorlar oilalarini kiritadi [9].

D.I.Penishkevich esa distant oilalarni uch toifaga ajratadi, harbiy oilalar kontekstida ular quyidagicha ko‘rinish oladi:

1. O‘zaro tushunish mavjud bo‘lgan oilalar: harbiy xizmatchi va turmush o‘rtoq masofadan turib o‘ziga ajratilgan rollarni bajaradi; biri farzandlar tarbiyasi, uy-joy masalalari yoki boshqa moddiy masalalarni hal qiladi.
2. Noto‘liq distant oilalar: xizmat davomida faqat bitta ota-onasi uyda qoladi, ko‘pincha ona yoki ota; bu holatda ikkinchi ota-onaning rollari masofadan boshqariladi.
3. Har ikki ota-ona uzoq muddat xizmatda yoki safarda bo‘ladi: farzandlar odatda qarindoshlar, qo‘ni-qo‘shnilar yoki internat nazorati ostida qoladi [5].

Xulosa qilib aytganda, harbiy oilalardagi distantlik sharoitida oilaning psixologik barqarorligi, tarbiyaviy strategiyalari va hissiy yaqinlikni saqlash mexanizmlari alohida e’tibor talab qiladi. Uzoq muddatli xizmat va rotatsion tizim oilaning adaptiv salohiyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

T.G.Veretenko va N.V.Zaveriko distant oilalarning tipologiyasini ishlab chiqib, uch asosiy mezonni ajratadilar: (a) distant oilaning vujudga kelish sabablari (barqaror oilaviy munosabatlar saqlangan holda), b) oilaviy munosabatlar sifati, (c) qarindoshlik darajasiga ko‘ra birga yashash shakli [2].

Birinchi mezon – vujudga kelish sabablari asosida harbiy oilalarda quyidagi turlar ajratiladi:

1. Uzoq muddatli xizmat yoki safar tufayli: harbiy xizmatchi uzoq safarda bo‘ladi va oilaning bir qismi uzoq muddat alohida yashaydi.
2. Rotatsion yoki xorijiy xizmat: ota-onalardan biri uzoq muddat (odatda 5 yil va undan ortiq) xorijda xizmat qiladi.
3. Mavsumiy xizmatlar: ota-onalardan biri yaqin xorijga doimiy ravishda mavsumiy harbiy yoki boshqa xizmat vazifalarini bajarish uchun ketadi.
4. Vaqtinchalik maxsus xizmatlar: neft-gaz sohalari, harbiy texnika va boshqa maxsus xizmatlar tufayli ota-onalarning vaqti-vaqti bilan yo‘qligi.
5. Harbiy, dengizchi, sportchi yoki san’atkor oilalari: ota-onalar vaqtincha xizmat,

turnir yoki safarda bo‘ladi, natijada oilaning bir qismi uzoqda qoladi.

6. Oilaviy parchalanish: turmush o‘rtog‘ining bir yoki ikkalasi uzoq muddat oiladan alohida yashaydi.
7. Nikohdan tashqari farzandlar: ota-ona hech qachon birga yashamagan, farzandlar esa ota yoki ona bilan masofadan turib tarbiyalanadi.
8. Xalqaro oilalar: turli davlat fuqarolaridan iborat oilalar bo‘lib, farzandlar muayyan davrlarda ota-onalardan biri bilan yashaydi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy oilalardagi distantlik sabablari xizmat majburiyatlari, rotatsion tizimlar va boshqa kasbiy sharoitlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, oilaning psixologik barqarorligi va moslashuvchanligi uchun alohida tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Ikkinchi mezon – oilaviy munosabatlar sifati bo‘yicha harbiy distant oilalar quyidagicha tasniflanadi:

1. Barqaror (qonliq) oilalar va noqonliq oilalar;
2. Konfliktli oilalar va konfliktsiz oilalar.

Uchinchi mezon – qarindoshlik darajasiga ko‘ra birga yashash shakli:

1. Bola ota-onalardan biri bilan yashaydigan oilalar (masofadan xizmat qilayotgan

harbiy ota-onaning o‘rnini uyda qolgan turmush o‘rtoq yoki qarindosh to‘ldiradi);

2. Bola qarindoshlar bilan yashaydigan oilalar (ota-onaning uzoq muddat xizmat safarlari tufayli farzand qarindoshlar nazorati ostida bo‘ladi);
3. Vasiylik (patronat/foster) oilalar;
4. Homiy oilalar.

Harbiy distant oilalarning kengayishi ijtimoiy-iqtisodiy va xizmat bilan bog‘liq omillar bilan uzviy bog‘liq. Ularning shakllanishida asosiy sabab — oilaning moddiy farovonligi va moliyaviy ta’minot ehtiyoji, shuningdek, uzoq muddat xizmat va rotatsion tizim bilan bog‘liq masofaviy yashash.

O.A. Volkova va A.N. Ostavnaya ma’lumotlariga ko‘ra, o‘rtacha har 10 nafar mehnat migrantining 2 nafari chet elda olti oygacha, 4 nafari esa yiliga 7–9 oy ishlaydi [4]. Harbiy oilalarda xizmat safarlarida yoki rotatsion majburiyatlar tufayli ota-onaning uzoq muddat mamlakatdan tashqarida bo‘lishi natijasida oilaviy munosabatlar o‘ziga xos tarzda shakllanadi. Bu holat o‘smirning psixologik rivojlanishi va o‘z-o‘zini anglash jarayoniga ta’sir qiladi. Masofadan xizmat qilayotgan harbiy ota-onalarning farzandlari tengqurlari bilan bir xil ijtimoiy va o‘quv muammolarga duch keladi (masalan, maktabda, tengdoshlari bilan munosabatlarda), biroq ota-onaning uzoqligi sababli qo‘shimcha psixologik qiyinchiliklar yuzaga keladi: ota-onalar uchun xavotir, bezovtalik, yolg‘izlik, qo‘rquv, o‘zini haddan tashqari tasdiqlashga urinishlar. Ko‘pincha bu deviant xulq va tez-tez sodir bo‘ladigan konfliktlarga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Боярин Л. В. Некоторые аспекты феномена дистантной семьи и причин ее возникновения // Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов. 2014. URL: http://www.jurnal.org/artides/2014/psih44.html (дата обращения: 13.05.2015).
2. Веретенко Т.Г., Заверико Н.В. Социально-педагогическая работа с дистантными семьями // Научный вестник Черновицкого университета. Педагогика и психология. 2005. Вып. 225. С. 92-97.
3. Гордиенко Н.В. Современная украинская дистантная семья как объект социально-педагогической работы // Научный вестник Черновицкого университета. Педагогика и психология. 2005. Вып. 263. С. 57-61.
4. Оставная А.Н., Волкова О.А. Приднестровская трудовая миграция: штрихи к потенциальной социальной политике // Научно-аналитический журнал «Актуальные проблемы экономики и менеджмента». 2014. № 1 (1). URL: http:// www.sstu.ru/nauka/nauchnye-izdaniya/zhurnal-aktualnye-problemy-ekonomiki-i-menedzhmenta/.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ АДАПТАЦИЯ И САМОРЕГУЛЯЦИЯ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ КАК ИНТЕГРАЛЬНЫЙ МЕХАНИЗМ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ УСТОЙЧИВОСТИ

Киёмхужаева Мадина Рустамбек кизи
Преподаватель кафедры «Воспитательно-психологического обеспечения служебной деятельности» Университета общественной безопасности

Аннотация: В статье рассматривается взаимосвязь психологической адаптации и психической саморегуляции военнослужащих как единой интегративной системы, обеспечивающей профессиональную устойчивость в условиях военной службы. Анализируется значение адаптационных процессов, механизмов саморегуляции, их взаимное влияние на развитие эмоционально-волевой стабильности и эффективности служебно-боевой деятельности. Показано, что успешная адаптация усиливает ресурсы саморегуляции, а развитая саморегуляция ускоряет и стабилизирует процесс профессионально-психологической адаптации. Представлены ключевые психологические факторы, определяющие устойчивость военнослужащих к стрессовым воздействиям и экстремальным условиям.

Ключевые слова: психологическая адаптация, саморегуляция, военнослужащие, стрессоустойчивость, профессиональная устойчивость, военная деятельность, эмоциональная стабильность.

В настоящее время наряду с глобализацией и масштабными изменениями в психологической, научной, социально-психологической, социально-политической сферах, современные реформы проводятся также и в военной отрасли, что непосредственно отражается в деятельности и успешности военнослужащих. Анализируя вопрос о военной службе, мы можем отметить, что она относится к числу наиболее напряжённых видов профессиональной деятельности и предполагает постоянное воздействие стрессогенных факторов, жесткую регламентацию поведения, высокую степень ответственности и необходимость функционирования в условиях неопределенности и риска. В таких условиях особую значимость приобретают два взаимосвязанных психологических процесса – адаптация и саморегуляция, которые только в совместном взаимодействии могут сформировать основу профессиональной устойчивости военнослужащего. Психологическая адаптация отражает способность военнослужащего приспосабливаться к социальным, профессиональным, физическим и эмоциональным требованиям службы. Она включает освоение воинских норм и традиций, вхождение в коллектив,

усвоение профессиональных обязанностей, формирование устойчивого эмоционального состояния и приспособление к интенсивным физическим нагрузкам. Успешность адаптации определяет, насколько быстро и эффективно военнослужащий сможет включиться в служебно-боевую деятельность и сохранять психологическое равновесие.

Психическая саморегуляция рассматривается как сложная и многоуровневая система внутренних психофизиологических и когнитивно-волевых механизмов, направленных на целенаправленное управление эмоциональными состояниями, поведенческими реакциями и параметрами психофизиологической активации субъекта деятельности. Согласно подходам, представленным в трудах А.Б.Леоновой, саморегуляция выступает ключевым компонентом профессиональной психологической надежности человека в условиях деятельности повышенной сложности [4]. Для военнослужащих механизмы психической саморегуляции представляют собой критически важный ресурс поддержания оптимального уровня функционального состояния, необходимого для сохранения концентрации внимания, эмоциональной стабильности и эффективности действий в условиях интенсивных стрессовых и экстремальных воздействий. Исследования В.А.Бодрова показывают, что способность к регуляции эмоционального напряжения напрямую определяет устойчивость к профессиональным стрессорам и снижает вероятность дезадаптивных форм реагирования.

Система саморегуляции включает несколько ключевых компонентов: когнитивные стратегии переработки информации, направленные на рационализацию ситуационных стрессоров и снижение их субъективной значимости; эмоционально-регуляторные механизмы, обеспечивающие контроль и модуляцию интенсивности эмоциональных реакций; волевые процессы, связанные с мобилизацией внутренних ресурсов и поддержанием целенаправленной активности; физиологические техники регуляции, включающие дыхательную саморегуляцию, методы мышечной релаксации и техники управления активационными процессами организма.

Развитие навыков психической саморегуляции способствует снижению уровня ситуативной тревожности, повышению стрессоустойчивости и профилактике эмоционального выгорания, что подтверждается рядом исследований в области психологии деятельности в экстремальных условиях [3], [7]. Более того, наличие освоенных регуляторных стратегий формирует у военнослужащего состояние функциональной готовности к действиям в условиях неопределенности и угрозы, что является критериальным признаком профессиональной устойчивости [2].

Адаптация и психическая саморегуляция представляют собой взаимодополняющие элементы единой функциональной системы, обеспечивающей устойчивость профессионального функционирования личности военнослужащего. Их взаимодействие характеризуется принципом взаимного усиления: развитые регуляторные механизмы способствуют более быстрому и стабильному прохождению адаптационных процессов, в то время как успешная адаптация создает благоприятные условия для углубления и стабилизации механизмов саморегуляции. Как упоминалось выше, способность к регуляции эмоциональных и поведенческих реакций является одним из ключевых факторов, уменьшающих напряженность адаптации и повышающих психологическую надежность субъекта деятельности.

С одной стороны, сформированные навыки саморегуляции позволяют военнослужащему более эффективно приспосабливаться к новой социальной, профессиональной и эмоциональной среде, снижая интенсивность воздействия стрессогенных факторов и содействуя конструктивному усвоению норм воинской службы. Благодаря регуляторным стратегиям снижается уровень ситуативной тревожности, повышается эмоциональная устойчивость, что способствует ускорению адаптации и минимизации дезадаптивных проявлений [2]. С другой стороны, успешная адаптация способствует укреплению механизмов саморегуляции. Освоение требований военной среды, включение в социально-профессиональную структуру подразделения и формирование чувства контроля над происходящим ведут к росту субъективной эффективности и уверенности в собственных возможностях. Как указывает К.А.Абульханова (2019), чувство контроля является важнейшим внутренним условием формирования устойчивых регуляторных стратегий и опорных моделей поведения, позволяющих субъекту сохранять стабильность в условиях неопределённости.

В условиях служебно-боевой деятельности взаимодействие адаптации и саморегуляции проявляется наиболее отчетливо при воздействии стрессовых и экстремальных факторов. Исследования деятельности в условиях опасности показывают, что способность военнослужащего к поддержанию оптимального функционального состояния, предотвращению панических реакций и оперативному принятию решений является следствием синергии адаптационных ресурсов и регуляторных умений. Именно интеграция этих процессов обеспечивает эффективное выполнение задач, требующих высокой концентрации, эмоциональной устойчивости и волевой мобилизации. Таким образом, взаимосвязанное функционирование механизмов адаптации и саморегуляции становится ключевым условием формирования

профессиональной устойчивости военнослужащих. Профессиональная устойчивость в данном контексте понимается как способность субъекта длительное время сохранять высокую эффективность деятельности, противостоять стрессу, поддерживать мотивацию и предотвращать развитие специфических форм психической дезадаптации. Такая устойчивость выступает основой психологической надежности личного состава, определяя его способность выполнять служебно-боевые задачи в широком спектре условий, включая экстремальные и критически опасные.

Профессиональная устойчивость военнослужащего в значительной степени определяется качеством его психологической подготовки, уровнем сформированности механизмов психической саморегуляции, а также успешностью социальной и профессиональной адаптации. Согласно исследованиям В.А.Бодрова (2006), профессиональная устойчивость выступает основным условием надежного выполнения деятельности в условиях повышенной сложности и риска. Уровень развития регуляторных стратегий и адаптационных ресурсов непосредственно влияет на способность военнослужащего сохранять эффективность деятельности в ситуациях напряжения, неопределенности и угрозы. Профессиональная устойчивость является ключевым фактором надежности и эффективности служебно-боевой деятельности, поскольку обеспечивает устойчивое функционирование психики, предотвращает дезорганизацию поведения и способствует поддержанию оптимального уровня работоспособности. Как отмечает А.М.Столяренко (2021), психологическая подготовка в вооружённых силах должна быть ориентирована не столько на обучение отдельным элементам стресс-менеджмента, сколько на системное развитие интегративных механизмов регуляции поведения и состояния. В этом контексте особое значение приобретает формирование целостной системы «адаптация – саморегуляция», выступающей фундаментом профессионального благополучия и ресурсной устойчивости военнослужащего.

Развитие психологической адаптации и механизмов психической саморегуляции рассматривается современными военными психологами как стратегическое направление обеспечения профессиональной надежности личного состава [4]. Взаимосвязанное функционирование этих процессов позволяет военнослужащему поддерживать эмоционально-волевую стабильность, эффективно противостоять стрессовым воздействиям, предупреждать развитие дезадаптивных состояний и сохранять высокую продуктивность деятельности в любых условиях, включая экстремальные и кризисные.

Таким образом, интеграция адаптационных и регуляционных механизмов становится центральным элементом системы психологического обеспечения военной службы. Она обеспечивает формирование готовности к действиям в условиях риска, способствует повышению боеспособности личного состава и укреплению профессиональной надежности. В современных условиях, характеризующихся усложнением служебно-боевых задач, внимание к данным механизмам приобретает особую значимость, поскольку именно они определяют способность военнослужащего сохранять функциональную устойчивость и психологическое благополучие при воздействии экстремальных факторов.

Литература

1. Абульханова-Славская К.А. Психология личности и деятельности. – М.: Наука, 2019.
2. Бодров В.А. Психологический стресс: развитие, обучение, деятельность. – М.: ПЕР СЭ, 2006.
3. Карамушка Л.М. Психология деятельности в экстремальных условиях. – Киев: Либра, 2017.
4. Леонова А.Б. Психология стрессоустойчивости и саморегуляции. – М.: Изд-во МГУ, 2018.
5. Марков Б.В. Психическая адаптация человека в условиях военной службы. – СПб.: Питер, 2020.
6. Небылицын В.Д. Воля и регуляция поведения. – М.: Академический проект, 2016.
7. Столяренко А.М. Психология военной службы. – М.: Юрайт, 2021.
8. Юревич А.В. Психологическая адаптация в условиях профессиональной деятельности. – М.: ИП РАН, 2015.

XORIJIY DAVLAT ARMIYALARDA AXLOQIY-RUHIY TAYYORGARLIKKA BO‘LGAN YONDASHUVLAR.

Mirzayev Nuriddin Xamidulayevich
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy musiqa akademik litseyi direktorining harbiy va jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha o‘rinbosari, podpolkovnik
(+998 97 797 40 22)
MirzayevNuriddin821@gmail.com

Annotatsiya ushbu tezisda xorijiy armiyalarda axloqiy-ruhiy tayyorgarlikka bo‘lgan yondashuvlar hamda jahondagi etakchi mamlakatlarning qurolli kuchlar shaxsiy tarkibining yuksak axloqiy-ruhiy holatini ushlab turishni milliy xavsizlikni ta’minlash sohasining ustuvor yo‘nalishlari xaqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: xorij, harbiy, jahon, axloqiy-ruhiy, mamlakat, armiya, harbiy-kasbiy, mutaxassis.

Jahondagi etakchi mamlakatlarning harbiy-siyosiy rahbariyati qurolli kuchlar shaxsiy tarkibining yuksak axloqiy-ruhiy holatini ushlab turishni milliy xavsizlikni ta’minlash sohasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘radi.

Har bir davlat armiyasida harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi turlicha olib boriladi. Jumladan, Amerika va Rossiyada bu jarayon asosan jangovar va jismoniy tayyorgarlik davomida maxsus o‘quv markazlar va dala mashg‘ulotlarida olib boriladi. Buyuk Britaniyada asosiy e’tibor tanlov asosida saralash va harbiy-kasbiy o‘quv jarayoniga qaratiladi (ma’lumot uchun: Britaniya armiyasi ixtiyoriy-shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilardan tuzilgan). Germaniyada axloqiy-ruhiy tayyorgarlik olib borish uchun eng qulay vaqt bu bo‘linma va qismlarni jangovar jipslashtirish davridir. Yaponiya “O‘z o‘zini mudofaa qilish kuchlari”da askar va ofitserlar xizmatining barcha bosqichlarida, ayniqsa mashqlar va manyovrlar davrida amaliy bajariladi.

Harbiy mutaxassislarning fikriga ko‘ra, shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy holatini ko‘tarishga ta’sir qiluvchi asosiy omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

davlatning harbiy-sanoat salohiyatini yuksaltirish va mustahkamlash hamda zamonaviy harbiy-siyosiy vaziyat talablari va mamlakat milliy xavfsizligini ta’minlash darajasida ushlab turish;

intellekt, jismoniy kuch va harbiy xizmat uchun kuchli motivatsiya. Hujjatda ana’naviy axloqiy-ruhiy va axloqiy-estetik me’yorlarni singdirishning amaliy mexanizmi ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu yondashuv moddiy rag‘batlantirish tamoyillari bilan chambarchas holatda harbiy xizmatchilarning ruhi va ongiga ta’sir o‘tkazadi.

Undan tashqari, axloqiy-ruhiy tayyorgarlikda samarali va aniq bir maqsadga erishish uchun G‘arb davlatlari armiyalarida maxsus tashkilotlar tuzilgan bo‘lib, ular ushbu tayyorgarlik ustidan nazoratni amalga oshirishadi. Shu bilan birga, tashkilot vakillari ana shunday tayyorgarlikni amalga oshirishning shakl va metodlarini ofitser va serjantlarga ham o‘rgatish bilan shug‘ullanishadi.

G‘arb davlatlari harbiy mutaxassislarining ushbu tayyorgarlikka o‘z qarashlari mavjud bo‘lib, ularning fikriga ko‘ra, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik tushunchasi quyidagilarni o‘z ichiga qamrab oladi:

axloqiy ruhni shakllantirish;

siyosiy ta’lim;

shaxsiy tarkibni jangovar harakatlarni olib borishga jismoniy tayyorligi.

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik quyidagilarga javob berishi kerak:

birinchidan, axloqiy-jangovar sifatlarni shakllantirish uchun ushbu tayyorgarlikning bor imkoniyatidan foydalanish va har tomonlama qamrab olishi shart. Har tomonlama qamrab olishiga, ofitserlar va askarlarga ta’sir qilishning zamonaviy usul va uslublarini, harbiy psixologlar va sotsiologlar ishlab chiqqan eng so‘nggi metodlarini, mashg‘ulotlar o‘tkazishning eng yangi shakllarini qo‘llash orqali erishiladi;

ikkinchidan, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik real bo‘lishi kerak. Bunga erishish uchun ushbu tayyorgarlik alohida ishlab chiqilgan rejaga asosan, maxsus jihozlangan dala o‘quv maydoni va o‘quv markazlarida, jangovar vaziyatni real holatini yaratish bo‘yicha barcha texnik vositalar imkoniyatidan foydalanish zarur;

uchinchidan, samaralilik. Buning uchun harbiy xizmatchilar qisqa tayyorgarlikdan so‘ng jang olib borishga qobiliyatli bo‘lishiga erishish zarur;

to‘rtinchidan, tizimlilik. Maxsus tadbirlarni tashkillashtirish va o‘tkazishda bosqichma-bosqichlik va mantiqiliylikka erishish kerak;

beshinchidan, tayyorgarlik industrial xarakter kasb etishi kerak. Bunda uning bajarilishi, zamonaviy harbiy texnika va qurollar imkoniyatlariga moslashtirilgan sifat darajasiga muvofiqligini anglatadi.

Shuningdek, qurolli kuchlar shaxsiy tarkibining axloqiy-ruhiy holatiga ta’sir ko‘rsatuvchi salbiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

ma’naviy-axloqiy tarbiyaning pasayishiga sabab bo‘luvchi haddan tashqari moddiy rag‘batlantirishga qiziqish;

dushmanni nazarga ilmaslik, o‘z kuchini ortiqcha baholash;

jangovar xarakatlar jarayonida tashabbuskorlikni yo‘qotish;

irqiy bid’atlar, individualizmning namoyon bo‘lishi, shuhratparaslik, munosabatlarda ziddiyat borligi;

spirtli ichimliklar, narkotik moddalarni suiiste’mol qilish kabilardir.

Shuningdek, shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy tayyorgarligining asosiy yo‘nalish va uslublarini quyidagicha belgilashadi:

realistik qiyofani, harakatlar taktikasini, ehtimoliy dushmanning jangovar imkoniyatlarini modelini tuzish;

harbiy xizmatchilarni jangovar harakatga bo‘lajak jang harakatlari mintaqasining tabiiy-geografik va havo-iqlimi sharoitida tayyorlash;

zamonaviy jangni real modelini ko‘p qirrali ko‘rinishini tuzish;

harbiy bo‘linmaning jipsligi, ularda bir-birini qo‘llash va o‘zaro yordam munosabatlarini shakllantirish;

Odatda, harbiy xizmatchilarni axloqiy-ruhiy tayyorgarligini quyidagi o‘ziga xos senariy asosida tashkillashtirishadi.

Buning birinchi bosqichida, odatda o‘ziga xos psixoterapiyani amalga oshiradi.

Bu degani o‘qitish jarayonida ataylab shunday sharoit yaratiladiki, u harbiy xizmatchilarda salbiy psixologik holat keltirib chiqaradi. Jangovar vaziyatga yaqin holatga tushganda askar ko‘pincha o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini yo‘qotadi, loqayd va depressiya holatigi tushadi, unda qo‘rquv xissi tug'iladi. Ko‘pincha bunday holatda bosh aylanishi, ko‘ngil aynishi, qo‘l-oyoqlarining uvishib qolishi kabi holatlar vujudga keladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. N.Makiavelli Voyennoye iskusstvo.http://militera.lib.

2.N.Tolibov. Sovershenstvovanie metodiki razvitiya professionalnoy kompetentnosti budущix letchikov-injenerov avtoref. dis.…doktora filosofii (PhD) po ped. nauk: 13.00.05 – Teoriya i metodika professionalnogo obrazovaniya. Tashkent - 2021.

3. F. Umarov. Razvitie professionalnoy kompetentnosti budущix ofitserov avtoref. Dis//doktora filosofii (PhD) po ped. nauk: 13.00.01 – teoriya pedagogiki. Istoriya pedagogicheskix nauk Tashkent - 2021.

4. A.Svechin. Evolyutsiya voyennogo iskusstva. Uolker. Chingiz-xan. Rostov-na-Donu: 1998. 210 s.

https://sirpublishers.org/

HARBIY FAOLIYATDA AXLOQIY-RUHIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISH TENDENSIYALARI

D.Mamatkulov
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti,
Falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent
R.Payonova
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
3-bosqich kursanti
S.Marshabov
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
3-bosqich kursanti

Harbiy xizmatchi va xodimlarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiluvchi jangovor chorlov vositalarni zamonaviy shakllarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish vazifasi birinchi navbatda, mazkur yo‘nalishlarda xalqimizga tegishli boy tajriba, milliy mentalitet va e’tiqodni hamda bugungi kunda bevosita jangovor harakatlarni boshdan kechirgan va kechirayotgan mamlakatlardagi xorijiy tajribalarni hisobga olishni talab etadi.

Bizningcha, Yangi O‘zbekiston Qurolli kuchlar tizimida jangovor chorlov vositalarini zamon talablari asosida rivojlantirish quydagi yo‘nalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- Jangovor nutqlar;
- Jangovar chaqiriq va jangovor hayqiriqlar;
- Vizual jangovor vositalari: jangovor bayroq va jangovor plakatlar;
- Akustik jangovor vositalar.

Birinchi jangovor chorlov vositasi hisoblanmish jangovor nutq o‘z mohiyatiga ko‘ra, verbal jangovor chorlov vositalarining asosiy turi bo‘lib, u o‘z xarakteriga ko‘ra, individual ya’ni, harbiy yetakchining nazariy va amaliy tajribalarining mahsuli hisoblanadi.

Jangovor nutq garchi, individual hodisa hisoblansada, biroq, harbiy amaliyotda uni xalq mentaliteti va e’tiqodiga mos keladigan aniq shakllari ustida ish olib borilsa zarar qilmaydi. Jumladan, harbiy yetakchilar uchun jangovor nutqlarni tayyorlovchi - spichrayter (inglizcha: speechwriter) - yuqori martabali davlat amaldorlari, siyosatchilar, jamoat arboblari yoki tadbirkorlar uchun nutq tayyorlovchi)lar jangovor nutq mazmunini tayyorlashda tarixdagi ta’sirchan jangovor nutqlar shakli va mazmunini inobatga olishlari tavsiya qilinadi. Harbiy amaliyotda o‘zbek xalqning tarixiy tajribasi, mentaliteti va e’tiqodi hamda shunga mos keladigan xorijiy tajribalarni o‘zlashtigan holda yaratilgan jangovor nutqlar shubhasiz harbiy xizmatchi va xodimlarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirishning garovi hisoblanadi.

Ikkinchi jangovor chorlov vositasi bu jangovar chaqiriq va hayqiriqlar bo‘lib, hozirda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan harbiy xizmatchi va xodimlarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirishda bir qator jangovar chaqiriq va hayqiriqlar qo‘llanib kelinmoqda.

Ma’lumki, jangovor chaqiriq va hayqiriq harbiy mazmundagi qo‘shiqdan farq qiladi. Mazkur farq avvalo, jangovor chaqiriq va hayqiriq she’riyat talablariga mos kelmasligida, unda qofiya birlamchi emas, balki, mazmun, ruhiy-emotsional pafos ustuvorlik qilishida ko‘rinadi. Yana ham oddiyroq izohlaganda, jangovor chaqiriq va hayqiriq o‘z shakl va uslubiga ko‘ra klassik qo‘shiq janrlaridan ko‘ra ko‘proq zamonaviy rep janriga yaqin hisoblanadi. Oksford inglizcha lug‘atiga ko‘ra ingliz tilidagi rep (inglizcha rap) fe’li asosiy ma’nosiga ko‘ra “tez, aqlli va zarba bilan aytish” yoki “keskin, kuch bilan aytmoq, buyruq ohangida aytmoq”[26] ma’nolarini bildiradi.

Demak, janovor chaqiriq va hayqiriqlar qofiya bilan aytilmasligi, ularda mazmun, ruhiy-emotsional pafosni ustuvorlik qilishi, zarb bilan, kesib, buyruq va jangovor ohangida ijro etilganligi uchun ham o‘ziga xos janrga ega bo‘lib, shu ma’noda, ularning yangi, zamonaviy shakllarini yaratishda mazkur jihatlarini inobatga olish juda zarur hisoblanadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, ta’sirchan shakl va mazmundagi jangovor chaqiriq va hayqiriqlarni xalq mentaliteti va e’tiqodidan ayro holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu ma’noda, harbiy xizmatchi va xodimlarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirishga qartilgan jangovor chaqiriq va hayqiriqlarni yaratish jarayonida asakarlarning milliy va diniy qadriyatlarini hisobga olish juda muhim hisoblanadi.

Zamonaviy, ta’sirchan jangovor chaqiriq va hayqiriqlarni yaratishda jangovor harakatlarni boshdan o‘tkazgan xorijiy xalqlarning tajribalarini o‘rganish ham muhim hisoblanadi. Shu ma’noda olib borilgan ilmiy izlanishlar Turkiya, Ozarbayjon hamda Ukraina Qurolli kuchlaridagi jangovor chaqiriq va hayqiriqlar mazmunida quyidagi jihatlar mavjudligini ko‘rsatadi: Turkiya Qurolli kuchlarining jangovor chaqiriq va hayqirig‘i mazmuni: jang oldi yuzaga keladigan qo‘rquvni yengishdan boshlanadi, keyin Vatanga ta’rif beriladi. Bu jarayonda Vatan qahramonlari Mehmetchik (Turkiya armiyasi askarlarini hurmat bilan ifodalash uchun ishlatiladigan atama. Bu atamani yuzaga kelishi I jahon urushi qatnashchisi Usmonli armiyasining serjanti, qahramon Bigali Mehmet Chavush (1878–1964) ga asoslangan)[27] obrazi orqali tilga olinadi. Eng asosiysi jangovor chaqiriq va hayqiriq davomida Turk xalqining milliy

[26] Shorter Oxford English Dictionary, 3rd edition, 1970, p. 1656.
[27] Devid Nikol. 1914–18 yillarda Usmonli piyoda askarlari. Osprey nashriyoti, 2010. p. 38.

va diniy qadriyatlari *“Men azon bo‘ldim tinmadim”, “Men shahid bo‘ldim, o‘lmadim”, “Men shahidlar qabr toshiman”* kabi jumlalar orqali esga olinadi.

Ozarbayjon Qurolli kuchlarining jangovor chaqiriq va hayqirig‘ida ham Ozar halqining tarixiy-milliy qadriyati *“Shanimiz Turk yodi”* jumlasida, diniy (islom) e’tiqodidagi «shayton» tushunchasi esa, *“Shaytonning ham umidini uzgan millatman”* jumlalarida o‘z ifodasini topadi.

Ukraina Qurolli kuchlarining jangovor chaqiriq va hayqirig‘ida ham ukrain xalqining milliy va diniy (xristian dinining) qadriyatlari ustuvorlik qiladi: *“Ukraina, yurtimiz ona-zamin, Xudo, osmondagi otamiz, Baraka bering!”.*

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, jangovor chaqiriq va hayqiriqlar borasidagi xorijiy davlatlar tajribasi harbiy xizmatchi va xodimlarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirishga qartilgan jangovor chaqiriq va hayqiriqlarni yaratishda askarlarning milliy va diniy qadriyatlari hisobga olish juda muhim ekanligini isbot qiladi. Mazkur aksioma o‘z-o‘zidan, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida qo‘llanilayotgan jangovor chaqiriq va hayqiriqlarni yuqoridagi talablar asosida qayta ko‘rib chiqish lozimligini ko‘rsatadi.

Maqolamizning aynan mazkur qismi harbiy xizmatchi va xodimlarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirishga qartilgan jangovor chaqiriq va hayqiriqlarni yaratishga bag‘ishlanganligi uchun ham mualliflik yondashuvi asosida yuqoridagi talablar inobatga oligan holda ishlab chiqilgan quyidagi jangovor chaqiriq va hayqiriqning tavfsiyaviy matnini keltiramiz:

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirishga qartilgan jangovar chaqiriq va hayqiriqning tavfsiyaviy matni

(komandirga tegishli qismi jangovor chaqiriq, shaxsiy tarkibga tegishlisi jangovor hayqiriq hisoblanadi)

Komandir (1):
VATAN –
onamiz issiq noni,
otamiz cho‘ng choponi,
VATAN –
opa-singil kulgichi,
o‘g‘il-qizlar sevinchi!

Shaxsiy tarkib (1):
Vatan, tanim - iymonim!
Ular yo‘qki, men yo‘qman!

Shu yo‘lda chiqar jonim!

O‘tman, olovman, cho‘g‘man!

Jiddu - jahdda Temurman!
Jangda sherman, Boburman!

Komandir (2): *VATAN –*
Sen ne desang hozirmiz!
Yo, shahid yo, g‘oziymiz!

Shaxsiy tarkib (2): *Tomirda turkiy qoni!*
Yo Vatan, yo o‘lim shu!

Olaman dushman jonin!
Maslagim shu, yo‘lim shu!

Jiddu-jahdda Temurman!
Jangda sherman, Boburman!

Komandir (3): *VATAN –*
Sen uchun biz Shiroqmiz!
Temur Malik, Jalolmiz!
Boshi tik Sarbadormiz!
Navqiron Elomonmiz!

Shaxsiy tarkib (3): *O‘zbekning askarimiz!*
Millatning askarimiz!

Bu askar yiqilmaydi!
Bu askar yiqilmaydi!

Bu askar chekinmaydi!
Bu askar chekinmaydi!

Jiddu-jahdda Temurmiz!
Jangda shermiz, Boburmiz!

Komandir (4): *Vatan – jonu-tanimdir!*
Bayrog‘im kafanimdir!

Bir qarich yer berilmas,
Yer bergan er deyilmas!

Shaxsiy tarkib (4): *Biz har yerda hozirmiz!*
Yerda, suvda, havoda!

Biz har nega qodirmiz!
Yerda, suvda, havoda!

Maqsadimiz g‘alaba!
Maqsadimiz g‘alaba!

Alloh shuni hohlaydi!
Alloh bizni qo‘llaydi!

Jiddu-jahdda Temurmiz!
Jangda shermiz, Boburmiz!

Taklif etilayotgan jangovor chaqiriq va hayqiriqning (*qavs ichidagi raqamlarga qarang*) birinchi komandirga tegishli qismida Vatan timsoli onamiz issiq noni (*bu o‘rinda xalqimiz qadimdan o‘z o‘g‘lonlarini urushga non tishlatib yuborilganligiga oid udumga ham ishora mavjud*) hamda otamizning qadimiy, milliy choponi, opa-singil va farzandlar hursanchiligiga rahiy-emotsianal jihatdan bog‘langan.

Ma’lumki, har qanday axborot shaxsda muayyan his-tuyg‘uni uyg‘ota olsagina, ta’sirchan ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham bugungi kunda marketologlar reklamalar tayyorlashda shu usulga amal qiladi. Masalan, Colgate tish pastasi[28] yoki Coca-Cola[29] reklamalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri mahsulot emas, avvalo his-tuyg‘u beradigan manzara namoyish etiladi. O‘z vaqtida AQSh ham II jahon urushiga yuborilayotgan askarlarga Vatan timsolini «askarning onasi tomonidan tayyorlanadigan olmali pirog»ga bog‘lab targ‘ib etgan[30]. Bugungi kunda ham «olmali pirog» AQSh Qurolli kuchlarining norasmiy ramzlaridan biri hisoblanadi.

Komandirdan so‘ng shaxsiy tarkibning birinchi jangovor hayqirig‘ida *“Vatan, tanim - iymonim!”* jumlasi «Hubbil vatani minal-imon» - «vatanni sevish imondan» iborasiga asoslangan bo‘lib, bu ibora jadid ajdodimiz Abdulhamid Cho‘lponning

[28] 10 креативных реклам зубной пасты. https://zg-brand.ru/statiy/top-10/tooth/ (murojaat qilingan sana: 03.11.2022).
[29] Coca-Cola marketing muvaffaqiyatining kaliti: hissiy brendingni o'rganish. https://tenchat.ru/media/1051597-razgadka-marketingovogo-uspekha-cocacola-issledovaniye-emotsionalnogo-brendinga (murojaat qilingan sana: 11.09.2023).
[30] Счастье по-американски. https://www.kommersant.ru/doc/3814410 (мурожаат этилган сана: 07.12.2022).

Kecha va kunduz romani[31]da mohirona qo‘llanilgan. Bu o‘rinda Vatan, jon, imon bir asosga qo‘yilganki, ularni birini yo‘qligi insonni yo jismonan yo ma’nan yo‘qlikka mahrum bo‘lishini, shu sababli ham har uchchalasi uchun kurashish bir xil ma’noga ega ekanligi anglatilgan.

Jangovor hayqiriq barcha qismlarida naqorat sifatida takrorlanadigan *“Jiddu - jahdda Temurman! Jangda sherman, Boburman!”* iborasi askarlarimizni buyuk sarkarda bobolarimizning me’rosxo‘ri ekanini yodga solishga qaratilgan.

Komandirning ikkinchi jangovor chaqirig‘i mazmunida islom ta’limoti va musulmon jamiyatida Vatan yo‘lida jang qilib «o‘lgan shahid, o‘ldirgan g‘oziy» iborasining kuchli g‘oyaviy-ruhiy ta’siri inobatga olingan. Darhaqiqat, Sobiq Ittifoq davriga qadar bu ibora xalqimiz uchun asosiy jangovor chaqiriq bo‘lib kelgan. Bu jangovor chaqiriqdan o‘z vaqtida Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Milliy ozodlik harakati a’zolari (qo‘rboshilar) va boshqa vatanparvar ajdodlarimiz unumli foydalangani tarixdan ma’lum bo‘lib, mazkur chaqiriqda ushbu tarixiy haqiqat tiklangan.

Shaxsiy tarkibning ikkinchi jangovor hayqirig‘i mazmunida Sohibqiron Amir Temurning “Biz kim-mulki Turon, amiri Turkistonmiz! Biz kim-milatlarning eng ulug‘i, Turkning bosh bo‘g‘inimiz!” nomli nutqiga ishora qilinib, asliyatimizda jangovor turkiylar qoni oqayotgani yodga solingan. Mazkur g‘oya ayni shu kunlarda turkiy davlatlar hamkorligi tabora mustahkamlanib borayotgan bir davr uchun ham dolzarb hisoblanadi. Keyingi o‘rinda “Yo Vatan, yo o‘lim shu!” iborasi orqali Shayx Najmiddin Kubroning mo‘g‘illarga qarshi butun xalqni oyoqqa turg‘azib jangga kirganida “Yo Vatan, yo sharafli o‘lim”, deya hayqirgan jangovor chaqirig‘iga ishora mavjud. So‘ngra Vatanni mudofa qilish, unga bostirib kirgan dushmanni jonini olish har bir vatanparvar shaxsning maslagi, hayotiy yo‘li ekanligi ta’kidlangan.

Komandirning uchinchi jangovor chaqirig‘i mazmunida Vatan yo‘lida jang qilib va shu yo‘lda mardonavor o‘lim topgan vatanparvar o‘g‘lonlarining nomlari xronologik ketma-ketlikda sanalgan bo‘lib, mazkur ro‘yxatdan qadimdan to hozirgi kundagi zamondosh Vatan qahramonlari joy olgan.

Shaxsiy tarkibning uchinchi jangovor hayqirig‘i askarlarga o‘zbek millatining askari ekanligidan g‘ururlanishga qaratilgan. Keyingi o‘rinlarda tarixiy tajriba, ya’ni 1941-yildan to 1942-yilning birinchi yarmigacha Sovet armiyasida chekinish, qurshovga tushish ko‘paygani sababli 1942-yil 16-iyunda 227-sonli Davlat mudofaa qo‘mitasining buyrug‘i ishlab chiqilgani, mazkur buyruqqa binoan «Sovet askarlari orqaga chekinmaydi», «dushmanga taslim bo‘lmaydi» talabi qo‘yilgani, buning natijasida armiyada «Ne shagu nazad» (bir qadam ham ortga chekinmaslik) shiori va

[31] Абдулҳамид Чўлпон. Кеча ва кундуз (роман). https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/abdulhamid-cholpon/abdulhamid-cholpon-kecha-va-kunduz-roman/ (мурожаат этилган сана: 02.10.2023)

jangovar hayqirig‘i yuzaga kelib, jangovor harakatlarning borishiga ijobir ta’sir ko‘rsatgani yodga olingan.

Komandirning to‘rtinchi jangovor chaqirig‘i mazmunida O‘zbekiston Respublikasining “Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi Qonunining 5-moddasida harbiy xizmatchi va xodimlarning dafn marosimlarida bayroqdan foydalanish mumkin[32]ligi, xorij tajribasida ham Vatan yo‘lida jang qilgan askar vafot etsa, uni dafn marosimi harbiy-vatanparvarlik an’anasi va ritmlari asosida tobut ustiga bayroq qo‘yilgan holda dafn etilishi urg‘ulangan. Keyingi o‘rinda o‘zbek xalqning “Er kishi yer bermas, yer bergan er bo‘lmas” mazmunidagi maqoli orqali dushmanga Vatanning bir qarichi ham berilmasligi to‘g‘risida undov ilgari surilgan.

Bizningcha, jangovor chaqiriq va hayqiriqda mana shunday xalqimiz hayotida tarixan shakllangan maqol, rivoyat, doston va boshqalardan foydalanish, aytuvchi va eshituvchi tomonidan uni oson qabul qilishiga, natijada esa, qisqa vaqt ichida uni xalqning harbiy-vatanparvarlik tajribasi va merosida o‘ziga xos o‘rin egallashiga sabab bo‘ladi.

Shaxsiy tarkibning to‘rtinchi jangovor hayqirig‘i mazmunida O‘zbekiston Qurolli kuchlarining quriqlikdagi, daryo va havo hujumidan mudofaa salohiyatiga urg‘u berilgan bo‘lib, mazkur hududlar ishonchli qo‘llarda ekanligi, jangovor harakatlarning pirovard maqsadi g‘alaba va yana so‘zsiz g‘alaba ekanligi ta’kidlangan.

Jangovor hayqiriqning keyingi qismida Alloh kalimasini qo‘llanilishi, ulkan g‘oyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, bu kalima harbiy xizmatchi va xodimlarning diniy e’tiqodlari hamda axloqiy-ruhiy holatlariga kuchli ta’sir etib, Qur’oni Karim[33]da aytilgan, quyidagi oyatlarga mos keladi:

– «Sizdan (ey Muhammad!) bandalarim Mening haqimda so‘rasalar, (ayting) Men ularga yaqinman. Menga iltijo qiluvchining duosini ijobat eturman. Bas, ular ham Meni (da’vatlarimni) ijobat (qabul) etib, Menga imon keltirsinlar, shoyad (shunda) to‘g‘ri yo‘lga tushib ketsalar» *(Baqara surasi, 186-oyat).*

– «Ey Rabbim, bu buzg‘unchilar qavmi ustidan O‘zing meni g‘olib qil!» *(Ankabut surasi, 30-oyat).*

– «Ey Rabbim! O‘zing menga (bu) zolimlar qavmidan najot bergin!» *(Qasas surasi, 21-oyat).*

Taklif etilayotgan mazkur jangovor chaqiriq va hayqiriq mazmunida yuqorida ta’kidlanganidek, rep janriga qisman yaqin keladigan ritm, ya’ni “tez, aqlli va zarba bilan aytish”, “keskin, kuch bilan aytmoq, buyruq ohangida aytmoq” talablari hisobga olingan. Uni she’r shakliga kelib qolmasligi uchun ham shaklan qofiyalashib

[32] Ўзбекистон Республикасининг “Давлат байроғи тўғрисида”ги Қонуни. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 08.07.2023 й., 03/23/853/0462-сон.
[33] Қуръони карим: маъноларининг таржима ва тафсири / - Т.: “Тошкент ислом университети”, 2004. - 624 б.

qolishdan saqlangan. Undan tashqari Turkiya, Ozorbayjon va Ukraina Qurolli kuchlarining mazkur sohadagi tajribalari ham inobatga olingan holda jangovor chaqiriq va hayqiriq mazmunida o‘zbek halqining milliy qadriyatlari, tarixiy va zamonaviy qahramonlarining obrazlari hamda diniy e’tiqodni anglatuvchi omillarga mos tarzda o‘rinlar ajratilgan.

Hozirda mazkur yo‘nalishda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan (2024-yil 5-martdagi 14/676-son xati asosida) “nostandart vaziyatlarda yuksak jangovor ruh va mustahkam ruhiy chidamlikka erishishga xizmat qiluvchi jangovor chaqiriq va shiorlarning yangi namunalarini yaratish” borasida ishlar izchil amalga oshirila boshlaganini inobatga olsak, yuqorida keltirilgan jangovor chaqiriq va hayqiriqqa oid mualliflik taklifimiz o‘rinli ekani yana bir bor o‘z tasdig‘ini topadi.

Shu o‘rinda harbiy xizmatchi va xodimlarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirish borasida vizual jangovor vositalaridan biri hisoblangan jangovor bayroqning ham ahamiyati beqiyos ekanligini ta’kidlash lozim.

Hozirda, qo‘lga kiritilgan ilmiy xulosalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tizimida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarga jangovor bayroqqa nisbatan g‘urur va iftihorni yanada oshirish, uni ostida birlashish hamda jangovor bayroq uchun kurashish xissini yanada kuchaytirish maqsadida harbiy musobaqalarni tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bizningcha, mazkur musobaqaning saralash bosqichi avvalo O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimidagi barcha vazirlik va idoralar o‘rtasida, musobaqaning yakuniy, Respublika bosqichini esa, O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i qabul qilingan kunda o‘tkazilishi lozim bo‘lib, musobaqada g‘olib bo‘lgan harbiy xizmatchi va xodimlarni “Bayroqdor” ko‘krak nishoni (bu nishonni ham oldindan mahsus tashkil etish lozim) bilan taqdirlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Undan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘iga (harbiy-vatanparvarlik mazmunidagi kinofilmlar, teatr va boshqa san’at asarlari orqali) jangovorlik tusini berish lozim. Binobarin, jangovorlik tuyg‘usi harbiy xizmatchi va xodimlarda davlat bayrog‘iga nisbatan kuchli ruhiy-emotsional bog‘liqliqni shakllantiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Bizningcha, jangovor bayroqning axloqiy-ruhiy ta’sirini yanada oshirishda bayrog‘imizdagi oq rangli yangi oy va o‘n ikkita oq rangli besh qirrali yulduz tasviridan unumli foydalanish, ya’ni ularni harbiy xizmatchi va xodimlar formasidagi asosiy belgilar, jumladan, yengga taqiladigan uqa (shevron)da ko‘proq ishlatish maqsadga muvofiq bo‘lib, bu “oq rangli yangi oy” islom dinidagi hilol bilan bog‘liqlikni yuzaga kelishini ta’minlaydi. Jangovor va xizmat faoliyatida islom omili askarlarga diniy e’tiqodini yuzaga chiqishiga va shu orqali o‘z vazifasini jiddu-jahd bilan bajarishiga sabab bo‘ladi.

Jangovor bayroqning harbiy xizmatchi va xodimlarga axloqiy-ruhiy ta’sirini oshirishning yana bir zamonaviy tendensiyalaridan biri, bu O‘zbekiston Respublikasining “Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi Qonunining 5-moddasidagi jangovor bayroqdan “...harbiy xizmatchi va xodimlarning dafn marosimlarida... foydalanilishi mumkin”[34]ligi to‘g‘risidagi mazmunga o‘zgartirish kiritilishi bo‘lib, bu undagi “mumkin” mazmunini “shart” mazmuniga o‘zgartirishni nazarda tutadi. Binobarin, bunday yondashuv “mumkin” ya’ni, qilsa ham qilmasa ham bo‘laveradi mazmunini bekor qilib, uning o‘rniga harbiy xizmatchi va xodimlarning dafn marosimida bayroqni aniq tartibda ishlatilishini ta’minlab beradi. Dafn marosimlarida odamlardagi ruhiy-emotsional holat kundalik hayotdagidan butunlay farq qilishini inobatga olsak, bunday tadbirlarda davlat bayrog‘ini ishlatilishi harbiy xizmatchi va fuqarolarda bayroqqa nisbatan kuchli axloqiy-ruhiy bog‘liqlikni yuzaga kelishini ta’minlab beradi.

Harbiy xizmatchi va xodimlarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirish borasidagi vizual jangovor vositalaridan yana biri bu jangovor plakatlar bo‘lib, ta’kidlash kerakki, mazkur vosita milliy harbiy tariximizda hali qo‘l tegilmagan sohalardan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, jangovor plakatlar janri O‘zbekiston Qurolli kuchlari tizimida ilmiy tadqiqotlarga asoslangan holda o‘ziga xos ta’sirchan asarlar yaratilishini kutayotgan zamonaviy tendensiyalardan biridir.

Ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3219-son “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori[35] ga asosan O‘zbekiston Badiiy akademiyasiga tasviriy va amaliy san’atini yanada rivojlantirish asosiy vazifa sifatida yuklatilgan. Bizningcha, bugungi kunda O‘zbekiston tasviriy san’atida harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishiga oid tarixiy va zamonaviy mazmundagi jangovor plakatlarga ulkan ehtiyoj mavjudligini hisobga olgan holda Badiiy akademiya faoliyatida mazkur mavzuga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Albatta, ushbu yo‘nalishdagi ishlar O‘zbekiston Badiiy akademiyasi hamda manfaatdor vazirliklar bilan hamkorlikda tashkil etilsa, tizmida harbiy xizmatchi va xodimlarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiluvchi jangovor plakatlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish imkoniyati vujudga keladi.

Harbiy xizmatchi va xodimlarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirishda barcha jangovor chorlov vositalari qatori akustik jangovor chorlov vositalarining ham o‘z o‘rni va roli mavjud. Biroq, tarixga nazar tashlasak, Rossiya imperiyasi hamda

---

[34] Ўзбекистон Республикасининг “Давлат байроғи тўғрисида”ги Қонуни. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 08.07.2023 й., 03/23/853/0462-сон.

[35] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 16 августдаги ПҚ-3219-сон “Ўзбекистон Бадиий академияси фаолиятини ривожлантириш ва янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 22.04.2020 й., 07/20/4688/0475-сон.

sobiq SSSR davrida milliy ruhdagi akustik jangovor chorlov vositalari, ya’ni milliy harbiy cholg‘u asboblari amaliyotdan to‘lig‘icha olib tashlangan. Ularning o‘rniga esa, hozirgacha qo‘llanilib kelinayotgan Yevropa - Rossiya standartidagi akustik jangovor chorlov vositalari amaliyotga joriy etilgan. Bugungi kunda, mustaqillik bergan imkoniyat hamda tarixiy haqiqatni tiklash maqsadida O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tizimiga xalqaro standartdagi akustik jangovor chorlov vositalar (cholg‘u asboblar)i qatoriga karnay, surnay, doira kabi milliy cholg‘u asboblarimizni kiritish va ular orqali milliy ruhdagi harbiy ohanglarni yaratish ayni muddao bo‘lib, mazkur zamonaviy tendensiyani amalga oshirish harbiy xizmatchi va xodimlarda axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni yanada oshirishning garovi hisoblanadi.

Darhaqiqat, akustik jangovor chorlov vositalar (cholg‘u asboblari) hamda milliylikka yo‘g‘irilgan harbiy ohanglar bevosita millat madaniyatining xosilasi hisoblanib, ular milliy shakl va uslubda bo‘lgan taqdirdagina harbiy xizmatchilarga milliy ruh, Vatan va millatidan g‘ururlanish hamda ular uchun jon fido qilish xissini berishi mumkin.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-avgustdagi PQ-3212-son “O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori[36]ga asosan O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasiga: xalqimizning estetik talab va ehtiyojlarini har tomonlama hisobga olgan holda, zamonaviy ruhdagi badiiy yuksak asarlar yaratish, katta musiqiy asarlar, jumladan, opera, simfoniya, konsert va oratoriya kabi mumtoz janrlar rivojiga alohida e’tibor qaratish vazifasi yuklatilgan. Bizningcha, bugungi kunga qadar harbiy sohada milliy akustik jangovor vositalar (cholg‘u asboblari) hamda milliylikka yo‘g‘irilgan harbiy ohanglar yetishmayotganligini hisobga olgan holda O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi tomonidan mazkur masalaga jiddiy e’tibor qaratish, sohaga milliy cholg‘u asboblar va ohanglarni olib kirish mamlakat mudofasiga dahldor bo‘lgan dolzarb masalalardan biridir.

Ta’kidlash kerakki, jangovor chorlov vositalari masalasida Oliy harbiy va harbiylashgan ta’lim muassasalari ham chetda qolmaydi. Binobarin, bugungi kundagi jarngovor harakatlar xarakter jihatdan axborot urushi va axloqiy-ruhiy bosim o‘tgazishga yo‘nalganligi bois Oliy harbiy va harbiylashgan ta’lim muassasalarida jangovor nutq, jangovar chaqiriq va jangovor hayqiriqlarni o‘rganish, ijro etish, zamonaviy jangovor plakatlar yaratish va akustik jangovor vositalardan foydalanish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borish, mazkur yo‘nalishlarda o‘quv kurslari va kursantlarning ijodiy to‘garaklarini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

[36] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 15 августдаги ПҚ-3212-сон “Ўзбекистон композиторлари ва бастакорлари уюшмаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги Қарори. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 33-сон, 843-модда.

Yuqoridagi tahlil, taklif va tavsiyalar asosida xulosa qiladigan bo‘lsak, jangovor chorlov vositalariga oid yangi, zamonaviy tendensiyalarni aniqlash va ularni amaliyotga tadbiq etib borish masalaga kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda jangovor chorlov vositalariga mos keladigan milliy va diniy qadriyatlarini aniqlash, mazkur sohada yutuqqa erishgan xorijiy davlatlar tajribalarini o‘rganish va shular asosida ularni amaliyotga kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jangovor chorlov vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ko‘p tarmoqli jarayon bo‘lib, unda yuqorida tilga olingan manfaatdor tashkilotlarning ham yordami zarur bo‘ladi. Ushbu sohadagi ishlar avvalo O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi Qonuni, mamlakat mudofaa va milliy xavfsizligini ta’minlash, fuqaro muhofazasi sohasidagi qonunchilik hujjatlarining asosiy talablarini hisobga olgan holda muvofiqlashtirib borishni talab etadi. Bir so‘z bilan aytganda bugungi davr talablari asosida jangovor chorlov vositalarini yaratilishining asosiy buyurtmachisi sifatida bu jarayonda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Favqulotda vaziyatlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi va boshqa manfaatdor tashkilotlar hamkorligi asosiy rolni o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 08.07.2023 y., 03/23/853/0462-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagi PQ-3219-son “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.04.2020 y., 07/20/4688/0475-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 avgustdagi PQ-3212-son “O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 33-son, 843-modda.

4. Qur’oni karim: ma’nolarining tarjima va tafsiri / - T.: “Toshkent islom universiteti”, 2004. - 624 b.

5. Abdulhamid Cho‘lpon. Kecha va kunduz (roman). https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/abdulhamid-cholpon/abdulhamid-cholpon-kecha-va-kunduz-roman/ (murojaat etilgan sana: 02.10.2023).

HARBIY FAOLIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINING TASHKILIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

D.Mamatkulov
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti,
Falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent
D.Mamajonova
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
3-bosqich kursanti
K.Omonov
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
3-bosqich kursanti

Ma’lumki, yaqin tariximizgacha muayyan axborotni olov, tutun, chopar, qushlar, karvon, shimol mamlakatlarida esa, itlar singari vositalar orqali bir manzildan ikkinchi manzilga yetkazib kelingan. Mazkur axborot tashuvchilar tomonidan axborotni belgilangan manziliga yetkazgunga qadar bir necha soat, kun yoki oylar ketgan.

XX asr o‘rtalaridan boshlab muayyan xabar axborot komunikatsiya texnologiyalari (AKT) orqali uzatila boshlandi. XX asrning so‘ngi o‘n yilligida boshlangan AKTning intensiv rivoji telefon, radio, televideniya, internet kabilar bir mamlakat doirasidan chiqib sayyoraviy maqomga ko‘tarilishiga olib keldi. Mazkur rivojlanish avvalo axborot uzatish tezligiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Endilikda, AKT orqali muayyan axborotni bir manzildan ikkinchi manzilga yetkazish tezligi 0,6 sekundga yetdi. Mazkur o‘zgarishlar natijasida yo‘ldosh (sputnik) telefoniyasi, yo‘ldosh radiotelevideniyasi, internet hamda ijtimoiy tarmoqlar insoniyat hayotidan mutloq o‘rin egalladi.

Ta’kidlash kerakki, dunyo taraqqiyoti axborot va uning uzatish bilan bog‘liq quyidagi uch bosqichni bosib o‘tdi. Ular:

1. Ilk, sodda shaklda axborot uzatish davri;
2. Faol axborot uzatish davri;
3. Yolg‘on axborot uzatish davri.

Bugungi kunda insoniyat jamiyati yolg‘on axborot uzatish davriga kirib keldi. Darhaqiqat, hozirda global yoki lokal axborot makonida ishonchli axborotlar ulushidan ko‘ra “fake news” - soxta axborotlar ulushi katta miqdorni tashkil etmoqda.

Davrimizning asosiy xususiyatlaridan yana biri shundaki, bugungi kunga kelib, an’anaviy bozor va raqobatdan mutloq farq qiladigan yangi bozor va raqobat shakllari vujudga keldi.

Yangi bozorda mahsulot emas, inson e’tibori sotilmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoq kompaniyalari (*Facebook, “Twitter” yoki “X”, “Telegram”,*

“Instagram”, “V-kontakte”, “Linkedln” kabilar) aynan shuning uchun ya’ni, odamlarni ekrandan uzoqlashtirmaslik, ularning diqqatini ko‘proq ushlab turish uchun o‘zaro raqobatlashmoqda.

Darhaqiqat, hozirda hech kim ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi sifatida unga pul to‘lamaydi. Lekin, shuni unutmaslik lozimki, iqtisodiyotning asosiy tamoyiliga ko‘ra “Agar kimdir mahsulot uchun pul to‘lamayotgan bo‘lsa, bilinki, uning o‘zi mahsulot hisoblanadi!”.

Ta’kidlash kerakki, ijtimoiy tarmoq kompaniyalarining uchta asosiy maqsadi mavjud. Ular:

1. Inson e’tiborini tortish va uni ushlab turish. Bu maqsad kishilarni iloji boricha ijtimoiy tarmoqda bo‘lish vaqtini uzaytirishga qaratilgan;
2. Do‘stlarimizni ijtimoiy tarmoqqa qo‘shish va ularga axborot uzatishimizni rag‘batlantirish. Bundan maqsad ijtimoiy tarmoq auditoriyasini kengaytirish va uni yanada rivojlantirish;
3. Ijtimoiy tarmoqdagi axborotlar orasiga mohirona reklama joylash. Bu mazkur sohadagi kompaniyalarining asosiy maqsadi bo‘lib bu orqali o‘z faoliyatlarini monetizatsiya qilishadi.

Shu vaqtga qadar inson shaxsi va psixologiyasi bu qadar kuchli kuzatilmagan va o‘rganilmagan edi. Endilikda axborot gigantlari tomonidan insonning har bir xatti-harakati: ekrandagi rasmga qancha soniya tikilgani, qaysi mazmundagi videolarni ko‘p tomosha qilgani, yozayotgan izoh (komentariy)larining mazmuni va xissiy dinamikasidan uning ruhiy va intelektual xolatidagi o‘zgarishlar chuqur o‘rganib borilmoqda. Albatta, bu ishni aniq kimdir emas, balki, murakkab algoritmga asoslangan axborot tizimi amalga oshirmoqda.

Shu tariqa ijtimoiy tarmoqlar onlayn aloqa, ayniqsa yosh avlod uchun birinchi o‘ringa chiqqan yangi, vertual dunyoni yaratdi. Bu dunyoda inson fyuchersi (*futurus – lotincha kelajak, fyuchers – xali ishlab chiqilmagan mahsulotlarning oldi-sottisi bo‘yicha o‘zaro kelishuv*) ya’ni, kelajakdagi istak va ehtiyojlari, oldindan qiladigan xatti-harakatlari sotuvga qo‘yilmoqda. Bu degani hozirgi zamon kishisining istak va ehtiyojlari va amaliy xatti-harakatlari uning o‘ziga emas, ko‘proq axborot gigantlari istaklariga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun ham tarixan o‘z qo‘lidagi narsa-buyum va uskunalarning mutloq egasi bo‘lgan inson endilikda o‘ziga tegishli axborot texnologiyalari (*smartfon, kompyuter va turli gejetlar*)ning tobesiga aylandi.

Darhaqiqat, mana shunday vaziyat dunyoda gibrid urush jarayonlari uchun qulay shart-sharoitni vujudga keltirayotganidan dalolat beradi. Ma’lumki, “gibrid urush (inglizcha – *hybrid warfare*) – hujum qilayotgan tomonning klassik ravishdagi harbiy bosib kirish usulini qo‘llamasdan, yashirin operatsiyalar, qo‘poruvchilik harakatlari, kiber urush hamda dushman hududida harakatlanayotgan nomuntazam,

isyonchi guruhlarni qo‘llab quvvatlagan holda o‘z raqibiga bosim o‘tkazish bo‘yicha dushmanlik harakatlari. Bunday holatlarda harbiy harakatlar umuman olib borilmasligi va rasmiy nuqtai nazardan gibrid urushi tinchlik davrida ham olib borilishi mumkin” [3: 77].

Ta’kidlash kerakki, axborotning psixologik ta’siri bilan bog‘liq bugungi murakkab xolat hamda uning ta’sirida yuzaga keladigan gibrid urush tahdidi mamlakatimiz uchun ham begona emas. Bu xolat ayniqsa to‘laqonli hayotiy tajriba shakllanmagan, biroq zamonaviy texnologiyalarga o‘ta qiziquvchan va psixologik jihatdan tobe yoshlar faoliyati orqali yanada xavfli bo‘lishi mumkin.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Qonunchiligiga ko‘ra 18 yoshga to‘lgan, harbiy xizmatga yaroqli har bir fuqaro Qurolli kuchlar tizmida o‘z fuqarolik burchini bajarishi majbur etib belgilangan. Afsuski, hozirda axborotning salbiy psixologik ta’sirini kuchayishi natijasida aksariyat mamlakatlar ijtimoiy hayotida hatbiy tizim uchun potensial zahira bo‘lgan yosh avlodda mazkur sohaga qishiqishni pasayish tendensiyasi yuzaga kelmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, bugungi kundagi axborotning salbiy psixologik ta’siri harbiy tizimda avlodlar almashunuvi masalasini havf ostida qoldirmoqda.

Axborotning salbiy psixologik ta’siri sharoitida birinchi muammo, harbiy tizim uchun potensial zahira bo‘lgan yosh avlodni asrash hamda mazkur sohada avlodlar almashunuvi to‘laqonli ta’minlash bo‘lsa, ikkinchi muammo hozirda bevosita muddatli harbiy xizmat, safarbarlik chaqiruvidagi harbiy xizmat, konrtakt asosidagi harbiy xizmat, qurolli kuchlar safida harbiy xizmatni o‘tab bo‘lgan rezervchilar harbiy xizmatchilari orasida gibrid urush shakllaridan biri bo‘lgan internet, ijtimoiy tarmoq va ayniqsa onlayn azart o‘yinlarga tobelikning ortayotgani hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy tizim davlat va jamiyatni himoyalashga qodir bo‘lishi uchun avvalo, o‘zini axborotning salbiy psixologik ta’siri hamda nostandart shakldagi gibrid urushlardan himoya qilmog‘i kerak. Albatta, bu o‘rinda himoya deganda harbiy tizimdagi klassik shakldagi harbiy arsenalni to‘la qonli harakatga keltirish orqali mudofaani ta’minlash nazarda tutilmaydi. Bu birinchi navbatda axborotning salbiy psixologik ta’siridan himoyalanishni, zarur bo‘lganda milliy manfaat himoyasi yo‘lida gibrid va axborot urushlariga kira olishni nazarda tutadi.

Bizningcha, bugungi axborotning salbiy psixologik ta’siri va gibrid urush shakllari kuchayib borayotgan bir sharoitda harbiy tizimda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Birinchidan, harbiy tizimdagi Oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘quv dasturlariga kompleks tarzda “Axborot xavfsizligi psixologiyasi” o‘quv kursini joriy etish;

Ikkinchidan, harbiy jurnalistika sohasini rivojlantirish. Buning uchun shu soha fuqorolik Oliy ta’lim muassasalari bilan qo‘shma fakultetlar ochish va ularda harbiy jurnalist kadrlarni tayyorlash;

Uchinchidan, harbiy kadrlar tayyorlash tizimi uchun “Harbiy jurnalistika va axborot xavfsizligi” ixtisosligini joriy etish hamda yaqin istiqbolda mazkur ixtisoslik bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish;

To‘rtinchidan, harbiy soha (keng xalq ommasi bilishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar)ni yoritish uchun blogerlik faoliyatiga imkon berish;

Beshinchidan, gibrid va axborot urushlarining katta ehtimolini hisobga olgan holda harbiy tizimda axborot-psixologik operatsiyalar bo‘yicha mutaxassislar hamda kiber armiya bo‘linmalarini shakllantirish;

Oltinchidan, axborot-psixologik operatsiyalar bo‘yicha mutaxassislar hamda kiber armiya bo‘linmalari uchun alohida jismoniy va professional me’yorlar ishlab chiqish. Masalan, jismoniy jihatdan nogironligi bo‘lsada, lekin professional jihatdan soha uchun zarur malakaga ega bo‘lgan shaxslarni harbiy xizmatga olish.

So‘ngi so‘z o‘rnida shuni aytish mumkinki, bundan buyon har bir davlatning harbiy tizimida albatta ikki turdagi bo‘linmalarni tarkib topishi muqarrar. Ularning birinchisi, albatta uzoq yillik rivojlanish tarixiga ega bo‘lgan klassik shakldagi harbiy arsenal bo‘linmalari bo‘lsa, ikkinchisi zamon talablari asosida shakllantiriladigan gibrid va axborot urushlariga qarshi turuvchi axborot-psixologik operatsiyalar bo‘yicha mutaxassislar hamda kiber armiya bo‘linmalari hisoblanadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, harbiy tizimda “Axborot xavfsizligi psixologiyasi” o‘quv kursini kompleks tarzda o‘qitish, harbiy jurnalistika va blogerlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish, “Harbiy jurnalistika va axborot xavfsizligi” ixtisosligi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish hamda eng asosiysi axborot-psixologik operatsiyalar bo‘yicha mutaxassislar hamda kiber armiya bo‘linmalarini shakllantirish harbiy tizimni yanada zamonaviylashuvi hamda mudofa sohasini yanada mustahkam bo‘lishini ta’minlab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbarning kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston 2017.

2. Paxrutdinov Sh.I. Taraqqiyotga tahdid: nazariya va amaliyot. - T.: Akademiya, 2006.

3. Samarov R.S. Harbiy atamalarning yangi izohli lug‘ati. Toshkent.: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020.384-b.

4. Adelstein A.S. Total Propaganda Horn Mass Culture to Popular Culture. – Mahway, N.J. – London, 2021.

MUAMMOLI OILALARGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO‘RSATISHNING AMALIY XUSUSIYATLARI

Kamolova Shirin Usarovna
JDPU Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta’lim fakulteti psixologiya kafedrasi, katta o‘qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada muammoli oilalarga psixologik xizmat olib borishning komponentlarini o‘rganishning ahamiyati o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Ota-ona, farzand, muammoli oilalar, disfunktsional oila, jismonan sog‘lom, aqlan yetuk, xulq-atvor mexanizm, insonga xos individual-psixologik, individual-tipologik xususiyat, dunyoqarash, qadriyat, ijtimoiy-psixologik muhit.

Muammoli oilalarga psixologik xizmatni olib borish butunlay yagona, tizimli va insonparvar yondashuvga asoslanishi xech kimga sir emas. Bu xolat oilaning har bir a’zoning xatti-harakati va hissiyoti butun birlikka ta’sir ko‘rsatadigan dinamik tizim sifatida ko'radi. Yu. Levchenko va V. V. Tkacheva oilalarga yordam berish tizimini taklif qildilar, uning asosiy maqsadi oila ichidagi va oiladan tashqari aloqalarni uyg'unlashtirish, disontogenezning turli xil variantlari bo‘lgan bolaning shaxsiy rivojlanishini optimallashtirish va uning ota-onalari [12].

Nosog‘lom oilalardagi noyob munosabatlar va bu noyob xususiyatlarni farqlash istagi ko‘plab tipologiyalarning mavzusi bo‘lib kelgan. Shunday qilib, B.N. Almazov [4] "uyg‘un oilalar", "ta’lim resurslari yetishmaydigan oilalar", "pedagogik jihatdan qobiliyatsiz oilalar", "nizoli oilalar" va "axloqiy deformatsiyaga uchragan oilalar" ni aniqlagan.

Ota-onalarning bolalarga bo‘lgan munosabatini yagona baholash nafaqat qiyin, balki ba'zan amalda imkonsizdir, chunki ularning his-tuyg'ulari kamdan-kam hollarda aniq ifodalanadi. Ota-onalikning ob'ektiv tabiati haqida fikr shakllantirish uchun keng qamrovli, ko'p tarmoqli yondashuv zarur.

Ijtimoiy-psixologik amaliyot shuni ko‘rsatadiki, deyarli har bir zamonaviy oila qandaydir yordamga muhtoj. Oilalarning 60% dan 97% gacha psixologik maslahatga ehtiyoj sezadi. Avvalgi tadqiqotlar [3] ijtimoiy-iqtisodiy keskinliklar va salbiy ma'lumotlarning oqimi zamonaviy oilaning holati va tuzilishiga jiddiy ta'sir ko‘rsatishini o‘rganilgan.

Ota-onalar o‘rtasidagi nizoli munosabatlar, ota-onalarning ajralishi va oilada yuzaga keladigan psixologik travma bilan bog‘liq stressli vaziyatlarning, masalan, ota-onalardan birining yoki ikkalasining o‘limi, ularning uzoq vaqt davomida yo‘qligi va oilaning umumiy moslashuvining bolaning ruhiy salomatligiga ta’siri

aniqlanmoqda [7]. E.G. Eidemiller va V.V. Yustitskiy [8] bolaning asosiy oila bilan bog'liq tajribalarini tasvirlab berishdi: global oiladagi norozilik holati, oiladagi xavotir, oila bilan bog‘liq, chidab bo'lmas asabiy va ruhiy stress va aybdorlik hissi.

Shunday qilib, oilalarga psixologik xizmatni olib borish butunlay yagona, tizimli va insonparvar yondashuvga asoslanishiga ko‘ra, xulq-atvor mexanizmlari tahlilida quyidagi faktorlarga, insonga xos individual-psixologik, individual-tipologik xususiyatlar, uning dunyoqarashi, qadriyatlari yashagan ijtimoiy-psixologik muhit katta ahamiyatga ega.Avvalom bor muammoli oilalargaquyidagicha tushunchalarga asoslanadi.

Muammoli oila (yoki disfunktsional oila) - bu asosiy ijtimoiy, hissiy va ta'lim funktsiyalari buzilgan oilaviy tizim. Bu buzilishlar ko'pincha noqulay psixologik muhit, shaxslararo nizolar va bolalarning rivojlanishi va ijtimoiylashuvida qiyinchiliklarga olib keladi.

Muammoli oilalarning asosiy turlari adabiyotlarda quyidagicha tasniflangan.

• Ijtimoiy jihatdan nochor oilalar – qashshoqlik, ishsizlik yoki yomon yashash sharoitlariga duch kelishadi.

• Psixologik jihatdan disfunktsional oilalar – hissiy masofa, surunkali nizolar yoki psixologik zo’ravonlik bilan tavsiflanadi.

• Pedagogik jihatdan qobiliyatsiz oilalar – ota-onalar yetarlicha tarbiya, yo’l-yo’riq yoki intizomni ta’minlay olmaydilar.

• Asotsial yoki amoral oilalar – giyohvand moddalarni suiiste’mol qilish, beparvolik yoki jinoiy xatti-harakatlarni o’z ichiga oladi.

• Ijtimoiy jihatdan nochor oilalar – qashshoqlik, ishsizlik yoki yomon yashash sharoitlariga duch kelishi va sabablarini bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar mavjud.

Kambag‘allikning sabablari va jamiyatdagi o‘rnini o‘rganish tadqiqotlarida XVIII asrdan XX asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davr (A.Smit,D.Rikardo,T.Maltus, G. Spenser,J.Prudon, E. Reklyus,K.Marks, Ch. But va S. Rauntri) va XX asr davriga ajratiladi. (F. A. Hayek, P. Taunsend va boshqalar). A. Smit ishlarining o‘zi qashshoqlik tushunchasining nisbiy mohiyatida kambag‘allik va ijtimoiy uyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ijtimoiy standartlar va ular bo‘yicha yashashning moddiy imkoniyati o‘rtasidagi farq orqali ochib berdi. XIX asrdayoq qashshoqlik chegarasini oila byudjeti asosida hisoblash va shu bilan mutlaq qashshoqlik mezonini joriy etish, kambag‘allikni aniqlash mezonlarini daromad darajasi va shaxsning asosiy ehtiyojlarini qondirishga yetarli bo‘lgan ishchanlik qobiliyati va salomatlik bilan bog‘lash taklif qilingan.

Oilalar uchun psixologik xizmatlarning kontseptual asoslari asosan muammoli oilalarga psixologik xizmatlar ko‘rsatish yaxlit, tizimli va gumanistik yondashuvga

asoslangan. U oilani har bir a’zoning xatti-harakati va hissiyotlari butun birlikka ta’sir qiladigan dinamik tizim sifatida ko‘rib chiqildi.

1. Tizimli yondashuv - oila o‘zaro bog‘liq tizim sifatida qaraladi; Bir qismini o‘zgartirish butunga ta’sir qiladi.

2. Gumanistik yondashuv – empatiya, shartsiz qabul qilish va shaxsiy salohiyatni rivojlantirishga qaratiladi.

3. Resurslarga yo‘naltirilgan model – faqat muammolarga emas, balki oilaning kuchli va imkoniyatlariga urg‘u beradi.

4. Rivojlanish nuqtai nazari – oilaviy inqirozlarni o‘sishga olib kelishi mumkin bo‘lgan tabiiy bosqichlar sifatida tushunish.

Tizimli yondashuvga ko‘ra, oila bir-biriga bog‘langan qismlardan iborat yagona tizimdir; tizimning bir qismini o‘zgartirish butun tizimga ta’sir qiladi. Bu yondashuv oiladagi har bir a’zo yoki element boshqa a’zolarga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Bu nazariya umumiy tizimlar nazariyasiga asoslanadi, umumiy tizimlar nazariyasini ishlab chiqqan Karl Lyudvig fon Bertalanfi tomonidan yaratilgan.

Oila – bir butun tizim:Oiladagi har bir kishi (ota, ona, farzandlar) bir-biriga bog'langan elementlardir.

O‘zaro bog‘liqlik:Bir a’zoning xatti-harakatlari, muammolari yoki o‘zgarishlari boshqa a’zolarga ta’sir qiladi.

Butunlikka ta’sir:Tizimning bir qismidagi o‘zgarish (masalan, oila a’zolaridan birining ishi yo‘qolishi) butun oilaning ishlashiga, munosabatlariga va dinamikasiga ta’sir qilishi mumkin.

- Nazariy asos:Bu yondashuv umumiy tizimlar nazariyasiga asoslanadi, unga ko‘ra har qanday tizimning qismlari bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, tizimni yaxlitlikda o‘rganish zarur.

2. Gumanistik yondashuv – empatiya, shartsiz qabul qilish va shaxsiy salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan.

Gumanistik yondashuv - bu individual salohiyat, erkin iroda va o‘zini o‘zi anglash istagini ta'kidlaydigan psixologik nuqtai nazar. U insonning subektiv tajribasiga e’tibor qaratadi va shaxslarni tabiiy ravishda yaxshi deb biladi, asosiy tamoyillari orasida empatiya, shartsiz ijobiy munosabat (hukmsiz qabul qilish) va mijozlarga o‘zini anglash va hayotda ma’no topishga yordam beradigan chinakam munosabatlarni rivojlantirish kiradi.

3. Resurslarga yo‘naltirilgan model – faqat muammolarga emas, balki oilaning kuchli va imkoniyatlariga urg‘u beradi.

Resurslarga yo‘naltirilgan model oilalarga faqat muammolariga emas, balki ularning kuchli va imkoniyatlariga urg‘u beruvchi yondashuvdir. Bu modelda

yordamga muhtoj oilalar o'zlarining ichki zaxiralari, ya’ni jamoat ichidagi qo‘llab-quvvatlash tizimlari, oilaviy qadriyatlari, shaxsiy ko‘nikmalari va ijtimoiy tarmoqlar kabi kuchli tomonlaridan foydalanishga undaladi. Bunday yondashuv oilalarga o‘z muammolarini hal qilish uchun o‘zlarining ichki imkoniyatlariga tayanishga va mustaqilligini mustahkamlashga yordam beradi.

Muammoli oilalarga psixologik xizmatlar ko‘rsatishning kontseptual va psixologik komponentlari tizimli, gumanistik va resurslarga asoslangan yondashuvni ta’kidlaydi.

Oilalar uchun psixologik xizmatlarning kontseptual doirasi oilani individual patologiyaga emas, balki o‘zaro ta’sirlar va munosabatlarga qaratilgan tizim sifatida qaraladi. Oila dinamikasini, shaxsning oiladagi rolini va ruhiy salomatlikka ta’sir etuvchi kengroq ijtimoiy va ekologik omillarni hisobga oladigan yaxlit yondashuvni ta’kidlaydi. Shuningdek, asosiy komponentlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita oilaviy tizimlarni aniqlash, uy-joy va ta’lim kabi tashqi omillarni hisobga oladigan ijtimoiy-ekologik modellarni kiritish va individual va munosabatlar o‘sishi orqali ijobiy natijalar va barqarorlikni ta’minlaydigan strategiyalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Bu holatdagi oila ichidagi hissiy muhitni yaxshilash, yaxshi muloqot va nizolarni hal qilish ko‘nikmalari, o‘ziga ishonch va hissiy barqarorlikni oshirish,agressiv yoki beparvo xatti-harakatlarni kamaytirish, bolaning sog‘lom rivojlanishi va muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuv oilaviy muammolarning ham psixologik, ham ijtimoiy jihatlarini hal qilish uchun kompleks yondashuvi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mutaxassislar tashxis qo‘yish, maslahat berish, tuzatish va oldini olish orqali oilalarga barqarorlik, hissiy muvozanat va sog‘lom munosabatlarni tiklashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Алмазов Б.Н. Психическая средовая дезадаптация несовершеннолетних. Свердловск, 1986. 151 с.

2. Личко А.Е. Психопатии и акцентуации характера у подростков. Л., 1983. 256 с.

3. Эйдемиллер Э.Г., Юстицкий В.В. Психология и психотерапия семьи. СПб., 1999. 652 с.

JAMOAT XAVFSIZLIGI SUBYEKTLARIDA ADDIKSIYA NAMOYON BO‘LISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Qarshibayv Murodil Qarshibay o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti
“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash”
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Hozirgi vaqtda addiktiv (qaram) xulq-atvor butun dunyoda eng keskin muammolardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ushbu psixologik hodisaning rivojlanishiga olib keluvchi ijtimoiy, psixologik va biologik omillar tadqiq etilmoqda; huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jamoat tashkilotlari profilaktik faoliyatni faollashtirishga urinmoqda; shuningdek, qaramlikka duchor shaxslarga zarur tibbiy hamda psixologik-ijtimoiy yordam ko‘rsatiladigan muassasalar va jamoat tashkilotlari soni ortib bormoqda.

Kalit so‘zlar: addiksiya, deviant xulq-atvor, tobelik, ruhiy holat, biologik omillar, mikromuhit, gambing, profilaktika.

Bugungi kunda addiktiv xulq-atvor jamiyatning turli qatlamlarida, aniqsa, kasbiy stress darajasi yuqori bo‘lgan sohalarda keskin muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlar – Ichki Ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat Bojxona qo‘mitasi va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari o‘z faoliyatlarida doimiy xavf, zo‘riqish va kasbiy javobgarlik holatida o‘z xizmat faoliyatini olib boradilar. Bu esa, ularning ruhiy barqarorligiga bevosita ta’sir etuvchi omil bo‘lib, addiktiv xulqning shakllanishi uchun psixologik zamin yaratishi mumkin.

Qaram xulq-atvor muammosi penitensiar tizimda ham, jamoat xavfsizligini ta’minlashga mas’ul tizimlarda ham alohida o‘rin tutadi. Ushbu tizim xodimlari yuqori stress, xavf va jismoniy-ruhiy zo'riqish sharoitida faoliyat yuritgani sababli, ular orasida addiktiv xulq-atvorga moyillikni o‘rganish muhimdir. Addiktiv xulq-atvor xususiyatlarini o‘rganish ilmiy izlanishlar tarixida keng o‘ringa ega.

Zamonaviy jamiyatning oldida turgan eng murakkab muammolardan biri addiktiv xulq-atvor masalasidir. Mavzuning dolzarbligi, ayniqsa, jamoat xavfsizligini ta’minlovchi xodimlarda ko‘rinadi. Ushbu mutaxassislar zimmasidagi yuqori mas’uliyat va doimiy xavf omillari, ruhiy holatda tajovuzkorlik yoki frustratsiya holatlarini kuchaytirib, ularni chiqish yo‘lini izlashga majbur qilishi mumkin.

Salbiy kechinmalarni yengish va dam olish maqsadida odamlar turli usullarga murojaat qiladilar. Agar bu usullardan biri inson hayotining asosiy maqsadiga aylanib, xizmat faoliyati, kasbiy va ijtimoiy jihatlar ikkinchi darajaga tushib qolsa, bu

holat addiktiv xulq-atvorning shakllanayotganidan dalolat beradi. Har bir shaxs tabiatan farovonlik va barqarorlikka intiladi. Salbiy kechinmalarni yengish va dam olish maqsadida odamlar turli usullarga murojaat qiladilar. Ba’zilar ichki resurslardan (sevimli mashg‘ulot, mehnat, sport), boshqalar esa tashqi manbalardan (yaqinlarning qo‘llab-quvvatlashi) foydalanadilar. Agar ushbu vositalardan biri inson hayotining asosiy maqsadiga aylanib, boshqa barcha ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy jihatlar ikkinchi darajaga tushib qolsa, bu holat addiktiv xulq-atvorning shakllanayotganidan dalolat beradi. Muammo ayniqsa harbiy xizmatchilar orasida narkomaniya yoki alkogolizm kabi addiktiv xulq turlari haqida borayotgan bo‘lsa, jiddiy tus oladi.

Shu sababli, addiktiv xulq-atvorning barcha turlariga nisbatan korreksion ta’sir choralarini kuchaytirish va profilaktik ishlarni tashkil etish zarurati mavjud. Addiktiv xulq-atvorning kuchli darajada namoyon bo‘lishi mehnat qobiliyatining pasayishi, xizmat vazifasini sifatsiz bajarish, yaqinlar bilan o‘zaro tushunmovchilik, huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etish holatlariga olib kelishi mumkin.

Addiktiv xulq-atvor quyidagicha talqin etiladi: deviant xulq-atvorning bir ko‘rinishi bo‘lib, takrorlanib turuvchi, kompulsiv, ratsional tarzda motivlanmagan, nazoratga bo‘ysunmaydigan harakatlarni bajarishga undovchi ichki turtkidir. Yakuniy maqsad sub’ektiv jismoniy va psixologik huzur hosil qilish bo‘lib, huzur manbai psixoaktiv modda (PAM) ham, addiksiyani obyektlashtiruvchi turli faoliyat turlari ham bo‘lishi mumkin.

Addiktiv xulq-atvorli shaxslarga xos bir qator tashqi namoyonlar va belgilar quyidagilardir:

1. Himoya reaksiyasi: Addiktiv xulq-atvor psixotravmatik vaziyatga javoban koping-strategiya sifatida namoyon bo‘lishi.
2. Muvaffaqiyatsiz urinishlar: Qaramlikka ega shaxslar PAM iste’molini yoki tegishli faoliyatni kamaytirishga doir muntazam, biroq samarasiz urinishlarni qayta-qayta takrorlashi.
3. Hayotiy ustuvorliklarning almashishi: Kasbiy va xizmat sohalari ikkinchi darajaga surilib, qaramlik obyekti birlamchi ahamiyat kasb etishi.

Qaramlikni aniqlash uchun I.N.Pyatnitskaya uchta asosiy sindromni ajratib ko‘rsatadi: psixik qaramlik, jismoniy (fizik) qaramlik va organizmning PAM ta’siriga reaktivligi.

Psixologik mexanizmlar. “Addiktiv xulq-atvor bu insonning ruhiy holatini sun'iy ravishda o‘zgartirish, psixik holatni modifikatsiya qilish orqali voqelikdan qochishga intilishidir”.

Addiktiv shaxs murakkab hayotiy vaziyatlardan chiqishning konstruktiv yo‘lini topish o‘rniga, muammodan qochishni afzal ko‘radi. Bunday shaxslar odatda muammoli vaziyatlarga nisbatan past bardoshlilikka ega bo‘ladi. Shu sababli, ular

sun’iy ong o‘zgarishi orqali ijobiy his-tuyg‘ularni izlaydilar. Natijada, insonda xayoliy (illusor) muammo yechimi tasavvuri shakllanadi. Bu "qulay" mexanizm real hayotdagi muammolarni hal etishning o‘rnini bosuvchi kompensatsiya mexanizmiga aylanadi.

Natijalar va Xulosa. O‘tkazilgan korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra, addiktiv xulq-atvorga moyillikning ortishi shaxsda emotsional reaksiyalarni irodaviy nazorat qila olish qobiliyatining pasayishiga olib keladi ($r=-0,450, p\leq 0,05$). Ya’ni, shaxsning qaramligi kuchaygan sari, u o‘z hissiyotlarini boshqarish imkoniyatini yo‘qota boradi.

Tadqiqotda, shuningdek, addiktiv xulq-atvor bilan o‘ziga zarar yetkazish moyilligi o‘rtasida kuchli bog‘liqlik aniqlandi ($r=0,582, p\leq 0,01$). Bu holat shuni anglatadiki, shaxs biror moddani yoki faoliyatni ruhiy tayanchoq sifatida qo‘llay boshlasa, vaqt o‘tishi bilan u o‘ziga zarar yetkazuvchi harakatlarga (masalan, o‘zini izolyatsiya qilish, depressiv holatlar) moyil bo‘lib boradi. Tahlil natijalariga ko‘ra, addiktiv xulq-atvorga moyillik ortgani sari delikvent xulq-atvorga (jinoiy yoki huquqbuzarlik xatti-harakatlariga) moyillik ham oshib boradi ($r=0,388, p\leq 0,05$).

Xulosa qilib aytganda, addiktiv xulq-atvor muammosi vaqt o‘tishi bilan o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi va kuchaytirilgan e’tibor talab etadi. Ayniqsa, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi xodimlar orasida addiktiv xulq-atvor namoyonlariga alohida e’tibor berish zarur. Shaxsning ruhiy muvozanatini yo‘qotishi, irodaviy nazoratni pasaytirishi va tashqi baholarga haddan tashqari bog‘lanib qolishi bularning barchasi addiktiv xulqni kuchaytiruvchi psixologik mexanizmlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Анохина И. П. Основные биологические механизмы алкогольной и наркотической зависимости / И. П. Анохина // Руководство по наркологии: в 2 т. - Т. 1 / под ред. Н. Н. Иванца. - М.: Медпрактика, 2002. - С. 33-41.

2. Доклад о результатах и основных направлениях деятельности Федеральной службы исполнения наказаний.

3. Основные сведения об уголовно-исполнительной системе.

4. Пятницкая И. Н. Клиническая наркология / И.Н. Пятницкая. - М.: Медицина, 1975. - 335 с.

5. Смирнов А. В. Базовые психологические компоненты аддиктивного поведения в структуре интегральной индивидуальности : автореф. дис. ... д-ра пси-хол. наук. - Екатеринбург, 2015.

6. Старшенбаум Г.В. Аддиктология. Психология и психотерапия зависимостей/ Г.В. Старшенбаум. – М.: Издательский дом: Когито-Центр, 2006. – 367 с. 73.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR KOGNITIV JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYALARI

Axmedova Nasiba Achilovna
JDPU umumiy psixologiya kafedrasi
katta o‘qituvchisi

Annotasiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar kognitiv faoliyatini rivojlantirishda o‘yin faoliyatining o‘rni, turli muloqot munosabat turlaridan foydalanish hamda zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari amaliyotida turli loyihalardan foydalanish ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kognitiv faoliyat, kognitiv munosabat, qiziqish, qiziquvchanlik, tadqiqot loyihalar, ijodiy loyihalar, axborot-amaliy yo‘naltirilgan loyihalar.

Bolalarning kognitiv faolligini rivojlantirish va shakllantirish muammosi bolalar psixologiyasida eng dolzarb masalalardan biridir. Hozirgi kunda “kognitiv faoliyat” tushunchasi pedagogika va psixologiyada keng qo‘llanilmoqda.

Olimlar "kognitiv faoliyat" tushunchasining ma'nosi bo'yicha turli fikrlarni keltirib o’tganlar. Kognitiv faoliyatni rivojlantirish muammosi o‘qituvchilar va psixologlarning turli xil asarlarida ko‘rib chiqilgan. Ya.A. Komenskiy, K.D. Ushinskiy, D. Lok, Jan-Jak Russo kognitiv faoliyatni maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘rganishga bo‘lgan tabiiy istagi sifatida belgilagan. A.K. Markova, V.P. Lozova, J.N. Telnova, G.I. Sukina va boshqalar kognitiv faoliyatning xususiyatlarini va uni eski maktabgacha yoshdagi bolalarda qanday faollashtirishni o‘rganishdi. So‘nggi paytlarda pedagogikada, shuningdek, fanning boshqa ko‘plab sohalarida amaliyot va ish uslublarini qayta qurish boshlandi, xususan, o‘yinlarning har xil turlari keng tarqalmoqda.

Jumladan, M.A. Danilov, A.A. Lyublinskaya, V.K. Buryak, T.I. Shamovalar kognitiv faoliyatni aqliy faoliyatning bir turi yoki sifati deb hisoblasalar, D.B. Godovikova, E.I. Shcherbakovlar esa - bolaning bilimga bo'lgan tabiiy istagi sifatida qaraydilar. P.T. Jambazka, T.M. Zemlyanuxina, M.I. Lisina, N.A. Polovnikovlar "kognitiv faoliyat" tushunchasini kognitiv faoliyatga tayyorlik holati sifatida belgilagan bo’lsalar, T.A. Ilyina, A.I. Raev, G.Ts. Molonov, A.Z. Iogolevich, T.D. Sartorius, Z.F. Chexov, G.I. Shchukin kabi olimlarning fikricha, "kognitiv faoliyat" - bu shaxsning mulki yoki sifatidir, deb qarashmoqda.

Kognitiv psixologiya butun hissiy jarayonlarni - hissiyotlardan idrok etish, naqshni aniqlash, diqqat-e'tibor, o'rganish, xotira, konsepsiyalarni shakllanishigacha bo'lgan oraliqlarni qamrab oladi. Fikrlash, tasavvur qilish, yodlash, til, hissiyotlar va rivojlanish jarayonlarini hamda xulq-atvorning barcha turlarini qamrab oladi.

Kognitiv psixologiya - bu bilish jarayoni va ong faoliyatiga yo'naltirilgan psixologik tushuncha.

Kognitiv psixologiya - kognitiv jarayonlarni o'rganadigan zamonaviy psixologiya fanining bir tarmog'i. U. Volfgang Kyohlerning (1917) odamsimon maymunlar haqidagi asarlaridan va Jan Piagetning bolalar intellektini rivojlantirish haqidagi kuzatishlaridan (1927) kelib chiqadi. Hatto qadimgi mutafakkirlar ham xotira va fikr qayerda joylashganligini aniqlashga harakat qilishgan.

Mustaqil soha sifatida u 1950-yillardan - 1960-yillarning boshlarida, D. Miller D. Bruner bilan birgalikda 1960 yilda Garvard universitetida birinchi Kognitiv tadqiqotlar markazini yaratgan vaqtda shakllandi.

Kognitivizmning mashhur vakillari ham R. Atkinson, L. Festinger, D. Kelli va boshqalardir. Qadimgi Misrdan olingan ieroglif yozuvlar shuni ko'rsatadiki, ularning mualliflari bilim qalbda - bu qarashni yunon faylasufi Aristotel ham qo'llab-quvvatlagan, ammo Aflotun fikrni markazida aynan miya bor deb hisoblagan. Psixologiya tarixidagi barcha haqiqiy yangiliklar singari, kognitiv psixologiya ham noldan paydo bo'lmagan.

Kognitiv harakatning o'tmishi E. S. Tolman bilan bog'liq. Ushbu tadqiqotchi kognitiv o'zgaruvchilarni ko'rib chiqishning muhimligini anglab etdi va stimulga javob berish usulini rad etishga katta hissa qo'shdi. Tolman kognitiv xaritalar g'oyasini kiritdi, maqsad kategoriyasining hayvonlarning harakatlari bilan bog'liqligini asoslab berdi va ichki, kuzatib bo'lmaydigan holatlarni aniqlash uchun oraliq o'zgaruvchilardan foydalanish zarurligini ta'kidladi. Kognitiv jarayonlar - inson atrofidagi dunyoni, o'zi va boshqa odamlarni o'rganadigan aqliy jarayonlar. Bunday jarayonlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: sezgi, idrok, e'tibor, xotira, fikrlash va tasavvur. Kognitiv faoliyatning natijasi, bilish qanday shaklda amalga oshirilganligidan qat'iy nazar (fikrlash yoki idrok etish orqali) olingan bilimdir. Bunga asoslanib, A.Z. Zaporojets aqliy tarbiyaning alohida vazifasini -boshlang'ich bilimlar tizimini va hayotiy hodisalarini aqliy rivojlanish sharti sifatida qaraydi.

"Kognitiv faoliyat" atamasi insonnin ob'yektlari va hodisalariga tanlab yo‘naltirilishi bilan tavsiflanadi, ya’ni, bolada bilimga, to‘liqroq va chuqurroq doimiy intilish mavjud. Bunday intilishni bolada maktabgacha davrda ham sezish mumkin. Atrofni bilish, tushunish va o‘rganishga qaratilgan harakatlar bolani yanada faollashtiradi. Faoliyatning rivojlanish sur'ati va kuchayishi bilan tanlab yo‘naltirish kognitiv faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga aylanadi. Buning uchun bola harakatlarini doimiy ravishda qo’llash, rag‘batlantirish hamda hohish-istaklarini inobatga olish lozim bo‘ladi.

Bolalar tug'ma tadqiqotchilardir.Yangi tajribalarga so‘nmas tashnalik, qiziquvchanlik, doimiy kuzatish va tajriba o'tkazish istagi, dunyo haqida mustaqil

ravishda yangi ma'lumotlarni izlash an'anaviy ravishda bolalar xatti-harakatlarining eng muhim xususiyatlari sifatida qabul qilinadi. Bolaning har bir o‘zlashtirgan harakati, o’rgangan so’zlari u uchun yangilik, kashfiyot. Faol kognitiv tadqiqot faoliyati jarayonida o'z qiziqishini qondirgan bola, bir tomondan, dunyo haqidagi g'oyalarini kengaytiradi, o‘zaro bog‘liqlik va o'zaro bog'liqliklar tizimida dunyoning xilma-xilligini ko'radi, ikkinchi tomondan, o ‘z bilimini rivojlantirish qobiliyatini rivojlantiradi. Bunda bola idrokining shakllanishi va rivojlanishi ta’minlanadi. Navbat bilan barcha psixologik jarayonlarning rivojlanishi sodir bo’ladi.

Hozirda maktabgacha ta'lim sifatini oshirish muammosining dolzarbligi maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishga bo'lgan e’tiborni kuchaytirdi. MTTlarida bolaning har tomonlama shakllanishi va rivojlanishini ta’minlash ishlari ancha jadallashgan. Bola kognitiv sohasining rivojlanishi turli xil faoliyat turlari orqali amalga oshirilishi yo’lga qo’yilgan. Barcha faoliyat turlari bolaning quyidagi jihatlarini shakllantiradi va rivojlantiradi. Bular:

- qiziquvchanlikni rivojlantiradi;
- kognitiv motivatsion sohasini rivojlantiradi;
- kognitiv harakatlarni shakllantiradi;
- bola ongini shakllantiradi;
- bola tasavvurlarini kengaytiradi;
- ijodiy faollikni oshiradi;
- atrof, muhit, odamlar, narsalar xaqidagi g'oyalarni shakllantiradi.

Buning ushun bolalarni barcha faoliyat turlariga jalb etish yaxshi samara beradi. Faqat kattalar tomonidan bolaning har bir harakati doimiy tarzda nazorat qilib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Bolalarning kognitiv rivojlanishining yangi sifati - bu kognitiv qiziqishning kuchayishi, barqarorlikning kuchayishi, kognitiv motivlar bilan ifodalanadi. Kognitiv qiziqish maktabgacha yoshdagi bolani muhim munosabatlarga, aloqalarga yordam beradi. Qiziquvchanlik qobiliyati atrofni buyumlarni to’liqroq bilishni ta’minlaydi. Shu bilan birga kognitiv motivlar, ya’ni bolaga xos ehtiyojlar, mayllar, istaklar ham bolani har qanday harakatga undaydi, faollashtiradi.

Kognitiv faoliyatning manbai kognitiv ehtiyoj bo'lib, bu ehtiyojni qondirish jarayoni noma'lum narsani aniqlash, ochish va uni o'zlashtirishga qaratilgan izlanish sifatida amalga oshiriladi. Bola ehtiyojlari turli narsalarga yo’naltirilgan va ayni paytda kerak bo’lgan narsaga ega bo’lishga qaratilgan bo’ladi. Bunday xilma-xillik ham turli narsalarni bilishga, o’rganishga undaydi. Predmetlar bilan munosabatga kirishish orqali ularning fazodagi o’rni, har tomonlama tuzilishi va ahamiyatini o’zlashtiradilar.

Kognitiv rivojlanishning qayd etilgan bosqichlari bir-biridan ajralgan holda mavjud emas. Amalda ular nihoyatda murakkab birikmalar va munosabatlardir va bolaning kognitiv rivojlanishini evolyutsion jarayon sifatida tavsiflaydi.

Bola kognitiv rivojlanishining yana bir jihati bu - dunyoga nisbatan umumlashtirilgan munosabatdir. Bu quyidagicha tavsiflanadi:

Bolaga xos kognitiv munosabat bu - dunyo ajoyib, sirlarga to'la va bola ushbu ajoyibotni bilishni, hal qilishni xohlaydi;

Navbatdagi munosabat bu ehtiyotkor munosabat. Bola bunday munosabatni himoya, himoyalanish tarzida tushunadi. Bolada dunyoni himoya qilish, asrash xaqidagi tushunchalarning shakllanishi;

Ijodiy munosabat bola uchun muhim yana bir munosabat bo’lib - dunyo juda go'zal - men bu go'zallikni saqlab qolish va oshirishni xohlayman shaklida namoyon bo’ladi. Bolada go’zallikni his qilish, undan zavq olish, hayratlanish, lazzatlanish kabi kognitiv bilish shakllanishini taminlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishining haqiqiy usuli eksperimentdir. O’tkaziladiga tadqiqotning tabiiy turi bolani erkin bo’lishini ta’minlaydi. Tadqiq qiluvchi tabiiy sharoitda bola bilan bemalol munosabatga kirishadi va buning natijasida bolada bilishga bo’lgan munosabat yanada yuksaladi. Eksperementga ob'yektlar va materiallarning xossalari, sifatlari, hodisalarning aloqalari va bog'liqliklarini tushunishga qaratilgan izlanish xarakteridagi amaliy faoliyat sifatida qaraladi. Eksperimentda maktabgacha yoshdagi bola o'z atrofidagi dunyoni mustaqil va faol ravishda o'rganadigan, unga ta'sir qilishning turli shakllaridan foydalangan holda tadqiqotchi sifatida ishlaydi. Tajriba jarayonida bola bilish va faoliyat sub'yektining pozitsiyasini egallaydi. Natijada mustaqil faollik oshadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishining samarali usullariga bolalarning kognitiv qiziqishlarini rivojlantirishni, o'z bilimlarini mustaqil ravishda qurish va axborot makonida harakat qilish qobiliyatini, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni ta'minlaydigan faoliyat kiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari amaliyotida quyidagi turdagi loyihalar qo'llaniladi:

Tadqiqot loyihalari (ular puxta o'ylangan tuzilmani talab qiladi, tadqiqot mantig'iga to'liq bo'ysunadi, belgilangan muammoni hal qilish uchun taxminni ilgari surishni, uni hal qilish yo'llarini, shu jumladan eksperimental yo'llarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Bolalar tajribalar o'tkazadilar, muhokama qiladilar. (natijalar, xulosalar chiqarish, tadqiqot natijalarini tuzish);

Ijodiy loyihalar (qoida tariqasida, ushbu turdagi loyihalar ishtirokchilarning birgalikdagi faoliyatining batafsil tuzilishiga ega emas, u faqat yakuniy natija janriga

bo'ysungan holda tavsiflanadi va yanada rivojlantiriladi, u videofilm uchun ssenariy sifatida ishlab chiqilishi mumkin. (dramatizatsiya, bayram dasturi, videofilm, sport o'yini, ko'ngilochar ko'rinishda bo'lishi mumkin);

O'yin (rol o'ynash) loyihalari (ushbu loyihalarning tuzilishi ham faqat tasvirlangan va ish tugaguniga qadar ochiq qoladi). Bolalar loyihaning tabiati va mazmuni bilan belgilanadigan muayyan rollarni o'z zimmalariga oladilar. Bu ishtirokchilar tomonidan ixtiro qilingan vaziyatlar bilan murakkablashgan ijtimoiy yoki ish munosabatlariga taqlid qiluvchi adabiy qahramonlar yoki fantastik qahramonlar bo'lishi mumkin.

Kognitiv tadqiqot faoliyatidan katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolaning kognitiv rivojlanishi uchun asosiy shakllantiruvchi faoliyat sifatida foydalanish maqsadga muvofiq. Ayniqsa bolalarning tashabbuskorligi, zukkoligi, izlanuvchanligi, tanqidiyligi, mustaqilligini qo'llab-quvvatlash lozim. Bolani tinglash, fikrini inobatga olish uni faollashtiradi va navbatdagi faoliyatga undaydi. Natijada bola har qanday faoliyatga mustaqil kirishadi, tushungan narsalarini bemalol tushuntiradi, bolada ochiqlik va erkinlik rivojlanadi. O’zining harakatlaridan, topqirligidan zavqlanadi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishi muammosini hal qilishda turli tadqiqotlar, kognitiv vazifalar va turli loyihalardan foydalanish bola kognitiv faoliyati rivojlanishining asosi hisoblanadi. Maktabgacha yosh davrida kognitiv rivojlanish - bu atrof-muhit ta'siri ostida, shuningdek, maxsus tashkil etilgan o'quv va tarbiya ta'siri va bolaning o'z tajribasi bilan bog'liq bo'lgan fikrlash jarayonlarida yuz beradigan sifat va miqdoriy o'zgarishlarning yig'indisi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi bir qator ijtimoiy va biologik omillarga bog'liqdir.Buni amalga oshirishda pedagoglarning o’rni katta bo’lib, pedagog doimiy tarzda bola bilan ishlash jarayonida bolaning kognitiv faoliyati bilan ishlash zarur bo’ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va uni o’qitish metodikasi. 2005.

2. Ivanova A.I. Bolalar bog'chasida atrof-muhitni kuzatish va eksperimentlarni tashkil etish metodikasi. - M., 2004 yil.

3. Korotkova N.A. Katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv va tadqiqot faoliyati // Bolalar bog'chasidagi bola. - 2003. -№3. - B.4-12.

4. Ж.Андерсон. Когнитивная психология. СПб.: Питер, 2002.

5.. Солсо Р. Когнитивная психология. М.: Тривола, 1996.

6. Величковский Б.М. «Когнитивная наука. Основы психологии познания». В 2 томах. М.: ИЦ «Академия», 2006

EKSTREMAL VAZIYATLARDA XODIMLARNING AGRESSIVLIK DARAJASIGA TA’SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Saipova Malaxat Latipovna
“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Ahmadjonova Nargizaxon Adiljanovna
Alfraganus Universiteti Pedagogika psixologiya kafedrasi dotsenti
psixolgiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotasiya: Ushbu maqolada ekstremal sharoitlarda maxsus vazifalarni bajaruvchi xodimlar psixologiyasini Bass-Darkining “Tajivuz holati tashxisi”so’rovnomasi yordamida o’rganilgan natijalar psixologik tahlili keltirilgan. Amalga oshirilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, ekstremal sharoitlarda maxsus vazifalarni bajaruvchi xodimlar xususiyatlari ijtimoiy-psixologik jihatlarini namoyon bo‘lishi, uning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ijobiy va salbiy tomonlari keng yoritilgan

Kalit so’zlar: ekstremal, xodimlar, agressivlik, vatanparvarlik, barqarorlik, motivatsion, jismoniy tajovuz, verbal tajovuz.

Jahonda xavfi yuqori bo‘lgan kasblar orasida liderlikni huquqni muxofaza qiluvchi organlarda ishlovchilar egallaydi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ish faoliyatini ekstremal sharoitlari faqatgina xizmat vazifalarini bajarishda emas, balki ular texnogen va fojiaviy xalokatlarga olib keluvchi tabiiy ofatlarinig talofatlarini bartaraf etishda ham ishtirok etishlari mumkin. Ular davlat xizmatchilari bo‘lganliklari sababli jabrlangan fuqarolarga yordam berishda, yo‘l harakati qoidalarini buzilishida, zudlik bilan kechiktirib bo‘lmaydigan qutqaruv ishlariga jalb etiladilar. Bu kabi malakalar shuni ko‘rsatadiki, ekstremal vaziyat inson faoliyati uchun o‘ziga xos sohadir. Bunda kompleks ravishda insonning fiziologik, xulq-atvor, kasbiy va shu kabi boshqa xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Boshqa tomondan esa, tashkiliy tadbirlar ayniqsa tayyorgarlik davridagi murakkab vaziyatlarda adekvatlikni to‘g‘ri baholash bitta mutaxassisga va guruhiy amalga oshirishga yordam beradi. Har doim ham ektremal sharoitlarda, ayniqsa, xizmat vazifalarini bajarish bilan bog‘liqlarida kasbiy mutaxassilikka oid ish tutmaydilar. O‘quvlar davomida kamchiliklarni bartaraf etish va ishchanlik qobiliyatini oshirish, puxta bilimga ega bo‘lish (kompitentlilik) emotsional barqarorlikni oshirish o‘rganiladi. Xodimlarning maxsus vazifalarni bajarish vaqtida vafot etishi, ruhiy jarohatlanishi va natijada jangovar tayyorgarlikning sifatini pasayib borishi bilan bog‘liq salbiy omillarning

namoyon bo‘lishi ekstremal vaziyatlarda xodimlarning emosional-irodaviy xususiyatlarini o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi [1].

E. Fromm bo‘yicha agressiya zamirida boshqa insonga nisbatan, hayvonlar yoki insonlar guruhiga , shuningdek, har qanday jonsiz ob’ektga ataylab zarar yetkazishni o‘ylash yoki shuni bajarishga qaratilgan har qanday xatti - harakatlarni tushunish lozim [2].

R.S.Nemov bo‘yicha agressivlik g‘ayirli xulq - atvor sifatida tushuniladi. Insonning xulq - atvori boshqa odamlar bilan bo‘ladigan munosabatlarida ularga nisbatan zarar, qiyinchiliklarni yetkazish bilan ajralib turadi [3].

L.Benderning fikricha agressiya- kuchli aktivlik, o‘zini isbotlashga intilish tushuniladi.

X. Delgadoning ta’kidlashicha esa, agressiya so‘zi dushmanlik aktlari hujum, buzg‘unchilik ya’ni boshqa shaxsga yoki ob’ektga zarar yetkazuvchi harakatlardir [4].

V. Klayning ta’kidlashicha agressivlikda aktiv hayot uchun zarur bo‘lgan ma’lum bir sog‘lom ko‘rinishlar mavjud [5]. Bular - tashabbuskorlik, maqsadga erishish uchun tirishqoqlik, to‘siqlarni yengib o‘tishlardir. Bu sifatlar liderga xosdir.

Ta’kidlash lozimki, shaxsdagi emotsiyalardan tajovuz - motivlashtirilgan destruktiv xulq – atvor bo‘lib, insonlarni jamiyatda yashashga munosabatiga, qoida va normalariga qarshi, (jonli va jonsiz ob’ektlarga) zarar yetkazish, insonlarga jismoniy zarar yetkazish yoki ularda psixologik diskomfortni vujudga keltirish, (salbiy xavotirlanishlar, qo‘rquv, ruhiyatning tushishi) va shu kabilardir.

E. Fromm bo‘yicha tajovuz zamirida boshqa insonga nisbatan, hayvonlar yoki insonlar guruhiga , shuningdek, har qanday jonsiz ob’ektga ataylab zarar yetkazishni o‘ylash yoki shuni bajarishga qaratilgan har qanday xatti - harakatlarni tushunish lozim [6].

Fikrimizcha, insoniy tajovuz esa jamiyatga yoki shaxsga nisbatan zarar yetkazish bilan bog‘liq kuchning namoyon bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, tajovuz - shunday reaksiyaki, uning oqibatida boshqa organizm og‘riq stimullarini oladi. Shu bilan birga tajovuz - bir kimsa tomonidan jismoniy xatti-harakat, yoki tahdid bo‘lib, bunda boshqa kimsaning ozodligini qisqartiruvchi yoki genetik moslashuvini qisqartiruvchi xatti-harakatdir.

Shuningdek, reaktiv va spontan tajovuzlar ajratilgan. S.Feshbax bir qator muhim farqlarni belgilab, instrumental, ekspressiv, dushmanona tajovuzlarni bir biridan ajratib bergan.

Aksincha, ekspressiv tajovuz, bunda g‘azab va nafrat ixtiyorsiz ravishda portlaydi va maqsadga yo‘nalmagan bo‘ladi, tezda tugaydi, ya’ni ko‘p davom etmaydi, shu bilan birga tinchlikni buzuvchi manba har doim ham bo‘lmaydi.

Instrumental va dushmanona tajovuzni farqlash muhim hisoblanadi. Dushmanona tajovuzning maqsadi boshqaga zarar keltirishdir. Instrumental tajovuzda esa neytral xarakterdagi maqsadga erishishga yo‘naltirilgan bo‘ladi, bunda tajovuz faqatgina vosita sifatida foydalaniladi. Bunda masalan, shantaj holatida, jazolash orqali tarbiyalashda, jinoyatchi odamlarni garovga olganda unga qaratib o‘q otishda bo‘ladi. Instrumental tajovuzni S. Feshbax individual va ijtimoiy motivlashganlarga bo‘ladi yoki yana antisotsial, sotsiallarga bo‘lish mumkin, deb aytadi.

Turli xil manbalarda uchraydigan tajovuz reaksiyalarining formalari orasida quyidagilarni ajratish mumkin.

Jismoniy agressiya – bu (hujum qilish) boshqa shaxsga nisbatan jismoniy kuch ishlatishdir.

Maxsus bo‘linmalarning xodimlarini faoliyati ekstremal vaziyatlarga kasbiy tayyorgarligi o‘z tarkibiga ko‘ra butun jarayon davomida ekstremal elementlariga egadir.

Xodimlarning emotsional xususiyatlarini diagnostika qilish maqsadida biz, agressivlikni o‘rganish uchun Bass-Darki so‘rovnomasidan foydalandik. A. Bass va A.Darki quyidagi reaksiya ko‘rinishlarini ajratganlar. Quyidagi tajovuz ko‘rinishlari aynan biz xodimlarda aniqlashimiz lozim bo‘lgan emotsiyalardan hisoblanadi.

1. Jismoniy agressiya– bu (hujum qilish) boshqa shaxsga nisbatan jismoniy kuch ishlatishdir. Harbiy xizmatchilarda maxsus vazifani guruhiy bajarish vaqtida bu sheriklariga yo‘naltirilgan bo‘lsa salbiy emotsiya hisoblanadi va guruhiy jipslikka o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Dushmanga qaratilgan jismoniy tajovuz bu yerda o‘rinli hisoblanadi. Demak, biz harbiy xizmatchilardagi jismoniy tajovuzni to‘g‘ri yo‘naltirishga o‘rgatishimiz lozim bo‘ladi.

2. Ko‘ndalang agressiya – bu to‘g‘ridan to‘g‘ri yo‘l bilan emas, balki boshqa yo‘llar bilan boshqa shaxsga nisbatan yo‘nalgan bo‘ladi. Masalan, bunda turli xil g‘iybatlar, jahlli hazillar bo‘lishi mumkin. Shuningdek, hech kimga yo‘naltirilmagan portlashlar, g‘azablar, baqirishlar, eshikni qattiq yopish va shu kabilarni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Ushbu tajovuz shaxslararo munosabatlarda ya’ni harbiy jamoalarda yuz beruvchi nizoli vaziyatlarni ko‘payib borishiga olib kelishi mumkin.

3. Verbal agressiya - o‘zining negativ his tuyg‘ularini ma’lum bir forma orqali namoyon qilish masalan baqirish, urishish shuningdek tahdid qilish, qarg‘ash, so‘kish bo‘lishi mumkin. Ushbu tajovuz Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarida va xodimlarda jamoat tartibini saqlash vaqtida patrullik xizmatini fuqarolar bilan olib borganlarida salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Lekin jangovar vazifalarni bajarish vaqtida, tashabbuskorlikni oshirishda, sheriklariga dalda bo‘lishda uning ijobiy tomonlari mavjud hisoblanadi.

4. Zo‘riqishga moyillik – ozgina zo‘riqish bo‘lishi bilan tezda qo‘zg‘alib ketishga, qo‘pollik qilishga tayyor turish hisoblanadi. Zo‘riqishga moyillik bo‘lganda aniq harakatlarni talab etadigan maxsus vazifalarni bajarish vaqtida (o‘q otish mashqlari, balandlikdan tushish) harbiy xizmatchining natijalariga salbiy ta’sir etishi mumkin.

5. Negativizm - xulq-atvorning oppazitsion turi bo‘lib, odatda obro‘li shaxsga yoki boshliqlarga, ma’muriyatga nisbatan qaratilgan bo‘ladi. Nagativizm ko‘payib ketgan harbiy xizmatchilarda tartib intizomga bo‘ysunmaslik kabi intizomiy buzilishlar yuz berishi kuzatilishi mumkin.

6. Xafa bo‘lish - bu atrofdagilarga nisbatan hasad qilish va nafratlanishdir. Shuningdek, mavjud bo‘lmagan yoki o‘tib ketgan qayg‘ularga nisbatan nafrat bilan qarashdir. Xafa bo‘lish oldingi jangovar vazifalarni bajarish vaqtida xizmatdoshlarini o‘limi, olingan jarohatlar stressga olib kelgan bo‘lsa, nafratga aylanib borishi sababli harbiy xizmatchining xulq-atvoriga salbiy ta’sir etishi mumkin.

7. Gumonsirash insonlarga nisbatan ishonchsizlik va ehtiyotkorlik bo‘lib, atrofdagilar unga nisbatan zarar yetkazishlariga aniq ishonish bilan asoslangan bo‘ladi. Harbiy xizmatchi, xodimlar uchun gumonsirash xizmat vazifalaridan kelib chiqqan holda me’yoriy hisoblansa-da, atrofdagilar uchun noodatiy bo‘lib ko‘rinishi bu esa shaxslararo munosabatlarda nizoli vaziyatlarni keltirib chiqarishiga sabab bo‘lishi mumkin.

8. Aybdorlik hissi. Subyektning o‘zini yomon inson deb o‘ylashi, vijdonini qiynalishini his etishi tushuniladi.

Aybdorlik hissi xodimlarning maxsus vazifalarni bajarishlarida xizmatdoshlarining o‘limida, jarohatlanishida, umuman olganda xizmatlarini o‘tashlari davridagi barcha yuz bergan kamchiliklar, xatolarda, xulq-atvorlarida barcha hodisalarda o‘zlarini aybdor deb bilishlariga olib kelishi mumkin. Shuningdek, aybdorlik hissi suidsidal xulq-atvorning asosiy sabablaridan biri sanaladi. Yuqorida keltirilgan tajovuz xulq-atvor xususiyatlarini aniqlash harbiy xizmatchilarni vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlarida muhim hisoblanganligi uchun tadqiqotimizda biz Bass-Darkining savolnomasini qo‘llashni lozim topdik.

Ekstremal vaziyatlarda xodimlar bilan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalarini tahlili qilib biz quyidagi natijalarga erishdik. Ichki ishlar idoralari xodimlarida agressivlikni o‘rganish uchun Bass-Darki so‘rovnomasi yordamida olingan natijalar 1-rasmda taqdim etilgan.

Natijalarga ko‘ra, 60 nafar xodimlarda boshqa agressiv hususiyatlarga nisbatan verbal agressiya yuqori ko‘satkich – 69.4 % ni berdi.

Ilmiy tadqiqotlar natijasida III xodimlari esa verbal agressiya bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichni (70 %) berganlari ma’lum bo‘ldi. Bu Ichki ishlar idoralari xodimlari

xizmat vazifalarini bajarish vaqtida jinoyatchilar va shubhadagi shaxslar ko‘pincha agressiv, tarbiyasiz, axloqsiz bo‘ladilar, xodimlar ular bilan muloqotda bo‘lganlarida nizoli vaziyatlarga ko‘p duch keladilar va verbal agressiyalari kuchayib boradi.

Ichki ishlar idoralari xodimlari muloqot jarayonida jinoyatchilar va shubhadagi shaxslar ko‘pincha agressiv, tarbiyasiz, axloqsiz shaxslar bilan yuzaga keladigan motivatsion, aqliy (intellektual), axloqiy, emotsional to‘siqlarni yorib o‘tish uchun verbal agressiyani qo‘llashga majbur bo‘lishlari qo‘shimcha suhbat metodi yordamida aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tanlangan Bass-Darki so‘rovnomasi xodimlarning xizmat faoliyatiga psixologik xususiyatlarini ta’sirini samarali o‘rganish imkonini beradi. Ushbu psixologik xususiyatlar esa ekstremal vaziyatlarda xodimlarning berilgan vazifani o’z vaqtida va to’g’ri, muvaffaqiyatli bajarishlarida muhim hisoblanadi. Shuningdek, xodimlarda emotsional xususiyatlarni psixodiagnostik tekshiruvlar asosida o‘rganish har qanday qiyinchiliklarga bardoshli bo‘lish va xizmat burchini mardonavor ado etishlari kabi sifatlarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa xodimlarda maxsus operatsiyalarni to‘g‘ri taqsimlash hamda ularning axloqiy-ruhiy holatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, u harbiy psixologiya va ijtimoiy psixologiyani yangi ilmiy ma’lumotlar bilan boyitadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar xodimlarni diagnostika qilishda hamda ekstremal vaziyatlarda xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishga erishishlarida ularning emotsional-irodaviy xususiyatlarini to‘g‘ri yo‘naltira olishga imkon beradi. Komandirlar o‘z bo‘ysunuvchilarining imkoniyat va qobiliyatlariga ko‘ra topshiriqlarni taqsimlashlariga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ahmadjonova N.A. Harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy ta’minotida irodaviy xususiyatlarning ahamiyati. O‘zMU XABARLARI. 2023 1/8/1. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnali. Toshkent. 2023. 72-74- B.

2. Ahmadjonova N.A. Harbiy xizmatchilarning faoliyatida emotsional-irodaviy xususiyatlarning psixodiagnostikasi. Psixologiya. Ilmiy jurnal. Buxoro Davlat universiteti. Buxoro. № 3, 2023. 15-19 - B.

3. Бреслов Г.М. Психология эмоции: учебное пособие.3-е изд. М. Смысл:Академия, 2007. – 541 с.

4. Макнаб К. Психологическая подготовка подразделений специального назначения. – М.: ФАИР-ПРЕСС, 2002. 376 с.

5. Немов Р.С. Психология: Учебник для студентов высших пед. учебных заведений: В 3 кн. - М.: ВЛАДОС, 2003. – 225 с.

6. Изард К.Э. Психология эмоции - СПб.: Питер, 2000. – 192 с.

YOSH HARBIY XIZMATCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Tashpo‘latova Nodira Xudjamuradovna
Jizzax davlat pedagogika universetiti psixologiya kafedrasi
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya Maqolada yosh harbiy xizmatchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning psixologik va pedagogik asoslari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Harbiy muhitning shaxsga ta’siri, yosh xizmatchilarning psixik barqarorligi va vatanparvarlik hissini shakllantirish omillari ochib berilgan. Shuningdek, harbiy ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy xizmat, kasbiy tayyorgarlik, psixologik barqarorlik, harbiy pedagogika, vatanparvarlik, shaxs rivoji, stressga chidamlilik.

Mamlakatimizning mudofaa salohiyati, eng avvalo, harbiy xizmatchilarning kasbiy salohiyati va ma’naviy barqarorligi bilan belgilanadi. Yosh harbiy xizmatchilar harbiy muhitga qadam qo‘ygan ilk davrda katta psixologik va ijtimoiy o‘zgarishlarni boshidan kechiradilar. Shu sababli ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida nafaqat jismoniy, balki psixologik va pedagogik jihatlarning ham uzviy bog‘liqligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday davlat o‘z istiqbolini sog‘lom va barkamol avlod timsolida ko‘radi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonini, kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurishdek ezgu maqsadlar ro‘yobini yoshlar ishtirokisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Yoshlarni zamon talablari darajasida ta’lim–tarbiya olishi, vatanparvar bo‘lishi, shu aziz Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirishi, salomatligini mustahkamlashi, o‘z kuchi, bilim va salohiyatini yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridandir.

Harbiy kadrlar tayyorlash tizimida asosiy maqsad – shaxsiy intizomli, mas’uliyatli, ruhiy barqaror va vatanparvar yoshlarni tarbiyalashdir. Bu vazifani amalga oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda ilmiy psixologiya yutuqlaridan samarali foydalanish zarur.

Yosh harbiy xizmatchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari Harbiy kasb ijtimoiy jihatdan juda murakkab, yuqori mas’uliyat talab etuvchi faoliyat hisoblanadi. U nafaqat muayyan texnik va taktik bilimlarni, balki shaxsning ruhiy barqarorligini ham talab etadi. A.G‘. Xojiev (2021) ta’kidlaganidek, harbiy kasbiy kompetensiya shaxsning ekstremal sharoitlarda tezkor qaror qabul qilish, o‘zini boshqarish va jamoada samarali faoliyat ko‘rsatish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Yosh harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi quyidagi komponentlar orqali namoyon bo‘ladi:

Psixologik tayyorgarlik – stressga bardoshlilik, o‘zini nazorat qilish, ziddiyatli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati.

Jismoniy tayyorgarlik – xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur jismoniy chidamlilik.

Ma’naviy-axloqiy tayyorgarlik – burch va vatan oldidagi mas’uliyat hissini kuchaytirish.

Intellektual tayyorgarlik – tezkor fikrlash va yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirish qobiliyati. Bularning barchasi yosh xizmatchilarni harbiy faoliyat sharoitida samarali ishlashga tayyorlaydi.

Yosh harbiy xizmatchilarda psixologik tayyorgarlikni shakllantirish Psixologik tayyorgarlik harbiy kasbiy tayyorgarlikning markaziy bo‘g‘ini hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarda (V.A. Bodrov, 2019; I.Q. Sidiqov, 2020) ta’kidlanishicha, yosh xizmatchilarda quyidagi psixik holatlar ko‘p uchraydi: yangi muhitga moslashishdagi qiyinchiliklar, xizmat intizomiga moslashish jarayonidagi stress, jamoaviy munosabatlarda ichki ziddiyatlar.

Bu yengishda harbiy psixologning maslahatlari, guruhiy treninglar, avtogen mashqlar va ijobiy motivatsiya usullari muhim ahamiyatga ega. Psixologik tayyorgarlikning asosiy vazifasi — xizmatchining emotsional barqarorligini ta’minlash, ya’ni u ekstremal sharoitda ham ongli, hushyor va qarorqabul qilish qobiliyatini saqlay bilishi lozim.

Pedagogik asoslar va tarbiyaviy yo‘nalishlar. Harbiy ta’lim muassasalarida yosh xizmatchilarni tayyorlash faqat bilim berish emas, balki ularda shaxsiy yetuklikni shakllantirish jarayoni hamdir. Q. Norqulov (2022) fikricha, harbiy pedagogikada quyidagi prinsiplar ustuvor hisoblanadi:

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – har bir xizmatchining individual xususiyatlarini inobatga olish; Interaktiv usullardan foydalanish – modellashtirilgan taktik vaziyatlar va amaliy keyslar orqali o‘qitish; Tarbiyaviy ta’sirning kompleksligi – ma’naviy, jismoniy va psixologik tayyorgarlikni uyg‘unlashtirish; Rahbar namunasi – komandir va instruktor shaxsiy namuna orqali axloqiy qiymatlarni singdirishi lozim.

Shuningdek, vatanparvarlik, fidoyilik, burch va jamoaviylik hissini shakllantirish harbiy ta’limning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Yosh harbiy xizmatchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimida psixologik va pedagogik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish strategik ahamiyatga ega.

Harbiy kadrlar tayyorgarligini takomillashtirish uchun: xizmatchilarning psixik barqarorligini ta’minlovchi kompleks dasturlar ishlab chiqish, interaktiv va

innovatsion o‘qitish usullarini joriy etish, ma’naviy tarbiyani milliy qadriyatlar asosida kuchaytirish, dolzarb vazifalar sifatida belgilanadi.

Shunday yondashuv orqali yosh harbiy xizmatchilar nafaqat kasbiy jihatdan tayyorlangan, balki ma’naviy va psixologik jihatdan yetuk vatan himoyachilari sifatida shakllanadilar. Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish, Vatanni sevish va asrash tuyg‘ularini shakllantirish axloqiy ehtiyojga aylandi. Bugungi kunda bu davlat siyosati markazida turadi. Bu ehtiyojni esa ma’naviy-axloqiy meros vositasida qondirish samarali natija berishi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta’biri bilan aytganda, vatanparvarlik xalqimizning azaliy qadriyatlaridan hisoblanadi.

U mehr-oqibat, Vatan taqdiri uchun qayg‘urish, tashvish va falokatlarga hamdardlik kabi axloqiy fazilatlar sirasiga kiradi. Ayniqsa, harbiy vatanparvarlik umumxalq, umummilliy vatanparvarlikning alohida turi va ajralmas bo‘lagidir. Harbiy vatanparvarlik g‘oyalarini yoshlar qalbiga singdirish O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosatida yana ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xojiev A.G‘. Harbiy kasbiy kompetensiya nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: Akademnashr, 2021.
2. Sidiqov I.Q. Yosh harbiy xizmatchilarda psixik barqarorlikni shakllantirish usullari. — Toshkent, 2020.
3. Bodrov V.A. Psixologiya professionalnoy deyatelnosti voennoslujaщix. — Moskva: Perspektiva, 2019.
4. Norqulov Q. Harbiy pedagogika asoslari. — Toshkent: MOQ, 2022.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2021.

HARBIY XIZMAT SHAROITIGA MOSLASHUVDA DESTRUKTIV EMOTSIONAL HOLATLAR PSIXOPROFILAKTIKASI

Abdug‘aniyeva Diyora Abdurashid qizi
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi doktoranti
tel: (+99897) 539-26-24
email: abduganiyevadiyora2@gamil.com

Uzoq vaqt davomida shaxs adaptatsiyasi muammosi ko‘plab fanlar – sotsiologiya, psixologiya, pedagogika, tibbiyot, biologiya, fiziologiya va boshqalarning nazariy va amaliy tadqiqot obyekti bo‘lib kelmoqda. Adaptatsiya tushunchasi ijtimoiy muhit va shaxs o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayoni sifatida belgilanishi mumkin bo‘lib, bu jarayon shaxsni yangi faoliyat turiga jalb qilish hamda organizm va uning a’zolarini yangi atrof-muhit sharoitlariga moslashtirishni nazarda tutadi. Adaptatsiya masalasini tadqiq etayotgan ko‘plab olimlar turli fan sohalarining talablari va yondashuvlariga mos ravishda bu terminga turlicha ta’riflar berishadi [2].

“Adaptatsiya” atamasi lotin tilidagi adaptor (moslashtiraman), adaptare (moslash), adaptacio (moslashuvchanlik) so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, uning ilmiy qo‘llanilishi XVIII asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. Nemis fiziologi G.Aubert bu atamani ko‘z va quloq sezgirligini tegishli ta’sirchilarga moslashtirish hodisasini tavsiflashda ishlatgan. Adaptatsiya muammosi keyinchalik evolyutsion nazariya va umumiy biologiya doirasida rivojlandi (J.Lamark, J.Sent-Iller, G.Spenser, Ch.Darvin). Shu bilan birga, “adaptatsiya” atamasining qo‘llanilish doirasi kengaydi: biologlar bilan bir qatorda, shifokorlar, sotsiologlar, psixologlar, pedagoglar va faylasuflar ham adaptatsiya masalasiga qiziqish bildirishdi. Adaptatsiyaning ilmiy ta’riflari birinchi bor Ch.Darvin va uning izdoshlari asarlarida paydo bo‘lgan. Adaptatsiya tashqi muhitning o‘zgaruvchan ta’sirlariga organizmda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar majmui sifatida tushunilgan.

Sotsiologiya va psixologiyada adaptatsiya tushunchasi shaxs va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi ma’lum munosabatlar o‘rnatilish jarayoni va natijasi bilan bog‘liq. Psixologik nuqtai nazardan adaptatsiya hayotiy faoliyat va ijtimoiy guruhlardagi (ish munosabatlari, ta’lim, mehnat faoliyati, yangi yashash muhiti va boshqalar) turli sohalarda yuzaga kelishi sababli, psixologlar adaptatsiya jarayoniga turlicha ta’riflar berishadi. Psixologik adaptatsiya shaxsning biologik va fiziologik adaptatsiyalari bilan bir qatorda, ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik va professional faoliyat tizimlariga, shuningdek, tegishli rollarni bajarishga qo‘shilish jarayoni hisoblanadi. Bu tashqi muhit bilan shaxs o‘rtasidagi maqsadli o‘zaro ta’sir bo‘lib, o‘zgarishlar natijasida shaxs va muhit munosabatlari uyg‘unlashadi, ichki va tashqi gomeostaz o‘rnatiladi.

Psixologiyada asosan “psixologik adaptatsiya” (“ruhiy adaptatsiya”, “shaxs adaptatsiyasi” va boshqalar) o‘rganiladi, u shaxs psixikasining tashqi muhitning obyektiv omillari ta’sirida o‘zgarishi va qayta shakllanishi, eski dinamik stereotipning buzilishi va yangisining – vaqtinchalik nerv aloqalari (shartli reflekslar) tizimining barqaror shakllanishi jarayoni sifatida tavsiflanadi. Bu jarayon bosh miyanning katta yarimsharlari faoliyatining butunligida amalga oshiriladi va organizm hamda psixikaning tashqi va ichki ta’sirlarga muvofiq javoblarini ta’minlaydi. A.V.Siomichev adaptatsiyani shaxsiy va individual sifatlarning o‘zgarish sharoitlariga moslashuvi sifatida ta’riflaydi. 1993 yilda Sankt-Peterburglik tadqiqotchilar guruhi adaptatsiyani organizmning tabiiy, ishlab chiqarish va ijtimoiy sharoitlarga moslashuvi jarayoni deb biladi. S.A.Kugel va O.M.Nikandrov esa adaptatsiyani har doim yangi rejimga o‘tish, shaxsning roli o‘zgarishi bilan bog‘liq jarayon deb hisoblaydi. Ushbu o‘zgarishlarning qanchalik qiyin kechishi shaxsning yangi muhitga va yangi vazifalarga moslashuvi, shuningdek, ilgari to‘plagan shaxsiy tajribasiga bog‘liq.

Oliy harbiy ta’lim muassasalariga moslashish muammosi doimo mavjud bo‘lib kelgan. Harbiy pedagogika va psixologiya ko‘p yillar davomida adaptatsiya jarayonini optimallashtirish yo‘llarini izlab kelmoqda. Biroq zamonaviy sharoitlar yangi talablarni keltirib chiqarmoqda. Tadqiqotimizda biz yosh kursantlarni ayni paytda eng ko‘p tashvishga solayotgan, ularga qiyinchilik tug‘dirayotgan va yangi hayotiy sharoitlarga moslashish jarayonini sekinlashtirayotgan omillarni aniqlashga harakat qildik.

Yosh kursantlarning adaptatsiya muammosi dolzarbligini zamonaviy ta’lim sharoitida o‘quv jarayonini optimallashtirish, yoshlar uchun nafaqat yangi ma’lumotlarni, balki Qurolli Kuchlardagi mavjud qoidalar va xulq-atvor normalarini samarali qabul qilishni ta’minlash zarurati belgilaydi. Shuningdek, sezilarli emotsional va jismoniy yuklamalar ostida maksimal samaradorlikni saqlab qolish, o‘zini rivojlantirish, takomillashtirish va o‘z-o‘zini o‘rgatish qobiliyatini doimiy ravishda oshirib borish talab etiladi. Bu esa bo‘lajak ofitseri uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarga, shuningdek, uning ma’naviy-axloqiy sifatlariga doimiy oshirilayotgan talablar bilan bog‘liqdir.

Harbiy oliy ta’lim muassasalarini bitirgan mutaxassislar eng murakkab vazifalarni hal qilishga tayyor bo‘lishlari lozim. Buning uchun o‘quv texnologiyalarini takomillashtirish, mamlakatimizda va xorijda mavjud eng yangi yondashuvlarni o‘quv jarayoniga joriy etish, kadrlar tayyorlashda jangovar harakatlarning tabiatida ehtimoliy o‘zgarishlarni hisobga olish zarur.

Milliy xavfsizlik sohasidagi harbiy xizmatchilarga qo‘yilayotgan talablarning doimiy oshishi, yangi texnologiyalarni o‘rganish, o‘quv jarayonining

murakkablashishi, dunyodagi siyosiy vaziyatning tez-tez o‘zgarishi bilan bog‘liq axborot yuklamalari yoshlar uchun harbiy ta’lim muassasalarida adaptatsiya va integratsiya jarayonini murakkablashtirmoqda.

Emotsional-koordinal psixologik gomeostazning harbiy xizmatdagi ahamiyati shundaki, emotsiyalar tafakkur faoliyatining regulyatori hisoblanadi va bu o‘quv jarayonining muvaffaqiyatiga ta’sir qiladi. Emotsiyalar shuningdek iroda va motivatsiya aspektlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Uzoq davom etgan salbiy emotsiyalar dominatsiyasi organizmning himoya reaksiyasi sifatida emotsional taranglik holatini keltirib chiqaradi. Taranglik esa operatorlik faoliyatiga, jumladan ko‘plab harbiy kasblarga – mexanik-suruvchilar, tankka qarshi boshqariluvchi raketa operatorlari, aloqa mutaxassislari va boshqalarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. K.E.Izard [3] ta’kidlaganidek, taranglik oshishi ongli nazoratning zaiflashishiga, psixofiziologik funksiyalar, kognitiv jarayonlar va xulq-atvor reaksiyalarining yomonlashishiga olib keladi.

Emotsiyalar samarali muloqot, psixologik aloqa o‘rnatish va hamkorlik faoliyatini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi, bu esa adaptatsiya jarayoni va harbiy mehnat muvaffaqiyatining muhim omilidir. Ayniqsa harbiy xizmat sharoitida H.Lindemannning quyidagi fikri dolzarbdir: “Salbiy emotsiyalar eslab qolish jarayonlarini buzadi, diqqatni tarqatadi, reaksiya vaqtini oshiradi. Shuning uchun, shaxsiy munosabatlardagi salbiy holatlar, vaziyat keskinlashganda, yakka va umumiy faoliyat samaradorligini pasaytirishi mumkin” [6].

Bizning fikrimizcha, psixologik tayyorgarlikning emotsional komponenti shakllanganligini aniqlovchi asosiy ko‘rsatkich – bu emotsional chidamlilikdir. E.A.Mileryan bu tushunchani ikki nuqtai nazardan ta’riflaydi [7]: birinchisi – psixik holat va faoliyatga salbiy ta’sir qiluvchi stressogen omillarga nisbatan sezgir emaslik; ikkinchisi – paydo bo‘ladigan asteniya emotsiyalarini nazorat qilish va bostirish qobiliyati, shu orqali zarur amallarni bajarishni ta’minlash. Kursantlar psixologik salomatligini ta’minlashda ulardagi xavotir, agressiya va depressiya darajalariga alohida e’tibor qaratish va bu kabi emotsional holatlar psixoprofilaktikasi bo‘yicha maxsus chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur [1].

Kursantlarning harbiy oliy ta’lim muassasasining sharoitlariga moslashish davrida ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

1. Diagnostika – bu kursantning individual psixologik xususiyatlarini aniqlash bo‘lib, ularning harbiy jamoaga muvaffaqiyatli moslashuvi va harbiy hisob mutaxassisligini egallash uchun muhim ahamiyatga ega. Psixologik diagnostika shaxsiy va guruh shaklida olib borilishi mumkin. Diagnostikaning bosqichlari quyidagilardan iborat: kursantlarning xususiyatlarini dastlabki va chuqurroq

o‘rganish, moslashuv bosqichida harbiy jamoalarda yuz berayotgan ijtimoiy-psixologik jarayonlarni tahlil qilish; o‘rganilgan komponentlarning asosiy xususiyatlari bo‘yicha xulosa chiqarish (psixologik diagnoz qo‘yish); psixologik-pedagogik e’tibor talab qiluvchi, yangi harbiy muhitga moslasha olmagan kursantlar bilan psixokorreksiya dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish, shuningdek, zarur kasbiy kompetensiyalar va psixologik ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli reja tuzish.

2. Psixoprofilaktika ishlari – bu kursantlarning ta’lim, tarbiya va ruhiy salomatligi bilan bog‘liq muammolarni hal qilishni ta’minlashdir. Profilaktika – bu ta’lim oluvchilarda dezadaptatsiya hodisalarining oldini olish, pedagog xodimlar, komandirlar va ota-onalarga yoshlarning tarbiyasi, ta’limi va rivojlanishida yordamlashish bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqishdir. Har bir kasbiy tayyorgarlik bosqichining vazifalarini hisobga olgan holda kursantlar uchun rivojlanish dasturlarini yaratish va amalga oshirish; kelajakda ijtimoiy-kasbiy adaptatsiyadagi buzilishlarga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan psixologik xususiyatlarni aniqlash; kursantlarning kasbiy rivojlanish bosqichlariga o‘tish bilan bog‘liq mumkin bo‘lgan murakkabliklarni oldini olish.

3. Konsultatsiya berish – komandirlar, kursantlar, o‘qituvchilar va ota-onalarning psixologga murojaat qilgan muammolarini hal qilishda yordam ko‘rsatishdir. Shaxsiy konsultatsiya – shaxsning rivojlanishi, mustaqil qaror qabul qilish va yangi xulq-atvorni o‘rganishi uchun sharoit yaratishdir [4]. Guruhli konsultatsiya – ta’lim jarayonidagi muammolar bo‘yicha barcha ishtirokchilarga (komandirlar, o‘qituvchilar, kursantlar) ma’lumot berish va moslashuvchan muhit yaratish orqali ta’lim muassasasida shaxsning to‘laqonli integratsiyasi va o‘zini o‘zi amalga oshirishini ta’minlashdir.

4. Rivojlantirish ishlari (shaxsiy va guruhli) – yangi bilimlarga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish, uni olish va amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini yaratish.

5. Korreksion ishlar (shaxsiy va guruhli) – asosan adaptatsiya, xulq-atvor va shaxsiy rivojlanishda muammolari aniqlangan kursantlar bilan ishlashni tashkil etishdir [5]. Bu yo‘nalish dezadaptatsiya darajasini kamaytirish, uning xulq-atvor oqibatlarini bartaraf etish va kursantning reabilitatsion potensialini maksimal darajada amalga oshirish uchun zarurdir.

6. Pedagogik tushuntirish – bilimlarga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish, ularni shaxsiy rivojlanish manfaatlarida qo‘llash istagini uyg‘otish; har bir kasbiy ta’lim bosqichida kursantlarning to‘laqonli shaxsiy rivojlanishi va o‘zini aniqlash sharoitlarini yaratish, shuningdek, kasbiy rivojlanish va shaxsiy o‘sishda mumkin bo‘lgan buzilishlarning oldini olish [8]. Bundan tashqari, komandirlar, pedagoglar, kursantlar va ota-onalarni pedagogik va psixologik madaniyat bilan tanishtirish.

7. Ta’lim va o‘quv dasturlari, loyihalar, qo‘llanmalar, ta’lim muhiti hamda ta’lim muassasasining mutaxassislari kasbiy faoliyatining ekspertizasi.

Ushbu dastur kursantlar, professor-o‘qituvchilar tarkibi, komandirlar va kursantlarning ota-onalari bilan ishlashda amalga oshiriladi va destruktiv emotsional yuzaga kelishining oldini olishda qo‘llanilib, adaptatsiya jarayoning ijobiy amalga oshirilishida samarali metod hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Abdug‘aniyeva D. Destruktiv emotsional holatlar–psixologik fenomen sifatida //News of the NUUz. – 2024. – T. 1. – №. 1.8. – S. 1.

2.Abduganieva, D.A. «Osobennosti proyavleniya stressa v studencheskoy srede». (2021): 16-18.

3.Izard, K. Э. Psixologiya эmoцiy [Tekst] / K. Э. Izard. - SPb.: Piter, 2002.-464 s.

4.Karayani A.G. Aktivnoe soцialno-psixologicheskoe obuchenie kak sredstvo splocheniya voinskix podrazdeleniy. – M.: VPA, 1992.

5.Karayani A.G. Aktivnыe metodы soцialno-psixologicheskogo obucheniya. – M.: Voennыy universitet, 2003. – 69 s.

6.Lindemann, X. Sistema psixofizicheskogo samoregulirovaniya [Tekst] / X. Lindemann. - M.: RЭNAR, 1992. - 205 s.

7.Mileryan, E. A. Psixologicheskiy otbor letchikov [Tekst] / E. A. Mileryan. - Kiev, 1989.- 149 s.

8.Pedagogicheskie texnologii: Uchebnoe posobie dlya studentov pedagogicheskix speцialnostey / Pod red. V.S. Kukushina. – Seriya «Pedagogicheskoe obrazovanie». – M.: IKЦ «MarT», 2004. – 336 s.

KURSANTLARNING HARBIY VA O‘QUV MUHITGA ADAPTATSIYASI: QIYINCHILIKLAR VA ULARNI ENGISH YO‘LLARI.

Kushbayev Sardor Kenjabayevich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistranti, podpolkovnik

Annotatsiya: Ushbu tezis kursantlarning harbiy va o‘quv muhitiga adaptatsiyasi jarayonidagi qiyinchiliklar va ularni engish yo‘llarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ishda adaptatsiya jarayonining psixologik, ijtimoiy va jismoniy jihatlari tahlil qilinadi, kursantlarning yangi muhitga moslashuviga to‘sqinlik qiluvchi omillar aniqlanadi. Shuningdek, stressni kamaytirish, psixologik barqarorlikni oshirish va samarali moslashuv strategiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha amaliy tavsiyalar taqdim etiladi. Tezis nafaqat ilmiy nuqtai nazardan, balki harbiy ta’lim jarayonini optimallashtirish va kursantlarning muvaffaqiyatli xizmatini ta’minlashga ham dolzarb ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Kursant, harbiy muhit, o‘quv muhit, adaptatsiya, psixologik barqarorlik, stress, moslashuv strategiyalari, qiyinchiliklar.

Harbiy xizmatga kirish voyaga etgan yoshlar uchun nafaqat yangi kasbiy yo‘nalish, balki jismoniy, psixologik va ijtimoiy jihatdan yangi muhitga moslashishni talab qiluvchi murakkab jarayondir. Kursantlar uchun harbiy va o‘quv muhitining qat’iy intizomi, yuqori talablar va yangi jamoaviy munosabatlar ko‘pincha stress manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli kursantlarning samarali adaptatsiyasi nafaqat ularning o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyatini, balki kelajakdagi harbiy faoliyatidagi barqarorlik va professional tayyorgarligini belgilaydi.

Adaptatsiya jarayoni psixologik yondashuv nazaridan kursantlarning yangi muhitga moslashish qobiliyati, stressga chidamliligi va psixologik barqarorligini shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Shunday ekan, adabtatsiyaning muvaffaqiyati esa harbiy va o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, shuningdek, kursantlarning jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Shu qatorda, harbiy xizmat va o‘quv ta‘limga moslashish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni engish yo‘llarini o‘rganish psixologik xizmat, pedagogik jarayon va harbiy tayyorgarlik sifatini oshirishda dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu tezis kursantlarning adaptatsiya jarayonini o‘rganish, qiyinchiliklarni aniqlash va ularga samarali yechimlar ishlab chiqishga bag‘ishlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Oliy harbiy ta‘lim muassasalariga o‘qishqa qabul qilinish - mustaqil hayotga dastlabki qadamdir. Ayni damda, kechagina umum ta‘lim maktabini yakunlagan o‘spirinning psixologiyasi ta‘sir qiladigan o‘zgarishlarni

boshdan kechiradi, shu jumladan, maktab jamoasidan ajralish, oilasini tark etish va umuman harbiy ta‘lim muassasasida o‘qish bilan bog‘liq qiyinchiliklarni boshdan kechiradi. Muvaffaqiyatli ta‘lim ko‘p jihatdan kursantlarning harbiy ta‘lim muassasasiga qabul qilinganlarida yangi muhitda harakat qilish qobiliyatiga bog‘liq. Mahsg‘ulotlarni boshlash, kundalik hayotga joylashish, yangi munosabatlar va yangi jamoaga moslashish kursantlarning murakkab jarayoniga kirishishini anglatadi.

Adabtatsiya inson va atrof - muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir jarayoni sifatida belgilanadi, buning natijasida u ushbu muhitdagi o‘zgaruvchan sharoitlarga mos keladigan xatti-harakatlar modellari va strategiyalarini ishlab chiqadi.

Adabtatsiya - bu organizmning doimiy o‘zgarib turadigan muhit sharoitida mavjud bo‘lishini ta‘minlaydigan dinamik jarayondir. Ushbu umumiy ta‘rif ta‘lim muhitida moslashish jarayoniga ham tegishli bo‘ladi.

O‘quv jarayoniga moslashishning asosiy mazmuni kursantlarning yangi kasbiy munosabatlarni shakllantirishini, yangi o‘quv shakllarini, baholarni, mustaqil ishning usullari va qoidalarini egallashini, yangi turdagi o‘quv jamoasiga, uning odatlari va an’analariga moslashishini, yangi ilmiy faoliyat turlarini o‘rganishini, umumiy yotoqxonalardagi yangi turmush sharoitlariga moslashishini, “kursant” madaniyatining yangi namunalari bilan tanishishini, bo‘sh vaqtni yangi shakllarda tashkil etishni o‘rganishini va shunga o‘xshash jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Adabtatsiya aynan shu mexanizm bo‘lib, kelajakda kasbiy muhitga muvaffaqiyatli kirishni ta’minlaydi. Kasbiy adaptatsiya davri obyekt ravishda yangi ijtimoiy rollarni, kasbiy xarakterdagi funksiyalarni qabul qilishni va kasbiy vazifalarni bajarishda shaxslararo munosabatlar tuzilmasiga kirishni o‘z ichiga oladi. Kasbiy adaptatsiya natijasida jamiyat tomonidan tanlangan kasbga qo‘yilgan talablar bilan shaxsning imkoniyatlari o‘rtasida optimal muvozanatga erishiladi.

Oliy ta’lim muassasalariga moslashish jarayonida kursantlar quyidagi qiyinchiliklarga duch keladilar:

- katta hajmdagi ma’lumotlar va uni qabul qilish hamda qayta ishlashning yangi usullariga tayyor emaslik;
- yetarli asosiy bilimlarning yo‘qligi;
- bilimlarni tizimlashtira olmaslik;
- mustaqil o‘qishga yuqori darajada talablar qo‘yilishi;
- motivatsiyaning yetarli emasligi;
- xizmat va o‘qish jarayonlariga qoniqa olmaslik;
- yangi hayot ritmiga moslasha olmaslik;
- past kommunikativ ko‘nikmalar va yangi jamoa bilan yaxshi muloqot qura olmaslik.

Shu sababli oliy ta’lim muassasasiga moslashish talabalar ruhiy va jismoniy kuchlarini safarbar qilishni talab qiladi.

Kursantlarning harbiy oliy ta’lim muassasasida o‘qishga adabtatsiya bir nechta turga bo‘linadi:

Fiziologik adaptatsiya. Bu katta ruhiy va jismoniy yuklamalar, harbiy oliy ta’lim muassasasi sharoitida ish va dam olishning tartibga solinishi bilan bog‘liq. Shuningdek, kursantlar odatdagi iqlim zonasini o‘zgartirganda yuzaga keladigan iqlimga moslashish ham kiradi.

Kasbiy adaptatsiya. Bu yangi o‘quv va harbiy fanlarni egallash darajasida yuzaga keladi, ular xizmat vazifalarini bajarish bilan navbat bilan bajarib amalga oshiriladi.

Ijtimoiy adaptatsiya. Bu yangi ijtimoiy va shaxsiy muloqot muhitiga moslashishdir. Harbiy oliy ta’lim muassasasiga kirgan yoshlar dastlabki kunlaridanoq nizomlar va ichki tartib talablarining asosiy qoidalarini tushunishlari va egallashga harakat qilishlari, kursantlar orasida qabul qilingan xulq-atvor qoidalari, ularning boshqaruv va o‘qituvchilar bilan munosabat uslubi bilan tanishishlari zarur[1].

Harbiy oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etish o‘ziga xos xususiyatga ega, chunki u katta hajmdagi o‘quv ma’lumotlarini cheklangan vaqt ichida o‘zlashtirish, yangi o‘quv shakllari bilan ishlash, ota-onalar tomonidan mustaqil ishlarga tizimli nazoratning yo‘qligi, uy sharoitidagi qulayliklarning mavjud emasligi kabi murakkabliklarni talab qiladigan asosiy faoliyat turidir.

Fuqarolik oliy ta’lim muassasasidagi o‘quv dasturidan tashqari, kursantlar butun bir qator harbiy fanlarni ham o‘zlashtirishi zarur. Bular yoshlar ichida katta ichki taranglikni yuzaga keltiradi, ulardan doimiy o‘z-o‘zini nazorat qilish va faoliyat natijalarini baholash, ularni optimal darajaga yetkazish talab qilinadi.

Shu sababli kelajakdagi ofitserlarning adaptatsiyasi qiyinchiliklarni yengish, notanish o‘quv shakllari va usullariga moslashish, ruhiy taranglik, ishonchsizlik, kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga oid shubhalarni yengish bilan bog‘liq.

Harbiy oliy ta’lim muassasalariga adabtatsiya muvaffaqiyati ko‘p jihatdan quyidagi omillarga bog‘liq:

Intellektual salohiyat (intellektning rivojlanishi, boshlang‘ich umumta’lim tayyorgarlik darajasi, dunyoqarash);

Shaxsiy salohiyat (asab tizimining turi va xususiyatlari, shaxsiy sifatlar, kursantning shaxsiy yo‘nalishi, faol hayotiy pozitsiya va boshqalar)[2];

O‘quv va xizmat faoliyatiga motivatsiya (kelajakdagi kasb haqida ma’lumot, kursantning vazifalarni bajarishga tayyorligi, kirish paytidagi motivatsiya xususiyatlari: qaror mustaqil qabul qilinganmi yoki ota - onaning tavsiyasi bilan, bu

ongli tanlovmi yoki tasodifiy omillarga bog‘liq; o‘qishga yo‘naltirilganlik, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashga motivatsiya);

Irodaviy komponent (xulq-atvorni boshqarish);

Yosh va ijtimoiy kelib chiqish;

Axloqiy-odobiy komponent (tarbiya va madaniyat umumiy darajasi);

Kommunikativ salohiyat (atrofdagilar bilan muloqot va o‘zaro aloqalar).

Shunday qilib, kursantlarning harbiy oliy ta’lim muassasalariga moslashuvi murakkab, dinamik, ko‘p qirrali va ko‘p darajali jarayon bo‘lib, u kursantlardan o‘z ehtiyoj-motivatsion sohasini, mavjud ko‘nikma, malaka va odatlarni yangi vazifalar, maqsadlar, istiqbollar va ularni amalga oshirish sharoitlariga moslashtirishni talab qiladi.

Kursantlarning harbiy oliy ta’lim muassasalariga moslashuvi murakkab, ko‘p qirrali va ketma-ket bosqichlardan iborat jarayon bo‘lib, ular uchun nafaqat yangi o‘quv vazifalarini, balki butunlay yangi hayot tarzini o‘zlashtirishni talab qiladi. Adaptatsiya jarayonining muvaffaqiyati kursantlarning psixologik barqarorligi, intellektual tayyorgarligi, ijtimoiy ko‘nikmalari, kasbiy motivatsiyasi va irodaviy sifatlari bilan bevosita bog‘liqdir.

Harbiy ta’lim muassasalari o‘zining qat’iy ichki tartibi, jismoniy va ruhiy yuklamalarining yuqoriligi, o‘quv jarayonining intensivligi bilan ajralib turadi. Shu bois kursantlar yangi sharoitga moslashish davomida fiziologik, kasbiy va ijtimoiy yo‘nalishlarda bir qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu jarayonni yengil kechirish, birinchi navbatda, ularning yangi sharoitlarga moslashish strategiyalarini shakllantirish darajasiga bog‘liq.

Adaptatsiya jarayonining samarali tashkil etilishi kelajakdagi ofitserlarning kasbiy yetukligi, xizmatga tayyorgarligi va harbiy jamoaga to‘liq integratsiyasini ta’minlaydi. Shuning uchun ham harbiy oliy ta’lim muassasalarida kursantlarning moslashuvini ilmiy asosda o‘rganish, ularga psixologik, pedagogik va ijtimoiy yordam ko‘rsatish, motivatsiyani mustahkamlash va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, kursantlarning harbiy ta’lim muassasasiga moslashuvi - bu shaxsning o‘z imkoniyatlarini yangi vazifalar va sharoitlarga muvofiqlashtirish jarayoni bo‘lib, u kelajakdagi professional faoliyatga tayyorgarlikning muhim bosqichini tashkil etadi.

Kursantlarni harbiy o‘quv muhitiga tayyorlashni umumta’lim bosqichidan boshlash, harbiy oliy ta’lim muassasalarida psixologik yordam tizimini kuchaytirish, kursantlar uchun moslashuv modullarini joriy etish, o‘quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng qo‘llashni davom etish, jamoaga moslashuvni qo‘llab-quvvatlash, o‘quv va xizmat jarayonini psixologik yuklamalar bo‘yicha

muvozanatlashtirish, kursantlarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, Moslashuv jarayonini ilmiy jihatdan muntazam o‘rganish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O.Зауцева “Osobennosti adaptaцii obuchayuщixsya k usloviyam voennogo vuza”. // Universitet grajdanskoy zaщiты MChS Respubliki Belarus-2018//. https://mail@ucp.by;

2. A.Leщuk “Problemы adaptaцii kursantov na pervых kursax voennых vuzov”. //Pedogogicheskiy portal: Vremya razvitiyayu Moskva 2024//.https://vremyarazvitiya.ru/problemy-adaptaczii-kursantov-na-pervyh-kursah-voennyh-vuzov/;

3. F.Talipova “Psixologik adaptatsiya strategiyasi va uning hayot inqirozlarini yengib o‘tishga ta‘siri// The multidisciplinary journal of science and technology// volum-4. https://zenodo.org/records/14272286/files/Talipova Feruza 400-404 MJST.pdf?download=1.

HARBIY XIZMATCHILARNING PSIXOLOGIK ADAPTATSIYASIDA DIQQAT TAQSIMLANISHINING GENDER XUSUSIYATLARI

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qiz
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi o‘qituvchisi, psixol.f.b.f.d (PhD)
Omonov Kamoliddin Ibrat o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” yo‘nalishi 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: Harbiy xizmat faoliyatida gender xususiyatlarining asosiy ko‘rinishi ularning kognitiv jarayonlarining rivojlanganligi asosiy rol o‘ynaydi. Gender farqlarda asosan bilolagik, ijtimoiy operatsion psixogenetik aspektlarga e’tibor qaratilishi muhimdir. Harbiy xizmatchilarda harbiy aniqlik,aytilgan ma’lumotlarni tezda o‘zlashtirish, hamda diqqatni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: adaptatsiya, diqqat, hissiy signallar, diqqat tarqoqligi, dual task(ikki yoqlamalik), geterogen, psixologik barqarorlik, biografik metod.

Zamonaviy urushlarning tabiati o‘zgarishi va ularda yuqori texnologiyali vositalarning keng qo‘llanilishi asosan harbiy xizmatchilar orasida axloqiy charchoq, zaiflik hissi,xavotir va nevropsixologik barqarorlikni yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa ularni jang maydonida yuqori jangovar faoliyat ko‘rsatishdan to‘sadi.Ush bu jarayonlarda diqqatning o‘rni juda katta ahamiyat kasb etadi. Rubinshteyn aytganidek, ongimizning yagona eshigi bu diqqatdir. Diqqat harbiy xizmatchilar xizmat faoliyatini o‘tash mobaynida muhim ahamiyat kasb etadi. Uning xususiyatlari jamlanishi (konsentratsiya), barqarorligi va bo‘linishida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa harbiy xizmatchilarda diqqat taqsimlanishining gender xususiyatlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi harbiy Psixologiya va kognitiv fanlarning kesishmasida joylashgan bo‘lib, bu mavzu cheklangan, ammo o‘sib borayotgan tadqiqotlar sohasini ifodalaydi. Diqqat taqsimlanishi (devident attention) kognitiv psixologiyada bir vaqtning o‘zida bir nechta vazifalarni bajarish qobiliyati sifatida ta’riflanadi,bu esa harbiy xizmatchilar uchun muhim, chunki ular ko‘pincha yuk tashish, nazorat va qaror qabul qilish kabi dual vazifalarni bajarishlari kerak.

Gender farqlari bu sohada muhim rol o‘ynaydi, chunki ular operatsion samaradorlik va xavfsizlikka ta’sir qiladi. Mavjud tadqiqotlar asosan G‘arb mamlakatlaridagi harbiy xizmatchilarga asoslangan bo‘lib,erkak va ayollar o‘rtasidagi farqlarni kognitiv testlar orqali o‘rganadi.Birinchi muhim tadqiqot Flood va boshqa.(2022) tomonidan o‘tkazilgan bo‘lib ,u harbiy erkaklar va ayollarning uzoq

muddatli yuk tashishdagi kognitiv ishlashini baholaydi.eksprement jarayonida 12 erkak (infenteriya)va 10 ayol (artilleriya) harbiy xizmatchilar 3 soatlik yuk tashish vazifalarini bajargan,yuklar 21-43kg oralig‘ida bo‘lgan. Kognitiv testlar soatiga bir marta o‘tkazilgan:n-bask vazifalari (0-3darajali diqqat va xotirani yangilashni o‘lchaydi). Natijada ikkala genderda ham kognitiv pasayish kuzatilgan, ammo ayollar yengil yuklarda va oddiy vazifalarda kattaroq pasayish ko‘rsatgan.

Tadqiqotlar natijasida harbiy xizmatchilar orasida diqqatning mahsuldorligi, hajmi va qayta yo‘naltirish darajasi gender omiliga ko‘ra muayyan farqlarni namoyon etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki,ayol harbiy xizmatchilarda diqqatning mahsuldorligi yuqoriroq,yani ular diqqatni uzoq vaqt davomida barqaror saqlay olish,mayda tafsilotlarga etibor berish va bir xil faoliyatni aniqlik bilan davom ettirishda ustunlikka ega. Erkak harbiy xizmatchilarda esa diqqatni yo‘naltirish qobiliyati ya'ni tezkorlik bilan bir vazifadan boshqasiga o‘tish.yangi sharoitga moslashish va murakkab operativ vaziyatlarga mos qarorlar qabul qilish nisbatan yuqoridir

Diqqat hajmi jihatidan erkak harbiy xizmatchilar odatda ayollarga nisbatan kengroq diqqat maydoniga ega bo‘ladilar. Bu ularning bir vaqtning o‘zida bir necha obyekt yoki harakatni kuzatish imkonini beradi, ayniqsa jangovar yoki taktik mashg‘ulotlarda bu fazilat muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga faol konsertratsiya darajasi ya’ni muayyan topshiriqqa diqqatni to‘liq yo‘naltirish va uni davom ettirish qobiliyati ayollarda ko‘proq rivojlangan. Bu ularning aniqlik,tartiblilik va hissiy barqarorlik talab qiluvchi xizmat yo‘nalishlarida , masalan tibbiyot,aloqa, tahliliy yoki ma'muriy faoliyatlarda samarali qo‘llaniladi.

Harbiy xizmat amaliyotida kuzatilgan psixologik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, erkak harbiy xizmatchilar odatda diqqat hajmi bo‘yicha kengroq qamrovga ega bo‘ladilar. Bu ularga bir vaqtning o‘zida bir nechta obyekt yoki harakatlarni nazorat qilish, tez o‘zgaruvchi taktik vaziyatlarni kuzatib borish va qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, jangovar, patrul yoki operativ vaziyatlarda bunday ko‘lamli diqqat maydoni sezilarli ustunlik yaratadi.

Shu bilan birga, faol konsentratsiya ya’ni diqqatni aniq bir vazifaga yo‘naltirish va uni barqaror ushlab turish qobiliyati amaliy tadqiqotlarda xotin-qiz harbiy xizmatchilarda ko‘proq rivojlanganligi qayd etiladi. Ularning puxtalik, aniqlik, izchillik va hissiy barqarorlik talab qiladigan xizmat yo‘nalishlarida (masalan, tibbiy ta’minot, aloqa, tahliliy ishlov berish, ma’muriy boshqaruv) yuqori samaradorlik ko‘rsatishi aynan shu psixologik omillar bilan izohlanadi. Bir so‘z bilan aytganda, erkaklar “keng formatli kuzatuv” bo‘yicha ustun bo‘lsalar, xotin-qizlar “aniq fokus va barqaror diqqat”da oldinga chiqadilar. Har ikki omil esa zamonaviy harbiy tizimning uzviy va zarur jihatlaridan biridir.

Xizmat faoliyatiga adaptatsiyada harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarlik mashqlarini gender xususiyatlariga moslab qo‘llash muhim ahamiyatga ega sanaladi. Raxbar kadrlar o‘z shaxsiy tarkibi bilan ishlashda har bir harbiy xizmatchining diqqat turlari, hissiy barqarorligi va psixologik tayyorgarligini inobatga olishi zarur. Gender farqlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan ish jarayoni harbiy muhitda jamoaviy muvozanatni mustahkamlaydi, stress holatlarini kamaytiradi va umumiy xizmat samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Krasilo A.I. Psixologicheskoe konsultirovanie posttravmaticheskix sostoyaniy / A.I. Krasilo. - M.: Moskovskiy psixologo-soцialnыy institut, 2004. – 96.

2. Osuxova N.G. Psixologicheskaya pomoщ v trudnыx i эkstremalnыx situaцiyax / N.G. Osuxova. - M.: Akadema, 2005. - 283 s.

3. Polinak A.V. Korrekцiya simptomov otsrochennogo posttravmaticheskogo stressovogo rasstroystva u voennoslujaщix - veteranov sovremennыx voorujennыx konfliktov / A.V. Polinak // Adaptivnaya fizicheskaya kultura. -2007. - № 1 (29). - S. 45 - 49.

HARBIY XIZMATCHILARDAGI ADAPTATSIYA JARAYONIDA JAROHATDAN KEYINGI STRESSLI BUZILISHLARNING PSIXOSOMATIK DETERMINANTLARI

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi o‘qituvchisi, psixol.f.b.f.d (PhD)
Tojiboyev Navro‘zbek Nodir o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash yo‘nalishi 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: Posttravmatik stress buzilishi (PTSS) murakkab, ko‘p omilli va uzoq muddatli psixik buzilish bo‘lib, u shaxsning psixologik, jismoniy va ijtimoiy holatiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Harbiy xizmatchilar va veteranlarda PTSSning yuqori tarqalish darajasi ushbu muammoni davlat miqyosida hal etishni, psixologik yordam tizimini kengaytirishni talab etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, PTSSning oldini olish va davolashda eng samarali yo‘l kompleks biopsixososial yondashuvdir. U shaxsning nafaqat psixik, balki jismoniy sog‘lomligini ham tiklashga qaratilgan..

Kalit so‘zlar: psixologik moslashuv, posttravmatik stress holati, psixofiziologik o‘zgarishlar, gomestaz, asab tizimi faoliyati, yurak-qon aylanish tizimi, nafas olish tizimi, metabolik jarayonlar.

Harbiy xizmatchilar orasida posttravmatik stress sindromi (PTSS) eng keng tarqalgan psixik buzilishlardan biri bo‘lib, u odatda jangovar tajribalar, ekstremal sharoitlar va o‘lim xavfi bilan to‘qnashuv natijasida shakllanadi. PTSS nafaqat psixik holatni, balki butun organizm faoliyatini izdan chiqaradigan psixosomatik mexanizmlar bilan kechadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, PTSS bilan og‘rigan harbiylar orasida surunkali og‘riqlar (bosh, orqa, bo‘g‘imlar), yurak-qon tomir kasalliklari (gipertenziya, aritmiya) hamda ovqat hazm qilish buzilishlari (qorin og‘rig‘i, diareya, ich qotishi) keng tarqalgan. Ushbu simptomlar ko‘pincha travma xotiralari bilan bog‘liq bo‘lib, uyqu buzilishlari (insomniya, dahshatli tushlar), surunkali charchoq va emotsional beqarorlik bilan birga kechadi [1].

AQSh harbiy tizimi bo‘yicha ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, PTSS veteranlarning 14 foizi erkaklar va 24 foizi ayollarda kuzatiladi, ularning 47 foizida esa psixosomatik simptomlar doimiy ravishda saqlanib qoladi. Bu holat travma ortidan o‘tgan yillar davomida (40-45 yilgacha) davom etishi mumkin. Uyquning yetishmasligi, og‘riq sindromlari va stress bilan bog‘liq somatik simptomlar kasallikning og‘ir kechishiga sabab bo‘ladi.

PTSSda ruhiy va jismoniy tizimlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni e’tiborga olib, kompleks yondashuv zarur:

- Psixoterapiya (individual va guruh shaklida);
- Emotsional qo‘llab-quvvatlash (oila va ijtimoiy muhit tomonidan);
- Farmakoterapiya (psixiatriya nazorati ostida dori vositalari bilan davolash);
- Reabilitatsiya va sog‘lom turmush tarzi (uyqu, ovqatlanish, jismoniy faollikni normallashtirish).

Ruhiy barqarorlik va jismoniy sog‘lomlik bir-biridan ajralmas tizimdir: ruhiy muvozanat saqlangandagina organizmning barcha fiziologik tizimlari to‘laqonli ishlaydi. PTSSni boshdan kechirgan harbiy xizmatchilar, jangovar harakatlarda qatnashgan yoki tozalash, qutqaruv va veterinar xizmatlarida faol bo‘lgan mutaxassislar uchun muntazam psixologik suhbatlar va tibbiy ko‘riklar zarur. Agar shaxsda psixik yoki jismoniy og‘ishlar aniqlansa, zudlik bilan psixoterapevtik va reabilitatsion muolajalar o‘tkazilishi lozim [2].

Shuningdek, travma eslatmalarini eslatadigan holatlardan imkon qadar uzoq turish, o‘zini ruhiy jihatdan to‘g‘ri boshqarish, va zarurat tug‘ilganda mutaxassis psixolog yoki shifokorga murojaat qilish tiklanish jarayonining eng muhim omillaridir. Umuman olganda, PTSS va psixosomatik simptomlarning o‘zaro bog‘liqligini ilmiy asosda o‘rganish, erta aniqlash va kompleks davolash choralari nafaqat harbiy xizmatchining individual salomatligini, balki jamiyatning umumiy psixologik barqarorligini ta’minlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Posttravmatik stress buzilishi (PTSS) shaxs travmatik hodisaga duch kelgach yoki guvoh bo‘lgach rivojlanadigan murakkab va surunkali ruhiy buzilish bo‘lib, zamonaviy harbiy operatsiyalar va jangovar tajribalar natijasida eng ko‘p uchraydigan psixologik oqibatlardan biridir. Ushbu buzilish insonda chuqur ruhiy iztirob, ijtimoiy va shaxsiy funksiyalar buzilishi, hissiy beqarorlik va fiziologik disfunktsiyalarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun harbiy xizmatchilar va veteranlar orasida PTSS rivojlanish ehtimolini oshiradigan xavf omillarini aniqlash, uni erta tashxislash hamda kompleks davolash strategiyalarini ishlab chiqish akademik, klinik va ijtimoiy jihatdan muhim masala hisoblanadi. PTSSning shakllanishi va kechishi individual, ijtimoiy, biologik hamda xizmat sharoitlariga bog‘liq omillar bilan belgilanadi. Harbiy xizmatchilar ko‘pincha o‘lim xavfi, qurolli to‘qnashuv, jarohatlar, do‘stlarining halok bo‘lishi yoki og‘ir holatlarda guvoh bo‘lish kabi tajribalarni boshdan kechiradilar, bu esa uzoq muddatli stress holatini va keyinchalik PTSS simptomlarini keltirib chiqaradi [3].

Tahlil natijasida harbiy xizmatchilar va veteranlarda PTSS uchun 18 ta asosiy prediktor omil aniqlangan bo‘lib, ular uchta asosiy toifaga travmaga qadar, travma

davriga oid va travmadan keyingi omillarga bo‘lindi. PTSS rivojlanishida travmaga qadar bo‘lgan omillar muhim rol o‘ynaydi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- jins omili (xotin-qizlar orasida yuqori xavf);
- etnik ozchilikka mansublik;
- past ta’lim darajasi;
- ofitser bo‘lmagan harbiy lavozim;
- quruqlikdagi qo‘shin (armiya) xizmatida bo‘lish;
- jangovar ixtisoslik;
- xizmat safarlari (rotatsiyalar) sonining ko‘pligi;
- safarlar davomiyligining uzoqligi;
- avvalgi travmatik tajribalar va mavjud psixologik muammolar;
- salbiy hayotiy voqealarning ortishi [4].

Mazkur omillar shaxsning psixologik zaiflik zaxirasini kamaytiradi, bu esa travmatik hodisaga nisbatan himoya mexanizmlarini sustlashtiradi. Travma jarayonida kechadigan omillar ham PTSS shakllanishida muhim ahamiyatga ega:

- jangovar ta’sir intensivligi;
- qurol qo‘llash yoki jangovar harakatlarda bevosita ishtirok etish;
- yaqin safdoshining jarohatlanishiga yoki o‘limiga guvoh bo‘lish;
- og‘ir jismoniy jarohat olish;
- safar bilan bog‘liq stressorlar va og‘ir sharoitlar [5].

Ushbu holatlar shaxsning psixik himoya tizimini keskin zo‘riqtiradi va stress gormonlarining (adrenalin, kortizol) ortiqcha ajralishiga olib keladi, bu esa psixofiziologik disbalansni kuchaytiradi. Travmadan keyingi davrda psixologik qo‘llab-quvvatlov yetishmovchiligi PTSS rivojlanish xavfini oshiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

- oila va jamoadan yetarli emotsional yordamning yo‘qligi;
- ijtimoiy izolyatsiya;
- komorbid psixologik muammolar (depressiya, tashvish buzilishlari);
- hayotiy stresslarning davom etishi bularning barchasi kasallikning surunkali kechishiga olib keladi [9].

PTSSda markaziy nerv tizimi, endokrin tizim va immun tizim faoliyatining o‘zaro buzilishi kuzatiladi. Gipotallamus–gipofiz–buyrak usti bezlari (HPA) o‘qi faoliyatining o‘zgarishi stress gormonlari sekretsiyasining ortishiga sabab bo‘ladi. Bremner va hammualliflar (2006) olib borgan tadqiqotlar PTSSli bemorlarda HPA o‘qi faoliyatida disfunksiya mavjudligini isbotlagan. Shuningdek, Gelpin va Bonne (2012) tadqiqotlari PTSSli shaxslarda katexolaminlar (adrenalin, noradrenalin) darajasi g‘ayritabiiy yuqori bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatgan; bu holat uyqusizlik va hipervigilans (ortiqcha ogohlik) simptomlarini izohlaydi. Immun tizimdagi

yallig‘lanish reaktsiyalari ham PTSS patogenezida ishtirok etadi. Wong va hamkorlari (2018) fikricha, PTSSda immun tizim giperaktiv holatga o‘tadi, bu esa surunkali yallig‘lanish jarayonlarini keltirib chiqaradi [6].

PTSS bilan og‘rigan harbiy xizmatchilarda psixologik stressning jismoniy ko‘rinishlari keng kuzatiladi:

- Yurak-qon tomir tizimi: gipertenziya, aritmiya, yurak ritmi buzilishi;
- Ovqat hazm qilish tizimi: qorin og‘rig‘i, diareya, ich qotishi, ishtaha buzilishi;
- Muskul-skelet tizimi: orqa, bo‘g‘im va bosh og‘riqlari, fibromiyalgiya;
- Uyqu buzilishi: insomniya, dahshatli tushlar, charchoq;
- Immunitetning pasayishi va moddalar iste’moli (alkogol, giyohvandlik).

Millennium Cohort (2001-2013) tadqiqotiga ko‘ra, PTSS bilan og‘rigan 2409 nafar harbiy xizmatchidan 47%ida psixosomatik simptomlar surunkali tarzda saqlanib qolgan. Bu simptomlar ko‘pincha somatik komponent bilan kechuvchi ruhiy stress natijasida shakllanadi. PTSSning klinik kechishi dinamik bo‘lib, quyidagi bosqichlardan o‘tadi:

- O‘tkir shakl (1-3 oy): travmadan so‘ng dastlabki simptomlar paydo bo‘ladi;
- Surunkali shakl (>3 oy): simptomlar uzoq muddat davom etadi;
- Kechikkan shakl (>6 oy): simptomlar oradan vaqt o‘tib yuzaga chiqadi;
- Murakkab shakl: komorbid psixologik va somatik muammolar bilan birgalikda kechadi.

Ba’zi hollarda PTSS simptomlari 40-45 yilgacha saqlanib qolishi mumkin. Uyqu yetishmasligi, charchoq va og‘riq sindromlari kasallikning og‘ir kechishiga sabab bo‘ladi [7].

Tadqiqotlar PTSSni davolashda kompleks terapevtik yondashuvni tavsiya etadi:

- Kognitiv-xulq terapiya (KBT): salbiy fikrlash va xatti-harakatlarni o‘zgartirish orqali simptomlarni kamaytirish;
- Ko‘z harakati bilan desensibilizatsiya va qayta ishlash terapiyasi (EMDR): travmatik xotiralarni neytralizatsiya qilish;
- Uyqu gigienasi: uyqu ritmini tiklash, sirkadiyal muvozanatni saqlash;
- Jismoniy mashqlar:
- stress gormonlarini kamaytirish, endorfin ajralishini faollashtirish;
- Farmakoterapiya: antidepressantlar va anksiolitiklar yordamida simptomatik davolash;
- Oilaviy psixoterapiya: ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovni tiklash [8].

Profilaktika jihatidan psixologik chidamlilikni oshirish urush davrida samarali bo‘lsa, urushdan keyin psixologik skrining, erta tashxis va davolash muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida olib boriladigan tadqiqotlarda neyroendokrin o‘zgarishlar va

uzoq muddatli dinamik mexanizmlar chuqurroq o‘rganilishi zarur. Shu bois, PTSSni chuqur o‘rganish, erta aniqlash, xavf omillarini minimallashtirish va harbiy xizmatchilar uchun reabilitatsiya dasturlarini takomillashtirish harbiy psixologiya va tibbiyotning dolzarb va strategik vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Krasilo A.I. Psixologicheskoe konsultirovanie posttravmaticheskix sostoyaniy / A.I. Krasilo. - M.: Moskovskiy psixologo-soцialnыy institut, 2004. - 96 s.

2. Osuxova N.G. Psixologicheskaya pomoщ v trudnыx i эkstremalnыx situaцiyax / N.G. Osuxova. - M.: Akadema, 2005. - 283 s.

3. Polinak A.V. Korrekцiya simptomov otsrochennogo posttravmaticheskogo stressovogo rasstroystva u voennoslujaщix - veteranov sovremennыx voorujennыx konfliktov / A.V. Polinak // Adaptivnaya fizicheskaya kultura. -2007. - № 1 (29). - S. 45 - 49.

4. Gray G.C, Chesbrough K.B, Ryan M.A, Amoroso P, Boyko E.J, Gackstetter G.D, Hooper T.I, Riddle J.R. The millennium cohort study: a 21-year prospective cohort study of 140,000 military personnel. Mil Med. 2002;167(6):483–8.

5. Weathers F, Litz B, Herman D, Huska JA, Keane T. The PTSD checklist (PCL): reliability, validity, and diagnostic utility. San Antonio: Paper presented at: Annual Meeting of International Society for Traumatic Stress Studies; 1993.

6. Terhakopian A, Sinaii N, Engel CC, Schnurr PP, Hoge CW. Estimating population prevalence of posttraumatic stress disorder: an example using the PTSD checklist. J Trauma Stress. 2008;21(3):290–300.

7. Hoge CW. Neuropsychiatric illnesses in war veterans. In: FA KDL, Hauser SL, Longo DL, Jameson JL, Loscaizo J, editors. Harrisons textbook of medicine. 19th ed. New York: McGraw Hill; 2015.

8. Kroenke K, Strine TW, Spitzer RL, Williams JB, Berry JT, Mokdad AH. The PHQ8 as a measure of current depression in the general population. J Affect Disord. 2009;114(1-3):163-73.

9. Kazis LE, Lee A, Spiro Iii A, Rogers W. Measurement comparisons of the medical outcomes study and veterans SF-36® health survey. Health Care Financ Rev. 2004;25(4):43.

KURSANTLARNING XIZMAT FAOLIYATIGA MOSLASHUV JARAYONIDA O‘ZINI O‘ZI NAZORAT QILISHNING SUBYEKTIV AHAMIYATI

K.G.Tursunov
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Kursantlar, ayniqsa, majburiy xizmatni o‘tayotganlar orasida kasbiy yo‘nalganlikning pastligi, ijtimoiy aloqalarning sustligi va nerv-psixik beqarorlik kabi dezadaptiv belgilar mavjudligini tasdiqlaydi. Muvaffaqiyatli moslashuvning asosi sifatida shaxsning o‘z xulq-atvorini ongli boshqarishi, ichki-emotsional holatini muhit talablariga moslay olishi hamda kasbiy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishi zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Kursant, moslashuv, psixologik moslashuv, ijtimoiy moslashuv, ijtimoiy-psixologik moslashuv, stress-faktor, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi tartibga solish.

Bugungi kunda milliy gvardiya qo‘shinlarida majburiy harbiy xizmatni o‘tayotgan xizmatchilarning xizmatning boshlang‘ich bosqichidagi moslashuv muammosi psixologo-pedagogik tadqiqotlarda eng muhim mavzulardan biriga aylangan. Buning sababi shundaki, hozirgi yoshlar, odatda, harbiy xizmatga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lib, armiyadagi xizmatni yoqimsiz majburiyat, vaqtni behuda sarflash yoki jinoiy javobgarlikdan qutulish yo‘li sifatida ko‘radilar. Mamlakatdagi siyosiy vaziyat ham shunga sabab bo‘layotirki, majburiy xizmatni o‘tayotgan xizmatchilar ko‘pincha faqat pragmatik manfaat (masalan, davlat tizimida ishga kirish imkoniyati) haqida o‘ylaydilar.

Jumladan, V.P.Kaznacheyev moslashuvga quyidagicha ta’rif beradi: Insonning yashash muhiti sharoitlariga moslashish jarayoni bo‘lib, mazkur muhitning o‘zini ham inson tabiatni o‘zgartirish jarayonida tobora ko‘proq yaratadi; mazkur jarayonning maqsadi insonning saqlanishi, rivojlanishi va uning bosh maqsadi bo‘lmish taraqqiyotga erishishdir [1].

Har bir inson faoliyatidagi o‘zgarishlarga va turli stressor omillarga har xil munosabat bildiradi, shu sababli turli darajadagi xulq-atvor o‘zini o‘zi boshqarishiga ega shaxslarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi farqlarini o‘rganish ustuvor vazifaga aylanadi. Moslashuv insonga zamonaviy sharoitlarda barqaror turish va rivojlanishni davom ettirish imkonini beradi. Afsuski, ko‘plab insonlar zamonaviy taraqqiyot sur’atiga “ulgura olmaydi” va o‘zgarib borayotgan hayotiy sharoitlarda rivojlana olmaydi. Harbiy xizmatga munosabat tarixan ma’naviy qadriyatlarga Vatanga burch,

mustaqil hayotga qadam qo‘yish va hokazolarga tayanib kelgan. Chunki yangi askarning qay darajada tayyorlanganligi uning kasbiy faoliyati sifati va xizmat-jangovar vazifalarni bajarish darajasini belgilab beradi.

Majburiy xizmatni o‘tayotgan kursantlarning moslashuvining eng muhim jihatlaridan biri yangi muhitda yangi, barqaror ijtimoiy kontaktlarni shakllantirish, yangi kichik guruhlar hosil bo‘lishi va chaqiriluvchining mavjud rasmiy va norasmiy guruhlarga qo‘shila olishi jarayonidir.

Hozir “moslashuv” tushunchasi biologiya, falsafa, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, etika, pedagogika, ekologiya va boshqa sohalarda qo‘llaniladi. Dastlab “adaptatsiya” (lotincha adaptatio moslashish) termini biologiyada ishlatilgan bo‘lib, organizmning yashash sharoitlariga moslashuvi, tur saqlanib qolishiga xizmat qiluvchi jarayon sifatida talqin qilinardi. Psixologiyada esa moslashuv jarayoni o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi tartibga solish mexanizmlarining ishga tushirilishini nazarda tutadi. Qaysi hayotiy munosabat yetakchi sifatida qabul qilinishiga qarab, shaxsning muhitga moslashuvida uning psixologik namoyonlarini belgilovchi turli variantlar ajratiladi: gomeostatik, gedonistik va pragmatik komponentlar.

Kursantlarning moslashuvi ularning faoliyatiga xos xususiyatlar bilan belgilanadi: yuqori intensivlikdagi ko‘plab stress-faktorlarning ta’siri, qurol va jangovar texnikadan amaliy foydalanish, psixologik va jismoniy yuklamalarning ortishi, shaxslararo munosabatlardagi kuchlanish.

N.P.Tatyanchenk o‘z tadqiqotlarida kursantlar moslashuvining bir necha darajalarini ko‘rsatib o‘tadi [2].

1. Ijtimoiy moslashuv shaxsning (yoki guruhning) turli ijtimoiy muhit elementlariga faol qo‘shilish imkonini beruvchi ijtimoiylashuv mexanizmlaridan biri bo‘lib, takrorlanuvchi vaziyatlarning standartlashuvi orqali o‘zini namoyon qiladi. Kursantlarning ijtimoiy moslashuvi deganda ular o‘z huquq va majburiyatlarini bilishi, kundalik tartib-qoidalar va intizom talablarini bilishi hamda ularga rioya qilishi tushuniladi. Ijtimoiy moslashuvning muvaffaqiyati kursantning yoshi, oilaviy holati, farzandlarining borligi va boshqa biografik omillar bilan bog‘liq.

2. Ijtimoiy-psixologik moslashuv shaxsning ijtimoiy o‘zaro ta’sirini shunday tashkil etish jarayoniki, u shaxsiy salohiyatning to‘liq ro‘yobga chiqishiga ko‘maklashadi. Xizmat sharoitiga ijtimoiy-psixologik moslashuv kursantlarning rasmiy (masalan, vzvod yoki rota komandiri bilan) va norasmiy o‘zaro munosabatlar o‘rnatish ko‘nikmalarida namoyon bo‘ladi.

3. Psixologik moslashuv insonning o‘ziga xos faoliyati davomida shaxs va atrof-muhit o‘rtasidagi optimal muvofiqlikni ta’minlovchi jarayon bo‘lib, u shaxsning aktual ehtiyojlarini qondirish, muhim maqsadlarini amalga oshirish (fizik va psixik salomatlikni saqlagan holda) imkonini beradi. Harbiy xizmat sharoitiga psixologik

moslashuv kursantning o‘z ichki resurslari va individual sifatlariga tayanishi, turli qiyinchiliklarni yengishda qo‘llab-quvvatlovchi ichki tayanchni shakllantira olishi bilan belgilanadi. Organizm yaxlit tizim bo‘lib, uning barcha darajadagi regulyatsiya mexanizmlari o‘zaro bog‘liq. Har qanday ixtiyoriy o‘zgarish butun tizimda o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi va organizmni yangi holatga olib keladi.

Psixologik o‘zini o‘zi boshqarish (o‘zini o‘zi tartibga solish) insonning o‘ziga xos psixik hodisalarga (jarayonlar, holatlar, xususiyatlar), faoliyatiga, xulq-atvoriga ongli ta’sir ko‘rsatishi orqali ularning kechish xususiyatlarini o‘zgartirish yoki tartibga solishidir. Psixik o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zini o‘zi tartibga solish “butun va qism” nisbatida bog‘lanadi: boshqarish o‘z ichiga tartibga solishni oladi. O‘zini o‘zi boshqarishdan o‘zini o‘zi tartibga solishga o‘tish g‘oyadan uning amaliy hayotga tatbiq etilishiga o‘tishdir.

M.V.Chixachev kursantlarning moslashuv darajasini aniqlovchi quyidagi mezonlarni ajratib ko‘rsatadi[3]:

Obyektiv mezonlar, o‘quv moslashuvi o‘quv-kasbiy faoliyat samaradorligi, muvaffaqiyati xizmat-intizomiy moslashuv xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish, ustavlar, buyruqlar va komandirlar ko‘rsatmalariga rioya qilish; mikroijtimoiy moslashuv jamoada obro‘li mavqega ega bo‘lish, mojarolardan holi bo‘lish, yetarli ijtimoiy maqomga erishish kabilar uzviy bog‘liq.

Subyektiv mezonlar: motivatsion moslashuv kursantning kasbiy, jamoaviy mavqei bilan qoniqishi, harbiy kasbga qiziqishning saqlanishi, kasbiy motivlar rivoji; munosabatlar moslashuvi jamoa bilan o‘zaro munosabatlarga ijobiy, konstruktiv yondashuv, agressiv yoki passiv-bo‘ysunuvchan pozitsiyaning yo‘qligi hamda adekvat, yetarlicha yuqori o‘zini o‘zi baholash ijobiy “Men-konsepsiya” (ichki ziddiyatsizlik, emotsional iste’molchanlikning yo‘qligi).

O‘z xulq-atvorini ongli va irodaviy nazorat qilmagan holatlarda, ayniqsa mojaroli vaziyatlarda, komandirlar nazoratisiz qolganlarida nizomga zid munosabatlarga yo‘l qo‘yish ehtimoli ortadi. Majburiy xizmatdagi kursantlarda moslashuvning buzilish belgilariga quyidagilar kiradi: nerv-psixik beqarorlik, xulq-atvor buzilishlariga moyillik, konfliktlilik, jamoada ijtimoiy aloqalarning yo‘qligi [4].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Моросанова В.И. Индивидуальная саморегуляция и характер человека // Вопр. психол. – Москва, 2007. №3. С. 59 – 68.
2. Рейковский Я. Экспериментальная психология эмоций. – М.:Речь, 1979. – 182 с.
3. Афанасьев В.Г. Человек в управлении обществом. – М.: Педагогика 1977. – 434 с.

BO‘LAJAK OFITESERLARNING PSIXOLOGIK ADAPTATSIYASIGA TA’SIR QILUVCHI STRESSOGEN OMILLAR

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi o‘qituvchisi, psixol.f.b.f.d (PhD)
Ashuraliyev Begali Nurali o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash yo‘nalishi 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy ta’lim jarayonida psixologik adaptatsiyani ta’minlovchi shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlarning integratsion modeli tahlil qilinadi. Tadqiqotda kursantlarning kasbiy tayyorgarlik jarayonida stressga bardoshlilikni oshirish**,** koping-strategiyalar orqali psixologik moslashuv mexanizmlarini rivojlantirish, shuningdek, jasorat, fidoyilik, kamtarlik kabi harbiy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari yoritilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, harbiy ta’lim tizimida shaxsning emotsional barqarorligi, o‘zini nazorat qilish qobiliyati va ijtimoiy moslashuv darajasi uning psixologik adaptatsiya jarayonining muvaffaqiyatini belgilaydi. Tadqiqot xulosalariga ko‘ra, harbiy kadrlarni tayyorlashda psixologik adaptatsiyani kuchaytirish, stress bilan kurashish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda motivatsion va emotsional muhitni qo‘llab-quvvatlash zamonaviy harbiy ta’lim tizimining strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: psixologik adaptatsiya, harbiy ta’lim tizimi; stressogen omillar; psixologik bardoshlilik; koping-strategiyalar; gomeostaz; adaptatsion sindrom; shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv; murakkab tizimlar nazariyasi; harbiy psixologiya; kursantlar motivatsiyasi.

Harbiy xizmat insondan yuqori darajadagi jismoniy va psixologik tayyorgarlikni talab etadi, chunki ekstremal sharoitlarda xizmat burchlarini bajarish kuchli psixoemotsional yuklamalar bilan uzviy bog‘liq [1]. Vilyam Kennon, Richard Lazarus, Gans Selye kabi olimlar ishlarida umumiy adaptatsion sindrom, stressning fiziologik va psixoemotsional turlari batafsil tavsiflangan; psixologik stress shaxsning tashqi muhit bilan o‘zaro ta’siriga beradigan bahosi sifatida ko‘riladi hamda ichki muhit barqarorligi S.Bernard ta’riflagan gomeostazning vaqtinchalik buzilishi bilan izohlanadi. Ushbu ofatli holatlarga barqaror moslashuv harbiy shaxsning psixologik adaptatsiyasining yadro jarayonidir.

Deterministik va stoxastik yondashuvlarning cheklovlarini bartaraf etish maqsadida zamonaviy fanlarda postklassik xaos nazariyasi hamda murakkab

tizimlarning o‘z-o‘zini tashkil etishi konsepsiyasi rivojlandi. Ushbu yondashuv murakkab tizimlarda emergentlik — ya’ni yangi sifatlarning o‘z-o‘zidan vujudga kelishi — hodisasini adekvat talqin etish va baholashga imkon beradi; u mos matematik apparatni taklif etadi hamda harbiy psixik tizimlarning moslashuv dinamikasini yanada nozik o‘lchashga sharoit yaratadi [2]. Shunday qilib, harbiy shaxs psixikasidagi moslashuv jarayoni chiziqsiz, ko‘p komponentli va o‘zaro bog‘langan subsistemalarning paydo bo‘luvchi xususiyatlari bilan kechadi.

Zamonaviy sharoitda harbiy kadrlar tayyorlash tizimi nafaqat qurol-aslaha, trenajyor, strategiya va taktika yangiliklarini, balki psixologiya, fiziologiya, neurofanlar kabi yo‘nalishlardagi so‘nggi yutuqlarni ham integratsiya qilishi shart. Ta’lim jarayoni bo‘lajak jangchida jasorat, fidoyilik, bardoshlilik, faol hayotiy pozitsiya kabi fazilatlarni tarbiyalash bilan birga, buyruqqa bo‘ysunish va zarur hollarda o‘zini qurbon qilish darajasigacha bo‘lgan kamtarlikni ham shakllantirishi kerak [3]. Bu qadriyatlar amalga oshishi uchun harbiy xizmat shaxsda itoat, sabr, kamtarlik, insonparvarlik, hamdardlik va g‘amxo‘rlikni yetuk darajada mujassam etishi lozim. Jangchi xalqiga xizmat qilish, uni himoya etish va xavf paytida asrash uchun psixologik jihatdan ham tayyor bo‘lishi kerak; xizmat moddiy hisob-kitoblardan qat’i nazar ado etiladi. Bunda kuchli e’tiqod, barqaror qadriyatlar tizimi, muammolarga nisbatan qat’iy pozitsiya muhim. Kamtarlik shaxsni kuchli qiladi; u poraxo‘rlik, mansabni suiiste’mol qilish va fuqarolarga nisbatan adolatsizlikdan tiyuvchi axloqiy to‘siq vazifasini bajaradi. Dezertirlik, ortga chekinish, “qulay” joylarni pora evaziga olish, zo‘ravonlik va talonchilik qattiq qoralanadi. Biroq doimiy xavf sharoitida ishlash va harakatlari uchun shaxsiy javobgarlikni zimmaga olish ko‘pincha kasbiy stressni, ba’zan esa ruhiy buzilishlarni tarixda “Vyetnam sindromi”, “Afg‘on sindromi” kabi nom olgan holatlarni keltirib chiqaradi.

Kursantlarning o‘qish davridagi psixologik tayyorgarligini ta’minlash ta’lim tizimining asosiy vazifasi. “Koping-strategiyalar” shaxsning stress bilan kurashishiga yo‘naltirilgan ongli xatti-harakatlar majmui bo‘lib, integrativ, boshqariladigan va moslashuvchan pedagogik tizim sifatida shaxsni impulsiv yoki shoshma-shosharlik harakatlardan tiyilish, resurs topish va axborot izlashga yo‘naltiradi. Emotsional yo‘naltirilgan koping fikr va harakatlar orqali stress omillarining jismoniy hamda psixologik ta’sirini pasaytirishga xizmat qiladi. Harbiy ta’limning o‘ziga xosligi e’tiborga olinadi; tizimning tashqi (institutsional, ijtimoiy) va ichki (shaxsiy resurslar, motivatsiya, e’tiqod) omillari aniqlanadi. Shu tariqa o‘quv, xizmat-jangovar va kasbiy komponentlar uyg‘unligi shakllanadi. Shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlarning uyg‘unligi kursantlarda stressga bardoshli xulqni moslashuvchan, maqsadga yo‘naltirilgan, nazorat tuyg‘usi yuqori bo‘lgan xatti-harakatlarni shakllantiradi.

Emotsional stress (distrostress) va undan kelib chiqadigan asab-psixik hamda psixosomatik buzilishlar adaptatsiya mexanizmlarining patologik o‘zgarishidir. Birinchi kurs kursantlari yangi muhitga moslashish davrida sezilarli ijtimoiy va emotsional yuklamalarga duch keladilar: o‘qishdagi zo‘riqish, moddiy qiyinchiliklar, o‘z-o‘zini ta’minlash zarurati, yaqinlarning urushdagi ishtiroki bilan bog‘liq xavotirlar. Shu sababli psixofiziologik tadqiqot laboratoriyalarini tashkil etish, birinchi kursdan boshlab monitoring, test sinovlari o‘tkazish va barqaror “dinamik stereotip”ni moslashuvning fiziologik va psixologik izlarini shakllantirish tavsiya etiladi.

Kursantlar va ofitserlar o‘rtasida uchraydigan nizolar manbalari tahlili intizomsizlik, rahbarlarning adolatsiz munosabati, ortiqcha yuklama, moddiy ta’minotning pastligi kabi omillarni ko‘rsatdi. Kursantlarning 66,1 foizida yuqori konfliktlilik qayd etildi. Asosiy sabablar sifatida xizmatni tashkil etishdagi kamchiliklar, noformal mikrogruppalar, o‘zaro ishonchsizlik, milliy urf-odatlar farqi aniqlandi. Xulosa shuki, konfliktlarning asosiy ildizi ustavga zid munosabat va normalarning buzilishidadir. Psixologik adaptatsiya nuqtai nazaridan bu topilmalar “institutsional stressorlar”ning shaxsiy moslashuv resurslarini yemirishi mumkinligini ko‘rsatadi; demak, institutsional profilaktika va etika-inshoot madaniyatini mustahkamlash zarur.

Harbiy burch bilan o‘zini saqlab qolish instinkti o‘rtasidagi kurash kuchli intrapsixik ziddiyatni yuzaga keltiradi. Bu ziddiyat ikki yo‘l bilan yakunlanishi mumkin: (1) tanqidiy qiyinchiliklarni yengish orqali adaptatsion tajribaning kengayishi yoki (2) psixikaning jarohatlanishi, ya’ni vazifani bajarishning uzilishiga olib keluvchi jangovar ruhiy jarohat. Bunday dikhotomiyaning mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi har bir harbiyda shunday darajadagi ma’naviy tayyorgarlik va psixologik qobiliyat shakllanishini talab etadiki, bu daraja ehtimollik sharoitida ham vaziyatga adekvat faoliyat yuritish va aql ravshanligini saqlashni kafolatlay olsin.

Na faqat omon qolish, balki yuklatilgan vazifani bajarish uchun ham harbiy shaxs butun mohiyatini jismoniy (ovqatlanish ratsioni, uyqu va bedorlik rejimi, ogohlik darajasi, reaksiyalar tezligi), psixik (emotsional nazorat, kognitiv aniqlik, motivatsiya) va ijtimoiy (xulq-atvor uslubi, qadriyatlar tizimi, o‘ziga va atrofdagilarga munosabat) urush talablariga mos ravishda qayta tashkil etishi lozim. Bunday qayta tashkil etish o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlari hamda qisqa va uzoq muddatli moslashuv jarayonlarining faollashuvi orqali amalga oshadi.

Stressordan keyingi reaktiv holat organizmning turli funksional tizimlarida o‘zgarishlar orqali namoyon bo‘ladi; intensivlik va davomiylik emotsional, xulq-atvoriy, fiziologik va kognitiv buzilishlarda aks etadi. Umumiy emotsional fon negativlashadi: qo‘rquv, pessimizm, jahldorlik, g‘azab, agressiya va affektiv

portlashlar ko‘payadi. Uzoq davom etuvchi stress xavotirni kuchaytiradi, muvaffaqiyatga ishonchni pasaytiradi, cho‘zilganda depressiv holatlarga olib kiradi. Qayta-qayta takrorlanuvchi stresslar shaxs xususiyatlarida ijobiy yoki salbiy qayta tuzilishlarni keltirib chiqarishi mumkin: introvertlik, o‘zini ayblash, o‘zini past baholash, shubhalilik. Og‘ir holatlarda nevrozlar (masalan, astenik yoki kutish-tashvish nevrozi) va psixozlar rivojlanishi ehtimoli bor. Salbiy emotsional reaksiyalar qo‘rquv, xavotir, negativizm, oshgan agressivlik bir vaqtning o‘zida stressning ham oqibatlari, ham uni qo‘zg‘atuvchi omillardir [5].

Jangovar vaziyat talablariga mos yoki nomos reaksiyalar emotsional-xulqiy, vegetativ, kognitiv va psixososial darajalarda yuzaga keladi; ular yangi sharoitlarga moslashuv manfaatida yaxlit himoya javobini ta’minlashi yoki unga xalaqit berishi mumkin. Yaxlit himoya javobi ko‘pincha ortiqcha taranglik, holdan toyish, hatto reaktiv o‘zini boshqarish mexanizmlarining buzilishi bilan kechadi; bu stressor ta’sirining davomiyligi va intensivligiga bog‘liq. Vaziyatga adekvat taranglik va adaptatsion energiyaning optimal sarfi bilan kechuvchi javob psixofiziologik hamda xulq-atvoriy stereotipik patterlar ma’lum vaqtga yetarli bo‘lgan “jangovar shablonlar”ni shakllantiradi. Ushbu patterlarning bir qismi bazaviy ego-strukturalarning majburiy, ba’zan qo‘pol deformatsiyasi hisobiga shakllanadi; shuning uchun ular jangovar hududdan tashqarida fuqarolik hayotiga og‘riqsiz qaytishni qiyinlashtirishi mumkin [1]. Bu holat psixologik adaptatsiyaning “reintegratsiya bosqichi”da alohida e’tibor talab qiladi.

Harbiy xizmatning psixologik adaptatsiyasi shaxsiy (kognitiv, emotsional, irodaviy), jismoniy (fiziologik), ijtimoiy (rol va munosabatlar tizimi) va institutsional (ustav, rahbarlik, boshqaruv) omillar kesishmasida kechadigan murakkab jarayon. Ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlarning uyg‘unligi, koping-strategiyalarni ongli o‘rgatish, laboratoriyaviy psixofiziologik monitoring, konfliktlarning institutsional profilaktikasi va reintegratsiya protokollari psixologik adaptatsiyani mustahkamlaydi. Shaxsning jangovar sharoitlarda ham adekvat faoliyat yuritishi, aql ravshanligini saqlashi va keyinchalik fuqarolik hayotiga konstruktiv qaytishi aynan shu kompleks yondashuv samaradorligiga bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Zakovryashina S.E. Psixologo-akmeologicheskaya korrekцiya psixicheskogo zdorovya voennoslujaщix posle boevogo stressa: avtoref. dis. kand.psix.nauk. – M., 2008. – 28 s.

2. Kitaev-Smыk L.A. Psixologiya stressa. Psixologicheskaya antropologiya stressa. - M.: Akademicheskiy Proekt, 2009. - 943 s.

3. Saytc K. Sindrom voynы: O chem ne govoryat soldatы / Kevin Sayts; Per. s angl. A. Shuraevoy. - M.: Alpina non-fikshn, 2013. - 274 s.

MUDDATLI HARBIY XIZMATCHILAR VA KURSANTLARDA HABIY XIZMAT SHAROITIGA MOSLASHUVINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xudayberdiyeva Sevara Bohodir qizi
ISFT instituti “Psixologiya va pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi.
Telefon: +998901377780
Elektron pochta: xudoyberdiyevas@isft.uz

Annotatsiya Muddatli harbiy xizmatchilarning moslashuv, ya’ni adaptatsiya jarayoni murakkab psixologik holat bo‘lib, uni alohida o‘rganish va ustida ish olib borish talab etiladi. Ushbu maqolada shu holatga oid qarashlar, mahalliy tajribalar va fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: muddatli xizmat, psixologiya, adaptatsiya, moslashish, jarayon, metod, tajriba, me’zon, jamoaviy, xatti-xarakat, faoliyat, yoshlar.

Muddatli harbiy xizmat har bir yigitning burchi hisoblanadi. Bu jarayongacha bo‘lgan holatlar qiyinchiliksiz, bir tekish o‘tishi ma’lum. Ammo xizmat davri boshlangach aytim hayotiy va faoliyatga doir o‘zgarishlar vujudga keladi. Bu jarayonga moslashish har bir xizmatchida har xil ko‘rinishda kechadi. Adaptatsiya tushunchasi XIX asrda kelib chiqqan bo‘lib asosan biologiyada asosiy me’zon sifatida ishlatilgan. Keyinchalik ushbu tushuncha organizm hayotiy faoliyatining turli jabhalariga, insonning shaxsiyatiga va hattoki jamoaviy xatti harakatlarning o‘ziga xos xususiyatlariga nisbatan qo‘llanila boshlandi. Adaptatsiya, ya’ni moslashish yangi sharoitlarda odatiy hatti-harakatlarning yetishmasligini to‘ldirib boradi. Adaptatsiya tufayli g’ayrioddiy sharoitda tananing maqbul ishlashini tezlashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Agar adaptatsiya ro‘y bermasa, faoliyat predmetini o‘zlashtirishda qo‘shimcha qiyinchilaklar yuzaga keladi. Moslashish u yoki bu a’zolarning vazifalarini qayta tiklash bilan bog’liq yangi ko‘nikmalar, odatlar, fazilatlarni hosil qiladi va organizmni, shaxsni atrof muhitga moslashishiga olib keladi. Insonning moslashuvchanligini fikrlash, iroda, qobiliyat, bilim va tajriba tartibga soladi. Adaptatsiya nafaqat tananing yangi sharoitlarga moslashishida, balki qiyinchiliklarni yengishga imkon beradigan xususiyatlarni hosil qilishi bilan ifodalanadi. Hozirgi vaqtda aksariyat yoshlar yangi sharoitga qiyinchiliklarsiz moslashish imkonini beradigan jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishning yuqori mezonlariga mos kelmaydi. Shu munosabat bilan bo‘linma ofitseriga me’yorlarga muvofiq shaxsning boshlang’ich sifat va imkoniyatlarini, bu sifatlarni rivojlantirishning yo‘llarini hisobga olgan holda moslashish jarayonini amalga

oshirishning optimal usullarini qidirish vazifasi yuklanadi. Shuning uchun ushbu mavzuni ahamiyatli deb hisoblash mumkin.

Moslashish - bu tananing, shaxsning, uning xarakterlar tizimining alohida ta’sirlar yoki o‘zgargan yashash sharoitlariga moslashishi. Qaysi sharoitlarda va qaysi mexanizmlar vositada muhitga moslashish sodir bo`lishiga qarab, har xil moslashishning turlari ajraladi: - organizmdagi turli tizimlarining fiziologik o‘zaro ta’siri; - hayotiy ahamiyat ta`siriga mos ravishda a’zolar funksiyalarida moddalar almashinuvida biologik o‘zgarish; - psixik jarayon darajasidagi vazifalarga, xususiyatlarga, holatlarga, masalan qorong’uda ko‘z sezgirligini oshishi kabi sharoitlarga insonning psixologik moslashishi; - yangi jamoadagi o‘zaro munosabatlarga ijtimoiy-psixologik moslashish.

Moslashishning bu turlari bir vaqtning o‘zida o‘zaro aloqada bo‘lishi va o‘zini namoyon qilishi mumkin. Agar inson bo‘lajak faoliyatning ehtimoliy holatlari bilan tanish bo‘lsa, to‘g’ri yo‘nalish uchun zarur bo‘lgan bilim va ma’lumotlarga ega bo‘lsa yangi vaziyatga moslashish jarayoni tezlashadi. Muvaffaqiyatli moslashish uchun o‘ziningning hatti-harakatlarini boshqarishni, ichki holatini muhit talablari bilan muvofiqlashtirishni, hayotning yangi vaziyatlariga muvofiq tayyorlikni rivojlantirishni o‘rganish kerak. Moslashish muammolarining dolzarbligi, harbiy faoliyat uchun harbiy xizmatchilarni tayyorlash manfaatlarida uning mohiyati, tarkibi, xususiyatlari va unga samarali ta’siri yo‘llarini faol va sermahsul izlanishi shartligiga olib keldi. Ammo shu bilan birga, tabiiy ravishda “moslashish” atamasiga ko‘plab tarif berishga urinishlar paydo bo‘lishiga olib keldi. Harbiy xizmatchilarning moslashish jarayonida ularning psixologik xususiyatlari va sifatlari taqdim etilgan yangi faoliyat talablarga muvofiq qayta tiklash sodir bo‘ladi. Motivatsion kompleksni qayta tiklash harbiy xizmatchida kasbiy qiziqishlar, nomuvofiqliklar, ideallar, e’tiqodlar, yangi istiqbollar va hayotiy maqsadlarining paydo bo‘lishiga yoki kuchayishiga olib keladi. Ularning mahorati, ko‘nikmalari va odatlarida sezilarli o‘zgarishlardir.

Muddatli harbiy xizmatdagi eng muhim davr adaptatsiya davri bo‘lib - shaxs ichki dunyosida qayta tiklanish, uning yashash tarzi va maishiy hayotida harbiy muhitning talablariga moslashish sodir bo‘ladi. Ushbu davrning qanchalik darajada muvaffaqiyatli o‘tishi, keyingi xizmatni davom etishiga bog’liq bo‘ladi[6]. Ushbu davrning muhim jihati, shaxs qanday qilib atrofdagilar bilan munosabatlarni tiklashi, nizoli holatlarda o‘zini qanday tutishi, o‘zining munosibligini qanday saqlashi, o‘zining “Men”i, qaysi psixologik himoya mexanizmlaridan foydalanishi hisoblanadi. Armiyadagi harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik moslashuv jarayoni juda dinamik va uning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan bir qator ob’ektiv va sub’ektiv sharoitlar, funksional holat, ijtimoiy tajriba, hayotga munosabat va boshqalarga

bog’liq. Ijtimoiy- psixologik moslashuvning sabablari yangi o‘ziga xos muhitda sodir bo‘ladigan va yoshlar fuqarolik hayotida uchramagan ko‘plab omillardir [4].

-harbiy-professional faoliyat qat’iy tartibga solinadi;

-umum harbiy nizomning talablari;

-munosabatlarning yangi shakllari;

-murakkab harbiy texnikaga texnik xizmat ko‘rsatish;

-faoliyatning o‘zaro bog’langan jamoaviy xususiyati;

-hal qilinadigan vazifalarning umumiyligi.

Yosh harbiy xizmatchirning harbiy xizmatga ijtimoiy-psixologik moslashishida harbiy jamoa o‘zining muhim spetsifik xususiyatiga ya’ni, harbiy faoliyatning maqsad va vazifalarini bajarish, amalga oshirilishi yuqori mas’uliyat tug’diradigan maxsus ijtimoiy ahamiyatga ega. Harbiy jamoalar harbiy-kasbiy faoliyatni tartibi va tashkil etish xususiyarlari mazmuni, birgalikda o‘zaro bog’liq bo‘lgan harbiy mehnat turlari, intizomning holati, axloqiy va psixologik muhit, faoliyat yutuqlari va natijalariga qarab bir-birlaridan farq qiladi.

Yosh harbiy xizmatchilarning tasavvurlari yangi sharoitlarda kengayadi va chuqurlashadi. Ushbu qaytatiklash natijasida paydo bo‘lgan xulqi, psixologik ma’lumotlar, xizmat o‘tash sharoitlarida mukammal o‘quv, xizmat va jamoadagi faoliyatini ta’minlaydi va bu o‘z navbatida, ularning harbiy jamoalarga moslashishining o‘sishi haqida guvohlik beradi. Bunday qayta tiklashning asosiy psixologik mexanizmlari quyidagilardan iborat [2].

- o‘z-o‘zini ishontirish; o‘zini-o‘zi tiklash;
- o‘zini-o‘zi taqdirlash, taqlid; o‘zini-o‘zi majburlash;
- o‘zini tasdiqlash va boshqalar.

Harbiy xizmatchilarning faoliyatidan kelib chiqib moslashishning asosiy turlari sifatida taqsimlash mumkin [3].

- o‘quv faoliyatiga moslashish (didaktik);
- harbiy-funksional (kasbiy-jangovar) xizmat faoliyatiga moslashish;
- jamoa faoliyatiga moslashish;
- harbiy jamoaning maishiy hayotiga moslashish. Agar harbiy jamoa zaif bo‘lsa, jamoaning aksariyat a’zolari xizmat va jamoat vazifalarini yechishda passivdirlar, komandirlar ishning asl mohiyatini bilishmaydi, aks holda harbiy xizmatchida “Moslashishi” ning boshqacha qiyofasini ko‘rish mumkin. Askarlarda moslashuvning yo‘qligi, askarlar mustaqil ravishda hal qila olmaydigan masalalarning mavjudligi, o‘zaro va shaxslararo nizolarning ko‘p variantlariga ega. Zo‘riqishning kuchayishi bilan bu mojarolar bo‘linmani ruxsatsiz tark etishga, o‘z joniga qasd qilish harakatlariga olib kelishi mumkin [4].

harbiy xizmatchilarning kayfiyatiga, shaxsiyatiga, sog’lom axloqiy-ruhiy holati va jangovar salohiyatiga salbiy ta’sir etuvchi shaxsiy muammolar; atrofdagilar bilan vujudga keladigan nizolar; turli shakldagi deviant (og’ishgan) xulq-atvorlar; guruhiy (jamoaviy) muammolar-harbiy jamoaning axloqiy-ruhiy muhitini buzuvchi muammolar; jamoa ichidagi munosabatlarga to‘sqinlik qiluvchi nizoli vaziyatlar (shaxsiy, axloqiy, xizmat); nizoli vaziyatlarda jamoaning kichik guruhlarga bo„linib ketganligi, harbiy xizmatchilar o‘zaro kelisha olmasligi, jamoada ijobiy qadriyatlarning yo‘qolishi va hokazolar. Yuqoridagi muammolardan kelib chiqib harbiy psixologlar amalga oshiradigan ishlar ketma-ketligida eng muhim yo‘nalishlardan biri bu-psixologik maslahat ishlarini yo‘lga qo‘yish. Psixologik maslahat shunga ehtiyoji bo‘lganlarga beriladi[5]. Ular psixolog tomonidan mijoz hayotida duch kelgan muammoni dastlab o‘rganib chiqish va shaxsiy suhbat asosida beriladi. Odatda, psixologik maslahat oldindan belgilangan soatda, buning uchun maxsus jihozlangan xonada, begonalar ishtirokisiz o‘tkaziladi.

Boshqa sohaning mutaxassislari bilan birgalikda psixik rivojlanishdagi nuqsonlar xilma-xilligini hisobga olgan holda differensial diagnostikani amalga oshiradi. Nuqsonlarning tibbiy, defektologik yoki psixologik tabiatini aniqlaydi. Asotsial xulq-atvor sabablarini va shakllarini belgilaydi. Giyohvandlik va taksikomaniya, alkogolizm, o‘g’rilikning ijtimoiy-psixologik ildizlarini tekshiradi, omillarini tahlil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aleksandrovich P.I.Malyutin A.G., Senokosov J.G. Harbiy xizmatchilarni armiya hayotiga moslashtirishdagi qiyinchiliklarni psixologik tahlil qilish. - Riga: Riga oliy harbiy-siyosiy bilim yurti. Biryuzova S.S. 2011. - 89 b.

2. Shaykhislamov, N. (2020). In the Field of Modern Linguistics – Linguoculturology. Mirovaya nauka, 8(41), 33-36.

3. Shaykhislamov, N. (2020). Lingvokulturologiyaning tarixiy va nazariy asoslari. O‘zbekistonda ilm-fan va ta’lim, (2), 186-188.

4. Sadullaeva, A. (2022). The problem of the interdependence between language and culture. Renessans v paradigme novaцiy obrazovaniya i texnologiy v XXI veke, (1), 54-56.

5. Sadullaeva, A. (2022). Qaraqalpaq kórkem shíǵarmalar kontekstinde muhabbat koncepti. Globallashuv davrida tilshunoslik va adabiyotshunoslik taraqqiyoti hamda ta’lim texnologiyalari, 1(1), 200-201.

6. Sadullaeva, A. (2022). Concept—muhabbat in Karakalpak proverbs. Sovremennые innovaцionnые issledovaniya aktualnые problemы i razvitie tendenцii: resheniya i perspektivы, 1(1), 616-617.

HARBIY XIZMATCHILARNING PSIXOLOGIK BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA IJTIMOIY HIMOYA TIZIMINING ROLI

F.T.Djaydakbayev
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Bugungi kunda harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligi masalasi faqatgina jismoniy tayyorgarlik yoki xizmat vazifalarini bajarish bilan cheklanib qolmaydi. Bu masala davlatning ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki harbiy xizmat tabiatiga ko‘ra doimiy xavf, yuqori mas’uliyat, stress va emotsional bosim bilan bog‘liq faoliyat turi hisoblanadi.

Hozirgi global va mintaqaviy xavfsizlik muammolari, geosiyosiy keskinliklar, terrorizm, kibertaxdidlar va axborot urushi sharoitida harbiy xizmatchilarga qo‘yilayotgan talablar keskin oshmoqda. Ulardan nafaqat jismoniy chidamlilik, professional mahorati, balki yuqori darajadagi psixologik barqarorlik, stressga chidamlilik, tez qaror qabul qilish qobiliyati ham talab etilmoqda.

Mazkur jarayonda harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, moddiy ta’minot, uy-joy masalasi, tibbiy xizmat, psixologik yordam, oila a’zolari uchun ijtimoiy kafolatlar mavjudligi harbiy xizmatchining ruhiy holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy himoyaning mustahkamligi shaxsda xavfsizlik hissini shakllantiradi, uning xizmatga bo‘lgan ishonchi va sadoqatini oshiradi, stress holatlariga nisbatan barqarorlikni ta’minlaydi. Jahon miqyosida o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, harbiy xizmatchilarning 35–45 foizida xizmat jarayonida turli darajadagi psixologik zo‘riqish holatlari kuzatiladi, ularning 17–20 foizida esa depressiv simptomlar aniqlangan[37].

Shu bilan birga, amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ijtimoiy himoya tizimi yetarli darajada shakllangan bo‘lsa ham, uning psixologik barqarorlikka ta’siri har doim ham kompleks va tizimli tarzda hisobga olinmaydi. Ko‘p hollarda huquqiy kafolatlar mavjud, ammo ularning amaliy ijrosi, psixologik xizmatlar bilan integratsiyasi yetarli darajada emas. Bu esa harbiy xizmatchilarda ichki qoniqmaslik, emotsional zo‘riqish va adaptatsiya muammolarini keltirib chiqarishi mumkin.

Shu sababli, harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini ta’minlashda ijtimoiy himoya tizimining o‘rni va uning davlat siyosatidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligi faqat shaxsiy ruhiy resurslar bilan emas, balki davlat tomonidan yaratilgan ijtimoiy institutsional muhit bilan bevosita bog‘liq. Aniqroq

[37] Moore, B. A. (2023). *Mental health outcomes among active-duty military personnel: Stress, resilience and depressive symptoms*. Journal of Military Psychology, 35(2), 145–160

aytganda, ijtimoiy himoya tizimi insonning sub’ektiv xavfsizlik hissini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bu fikr xalqaro ilmiy manbalarda “perceived security” va “institutional trust” tushunchalari orqali izohlanadi[38].

Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, ijtimoiy kafolatlarga ishonch darajasi past bo‘lgan harbiy xizmatchilarda xavotir (anxiety), depressiv holatlar va kasbiy “yonish” sindromi ko‘proq uchraydi. Masalan, harbiy xizmatchilar psixik salomatligi bo‘yicha olib borilgan xalqaro tadqiqotlarda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatkichlari past bo‘lgan shaxslarda adaptatsiya jarayonlari sekin kechishi va konfliktlarga moyillik yuqori bo‘lishi ta’kidlanadi. Xalqaro psixologik tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, psixologik barqarorlik darajasi past bo‘lgan harbiy xizmatchilarda moslashuv jarayonlari 1,7–2 barobar sekin kechadi. BMC Public Health jurnalida e’lon qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi yuqori bo‘lgan harbiy bo‘linmalarda stress darajasi o‘rtacha 28–32 foizga past bo‘lgan[39].

Harbiy xizmatchilarni psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha institutsional mexanizmlarning tarqoq holda tashkil etilganligi ilmiy doiralarda tanqidiy baholanadi. Ayrim hollarda psixologik xizmatlar faqat formal tarzda mavjud bo‘lib, ularning amalda xizmatchilarga ta’siri cheklangan bo‘ladi. Bu esa ijtimoiy himoya tizimi va psixologiya xizmati o‘rtasida integratsiya yetishmasligini ko‘rsatadi. Ochiq manbalar tahliliga ko‘ra, harbiy xizmatchilarning 25–30 foizi psixologik yordamga o‘z vaqtida murojaat qilmaydi, harbiy bo‘linmalarning qariyb 40 foizida esa profilaktik psixologik tadbirlar tizimli yo‘lga qo‘yilmagan[40].

Shu sababli, bugungi kunda harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini ta’minlash bo‘yicha tadbirlarni tizimli ravishda takomillashtirish zarurati shakllanmoqda. Bunda huquqiy bazani qayta ko‘rib chiqish, institutsional mexanizmlarni kuchaytirish, sohaga ilmiy yondashuvlarni joriy etish va zamonaviy psixologik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish ustuvor vazifalar sifatida namoyon bo‘ladi.

Ilmiy muhokamalarda harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligi masalasi yuzasidan ikki xil qarash mavjud. Ayrim tadqiqotchilar ushbu barqarorlikni asosan

---

[38] Zhuravleva, N., & van de Vijver, F. (2012). Perceived security and psychological well-being in high-risk professions. *Journal of Security Psychology*, 7(1), 33–47., Fukuyama F. Trust: The Social Virtues and the Creation of Prosperity. – New York: Free Press, 1995.

[39] Hoge, C. W., Terhakopian, A., Castro, C. A., Messer, S. C., & Engel, C. C. (2007). Association of posttraumatic stress disorder with somatic symptoms, health care visits, and work absenteeism among military personnel. *American Journal of Psychiatry*, 164(10), 150–153., Pietrzak, R. H., Goldstein, M. B., Malley, J. C., Rivers, A. J., & Southwick, S. M. (2010). Social support and resilience in military populations. *Depression and Anxiety*, 27(5), 422–428. Sundin J., Herrell R.K., Hoge C.W., et al. Mental health outcomes in military personnel // British Journal of Psychiatry. – 2014. – Vol.204(2). – P.98–105.

[40] World Health Organization. Mental health of military personnel and veterans. – Geneva: WHO, 2020.

shaxsning ichki psixik resursi, iroda kuchi va tarbiyasi bilan bog‘laydi. Ular fikricha, davlat tomonidan yaratilayotgan ijtimoiy sharoitlar ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lib, hal qiluvchi omil insonning o‘zi hisoblanadi[41].

Biroq bu yondashuvga nisbatan tanqidiy qarashlar tobora kuchayib bormoqda. Chunki amaliyot shuni ko‘rsatadiki, hatto yuqori tayyorgarlikka ega bo‘lgan harbiy xizmatchi ham ijtimoiy kafolatlar zaif bo‘lgan sharoitda uzoq vaqt davomida psixologik barqarorligini saqlab qolishi qiyin. Xususan, uy-joy muammosi hal etilmagan, oilasi ijtimoiy himoyadan kafolatlanmagan yoki tibbiy-psixologik yordamga darajada imkoniyatiga ega bo‘lmagan xizmatchilarda barqarorlik darajasi izchil pasayib boradi.

Boshqa bir ilmiy yo‘nalish esa barqarorlikni “davlat–inson–institut” uchburchagi orqali talqin qiladi. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, harbiy xizmatchining psixologik barqarorligi - bu faqat uning shaxsiy xususiyati emas, balki davlat siyosatining amalda qanday ishlayotganligining ko‘rsatkichi hisoblanadi. Ya’ni, barqarorlik darajasi bevosita ijtimoiy himoya tizimining ishonchliligi va samaradorligi bilan belgilanadi[42].

Shu o‘rinda bir muhim bahsli masala mavjud: aksariyat hollarda me’yoriy-huquqiy hujjatlarda mukammal ko‘rinishiga qaramasdan, amaliyotda u fragmentar xarakterga ega bo‘lib qolmoqda. Ilmiy doiralarda bu holat “normativ idealizm va amaliy reallik o‘rtasidagi tafovut” sifatida tavsiflanadi. Ya’ni, qonunlarda barcha kafolatlar mavjud, ammo ularning amaliy ijrosi hamisha bir xil darajada emas.

Ayrim xorijiy tadqiqotchilar hatto shunday radikal fikrlarni ilgari suradi: “agar harbiy xizmatchining psixologik barqarorligi zaiflashsa, bu birinchi navbatda uning shaxsiy zaifligi emas, balki davlat tomonidan yaratilgan ijtimoiy muhitning kamchiligidir”. Bu yondashuv klassik “individual javobgarlik” konsepsiyasini jiddiy qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi[43].

Shu nuqtai nazardan, harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligiga oid masalalarni faqat tibbiy yoki psixologik muammo sifatida emas, balki davlat siyosati samaradorligining indikatori sifatida ko‘rib chiqish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi. Bu esa ushbu sohadagi islohotlarga faqat “yuzaki” emas, balki tizimli va institutsional yondashuvni talab etadi.

---

[41] Qodirov B.R. Harbiy xizmatchilar psixologiyasi va shaxsiy barqarorlik masalalari. – Toshkent: Fan, 2010., Umarov X.U. (2015). Harbiy xizmatchilarda stressga chidamlilikni shakllantirish masalalari // *O‘zbekiston psixologiya jurnali*, №2, 34–39., Karayani A.G. Psixologicheskaya ustoychivost lichnosti v ekstremalnых usloviyax. – Moskva: Voenizdat, 2003.

[42] Rothstein B. The Quality of Government: Corruption, Social Trust and Inequality in International Perspective. – Chicago: University of Chicago Press, 2011.

[43] Bonanno G.A. Loss, trauma, and human resilience // American Psychologist. – 2004. – Vol.59(1). – P.20–28., Rose N. Governing the Soul: The Shaping of the Private Self. – London: Free Association Books, 1999., Hatch S.L. et al. Life in and after the Armed Forces // Social Psychiatry and Psychiatric Epidemiology. – 2013. – Vol.48. – P.997–1007.

Harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini ta’minlash masalasi bevosita davlat tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar tizimi bilan bog‘liq. Chunki ijtimoiy himoyaning amaliyotdagi mexanizmi aynan shu hujjatlar orqali huquqiy jihatdan mustahkamlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish sohasi Konstitutsiya normalari, maxsus qonunlar, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida tartibga solinadi. Ushbu hujjatlarda harbiy xizmatchilarning moddiy ta’minoti, tibbiy xizmat, uy-joy bilan ta’minlash, ijtimoiy imtiyozlar, pensiya va kompensatsiya masalalari belgilab qo‘yilgan.

Biroq, ushbu normativ hujjatlarning mazmuniy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularda psixologik barqarorlik masalasi aksar hollarda bevosita mustaqil yo‘nalish sifatida emas, balki umumiy ijtimoiy ta’minotning bir qismi sifatida bilvosita aks etgan. Ya’ni, qonunchilikda “psixologik barqarorlik” yoki “ruhiy salomatlikni muhofaza qilish” masalalari aniq institutsional mexanizmlar bilan yetarli darajada mustahkamlanmagan.

Xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda harbiy xizmatchilarning ruhiy holatini muhofaza qilish maxsus qonunlar va dasturlar orqali tartibga solinadi. Masalan, AQSh va NATO davlatlarida psixologik reabilitatsiya, stress-menejment, posttravmatik holatlarni barvaqt aniqlash tizimlari alohida normativ xujjatlar darajasida mustahkamlangan[44].

O‘zbekiston amaliyotida esa bu masalalar asosan umumiy tibbiy xizmat tizimi doirasida ko‘rib chiqiladi. Bu esa psixologik barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha maqsadli, mutaxassislashtirilgan siyosatning shakllanishini sekinlashtiradi. Natijada qonuniy kafolatlar mavjud bo‘lgan holda ham, ularning amaliy ijrosi yetarlicha tizimlashmagan bo‘lib qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan, amaldagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zarurati shakllanmoqda. Xususan:

- psixologik qo‘llab-quvvatlashni ijtimoiy himoya tizimining mustaqil yo‘nalishi sifatida belgilash;
- harbiy xizmatchilar uchun ixtisoslashtirilgan psixologik xizmatlarning huquqiy maqomini mustahkamlash;
- erta diagnostika va profilaktika mexanizmlarini qonun darajasida belgilash dolzarb vazifalar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bunday yondashuv harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini ta’minlashni faqat tavsiya darajasida emas, balki davlat siyosati darajasida tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish imkonini yaratadi.

[44] Caregivers and Veterans Omnibus Health Services Act. – USA, Public Law 111-163, 2010., VA/DoD Clinical Practice Guideline for PTSD Management. – Washington DC, 2017.

Zamonaviy sharoitda harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini ta’minlash masalasi davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. Yuqorida ta’kidlangan muammolarni hisobga olgan holda, ushbu sohani takomillashtirish tizimli, ilmiy asoslangan va amaliy natijaga yo‘naltirilgan yondashuvni talab etadi.

Birinchidan, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zarur. Amaldagi qonunchilikda harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilishga oid umumiy normalar mavjud bo‘lsa-da, psixologik barqarorlikni ta’minlashga doir maxsus huquqiy mexanizmlar yetarli darajada aniq belgilanmagan. Shu bois, harbiy xizmatchilarning ruhiy salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan normalarni qonunchilikka tizimli tarzda kiritish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, institutsional mexanizmlarni kuchaytirish zarur. Harbiy tuzilmalar tarkibida faoliyat yuritayotgan psixologik xizmatlarning huquqiy maqomi mustahkamlanishi, ularning vazifalari va javobgarligi aniq belgilab berilishi lozim. Shu bilan birga, ushbu xizmatlar faoliyatini baholash uchun aniq samaradorlik ko‘rsatkichlari ishlab chiqilishi kerak.

Uchinchidan, profilaktika va erta diagnostika tizimini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Harbiy xizmatchilarni muntazam psixologik skriningdan o‘tkazish, stress holatlarini barvaqt aniqlash va ularni bartaraf etish mexanizmlarini joriy etish zarur. Bunda zamonaviy psixodiagnostik vositalardan va ilg‘or xalqaro tajribadan foydalanish samarali natijalar berishi mumkin.

To‘rtinchidan, ijtimoiy himoya tizimi va psixologik xizmatlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish lozim. Ijtimoiy ta’minot organlari, tibbiy muassasalar va harbiy bo‘linmalar o‘rtasida tizimli axborot almashinuvi va hamkorlik mexanizmlari yo‘lga qo‘yilishi zarur. Bu harbiy xizmatchining psixologik holatiga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillarni kompleks asosda hisobga olish imkonini beradi.

Beshinchidan, raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Yagona elektron monitoring platformalarini yaratish, masofaviy psixologik maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘yish va ma’lumotlar tahlili asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimini joriy etish tavsiya etiladi.

Oltinchidan, kadrlar salohiyatini oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Harbiy psixologlar, ijtimoiy soha mutaxassislari va rahbar xodimlar uchun doimiy ravishda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish, zamonaviy metodikalarni o‘quv jarayoniga joriy etish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini ta’minlash tizimini takomillashtirish mudofaa sohasida davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida qaralishi, mazkur sohadagi chora-tadbirlar kompleks, tizimli va uzviy tarzda amalga oshirilishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligi faqat shaxsiy ruhiy xususiyatlar bilan cheklanib qolmasdan, balki uni ta’minlashga qaratilgan davlat ijtimoiy siyosatining samaradorligiga bevosita bog‘liq jarayon hisoblanadi. Psixologik barqarorlik harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatida muhim kasbiy sifat sifatida namoyon bo‘ladi va ularning xizmat vazifalarini samarali bajarishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tahlillarga ko‘ra, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish tizimida mavjud huquqiy va institutsional mexanizmlar umumiy jihatdan shakllangan bo‘lsa-da, ularni psixologik barqarorlikni ta’minlash nuqtai nazaridan tizimli va kompleks ravishda ishlatish yetarli darajada emas. Ayrim hollarda huquqiy kafolatlar bilan amaldagi ijrosh mexanizmlari o‘rtasida uzilishlar mavjud bo‘lib, bu holat harbiy xizmatchilar ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatish ehtimoli mavjud.

Mazkur tadqiqot natijalari harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini ta’minlash sohasida davlat siyosati mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini taqoza etadi. Xususan, psixologik xizmatlarning huquqiy maqomini mustahkamlash, ijtimoiy himoya tizimi va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini integratsiyalash, profilaktika va erta diagnostika mexanizmlarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida asoslandi.

Shu bilan birga, mazkur maqolada ilgari surilgan ilmiy takliflar harbiy xizmatchilarning ruhiy barqarorligini ta’minlash va ijtimoiy himoya sohasida davlat siyosatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularni amaliyotga joriy etish harbiy xizmatchilarning xizmat samaradorligini oshirishga, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga va milliy xavfsizlik tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini ta’minlash masalasiga tizimli, kompleks va ilmiy asoslangan yondashuvni joriy etish mamlakatning mudofaa salohiyatini mustahkamlash va inson kapitali rivojini ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Allenson Dj. (2021). Kognitivno-povedencheskaya terapiya v lechenii zaikaniya. M.: Izdatelstvo “Psixoterapiya”.
2. Batterfild L. (2019). Strategii preodoleniya kommunikativnыx barerov u studentov s rechevыmi narusheniyami. Jurnal Speцialnogo Obrazovaniya, 45(3), 174-189.
3. Goldstayn S., i Shvarц R. (2022). Publichnыe vыstupleniya i zaikanie: psixologicheskie aspektы i podxodы k terapii. Jurnal Psixologii i Obrazovaniya, 53(2), 112-128.
4. Markova I. K., i Petrovskiy, A. V. (2020). Soцialnaya psixologiya v obrazovanii. Moskva: Izdatelstvo “Akademiya”.

HARBIY XIZMATCHILARDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ADAPTATSIYA JARAYONIDA MOTIVATSIYANING O‘RNI

M.L.Saipova
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsenti
X.Eshonqulov
“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” yo‘nalishi 411 B guruhi kursanti

Annotatsiya. Maqolada harbiy xizmatchilarda ijtimoiy-psixologik adaptatsiya jarayonida motiv va motivatsiyaning o‘rni yuzasidan olimlarning fikrlariga to‘xtalgan va mualliflar harbiy xizmatchilarda harbiy hayotga adaptatsiya jarayoni yuzasidan fikrlar bildirilgan. Shuningdek, harbiy xizmatchining motivatsion holatlarini psixologik tashhis qilish metodikalarini batafsil yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy xizmatchi, adaptatsiya, motiv, motivatsiya, yo‘nalish, jarayon, maqsad, faoliyat, tizim, shaxs, xulq-atvor.

Hozirda oddiy odamlar o‘rtasidagi suhbatda ham biror harakat yoki faoliyat yuzasidan gap borganida “motivatsiya bering”, “motivatsiya yo‘qda”, degan jumlalarning qo‘llanilishi tez-tez quloqqa chalinadi. Xo‘sh, motivatsiya deganda nima tushuniladi? Motivatsiya – lot. tilidagi moveo – harakatlantirish, undash ma’nolarini berib, jonli organizmlarning xulq-atvorini shartlovchi undoyvi psixik jarayonlar majmuidir [2]. Psixologik nuqtai nazardan ta’rif beradigan bo‘lsak, *motivatsiya* – bu turli mumkin bo‘lgan harakatlar o‘rtasidagi tanlov jarayoni, mazkur motiv uchun o‘ziga xos bo‘lgan holatga erishishni boshqaruvchi va yo‘naltiruvchi hamda bu yo‘nalishni qo‘llab-quvvatlovchi jarayondir. Bunda faoliyat to‘g‘risida gapiradigan bo‘lsak, u, qachonki, aniq motiv maqsadiga erishishga yo‘naltirilgan bo‘lganidagina, motivatsiyalangan bo‘ladi. Insonning turli funksional qobiliyatlari, uning qiziqishlari va intilishlari qanday va qaysi yo‘nalishda foydalanilishi motivatsiyaga bog‘liq.

Motiv – sub’ektning ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq faoliyatga undash; sub’ektda faollikni uyg‘otuvchi va uning yo‘nalishini belgilovchi ichki va tashqi sharoitlari majmui; shaxsning harakatlari va xulq-atvorini tanlash asosida yotuvchi anglangan sabab; faoliyat yoki harakatni o‘ziga yo‘naltiradigan va uni amalga oshirishga undaydigan moddiy yoki ideal predmet [4].

A.Maslou [3] o‘zining motivatsiya nazariyasida shaxsning yetakchi motiv sifatida uzluksiz rivojlanishga intilishini ajratadi. Olim xulq-atvor ehtiyojlar va

qobiliyatlarga bog‘liq bo‘lib, bir necha: biologik ehtiyojlardan tortib, o‘z-o‘zini dolzarblashtirishgacha bo‘lgan ehtiyojlarga qadar darajalarga ega bo‘lgancha bir butun tizimni hosil qiluvchi ichki va tashqi motivlar bilan belgilanadi, deb hisoblaydi.

S.L.Rubinshteyn [5] inson harakatlarining motivi ularning maqsadi bilan ajralmasdir, chunki motiv unga erishishga intilish hisoblanadi, deb ta’kidlaydi. Bunda motiv va maqsad birlashishi yoki ajralishi ham mumkin. Bu yerda maqsad ijtimoiy faoliyatni bajarish, motiv esa – shaxsiy ehtiyojlarni qondirish bo‘ladi. Faoliyat birligi – bu u yo‘naltirilgan maqsadlar va bundan kelib chiqadigan motivlar majmuidir.

A.N.Leontev [2] motivlarni tadqiq etgancha ularni predmetli ehtyojlar aniqlashtiriladigan, idrok etiladigan, tasavvur qilinadigan, xayoliy ob’ektlar sifatida tushunishga asoslanadi. A.N.Leontev ta’rifiga ko‘ra, motiv – bu u yoki bu ehtiyojlarni qondiradigan va insonni faoliyatga undaydigan va yo‘naltiradigan ob’ekt.

A.N.Leontev [2] motivlarning ikki vazifasini:

– ijobiy bo‘lganiday salbiy bo‘yoqlar sifatida undovchi omillar (rag‘bat motivlari) rolini bajaruvchi undash motivlari;

–faoliyatni shaxsiy mazmunga to‘ldiruvchi ma’no hosil qiluvchi motivlarni ajratadi.

Bunda motivning rag‘batlantiruvchi va ma’no hosil qiluvchi vazifalarini birlashtirish orqali inson faoliyati ongli tarzda boshqariladigan faoliyat maqomiga ega bo‘ladi. Agar motivning ma’no hosil qiluvchi vazifasi susaysa, unda motiv faqat tushunarli bo‘ladi. Va aksincha, agar motiv faqat tushunarli bo‘lsa, unda, shubhasiz, uning ma’no hosil qiluvchi vazifasi susaygan bo‘ladi.

Shaxsning motivatsion sohasini tadqiq etish umumiy masalalarni o‘rganish doirasi bilan cheklanib qolmaydi, balki insoniy faoliyatning ko‘p qirralariga ham tatbiq etiladi. Demak, *shaxsning motivatsion sohasi* – bu inson faoliyatining turli tomonlarini va uning ijtimoiy rollarini aks ettiruvchi har xil xarakterdagi motivlar (ustanovkalar, ehtiyojlar, qiziqishlar) ning murakkab tizimidir.

M.Rokichning “Qadriyatli yo‘nalishlar” metodikasini olish mumkin. Mazkur metodika har biri 18 tadan qadriyat bo‘lgan ikkita ro‘yxatdan tashkil topgan. Sinaluvchi qadriyatlarni ahamiyatiga ko‘ra darajalaydi. Bunda terminal va instrumental qadriyatlar ierarxiyasi tahlil qilinadi: terminal qadriyatlar – individual tarzda mavjud bo‘lishning qandaydir yakuniy maqsadiga erishishga intilish lozim ekanligi to‘g‘risidagi ishonch; instrumental qadriyatlar – shaxsning qandaydir tarzdagi harakatlari yoki xislatlari har qanday vaziyatda afzal ko‘rilishi to‘g‘risidagi ishonch.

Shaxsiy so‘rovnomalar. So‘rovnomalarda motivga bevosita mos kelmaydigan, biroq empirik jihatdan u bilan bog‘liq ba’zi xulq-atvorga oid tavsifnomalarga taalluqli fikrlar taklif qilinadi. So‘rovnomalar yordamida motivatsiyani o‘lchashdagi

asosiy muammo – bu ijtimoiy istalganlik yoki himoya motivatsiyasi omilining ta’siri tufayli javoblarning xolisona bo‘lishini kamayishi bilan bog‘liq. Ulardan ba’zilarini keltirib o‘tamiz:

– A.Evardsning G.Myurreyni ehtiyojlar ro‘yxatiga asoslangan “Shaxsiy afzalliklar ro‘yxati” metodikasi. Test 210 ta juft fikr ko‘rinishidagi ehtiyojlar indikatorlaridan tuzilgan 15 ta shkaladan iborat. Sinaluvchi har bir juft fikrdan bittasini tanlashi zarur. Yakuniy ehtiyojlar indeksi ro‘yxatdagi boshqa ehtiyojlarga nisbatan uning kuchini ifodalaydi;

–A.Megrabyanning yutuqlar motivatsiyasi so‘rovnomasi. Bunda natija 2 ta – muvaffaqiyatga intilish va omadsizlikdan qochish shkalasi bo‘yicha aniqlanadi;

– R.Kettell, D.Chayldning motivatsiyani tahlil qilish testi. Ushbu test 208 banddan tashkil topgan 4 ta subtestdan iborat bo‘lib, unda shaxsning asosiy tendensiyalari aniqlanadi (ergi: sherikka yo‘nalganlik, o‘ziga ishonch, o‘z-o‘zini sevish, murosa qilolmaslik) va madaniy shakllangan tendensiyalar (tuyg‘ular: vijdon, o‘zi va atrofdagilarga, ota-onasiga, kareraga bo‘lgan munosabat va boshqalar);

–V.Smekayl va M.Kucherning 30 ta savoldan iborat “Shaxs yo‘nalganligi” metodikasi. Bu metodika orqali shaxs yo‘nalganligining uchta tipi: o‘ziga, o‘zaro munosabatlarga va topshiriqqa yo‘nalganligini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Tasavvur va fantaziya mahsulotlarini tahlil qilish asosida yaratilgan proektiv metodikalar. Ular motivatsiyaning tasavvur va persepsiyaga ta’sirini tadqiq etishga asoslangan. Proektiv usullardan chuqurlashgan motivatsion mahsulotlarni, ayniqsa, anglanmagan motivlarni tashhis qilish uchun foydalaniladi. Bunga misol qilib quyidagi testni ko‘rsatish mumkin:

–TAT (tematik appersepsiya testi) – X.Morgan, G.Myurreyning “Shaxsni tadqiq etish” proektiv metodikasi. Stimul materiali 30 ta oq-qora rasmlar va fantaziyaga topshiriq uchun bitta bo‘sh ramkadan foydalaniladi. Rasmlarda qandaydir umumiy mazmunga ega bo‘lgan bir xil bo‘lmagan noaniq vaziyatlar tasvirlangan. Sinaluvchiga seriyalar o‘rtasidagi oraliq bilan muayyan ketma-ketlikda 10 ta rasm 2 bosqichda taqdim etiladi. Sinaluvchi: 1) rasmdagi vaziyatga nima olib keldi, 2) u yerda nimalar sodir bo‘lyapti, 3) qahramonlar nimalarni o‘ylayaptilar va nimalarni his qilyaptilar, 4) vaziyat qanday yakun topadi kabi savollarga javob beradigan kichik hikoya o‘ylab topishi zarur. Hikoya texnikadan foydalangan holda so‘zma-so‘z yozib olinadi.

Hikoyani so‘zlab berishgacha bo‘lgan vaqt va har bir rasm bo‘yicha hikoyaga sarflangan umumiy vaqt qayd qilib boriladi. Yakuniy so‘roqda tafsilotlar, izohlar va idrok etishdagi xatolar aniqlashtiriladi.

Bunda TAT ning tahlili quyidagicha bo‘ladi:

- sinaluvchi o‘zni identifikatsiya qilayotgan qahramonni topish;

•qahramonning ehtiyojlarini aniqlash;

•muhtning qahramonga bosimi;

•qahramonning kuchi va tashqi muhit bosimini taqqoslash asosiy mavzuni belgilaydi.

Mavzu quyidagilarni ochib beradi:

•test qilinayotgan shaxs haqiqatan nima qilyapti;

•fantaziyasiga siqib chiqargancha nimani anglamayapti;

•hozirgi vaqtda nimani his qilyapti;

•o‘z kelajagi to‘g‘risida nimalarni o‘ylaydi.

Shaxsning motivatsion sohasini psixologik tashhis qilish bo‘yicha metodikalarning yutug‘i:

–aksariyat metodikalarga xos bo‘lgan yuqori ishonchlilikdir.

Biroq ularning kamchiligi ham yetarlicha, xususan:

–validlik to‘g‘risidagi ma’lumotlarning qarama-qarshiligi;

–aniq vaziyat determinanti ulushini inobatga olish zaruriyati;

–psixologik tashhisning bevosita va bilvosita usullaridan birgalikda foydalanish zaruriyatining mavjudligi.

Xulosa tarzida aytish mumkinki, hozirda motivatsiyaning faoliyatni muayyan turlari uchun aniqlashtiriladigan umumiy nazariyasi yoritilgan ko‘plab tadqiqot ishlari mavjud. Chunki motivatsiya har bir shaxsning ish samaradorligini ta’minlash uchun juda muhim. Psixologik tashhis natijalari esa ish samaradorligini oshirishda yetarlicha katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bolshaya rossiyskaya эпциklopediya. https://old.bigenc.ru/philosophy/text/2234628. Murojaat sanasi: 13.04.2023.

2. Leontev A.N. Potrebnosti, motivы i эмоции. – M., 1971. S. 1, 13-20, 23-28, 35-39.

3. Maslou A. Teoriya chelovecheskoy motivaции. https://isemernin.com/stati/?id=1. Murojaat sanasi: 18.04.2023.

4. Psixologiya: Slovar. /Pod obщ. red. A.V. Petrovskogo, M.G. Yaroshevskogo. – M.,1990. S.219.

5. Rubinshteyn S. Osnovы obщey psixologii: v 2 t. T. 2. – M.: Pedagogika, 1989. S. 40-41.

МОТИВАЦИОННО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ АДАПТАЦИИ И РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛНОЙ УСТОЙЧИВОСТИ У ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Валатов Руслан Шамилевич
Магистрант Университета общественной безопасности Республики Узбекистан

Аннотация: В стате рассматриваются мотивационно-психологические аспекты адаптации и развития эмоционалной устойчивости у военнослужащих. Эмоционалная устойчивост трактуется как интегративное личностное качество, обеспечивающее способност сохранят внутреннее равновесие, контролироват эмоционалные реакции и поведение в экстремалных и стрессовых условиях военной службы. Показано, что процесс адаптации военнослужащих к профессионалной среде тесно связан с особенностями их мотивационной сферы, уровнем саморегуляции, внутренней мотивацией и социально-психологической поддержкой коллектива. Раскрыты механизмы влияния мотивационных факторов на успешност адаптации, устойчивост к стрессу и эффективност выполнения служебных обязанностей. Обоснованы психолого-педагогические условия и методы развития эмоционалной устойчивости, направленные на повышение адаптационного потенциала личности в условиях военной деятелности.

Ключевые слова: эмоционалная устойчивост, мотивация, саморегуляция, стрессоустойчивост, психологическая адаптация, мотивационные факторы, развитие личности, военная психология.

Военная профессия по праву считается одной из самых экстремалных форм профессионалной деятелности. При выполнении боевых или тактических задач военнослужащие сталкиваются с угрозой жизни, необходимостю принимат решения в условиях неопределённости, ограниченного времени и ресурсов. Эти факторы вызывают силные эмоционалные реакции страх, тревогу, агрессию, апатию, и требуют высокого уровня эмоционалной устойчивости, то эст способности сохранят внутреннее равновесие, рационалност и боеспособност в стрессовых ситуациях. Эмоционалная устойчивост это не толко личностное качество, но и один из ключевых показателей профессионалной пригодности военнослужащего, что отмечается во многих нормативных и международных документах по военной психологии и профессионалному отбору (НАТО Стандардизатион Агреемент, 2018;

Департмент оф Дефенсе Директиве, 2020). Современная психология выделяет несколко концепций интерпретации эмоционалной устойчивости.

1. Волевой подход (В.И.Эвдокимов, К.К.Платонов, Ю.Н.Кулюткин) рассматривает эмоционалную устойчивост как проявление развитых волевых процессов. По мнению авторов, человек, обладающий силной волей, способен контролироват свои эмоции и управлят поведением в кризисных условиях.

2. Интегративный подход (Л.М.Аболин, П.К.Анохин, Р.Лазарус, М.И.Дяченко, В.А.Пономаренко) рассматривает эмоционалную устойчивост как комплексное свойство личности, объединяющее эмоционалные, интеллектуалные, волевые и мотивационные компоненты. Подобная трактовка согласуется с современными зарубежными концепциями, например, теорией эмоционалной регуляции Дж. Гросса (Гросс, 2014) и концепцией психологической резилентности Р. Коннора и К. Дэвидсона (Соннор & Давидсон, 2003).

3. Биологический подход (Ю.М.Блудов, В.Д.Небылицын, Н.Ф.Петрова) акцентирует внимание на физиологических механизмах устойчивости, связанных с особенностями темперамента, силы нервной системы и генетической предрасположенности к стрессу. Подобные выводы коррелируют с зарубежными нейропсихологическими исследованиями (Давидсон, 2012; Панксепп, 2017), где эмоционалная устойчивост связывается с балансом нейромедиаторных систем.

4. Ситуативно-эмоционалный подход (А.В. Алексеев, О.А. Черникова) рассматривает эмоционалную устойчивост как динамическое качество, проявляющееся в процессе эмоционалного переживания сложной ситуации и зависящее от способности личности к саморегуляции и осознанности.

Все подходы сходятся в одном: эмоционалная устойчивост обеспечивает сохранение работоспособности в стрессогенных условиях, минимизирует влияние внешних факторов и стабилизирует внутреннее состояние личности. Военная деятелност требует от человека высокой психологической устойчивости, самоконтроля и дисциплины. Как отмечает Э.А. Эрмолова, длителное пребывание в условиях боевых действий является одним из главных психотравмирующих факторов, приводящих к снижению нервно-психической устойчивости и развитию психогенных расстройств [1].

Эмоционалная устойчивост является важнейшей характеристикой личности военнослужащего, обеспечивающей эго эффективност, самоконтрол и адаптацию в экстремалных условиях. Разработанная тренинговая программа доказала свою эффективност и может быт рекомендована для включения в систему психологической подготовки личного состава. Развитие эмоционалной

устойчивости способствует не толко повышению боеготовности, но и улучшению морально-психологического климата в подразделениях. Современные социально-психологические условия жизни человека требуют высокой степени эмоционалной устойчивости, которая обеспечивает способност эффективно действоват в сложных и конфликтных ситуациях. Особенно актуалной данная проблема становится в профессионалной и военной сферах, где высокая эмоционалная нагрузка является неотъемлемой частю деятелности. Мотивация, как внутренний источник активности личности, определяет направленност, интенсивност и устойчивост поведения человека. Без осознанных мотивов развитие эмоционалной устойчивости становится затруднителным, так как именно мотивационные установки формируют готовност личности к саморегуляции, саморазвитию и управлению своими эмоциями. Целю данной работы является раскрытие мотивационных аспектов, способствующих формированию и укреплению эмоционалной устойчивости, а также анализ психологических методов, направленных на развитие этих качеств у личности.

Эмоционалная устойчивост представляет собой комплексное качество личности, включающее способност сохранят контрол над эмоциями, преодолеват стресс, избегат деструктивных реакций и поддерживат психологическое равновесие. Одним из централных факторов, определяющих уровен эмоционалной устойчивости, выступает мотивация система внутренних побуждений, обеспечивающих активност личности в различных сферах жизни. Исследования показывают, что высокий уровен внутренней мотивации способствует повышению стрессоустойчивости и адаптивности человека. Внутренне мотивированные индивиды, как правило, обладают выраженной способностю к саморегуляции, стремлением к самосовершенствованию и уверенностю в собственных силах. В то время как внешняя мотивация поощрение, одобрение, социалное давление играет поддерживающую, но менее устойчивую рол в формировании эмоционалной стабилности. Мотивационные аспекты развития эмоционалной устойчивости можно рассматриват в контексте следующих направлений [2]:

первое формирование внутренней мотивации через постановку личностно значимых целей; второе развитие осознанности и эмоционалного интеллекта, которые позволяют управлят эмоционалными реакциями; трете создание позитивной внутренней установки на самосовершенствование, позволяющей воспринимат трудности как источник опыта и роста.

Кроме того, важную рол играет поддерживающая социально-психологическая среда. Наличие благоприятных межличностных отношений,

чувство принадлежности к коллективу, признание и моралная поддержка усиливают внутреннюю мотивацию личности, что способствует развитию устойчивости к стрессу и эмоциональным перегрузкам. В контексте военной психологии мотивация приобретает особое значение. Служебные обязанности, дисциплина и ответственност за коллективное благополучие формируют у военнослужащих специфическую систему мотивов, в которой ценности долга, чести, верности и профессионалной компетентности становятся внутренними источниками эмоционалной устойчивости. Поэтому в процессе профессионально-психологической подготовки целесообразно уделят особое внимание формированию мотивационных установок, направленных на самоконтрол и эмоционалную стабилност. Сегодня в современной психологической науке не сложилос эдиного мнения к пониманию понятия «эмоционалная устойчивост». К изучаемому феномену существуют различные подходы. Так, М.И.Дяченко и В.А.Пономаренко в своей работе выделяют четыре [4, 8].

Действия в условиях выполнения боевых задач или в каких-либо сложных ситуациях могут создават угрозу для жизни и требуют от военнослужащего высокой психологической устойчивости, стойкости, инициативы и дисциплины. Как отмечает Э.А.Эрмолова, «длителное пребывание в зоне боевых действий является одним из главных психотравмирующих факторов, который приводит к снижению нервно-психической устойчивости, психологическим срывам, дезорганизует боевую деятелност, блокирует доступ к имеющимся резервам организма и, как следствие, вызывает психогенные расстройства и отклоняющееся поведение у военнослужащих» [5].

О.Н.Тузова, в свою очеред, отмечает, что «военно-профессионалная деятелност отличается от других видов социалной деятелности: она связана с особыми, экстремалными условиями или ситуациями, что обусловливает необходимост адаптации военнослужащих рядового состава к деятелности в измененных условиях» [10]. По мнению автора, «экстремалные условия деятелности характеризуются постоянным действием интенсивных экстремалных факторов, которые могут представлят потенциалную опасност, при этом негативные функционалные состояния выражены силно, деятелност реализуется с подключением резервных буферных возможностей» [9].

В данном определении акцент сделан на наличии систематического воздействия стрессоров, которые могут варировватся от физических (высокая температура, шум) до психологических (высокая степен ответственности, необходимост быстрого принятия решений). Упоминание о резервных буферных возможностях говорит о том, что в экстремалных условиях

необходимо исползоват дополнителные ресурсы для поддержания работоспособности. Сюда относятся и психологические ресурсы. У военнослужащих, прошедших «горячие точки», могут возникат и специфические особенности эмоционалного состояния состояние ожидания, вызванное, прежде всего, осознанием опасности для жизни и здоровя в моменты бездействия, а также состояние боевого возбуждения, вызванное в условиях активной служебной деятелности. Находяс в условиях боевых действий, военнослужащие вынуждены пребыват в ситуациях, требующих от них мобилизации вцех внутренних ресурсов и возможностей организма. В связи с этим, формируется высокая степен личностного развития, характеризующаяся способностю контролироват субъективные эмоционалные реакции, брат за них ответственност, сдерживат или проявлят в нужный момент. Эмоционалная зрелост личности -это определенный уровен развития взрослой личности, который характеризуется открытостю к эмоционалному опыту, осознанием своих чувств и ответственностю за них, развитой эмоционалной сферой и устойчивостю к эмоциям, а также способностю адекватно проявлят и выражат свои чувства в различных ситуациях. В условиях боевых действий военнослужащие могут испытыват силный стресс, страх, напряжённост, переутомление, невротические состояния, апатию, неуверенност в себе и другие негативные эмоции. Эмоционалная устойчивост помогает им сохранят концентрацию, действоват эффективно и поддерживат моралный дух как свой, так и своих товарищей.

А.Л.Злотников проводил исследование особенностей эмоционалной устойчивости военнослужащих. Он выявил три качественно разных уровня эмоционалной устойчивости (высокий, средний и низкий) и основные стресс-факторы, влияющие на этот уровен (постоянный контрол, дефицит времени, ограниченност пространства, отрыв от семи, повышенная требователност, опасност, внезапност, неопределенност, неизвестност). Кроме того, ученый подробно охарактеризовал представленные уровни.

Военнослужащие с высоким уровнем устойчивости характеризуются низким и частично средним уровнями эмоционалного возбуждения, низким уровнем личностной тревожности, высоким и частично средним уровнями активности, работоспособности, средним уровнем мотивации, высоким и частично средним уровнем интеллектуалной лабилности, болшой и частично средней силой нервной системы. Военнослужащие со средним уровнем эмоционалной устойчивости характеризуются средним и частично низким уровнями эмоционалного возбуждения, личностной тревожности, активности, работоспособности, средним уровнем мотивации, средним и частично низким

уровнями интеллектуалной лабилности, средней и частично болшой силой нервной системы. Для военных, отнесенных к низкому уровню, характерны средний и частично высокий уровен эмоционалного возбуждения, средний уровен личностной тревожности, низкий и частично средний уровен активности, работоспособности, средний уровен интеллектуалной лабилности, средняя и частично малая сила нервной системы.

На основании всего вышеизложенного, было проведено экспериментальное исследование. Перед собой мы поставили следующую гипотезу: специально разработанная программа, направленная на развитие навыков управления эмоциями, стрессом и адаптации к изменяющимся условиям службы, основанная на принципах комплексности и много-уровневости, практической направленности, непрерывности, учета индивидуально-психологических особенностей, интеграции в общую систему боевой подготовки, способствует повышению уровня сформированности эмоционалной устойчивости у военнослужащих, проходящих службу в экстремалных условиях. Эффективные методы развития мотивационно-эмоционалной устойчивости включают психологические тренинги саморегуляции, релаксационные упражнения, когнитивно-поведенческие техники и мотивационные беседы. Психологическая подготовка, ориентированная на развитие внутренней мотивации и позитивного восприятия трудностей, способствует не толко укреплению эмоционалной устойчивости, но и повышению профессионалной эффективности личности.

БИБЛИОГРАФИЧЕСКИЙ СПИСОК:

1. Аболин Л.М. Психическая саморегуляция и стресс. - М., 2018.
2. Адлер А.Б., Бартон П.Т., Снайдер М. Ресилиенсе ин Милитарй Персоннел. - Милитарй Псйчологй, 2011, 23(3).
3. Блудов Ю.М. Биологические основы эмоционалной устойчивости. - СПб., 2016.
4. Bocharova Э.Е. Psixologiya lichnosti voennoslujaщego. - M., 2020.
5. Bartone P.T. Hardiness and Mental Health in Military Personnel. - Military Psychology, 2009, 21(3).
6. Connor K.M., Davidson J.R.T. Development of a New Resilience Scale: The CD-RISC. - Depression and Anxiety, 2003, 18(2).
7. Davidson R.J. The Emotional Life of Your Brain. - New York: Hudson Press, 2012.
8. Gross J.J. Emotion Regulation: Conceptual Foundations. - New York: Guilford Press, 2014.
9. Kim H. Stress and Emotional Adaptation among Soldiers. - Journal of Behavioral Science, 2019, 8(4).

KOMANDIRGA BERILGAN VAKOLATINI SUISTEMOL QILISH MAZKUR YO‘NALISHDA YO‘L QO‘YILAYOTGAN KAMCHILIK VA MUAMMOLAR

T.X.Normetov
O‘Z.R.Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti
Quriqlikdagi qo‘shinlar instituti Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasi
o‘qituvchisi, QK xizmatchisi dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqola harbiy xizmatchilarni yuqori professional, harbiy va vatanparvarlik burchiga sadoqatli, fidoyi va mard harbiy xizmatchilarni tarbiyalash O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanishi to‘g‘risida.

Kalit so‘zlar: harbiy intizom yoshlar, Vatan ravnaqi, harbiy vatanparvarlik tuyg‘usi, tarbiya, barkamol avlod, vatanparavarlik tarbiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, muhabbat – burch – fidoyilik.

“Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi” [2].

Shavkat MIRZIYOYEV O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti,
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni

Yuqori professional, harbiy va vatanparvarlik burchiga sadoqatli, fidoyi va mard harbiy xizmatchilarni tarbiyalash O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda milliy armiyani izchillik bilan isloh qilish va rivojlantirish, davlatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, harbiy kadrlarni tayyorlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, Qurolli Kuchlar tizimida harbiy xizmatchilarning harbiy intizomga to‘liq rioya etishlari, o‘z xizmat majburiyatlarini sidqidildan bajarishlari bilan bog‘liq turli ko‘rinishdagi intizom buzish holatlari, bu yo‘nalishda ularning immunitetini mustahkamlash masalalarida hanuzgacha muammolar uchrab turibdi.

Harbiy xizmatchi xulq-atvorining qoida va me’yorlari, avvalambor, Umumharbiy Nizomlarda o‘z ifodasini topgan. Harbiy intizom O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar tayyorgarlik va jangovar qobiliyatining asoslaridan biri hisoblanadi. Uning jihatlari O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom nizomi talablarida mustahkamlangan.[4]

Harbiy intizom – bu barcha harbiy xizmatchilarning qonun, harbiy Nizomlar tomonidan, komandirlar (boshliqlar) buyruqlari bilan belgilangan tartib va qoidalarga qat’iy va aniq rioya etilishidir.

Harbiy intizom har bir harbiy xizmatchining O‘zbekiston Respublikasini himoya qilishga bo‘lgan harbiy burch va shaxsiy mas’uliyat, o‘z xalqiga mislsiz sadoqatini his qilishga asoslanadi.

Harbiy xizmatchilarda yuksak intizomni tarbiyalashning asosiy usuli ishontirishdir. Ammo ishontirish o‘z harbiy burchiga sidqidildan yondoshmaganlarga nisbatan majburiy choralar ko‘rishni istisno etmaydi.

Harbiy intizom har bir harbiy xizmatchidan:

Vatanga qasamyodga sodiq bo‘lishni, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va Konstitutsiyasiga qat’iy bo‘ysunishni;

o‘z harbiy burchini mohirlik va jasorat bilan bajarishni, harbiy ishni sidqidildan o‘rganishni, harbiy va davlat mulkini asrashni;

harbiy xizmat qiyinchiliklarini mardonavor yengishni, harbiy burchni bajarish uchun o‘z jonini ham ayamaslikni;

sergak bo‘lishni, harbiy va davlat sirlarini qat’iy saqlashni;

harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi harbiy nizomlarda ko‘rsatib berilgan o‘zaro munosabatlarni qo‘llab-quvvatlashni, jangovar birodarlikni mustahkamlashni;

komandir (boshliq)larga va bir biriga hurmat ko‘rsatish, harbiycha salom-alik va xushfe’llik qoidalariga rioya qilishni;

jamoat joylarida o‘zini munosib tutishni, nomunosib xatti-harakatlardan o‘zini va boshqalarni tiyib qolishni va fuqarolarning or-nomusini himoya qilishni talab qiladi.

Harbiy intizomni vujudga keltirish, uni yuqori darajaga ko‘tarish, har bir harbiy xizmatchidan, avvalo, o‘zida insoniylik, to‘g‘ri so‘zlik, halollik, shaxsiy mas’uliyat, Vatanga qasamyodga sadoqat, harbiy burchga sharaf deb qarash kabi xislatlarni shakllantirishda, avvalo, har bir harbiy xizmatchi mazkur xislatlarni o‘zida qaror toptira olishga intilishi shart.

Armiyada mustahkam intizom bo‘lmasa, uning tanazzulga uchrashi muqarrar. intizom g‘alabaning asosi sanaladi. Buyuk sarkarda ajdodlarimiz To‘maris, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z qo‘shinlaridagi yuksak intizom tufayli doimo g‘alabaga ɜrishganlar. [3]

Mazkur Nizomda komandirlar (boshliqlar)ning o‘z qo‘l ostidagi harbiy xizmatchilarga intizomiy ta’zir berishlari bo‘yicha huquqlari qat’iy ravishda belgilab qo‘yilgan. Bugun tan olib aytishimiz kerakki, aksariyat komandirlar (boshliqlar) tomonidan bo‘ysinuvchilarni intizomiy jazolashda o‘z vakolatlaridan to‘g‘ri foydalanmayotganliklari barcha tizimlarda ham uchrab turibdi. Mavzuning

dolzarbligi ham aynan shunda, bo‘ysinuvchi tomonidan sodir etilgan holatni chuqur muhokama qilmaslik;

Avvalo, komandirlarning o‘z vakolatidan foydalangan holda, qo‘l ostidagi harbiy xizmatchilarga intizomiy jazo berish asoslari haqida to‘xtalib o‘tsak.

Barchamiz bilamizki Intizom Nizomida intizomiy ta’zir berish tartibi aniq va ravshan holatda belgilab berilgan. Unga ko‘ra, harbiy intizomni buzgan yoki ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan harbiy xizmatchiga faqat ushbu Nizomda belgilangan va uning harbiy unvoniga tegishli intizomiy ta’zirlar va uni intizomiy javobgarlikka tortish to‘g‘risida qaror qabul qilgan komandir (boshliq)ning intizomiy hokimiyati doirasida choralar ko‘rilishi mustahkamlab qo‘yilgan.

“Bunday muammoning kelib chiqishiga, asosan, qanday omillar sabab bo‘lmoqda, kelgusida bunday muammolarning yechimi sifatida nimalarga alohida e’tibor qaratish lozim?” degan savol barchamizni o‘ylantirishi tabiiy hol, albatta.

Komandirlar (boshliq)lar tomonidan bo‘ysinuvchilariga nisbatan o‘z vakolatlaridan to‘g‘ri foydalanmayotganliklariga quyidagilarni sabab qilib ko‘rsatish o‘rinli:

bo‘ysinuvchi tomonidan sodir etilgan holatni chuqur muhokama qilmaslik;

haqiqatdan ham voqea bo‘ysinuvchisi tomonidan sodir etilganmi yo‘qmi ushbu holatni chuqur tahlil etmaslik;

unvon bermaslik uchun har xil choralar va to‘siqlik qilish, intizomiy ta’zir o‘tkazilgan xizmat va tergovga qadar tekshiruv hujjatlarini sinchkovlik bilan o‘rganmayotganliklari va tahlil qilinmayotganligi;

harbiy qism va muassasalardagi kengashlar tomonidan holat bo‘yicha muhokama yig‘ilishlarini rasmiylashtirishda sifatida boshqa harbiy qismlarga yuborish;

sodir etilgan hatti-harakatning xarakteri, sodir etilgan holat, uning oqibatlari, bo‘ysinuvchisining oldingi xulqi, xizmat o‘tashining davomiyligi va xizmat majburiyatlarini bilish darajasini o‘rganilmayotganligi;

komandirlar tomonidan aksariyat hollarda sodir etilgan holat yuzasidan adolatli qilinmayotganligi; qarorlarni qabul ko‘pgina hollarda komandir (boshliq) lar tomonidan intizomiy jazo berish ketma-ketligiga e’tibor qaratilmayotganligi;

ayrim hollarda sodir etilgan holatning kelib chiqish sabablari va ijtimoiy xavflilik darajasi nisbatan yengilroq bo‘lsa-da, Intizom Nizomining 45-moddasida belgilab qo‘yilgan harbiy xizmatchining mas’uliyati va burchi to‘g‘risida ogohlantirish amaliyotining qo‘llanmayotganligi;

ayrim komandir (boshliq)lar tomonidan intizomiy ta’sir ko‘rsatish vakolatidan chetga chiqish holatlari kuzatilayotganligi, ya’ni bo‘ysinuvchilarga hech qanday

xizmat yoki tergovga qadar tekshiruv o‘tkazmasdan, “Qattiq hayfsan” intizomiy ta’zir chorasini qo‘llanilayotganligi;

qo‘llanilgan ta’zir choralari hisobini pala-partishlik bilan yuritilayotganligi. Ta’zir chorasi o‘z tarbiyaviy ahamiyatini o‘tab, bo‘ysinuvchi o‘ziga to‘g‘ri xulosa chiqargan yoki chiqarmaganlik holati o‘z holiga tashlab qo‘yilib, hattoki muddati o‘tib ketgan ta’zir choralarini vakolatidan chetga chiqib, shaxsiy adovati nuqtai nazaridan bekor qilmasliklari; qo‘llanilgan ta’zir choralarini e’lon qilishda ayrim hollarda Intizom Nizomi talablariga zid ravishda, toifasidan qat’iy nazar butun shaxsiy tarkib oldida e’lon qilinayotganligi.

Bundan tashqari, ayrim holatlarda harbiy xizmatchilarga intizomiy ta’zir berish yoki tavsiya qo‘zg‘ash bo‘yicha Intizom Nizomining 89-moddasiga rioya etilmayotganligi, ya’ni qoida bo‘yicha intizomiy ta’zir berish yoki tavsiya qo‘zg‘ash bir sutkadan keyin, lekin bu haqda komandir (boshliqqa) ma’lum bo‘lgandan keyin, o‘n kun ichida amalga oshirishi lozim, deb ko‘rsatib o‘tilgan band talablarini buzilayotganligi. Shuningdek, komandir (boshliq) intizomiy ta’zir qo‘llash chog‘ida o‘z qo‘l ostidagi bo‘ysinuvchisining shaxsiy izzat-nafsini yerga urish yoki bo‘lmasa, unga nisbatan qo‘pollik qilish holatlari kuzatilmoqda. Yana bir achinarli holat va mavjud muammo shundaki, qonun va Nizom talablarini chuqur o‘rganmasdan, tahlil qilmasdan, aksariyat holatlarda o‘z mavqeidan foydalangan holda bo‘ysinuvchilarni Qurolli Kuchlar zahirasiga bo‘shatish kabi intizomiy ta’sir choralari qo‘llanilayotganligidir.

Bu borada barcha tizimlarda so‘nggi vatlarda sudlar tomonidan asossiz xizmatdan bo‘shatilib, qayta ishga tiklash holatlari ko‘plab uchrayotganligi, haqiqatdan ham harbiy xizmatchiga nisbatan qo‘llanilgan ta’zir choralari o‘rganib chiqilganda, ayrim komandir (boshliq)larning shaxsiy adovat yoki boshqa sabablarga ko‘ra, bo‘ysinuvchilarini asossiz ravishda xizmatdan bo‘shatayotganliklari bugungi kunda mansabdorlik lavozimida xizmat qilayotgan komandir (boshliq)larning qonun va Nizomlar talablarini chuqur o‘rganmayotganliklaridan dalolat bermoqda.

Vaholanki, Intizom Nizomida komandir (boshliq) larning o‘ziga berilgan intizomiy hokimiyatini oshirib yuborsa, buning uchun javobgarlikka tortiladi, deb belgilab qo‘yilgan.

Kelgusida komandir (boshliq) larning Qurolli Kuchlar tizimida aynan Intizomiy ta’sir ko‘rsatish hamda bu boradagi hujjatlarni rasmiylashtirilishda qonun talablariga rioya etmagan holda o‘z vakolatlari doirasidan chetga chiqish holatlari oldi olinmasa, harbiy xizmatchilarning huquq va manfaatlariga shuningdek, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligiga jiddiy putur yetkazuvchi quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarish ehtimoli yuqoriligicha qoladi:

bo‘ysinuvchilarning adolatsiz jazolanishi harbiy jamoada rahbarlarga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqarib, boshqaruvni izdan chiqishiga;

harbiy jamoalarda sog‘lom axloqiy-ruhiy muhitni yomonlashuviga;

jangovar shaylik, jangovar tayyorgarlk hamda harbiy intizomning zaiflashuviga;

harbiy xizmatchilarning asossiz ravishda tizimdan bo‘shatilishi, natijada kadrlar qo‘nimsizligini kelib chiqishiga; qo‘yilgan vazifani uyushqoqlik bilan, hamjihatlikda bajarilishini ta’minlashda ko‘zlangan maqsadga erisha olmaslikka.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda komandir (boshliq)larning vakolati doirasida bo‘ysinuvchilariga nisbatan ta’zir choralarini to‘g‘ri, adolatli va xolisona qo‘llashda quyidagilarni taklif etaman:

harbiy xizmatchilarga qo‘llaniladigan ta’zir choralarini qat’iy ravishda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Intizomi Nizomi va boshqa me’yoriy hujjatlar asosida amalga oshirishni ta’minlash;

komandir (boshliq)lar tomonidan bo‘ysinuvchilariga nisbatan og‘zaki intizomiy jazosini berishni qat’iyan ta’qiqlash;

harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan xatti-harakat chuqur tahlil etilgan holda, zururat tug‘ilsa, xizmat yoki tergovga qadar tekshiruv tayinlash, qolgan hollarda xizmat muhokamasi o‘tkazish amaliyotini keng qo‘llash;

tergovga qadar va xizmat tekshiruvlarini adolatli, xolis va qonun talablari asosida o‘tkazilishini ta’minlash maqsadida ishni tekshiruv o‘tkazilayotgan harbiy xizmatchiga qarindoshlik aloqasi bo‘lgan, xolisligi va beg‘arazligiga shubha tug‘diradigan asoslar, shu jumladan, shaxsiy adovati yoki xizmat tekshiruvi natijalaridan bevosita yoki bilvosita manfaatdorligi bo‘lgan mansabdor shaxslarga topshirmaslikka qattiq e’tibdor qaratish;

harbiy xizmatchilarga qo‘llaniladigan intizomiy ta’zir turlarining ketma ketligiga alohida e’tibor qaratish, bunda aybdor shaxslarning hatti-harkatlariga xolisona baho berilishini ta’minlash;

qo‘llanilgan intizomiy ta’zir o‘zining tarbiyaviy ahamiyatini o‘tagan hamda harbiy xizmatchi o‘ziga tegishli xulosa chiqargan holatda ta’zir chorasini bekor qilish bo‘yicha tavsiyalar kiritib borish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T:, 2023y.

2. Mirziyoyev Sh.M. “Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir” – 2017-yil.

3. Amir Temur tuzuklari.

4. O‘zbekiston Respublikasi Harbiy nizomlari. T:, 14.02.2025y

O‘QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISHDA XOTIRA VA SEZGI A’ZOLARI SHUNINGDEK SUNIY INTELEKT TEXNALOGIYALARINING O‘RNI.

Bekmurodov Abdurahmon Jasurbek o‘g’li
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
kunduzgi ta’lim 3-o‘quv kursi kursanti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ishida o‘quv mativlarining shakllanishida xotira va sezgi a’zolarining o‘rni shuningdek har bir insonda uchrab turadigan xotira buzilishining o‘quv motivlariga ta’siri, sezgi a’zolarining o‘quv motivlari shakllanishida tutgan o‘rni haqida qisqacha yoritib o‘tiladi va tahlil qilinadi.

Tayanch so‘zlar. Motivatsiya, ko‘z, burun, quloq, til, kinestik sezgi, operativ xotira, doimiy xotira, vaqtinchalik xotira, maslou extiyojlar ierarxiyasi,.

Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri - shaxsni faol, mustaqil va ijodkor fikrlaydigan, bilimlarni nafaqat qabul qilish, balki ularni amaliyotda qo‘llash qobiliyatiga ega qilishdir. Bunday maqsadga erishishda o‘quv motivatsiyasining roli beqiyosdir. O‘quv motivi - bu o‘quv faoliyatini boshqaruvchi ichki harakatlanish manbai bo‘lib, u o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan intilishini, ehtiyojini va qiziqishini ifodalaydi. Shu bilan birga, o‘quv motivlarining shakllanishida psixikaning boshqa asosiy funksiyalari - xotira hamda sezgi a’zolari (ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta’m bilish, tegish hissi) ham muhim rol o‘ynaydi. Chunki bilimlarning qabul qilinishi, saqlanishi va qayta ishlanishi sezgi orqali amalga oshiriladi, xotira esa o‘rganilgan ma’lumotlarni uzun muddat saqlash va kerakli paytda ularni tiklash imkonini beradi. Shu jihatdan, xotira va sezgi a’zolarining o‘quv motivlarini shakllantirishdagi o‘rni - pedagogik psixologiya sohasidagi dolzarb tadqiqot mavzularidan biridir. Zamonaviy ta’lim tizimi faqat bilim berish vositasi emas, balki shaxsni rivojlantirish, uning aql-idrok, ijodiy salohiyat, mustaqil fikrlash hamda ijtimoiy faolligini shakllantirishning strategik sohasidir. XXI asr bilim jamiyati sharoitida ta’lim sohasidagi asosiy e’tibor - o‘quvchilarning faol, ijodkor hamda o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan. Bunday jarayonning samaradorligi esa bevosita o‘quv motivatsiyasi darajasiga bog‘liq. O‘quv motivi - bu insonning bilim olishga qaratilgan ichki ehtiyoji, qiziqishi, maqsadlari hamda o‘quv faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabatlar majmuasidir. Psixologik jihatdan motiv - faoliyatni boshlab yuboruvchi, yo‘naltiruvchi hamda barqarorligini ta’minlovchi asosiy omildir. Bugungi kunda o‘quvchilarda ichki motivatsiyani rivojlantirish nafaqat o‘qitish samaradorligini oshirish, balki ularning kelajakdagi kasb-hunar tanlovi, o‘z-o‘zini rivojlantirish istagi hamda ijtimoiy

moslashuvchanligini ta’minlash nuqtai nazaridan ham dolzarb masaladir. Biroq, motivatsiya - bu alohida, izolyatsiya qilingan psixik hodisa emas. U insonning barcha kognitiv (idrok etish, xotira, diqqat, fikrlash) hamda sensor (sezgi) tizimlari bilan o‘zaro bog‘langan murakkab psixofiziologik jarayondir. Xususan, xotira va sezgi a’zolari o‘quv motivlarining shakllanishida asosiy vositalar sifatida ishlaydi. Chunki inson tashqi dunyoni faqat sezgi orqali idrok qiladi, so‘ngra bu axborot miyada qayta ishlanib, xotiraga tushiriladi. Agar sezgi tizimi yetarlicha faol bo‘lmasa, axborot to‘liq qabul qilinmaydi, agar xotira samarali ishlamasa, bilimlar tezda yo‘qoladi yoki noto‘g‘ri qayta tiklanadi. Natijada o‘quvchi “men buni tushunmayapman”, “men buni eslab qola olmayman” degan manfiy his-tuyg‘ular rivojlantiradi, bu esa motivatsiyani keskin pasaytiradi. Zamonaviy neyropsixologik tadqiqotlar ko‘rsatadiki, miyaning gippokamp sohasi - xotira va o‘rganish jarayonlarining markazidir. Bu soha sezgi orqali kelayotgan signallarga qanday munosabatda bo‘lishi, ularni saqlash yoki e’tiborsiz qoldirish kerakligini belgilaydi. Shu jihatdan, sezgi tajriba sifati to‘g‘ridan-to‘g‘ri xotiraga tushadigan ma’lumot sifatiga ta’sir ko‘rsatadi, bu esa o‘z navbatida o‘quvchining o‘quv faoliyatiga bo‘lgan munosabatini, ya’ni motivatsiyasini belgilaydi. Shuningdek, Gardner ko‘p aqllilik nazariyasida insonlarning turli sezgi kanallari orqali bilim olish usullarining farq qilishini ta’kidlab, o‘quv motivlarining shaxsiy xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Masalan, vizual aqlli o‘quvchilar rangli sxemalar, infografikalar orqali, auditor aqlli o‘quvchilar esa suhbat, musiqa yoki o‘qituvchining nutqi orqali motivlangan bo‘ladi. Bu esa o‘quv motivlarini shakllantirishda sezgi a’zolariga qanday yondashish kerakligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda “Ta’limni rivojlantirish milliy dasturi”da o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularning ichki motivatsiyasini rivojlantirish, shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish kabi tamoyillar alohida ta’kidlangan. Bunday tamoyillarni amalga oshirishda esa xotira hamda sezgi a’zolarining potensialidan to‘liq foydalanish - samarali yechimlardan biridir. Shu sababli, “O‘quv motivlarini shakllantirishda xotira va sezgi a’zolarining o‘rni” mavzusi nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy pedagogik faoliyat uchun ham dolzarbdir. Ushbu maqolada xotira turlari, sezgi a’zolarining o‘quv jarayonidagi funksiyalari, ularning o‘quv motivatsiyasi rivojlanishidagi o‘zaro bog‘liqligi hamda zamonaviy o‘qitish metodologiyasidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqola natijasida o‘qituvchilar, psixologlar hamda ta’lim menejerlari uchun amaliy tavsiyalar ham taklif etiladi.

O‘quv motivlari: Zamonaviy tushuncha, turlari va rivojlanish dinamikasi O‘quv motivi - bu faqat “nima uchun o‘qiyman?” degan savolga javob emas, balki o‘quvchining butun shaxsiyati, uning dunyoqarashi, ehtiyojlari, qadriyat tizimi hamda kelajakka nisbatan rejalari bilan chambarchas bog‘langan murakkab psixologik

tuzilma hisoblanadi. Zamonaviy psixologiya o‘quv motivlarini quyidagi asosiy guruhlarga ajratadi:

Ichki motivlar: Bilim olish qiziqishi, yangi narsalarni kashf qilish istagi, shaxsiy rivojlanish ehtiyoji. Bu motivlar barqaror va uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatadi.

Tashqi motivlar: Baholash, mukofot, tan olinish, imtihondan o‘tish kabi tashqi omillarga asoslanadi. Ular qisqa muddatli ta’sir qiladi, lekin ichki motivatsiya shakllanishida dastlabki bosqich sifatida ahamiyatga ega.

Integratsiyalangan motivlar: Tashqi maqsadlar shaxsning ichki qadriyat tizimiga singib ketganda vujudga keladi (masalan, “men kimyoni o‘qiyman, chunki kelajakda dorixona ochishni xohlayman”). Zamonaviy tadqiqotlar ko‘rsatadiki, faqat 37% o‘quvchilarda barqaror ichki motivatsiya mavjud. Qolganlarning aksariyati tashqi bosim yoki ijtimoiy kutishlar tufayli o‘qiydi. Shu sababli ham motivatsiyani shakllantirishda sezgi tajriba va xotira samaradorligi kabi kognitiv omillarni hisobga olish zarur.

Xotira: neyropsixologik asoslar va o‘quv motivatsiyasiga ta’siri Xotira inson miyasining eng murakkab funksiyalaridan biri bo‘lib, u faqat “eslab qolish” emas, balki axborotni qayta ishlash, tahlil qilish hamda yangi bilimlar bilan bog‘lash jarayonidir. Zamonaviy neyrofan bilimlarga ko‘ra, xotira quyidagi turlarga bo‘linadi:

Xotira turi xususiyatlari o‘quv motivatsiyasiga ta’siri Sensor xotira Sezgi orqali 1–3 soniyaga saqlanadigan axborot (ko‘rish, eshitish) Darsdagi diqqatni jamlash, dastlabki qiziqishni uyg‘otish.

Qisqa muddatli xotira 15–30 soniya davomida saqlanadi, 7±2 birlik axborot sig‘adi. Yangi mavzuni tushunish, savol-javobda ishtirok etish.

Uzoq muddatli xotira. Cheksiz hajmli, ko‘p marta takrorlangan yoki hissiy jihatdan kuchli axborot. Bilimlarning barqarorlikka ega bo‘lishi, o‘z-o‘ziga ishonch hissi.

Operativ xotira. Axborotni qayta ishlash va fikrlash jarayonida vaqtinchalik saqlash. Murakkab masalalarni yechish, ijodiy fikrlash.

Gippokamp - miyaning xotira markazi bo‘lib, u sezgi orqali kelayotgan axborotlarni “muhim” yoki “ahamiyatsiz” deb saralaydi. Agar axborot hissiy jihatdan kuchli (masalan, qiziqarli, hayotiy, o‘yinli) bo‘lsa, gippokamp uni uzoq muddatli xotiraga uzatadi. Aks holda, axborot yo‘qoladi. Shu jihatdan, o‘qituvchining vazifasi - dars materialini shunday taqdim etishki, u o‘quvchining gippokampiga “muhim!” signalini yuborsin. Shuningdek, emotsional xotira ham motivatsiyaga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, o‘quvchi biror darsda muvaffaqiyat qozongan bo‘lsa, shu tajriba ijobiy his-tuyg‘ular bilan bog‘lanib, xotiraga mustahkam tushadi. Kelajakda shu fan yoki mavzu haqida eslatma berilganda, o‘quvchi avtomatik ravishda ijobiy reaksiya ko‘rsatadi - bu esa motivatsiyani kuchaytiradi.

Sezgi a’zolari: Multisensory o‘qitishning ilmiy asoslari.

Sezgi a’zolari - insonning tashqi dunyoni idrok etishning yagona vositalaridir. Har bir sezgi a’zosi miyaga alohida yo‘l orqali signal uzatadi: Ko‘rish → occipital korteks, Eshitish → temporal korteks, Tegish → parietal korteks, Hid bilish → limbik tizim (his-tuyg‘ular markazi), Ta’m bilish → insular korteks.

Zamonaviy pedagogikada multisensory (ko‘psezgili) o‘qitish - eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Unga ko‘ra, o‘quv materiali bir vaqtning o‘zida bir nechta sezgi kanallari orqali taqdim etilsa, axborot miyada chuqurroq iz qoldiradi va motivatsiya kuchayadi.

Amaliy misollar:

Kimyo darsida: O‘quvchilar nafaqat reaksiya tenglamasini yozadi, balki laboratoriyada reaksiyani kuzatadi (ko‘rish), gaz hidini sezadi (hid bilish), eritmani aralashtiradi (tegish). Natijada, bilim “hayotiy” bo‘lib qoladi.

Tarix darsida: O‘quvchilar faqat darslikdan o‘qimay, balki tarixiy kostyumlar kiyib, voqealarni sahna qiladi (tegish + ko‘rish + eshitish). Bu esa emotsional xotirani rag‘batlantiradi.

Matematika darsida: Raqamlar va formulalar faqat doskada emas, balki 3D modellar, interaktiv dasturlar yoki jismoniy obyektlar (kubiklar, shakllar) orqali o‘rganiladi.

Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, multisensory o‘qitishdan foydalangan sinflarda o‘quvchilarning bilim darajasi o‘rtacha 32% ga, motivatsiya darajasi esa 45% ga oshadi. Xotira, sezgi va motivatsiya o‘rtasidagi neyrobiologik bog‘lanish Zamonaviy fMRI (funktsional magnit-rezonans tomografiyasi) tadqiqotlari inson miyasida sezgi → xotira → motivatsiya ketma-ketligining neyrobiologik asosini isbotlab bergan: Sezgi signallari miyaning sensor kortekslariga tushadi. Agar signal his-tuyg‘ular bilan bog‘langan bo‘lsa (masalan, qiziqarli, hayajonli, yangi), u limbik tizim (gippokamp + amigdala) orqali uzoq muddatli xotiraga uzatiladi. Xotiraga tushgan ma’lumot prefrontal korteksda qayta ishlanib, o‘quvchida “men buni tushundim”, “men buni bajara olaman” degan his uyg‘onadi. Bu his esa dopamin (motivatsiya neyrotransmitteri) ajralishiga sabab bo‘lib, yangi o‘quv faoliyatiga intilishni kuchaytiradi. Shu tarzda, dopamin-xotira-sezgi uchburchagi o‘quv motivatsiyasining neyrobiologik asosini tashkil qiladi. Agar bu tizimda biror uzilish bo‘lsa (masalan, diqqat yetishmovchiligi, sensor integratsiya buzilishi), motivatsiya ham pasayadi.

Innovatsion yondashuvlar: sun’iy intellekt, VR va o‘yinlashtirish Zamonaviy texnologiyalar xotira hamda sezgi orqali motivatsiyani kuchaytirishda yangi imkoniyatlar ochmoqda: Virtual haqiqat (VR): Tarix, geografiya, biologiya kabi fanlarda o‘quvchilarga “hayotiy” tajriba beradi. Masalan, VR orqali qadimiy Rimga

sayohat qilish yoki hujayra ichiga kirish - bu ko‘rish, eshitish, hatto “harakat” sezgisi orqali bilim olishdir.

O‘yinlashtirish (Gamification): Ballar yulduzchalar, bosqichlar kabi elementlar dopamin ajralishini rag‘batlantirib, o‘quvchini doim yangi maqsadga intilishga undaydi.

Sun’iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan o‘qitish: AI o‘quvchining xotira turini (vizual, auditor), diqqat darajasini, hatto ko‘z harakatlarini tahlil qilib, unga mos material taqdim etadi. Bu esa sezgi va xotira samaradorligini maksimal darajada oshiradi. Masalan, Duolingo, Khan Academy, Quizlet kabi ilovalar aynan shu prinsiplarga asoslanadi: ular o‘quvchini doim “bir qadam oldinda” ushlab turadi, unga yetarlicha qiyinchilik ham, yetarlicha muvaffaqiyat ham beradi - bu esa motivatsiyani barqaror saqlashning ilmiy asosidir.

O‘zbekiston sharoitida amaliy tavsiyalar O‘zbekiston ta’lim tizimida xotira va sezgi a’zolarini hisobga olgan holda o‘quv motivlarini shakllantirish uchun quyidagi chora-tadbirlar taklif etiladi: Darslarni multisensory qilish: Har bir darsda kamida 2–3 ta sezgi a’zosi jalb qilinsin (masalan, matn + rasm + audio).

Xotira strategiyalarini o‘rgatish: “Xotira xaritalari”, “spetsifik qayta tiklash”, “tarqoq amaliyot” kabi usullarni o‘quvchilarga o‘rgatish.

Emotsional aloqani kuchaytirish: O‘qituvchi o‘quvchilarga “siz buni bajara olasiz” degan ishonchni doim berib turishi kerak.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish: Interaktiv doskalar, VR-glasses, o‘yinlashtirilgan testlar kabi vositalarni joriy etish.

Individual yondashuv: O‘quvchilarning dominant sezgi turini (vizual/auditor/kinestetik) aniqlab, ularga mos materiallar tayyorlash.

O‘quv motivi - bu nafaqat “nima uchun o‘qiyman?”, balki “men kimman?” degan savolga beriladigan javobning bir qismidir. U insonning dunyoni qanday idrok qilishiga, o‘tgan tajribasini qanday qayta tiklashiga hamda kelajakka qanday qarashiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, motivatsiya - bu alohida “ichki olov” emas, balki sezgi a’zolari orqali tashqi dunyodan kirayotgan nur hamda xotira orqali saqlanayotgan issiq o‘rtasidagi barqaror almashinuv natijasidir. Zamonaviy neyrofan, psixologiya hamda pedagogika sohasidagi yutuqlar birgalikda isbotlab beradiki: Agar o‘quvchi darsda ko‘rmasa, eshitmasa, his qilmasa, u eslab ham qolmaydi, natijada istamay ham qoladi. Aksincha, agar bilim unga ko‘z orqali rang sifatida, quloq orqali musiqa sifatida, qo‘l orqali harakat sifatida yetib kelsa, miya bu axborotni “hayot uchun muhim” deb e’lon qiladi. Shu paytdan boshlab bilim nafaqat o‘rganiladigan narsa, balki shaxsning bir qismiga aylanadi. Shu jihatdan, zamonaviy o‘qituvchi nafaqat bilim yetkazuvchi, balki sezgi arxitekti ham, xotira landshaftini loyihalovchi bog‘bon hamdir. U o‘quvchining ko‘ziga qanday

rang solishini, quloqqa qanday tovush yetkazishini, qo‘liga qanday material berishini bilishi kerak. Chunki aynan shu aralashma ko‘rishning hayojoni, eshitishning ritmi, tegishning haqiqati o‘quvchida “men buni tushundim!” degan lahzani, ya’ni motivatsiyaning tug‘ilish lahzasini yaratadi. Bugungi kunda ta’lim - nafaqat aqlni, balki barcha sezgi va xotira resurslarini jalb qiluvchi san’atga aylanayotgan davrda, o‘quv motivlarini shakllantirishda xotira va sezgi a’zolarini hisobga olmaslik - insonning potensialini yarmiga qisqartirish demakdir. Shu sababli, kelajakdagi ta’lim faqat interfaol emas, balki multisensory, neyrojiddiy hamda shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Xulosa qilib aytganda, har bir o‘quvchi noyob sezgi dunyosi va xotira arxiviga ega. Ularning potensialini ochish nafaqat pedagogik vazifa, balki insonparvarlik san’atidir va aynan shu san’at orqali biz nafaqat bilimdon avlod, balki his qiluvchi, eslab qoluvchi hamda intiluvchan yangi shaxslar avlodini tarbiyalaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bozorov, M. (2018). Pedagogik psixologiya. Toshkent: Sharq.
2. Leontyev, A. N. (1975). Faoliyat, ong, shaxsiyat. Moskva: Smysl.
3. Mayer, R. E. (2021). Multimedia learning (3rd ed.). Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/9781108985535
4. Ormond, J. E. (2012). Human learning (6th ed.). Pearson Education.
5. Rubinshteyn, S. L. (1940). Inson psixologiyasi asoslari. Moskva: Pedagogika.
6. Sousa, D. A. (2017). How the brain learns (5th ed.). Corwin Press.
7. Sousa, D. A. (2022). How the brain learns: Applications to teaching and learning. Learning Sciences International.
8. Vygotskiy, L. S. (1991). Pedagogik psixologiya. Toshkent: O‘qituvchi.

HARBIY XIZMATCHILAR FAOLIYATIDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

M.L.Saipova
“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi dotsenti
N.M.Axmedov
“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” yo‘nalishi 2-bosqich kursanti

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy harbiy tizimlarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanishning mavjud holati, amaliy imkoniyatlari va istiqbollari tahlil qilinadi. Sun’iy intellektning taktik boshqaruv, axborotlarni qayta ishlash, qaror qabul qilish, razvedka, logistika, shaxsiy tarkibni tayyorlash hamda psixologik qo‘llab-quvvatlash jarayonlaridagi o‘rni ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, SI joriy etilishining xavfsizlik, etik va huquqiy jihatlari bo‘yicha ilmiy mulohazalar ilgari suriladi.

Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi global miqyosda harbiy xavfsizlik tizimlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Zamonaviy qurolli to‘qnashuvlarda axborot ustuvorligi, tezkor tahlil, robotlashtirilgan platformalar, kiberxavfsizlik va intellektual boshqaruv tizimlari davlatlarning mudofaa salohiyatini belgilovchi strategik omillarga aylandi. Bunday sharoitda harbiy xizmatchilar faoliyatida SIdan foydalanish masalasi nafaqat texnologik yangilik, balki milliy xavfsizlikni mustahkamlashning muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishi sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.Harbiy operatsiyalar ko‘lami, tezligi va murakkabligi ortib borar ekan, insonning individual kognitiv imkoniyatlari real vaqt rejimida katta hajmdagi ma’lumotni qayta ishlashda ba’zan cheklovlarga ega bo‘ladi. SI esa murakkab axborotlarni soniyalar ichida tahlil qilish, vaziyatni modellashtirish, xavf-xatarlarni prognozlash va optimal qaror variantlarini taklif etish orqali harbiy boshqaruv samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, harbiy xizmatchilar hayoti uchun xavfli bo‘lgan razvedka, minadan tozalash, jangovar kuzatuv kabi vazifalarni robotlashtirilgan platformalar orqali bajarish imkoniyatini yaratadi.

O‘zbekiston Qurolli Kuchlari uchun SI texnologiyalarini joriy etish strategik ahamiyatga ega, chunki u nafaqat jangovar samaradorlikni oshiradi, balki psixologik tayyorgarlik, harbiy ta’lim, logistika va kiberxavfsizlik sohalarida ham yangi yechimlarni taklif etadi. Sun’iy intellektning harbiy sohaga kirib kelishi global miqyosda keng ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, SI harbiy jarayonlarda inson intellektining o‘rnini to‘liq bosmaydi, lekin qaror qabul qilish, axborot tahlili va vaziyatni prognozlash kabi yo‘nalishlarda

sezilarli ustunliklar yaratadi. SI texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha ilmiy munozaralar asosan quyidagi yo‘nalishlarda davom etmoqda:

1. SI yordamida harbiy boshqaruvni modernizatsiya qilish. Ko‘plab olimlar SI algoritmlari real vaqt rejimida katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlashi natijasida qo‘mondonlar uchun optimal taktik tavsiyalar yaratishini ta’kidlaydi. Bu ayniqsa yuqori xavfli operatsiyalarda inson xatosini sezilarli kamaytiradi.

2. Avtonom va yarim avtonom qurollar masalasi. Bu yo‘nalish eng ko‘p bahs-munozaralarga sabab bo‘layotgan mavzulardan biridir. Bir guruh tadqiqotchilar avtonom dronlar va robotlashtirilgan jangovar tizimlar harbiy samaradorlikni oshiradi deb hisoblashsa, boshqa mutaxassislar bunday qurollarning etik cheklovlari, nazoratdan chiqish ehtimoli va javobgarlik masalalariga e’tibor qaratadi.

3. Harbiy psixologiyada SI qo‘llanilishi. Zamonaviy harbiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, SI algoritmlari stress darajasini monitoring qilish, xizmatchilarning hissiy barqarorligini o‘lchash va ruhiy charchashning erta belgilarini aniqlashda samarali mexanizm bo‘la oladi. Bu esa harbiy psixologik yordam tizimini yangi darajaga olib chiqadi.

4. SI yordamida harbiy ta’limni takomillashtirish. Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) bilan integratsiyalashgan SI simulyatorlari yuqori murakkab jangovar vaziyatlarni xavfsiz sharoitda takrorlaydi, xizmatchilarning intellektual, psixologik va taktik tayyorgarligini oshiradi.

5. Xavfsizlik va kiberxavf masalalari. SI tizimlarining o‘zi ham kiberhujumlar nishoni bo‘lishi mumkinligi sababli, bu sohada qo‘shimcha himoya mexanizmlarini yaratish dolzarb hisoblanadi. Tadqiqotchilar SIning o‘zini himoya qiluvchi algoritmlariga oid yangi ilmiy yondashuvlarni taklif etmoqda.

Shuningdek, SI texnologiyalarining jadal rivojlanishi harbiy xizmatchilarning professional kompetensiyasiga qo‘yiladigan talablarni oshirmoqda. Endilikda xizmatchilar nafaqat jangovar tayyorgarlikka, balki raqamli tafakkurga ega bo‘lishlari, SI tizimlari bilan hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini puxta egallashlari zarur.

Sun’iy intellektning harbiy sohadagi asosiy afzalliklari quyidagicha:

- Katta hajmdagi axborotni qayta ishlash: SI real vaqt rejimida minglab signallar, xaritalar, razvedka ma’lumotlari, sensorlar oqimini qayta tahlil qilib, komandirga optimal qaror variantlarini taklif qiladi.
- Taktik bashorat qilish: jang maydonidagi vaziyatni simulyatsiya qilish, ehtimoliy dushman harakatlarini oldindan prognozlash imkonini beradi.
- Avtonom boshqaruv tizimlari: dronlar, robotlashtirilgan platformalar, razvedka vositalari SI yordamida mustaqil tarzda harakatlanishi mumkin.

• Kiberxavfsizlik: SI asosidagi algoritmlar kiberhujumlarni aniqlash, profiling qilish va ularning oldini olishda yuqori samaradorlik ko‘rsatadi.

Harbiy xizmatchi uchun SI nafaqat texnik yordamchi, balki intellektual qarorlar sifati va tezligini oshiruvchi muhim instrument sifatida qaraladi.

Razvedka va axborot tahlili. Razvedka ma’lumotlari ko‘lami keskin oshgani sabab past darajadagi insoniy resurslar uni sifatli qayta ishlashga ulgurmaydi. SI algoritmlari quyidagi vazifalarni bajaradi:

• sun’iy yo‘ldosh suratlarini avtomatik tahlil qilish;
• yashirin obyektlarni aniqlash va tasniflash;
• dushman faolligi bo‘yicha statistik model yaratish;
• kutilayotgan xavf darajalarini baholash.

Bu jarayonlar harbiy xizmatchining analitik yuklamasini kamaytiradi, natijada u strategik tahlilga ko‘proq e’tibor qaratishi mumkin.

Operativ boshqaruv va qaror qabul qilish. Harbiy rahbarlar stressli sharoitda soniyalar ichida qaror qabul qilishga majbur bo‘ladilar. SI:

• vaziyat bo‘yicha alternativ yechimlar yaratadi;
• qarorlarning oqibatini prognozlaydi;
• jangovar operatsiyalarni modellashtiradi;
• qo‘shinlar joylashuvi bo‘yicha eng optimal variantlarni taklif qiladi.

Avtonom jangovar tizimlar. SI asosidagi avtonom platformalar quyidagilardan iborat:

• jangovar dronlar;
• razvedka robotlari;
• yerosti va suvosti avtonom apparatlari;
• portlashdan himoyalangan robotlashtirilgan evakuatsiya vositalari.

Bu vositalar harbiy xizmatchilar hayotiga xavf tug‘diruvchi vazifalarni ularsiz bajarish imkonini beradi.

Harbiy ta’lim va simulyatsiya. SI harbiy xizmatchilarni o‘qitishda quyidagi innovatsion usullarni yaratmoqda:

• virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) asosida jangovar simulyatsiyalar;
• intellektual trenerlar va adaptiv ta’lim tizimlari;
• psixologik chidamlilikni sinovdan o‘tkazuvchi simulyatorlar.

Bu texnologiyalar real jangovar vaziyatni xavfsiz muhitda modellashtirib, xizmatchining kognitiv va psixologik tayyorgarligini oshiradi.

Harbiy psixologiya sohasida SI quyidagi jarayonlarni takomillashtiradi:

• psixodiagnostika: xulq-atvor naqshlari, stress indikatorlari, ruhiy holat dinamikasini avtomatik tahlil qilish;
• psixoprofilaktika: xavf guruhidagi xizmatchilarni erta aniqlash;

- psixologik monitoring: xizmat davomida emotsional barqarorlik indekslarini kuzatish;
- krizis intervensioni: SI chatbotlar va intellektual suhbatdosh modellar yordamida dastlabki psixologik yordam.

Ushbu yondashuvlar psixologning yuklamasini kamaytiradi va inson omili tufayli kechikadigan baholash jarayonlarini avtomatlashtiradi.

Harbiy operatsiyalarda ta’minot zanjiri uzluksiz bo‘lishi strategik ahamiyatga ega. SI:

- logistika marşrutlarini optimallashtiradi;
- yoqilg‘i, o‘q-dorilar va oziq-ovqat sarfini prognozlaydi;
- texnik xizmat ko‘rsatish vaqtini bashoratlaydi;
- omborlarda inventarizatsiya jarayonini avtomatlashtiradi.

Bu esa qo‘shinlarning uzoq muddatli operatsion barqarorligini ta’minlaydi.Dunyo ilmiy hamjamiyatida SI asosidagi o‘lim keltiruvchi avtonom boshqarish masalasi keskin muhokama qilinmoqda. Asosiy xavf — insonning qaror qabul qilish zanjiridan butunlay chiqarib tashlanishi. SI tizimlari kiberhujumlar uchun yangi nishonlarga aylanmoqda. «Ma’lumotlarni zaharlash», «algoritmik manipulyatsiya», «model o‘g‘irlash» kabi tahdidlar mavjud.

SIga doir normativ-huquqiy baza ko‘plab davlatlarda endigina shakllanmoqda. Harbiy qo‘llanish uchun aniq standartlar va xavfsizlik protokollari talab etiladi. SIning harbiy amaliyotga kiritilishi quyidagi etik talablarni yuzaga keltiradi:

- inson hayoti ustuvorligi;
- javobgarlik subyekti aniqligi;
- algoritmlar shaffofligi va kuzatuvchanligi;
- insonning boshqaruvdagi yetakchi roli.

O‘zbekiston harbiy tizimida SIni joriy etish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlar istiqbolli:

1. Raqamli harbiy-analitik markaz tashkil etish.
2. Avtonom razvedka dronlarini milliy sharoitda ishlab chiqish.
3. Harbiy ta’lim tizimida VR/AR simulyatorlaridan keng foydalanish.
4. Psixologik monitoringning raqamlashtirilgan platformasini yaratish.
5. Logistika va harbiy ta’minotni optimallashtirish bo‘yicha intellektual tizimlar.
6. Kiberxavfsizlik bo‘yicha SI laboratoriyasini yo‘lga qo‘yish.

Bu yo‘nalishlar milliy xavfsizlikni mustahkamlash va harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalarining harbiy xizmatchilar faoliyatida qo‘llanilishi zamonaviy mudofaa tizimining ajralmas

elementi sifatida tobora kengayib bormoqda. SI harbiy operatsiyalarning muvaffaqiyatini ta’minlashda yangi strategik ustunliklar yaratadi, inson omiliga bog‘liq xatolarni kamaytiradi, jangovar jarayonlarni optimallashtiradi va harbiy xizmatchilarning xavfsizligi hamda samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Krasilo A.I. Psixologicheskoe konsultirovanie posttravmaticheskix sostoyaniy / A.I. Krasilo. - M.: Moskovskiy psixologo-soцialnыy institut, 2004. – 96.

2. Osuxova N.G. Psixologicheskaya pomoщ v trudnыx i эkstremalnыx situaцiyax / N.G. Osuxova. - M.: Akadema, 2005. - 283 s.

3. Polinak A.V. Korrekцiya simptomov otsrochennogo posttravmaticheskogo stressovogo rasstroystva u voennoslujaщix - veteranov sovremennыx voorujennыx konfliktov / A.V. Polinak // Adaptivnaya fizicheskaya kultura. -2007. - № 1 (29). - S. 45 – 49

ROTATSION ADAPTATSIYANING HARBIY XIZMATCHI OILASIDAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TA’SIRI

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi o‘qituvchisi, psixol.f.b.f.d (PhD)
Sa’dullayev Abdulhafiz
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash yo‘nalishi 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: Harbiy xizmat tizimida shaxs xarakterini tarbiyalash doimo markaziy o‘rinda bo‘lib kelgan. Harbiy g‘alaba faqat qurol-yarog‘ kuchiga emas, balki xizmat qilayotgan shaxsning ruhiy qudrati va axloqiy qiyofasiga ham tayanadi. Ayniqsa ofitserlar zimmasiga nafaqat jangovar boshqaruv, balki askarning shaxsiy kamoloti va axloqiy qiyofasini shakllantirish mas’uliyati yuklatiladi. Biroq bugungi kunda harbiy shaxsning individualligi faqat xizmat samaradorligi bilan emas, balki oilaviy muhitning barqarorligi va psixologik farovonligi bilan ham chambarchas bog‘liq. Shu sababli, harbiy xarakterning tarkibiy qismlarini oilaviy tizimga ko‘rsatadigan ta’siri bilan birga ko‘rish zarur.

Kalit so‘zlar: harbiy xarakter, harbiy shaxs xususiyatlari, stress, agressiya, depressiya, symptom, professional orientatsiya, rotatsion adaptatsiya.

Harbiy xizmatchilar oilasi kasbiy faoliyat oilaviy munosabatlar chatishtiriladigan noyob ijtimoiy-psixologik tizimdir. Xizmatning xavf va beqarorliklari fonida umumiy oilaviy qadriyatlarni shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash er-xotin jipsligini mustahkamlaydi, stressga chidamlilikni oshiradi, ijtimoiy funksiyalarni barqarorlashtiradi. Psixologik konsultatsiya va harbiy psixologlar tizimli ishtiroki bu jarayonning markaziy mexanizmi bo‘lib, natijada nafaqat oilaviy farovonlik, balki harbiy xizmatchining xizmat samaradorligi ham ortadi; bu esa o‘z navbatida davlat mudofaa salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Xizmatning xavfli sharoitlari, uzoq muddatli stress, psixologik zo‘riqish, jangovar holatlar, jarohatlar va oiladan uzoqda bo‘lish holatlari bularning barchasi ruhiy buzilishlar, jumladan depressiyaning rivojlanishiga sabab bo‘ladi. AQSHda o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, Iroq va Afg‘onistonda xizmat qilgan harbiylarning 15 foizi depressiya simptomlarini boshdan kechirgan. Mutaxassislar bu ko‘rsatkich real holatda yanada yuqori bo‘lishi mumkinligini ta’kidlashadi, chunki ko‘plab harbiylar psixiatrik yordamga murojaat qilmaydilar. Bundan tashqari, jangovar xizmat chog‘ida bosh miyaning chayqalishi yoki boshqa turdagi travmalar miyada organik o‘zgarishlarni keltirib chiqarib, depressiv simptomatikani kuchaytirishi mumkin.

Psixologiyada xarakter shaxsning tashqi olam va o‘ziga nisbatan munosabatlarini ifodalovchi, turli sharoitlarda xulq-atvorini belgilaydigan nisbatan barqaror sifatlar majmui sifatida talqin qilinadi. Harbiy xarakter esa kasb talablari bilan uyg‘un bo‘lgan, kasbga xos qadriyatlar va o‘zini tutish me’yorlarini ifodalovchi sifatlar tizimidir. Ana shu sifatlar majmui nafaqat xizmatdagi qarorlar va xatti-harakatlarga, balki oiladagi rollar taqsimoti, muloqot sifati, ota-onalik amaliyoti va turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi emotsional yaqinlikka ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Harbiy xarakter murakkabligi, avvalo, unga qo‘yiladigan talablar ziddiyatidan kelib chiqadi. Bu ziddiyatlar xizmat samaradorligi uchun zarur bo‘lsa-da, ularni psixologik jihatdan muvozanatlash oilaviy muhit barqarorligi uchun ham shartdir.

Harbiy kasb qat’iyat, jasorat, dadillik, tezkor qaror kabi irodaviy fazilatlarni talab etadi. Bu sifatlar jangovar vaziyatda ijobiy, oilada esa ikkiyoqlama ta’sir qiladi. Bir tomondan, qat’iyatlilik oilada ishonch va barqarorlik hissini mustahkamlaydi: turmush o‘rtog‘i va farzandlar “tayanch” shaxsga suyanadi. Ikkinchi tomondan, haddan tashqari qattiqqo‘llik muloqotda bir tomonlama buyruq-ohangga, hissiyotlarni bildirishdan tiyilishga, yaqinlikning sovishiga olib kelishi mumkin. Oilaviy muhit uchun zarur bo‘lgan g‘amxo‘rlik, odoblilik, do‘stona hamkorlik va vatanparvarlik ruhidagi tarbiya bularning barchasi harbiy shaxsning emotsional va axloqiy qiyofasi bilan uyg‘unlashgandagina bolalarda xavfsizlik hissi, me’yoriy tartib, ota-onaga ishonch barqaror bo‘ladi.

Xizmatning o‘ziga xosligi doimiy xavf, yuqori javobgarlik va noaniqlik harbiy shaxsdan yuqori stressga chidamlilikni talab etadi. Bu sifat oilada tinchlik, barqaror his-tuyg‘u, davra-odatiy rejimni ta’minlashga yordam beradi. Ammo xizmat stressini oilaga “ko‘chirib kelish” xavfi ham real: charchoq, tezkor buyruq-ohang, past sabr darajasi oilada taqiqlovchi muloqot, haddan ziyod talabchanlik va buzilgan emotsional aloqaga olib kelishi mumkin. Shuning uchun harbiy shaxs o‘z psixik o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini uyda ham ongli qo‘llashi zarur: tensiya tushiruvchi mashqlar, suhbatga tayyorlik, bolalar his-tuyg‘ularini nomlash va tinglash, turmush o‘rtog‘i bilan teng bahs madaniyati va hokazo.

Oila har qanday shaxs uchun hayotiy qadriyatlar manbai bo‘lsa, harbiy xizmatchi uchun bu qadriyat yanada yuksak ma’no kasb etadi. Harbiy shaxs uchun oila nafaqat shaxsiy baxt va hissiy tayanch manbai, balki axloqiy-psixologik barqarorlik, kasbiy faoliyatdagi samaradorlik va harbiy jamoa ichidagi sog‘lom muhitni shakllantirish omilidir. Psixolog G.M.Andreyeva ta’kidlaganidek, oila kichik ijtimoiy guruh sifatida shaxsning ijtimoiylashtiruvchi mexanizmlarini faol ishga soladi; unda “shaxsning ichki dunyosi” ijtimoiy rollar tizimi orqali rivojlanadi [1]. Shu bois, harbiy oilani ijtimoiy birlik sifatida tahlil qilishda uning xizmatga xos psixologik o‘ziga xosliklarini hisobga olish zarur. Harbiy sotsiologlar va psixologlar

tomonidan harbiylarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga bag‘ishlangan kuzatuvlar natijasida bir qator muhim tendensiyalar aniqlangan. Yosh ofitserlar orasida turmush qurmaganlar soni ikki baravar oshgan. Nikoh yoshining o‘rtacha ko‘rsatkichi 23-24 yoshdan 28-30 yoshgacha siljigan. Har ikki yosh oiladan birida farzand yo‘q yoki faqat bitta bola mavjud. Ko‘p hollarda bola 3-5 yillik turmush tajribasidan so‘ng tug‘ilmoqda. Ajralishlar sonining ko‘payishi nafaqat axloqiy-insoniy qadriyatlar inqirozi, balki harbiy xizmatning o‘ziga xos omillari (uzoq safarlar, joy almashish, ruhiy zo‘riqish) bilan bog‘liq. Xizmat majburiyatlari tufayli oilaviy muloqotning yetishmasligi oilaning ruhiy iqlimiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zi hollarda turmush o‘rtog‘ining harbiy burch ijtimoiy ahamiyatini to‘liq anglamasligi oilaviy ziddiyatlar manbai bo‘lib chiqadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erkak-harbiylar uchun asosiy qadriyatlar muhabbat, farzandlar va o‘zaro tushunish, ayollar uchun esa bolalar, er, sog‘lik va oilaviy tinchlik (Solovyova, 2020). Harbiy erkaklar oilani “ruhiy tayanch va tiklanish maydoni” sifatida ko‘radi; ular uchun uy shunchaki yashash joyi emas, balki axloqiy va hissiy barqarorlikni tiklovchi makondir.

Psixolog L.I.Antsyferova qayd etadi: “Insonning ruhiy barqarorligi ko‘p hollarda uning yaqinlar bilan bo‘lgan iliq munosabatlari, mehr-muruvvat muhiti va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanish tizimiga bog‘liq”[4]. Shundan kelib chiqib, harbiy oilaning psixologik sog‘lomligi xizmat samaradorligi va shaxsning irodaviy-axloqiy barqarorligi garovidir. Oila psixologiyasi qonuniyatlariga ko‘ra [3], shaxsiy moslikning ikki darajasi mavjud:

- tug‘ma farqlar (temperament, jins, fiziologik tizimlar) kontrastli bo‘lishi ma’qul;
- ijtimoiy orttirilgan xususiyatlar (tarbiya, qadriyatlar, maqsadlar) o‘xshash bo‘lishi kerak.

Demak, harbiy oila barqarorligi uchun farqlilik (iroda, qat’iyat) hissiy uyg‘unlik bilan muvofiqlashgan bo‘lishi zarur.

Shunday qilib, harbiy shaxs uchun oila bu axloqiy tayanch, psixologik barqarorlik manbai va ruhiy energiya zaxirasidir. Oilaviy totuvlik harbiy xizmatchining hissiy turg‘unligini oshiradi, stresslarni yumshatadi, o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi va xizmat samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Psixolog S. L.Rubinshteyn aytganidek, “insonning ruhiy hayoti tashqi sharoitlardan emas, balki ichki munosabatlar tizimidan boshqariladi”. Demak, harbiy oila bu insonparvarlik, fidoyilik va sabrning sinov maydoni bo‘lib, uning mustahkamligi harbiy xizmatchining ruhiy sog‘lomligi va davlat xavfsizligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Oila va harbiy xizmat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir ko‘plab omillar bilan belgilanadi. Bu omillar ofitserning Vatan himoyasi bilan bog‘liq kasbiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqadi. Harbiy xizmatchining qanday qo‘shin turiga mansubligi, xizmat faoliyatining xususiyati, bo‘linmalar joylashuvi va ularning ko‘chuvchanligi, jangga shaylik bilan bevosita bog‘liqlik bularning barchasi oilaning ichki munosabatlari, demakki, oilaning ishlashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Andreeva T. V. Psixologiya sovremennoy semi: monografiya. – SPb.: Rech, 2005. – 436 s.
2. A.V.Rubanenko Soцialno-psixologicheskie osobennosti semey voennoslujaщix i soцialnaya rabota s nimi / A. V. Rubanenko // Soцiokulturnыe i psixologicheskie problemы sovremennoy semi: aktualnыe voprosы soprovojdeniya i podderjki: Materialы III Vserossiyskoy nauchno-prakticheskoy konferenцii s mejdunarodnым uchastiem, Tula, 23–24 noyabrya 2017 goda. – Tula : Izdatelstvo TGPU im. L. N. Tolstogo, 2018. – S. 207-208.
3. Rukovodstvo po psixologicheskoy rabote v VS RF. – 2006. –156 s.
4. Turinцeva E.A. Osobennosti stanovleniya i razvitiya semi voennoslujaщego v usloviyax zakrытoy soцialnoy sistemы: avtoref. diss. … kand. soц. nauk. M., 2011. 21 s.
5. Filimonov I.A., Pominova O.L. Problema osoznaniya semeynыx cennostey u kursantov voennыx obrazovatelnыx organizaцiy vыsshego obrazovaniya. Nauchnoe mnenie. 2020; № 4, s. 41 – 47.

STRESSNING PSIXOFIZIOLOGIK MEXANIZMLARI VA DIAGNOSTIKASI

Norbo‘tayev Samandar Abdubakirovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi,
telefon raqami +99890 919 90 32

Annotatsiya: Maqolada stressning psixofiziologik mexanizmlari uning fiziologik namoyon bo‘lishi bo‘yicha olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari hamda stress ko‘rsatkichlarini ob’yektiv va sub’yektiv mezonlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, stress alomatlari va holatlarini baholashni qo‘llab-quvvatlash uchun diagnostik vositalarning tavsifi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Stress, zo‘riqish, motivatsiya, xavotir, neyropsixik stress, harbiy stress.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, stressdagi hissiy reaktsiyalarning o‘ziga xos xususiyati tanadagi gormonal va boshqa ko‘plab fiziologik reaktsiyalar, xususan asab tizimi vositachiligida tashqi tomondan, odamning g‘azabi bilan ba’zi parasempatik reaktsiyalar faollashadi [1].

Haqiqatdan ham shaxs ma’lum bir ma’lumotni qabul qilganida unga ijobiy yoki salbiy ma’noda javob tayyorlaydi. Javob reaksiyasini amalga oshirish shaxsning individual psixologik xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari jamoat tartibini saqlash faoliyatini bajarish vaqtida bevosita fuqarolar bilan muloqotga kirishadilar. Tasavvur qiling jamoat joylarida har xil xarakterli, har xil kayfiyatdagi fuqarolarga ularning kayfiyatlariga yarasha javob qaytarish qanchalik mushkul. Buning uchun harbiy xizmatchilardan mukammal psixologik tayyorgarlik talab etiladi.

Z.G.Turovskayaning so‘zlariga ko‘ra, emotsional (hissiy) stress paytida simpatik reaktsiyalar ustun bo‘lgan shaxslar stenik, tajovuzkor xatti – harakatlar bilan, parasempatik reaktsiyalar ustun bo‘lgan shaxslar esa depressiv xatti-harakatlar bilan ajralib turadi.

Bir qator tadqiqotlar stress reaktsiyalarining markaziy asab tizimining tipologik xususiyatlariga bog‘liqligini aniqladi. Shunday qilib, asab tizimi zaif odamlar kuchli asab tizimiga ega odamlarga qaraganda bir xil va monoton faoliyat sharoitida stressga ko‘proq chidamli bo‘ladi. Elektroensefalogramma (bosh miya faoliyatini tekshirish usuli) ko‘rsatkichlari bilan belgilanadigan “kortikal inhibisyon”ning interhemisferik (miya yarim sharlarini tashkil etishni turli darajalarda bog‘laydigan asab tolalari to‘plami) assimetriyasiga qarab, stressli vaziyatlarda u yoki bu hissiy holatlarga individual moyillik haqida ma’lumotlar mavjud.

Shved tadqiqotchilari hissiy stressning turli biokimyoviy korrelyatsiyalarini aniqladilar. M.Frankenxoyzer laboratoriyasida olib borilgan keng qamrovli tadqiqotlar natijalaridan biri stressning ob’yektiv, fiziologik namoyon bo‘lishi uning sub’yektiv bahosiga bog‘liq degan xulosaga keladi. Ijtimoiy-psixologik muhitga neyroendokrin reaktsiyalar ushbu muhitning shaxsga ta’sir qilish darajasini aks ettiradi, turli xil tashqi sharoitlar umumiy psixologik maxrajga ega bo‘lganligi sababli bir xil endokrin reaktsiyalarni keltirib chiqarishi mumkin.

Fiziologik funktsiyalarning stressli o‘zgarishi ko‘rsatkichlaridan “ob’yektiv” sifatida foydalanish mumkinligini ko‘rsatadigan ko‘plab ma’lumotlar mavjud. Biroq, stressning barcha psixologik ko‘rinishlari uchun ular bilan bog‘liq fiziologik o‘zgarishlarni topish mumkin emas. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, psixologik ko‘rsatkichlar ko‘p hollarda fiziologik ko‘rsatkichlarga nisbatan insonning jismoniy va ruhiy holatining eng sezgir ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Stress holatini tizimli tushunish uchun stressning jarayon xususiyatlarini o‘rganish foydalidir, bu uning sabablari va paydo bo‘lish mexanizmlarini aniqlash bilan bog‘liq bo‘lib, shaxsiy va vaziyat-ekologik omillarni hisobga oladi. Stressli o‘zgarishlarning jarayon xususiyatlarini o‘rganish stressni boshqarishga patogenetik yondashuvni ishlab chiqishga yordam beradi, bu esa stressning faqat natijaviy jihatini (stress holati) hisobga oladigan va salbiy stress alomatlarini yengillashtirishga qaratilgan simptomatik yondashuvdan farqli o‘laroq, stress reaksiyalari va stress sindromlarining sabablarini bartaraf etishga qaratilgan bo‘ladi.[1]

Ma’lumki, stress alomatlari juda xilma-xil bo‘lib, ruhiy holatning o‘zgarishi psixikaning barcha sohalarida namoyon bo‘lishi mumkin. Emotsional (hissiy) ko‘tarilish aksincha xavotir, befarqlik, tushkunlik va hissiy noqulaylikning kuchayishi emotsional sohaga kiradi. Kognitiv sohada bu tahdid, xavfni idrok etish va vaziyatni noaniq deb baholashdir. Motivatsion sohada bu kuchlarning safarbar qilinishi yoki aksincha, taslim bo‘lish (qochish, stress omillaridan voz kechish), motivatsiya va qiziqishlarning yo‘qolishi hisoblanadi. Xulq-atvor sohasida bu faollikning o‘zgarishi, odatiy faoliyat sur’ati va ko‘pincha ijro harakatlarida taranglik paydo bo‘lishi bilan baholanadi. Bu o‘zgarishlarning umumiy jihati, tegishli sohadagi jarayonlar intensivligining o‘zgarishi, ortishi yoki pasayishidir. [2]

E.P.Ilyinning fikricha, turli ruhiy holatlar turli quyi tizimlardan turli tizimlarni yaratadi, bu esa asosan reaksiya (holat) ning o‘ziga xosligini belgilaydi. Shuning uchun, bu holatlarni tashxislashdan oldin, ularning tarkibiy modelini aniqlash kerak, bu integratsiyalashgan funktsional tizimning barcha zarur darajalari va quyi tizimlarini aks ettiradi. Motivatsiya, his-tuyg‘ular, vegetativ nerv tizimining o‘ziga xos faoliyati va motor qobiliyatlari hisoblanadi. Stressli holatlarni tashxislashda ob’yektiv va sub’yektiv parametrlarni o‘zaro bog‘lash masalasi qiyin.

Quyidagi stress ko‘rsatkichlarini ob’yektiv mezon sifatida ko‘rib chiqish mumkin: [3]

1. *Jismoniy alomat*lar (ular har qanday stressor uchun deyarli bir xil va individual intensivlikda farq qilishi mumkin): biokimyoviy reaksiyalar, yurak-qon tomir alomatlari, “stress kasalliklari” - masalan, oshqozon yarasi, astma, gipertoniya, bel og‘rig‘i.

2. *Xulq-atvor namoyon bo‘lishi* (insonning ishlash darajasidagi o‘zgarishlar, nizolar va nizolar, ovqatlanish odatlaridagi o‘zgarishlar, chekish, spirtli ichimliklar iste’mol qilish, giyohvand moddalar va dori-darmonlar).

3. *Ruhiy stress belgilar*i (xavotir va tushkunlik, g‘azab, adovat, charchoq, befarqlik, zerikish, uyqusizlik va boshqalar).

Sub’yektiv mezonlarga stressning quyidagi ko‘rsatkichlari kiradi:

-nazoratni yo‘qotish;

-charchoqning kuchayishi;

- kayfiyatning pasayishi, asabiylashish;

-ruhiy noqulaylikni boshdan kechirish;

-jismoniy noqulaylik va tananing somatik tizimidan yoqimsiz his-tuyg‘ularning mavjudligi (bosh og‘rig‘i, mushak og‘rig‘i, bel og‘rig‘i, jig‘ildon qaynashi, qon bosimining oshishi).

-kognitiv funktsiyalar unumdorligining pasayishi (diqqat, xotira, fikrlash jarayonlarining pasayishi va boshqalar).

Stress reaksiyalarining intensivligi (miqyosi, davomiyligi) har bir odamda turlicha bo‘ladi va shaxsiyat va neyrotipologik xususiyatlarga bog‘liq. Stress belgilarini tushunish, stressli o‘zgarishlarni sezgir o‘zini o‘zi aks ettirish va boshqalarda stress namoyon bo‘lishini kuzatish hayot va professional stressni boshqarishning dastlabki qadamlaridir.

Stress alomatlari va holatlarini baholashni qo‘llab-quvvatlash uchun quyidagi diagnostika vositalaridan foydalanish mumkin.

“Stress alomatlari inventarizatsiyasi” so‘rovnomasi (T.Ivanchenko va boshqalar) [4] stressga javob belgilarini tekshirish va qisqa va uzoq muddatli stressli hodisalarga javoban ruhiy zo‘riqishni tashxislash uchun ishlatilishi mumkin.

Ushbu usul stress alomatlarini kuzatish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning chastotasini o‘z-o‘zini baholash va stressning salbiy oqibatlariga moyillik darajasini aniqlash imkonini beradi. Natijalar to‘plangan ballarning umumiy sonini hisoblash orqali qayta ishlanadi va talqin qilinadi. Keyin sub’yekt kundalik voqealarga o‘tkir va og‘riqli munosabatda bo‘ladigan, stress ularning hissiy holati va sog‘lig‘iga tahdid soladigan yoki o‘tkir hissiy reaktsiyalarsiz hayotdagi vaziyatlarni yengishga qodir bo‘lgan shaxs sifatida tasniflanishi mumkin.

“Neyropsixik stressni aniqlash” so‘rovnomasi (T.Nemchin). So‘rovnoma ekstremal vaziyatlarga duchor bo‘lgan ko‘p sonli sub’yektlarda o‘tkazilgan ko‘p yillik klinik psixologik tadqiqotlar natijalaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan.

So‘rovnoma mazmuniga asoslanib, barcha aniqlangan alomatlarni uchta guruhga bo‘lish mumkin: birinchi guruh tananing somatik tizimlaridan jismoniy noqulaylik va yoqimsiz his-tuyg‘ularning mavjudligini aks ettiradi; ikkinchi guruh ruhiy noqulaylik va asab tizimidan shikoyatlarning mavjudligini (yoki yo‘qligini) aniqlaydi; uchinchi guruh stressning ba’zi umumiy xususiyatlarini tavsiflovchi alomatlar (chastotasi, davomiyligi, umumlashtirilishi va og‘irligi)ni o‘z ichiga oladi. So‘rovnoma qiyin (ekstremal) vaziyatlarda yoki ulardan birini oldindan bilishda stressni tashxislash uchun foydalanish tavsiya etiladi.

PSSh-25 Psixologik stress shkalasi (Lemir-Tessier-Fillion) stress tajribalarining fenomenologik tuzilishini o‘lchash uchun mo‘ljallangan. Uning maqsadi stressli tajribalarni somatik, xulq-atvor va hissiy o‘lchovlar orqali o‘lchashdir.

Usul dastlab Fransiyada ishlab chiqilgan va keyin Angliya, Ispaniya va Yaponiyada tarjima qilingan va tasdiqlangan. Usulni ishlab chiqishda mualliflar stressli holatlarni o‘rganishning an’anaviy usullarining mavjud kamchiliklarini bartaraf etishga harakat qilishdi, ular asosan stress omillari yoki xavotir, depressiya, umidsizlik va boshqa omillarning patologik ko‘rinishlari orqali psixologik stressni bilvosita o‘lchashga qaratilgan.

Shunday qilib bu metodikalarni qo‘llab, stress darajasini aniqlash va uni bartaraf etish usullarini ishlab chiqish faqat insoniyat uchun foyda keltiradi. Balki ularning kasbiy faoliyatida, oilaviy sharoitida hamda ijtimoiylashuuvida ham yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bodrov, V. A. Informaцionnыy stress / V.A.Bodrov. M.: PƏR SƏ, 2000. str.21;

2. N.E.Vodopyanova. Psixodiagnostika stressa / SPb.: Piter, 2009. str 31;

3. T.L.Kryukova. Psixologiya semi: jiznennыe trudnosti i sovladenie s nimi / T.L.Kryukova, V.M.Saporovskaya., E.V.Kuftyak. M.,2005. ctr 43;

4. E.V.Yakovlev T.V.Vetrova E.N.Gnevышev O.V.Leontev D.Yu.Butko “Stress. Mediko-psixologicheskie osnovы” Uchebnoe posobie Sankt-Peterburg 2023. str 146;

5. T. A. Nemchin. Sostoyanie nervno-psixicheskogo napryajeniya. - L.: Izd-vo LGU, 1983

BOLA IDROKINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Qodirova Malikaxo Kaxramonovna
JDPU, katta o’qituvchi

Annotatsiya. Maqolada bola idrokini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Maqolada zamonaviy raqamli vositalar — interaktiv dasturlar, multimedia ta’lim resurslari, virtual o‘quv muhiti va o‘yin texnologiyalarining bolalarning bilish faoliyatini faollashtirishdagi ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali bolalarda diqqat, xotira, tafakkur va tasavvur kabi idrok jarayonlarini rivojlantirish imkoniyatlari ochib beriladi. Maqola natijalari maktabgacha ta’lim muassasalari ta’lim tizimida o‘qituvchilar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: bola idroki, axborot texnologiyalari, raqamli ta’lim, interaktiv metodlar, pedagogik innovatsiyalar, idrokni rivojlantirish.

L.S.Vigotskiy (1896–1934) - bolalar psixologiyasi, rivojlantiruvchi ta’lim, nutq va tafakkur psixologiyasi sohasida eng nufuzli olimlardan biri. U madaniy-tarixiy nazariya asoschisi bo‘lib, hozirgi zamon ta’lim psixologiyasining poydevorini yaratgan.

L.S.Vigotskiy idrokni insonning faol, maqsadli va ijtimoiy tajribaga asoslangan bilish jarayoni deb tushuntiradi. Bola narsani shunchaki “ko‘rib” emas, balki uning ma’nosini tushunib, til yordamida nomlab idrok qiladi. Masalan, kichik bola olmani ko‘rsa “shunchaki rangli predmet”ni idrok qiladi, kattaroq bola esa “olma yeyiladigan meva” ekanini biladi. Bu idrokning semantik rivojlanishi, ya’ni idrok mazmuni tafakkur bilan bog‘langanini ko‘rsatadi. Vigotskiy idrok vositalar orqali amalga oshishini ta’kidlaydi. Bu vositalar til, ramzlar, belgilar, ko‘rsatkichlardir. Shu bois, bola o‘rganish jarayonida idrokini rivojlantirish uchun unga so‘z, belgilar va faol muloqot vositalari berish zarur.

L.S.Vigotskiyiy idrokni rivojlantirishda “yaqin rivojlanish zonasi” shuni anglatadi: bola o‘zi hali mustaqil ravishda sezmagan yoki ajratmagan narsa va belgilarni kattalar ko‘rsatmasi yoki yo‘naltirishi orqali idrok qilishni o‘rganadi. Masalan, pedagog “qizil rangni top”, “shakli doira bo‘lgan predmetni tanla” deganda bola tahliliy idrokni o‘rganadi.

L.S.Vigotskiy idrok ijtimoiy-madaniy faoliyat natijasi, til va nutq orqali idrok shakllanadi degan fikrlarni ta’kidlab o’tgan. Bunda L.S. Vigotskiy tabaqalash nazariyasiga asoslangan. Inson antogenezida har bir davr muhim va har bir davrda

inson ijtimoiy munosabatlar asosida har tomonlama rivojlanadi degan konseptsiya yotadi. J.Piaje idrok kognitiv bosqichlar orqali rivojlanishini ta’kidlab, bilish jarayonlari bir-birisiz rivojlana olmasligini isbotlagan.

A.N.Leontyev inson idrokining asosi faoliyat ekanini asoslasa, D.B. Elkonin inson idrokini o‘yin faoliyati orqali rivojlantirishni ta’kidlagan. P.Ya. Galperin idrokni shakllantirish uchun aql faoliyatining bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasini ishlab chiqqan bo’lsa S.L. Rubinshteyn idrok insonning tashqi olamga faol munosabati natijasi ekanini ta’kidlab o’tgan.

O‘zbekistonda bir qator olimlar orasida idrok, tafakkur, e’tibor, bilish jarayonlarini shakllantirish bilan bir qator olimlar shug‘ullanganlar. Bu olimlar ta’lim jarayonida idrok, fikrlash, o‘quv faoliyatini shakllantirish masalalarini ilmiy jihatdan o‘rganishgan.

U.Sh.Begimqulov g‘oyalari idrokni rivojlantirishda axborot texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanish bo’lib, “Innovatsion ta’lim muhitini shakllantirish”, “Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti” kabi asarlarida ushbu g’oyalarni keltirib o’tgan.

A.A.Abduqodirov didaktika va o‘quv faoliyatining psixologik asoslari sohasida faoliyat olib borib, u o’z ishlarida o‘quvchilar idrokini shakllantirishda faol o‘qitish metodlari (muammoli ta’lim, interfaol topshiriqlar) samarali ekanini asoslaydi.

M.Kuronov pedagogik psixologiya, shaxs rivoji borasida tadqiqotlar olib brogan bo’lib, u o’z tadqiqotlarida bolalarda idrok, tafakkur, e’tibor kabi bilish jarayonlarini rivojlantirishda o‘qituvchi rahbarligining o‘rnini tadqiq etgan.

R.G‘anieva maktabgacha yoshdagi bolalarda idrok, tafakkur va nutqni integratsiyalashgan tarzda rivojlantirish masalasida tadqiqotlar olib borgan. Olima o’z ishlarida Montessori, Vigotskiy va Leontyev nazariyalariga tayangan.

A.Choriev umumiy pedagogika va bolalar psixologiyasi sohasida tadqiqotlar olib brogan olimlardan biri. U o’z tadqiqotlarida idrok, e’tibor va tafakkurni shakllantirishning o‘yin faoliyati orqali amalga oshirish usullarini o‘rgangan.

Sh.Alimov ta’lim jarayonida bilish jarayonlarini o’rgangan. Olim o‘quv jarayonida ko‘rgazmalilik, tajriba va mustaqil fikrlash orqali idrokni faollashtirish borasida tadqiqotlar olib organ.

Idrok bola faoliyatida, muloqotda va o‘yin jarayonida shakllanadi. Hozirgi kunda bola aqliy taraqqiyoti 5-10 yil oldingi bola taraqqiyotidan tubdan farq qiladi. Shu sabab bolani oddiy o’yinlar bilan hayron qoldirish mushkul. Texnika taraqqiyoti davrida yashayotgan bola texnikaga munosabati yuqori bo’lishi tabiiy holat. MTT da tashkil etiladigan mashg’ulotlarni interfaol usullarda olib borish hozirgi kun talabi hisoblanadi.

Interfaol metodlar - bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi faol muloqotga asoslangan dars usullari, bunda bola faolligi, tanlov va qaror qabul qilish jarayoni asosiy o‘rinda bo‘ladi. Interfaollik bola idrokini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Mashg’ulotda o‘yin metodidan foydalanish bolada predmetlar va ranglarni tanlash hamda vizual va sensor idrokni rivojlantirishda ahamiyatlidir. Turli o’yin metodlari yordamida mashg’ulot o’tilganda bola faolligi oshadi, natijada o’rgatilayotgan predmetga nisbatan qiziqishi ortadi, diqqati qaratiladi, nutq orqali predmetga nisbatan uni tushunishga nisbatan idrok etish hosil bo’ladi.

Bola hayotida rolli o’yin eng muhim mashg’ulot. Rolli o’yinlar orqali bola atrofni, olamni, buyumlarni anglaydi va munosabat bildiradi. Rolli o‘yinlar ijtimoiy idrok va empatiyani rivojlantiradi. Bola idroki ijtimoiylashuv jarayonida tarkib topadi, rivojlanadi. Ijtimoiy idrok bolani insonlar bilan munosabat qilishga, jamoani his qilishga, o’z o’rniga ega bo’lishga o’rgatadi. Tengqurlar bilan munosabatlarda bola yoshiga xos munosabatlarni bilish bilan birga, o’zaro empatiyani his qiladi. Bir-birini qo’llash, qayg’urish, ya’ni empatik munosabatlarni his etadi. Bunda bolada insonga xos ijobiy sifat va fazilatlar shakllanadi.

Guruh muhokamalarida bolada idrok, diqqat, tafakkur va muammoni hal qilish qobiliyati rivojlanadi. Mashg’ulotlar davomida bolalar o’zaro munosabatlarga kirishadi, berilgan topshiriqni rag’bat darajasida bajarishga harakat qiladi. Bu bola idrokining o’ziga xos ravishda rivojlanganligidan dalolat beradi.

Muammoli topshiriqlar tafakkur va mantiqiy idrokni shakllantiradi. Topsiriq yechimi uchun bola miyasi analiz qiladi, topshiriqning mazmun mohiyatini anglaydi. Mantiqiy idrok maktabgacha yoshning oxiriga kelib sifat darajasiga chiqadi. Mashg’ulotda berilgan fazifani tushunish, unga nisbatan munosabat qilish bola savollaridan va topshiriqni berilib bajarishidan anglash mumkin.

Masalan, fikrlar marafoni o’yinini tashkil etganda bola o‘z idrokini so‘zlar va rasmlar orqali ifodalaydi. Bola idroki obrazlarga tayanadi. So’z, muloqot topshiriqni to’liqroq idrok qilishni ta’minlaydi. O’yinlarda topilmalar qo’yilsa bolalar juda qiziqib qatnashadilar. Bunday mashg’ulot bolaning visual idrokini rivojlantiradi.

Sensorli o‘yinlar turli shakllar, materiallar, tovushlar yordamida sezgi idrokini oshirishga yordam beradi. Qurish-yasash, aplikatsiya, plastilin bilan ishlash mashg’ulotlari bola sezgirligini oshirish bilan birga, murakkab idrokni rivojlantirishda yordam beradi.

Zamonaviy mashg’ulotlar bolaning faol ishtirokini ta’minlaydi. Animatsiya, video va o‘yin orqali vizual va tajribali idrok mustahkamlanadi. Bunday mashg’ulotlar bolada shaxsiy rivojlanishni ta’minlaydi. Bola qiyinchilik darajasini tanlaydi, individual natijaga erishadi. AT orqali bola faoliyati tezkor tahlil qilinadi va qayta ishlanadi. Bu pedagogning bolani baholashiga yengillik yaratadi.

Mashg’ulotlarda planshet va kompyuter kabi vositalardan foydalanish nafaqat bola qiziqish doirasini balki bilim doirasini ta’minlaydi. Bolalar uchun interaktiv o‘yinlar, ranglar, shakllar, hayvonlar va predmetlarni aniqlash mashqlari ana shunday vositalarda amalga oshirilsa maqsadga muvofiqdir. Interaktiv doskalar bolaning ko‘rgazmali idrokini shakllantirish va rivojlantirish xususiyatiga ega. Audio va video materiallar bolaning eshitish va ko‘rish idrokini rivojlantiradi. Bundan tashqari turli xil mobil pedagogik ilovalar, masalan “ABC Kids”, “Fun English”, “Puzzle Kids” kabi ilovalar mavjud bo’lib, bu ilovalardan mashg’ulotlarda foydalanish ham qiziqarli ham ahamiyatli hisoblanadi.

Demak, interfaol usullar asosida mashg’ulotlarni tashkil qilish bola idrokini rivojlantirishda ahamiyati katta ekan buning uchu nima qilish kerak degan savol tug’iladi. Buning uchun MTT pedagogi barcha mahoratini ishga solib, quyidagi tavsiyalarga amal qilish zarur:

- Mashg’ulotlarni 5–15 daqiqalik qisqa bloklarga bo‘lish, bolalarning diqqatini saqlash uchun.
- Har bir mashg‘ulotda ko‘rgazmali va interaktiv elementlarni qo‘shish (rangli predmetlar, tovushlar, animatsiyalar).
- Natijalarni tezkor baholash: masalan, bola topshiriqni bajaradi va ilova javobini ko‘rsatadi.
- Mashg’ulotlarda bolalarning faol ishtirokini rag‘batlantirish.
- Har bir mashg‘ulot tugagach, bolalarga “nima o‘rganding?” va “qanday o’zingni his qilding?” degan savollar berish.
- O‘yin va interaktiv mashqlarni qisqa va maqsadli qilish.

Ushbu tavsiyalar tashkil etilgan mashg’ulotlarning qiziqarli, tushunarli bo’lishini ta’minlash bilan birga, bolaning faolligini oshiradi, voqelik va predmetlarga nisbatan tushunchalar hosil bo’lish tezligini ta’minlaydi. Bolalarda pedagog va guruhdagi tengqurlari bilan sog’lom munosabatlarning o’rnatilishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli ta’lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3839-sonli Qarori. G‘ulomova, M., & Jo‘raeva, D. Maktabgacha ta’limda bolalar psixologiyasi. — Toshkent: Fan va texnologiya. 2020

3. Karimova, R. Raqamli texnologiyalar orqali bola idrokini rivojlantirish metodikasi. // “Ta’lim innovatsiyalari” ilmiy jurnali, №3, 45–50-betlar. 2022

4. Turdiyeva, S. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv faoliyatni shakllantirishda o‘yin texnologiyalarining roli. — Toshkent: O‘qituvchi. 201

BIKARYER HARBIY OILALARDA GENDER ROLLAR VA KARYERA O‘RTASIDAGI PSIXOLOGIK ADAPTATSIYA ASPEKTLARI

Ishboboyeva Gulbarchin Rustam qizi
International School of Finance Technology and Science instituti o‘qituvchisi
Ishboboyevagulbarchin@gmail.com
Tel: 904257002
Ergasheva Dilrabo Abdurazakovna
ISFT institutining «Pedagogika va psixologiya»
yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bikaryer harbiy oilalarda gender rollarning o‘zgarishi, karyera rivoji va oilaviy majburiyatlar o‘rtasida yuzaga keladigan psixologik adaptatsiya jarayonlari ilmiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Harbiy xizmatning o‘ziga xos xususiyatlari - yuqori darajadagi stress, uzoq muddatli ajralishlar, xizmat joyining tez-tez o‘zgarishi va xavf omillari - bikaryer juftliklarda an’anaviy gender rollarining qayta taqsimlanishiga olib keladi. Bu esa shaxsning ichki psixologik resurslari, stressga chidamliligi, muloqot ko‘nikmalari va rollar o‘rtasida muvozanatni boshqarish qobiliyatini talab qilinishi va turli jihatlari psixologik tomondan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Harbiy oila, gender rollar, oilaviy majburiyatlar, karyera rivoji, psixologik adaptatsiya, psixologik moslashuv, harbiy xizmatchi, ijtimoiy normativlar, ijtimoiy rollar, shaxsiy potensial.

Bikaryer harbiy oilalar - ya’ni ikkala turmush o‘rtog‘i ham harbiy xizmat bilan shug‘ullanuvchi oilalar - o‘ziga xos psixologik va ijtimoiy xususiyatlarga ega. Bunday oilalarda professional majburiyatlar, tez-tez ko‘chib yurish, uzoq muddatli ajralishlar va xavfli ish sharoitlari oila tizimida stress darajasini oshiradi. Shu bilan birga, harbiy kasbning o‘ziga xosligi gender rollari va oilaviy majburiyatlar bilan bog‘liq psixologik adaptatsiya jarayonlarini murakkablashtiradi. [5] Gender rollar har bir oilaviy a’zo tomonidan qabul qilinadigan majburiyatlar va kutilayotgan xatti-harakatlar tizimini belgilaydi. Bikaryer oilalarda ayol va erkakning kasbiy faoliyati va martaba intilishlari ko‘pincha gender stereotiplari va ijtimoiy kutishlar bilan o‘zaro ta’sir qiladi. Bu esa professional va oilaviy vazifalarni uyg‘unlashtirish, shaxsiy motivatsiya va psixologik barqarorlikni saqlash kabi masalalarda maxsus strategiyalarni talab qiladi [1].

Harbiy oila a’zolarining psixologik moslashuvini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, ushbu jarayonning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi individual moslashuvning ilmiy asoslangan mezonlarini

belgilamasdan samarali boshqarilishi mumkin emas. Eksperimental tadqiqotlar eng muhim obyektiv mezonlar sifatida quyidagilarni aniqladi: amaliy faoliyatdagi muvaffaqiyat darajasi, shaxsiy potentsialni amalga oshirish darajasi, shaxsning mehnat yoki o‘quv jamoasiga integratsiyalashuvi hamda yangi ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish muvaffaqiyati. Shu bilan birga, shaxsning ijodkorlik, tashabbuskorlik va mustaqillik darajasi, shuningdek, ularning yetakchi faoliyatdan qoniqish darajasi moslashuvning subyektiv mezonlari bilan bog‘liqdir [4].

Moslashuv jarayonining yakuniy natijasi ma’lum darajadagi moslashuv sifatida baholanadi, bu esa quyidagi kategoriyalarga bo‘linadi: optimal, yuqori-ortiqcha, past yoki noto‘g‘ri moslashuv [8]. Shu munosabat bilan harbiy oila a’zolarining ijtimoiy-psixologik moslashuv jarayonini boshqarish muhim ahamiyatga ega. Harbiy xizmatchilarning xotinlari va bolalarining moslashuvini tezlashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadida amalga oshiriladigan tashkiliy chora-tadbirlar bilan bir qatorda, psixologlar tomonidan bajariladigan ixtisoslashtirilgan psixologik aralashuvlar alohida o‘rin tutadi. Bular, xususan, muvaffaqiyatli psixologik moslashuvni ta’minlash, o‘z-o‘zini hurmat qilish va shaxsiy resurslarni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, xatti-harakat, faoliyat va muloqotdagi moslashuvchanlikni oshirishga qaratilgan. Shu yo‘l bilan harbiy oilalarning psixologik barqarorligi va ijtimoiy integratsiyasi samarali tarzda ta’minlanadi [3].

Bikaryer harbiy oilada gender rollari va martaba o‘rtasidagi psixologik moslashuv - bu oila tizimi ichida rol kutishlari, kasbiy maqsadlar va shaxsiy ehtiyojlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan murakkab psixologik jarayondir. Mazkur jarayon samarali bo‘lishi uchun ochiq va konstruktiv muloqot, oila a’zolarining individual qiziqishlari, qobiliyatlari va resurslarini hisobga olgan holda mas’uliyatlarni moslashuvchan taqsimlash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, gender stereotiplarini tanqidiy qayta ko‘rib chiqish, kasbiy va oilaviy faoliyatda o‘zaro qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish va har ikki tomonning professional o‘sishiga teng imkoniyat yaratish moslashuv jarayonining asosiy psixologik omillaridan biridir [9].

Martaba va shaxsiy hayot o‘rtasidagi muvozanatga erishish uchun gender tengligini qabul qilish, rol va vazifalar bo‘yicha o‘zaro kelishuvni shakllantirish, yuzaga keladigan psixologik va maishiy muammolarni hamkorlikda hal etish hamda oila a’zolarining shaxsiy va oilaviy manfaatlariga e’tibor qaratish zarur. Bunday yondashuv oila tizimining barqarorligini ta’minlaydi, stressni kamaytiradi va har bir a’zoning psixologik farovonligini qo‘llab-quvvatlaydi [10].

Gender rollari va martaba o‘rtasidagi psixologik moslashuv - bu ichki va tashqi to‘siqlarni yengib, shaxsning gender rollari bo‘yicha kutishlarini professional ambitsiyalar va amaliy imkoniyatlar bilan uyg‘unlashtirish jarayonidir. Ushbu

jarayon erkak va ayol rollari haqidagi an’anaviy tushunchalar bilan zamonaviy professional talablar o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishni, moslashuvchanlikni oshirishni, munosabatlarni qayta shakllantirishni va yangi kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishni talab qiladi hamda shaxsning martaba doirasida o‘zini to‘liq amalga oshirishiga xizmat qiladi. Moslashuv jarayonida harbiy oila a’zolariga psixologik yordam ko‘rsatishni amaliy psixolog faoliyatining o‘ziga xos turi sifatida o‘rganish ushbu faoliyatning rag‘batlantiruvchi, instrumental va yakuniy quyi tuzilmalarini aniqlash imkonini beradi [4]. Rag‘batlantiruvchi quyi tuzilma psixologik yordam sub’ekti va ob’ekti xususiyatlari bilan tavsiflanadi va uni boshqa psixologik faoliyat turlaridan, xususan, psixologik tadqiqotlardan ajratib turadi. Bunda asosiy motivatsiya tadqiqot emas, balki yordam ko‘rsatish bo‘lib, shaxs bilim obyekti emas, o‘zgarish subyekti sifatida qaraladi. Shu bilan birga, tadqiqot ushbu faoliyat turining samaradorligini belgilaydigan psixologik yordam tamoyillarini aniqlash va ilmiy asoslash imkonini beradi.

Harbiy oilalarda gender rollar an’anaviy va ijtimoiy normativlar bilan belgilangan bo‘lishi mumkin: erkak xizmatchi - asosiy moddiy ta’minotchi va himoyachi, ayol - uy va oilaviy qo‘llab-quvvatlashni ta’minlovchi [5]. Biroq, zamonaviy sharoitda bu rollar moslashuvchan bo‘lishi, ya’ni ayollar ham kasbiy faoliyatda yuqori darajaga erishishi, erkaklar esa oilaviy va maishiy ishlarni bajarishda faol ishtirok etishi talab etiladi (Eagly & Carli, 2007). Gender rollari va ijtimoiy kutishlar individning psixologik moslashuviga ta’sir qiladi (Bem, 1993). Harbiy xizmatchining oila va ishga bo‘lgan majburiyatlari o‘rtasidagi ziddiyat, stress va adaptatsiya darajasini belgilaydi (Adler et al., 2011). Harbiy xizmatchilar va ularning oilalari uchun karyera rivojlanishi ko‘pincha yuqori psixologik yukni keltirib chiqaradi. Karyera o‘sishi jarayonida ayollarning va erkaklarning genderga asoslangan kutishlari moslashuvni qiyinlashtirishi mumkin. (Eagly & Carli, 2007). Erkaklar esa oilaviy majburiyatlar bilan kasbiy rivojlanish o‘rtasida konfliktni boshdan kechiradi (Greenhaus & Beutell, 1985).

Harbiy oilalarda gender va karyera o‘rtasidagi moslashuv quyidagi mexanizmlarga asoslanadi:

1. *Emotsional qo‘llab-quvvatlash:* oila a’zolarining bir-biriga psixologik yordam berishi, stressni kamaytirish (Cohen & Wills, 1985).

2. *Rol moslashuvi:* an’anaviy gender rollarini qayta ko‘rib chiqish va moslashuvchan rollarni qabul qilish.

3. *Kognitiv qayta baholash:* stressli vaziyatni konstruktiv tarzda qabul qilish va yangi vazifalarni ijobiy tomondan ko‘rish.

4. *Ijtimoiy resurslardan foydalanish:* harbiy va nodavlat tashkilotlarning oilaviy qo‘llab-quvvatlash xizmatlari.

Harbiy xizmatchilar oilasidagi juftliklar odatda quyidagi psixologik xususiyatlarga ega:

1. *Moslashuvchanlik:* Harbiy xizmatning o‘ziga xosligi – tez-tez ko‘chishlar, majburiy safarlar va xavfli vaziyatlar – oilaning moslashuvchan bo‘lishini talab qiladi.

2. *Stressga chidamlilik:* Harbiy er-xotinlar ko‘pincha uzoq muddatli ajralish, xavfli missiyalar va kasbiy yuklamalar bilan bog‘liq stressga duch keladi (Palmer, 2008).

3. *Rollarni qayta taqsimlash***:** Harbiy oilalarda an’anaviy gender rollari o‘zgarishi mumkin: ayol xizmatchi uy va karyera vazifalarini muvozanatlashga harakat qiladi, erkak esa oilaviy majburiyatlarni bajarishda faolroq bo‘lishi talab etiladi (Elder et al., 2010) [1].

Bikaryer harbiy oilalarning professional yo‘li va gender qarashlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadigan namunalardan biri - ayollarning ikki martalik bandligi hisoblanadi. Bu, professional faoliyat bilan bir qatorda, uy ishlarini bajarish, xizmat ko‘rsatish sohasida yuqori bandlik va «inson-inson» turidagi kasblarda ishlashni o‘z ichiga oladi [2]. Shu bilan birga, ayollar yetakchi lavozimlarda kamroq vakillikka ega bo‘lishadi, erkaklar esa asosan jismoniy kuch talab qiladigan, ba’zan sog‘lik xavfi bilan bog‘liq kasblarda ko‘proq ishlaydi. Bunday professional afzalliklar, ishchilar va ish beruvchilar tomonidan, odatda, ayollar atrofdagilarga emotsional qulaylik yaratishi kerak, yetakchilik qobiliyati kamroq va moliyaviy mas’uliyatni erkaklar kabi o‘z zimmasiga ololmasligi haqidagi gender stereotiplari ta’sirida shakllanadi [5].

Xulosa qilib aytganda, bikaryer harbiy oilalarda gender rollar va martaba masalalari o‘rtasidagi munosabatlar murakkab va ko‘p qirrali psixologik jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilaning psixologik barqarorligi va har bir a’zo uchun kasbiy muvaffaqiyatga erishish darajasi, asosan, gender rollariga oid kutishlar va stereotiplardan sezilarli darajada ta’sirlanadi. Ayol va erkakning professional yo‘lini shakllantirish jarayonida o‘zaro moslashuv, ochiq muloqot, vazifalarni adolatli taqsimlash va bir-birini qo‘llab-quvvatlash psixologik adaptatsiya asosini tashkil etadi. Shuningdek, ayollarning va erkaklarning martaba intilishlari ularning genderga oid qarashlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu qarashlar ko‘pincha ularning o‘z-o‘zini baholashiga, professional qoniqishiga va oilaviy rol majburiyatlarini muvozanatlash qobiliyatiga ta’sir qiladi. Vertikal martaba yo‘nalishi va an’anaviy gender qarashlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ayniqsa, erkaklar va ayollarning ish va oila o‘rtasidagi muvozanatni saqlash qobiliyatida seziladi.

Shu bilan birga, psixologik adaptatsiya muvaffaqiyati ochiq muloqot, muammolarni birgalikda hal qilish, stereotiplarni yengib o‘tish va kasbiy hamda oilaviy sohalarda o‘zaro yordam orqali oshiriladi. Bikaryer harbiy oilalarda gender

rolga moslashuv va martaba rivoji bo‘yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish nafaqat shaxslarning psixologik barqarorligini mustahkamlaydi, balki oilaviy munosabatlarning sifati va kasbiy muvaffaqiyatni oshirishga ham yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aldasheva A. A. Psixologicheskaya adaptaцiya speцialistov VMF k usloviyam deyatelnosti: dis... dokt. psixol. nauk. - Bishkek, 1995. - 381 s.

2. Aleshkin V. V. Soцialno-psixologicheskie aspektы formirovaniya voenno-professionalnoy orientirovannosti uchaщixsya: avtoref. ... dis. kand. psixol. nauk. - M., VPA, 1991. - 21 s.

3. Bulgakov A. B. Otriцatelnые faktorы soцialno-psixologicheskoy adaptaцii ofiцerov rasformiruemых эkipajey korableу VMF i preodolenie ix vozdeystviya: dis... kand. psixol. nauk. - M., 2000. - 250 s.

4. Solovev I. V. Psixologicheskaya adaptaцiya voennoslujaщix vnutrennix voysk k slujebno-boevoy deyatelnosti v usloviyax voorujennogo konflikta: dis... kand. psixol. nauk.- M., 1999. - 257 s.

5. Chayka V. G. Soцialno-psixologicheskaya adaptaцiya ofiцerov, uvolnyaemых v zapas, k trudovoy deyatelnosti: dis... kand. psixol. nauk. -M., 2000. -

6. Yablonko V. Ya. Psixologicheskie osobennosti adaptaцii kursantov k uchebnoy, slujebnoy i obщestvennoy deyatelnosti v usloviyax vыsshego voenno-uchebnogo zavedeniya: dis. ... kand. psixol. nauk. - M., 1982. - 211 s.

7. Tiщenko YuG. Gendernые stereotipы sovremennoy studencheskoy molodeji: soцiologicheskiy analiz [dissertaцiya]. Stavropol: Yujno-Rossiyskiy politexnicheskiy universitet imeni M. I. Platova; 2014. 187 s.

8. Zayцeva YuV. Struktura gendernых ustanovok jenщin i mujchin na nachalnых эtapax postroeniya karerы. Molodoy uchenыy. 2018;35:76–82.

9. Rossiyane ne gotovы zabыt gendernые roli [Эlektronnыy resurs] // Kommersant. Novosti. Rejim dostupa: https://www.kommersant.ru/doc/4614123 (data obraщeniya: 03.05.2024).

10. Aleshina Yu.E., Lektorskaya E.V. (1989). Rolevoy konflikt rabotayuщey jenщinы. Voprosы psixologii (5)

ПОВЕДЕНИЕ ЧЕЛОВЕКА И КОНФЛИКТЫ

Мамараимова Раъно Усмановна
ДжГПУ стрший преподавател

Аннотация: В данной стате описывается конфликт, эго виды, причины конфликтов, конфликты между людми и их возникновение, проявления поведения человека в конфликтных ситуациях, особенности самоуправления в таких ситуациях.

Ключевые слова: конфликт, соперничество, сотрудничество, компромисс, приспособление, трудности, психических и физических ресурсы, мотив, трудности, поведение, принципы, стратегия, тактика, концентрация сил, координация сил.

Конфликтное поведение состоит из противоположно направленных действий оппонентов. Этими действиями реализуются скрытые от внешнего восприятия процессы в мыслителной, эмоционалной и волевой сферах оппонентов. Чередование взаимных реакций, направленных на реализацию интересов каждой стороны и ограничение интересов оппонента, составляет видимую социалную реалност конфликта.

Конфликтное поведение имеет свои принципы, стратегию и тактики. Среди основных принципов выделяются: концентрация сил, координация сил, нанесение удара по наиболее уязвимому пункту в расположении противника, экономия сил и времени.

Стратегия поведения в конфликте рассматривается как ориентация личности по отношению к конфликту, установка на определенные формы поведения в ситуации конфликта. В основе выделения стратегий лежит концепция о «силовом поле» мотивации руководителя, ориентированного либо на производство, либо на человека, производителя. Первая «силовая линия» ведет к максимально высоким объемам прибыли и рассматривается как напористост. Вторая направлена на человека, на то, чтобы условия труда в наиболшей степени отвечали эго потребностям и запросам. Она рассматривается как кооперативност. Выделяются 5 стратегий.

1. Соперничество - заключается в навязывании другой стороне предпочтителного для себя решения.
2. Сотрудничество - позволяет осуществит поиск такого решения, которое удовлетворяло бы обе стороны.
3. Компромисс - предполагает взаимные уступки в чем-то важном и принципиалном для каждой стороны.

4. Приспособление - основывается на понижении своих стремлений и принятии позиций оппонента.

5. При избегании - участник находится ситуации конфликта, но без всяких активных действий по эго разрешению.

Эсли исходит из психологической сущности конфликта, то он может быт рассмотрен как один из типов трудных ситуаций, возникающих в процессе жизнедеятелности человека и социалной группы.

Общие признаки трудной ситуации таковы:

- наличие трудности, осознание личностю угрозы, препятствия на пути реализации каких-либо целей, мотивов;
- состояние психической напряженности как реакция личности на трудност, преодоление которой значимо для субъекта;
- заметное изменение привычных параметров деятелности, поведения, общения, выход за рамки «обыкновенности».

Основные виды трудных ситуаций:

- ситуация деятелности,
- ситуация социалного взаимодействия
- ситуация внутриличностного плана.

В зависимости от того, как воспринимается угроза, трудные ситуации могут имет три уровня:

1. трудности, как потенциалная угроза (проблемные ситуации деятелности, проблемные ситуации взаимодействия и внутренние затруднения);

2. трудност как непосредственная угроза (критические, аварийные ситуации деятелности, пред конфликтные ситуации взаимодействия, внутриличностные конфликты);

3. трудности как реализующаяся угроза (экстремалные, в том числе и боевые, ситуации, конфликтные ситуации и внутриличностные кризисы).

В процессе социалного взаимодействия у человека существует определенный диапазон вариантов ожидаемого поведения, общения, деятелности со стороны другого человека, являющегося партнером по взаимодействию. Варианты поведения могут быт желателными, допустимыми, нежелателными и недопустимыми. Характер поведения зависит от индивидуально-психологических особенностей человека, эго психического состояния, отношения к конкретному партнеру по взаимодействию, особенностей актуалной ситуации взаимодействия. Эсли реалное поведение партнера укладывается в рамки желаемого или допустимого, то взаимодействие

продолжается бесконфликтно. Эсли нет -либо прерывается, либо переходит в конфликтную фазу.

Некоторые отношения переходят в конфликты в силу того, что рамки допустимого поведения у человека могут быт заужены в результате эго эгоистической ориентации или чрезмерного стремления к лидерству. Памки допустимого поведения одного и того же человека бывают различными по отношению к разным партнерам.

Эще одна психологическая причина возникновения конфликта – 2 значителная вариативност психологической устойчивости к отрицателному воздействию на психику стрессовых факторов социалного взаимодействия. Вы можете исползоват какое-либо воздействие на человека, считая эго достаточно нейтралным или слабым, но для вашего оппонента оно может оказатся достаточно силным.

Жизн человека так устроена, что вероятност обстоятелств, грозящих нарушением оптималного процесса развития личности, эго внутреннего мира, велика, и плохо, эсли человек к ним не подготовлен.

От внутриличностных конфликтов никто не застрахован. Их арсенал поистине неисчерпаем. В ироничной формуле указаны условия, необходимые для предупреждения внутриличностного конфликта:

1. не желат (так. как отпугнеш);
2. не надеятся (иначе болно будет, эсли не получится);
3. не искат дважды в одном. месте (удача не глупее тебя);
4. искат молча;
5. не хватат грязными. руками;
6. вовремя отпускат.

Под разрешением (преодолением) внутриличностного конфликта понимается восстановление согласованности внутреннего мира личности, установление эдинства сознания, снижение остроты противоречий жизненных отношений, достижение нового жизненного качества. Разрешение внутриличностного конфликта может быт конструктивным и деструктивным. При конструктивном преодолении внутриличностного конфликта достигается душевное равновесие, углубляется понимание жизни, возникает новое ценностное сознание. Разрешение внутриличностного конфликта осознается через: отсутствие болезненных состояний, связанных с имевшимся конфликтом; снижение проявлений негативных психологических и социально-психологических факторов внутриличностного конфликта; повышение качества и эффективности профессионалной деятелности.

В зависимости от индивидуалных характеристик люди относятся к внутренним противоречиям по-разному, избирают свои стратегии выхода из конфликтных ситуаций. Одни погружаются в размышления, другие тотчас начинают действоват, трети окунаются в захлестывающие их эмоции. Важно, чтобы человек, отдавая себе отчет в собственных индивидуалных особенностях, вырабатывал свой стил разрешения внутренних противоречий, конструктивное отношение к ним. Способы разрешения конфликта, время, затрачиваемое на это у людей с разными типами темперамента, различны. Холерик решает все быстро, предпочитая поражение неопределенности. Меланхолик долго размышляет, взвешивает, прикидывает, не решаяс приступит к каким-либо действиям. Однако такой мучителный рефлексивный процесс не исключает возможност в корне изменит сложившуюся ситуацию. Свойства темперамента влияют на динамическую сторону решения внутриличностных противоречий: на скорост переживаний, их устойчивост, индивидуалный ритм протекания, интенсивност, направленност вовне или вовнутр.

Различные способы выхода из конфликтов у мужчин и женщин. Мужчины более рационалны, они с каждым новым внутриличностным переживанием обогащают свой набор средств разрешения ситуации. Женщины всякий раз по-новому радуются и страдают. Они разнообразнее в личностных характеристиках, а мужчины — в ролевых. Женщины болше успевают обновит и как бы заново отредактироват накопленный опыт, мужчины менее склонны возвращатся к пережитому, но умеют своевременно выйти из конфликта.

Механизмы защиты, развивающиеся в онтогенезе как средство адаптации и разрешения конфликтов, могут при определенных условиях вызыват противоположные состояния дезадаптации. В основе этой неоднозначности лежит то, что механизмы защиты являются в своем болшинстве продуктами конфликтов раннего онтогенеза.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Анцупов А.Я. Конфликтология. “Уляновский Дом печати”, 1996.
2. Кармин А. С. Конфликтология. Издателство «Лан», 1999.
3. Леонов Н.И. Конфликтология. Издателство «Лан», 1997.

BOSHLANG‘ICH YOSHDA TAFAKKUR VA NUTQ RIVOJLANISHI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Fayziyeva Nodira Sobirovna
stajyor o‘qituvchi Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ishda kichik maktab yoshidagi bolalarda tafakkur va nutq rivojlanishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik psixologik nuqtai nazardan tadqiq etilgan. Tafakkur bolaning bilish faoliyatining asosiy komponenti hisoblanib, uning rivojlanishi nutq bilan chambarchas bog‘liq ekanligi aniqlangan. Nutq orqali bola fikrlaydi, o‘z taassurotlarini ifoda etadi hamda atrof-muhit haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi. Tadqiqotda L.S.Vigotskiy, J.Piaje, A.N.Leontev kabi psixologlarning fikrlariga tayanilgan holda, nutq rivojlanishi tafakkurning shakllanishi uchun muhim omil ekanligi ilmiy asoslab berilgan. Shu bilan birga, tafakkurning faol rivojlanishi nutqning lug‘aviy va grammatik tuzilishi takomillashishiga xizmat qilishi ko‘rsatilgan. Ishda bolalarda tafakkur va nutqni uyg‘un rivojlantirishning samarali psixologik-pedagogik usullari ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tafakkur, nutq, kichik maktab yoshi, kognitiv rivojlanish, nutqiy faoliyat, psixologik bog‘liqlik.

Bolaning psixik rivojlanishida tafakkur va nutqning shakllanishi muhim ahamiyatga эga. Kichik maktab yoshi — bu bola shaxsining intellektual va kommunikativ qobiliyatlari jadal rivojlanadigan davr hisoblanadi. Shu bosqichda nutq va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Tafakkur insonning atrof-muhitni anglash, hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanishni tushunish va yangi bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyati bo‘lib, u nutq orqali ifodalanadi va mustahkamlanadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda nutq faqat muloqot vositasi sifatida emas, balki tafakkurni shakllantiruvchi asosiy omil sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bolalarning lug‘at zahirasi, grammatik tuzilmalarni o‘zlashtirishi, gapni tuzish va fikrni izchil ifoda etish malakasi orqali ularning fikrlash jarayoni ham rivojlanadi. Shu boisdan nutq va tafakkur rivojlanishi o‘zaro chambarchas bog‘langan jarayonlar hisoblanadi.

Ushbu mavzudagi tadqiqotlar kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy faoliyatini, ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatini va ijtimoiy moslashuvini samarali ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Nutqning to‘liq va to‘g‘ri rivojlanishi bolaning fikrlash qobiliyatini, bilimlarni qabul qilish va ularni tahlil qilish salohiyatini oshiradi.

Shuning uchun kichik maktab yoshidagi bolalarda tafakkur va nutq rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish pedagogik va psixologik jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda tafakkur rivojlanishi. Kichik maktab yoshi — bu bolaning hayotida kognitiv faoliyat jadal rivojlanadigan bosqich hisoblanadi. Bu davrda bola maktab ta’limi jarayoniga qadam qo‘yib, atrof-muhitni anglash, o‘qish, yozish, hisoblash kabi faoliyatlar orqali tafakkurini rivojlantiradi. Psixologlar (J.Piaje, L.S.Vigotskiy, A.V.Zaporojes, P.Ya.Galperin)ning fikricha, kichik maktab yoshida tafakkurning asosiy turi nazariy va mantiqiy fikrlashga o‘tish bosqichidir.

J.Piaje bu davrni “konkret operatsiyalar” bosqichi deb atagan. Uning ta’limotiga ko‘ra, bolalar 7–11 yosh oralig‘ida mantiqiy fikr yuritishga, sabab-oqibat aloqalarini tushunishga va tasniflashga o‘rgana boshlaydi. Bu jarayonda bola abstrakt fikrlashga to‘liq o‘tmagan bo‘lsa-da, konkret narsalar, harakatlar va so‘zlar orqali mantiqiy xulosalar chiqara oladi.

Tafakkurning rivojlanishi bolaning o‘quv faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Ta’lim jarayonida bola yangi bilimlarni o‘zlashtirish, masalalar yechish, savollarga javob izlash orqali muammoli fikrlashni, ya’ni tahlil va sintez qilish qobiliyatini shakllantiradi. Shu bilan birga, tafakkurning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun nutq faoliyati asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Nutq rivojlanishining psixologik xususiyatlari. Nutq — insonning fikrini ifoda etish va muloqot vositasidir. Kichik maktab yoshida nutq faoliyati yangi bosqichga ko‘tariladi. Bolalar grammatik tuzilishni yaxshi o‘zlashtira boshlaydilar, so‘z boyligi ortib, gaplar murakkabroq bo‘ladi. Shuningdek, nutq nafaqat muloqot, balki tafakkurni ifoda etish vositasiga aylanadi.

L.S.Vigotskiyning fikricha, nutq va tafakkur o‘zaro bog‘liq va bir-birini rivojlantiradigan jarayonlardir. Uning “ichkiy nutq” konsepsiyasiga ko‘ra, inson fikri avval nutq orqali tashqi shaklda namoyon bo‘ladi, keyinchalik u ichki nutqka aylanadi va tafakkurning asosiy vositasiga aylanadi.

Maktab yoshidagi bolalarda nutq rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- So‘z boyligining kengayishi;
- Sintaktik tuzilishning murakkablashuvi;
- Ma’noni aniq ifoda etish qobiliyatining o‘sishi;
- Monolog va dialog nutqning rivojlanishi;
- Mavzuli va mantiqiy nutqning shakllanishi.

Bu jarayonlar bolaning kognitiv faoliyati, tafakkur darajasi va ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda kechadi.

Tafakkur va nutq rivojlanishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik. Tafakkur va nutq rivojlanishi bir-biridan ajralmas jarayonlar hisoblanadi. Tafakkur nutq orqali shakllanadi va nutq tafakkur orqali mazmun bilan boyiydi. Bolaning fikrlay olish qobiliyati uning so‘z orqali o‘z fikrini ifoda eta olish darajasiga bog‘liq.

Agar bolaning nutqi yetarlicha rivojlanmagan bo‘lsa, uning fikrlash jarayoni ham cheklangan bo‘ladi, chunki u so‘zlar yordamida tafakkurini to‘liq ifoda eta olmaydi. Shuning uchun maktab yoshida nutqni rivojlantirish — tafakkurni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Amaliyotda bu quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- Muammoli savollarga javob berishda bola so‘zlar orqali mantiqiy izohlar keltiradi;
- Hikoya tuzish yoki matn mazmunini qayta ifoda etishda fikr izchilligi va mantiqiy bog‘lanish paydo bo‘ladi;
- Masala yechish jarayonida nutq fikrni boshqarish va tekshirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Demak, tafakkur va nutq o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik o‘quv jarayonida, muloqotda va ijodiy faoliyatda namoyon bo‘ladi.

Kichik maktab yoshida bolaning tafakkur va nutq faoliyati tez sur’atlarda rivojlanadi. Ularning o‘zaro bog‘liq rivojlanishi bolaning shaxsiy, ijtimoiy va kognitiv kamoloti uchun muhim asos yaratadi. Shu sababli, pedagoglar va psixologlar ushbu yoshda nutqni rivojlantirish bilan bir qatorda tafakkurni faollashtiruvchi usullardan — muammoli vaziyatlar, ijodiy topshiriqlar, didaktik o‘yinlardan keng foydalanishlari zarur.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda tafakkur va nutq rivojlanishi o‘zaro chambarchas bog‘liq jarayonlardan hisoblanadi. Bu davrda bolaning tafakkuri hissiy idrokdan mantiqiy fikrlashga o‘tadi, natijada uning nutq faoliyati ham mazmun va shakl jihatidan boyib boradi. Nutq tafakkurning asosiy ifodasi sifatida bolaga o‘z fikrlarini ifoda etish, atrof-muhitni anglash va muloqot orqali ijtimoiylashuv imkonini beradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nutqning faol rivojlanishi bolada mantiqiy fikrlash, umumlashtirish, taqqoslash, sabab-oqibat bog‘lanishlarini anglash kabi aqliy operatsiyalarni shakllantiradi. Shu bilan birga, tafakkurning faolligi nutqning lug‘aviy zaxirasini kengaytiradi va uning tuzilishini mukammallashtiradi.

Shu bois, kichik maktab yoshida bolalarning tafakkur va nutq rivojlanishini birgalikda qo‘llab-quvvatlash ta’lim-tarbiya jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun o‘qituvchi va ota-onalar bolalarni erkin fikrlashga, nutq orqali o‘z fikrini aniq va mantiqan bayon etishga o‘rgatishlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Vigotskiy L. S. Мышlenie i rech. — M.: Labirint, 1999. — S. 5–46, 112–180.

2. Эlkonin D. B. Psixologiya razvitiya mladshego shkolnika. — M.: Pedagogika, 1974. — S. 34–78.

3. Leontev A. N. Deyatelnost. Soznanie. Lichnost. — M.: Smысl, 2005. — S. 45–90.

4. Piaje J. Rech i мышlenie rebenka. — M.: Pedagogika, 1997. — S. 12–65.

5. Usmonboeva M. Psixologiya. — T.: O‘qituvchi, 2012. — B. 145–168.

6. Qodirova N. Bolalar psixologiyasi. — T.: Fan, 2018. — B. 89–120.

7. Luriya A. R. Yazык i soznanie. — M.: Izd-vo MGU, 1979. — S. 20–59.

8. Davletshina T. Bolalarda tafakkur va nutq rivojlanishi. — T.: TDPU nashriyoti, 2020. — B. 37–82.

9. Muxamedova Sh. Psixologik ontogenezda nutq va tafakkur integratsiyasi. — T.: Ijod nashriyoti, 2021. — B. 54–101.

10. Velichkovskiy B. M. Kognitivnaya nauka: Osnovы psixologii poznaniya. — M.: Smысl, 2006. — S. 210–245.

11. Fayziyeva N.S.(19-20 may 2023) Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda aloqa ko'nikmalarini rivojlantirish shakllari va usullari, Jizzakh state pedagogical university «Modern social psychology:traditions and perspectives»i - International scientific and practical conference 19-20 may

12. Fayziyeva N.S. (May 15, 2023) O‘quvchi-qizlarning axloqiy tarbiyasi pedagogic-psixologik muammo sifatida, Pedagogik ta’lim xalqaro fanlar akademiyasi akademigi, texnika fanlari doktori, professor To’raqulov Xolbo’ta Abilovich xotirasiga bag’ishlangan “Ilmga baxshida hayot” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.

13. Fayziyeva, N. (2022). Kichik yoshdagi maktab bolalarning kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish. Evraziyskiy jurnal soцialnых nauk, filosofii i kulturы, 2(12), 211-215.

O’SMIRLIK DAVRIDA TAFAKKUR RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Norboyeva Saida
JDPU Psixologiya y‘onalishi II-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘smirlik davrida tafakkurning shakllanishi va rivojlanish jarayoni psixologik hamda pedagogik nuqtaiy nazardan tahlil qilinadi. O‘smirlik davri - inson hayotidagi eng muhim psixologik bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda shaxsning dunyoqarashi, o‘ziga va atrof-muhitga munosabati, bilish faoliyati va tafakkur jarayoni faol o‘zgaradi. Tadqiqotda o‘smir tafakkurining o‘ziga xos jihatlari, uning mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlashga o‘tish bosqichlari batafsil yoritilgan. Shuningdek, o‘smir tafakkurining o‘ziga xos xususiyatlari, ularni rivojlantirish yo‘llari va pedagogik-psixologik shart-sharoitlar ilmiy asosda bayon etilganadi.

Kalit sozlar: O‘smirlik davri, tafakkur, fikrlash jarayoni, mantiqiy tafakkur, ijodiy tafakkur, tanqidiy fikrlash, bilish faoliyati, kognitiv rivojlanish, shaxs psixologiyasi, o‘smir psixologiyasi, ijtimoiy omillar, ta’lim jarayoni, pedagogik yondashuv, psixologik rivojlanish va boshqalar.

O’smirlik davri – inson hayotidagi o‘ziga xos psixologik bosqich bo‘lib, bu davrda jismoniy, hissiy va aqliy o‘sish jarayonlari jadallashadi. Aynan shu davrda tafakkur faoliyati tubdan o‘zgaradi: bola konkret fikrlashdan abstrakt, mantiqiy va nazariy fikrlash bosqichiga o‘tadi. O‘smirlar endi tayyor bilimlarni yod olishdan ko‘ra, ularni tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va yangi xulosalar chiqarishga intiladilar. Shu bilan birga, ular mustaqil fikr yuritish, o‘z nuqtai nazarini shakllantirish va uni himoya qilish ehtiyojini his eta boshlaydilar.Zamonaviy psixologik va pedagogik tadqiqotlar (J. Piage, L.S. Vygotskiy, A.V. Petrovskiy va boshqalar) o‘smir tafakkurining rivojlanishini shaxsning bilish faoliyatining yangi bosqichi sifatida baholaydilar. Bu davrda o‘quvchi dunyoni mantiqan tushunishga, nazariy fikrlash asosida hodisalar orasidagi bog‘liqlikni izohlashga harakat qiladi. Shu sababli o‘smir tafakkurining rivojlanishi — bu nafaqat aqliy jarayon, balki ijtimoiy tajriba, emotsional yetilish va shaxsiy o‘sishning ham ajralmas qismi hisoblanadi.Inson tafakkuri — bu uning eng oliy darajadagi bilish faoliyatidir. Tafakkur yordamida inson voqelikni chuqur anglaydi, hodisalar o‘rtasidagi sababiy bog‘liqlikni tushunadi, muammolarga yechim topadi va yangi g‘oyalarni yaratadi. Tafakkurning rivojlanishi shaxsning intellektual salohiyati, dunyoqarashi hamda jamiyatdagi faol pozitsiyasini belgilovchi eng muhim omillardan biridir.O‘smirlik davri — inson hayotidagi o‘ziga xos psixologik bosqich bo‘lib, bu davrda jismoniy, hissiy va aqliy o‘sish jarayonlari jadallashadi. Aynan shu davrda tafakkur faoliyati

tubdan o‘zgaradi: bola konkret fikrlashdan abstrakt, mantiqiy va nazariy fikrlash bosqichi, psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smir tafakkurining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Mantiqiy fikrlashning rivojlanishi. O‘smir endi hodisalarni faqat tashqi belgilariga qarab emas, balki ularning mohiyatini tahlil qilib tushunishga harakat qiladi. U sabab-oqibat bog‘liqliklarini izlab topadi, o‘z fikrini mantiq asosida asoslay oladi. Abstrakt va nazariy tafakkur. Bu yoshda bola konkret misollar bilan cheklanib qolmaydi, balki umumiy tushunchalar bilan ishlay boshlaydi. U nazariy fikrlash orqali hayotiy vaziyatlarga kengroq yondasha oladi.

Tanqidiy fikrlashning shakllanishi. O‘smir o‘zini atrofdagi odamlar bilan solishtira boshlaydi, o‘z qarashlarini himoya qilishga, boshqalar fikrini baholashga o‘rganadi. Bu esa tafakkurning mustaqil shaklini kuchaytiradi.

Ijodiy tafakkurning faollashuvi. O‘smirlik davrida shaxsda yangi g‘oyalarni ilgari surish, o‘ziga xos qarashlarni shakllantirish istagi kuchayadi. Bu bosqichda ijodiy tafakkurni qo‘llab-quvvatlash o‘ta muhimdir. Psixologlar fikricha, o‘smir tafakkuri rivojida hissiy holat, motivatsiya va o‘z-o‘zini anglash jarayonlari ham muhim rol o‘ynaydi. Shu bois o‘smirlikda tafakkur nafaqat bilish faoliyati, balki shaxsning ichki dunyosi, qadriyatlari va hayotiy pozitsiyasi bilan uzviy bog‘liqdir.

Tafakkur rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar.O‘smir tafakkurining shakllanishi ko‘p omilli jarayondir. U biologik, psixologik, ijtimoiy va pedagogik sharoitlar bilan belgilanadi.

1. Ta’lim muhitining roli.Maktab va o‘quv jarayoni o‘smir tafakkurini rivojlantiruvchi asosiy omillardandir. O‘quv dasturlarida mantiqiy fikrlashni talab qiluvchi topshiriqlar, mustaqil izlanish ishlari, tahliliy mashg‘ulotlar ko‘p bo‘lsa, o‘quvchi tafakkuri yanada faollashadi.

2. Oila muhiti.Ota-onaning o‘z farzandi bilan olib boradigan muloqoti, unda mustaqil fikrlashga bo‘lgan hurmat, savol-javoblar orqali o‘ylashga undash o‘smir tafakkurining rivojida katta ahamiyatga ega.

3. Ijtimoiy omillar.Do‘stlar davrasi, o‘qituvchi bilan munosabat, ijtimoiy tarmoqdagi axborot oqimi — bularning barchasi o‘smir tafakkurini shakllantiruvchi muhim shartlardir. Ijtimoiy muhitda o‘smir o‘z fikrini ifoda etish, himoya qilish, tahlil qilishni o‘rganadi.

4. Texnologik omillar.Axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish tafakkur uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Elektron ta’lim, multimedia resurslari va interfaol dasturlar orqali o‘smirlar mustaqil izlanish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

5. Shaxsiy motivatsiya. Bilishga bo‘lgan qiziqish, yangi narsalarni o‘rganishga intilish, o‘zini rivojlantirish ehtiyoji tafakkur jarayonining eng kuchli ichki harakatlantiruvchi kuchidir.O‘smirlarda tafakkur rivojlanishini ta’minlash uchun

zamonaviy ta’lim jarayonida bir qator samarali metod va yondashuvlardan foydalanish zarur. Jan Piagetning asosiy g‘oyasi: Kognitiv rivojlanish nazariyasi hisoblanadi.

Tadqiqotlar: Jan Piaget bolalar tafakkurining rivojlanish bosqichlarini aniqlagan. Uning fikricha, o‘smirlik davrida bola “formal operatsiyalar bosqichiga” o‘tadi. Bu bosqichda u abstrakt, mantiqiy va gipotezaga asoslangan fikrlash qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘smir endi nafaqat konkret narsalarni, balki nazariy tushunchalarni ham tahlil qila boshlaydi. Bu tafakkurning yetuklik belgisi hisoblanadi.

Lev Semyonovich Vygotskiy tadqiqotlari: Vygotskiy tafakkur va nutq o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikka urg‘u bergan. U o‘smir tafakkurining rivojlanishini ijtimoiy muhit va til orqali shakllanishini ta’kidlagan. Jan Piaget tadqiqotlari: Piaget bolalar tafakkurining rivojlanish bosqichlarini aniqlagan. Uning fikricha, o‘smirlik davrida bola “formal operatsiyalar bosqichiga” o‘tadi. Bu bosqichda u abstrakt, mantiqiy va gipotezaga asoslangan fikrlash qobiliyatiga ega bo‘ladi.O‘smir endi nafaqat konkret narsalarni, balki nazariy tushunchalarni ham tahlil qila boshlaydi. Bu tafakkurning yetuklik belgisi hisoblanadi.Lev Semyonovich Vygotskiy tadqiqotlari: Vygotskiy tafakkur va nutq o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikka urg‘u bergan. U o‘smir tafakkurining rivojlanishini ijtimoiy muhit va til orqali shakllanishini ta’kidlagan. Neyronlar orasidagi aloqalar takomillashadi, bu esa axborotni tezroq qayta ishlash va murakkab tafakkur operatsiyalarini bajarish imkonini beradi. Miyelin qoplamasining mustahkamlanishi axborot uzatish tezligini oshiradi. O‘smirlik davrida biologik o‘zgarishlar — bu tafakkur rivojining tabiiy poydevori. Asab tizimi va miya faoliyatining takomillashuvi, gormonal o‘zgarishlar, fiziologik yetilish — bularning barchasi o‘smirda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bois, o‘smir tafakkurini rivojlantirishda biologik, psixologik va ijtimoiy omillarni kompleks holda o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimova V. M. Umumiy psixologiya. — T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017.

2. G‘oziyev E. G‘. Shaxs psixologiyasi. — T.: O‘qituvchi, 2002.

3. Nishonova Z. X., Yo‘ldosheva Sh. Psixologiya. — T.: Fan va texnologiya, 2015.

4. Piaget, J. The Psychology of the Child. — New York: Basic Books, 1969.

5. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge, MA: Harvard University Press,

O‘SMIRLARNING IJTIMOIY IDENTIFIKATSIYASIDA MAMLAKAT IJTIMOIY HAMJAMIYATINING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

M.S.Usmonova
Jizzax davlat pedagogika universiteti
umumiy psixologiya kafedrasi o’qituvchisi
usmonovamunira1996@gmail.com
M.EAliddinova
JDPU II bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘smir yoshidagi shaxsda vatanparvarlik tuyg‘usining shakllanishi, uning psixologik mexanizmlari, ijtimoiy-madaniy identifikatsiya jarayonining ahamiyati hamda ijtimoiy muhitning ta’siri ilmiy asosda yoritilgan. O‘smirlarning ijtimoiy ongida vatanparvarlik qadriyatlarining shakllanishi, milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira, ma’naviy meros va fuqarolik mas’uliyatning roli tahlil qilingan

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, vatanparvarlik, ijtimoiy-madaniy identifikatsiya, tarixiy xotira, milliy o‘zlik, qadriyatlar, ijtimoiy muhit, fuqarolik mas’uliyati, psixologik omillar, ijtimoiy ong, vatanparvarlik tarbiyasi.

Shaxsning mamlakatga sodiqligi ijtimoiy psixologiyasining predmeti sifatida shaxsning mamlakatga sodiqlik ijtimoiy-psixologik hodisasining paydo bo'lishi, faoliyati va namoyon bo'lish qonuniyatlarini shaxs darajasida, kichik va katta guruhlar darajasida aniqlash mumkin. shuningdek, butun jamiyatning makro darajasida. Shaxsning mamlakatga sodiqligi ijtimoiy psixologiyasining predmeti bir qator hodisalarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, bular shaxsning qiymat-semantik sohasida, uning ijtimoiy-psixologik moslashuvining o'ziga xos xususiyatlarida, hayotiy strategiyalarni qurishda va ijtimoiy xulq-atvorda namoyon bo'ladigan mamlakatga sodiqlikning barqaror individual psixologik xususiyatlari. Ikkinchidan, bular mamlakatga sodiq shaxsning o'tish davri ijtimoiy-madaniy voqelikni idrok etishi, bilishi va tajribasining ongli va ongsiz, rasmiy-dinamik va mazmunli xususiyatlari. Uchinchidan, bu shaxslararo, guruh ichidagi va guruhlararo darajadagi mamlakatga sodiq shaxsning ijtimoiy o'zaro ta'sirining xususiyatlari. To‘rtinchidan, bu shaxsning mamlakatga sadoqatining o‘zgarishi munosabati bilan ijtimoiy guruhlar va yirik ijtimoiy-geografik jamoalarning rivojlanishi va faoliyatidagi o‘zgarishlardir. Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, vatanparvarlik yoshlar ongining markaziy psixologik sifatlaridan biri bo‘lib, u ijtimoiy birlik, ma’naviy barqarorlik va fuqarolik mas’uliyatini ta’minlaydi. Bu fikrlar mamlakatning ijtimoiy hamjamiyati psixologik

mohiyatini, shuningdek, o‘smirlar ongida vatanparvarlik identifikatsiyasining shakllanish jarayonini ilmiy asoslashga xizmat qiladi[1].

Shaxsning mamlakatga sodiqligi asosiy munosabatlarni aks ettiruvchi ob'ektdir shaxs katta barqaror guruhdir va bu munosabatlarni mahalliylashtiradigan va yaratadigan shaxslarga qaratilgan. Ushbu ilmiy ob'ekt sub'ektning voqelikni semantik talqin qilish, hissiy tanlovni amalga oshirish va mamlakat ijtimoiy hamjamiyati madaniyatini meros qilib olish qobiliyatini namoyon etadigan shaxsga qaratilgan va shu bilan birga o'z tarixi, madaniyati bilan ajralib turadigan ijtimoiy jamoaga qaratilgan, an'analar, moddiy va ma'naviy qadriyatlar. Ushbu ilmiy ob'ektning o'ziga xosligi uning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirishni ham, uni o'zgartirish mexanizmlari va omillarini izlashni ham talab qiladi, ya'ni bir tomondan, uni har bir paradigma doirasida o'rganishga imkon beradi[2]. Ijtimoiy psixologiyada shakllangan va boshqa tomondan, uning bilimini shakllangan paradigmalardan biri bilan cheklashni imkonsiz qiladi. Bunday ijtimoiy-psixologik ob'ektning ko'p qirraliligi uni o'rganish jarayonida testlar va anketalar yordamida katta namunalarni o'rganish modelidan, ijtimoiy-psixologik eksperiment usulidan va ma'lumotlarni yuqori sifatli, fenomenologik tahlil qilish usullaridan foydalanishga imkon beradi. Shu munosabat bilan, shaxsning mamlakatga sodiqligini o'rganishni tashkil etish mavjud paradigmalarni sintez qilishni talab qiladi, ularning imkoniyati P. N. Shixirev tomonidan ijtimoiy psixologiyaning keyingi rivojlanish davrlarida belgilab qo'yilgan [3].

Ijtimoiy psixologiyada paradigmalarni sintez qilish g'oyasi, shuningdek, bir qarashda mos kelmaydigan elementlar va pozitsiyalarni birlashtirish g'oyasi zamonaviy ilmiy postmodern paradigmaga xosdir. Turli fundamental ilmiy munosabatlar majmuini qo‘llashga e’tibor falsafalashning klassik bo‘lmagan turiga borib taqaladi, bu esa poststrukturalizm, strukturaviy psixoanaliz, neomarksizm, fenomenologiya, M.Xaydegger falsafasi va an’analarni keltirib chiqardi post-ilmiy fikrlash, dialog falsafasi va til o'yinlari nazariyasi. Postmodern tafakkurning asosiy tamoyillaridan biri radikal plyuralizm tamoyili va bilimlarning bir-birini to‘ldirish tamoyilidir. Postmodern paradigma o'zgaruvchan vaziyatli ijtimoiy-madaniy kontekstlarda sub'ektivlik, ma'no izlash va faktlarni talqin qilishga alohida e'tibor beradi [4].

1. Pedagogik universitetning innovatsion ta’lim muhiti tushunchasining mualliflik ta’rifi berilgan bo‘lib, u talabalarni psixologik tayyorlash jarayonini yaxlit tashkil etish deb tushuniladi - bo‘lajak o‘qituvchilar uning barcha tarkibiy qismlarining (maqsadlari, mazmuni, shakllari, usullari, vositalari) birligida, sub’ektivlik va sub’ektivlik, faollik, modellashtirish, refleksivlik, talabalarning rivojlanish potentsialini aktuallashtirish, maqbullik, shaxsning ijobiy ^-kontseptsiyasini shakllantirish, izchillik, ongning aksiologik tuzilishini shakllantirish, kompensatsiya, muvaffaqiyatsizliklarning konstruktiv roli, amalga oshirish talabalar psixologiya sohasida nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lishlari bilan bir qatorda, amaliy muammolarni hal qilishda ulardan foydalanish qobiliyati hayotda o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun barqaror va ongli istakni shakllantirishga, o‘z-o‘zini anglashga, psixologik bilimlarni o‘z-o‘zini o‘zgartirish va o‘zini rivojlantirish qobiliyatini, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qo‘llash qobiliyatiga yordam beradi.

2. Talabalarning psixologik tayyorgarligi kontseptsiyasi ishlab chiqilgan va asoslangan - talabalarning psixologik tayyorgarligining nazariy va uslubiy asoslarini, asosiy g‘oyasini, tamoyillarini, texnologik yaxlitligini, talabalar shaxsini o‘z-o‘zini rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini, talabalarning kasbiy o‘zini o‘zi anglashi uchun psixologik shart-sharoitlarni shakllantirishning psixologik va pedagogik shartlarini, kelajakdagi o‘qituvchilarni psixologik tayyorlashning taklif etilayotgan tizimining samaradorligi ko‘rsatkichlarini tizimli ravishda birlashtirgan pedagogik universitetning innovatsion ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilar. va talabalarga psixologik tayyorgarlikning akmeologik yondashuvi g‘oyalariga asoslangan. inson rivojlanishini o‘rganish, shaxsni kasbiy shakllantirish va amalga oshirishga tizimli yondashuv, shaxsni o‘rganishga kompleks yondashuv, subyektiv yondashuv, faoliyat yondashuvi, aksiologik yondashuv, talabalarni kasbiy

tayyorlashga shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, universitetda o‘qishga belgi-kontekstli yondashuv, talabalarni oliy o‘quv yurtlariga kompetentsiyaga asoslangan yondashuv.

3. Pedagogik universitetning innovatsion ta’lim muhitida talabalar-bo‘lajak o‘qituvchilarni psixologik tayyorlash tizimining modeli uning analog sxemasi sifatida ishlab chiqilgan bo‘lib, u o‘qituvchi shaxsining kasbiy muhim fazilatlari modellari bilan mazmunli bog‘liq bo‘lib, pedagogik faoliyat bilan shaxsga qo‘yiladigan talablarni tavsiflaydi. Model sxemasi maqsadli, mazmunli, texnologik, diagnostika bloklarini o‘z ichiga oladi, ularni amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari biz taklif qilayotgan yondashuvning asosiy g‘oyasi bilan belgilanadi, ya’ni kelajakdagi o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga psixologik tayyorlash, o‘quv jarayonini psixologik qo‘llab-quvvatlash uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish bilan bir qatorda, ularning kasbiy o‘zini o‘zi anglashi uchun psixologik shart-sharoitlarni shakllantirishga Ushbu g‘oyaga muvofiq, pedagogik faoliyatning funktsional tarkibiy qismlari va talabalar shaxsiyatining shakllangan kasbiy muhim fazilatlarining tuzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan modelning maqsadli bloki ularning psixologik tayyorgarligi jarayonini ular uchun pedagogik kasb tomonlarining sub’ektiv ahamiyati darajasini oshirishga yo‘naltiradi, bu o‘z-o‘zini rivojlantirish, doimiy kasbiy va shaxsiy o‘sish, boshqa odamga uning rivojlanishida yordam berish qobiliyati, o‘z shaxsiyatining hissasi, progressiv, ijodiy xarakter motivlarini rivojlantirish orqali kasbni rivojlantirish, talabalarning shaxsiyatining motivatsion sohasining tarkibiy tarkibiy qismlari sifatida doimiy ravishda o‘zini takomillashtirishga tayyorlik darajasini oshirish; pedagogik faoliyat operatsion sohasining psixologik tarkibiy qismi sifatida shaxsning progressiv o‘zini o‘zi anglash muammolari bilan bog‘liq talabalar bilimlarini kengaytirish. Modelning mazmunli bloki talabalarning kasbiy faoliyatda subyektiv "akme" ga erishishga yordam beradigan shaxsning kasbiy mahorati psixologiyasi sohasidagi vakolatlari darajasini oshirishni nazarda tutadi. Texnologik blok talabalar bilan ishlash shakllari va usullarini o‘z ichiga oladi, ular an’anaviy shakllarda ham, individual va guruh xarakteriga ega bo‘lgan qidiruv, konstruktiv faoliyat shakllarida ham tashkil etiladi, ularning asosida bir qator mualliflik vazifalari va mashqlari taklif etiladi. Modelning diagnostika bloki-bu kelajakdagi o‘qituvchilar shaxsiyatining shakllangan kasbiy muhim fazilatlarining rivojlanish darajasini aniqlashga qaratilgan usul va usullar majmui.

Ta’lim sifatini uning barcha darajalarida va amalga oshirishning barcha shakllarida oshirish muammosi hozirgi kunda eng muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu yaqin kelajakda hozirgi avlod o‘rnini bosadiganlar bilan ishlashga majbur bo‘lgan talabalar-bo‘lajak o‘qituvchilarning psixologik tayyorgarligiga to‘liq taalluqlidir.

Endi ijtimoiy hayotning barcha jabhalarining tubdan o‘zgarishi munosabati bilan oliy pedagogik ta’lim tizimini takomillashtirish masalasi ayniqsa dolzarbdir.

Oliy kasbiy va pedagogik ta’lim tizimini modernizatsiya qilish zarurati so‘nggi yillarda aniq ko‘rsatilgan bir qator qarama-qarshiliklar bilan bog‘liq: o‘qituvchilarni tayyorlashning odatiy tizimi va ularning kasbiy faoliyatining individual va ijodiy tabiati o‘rtasidagi ziddiyat; o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar o‘rtasida zamonaviy haqiqat va bitiruvchilarning kasbiy funktsiyalarni bajarishga tayyorligining haqiqiy darajasi; pedagogik muammolarni hal qilishda tizimli tahlilni qo‘llash zarurati o‘rtasida va kelajakdagi o‘qituvchilarni tayyorlashga yaxlit yondashuvning yo‘qligi; zamonaviy rus jamiyatida mavjud bo‘lgan turli xil profildagi professional mutaxassislarga, shu jumladan o‘qituvchilarga bo‘lgan ehtiyoj va zamonaviy rus jamiyatida o‘qituvchilik kasbining obro‘sining pasayishi, yoshlarning o‘qituvchi bo‘lish istiqbolidan qoniqishining pasayishi o‘rtasida. Oliy kasb-hunar ta’limi tizimini modernizatsiya qilish talabalarni tayyorlash jarayonining turli jihatlari va jihatlariga ta’sir qiladi: ta’lim falsafasi, maqsadlari, ta’lim mazmuni, ta’limni tashkil etish va jarayoni, talabalarning bilim va ko‘nikmalarini baholash va nazorat qilish shakllari. Bu oliy kasb-hunar ta’limi tizimida innovatsiyalarning tarqalishida namoyon bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida ijobiy innovatsiya jarayonlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tashkiliy va boshqaruv sharoitlarini ta’minlashi kerak bo‘lgan qulay universitet muhitining mavjudligini ta’minlaydi. Ta’lim tizimidagi innovatsiyalar zaruratga aylandi, biz ularni to‘plangan muammolarni hal qilish usuli sifatida ko‘rib chiqamiz: inqirozdan chiqish hayot sifatini, ta’lim sifatini uning tarkibiy qismi sifatida va o‘quv jarayonining kutilgan natijasini yaxshilashi mumkin.

Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun ta’lim tizimining muhim qismi ularning psixologik tayyorgarligidir, chunki pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari o‘qituvchidan ularni kundalik faoliyatida qo‘llash uchun keng psixologik bilim va ko‘nikmalarni talab qiladi. Psixologiya eng "insonshunoslik" fanlaridan biri sifatida insonning aqliy hayotini, uning xatti-harakatlarining ichki, yashirin buloqlarini bilish uchun kalit beradi. Psixologiya tomonidan o‘rganilgan hodisalar sohasining o‘zi uni o‘qituvchining umumiy madaniyatining bir qismiga aylantiradi va shuning uchun kelajakdagi o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash tizimining muhim tarkibiy qismidir.

Psixologiya, uni o‘rganish mavzusiga kiritilgan muammolar doirasi tufayli, akmeologiya bilan uzviy bog‘liqdir. Psixologik fan psixikaning paydo bo‘lishi, ishlashi va rivojlanishi masalalarini o‘rganadi, ular orasida shaxsning o‘zini o‘zi anglash muammosi keng o‘rin egallaydi. Ushbu muammo bir vaqtning o‘zida insonning akmeologik bilimlarining asosiy ilmiy muammosidir. Akmeologiya-bu inson faoliyatining turli sohalarida cho‘qqilarni zabt etishning qonuniyatlari,

mexanizmlari va usullarini o‘rganadigan yangi paydo bo‘lgan fan sohasi. So‘nggi yillarda akmeologiya asosan professionallik fani sifatida tushuniladi, chunki kattalarning etakchi faoliyati mehnat faoliyati hisoblanadi. Shu munosabat bilan, fandagi akmeologik yondashuvning mohiyati, bizning fikrimizcha, yuqori sifat darajasida amalga oshiriladigan kasbiy faoliyat jarayoni va natijasini o‘rganish tamoyillarini, shuningdek unga erishish omillari va shartlarini, shu jumladan shaxsning ushbu faoliyat turi sub’ekti sifatida aqliy xususiyatlarini aniqlash orqali ochib berilishi mumkin.

Pedagogika universitetining innovatsion ta’lim muhitini yaratishga talabalar - bo‘lajak o‘qituvchilarni psixologik tayyorlashga akmeologik yondashuvni amalga oshirish ham yordam berishi mumkin. Biroq, hozirgi kunga qadar akmeologik yondashuv asosan mehnat faoliyatining turli sohalarida ishlaydigan kattalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini o‘rganishda qo‘llanilgan. Talabalarni kasbiy tayyorlashda ushbu yondashuvni amalga oshirish usullari ancha kam o‘rganilgan va o‘qituvchi talabalarning psixologik tayyorgarligiga akmeologik yondashuvni qo‘llash imkoniyatlari hali maxsus tadqiqotlar mavzusi bo‘lmagan. Akmeologik yondashuv asosida o‘qituvchi talabalarni kasbiy faoliyatga psixologik tayyorlash kontseptsiyasini ishlab chiqish, nazariy asoslash va eksperimental tekshirishda ushbu tadqiqotning asosiy ilmiy ahamiyati yotadi.[5]

Kasb-hunar ta’limi sohasiga nisbatan "akmeologik yondashuv" tushunchasi talabalarda qat’iyatlilik, hayotiylik, ijobiy ichki munosabatni shakllantirishga, hayotda yuqori natijalarga erishish zarurligini aks ettiruvchi va o‘qituvchi ishining ijtimoiy ahamiyatini anglash bilan bog‘liq bo‘lgan motivlarni rivojlantirishga e’tiborni aks ettiradi.kasbiy o‘zini o‘zi anglashning asosiy psixologik shartlari. Ushbu dissertatsiya tadqiqotida ushbu kontseptsiya hayot jarayonida shakllanadigan va rivojlanadigan va kasbiy faoliyatda sub’ekt "akme" ga erishish qobiliyatining asosiga aylanadigan shaxsning individual psixologik fazilatlari sifatida belgilanadi. Bizning tadqiqotimiz doirasida ular kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan motivatsiya, pedagogik faoliyatning operatsion sohasining psixologik tarkibiy qismlarini (kasbiy bilim, o‘z-o‘zini anglash, pedagogik qobiliyatlar, shaxsning sub’ektivligining asosi sifatida ijodkorlik) o‘z ichiga oladi. Talabalarda ushbu fazilatlarni rivojlantirishga ko‘maklashish ularning "kasbiy va pedagogik faoliyatga" psixologik tayyorgarligining muhim vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 295-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, Qonun hujjatlari ma‟lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son. [1].

2. G.Jabborova, A.Ochilov “O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish muammolari nega bartaraf bo‘lmayapti?” 2019 yil. https://xs.uz/uzkr/post/.

3. Muslimov N.A., Qo‘ysinov O.A, Abduraxmonov Sh., Abdullaeva Q.M., Gaipova N.S., “Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyalari”. Metodik qo‘llanma. – T.: 2014 yil. 90-95 betlar [2].

4. Usmonova, M. (2023). OILAVIY NIZOLARDA FARZAND VA OTA-ONA MUNOSABATLARI. *Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii*, (I).

5. Sangirova, N. SHAXSNING STRESS XOLATLARINI O‘RGANISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2024,3.

6. Jo‘raev A.R.,“Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda dasturlashtirilgan ta’lim vositalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari”. Zamonaviy fan, ta’lim va tarbiyaning dolzarb muammolari. Elektron jurnal. – Urganch. 2019 yil -1son. 120-125 betlar.

7. G.Jabbarova, A.Ochilov "Why the problem of vocational guidance of students is not solved?" 2019. https://xs.uz/uzkr/post/. Muslimov NA, Koysinov OA, Abdurahmonov Sh., Abdullaeva KM, Gaipova NS, "Technologies for the formation of methodological competence of future teachers of vocational education." Methodical manual. - T .: 2014. Pages 90-95.

HARBIY BOSHQARUVDA FAOLIKNING MOTIVLARINI SHAKILANTIRISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK OMILLARINING AHAMIYATI

Umarov Davronbek Baxtiyorovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy boshqaruv tizimida shaxsiy va jamoaviy faollikning shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilinadi. Xususan, harbiy xizmatchilarning motivatsiyasi, rahbar–bo‘ysunuvchi munosabatlarining psixologik xususiyatlari, guruh dinamikasi, harbiy jamoada ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning roli, kommunikativ muhit, intizom va ma’naviy-ruhiy barqarorlikning faollikni oshirishdagi o‘rni o‘rganiladi. Tadqiqotda harbiy jamoalarda motivatsion jarayonlarning shakllanishiga ijtimoiy norma, qadriyatlar, liderlik uslublari, rag‘batlantirish tizimi va psixologik iqlimning ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlari: harbiy boshqaruv, motivatsiya, ijtimoiy-psixologik omillar, harbiy jamoa, guruh dinamikasi, harbiy rahbar, faollik, shaxsiy motivlar, rag‘batlantirish, psixologik iqlim, liderlik, ma’naviy-ruhiy tayyorgarlik.

Zamonaviy harbiy boshqaruv tizimida shaxsiy va jamoaviy faollikni ta’minlash masalasi strategik ahamiyatga egadir. Harbiy tuzilmalarda faoliyat yuritayotgan shaxslarning motivatsiyasi, ularning psixologik holati, ijtimoiy muhitga moslashuvi, guruh dinamikasi va rahbarlik uslublari qo‘shinlarning jangovar tayyorgarligi hamda boshqaruv samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli harbiy xizmatchilarning faolligini belgilovchi ijtimoiy-psixologik omillarni chuqur o‘rganish zamonaviy harbiy psixologiya va boshqaruvning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Motivatsiya harbiy xizmatning barcha bosqichlarida muhim o‘rin egallaydi. A.N. Leontyevning faoliyat nazariyasiga ko‘ra, har qanday faoliyatning mazmuni va samaradorligi uning ichki motivlari bilan belgilanadi[45]. Harbiy jamoalarda shaxs motivining shakllanishi esa ijtimoiy norma, qadriyatlar, jamoaviy an’analar va rahbarning psixologik ta’sir vositalari orqali kuchayadi. P.P. Parygin ta’kidlaganidek, har qanday jamoaning ijtimoiy-psixologik muhitida motivlar tizimi ma’lum bosim ostida shakllanadi va jamoaning umumiy maqsadlariga moslashadi[46].

Harbiy muhitda faoliyat yurituvchi shaxslar uchun intizom, kommunikativ iqlim, psixologik qo‘llab-quvvatlash, jamoaviy birdamlik va liderlik omillari katta ahamiyatga ega. J. Moreno tomonidan asoslangan guruh dinamikasi nazariyasi jamoa a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar ularning faolligi va mas’uliyatini

[45] Леонтьев А.Н. *Деятельность. Сознание. Личность.* — Москва: Смысл, 2016.
[46] Парыгин П.П. *Социальная психология.* — Санкт-Петербург: Питер, 2019.

kuchaytirishi yoki susaytirishini ko‘rsatadi[47]. Harbiy jamoalarda esa bu jarayon yanada keskinroq bo‘lib, rahbarning boshqaruv uslubi, jamoa ichidagi rollar, rasmiy va norasmiy munosabatlar motivatsion jarayonlarga bevosita ta’sir qiladi.

G‘arb harbiy psixologiyasida ham xodimlarning motivatsiyasini oshirish yetakchi tadqiqot yo‘nalishlaridan biridir. L. Wong va S. Gerras harbiy rahbarlikda shaffoflik, adolat va psixologik barqarorlikning faoliyatga undovchi kuch sifatida alohida o‘rin tutishini ta’kidlaydi[48]. Shuningdek, T. Britt va A. Adler tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda harbiylarning ruhiy barqarorligi, stressga chidamliligi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi ularning tashabbuskorligi va ishga bo‘lgan munosabatini kuchaytirishi asoslab berilgan[49].

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, harbiy boshqaruvning samaradorligi ko‘p jihatdan inson omiliga, xususan, harbiy xizmatchilarning motivatsion holatiga tayanadi. Motivatsiya jarayonlarini ilmiy asosda o‘rganish, ijtimoiy-psixologik omillarni tahlil qilish, rahbar uchun samarali psixologik vositalarni aniqlash va joriy etish harbiy boshqaruv tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur ishda harbiy jamoalarda faollikning motivlarini shakllantirishga ta’sir qiluvchi omillar harbiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya va boshqaruv nazariyasi nuqtai nazaridan keng qamrovda o‘rganiladi. Harbiy boshqaruv tizimida shaxsiy va jamoaviy faollikni oshirish nafaqat qo‘shinlarning jangovar tayyorgarligini ta’minlashda, balki harbiy jamoaning psixologik barqarorligi, ichki birlik va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatini shakllantirishda ham muhim hisoblanadi. Harbiy rahbarlar tomonidan qo‘llaniladigan boshqaruv texnologiyalari, ularning psixologik ta’sir o‘tkazish usullari, shaxslararo munosabatlarni tartibga solish strategiyalari harbiy jamoaning motivatsion fondini shakllantirishda hal qiluvchi omillardan biri sanaladi. Harbiy boshqaruvda faoliyat ko‘rsatuvchi har bir shaxsning maqsadga yo‘naltirilganligi, mas’uliyati, tashabbuskorligi va hatti-harakatlarining uyg‘unligi esa ko‘p jihatdan ijtimoiy-psixologik omillarning qanday boshqarilishiga bog‘liq.

Ijtimoiy-psixologik omillarning harbiy jamoada tutgan o‘rni ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Masalan, K.Levinning maydon nazariyasida shaxs xatti-harakatlariga ta’sir qiluvchi kuchlar tizimi faollikning shakllanishida markaziy o‘rin tutishi qayd etiladi[50]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, harbiy xizmatchining motivatsiyasi uning shaxsiy ehtiyojlari, guruh bosimi, rahbarning talab darajasi va jamoaviy qadriyatlar o‘zaro ta’siri orqali shakllanadi. Shuningdek, A. Maslowning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi harbiy xizmat sharoitida shaxsning o‘zini namoyon qilishi va

[47] Moreno, J.L. *Group Psychotherapy and Psychodrama.* — Beacon House, 2012.
[48] Wong, L., Gerras, S. *Lying to Ourselves: Dishonesty in the Army Profession.* — U.S. Army War College Press, 2015.
[49] Britt, T.W., Adler, A.B., Castro, C.A. *Military Life: The Psychology of Serving in Peace and Combat.* — Oxford University Press, 2018.
[50] Lewin, K. *Field Theory in Social Science.* — Harper, 1951.

yuksak motivatsiyani saqlab turishida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, xavfsizlik va hurmatning alohida ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi[51].

Harbiy boshqaruvda rahbar shaxsining psixologik sifati ham muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy tadqiqotlar harbiy rahbar sifatida faoliyat yurituvchi shaxsning emotsional intellekti, kommunikativ kompetensiyasi, stressni boshqarish ko‘nikmalari jamoa faolligini oshirishda hal qiluvchi omil ekanini ta’kidlaydi[52]. Shuningdek, M.Janowitz va S.Huntingtonning harbiy-sotsiologik qarashlarida harbiy rahbarning jamoadagi psixologik boshqaruv faoliyati qo‘shinlarning intizomi, motivatsiyasi va tashkiliy ishonchini mustahkamlashi qayd etilgan[53].

Bugungi kunda O‘zbekiston Qurolli Kuchlarida olib borilayotgan islohotlar ham harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlanishini kuchaytirishga qaratilgan. Harbiy xizmatchilarning ma’naviy-ruhiy holatini mustahkamlash, ular o‘rtasida sog‘lom jamoaviy muhitni shakllantirish, psixologik xizmatlar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar motivatsion jarayonlarning yangi sifat darajasini belgilab bermoqda[54]. Bularning barchasi harbiy boshqaruvda faollikning motivlarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

Shu o‘rinda takidlash kerakki harbiy-kasbiy faoliyat mazmunida ajralib turishi kerak motivatsion hodisalar bog'liq harbiy rahbarning boshqaruv madaniyatiga: harbiy kasbning qadriyatlari, baholash kasbiy faoliyatning ahamiyati, harbiy-kasbiy qadriyatlarning tizim bilan o'zaro bog'liqligi harbiy xizmatchilarning mazmunli yo'nalishlari va boshqa shaxsiy maqsad va qadriyatlar, professional joy "hayot ma'nolari" tuzilishidagi faoliyat va boshqalar. Keling, ularning tarkib xususiyatlarini ko'rib chiqaylik boshqaruv madaniyati bilan aloqalar. Harbiy rahbarning kasbiy niyatlarini amalga oshirish qobiliyatidan xabardor bo'lish professionalga motivatsion munosabatni ta'minlaydigan eng muhim shaxsiy qadriyatlarni amalga oshirish faoliyat[55]. Shu bilan birga, qiymat yo'nalishlarining shaxsiy tizimi o'ynaydi harbiy rahbarning boshqaruv madaniyatini shakllantirishda juda muhim rol-bir qator shaxsning faoliyatga bo'lgan munosabatining ichki asosini aks ettiruvchi xususiyatlar[56]. Qiymat yo'nalishlari maqsadlar, ideallar, qiziqishlar, e'tiqodlarda namoyon bo'ladi, ularga sezilarli ta'sir qiladi xulq-atvor motivatsiyasi, qiziqishlari, fikrlash uslubi ma'lum darajada mazmuni va mohiyatini belgilaydi kasb haqida inson umidlari. Professional orqali ifodalangan qadriyatlar tizimi shaxsning qiziqishlari va

---

[51] Maslow, A. *Motivation and Personality.* — Harper & Row, 1970.
[52] Goleman, D. *Emotional Intelligence.* — Bantam Books, 1995.
[53] Janowitz, M. *The Professional Soldier*. — Free Press, 1960; Huntington, S. *The Soldier and the State.* — Harvard University Press, 1957.
[54] O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi materiallari, harbiy-ma’naviy islohotlar bo‘yicha ochiq rasmiy nashrlar (2020–2024).
[55] Osodlo, V. I. (2012). Psykholohiia profesiinoho stanovlennia ofitsera [Monohrafiia]. Kyiv: PP ‹‹Zoloti vorota›› (in Ukrainian).
56 Hrytsevych, T. L., Kapinus, O. S., Matsevko, T. M., & Tkachuk, P. P. (2018). Sotsialno-psykholohichni tekhnolohii upravlinnia viiskovymy kolektyvamy. Navchalno-metodychnyi posibnyk. Lviv: NASV. (in Ukrainian).

qadriyatlari maqsadga erishishda muhim turtki beruvchi omil hisoblanadi kasbiy faoliyat[57]. Kasbiy qadriyatlar shaxsning qobiliyatini belgilaydi o'z hayotlarini, hayot bosqichlarini va ob'ektiv mavjud hayot sharoitlarini tartibga solishni tashkil qiling. Ega muhim motivatsion qiymat, kasbiy qadriyatlar kasbiy faoliyatning muhimligidan dalolat beradi. Harbiy rahbarning boshqaruv madaniyati muhimligini baholashga bog'liq shaxsiy shaxsiy ehtiyojlar va maqsadlarni hisobga olgan holda kasbiy faoliyat, ular mumkin yoki bo'lmasligi mumkin xizmat maqsadlari bilan mos[58]. Harbiy rahbar o'z oldiga maqsad qo'yganda o'zi, u ko'p ish qila oladi. Tashqaridan qo'yilgan maqsad har doim ham uning faolligini oshirmaydi kamroq motivatsiya, harbiy xizmatchining maqsadi bo'lmasligi mumkin, u har doim ham bunday narsani avtomatik ravishda qabul qilmaydi maqsad va unga erishishga intiling. Shu munosabat bilan shuni ta'kidlash kerakki, o'z oldiga maqsad qo'ygan inson rivojlanishning yuqori darajasida, unga boshqa odamlar tomonidan qo'yilgan maqsadlarni qabul qilgan kishiga qaraganda o'zi, u ko'p ish qila oladi.

Zamonaviy harbiy boshqaruv tizimida shaxsiy va jamoaviy faollikning samarali shakllanishi nafaqat qo‘shinlarning jangovar tayyorgarligini oshirish, balki harbiy jamoaning psixologik barqarorligini, ichki birlik va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatini ta’minlash uchun muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:

Motivatsion jarayonlarni ilmiy asoslash — harbiy xizmatchilarning ichki va tashqi motivlarini uyg‘unlashtirish orqali ularning faoliyatga bo‘lgan intilishlarini kuchaytirish mumkin. Shu bilan birga, shaxsiy qadriyatlar, kasbiy niyatlar va boshqaruv madaniyati motivatsion jarayonlarning markaziy elementlari hisoblanadi.

Rahbarning psixologik va ijtimoiy rolini oshirish — harbiy rahbarning emotsional intellekti, kommunikativ kompetensiyasi, stressni boshqarish ko‘nikmalari, shuningdek, adolatli va shaffof boshqaruv uslublari jamoa faolligini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Jamoaviy psixologik muhitni mustahkamlash — ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, sog‘lom guruh dinamikasi, jamoaviy birdamlik va motivatsion rag‘batlar harbiy xizmatchilarning tashabbuskorligi, mas’uliyatlilik va faoliyatga sadoqatini oshirishga xizmat qiladi.

Kasbiy qadriyatlar tizimini shakllantirish — shaxsning professional qadriyatlari va maqsadlari uning kasbiy faoliyatga bo‘lgan motivatsiyasini, ish samaradorligini va shaxsiy rivojlanishini belgilaydi. Shu bois rahbarlar va psixologlar ushbu tizimni shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi.

[57] Maslou, A. (2003). Motivatsiya i lichnost: per. s angl. 3-e izdanie. SPb: Piter. (in Russian).
[58] Kapustianskyi, M. V. (2016). Psykholohichni umovy rozvytku motyvatsii profesiinoho zrostannia osobystosti kerivnyka: dys ... kand. psykhol. Odesa. (in Ukrainian).

Xulosa qilib aytganda, harbiy boshqaruvda shaxs va jamoaning faolligini belgilovchi psixologik omillarni tahlil qilish, rahbarlik faoliyatida samarali psixologik yondashuvlardan foydalanish, motivatsion mexanizmlarni ilmiy asoslash harbiy tizimda boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim yo‘nalishidir. Ushbu tadqiqot ana shu jarayonlarning ilmiy asoslarini ochib berishga xizmat qiladi. Harbiy boshqaruvning samaradorligi ko‘p jihatdan inson omiliga, xususan, harbiy xizmatchilarning motivatsion holatiga tayanadi. Shu bois:

- harbiy boshqaruv tizimida motivatsion jarayonlarni ilmiy asosda o‘rganish,
- ijtimoiy-psixologik omillarni tahlil qilish,
- rahbar uchun samarali psixologik vositalarni aniqlash va joriy etish

zarurdir. Bu esa nafaqat qo‘shinlarning jangovar salohiyatini oshirish, balki harbiy xizmatchilarning ruhiy barqarorligi, tashabbuskorligi va kasbiy sadoqatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, harbiy boshqaruvda faollikning motivlarini shakllantirish masalasi bugungi kunda strategik va amaliy jihatdan dolzarbdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Leontyev, A. N. (1975). *Деятельность. Сознание. Личность.* Москва: Наука.
2. Parygin, B. D. (1965). *Социальная психология как наука.* Москва: Мысль.
3. Moreno, J. L. (1934). *Who Shall Survive?* Beacon, NY: Beacon House.
4. Wong, L., & Gerras, S. (2006). *Lying to Ourselves: Dishonesty in the Army Profession.* Carlisle, PA: Strategic Studies Institute.
5. Britt, T., & Adler, A. (2003). *Psychological resilience in the military.* Arlington, VA: U.S. Army Research Institute.
6. Lewin, K. (1951). *Field Theory in Social Science.* New York: Harper & Row.
7. Maslow, A. H. (1954). *Motivation and Personality.* New York: Harper.
8. Janowitz, M. (1960). *The Professional Soldier: A Social and Political Portrait.* Glencoe, IL: Free Press.
9. Huntington, S. P. (1957). *The Soldier and the State: The Theory and Politics of Civil-Military Relations.* Cambridge, MA: Harvard University Press.

HARBIY XIZMATCHILARNING XIZMAT-JANGOVAR FAOLIYAT SHAROITIGA MOSLASHUVIDA IJTIMOIY INTELLEKTNING O‘RNI

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi o‘qituvchisi, psixol.f.b.f.d (PhD)
Turayev Javohir
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash yo‘nalishi 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: Ijtimoiy intellektni o‘rganishning dolzarbligi turli ijtimoiy kontekstlarda individlarning samarali ijtimoiylashuvi va o‘zaro ta’sirida uning hal qiluvchi roli bilan izohlanadi. Raqamlashtirish jarayonlari va ijtimoiy reallikning o‘zgarishi bilan bog‘liq global o‘zgarishlar sharoitida ijtimoiy intellektning shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishdagi ahamiyati yanada ortib bormoqda. Ijtimoiy intellekt ayniqsa doimiy odamlar bilan ishlashni talab qiladigan kasblarda boshqaruv, ta’lim, harbiy soha, psixoterapiya kabi sohalarda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, u harbiy xizmatchilarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun ham zarur bo‘lib, ularning murakkab ijtimoiy tizimlarda faoliyat yurita olish, rollarni egallash va moslasha bilish qobiliyatini kuchaytiradi.

Kalit so‘zlar: psixologik moslashuv, ijtimoiylashuv, kognitiv qobiliyatlar, muhit, harbiy xizmatchi, adaptatsion sindrom.

Insonning intellektual faolligi shaxs va muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning o‘z-o‘zini boshqarish jarayonlariga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi, mazkur jarayonlarga mazmun baxsh etadi hamda ularga yo‘nalish beradi. Yuqori darajada rivojlangan intellekt universal moslashuvchanlik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi [1]. Tadqiqotchilar avvalo intellektning adaptatsion ahamiyatini ta’kidlaydilar. V.Shternning fikricha, intellekt bu insonning yangi hayotiy sharoitlarga moslasha olishning umumiy qobiliyatidir [2]. Shtern talqiniga ko‘ra, moslashuv akti shaxs tomonidan qabul qilingan hayotiy vazifani hal qilish bo‘lib, u “shaxs - muhit” tizimidagi muvozanatni tiklashga qaratilgan va tashqi faoliyatning aqliy (“mental”) ekvivalenti ya’ni “ongdagi harakatlar” orqali amalga oshiriladi [3].

Buning natijasida shaxs tashqi muammolarni real tajribalar o‘tkazmasdan, ya’ni ko‘p marta sinab ko‘rishlarsiz, etarlicha tez, aniq va bir marotaba bajaradi: sinov, taxminlarni tekshirish jarayonlari “ichki harakatlar rejasida” amalga oshiriladi [4]. Bu mexanizm harbiy xizmatchilar uchun ayniqsa muhim, chunki jangovar sharoitda qarorlar ko‘pincha tezkor ichki tahlil, vaziyatning mental modellashtirilishi orqali qabul qilinadi.

Ijtimoiy intellektni mustaqil fenomen sifatida ajratish yondashuvi J.Gilfordning uch o‘lchovli intellekt modeli asosida shakllangan bo‘lib, u psixodiagnostikaga oid mahalliy adabiyotlarda batafsil yoritilgan [5]. Gilford modelida ijtimoiy intellekt B bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi psixologiyada voqelikni alohida tarkibiy qismlar orqali o‘rganish an’anasi kuchli saqlanib qolgan. Shu bois biz ijtimoiy intellektni umumiy adaptatsion qobiliyatning tarkibiy qismi sifatida quyidagi asosiy o‘zgaruvchilarga ajratamiz:

- empatiya qobiliyati,
- kommunikativ-verbal kompetentlik,
- perseptiv-neverbal kompetentlik,
- perseptiv-interaktiv kompetentlik,
- refleksiya darajasi.

Bu ko‘rsatkichlarning barchasi harbiy xizmatchilarning jangovar, xizmat va maishiy sharoitlarda qanchalik tez va samarali moslasha olishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili ijtimoiy intellekt ko‘rsatkichlarining ijtimoiy-psixologik adaptatsiya natijalariga ta’siri masalasi yetarlicha ishlab chiqilmaganini ko‘rsatdi. Xususan, bu ikki fenomenning sifat jihatidan o‘zaro bog‘liqligi hali ham to‘liq ochib berilmagan.

Ijtimoiy intellekt tushunchasi ilk bor 1920-yilda E. Torndayk tomonidan boshqa insonlarni tushunish va shaxslararo munosabatlarda oqilona harakat qilish qobiliyati sifatida ta’riflangan. Ushbu yondashuv harbiy soha uchun ham bevosita ahamiyatga ega, chunki bo‘linma ichidagi o‘zaro ishonch, subordinatsiya va komandirlik qarorlarini qabul qilish ko‘p jihatdan shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri anglashga bog‘liq.

Keyinchalik G.Ollport, G.Gardner, J.Guilford va boshqa tadqiqotchilar ushbu tushunchani kengaytirib, ijtimoiy intellektni insonning murakkab ijtimoiy tizimlarda jumladan, armiyada samarali faoliyat yuritish imkonini beruvchi qobiliyatlar majmui sifatida talqin qilganlar. G.Gardner o‘zining ko‘p omilli intellekt nazariyasida ijtimoiy intellektni shaxslararo va intrapersonal intellekt tarkibida ko‘radi. Bu yondashuv harbiy xizmatchining:

- o‘zini anglash, o‘z xatti-harakatiga tanqidiy va mas’uliyatli yondashishi,
- bo‘linma sharoitida boshqalarni to‘g‘ri tushunishi,
- buyruq va ko‘rsatmalarni nafaqat matn, balki ma’no va kontekst darajasida anglab yetishi uchun asos bo‘ladi.

R.Selman va O.Kont ijtimoiy intellektni ijtimoiy bilish (social cognition) prizmasi orqali izohlaydi. Harbiy kontekstda bu shaxsning qo‘mondonlik tizimi,

bo‘linma ichki munosabatlari, nizoli vaziyatlar, jangovar vaziyatdagi psixologik holatlar to‘g‘risidagi axborotni:

- idrok etishi,
- tahlil qilishi,
- strategik jihatdan baholashdan iboratdir.

Xorijiy qarashlarda ijtimoiy intellektni o‘rganishda quyidagi jihatlar ayniqsa harbiy soha uchun dolzarbdir:

- xulq-atvorning moslashuvchanligi turli xizmat sharoitlari, rejimlar, intizom talablariga moslashish;
- murakkab ijtimoiy vaziyatlarda (masalan, ziddiyat, buyruqqa ichki e’tiroz, stress) adekvat yo‘l tutish qobiliyati;
- ijtimoiy persepsiya aniqligi qo‘mondon, bo‘ysunuvchi, hamkasb, mahalliy aholi, oila a’zolarining reaksiyalarini to‘g‘ri talqin qilish;
- atrofdagilar xatti-harakatlarini va ularning ehtimoliy oqibatlarini oldindan taxmin qila olish.

Harbiy jamoada samarali xizmat qilish, birlashgan jangovar jamoa sifatida harakat qilish, subordanatsiya va intizomni saqlash, qo‘mondonlik qarorlarini tushunish va bajarish ushbu sifatlar bilan bevosita bog‘liq. Shuningdek, xorijiy tadqiqotlar ijtimoiy intellekt rivojlanishi ijtimoiy kontekstga bog‘liqligini ta’kidlaydi. Harbiy xizmatchi joylashgan muhit harbiy qism, garnizon, ta’lim muassasasi, jangovar navbatchilik sharoiti, kollektiv qadriyatlar tizimi uning ijtimoiy intellektini sezilarli darajada shakllantiradi. Shaxsning xizmat tajribasi, harbiy nizomlar, rag‘bat va javobgarlik tizimi, hamda jangovar va o‘quv mashg‘ulotlari mazkur qobiliyatni rivojlantirishda muhim omillar hisoblanadi.

Rus psixologiyasida ijtimoiy intellekt masalalari Yu.N.Emelyanov, D.V.Ushakov, V.N.Kunitsina, M.I.Bobneva va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Ularning nazariy qarashlari harbiy psixologiya uchun ham metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Yu.N.Emelyanov ijtimoiy intellektni shaxsning o‘zini va boshqalarni tushunish qobiliyati sifatida talqin qilgan holda, uni shaxslararo munosabatlarning rivojlanishini oldindan ko‘ra bilish va baholash bilan bog‘laydi. Harbiy kontekstda bu:

- ofitserning bo‘ysunuvchilar reaksiyasini oldindan taxmin qilishi,
- nizoli vaziyatlarni erta bosqichda aniqlashi,
- harbiy jamoada psixologik iqlimni boshqarishi uchun zarur qobiliyat sifatida namoyon bo‘ladi.

D.V.Ushakov ijtimoiy intellektni dinamik va rivojlanib boruvchi jarayon sifatida ko‘radi. Harbiy xizmatchi uchun bu uning xizmat staji, ishtirok etgan o‘quv-

jangovar tadbirlar, ekstremal vaziyatlar tajribasi, rotatsiya va joy almashtirish sharoitida doimiy tarzda shakllanib, qayta strukturallashib borishini bildiradi.

M.I.Bobneva ijtimoiy intellektni individning ijtimoiy me’yorlar va munosabatlar tizimiga qo‘shilishi jarayonida ya’ni ijtimoiylashuv davomida shakllanadigan shaxsiy xususiyat sifatida talqin qiladi [6]. Harbiy tizim o‘ziga xos ierarxiya, intizom, nizomlar, buyruqlar va “harbiy jamoa” deb ataluvchi alohida ijtimoiy muhit sifatida ijtimoiy intellektni o‘ziga xos tarzda shakllantiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy intellekt umumiy intellekt (IQ) bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq emasligi uning mustaqil psixologik resurs sifatida ahamiyatini kuchaytiradi. V.N.Kunitsina ijtimoiy intellektning tuzilmasini tahlil qilar ekan, quyidagi komponentlarga e’tibor qaratadi:

- empatiya bo‘linmadagi harbiy xizmatchilar, jangovar safdoshlar, oila a’zolari his-tuyg‘ularini tushunish qobiliyati;
- o‘zini anglash o‘z motivlari, xizmatdagi xatti-harakatlari, buyruqqa bo‘lgan munosabatini anglash;
- ijtimoiy persepsiya qo‘mondonlar, bo‘ysunuvchilar, tengdoshlar va fuqarolar xatti-harakatini idrok va talqin qilish [7].

Bu komponentlar harbiy xizmatchining:

- bo‘linma ichida munosabat o‘rnatish,
- murakkab xizmat vaziyatlarida o‘zini tutish,
- shaxsiy mas’uliyatini anglash,
- jamoada o‘z o‘rnini topish jarayonlarida poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Psixologiyada ijtimoiy intellekt ko‘pincha shaxsning moslashuvchanligi, psixologik yetukligi va ijtimoiy javobgarligi bilan bog‘liq qobiliyatlar majmui sifatida talqin qilinadi, bu esa harbiy xizmatchilar uchun ayniqsa dolzarbdir. Yuqorida bayon etilganlardan ko‘rinadiki, ijtimoiy intellekt harbiy xizmatchining ijtimoiy muhit avvalo, harbiy jamoa, qo‘mondonlik tizimi, oila va fuqarolik jamiyati bilan o‘zaro ta’siridagi kognitiv, emotsional va xulq-atvor jihatlarini qamrab oluvchi murakkab va ko‘p qirrali qobiliyatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Piaje J. Izbrannыe psixologicheskie trudы. M., 1994.

2. Shtern V. Umstvennaya odarennost: Psixologicheskie metodы ispытaniya umstvennoy odarennosti v ix primenenii k detyam shkolnogo vozrasta. SPb., 1997.

3. Shtern V. Umstvennaya odarennost: Psixologicheskie metodы ispытaniya umstvennoy odarennosti v ix primenenii k detyam shkolnogo vozrasta. SPb., 1997.

4. Ponomarev Ya.A. Metodologicheskoe vvedenie v psixologiyu. M., 1983.

5. Anastazi A. Psixologicheskoe testirovanie : v 2 t. / pod red. K.M. Gurevicha, V.I. Lubovskogo ; per. s angl. T. 1. M., 1982.

HARBIY XIZMATCHILARNING PSIXOLOGIK ADAPTATSIYASIGA AUDITORIYA EFFEKTINING PSIXOLOGIK TA’SIRI

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi o‘qituvchisi, psixol.f.b.f.d (PhD)
Qudratov Azamat
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash yo‘nalishi 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: Harbiy xizmat sharoitida harbiy xizmatchilar ko‘pincha turli “auditoriya” – qo‘mondonlar, safdoshlar, keng jamoatchilik, OAV vakillari va hatto qarama-qarshi tomon vakillari oldida o‘z faoliyatini bajaradilar va bu ularning individual hamda jamoaviy natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Xuddi sportdagi kabi, harbiy mashg‘ulotlar, paradlar, taktik o‘yinlar va real operatsiyalar vaqtida kuzatuvchilarning mavjudligi yoki yo‘qligi, ularning mulohazalari, qo‘llab-quvvatlashi yoki salbiy reaksiyasi natijaga, psixologik holatga va qaror qabul qilish sifatiga ta’sir etadi. Olomon hajmi, zichligi va tajovuzkorligi kabi omillar qanday qilib futboldagi “uy ustunligi”ga o‘xshash tarzda “o‘z garnizoni / o‘z hududida ustunlik”ni shakllantirishi mumkinligi ijtimoiy-psixologik jihatdan muhim masaladir. Auditoriya ta’siri, ijtimoiy fasilitatsiya va ingibitsiya fenomenlari ko‘plab tadqiqotlarda sport kontekstida o‘rganilgan bo‘lsa-da, nazariy yondashuvlarning turlicha talqini natijalar qarama-qarshiligiga olib keladi. Mazkur maqolada ushbu nazariyalar harbiy xizmatchilar faoliyatiga tatbiq etilib, auditoriya effekti, “uy ustunligi”, olomon xulqi, ota-onalarning (yoki yuqori rahbariyatning) qo‘llab-quvvatlash va bosim omillari, shuningdek, zo‘ravon auditoriya xatti-harakatlarining harbiy psixologik holatga ta’siri tahlil qilinadi. Harbiy xizmatchilarda psixologik tayyorgarlik, ijtimoiy-emotsional regulyatsiya va auditoriya ta’siriga moslashuvchanlikni rivojlantirish zaruriyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: psixologik adaptatsiya, auditoriya effekti, ijtimoiy fasilitatsiya, ingibitsiya, harbiy xizmatchi shaxsi, qo‘llab-quvvatlash, “uy ustunligi”, olomon xulqi, zo‘ravon auditoriya, ijtimoiy-psixologik omillar.

Har bir xizmat vaziyatida harbiy xizmatchilar bevosita yoki bilvosita auditoriya bahosiga tushadilar va olomonning, qo‘mondonlarning, safdoshlarning his-tuyg‘ular ifodasiga duch keladilar. Bu auditoriya: qo‘llab-quvvatlovchi yoki qo‘llab-quvvatlamovchi bo‘lishi mumkin. Birinchi holatda u ijobiy “vibe” uzatib, harbiy xizmatchining muvaffaqiyatini istaydi; ikkinchisida esa uning kutilgan darajada muvaffaqiyat qozonmasligini, xato qilishini yoki muvaffaqiyatsiz ko‘rinishini

xohlaydi. Qo‘llab-quvvatlash yoki uning yo‘qligi “qo‘l chalish, hayqiriqlar, maqtov va rag‘batlantiruvchi chaqiriqlar” orqali, salbiy munosabat esa “hushtakbozlik, istehzo, kamsituvchi hayqiriqlar, plakatlar va bannerlar” orqali ifodalanishi mumkin. Harbiy yurishlar, paradlar, ko‘rik-tanlovlar, ochiq o‘quv-jangovar mashg‘ulotlar, xalqaro harbiy musobaqalar va hatto ommaviy norozilik aksiyalarini nazorat qilish jarayonida harbiy xizmatchi doimo shunday auditoriya maydonida harakat qiladi.

Blascovich ta’rifiga ko‘ra, “…ijtimoiy fasilitatsiya boshqalarning (hamkorlar yoki, ko‘proq, kuzatuvchilar/tomoshabinlar) mavjudligi keltirib chiqaradigan ijroning yaxshilanishi yoki yomonlashishi.” Zajonc (1965) tomonidan ilgari surilgan klassik nazariyada boshqalar “shunchaki” borligi ijrochining umumiy qo‘zg‘alishini oshirishi va ustun (dominant) javoblarni kuchaytirishi uqtiriladi. Harbiy xizmatchilar misolida bu shunday talqin qilinishi mumkin: tajribali, tayyorgarligi yuqori harbiy xizmatchi auditoriya qarshisida yanada yaxshi, aniq va ishonchli harakat qilishi, aksincha, tayyorgarligi yetarli bo‘lmagan, xavotir darajasi yuqori bo‘lgan shaxs auditoriya bosimidan “qotib qolishi” yoki xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkin. COVID-19 pandemiyasi sport o‘yinlarida “muxlislarsiz” o‘tkazilgan uchrashuvlar orqali “shunchaki ishtirok”ning ham katta psixologik iz qoldirishini yaqqol ko‘rsatdi. McCarrick Yevropa ligalarida 2019/2020 yil mavsumining bir qismini muxlislar bilan, yakunini esa muxlislarsiz o‘tkazilgan o‘yinlar bo‘yicha tahlil qilib, muxlislarsiz o‘yinlarda uy jamoalarining hujumiy imkoniyatlari sezilarli kamayganini, natijada gol va ochkolar soni pasayganini topdi. Harbiy kontekstga ko‘chirsak, o‘z safdoshlarining, qo‘mondonlarining yoki mahalliy aholining ruhiy qo‘llab-quvvatlovi bo‘lmagan sharoitda harbiy xizmatchi ham o‘z salohiyatini to‘liq namoyon eta olmasligi mumkin.

Bundan tashqari, muvozanatli “uy-mehmon” taqvimida uy jamoalari o‘yinlarning 50 foizidan ko‘prog‘ida g‘alaba qozonishi ko‘p bora qayd etilgan; bu “uy ustunligi” (home field advantage) deyiladi. Harbiy nuqtayi nazardan, bu hodisa “o‘z garnizoni”, “o‘z hududi”, “o‘z geografik sharoiti va infratuzilmasini yaxshi bilish” ustunligi bilan taqqoslanishi mumkin. Masalan, Turkiya Superligasidagi 18 052 o‘yin (1987–2017) statistik tahlilida ham shunday natija olingan (Inan, 2018). Bu hodisa ayniqsa kuchlar nisbatan teng bo‘lganda yaqqolroq ko‘rinadi (Hagger & Chatzisarantis, 2005). Professional ligalarda (Courneya & Carron, 1992; Seçkin, 2006; Seçkin & Pollard, 2008; García va boshq., 2009; Goumas, 2013; Santos, 2019; Inan, 2020) uy jamoasi mehmonlarga nisbatan qulay muhitga ega bo‘lishi ko‘p marta ko‘rsatilgan. Harbiy amaliyotda bu: o‘z bazasi, o‘z texnik ta’minoti, tanish relyef va iqlim sharoiti, mahalliy aholi qo‘llab-quvvatlovi, til va madaniyatni bilish natijasida yuzaga keladigan operativ-psixologik ustunlik sifatida namoyon bo‘ladi. Bu ta’sir faqat jamoaviy sportlargagina xos emas (Jones, 2013; Leitzelar va boshq., 2016;

Boudreaux va boshq., 2017; Harb-Wu & Krumer, 2019). Germaniyada U9, U11, U13, U15, U17, U19 yosh guruhlarida ham (U9dan boshqa) uy ustunligi aniqlangan (Staufenbiel va boshq., 2018). Harbiy ta’lim muassasalarida esa o‘z poligonini yaxshi bilish, mahalliy sharoit va trening maydonlariga moslashgan bo‘lish kursant va ofitserlar uchun o‘quv-jangovar mashg‘ulotlarda “uy ustunligi” effektini keltirib chiqarishi mumkin.

Inanga ko‘ra, olomonning qo‘llab-quvvatlashi va zichligi futbolda uy ustunligining asosiy o‘zgaruvchilaridir. Harbiy kontekstda buni shunday talqin qilish mumkin: bo‘linma shaxsiy tarkibining bir-birini psixologik qo‘llab-quvvatlashi, qo‘mondonlarning ishonchi va rag‘batlantirishi, mahalliy aholining do‘stona kayfiyati va mamlakatning vatanparvarlik ruhidagi yondashuvi harbiy xizmatchiga “o‘z uyida” ekanlik hissini beradi. Boshqa tadqiqotlar esa uy ustunligining sababi hanuz noaniq, deydi. Henningsen va hammualliflar basketbolchilarda uy olomonidan keladigan ijtimoiy fasilitatsiya yaxshiroq ijroga olib kelishini ko‘rsatdi. Wallace va boshq. (2005) esa bunday holatlar futbolchi uchun yordamdan ko‘ra ko‘proq zarar keltirishi (uy nuqsoni) mumkinligini ta’kidlaydi. Harbiy sharoitda ham shunga o‘xshash paradoks kuzatilishi mumkin: ortiqcha e’tibor, yuqori rahbariyat oldida chiqish, faxriylar yoki xalqaro mehmonlar ishtirokidagi paradlar, ko‘riklar va namoyishlarda ayrim harbiy xizmatchilar ruhiy ko‘tarinkilik bilan namoyon bo‘lsa, boshqalarida ortiqcha tashvish va psixologik blokirovka paydo bo‘lishi mumkin.

Epting va boshq. (2011) “cheering”ning na ijobiy, na salbiy aniq ta’sirini topmagan, buni boshqa ishlar ham tasdiqlaydi (Salminen, 1993; Baumeister & Steinhilber, 1984). Boshqa qarashda, bir qator mualliflar (Courneya & Carron, 1992; Waters & Lovell, 2002; Smith, 2003; Inan, 2020) ham sportchilar, ham muxlislar ijobiy qo‘llab-quvvatlash (cheering) uy jamoasining ijrosini oshirishini tan olishadi. Harbiy misolda ijobiy qo‘llab-quvvatlash qo‘shin oldida so‘zlovchi qo‘mondonning ishonchli nutqi, vatanparvarlik shiorlari, jangovar ruhni oshiruvchi marosimlar ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin. Yana bir ehtimol uy jamoasiga ijobiy qo‘llab-quvvatlash mehmon muxlislarning salbiy xatti-harakatlaridan “qalqon” bo‘lib xizmat qilishi (Epting va boshq., 2011). Harbiy xizmatchilar uchun “o‘z jamoasi”ning qo‘llab-quvvatlovi tashqi salbiy bosimni (adovatli auditoriya, qarshi tomondan kelayotgan psixologik hujum, ommaviy axborot vositalaridagi tanqid va h.k.) yumshatib, psixologik barqarorlikni oshirishi mumkin. Safar bilan bog‘liq omillar (masofa, yo‘nalish, vaqt zonalarini kesib o‘tish) ham Avstraliya ligasida (Goumas, 2014) va Jahon chempionati saralash bosqichlarida (Pollard & Armatas, 2017) uy jamoasi foydasiga ishlashi aniqlangan. Harbiy kuchlar uchun esa uzoq masofalarga joy ko‘chirish, boshqa vaqt zonasiga o‘tish, iqlim va geografik sharoit o‘zgarishi,

madaniy muhit farqi harbiy xizmatchilarning psixologik va jismoniy tayyorgarligiga yuqori talab qo‘yadi.

Ota-onalar farzandlarini qo‘llab-quvvatlab, o‘yinlarga kelib, xursandchilik va dalda berishlari mumkin (Clarke & Harwood, 2014); ammo Palou va hammualliflar (2020) haqoratli izohlar orqali salbiy iz qoldirishi ham mumkinligini aytadi. Harbiy kontekstga moslashtirganda, bu o‘rinda yuqori rahbariyat, instruktaj beruvchi ofitserlar, instruktorlar va bo‘linma komandirlari rolini ko‘rish mumkin. Ularning konstruktiv qo‘llab-quvvatlashi kursant yoki yosh ofitserning o‘ziga ishonchini oshirsa, ko‘pchilik oldida qilingan keskin tanqid, haqoratli izohlar, “har qanday yo‘l bilan natija” talab qiluvchi yondashuv psixologik bosimni kuchaytiradi. “Har qanday yo‘l bilan g‘alaba” mentaliteti sabab ota-onalar tomonidan zo‘ravonlik holatlari soni ortmoqda (Baldwin, 2013). Harbiy tizimda esa natijaga yo‘naltirilgan haddan tashqari qattiq, inson omilini inkor etuvchi yondashuv xizmat intizomi ortida yashirin psixologik zo‘ravonlik, burn-out va ruhiy travmalarga olib kelishi mumkin. Bu ba’zi ota-onalarning sportni “zavq va sog‘lom mashg‘ulot” sifatida ko‘rishdan chekinib, farzandini “investitsiya” sifatida ko‘rishga o‘tganini anglatadi (Heinzmann, 2016).

Harbiy misolda esa shaxsni “faqat resurs” sifatida ko‘rish, uning psixologik ehtiyojlari va insoniyligini e’tibordan chetda qoldirish bilan taqqoslash mumkin. Ko‘pchilik o‘smirlar ota-onalari tomoshabin bo‘lishidan xursand bo‘lsada, paradoks shundaki, ularning borligi tashvish uyg‘otishi mumkin (Bois va boshq., 2009). Xuddi shuningdek, kursantlar ham yuqori darajadagi komissiyalar, general-mayorlar, faxriylar ishtirokidagi ko‘riklarda faxr va motivatsiyani his etishi bilan birga, ortiqcha tashvish, xato qilishdan qo‘rquvni boshdan kechirishi mumkin. Bu tajovuzkorlikning salbiy xulqlari qichqirish, haddan ziyod jo‘shqin “fanat”lik, bahslashish, ayblash, bezovta qilish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin (Omli & Wiese-Bjornstal, 2011; Dorsch va boshq., 2015; Bean va boshq., 2016).

Harbiy dastur kontekstida bu norasmiy bosim, mazax qilish, yerga urish, “bo‘shsan”, “qo‘rqoqsan” kabi tamg‘alar orqali ifodalanishi va kursantlar kutayotgan tarbiyaviy maqsadlarga zid bo‘lishi mumkin (Witt & Dangi, 2018); ular rahbariyatdan “aqli raso muxlis” bo‘lishni, adolatli baho va insoniy munosabatni xohlashadi (Tamminen va boshq., 2017; Azimi & Tamminen, 2019). Baler orollari (Ispaniya)da U-15 ikkinchi divizioni o‘yinlarida ota-onalar xulqi kuzatilganda, izohlarning 57,9% neytral, 21,2% ijobiy, 20,8% salbiy bo‘lgani aniqlandi (Palou va boshq., 2019). Harbiy treninglarda ham komandirlarning fikrlari tarkibi taxminan shunga o‘xshash nisbatlarda bo‘lishi mumkin; muhim jihati salbiy mulohazalar konstruktiv, hurmat bilan va individual rivojlanishga yo‘naltirilgan shaklda bo‘lishidir.

Xuddi shuningdek, ayrim harbiy xizmatchilar katta auditoriyani o‘z imkoniyatlarini namoyish etish va faxr hissini kuchaytiruvchi omil sifatida qabul qiladi. Shunday bo‘lsa-da, qo‘pol xulqli auditoriya sportchilar uchun salbiy muhit yaratishi mumkin. Böheim va boshq. (2019) basketbolda uy jamoasi ijrosi olomon hajmi oshgani sari pasayishini ko‘rsatdi. Bundan tashqari, olomon hajmi va zo‘ravon xulq o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik ham qayd etilgan (Strang va boshq., 2018; Knapton va boshq., 2018). Maltada Premyer liga klublari (Aquilina, 2017) va terma jamoa ko‘pincha Ta’ Qali milliy stadionida nisbatan kichik auditoriya oldida o‘ynaydi (Azzopardi, 2018). Harbiy nuqtayi nazardan, namoyishlar, mitinglar, ommaviy tadbirlarni qo‘riqlovchi harbiy bo‘linmalar uchun olomon hajmi va agressivligi xavfsizlik, taktik qarorlar va ruhiy barqarorlikka bevosita ta’sir qiladigan omildir.

Strang va boshq. (2018)ga ko‘ra, futbol tadbirlarida zo‘ravon va antisosial xulqni keltirib chiqaruvchi bir nechta omillar bor: psixologik (adrenalin va “ma’no” izlash), spirtli ichimliklar, sport raqobatlari, ijtimoiy-siyosiy va makoniy omillar, shuningdek jamoa natijalariga munosabat. Harbiy xizmatda ham ommaviy tadbirlar, norozilik aktsiyalari, siyosiy keskinlik, millatlararo ziddiyatlar fonida olomon agressiyasining oshishi mumkin. Harbiy xizmatchining xizmat vazifalarini bajarish sifati ham u faoliyat yuritayotgan ijtimoiy-psixologik makon olomon kayfiyati, qo‘mondonlar va safdoshlar munosabati, mahalliy aholi pozitsiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Olomonning hajmi ortgan sari sportchi ustida ijtimoiy bosim kuchayishini, lekin bu bosim har doim ham salbiy emasligini ko‘rsatgan. Futbolchilar bilan olib borgan suhbatlarida ko‘pchilik sportchilar katta auditoriyani motivatsion omil sifatida baholaganini, ammo tajovuzkor auditoriya stressni oshirishi mumkinligini aniqlagan. Harbiy misolda ham katta tantanali parad yoki yirik ko‘rikda qatnashish ayrim xizmatchilar uchun qo‘shimcha motivatsiya, boshqalar uchun esa keskin tashvish manbai bo‘lishi mumkin. Zamonaviy tadqiqotlar auditoriya ta’sirining fiziologik komponentlarini ham tahlil qiladi: yurak urishi tezligining oshishi, kortizol darajasining ko‘tarilishi, mushaklar tarangligi va boshqalar.

Auditoriya effekti bu ijtimoiy fasilitatsiya va ingibitsiya o‘rtasidagi muvozanat natijasidir. U sportchining shaxsiy xususiyatlari, tayyorgarlik darajasi, stressga bardoshliligi va emotsional barqarorligiga qarab o‘zgaradi. Xuddi shuningdek, harbiy xizmatchi uchun ham auditoriya effekti shaxsning temperamenti, tajribasi, emotsional intellekti, stressga chidamliligi, motivatsion tizimi va kasbiy identifikatsiyasi bilan bog‘liq. Ijobiy auditoriya (safdoshlar, qo‘mondonlar, vatanparvar jamoatchilik) harbiy xizmatchi uchun motivatsion kuch, salbiy auditoriya esa stress manbai bo‘lishi mumkin. Shu bois sport psixologiyasida sportchilarda “psixologik immunitet”ni shakllantirish, emotsional o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, auditoriya ta’siriga tayyorlash treninglarini joriy etish dolzarbdir. Harbiy

psixologiyada ham xuddi shunday: kursant va harbiy xizmatchilarni yuqori e’tibor sharoitida (parad, ko‘rik, ochiq o‘quv mashg‘uloti, ommaviy tadbirni qo‘riqlash, ekstremal vaziyatlarda OAV va jamoatchilik e’tibori ostida xizmat o‘tash) o‘zini boshqarish, diqqatni markazlashtirish, salbiy auditoriya ta’sirini filtrlash va ijobiy qo‘llab-quvvatlovdan konstruktiv foydalanishga o‘rgatish zarur.

Xuddi shuningdek, harbiy xizmatchi psixologiyasi ham inson ongi bilan jangovar faoliyat, xizmat intizomi va o‘quv jarayoni o‘rtasidagi murakkab munosabatlarning asosi hisoblanadi. Uning tamoyillari xizmatdagi muvaffaqiyatni belgilaydi: harbiy xizmatchi natijadorligini oshiradi, bo‘linma jipsligi va barqarorligini mustahkamlaydi. Har bir jangovar mashg‘ulot yoki parad alohida voqea, har bir harbiy xizmatchi alohida qahramon. Bu dinamik olamda psixologiyaning roli beqiyos: maqsad qo‘yishdan sahna qo‘rquvini yengishgacha, samarali muloqotdan safdoshlar o‘rtasida o‘zaro ishonchni mustahkamlashgacha psixologik strategiyalar xizmat maydonida “sehr” yaratib, harbiy xizmatchilar va bo‘linmalarni muvaffaqiyat va g‘alabaga yetaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zajonc R. B. *Social facilitation*. Science, 149(3681), 269-274.
2. Blascovich J. *A biopsychosocial approach to social facilitation*. In: Social Psychology Quarterly, 55(2), 144-155.
3. McCarrick D. *COVID-19 and the home advantage in European football*. European Sport Management Quarterly.
4. Inan T. *Home advantage in Turkish Super League (1987-2017).* Journal of Sports Sciences, 36(7), 732-740.
5. Wallace H.M., Baumeister R.F., & Vohs K. D. *Audience effects in competitive sports: The home disadvantage*. Psychology of Sport and Exercise, 6(2), 201–212.
6. Epting L.K., Riggs K.N., Knowles J.D., & Hanky J.J. *The impact of cheering on performance and perception in sports*. Journal of Applied Social Psychology, 41(7), 1790-1805.
7. Stott C., Adang O., Livingstone A., & Schreiber M. *Crowd psychology and public order policing: An integrated approach to crowd management*. Policing: An International Journal, 31(2), 204-220.

BO‘LAJAK OFITSERLAR XIZMAT FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK MOSLASHUVIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING INTEGRAL AHAMIYATI

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi o‘qituvchisi, psixol.f.b.f.d (PhD)
Sobirjonov Eldorbek
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: Ijtimoiy intellekt insonning boshqalar hissiyotlarini anglash, ularning harakat va niyatlarini to‘g‘ri talqin etish hamda konstruktiv muloqot olib borish qobiliyati sifatida izohlanadi. Tadqiqotda ijtimoiy intellektning kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishdagi roli, empatiya va o‘zini tuta bilish qobiliyatlari bilan o‘zaro aloqasi yoritilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy intellekti yuqori bo‘lgan shaxslar samarali jamoaviy ishni tashkil eta oladi, nizolarni oldini oladi va ijobiy psixologik muhit yaratadi. Ushbu maqolada ijtimoiy intellekt tushunchasi, uning shakllanish omillari va shaxslararo muloqotdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy intellekt, muloqot madaniyati, empatiya, hissiy barqarorlik, shaxslararo munosabat, kommunikativ kompetensiya.

Ijtimoiy intellektning asosiy funksiyasi boshqalarni tushunish qobiliyati. Empatiya va ijtimoiy idrok ofitserga qo‘l ostidagilarning hissiy holatini, ularning ehtiyoj va motivlarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa ishonchli psixologik muhitni yaratish, emotsional qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash va jamoada o‘zaro hurmatni shakllantirish uchun zarurdir (Goleman, 2006).

Ijtimoiy-intellektual jihatdan rivojlangan ofitser:

- vaziyatning emotsional fonini to‘g‘ri baholaydi;
- buyruqni berishda shaxslararo omillarni hisobga oladi;
- qaror qabul qilishda inson omilining psixologik jihatlarini e’tiborga oladi [2].

Bo‘lajak ofitserning qaror qabul qilish jarayonida ijtimoiy tafakkur (social reasoning) muhim rol o‘ynaydi. U boshqalar reaktsiyasini oldindan taxmin qilish, harakat natijalarini baholash va ijtimoiy kontekstni tahlil qilish qobiliyatidir (Bar-On, 2000).

Yuqori ijtimoiy intellekt ofitserga:

- samarali jamoaviy harakatlarni tashkil etish;
- stressli holatlarda hissiy muvozanatni saqlash;
- psixologik xavfsizlik muhitini yaratish imkonini beradi [3].

Harbiy jamoada shaxslararo munosabatlar sifati ijtimoiy-psixologik iqlimni belgilovchi asosiy omillardandir. O‘zaro hurmat, ishonch va qo‘llab-quvvatlash asosida shakllangan iqlim xizmatchilarning kasbiy motivatsiyasi, sodiqligi va stressga bardoshliligini oshiradi (Lewin, 1951; Fiedler, 1967).

Ijobiy psixologik iqlim natijasida:

- jamoada o‘zaro yordam kuchayadi;
- xizmatdagi nizolar kamayadi;
- umumiy maqsadlarga yo‘naltirilganlik ortadi [4].

Harbiy jamoaning samaradorligi ko‘p jihatdan uning sotsial birligi (cohesion) va o‘zaro ishonch darajasiga bog‘liqdir. Qattiq intizom sharoitida ijobiy shaxslararo aloqa xizmat samaradorligini oshiradi. Kuchli jamoaviy bog‘liqlik stress omillarini kompensatsiya qiladi va shaxsiy so‘nish (burnout) darajasini pasaytiradi (Schaufeli & Enzmann, 1998).

Shaxslararo aloqalar mustahkam bo‘lganda ofitser:

- xizmatdoshlar bilan o‘zaro hurmatga asoslangan muloqot olib boradi;
- nizolarni tezda aniqlab, konstruktiv yo‘l bilan hal etadi;
- o‘zining rahbarlik mavqeini ijobiy psixologik ta’sir orqali mustahkamlaydi [5].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori ijtimoiy intellekt darajasiga ega rahbarlar o‘z jamoasida yuqori darajadagi psixologik ishonch, motivatsiya va tartibni ta’minlay oladilar (Boyatzis, 2018). Harbiy xizmat kontekstida bu:

- buyruqlarni aniq va emotsional barqaror ohangda berish;
- shaxsiy namunaviy xatti-harakatlar orqali ta’sir ko‘rsatish;
- stressli holatlarda jamoani ruhlantira olish qobiliyati bilan ifodalanadi.

Ijtimoiy-intellektual yetuklik ofitserning metakommunikativ kompetensiyasini oshiradi, ya’ni u so‘zsiz signallarni, mimika va ohangni to‘g‘ri talqin qilib, ulardan ijtimoiy tahlil vositasi sifatida foydalanadi. Harbiy muhitda konfliktlar xizmat tartibi, kommunikativ tafovutlar yoki shaxsiy xususiyatlardan kelib chiqishi mumkin. Yuqori ijtimoiy intellekt darajasi bunday nizolarni oldindan sezish, ogohlantirish va muvozanatli tarzda hal etish imkonini beradi. Empatiya, faol tinglash va ijtimoiy moslashuvchanlik konflikt vaziyatlarida samarali mediatsiya mexanizmlarini yaratadi (Thomas, 1992).

Ijobiy shaxslararo munosabatlar:

- xizmatdoshlarga nisbatan begonalikni kamaytiradi;
- jamoaviy qaror qabul qilishda shaffoflikni ta’minlaydi;
- emotsional charchoqning oldini oladi [6].

Bo‘lajak ofitserlar uchun ijtimoiy intellekt va shaxslararo munosabatlar kasbiy tayyorgarlikning psixologik yadrosidir. Ijtimoiy-intellektual salohiyat yuqori bo‘lgan

ofitserlar boshqalarni tushunish, ularning holatiga empatik yondashish va jamoaviy hamjihatlikni ta’minlash orqali xizmat samaradorligini oshiradilar. Shu bois harbiy ta’lim muassasalarida ofitser kadrlar tayyorlash tizimiga ijtimoiy intellektni rivojlantiruvchi psixologik treninglar, muloqot kompetensiyasini oshiruvchi dasturlar va shaxslararo munosabatlarni optimallashtirish bo‘yicha modellarni integratsiya qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Harbiy xizmatning jamoaviy tabiatini hisobga olgan holda, shaxslararo o‘zaro ta’sirni ilmiy asosda tashkil etish xizmat samaradorligini ta’minlovchi yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Murakkab harbiy-texnik tizimlarning ishonchliligi va samaradorligi xizmatchilarning kelishilgan harakatlariga, ya’ni ularning birgalikdagi faoliyatiga bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun harbiy oliy ta’lim muassasasida ta’lim olayotgan kursantlar nafaqat nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni egallashi, balki guruh ichida shaxslararo munosabatlarni samarali yo‘lga qo‘yish kompetensiyalarini ham puxta o‘zlashtirishi zarur. Zamonaviy harbiy tizimda ofitser shaxsining muvaffaqiyati nafaqat kasbiy bilim va jismoniy tayyorgarlikka, balki uning ijtimoiy-intellektual salohiyati va shaxslararo munosabatlarni boshqarish qobiliyatiga ham bevosita bog‘liqdir. Ijtimoiy intellekt shaxsning ijtimoiy muhitni anglash, boshqalarni tushunish, ularning hissiy holatlarini tahlil qilish va bu bilim asosida samarali muloqot o‘rnatish qobiliyatidir (Thorndike, 1920; Cantor & Kihlstrom, 1987). Bo‘lajak ofitserlar uchun bu ko‘nikma jamoaviy muhitda yetakchilikni amalga oshirish, buyruqlarni to‘g‘ri yetkazish, ijtimoiy dinamikani anglash va konfliktlarni boshqarishda markaziy o‘ringa ega. Shuning uchun ijtimoiy intellektni rivojlantirish harbiy psixologik tayyorgarlik tizimining ajralmas komponentidir [1].

Ijtimoiy-psixologik iqlim guruh a’zolari faoliyati kechadigan ichki ijtimoiy-ruhiy sharoitlar majmui sifatida talqin qilinadi. Bu sharoitlar maqsadli boshqariladigan hodisa bo‘lib, ta’lim va xizmat jarayonining sur’ati, yo‘nalishi hamda natijalarini belgilaydi. Formal tuzilma lavozimlar, xizmat iyerarxiyasi, nizom va reglamentlar bilan mustahkamlangan rollar majmuini anglatadi. Uning vazifasi maqsadli natijaga erishishni kafolatlashdir. Noformal tuzilma esa shaxsiy xususiyatlar, qiziqishlar, simpatiya va antipatiyalar asosida shakllanuvchi munosabatlar tizimidan iborat bo‘lib, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, o‘zaro ishonch, identifikatsiya hamda integratsiyani ta’minlaydi.

Ijtimoiy-psixologik iqlim bo‘yicha umumiy ko‘rsatkichlar quyidagicha shakllandi: kursantlarning qirq yetti butun o‘ndan yetti foizi guruh iqlimini ijobiy deb baholadi, qirq ikki butun o‘ndan uch foizi iqlimni beqaror ijobiy deb ko‘rsatdi, o‘n foizi iqlimni noqulay deb baholadi. Ikki, uch va to‘rtinchi guruhlarda noqulay iqlim belgilariga duch kelinmadi. Olti va yettinchi guruhlarda ijobiy iqlim ulushi o‘ttiz

foizdan kam bo‘ldi. Birinchi to‘rt guruhda iqlim ko‘rsatkichlari yuqoriroq bo‘lib, bu guruhlar aralash jinsiy tarkibga ega ekani diqqatga sazovor.

Sotsiometrik tahlil shuni ko‘rsatdiki, faqat bir guruhda komandir formal rahbarlik bilan birga noformal obro‘ga ham ega bo‘lib, guruhning yuqori ishonchi va sadoqatini ta’minlagan. Rad etilgan maqomiga ega shaxslar ulushi ikki butun o‘ndan uch foizni tashkil etdi. Izolyatsiyalangan shaxslar aniqlanmadi. Afzal ko‘rilgan maqomiga ega bo‘lganlar yetmish bir butun o‘ndan besh foizni tashkil etdi. Sotsiometrik maqomga tashqi ko‘rinish, o‘qishdagi muvaffaqiyatlar, sportdagi yutuqlar, ijtimoiy faollik, intellektual salohiyat va nerv tizimining barqarorligi kabi omillar sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Qo‘shimcha kuzatuvlar uchinchi kursda o‘qiyotgan taxminan yuz qirq nafar kursant faoliyatining turli yo‘nalishlarda diversifikatsiyalanganini ko‘rsatdi. Ularning yigirma ikki butun o‘ndan to‘qqiz foizi sport bilan faol shug‘ullandi, o‘n ikki butun o‘ndan bir foizi badiiy ijod va sahna ko‘rinishlarida qatnashdi, o‘n besh butun o‘ndan yetti foizi ilmiy musobaqalar hamda olimpiadalarda akademiyani namoyish etdi. Rag‘batlantirish tizimi, jumladan, qo‘shimcha to‘lovlar va qo‘shimcha ta’til kunlari, ijobiy ruhiy holatni va o‘qishga bo‘lgan motivatsiyani oshirdi.

Olingan natijalar ijtimoiy-psixologik iqlimning ikki qatlamli manzarasini tasdiqlaydi. Formal reglamentlar tartib va maqsadga yo‘naltirilganlikni kafolatlaydi, noformal aloqa esa psixologik xavfsizlikni, o‘zaro qo‘llab-quvvatlashni va jamoa birligini mustahkamlaydi. Aralash jinsiy tarkibli guruhlarda kommunikativ tafovutlarning muvozanati va ijtimoiy nazorat mexanizmlarining tabiiy kuchayishi tufayli iqlim ko‘rsatkichlari, odatda, yuqoriroq bo‘ladi. Komandirning formal va noformal legitimatsiyasi bir vaqtda mavjud bo‘lganda buyruqlarning qabul qilinishi, motivatsiya va javobgarlik sezilarli darajada ortadi. Sotsiometrik risk guruhi sifatida rad etilgan maqomidagi shaxslar aniqlanib, ular bilan individual psixologik va pedagogik ishlarni kuchaytirish zarurligi aniq bo‘ldi.

1. Ijtimoiy-psixologik iqlimni faol boshqarish uchun oylik tezkor so‘rovlar orqali ruhiy muhit monitoringi yo‘lga qo‘yilishi, konflikt xavflari va izolyatsiya alomatlari bo‘yicha risk xaritasi tuzilishi lozim.

2. Komandir va o‘qituvchilar uchun kommunikativ kompetensiyani rivojlantiruvchi treninglar, jumladan, faol tinglash, vositachilik, qayta talqin usullari hamda stress sharoitida muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlovchi mashg‘ulotlar tashkil etilishi zarur.

3. Formal vazifalar matritsasi bilan bir qatorda noformal rollar, ya’ni murabbiylik, fasilitatsiya va motivatsiya berish kabi funksiyalar aniq taqsimlanishi, ko‘ngillilar va yetakchi kursantlar ushbu rollarga jalb etilishi maqsadga muvofiq.

4. Mini-guruhlar bilan tizimli ishlash talab etiladi. Ijobiy yo‘nalishga ega bo‘lgan kichik guruhlar qo‘llab-quvvatlanishi, destruktiv klasterlar esa jamoaviy vazifalarga ijodiy yo‘naltirilishi zarur.

5. Sotsiometrik monitoring semestr davomida kamida bir marta o‘tkazilishi, rad etilgan maqomidagi kursantlar bilan shaxsiy rivojlanish rejalari tuzilishi, juftlikda topshiriqlar va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi mashqlar tizimli tatbiq etilishi lozim.

6. Rag‘batlantirish tizimi sport, ijod va ilmiy yo‘nalishlarni qamrab oluvchi ko‘p kanalli model asosida yuritilishi, ochiq e’tirof shakllari kengaytirilishi tavsiya etiladi.

7. Aralash tarkibli jamoalarda teng imkoniyat tamoyillari, muloqot etikasi va o‘zaro hurmat normalari bo‘yicha aniq qoidalar joriy etilishi lozim.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-psixologik iqlim, jamoa birligi va shaxsiy maqomlar tizimi o‘quv guruhlari faoliyatining psixologik asosini tashkil etadi. Formal va noformal tuzilmalarni uyg‘un boshqarish, komandirning kommunikativ yetakchiligi, sotsiometrik profilaktika va puxta rag‘batlantirish tizimi ijtimoiy-psixologik iqlimni barqaror ijobiy holatda ushlab turadi. Bu esa murakkab harbiy-texnik tizimlar sharoitida kelishilgan harakatlarni ta’minlab, o‘quv hamda xizmat vazifalarining umumiy sifatini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Raygorodskiy D.Ya. Prakticheskaya psixodiagnostika. Metodiki i testы: uchebnoe posobie.- Samara: Izdatelskiy dom «BARAX-M», 2003. 672 s.

2. Kozlov V.V., Fetiskin N.P., Manuylov G.M. Soцialno-psixologicheskaya diagnostika razvitiya lichnosti i malыx grupp: uchebnoe posobie.- M.: Izd-vo instituta psixoterapii, 2002. 414 s.

3. Rogojnikova R.A., Davыdov D.V. Formirovanie konfliktnoy kompetentnosti u kursantov voennыx vuzov // Pedagogicheskoe obrazovanie i nauka. - 2010. - № 2.

4. Samsonova N.V. Konfliktologicheskaya kultura speцialista i texnologiya ee formirovaniya v sisteme vuzovskogo obrazovaniya. -Kaliningrad: Gos un-t, 2002.

5. Щerbakova O.I. Problema razvitiya konfliktologicheskoy kulturы lichnosti v obrazovanii [Эlektronnыy resurs] // Pisma v Эmissiya. Offlayn. - 2008. - № 9.

6. Kostina S.K. Psixologicheskie usloviya formirovaniya blagopriyatnogo psixologicheskogo klimata v kollektivax kursantov obrazovatelnыx uchrejdeniy sistemы MVD: Dis.... kand. psixol. nauk / S. K. Kostina. - Stavropol, 2006. - 24 s.

HARBIY XIZMATCHINING PSIXOLOGIK ADAPTATSIYASIDA AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGIGA TA’SIR ETUVCHI PSIXOSOTSIAL ATRIBUTLARI

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi o‘qituvchisi, psixol.f.b.f.d (PhD)
Yamanqulov Sohibjon Sanjar o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash yo‘nalishi 4-bosqich kursanti

Annotatsiya: Bugungi sivilizatsion taraqqiyot bosqichida axborot inson hayotining sifatini belgilovchi asosiy omil, ijtimoiy qadriyat sifatida qabul qilinmoqda. Ushbu muammolar kontekstida so‘nggi yillarda axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi ilgari surilmoqda. Axborot-psixologik xavfsizlikni shaxsning ruhiy holati sifatida talqin qilish mumkinligi sababli bu holat insonning axborot muhitidagi real va ehtimoliy tahdidlarga nisbatan xavfsizlik hissi, shuningdek, ushbu muhitdan shaxsiy rivojlanish uchun optimal foydalanish qobiliyati bilan belgilanadi. Zamonaviy ilmiy diskurs va ijtimoiy amaliyotda keng qo‘llanilayotgan «kompyuterlashtirish», «axborotlashtirish» va «raqamlashtirish» kabi atamalar zamonaviy jamiyatda axborot bilan o‘zaro ta’sirning texnik va texnologik omillari ortib borayotganligini anglatadi.

Kalit so‘zlar: harbiy xizmatchi, psixologik moslashuv, axborot-psixologik xavfsizlik, sivilatsiya, psixologik immunitet, psixologik bosim, shaxs, ijtimoiy bosim, axborot, ma’lumot.

Axborot-psixologik xavfsizlik deganda biz odatda axborot makonida mavjud va bashorat qilinayotgan tahdidlardan yaxlit xavfsizlik hissi va shaxsiy rivojlanish uchun ushbu makon imkoniyatlaridan optimal foydalanish qobiliyati bilan tavsiflangan shaxsning ruhiy holatini tushunamiz. Axborot-psixologik xavfsizlik axborot ta’sirida, ayniqsa noqulay vaziyatlarda, axborot bilan o‘zaro munosabatlarning kuchli va zaif tomonlarini hisobga olgan holda, hozirgi holati va rivojlanish potensialini nazorat qiladigan shaxsning holatini tavsiflaydi. Ushbu doiradagi tadqiqotlarning muhim tarixiga qaramay, axborot-psixologik xavfsizlik va tegishli toifalar o‘rtasidagi munosabatlar bo‘yicha ilmiy konsensus yo‘qligi saqlanib qolmoqda [2].

Mazkur masalani, ayniqsa shaxs va subyekt-faollik yondashuvi doirasida o‘rganish, inson psixikasiga va ijtimoiy faoliyatiga tahdid soluvchi axborot omillarining sabab va oqibatlarini har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa axborot va psixologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha ilmiy yondashuvlarni yangi

bosqichga olib chiqmoqda. Terminologik jihatdan, axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi ko‘pincha psixologik xavfsizlik bilan chalkashib ketadi. Biroq, zamonaviy psixologik tadqiqotlar ushbu ikki tushunchani birlashtirib yuborish noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatmoqda. Axborot-psixologik xavfsizlik faqat inson noqulay axborot sharoitida mavjud bo‘lganida aktual bo‘ladi va axborotning inson ruhiy holatiga bevosita ta’siri bilan ajralib turadi. Yuqoridagilarni tahlil qilish asnosida, axborot-psixologik xavfsizlikni psixologik xavfsizlikning maxsus holati sifatida baholash mumkin. Bu holat axborot ta’sirining intensivligi va mazmuni bilan inson shaxsi va ruhiyatida yuzaga keladigan o‘zgarishlar zamirida shakllanadi.

Zamonaviy ilmiy va ijtimoiy amaliyotda faol qo‘llaniladigan tushunchalarning uzluksizligi – «kompyuterlashtirish», «axborotlashtirish» va «raqamlashtirish» bo‘lib, axborot bilan o‘zaro ta’sirning texnik va texnologik tarkibiy qismlarining ortib borayotgan ahamiyati bilan bog‘liq o‘zgaruvchan ijtimoiy haqiqatni ta’kidlaydi. Sivilizatsiya taraqqiyoti shunday darajaga yetdiki, axborot insonning hayot sifatini belgilab beruvchi oliy qadriyat sifatida qabul qilindi. Shu bilan birga, ma’lumotlarning odamlarga qarshi qo‘llanilishiga oid dalillar to‘plangan: manipulyatsiya, chalg‘ituvchi (aldash), psixologik bosim va boshqalar. Axborot va uning mahsulotlarining jamiyatdagi roli ortib borayotgani va ulardan g‘ayriinsoniy foydalanishning keng tarqalishini hisobga olgan holda, insonning yangi voqelikka muvaffaqiyatli psixologik moslashuvi ko‘rsatkichlarini izlash va o‘rganish dolzarb bo‘lib qoldi. Bunday ko‘rsatkich sifatida so‘nggi o‘n yilliklarda rivojlanib borayotgan insonning axborot-psixologik xavfsizligi toifasidan foydalanish mumkin [1].

Ushbu muammolarni, birinchi navbatda, xorij psixologiyasida klassik bo‘lgan shaxs va subyekt-faollik yondashuvlari doirasida hal qilish insonning ma’lumotlari va psixologik xavfsizligiga tahdidlarning keng qamrovli sabab omillari va muhim xususiyatlarini, shuningdek ularning psixikasi va ijtimoiy faoliyati uchun oqibatlarini har tomonlama o‘rganish imkonini berdi. Natijada paydo bo‘lgan nazariy va empirik asos bizga axborot va psixologik xavfsizlik muammolarini, birinchi navbatda, xavfsizlikni buzishni propedevtik va inqirozli hal qilish bilan bog‘liq bo‘lgan tadqiqot usullarini izlashning yangi bosqichiga o‘tishga imkon beradi [3].

Mazkur masalalarni, avvalo, rus psixologiyasidagi klassik shaxsiy va subyekt-faollik yondashuvlari doirasida ko‘rib chiqish insonning axborot va psixologik xavfsizligiga tahdidlarning sabab omillari hamda asosiy xususiyatlarini, shuningdek ularning psixik jarayonlar va ijtimoiy faoliyatga ta’sirini har tomonlama tadqiq etish imkonini berdi. Yaratilgan nazariy va empirik baza esa axborot-psixologik xavfsizlik muammolarini, xususan uning buzilish holatlarini propedevtik (oldini olishga yo‘naltirilgan) va inqirozli (kritik vaziyatlarda hal etish) darajalarda ko‘rib chiqish

bilan bog‘liq yondashuvlarni izlashning yangi bosqichiga o‘tishga sharoit yaratadi [4].

Shu bois, psixologik xavfsizlikning tuzilmasida axborot-psixologik xavfsizlik (unda ta’sir etuvchi omil axborot) bilan bir qatorda, masalan, kommunikativ xavfsizlik (o‘zaro munosabatlarni qurish strategiyalari) va ma’naviy xavfsizlik (qabul qilingan qadriyatlar tizimi) kabi komponentlarni ham ajratib ko‘rsatish mumkin. Axborot xavfsizligi esa axborot va uning infratuzilmasini ruxsatsiz kirish, foydalanish, oshkor etish, yaxlitligini buzish, yo‘q qilish va boshqa zararli ta’sirlardan himoyalashga qaratilgan, texnik hamda texnologik jihatdan ta’minlangan amaliyot sifatida talqin etiladi; shu bois u axborot-psixologik xavfsizlik masalasini kun tartibiga olib chiquvchi ob’ektiv omil sifatida qaraladi [6].

Shaxsning axborot-psixologik xavfsizligi, barqaror bo‘lmagan axborot xavfsizligi muhiti sharoitida, sezilarli darajada o‘zgarishi mumkin. Shu bilan birga, axborot xavfsizligi ushbu holatni ta’minlash uchun zarur shart bo‘lsa-da, yetarli shart emasligi ravshandir. Shuning uchun axborot xavfsizligi tahdidlarining shaxsga ta’sirini vositachilovchi ichki determinantlarni ehtimol, shaxsning psixologik (perseptiv, kognitiv, emotsional) xavfsizligini, faoliyat subyektining xavfsizligini yoki shaxsning umumiy psixologik xavfsizligini alohida e’tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Terminologik dizayn xususiyatlarini inobatga olgan holda, mazkur terminni, eng avvalo, psixologik va axborot xavfsizligi toifalari bilan qiyosiy tahlil qilish zarur. Xavfsizlik psixologiyasidagi zamonaviy ishlanmalarga tayangan holda, axborot-psixologik xavfsizlikni psixologik xavfsizlik bilan avvalgi odatdagi konflatsiya (bir-biriga qo‘shib yuborish) qilish maqbul emas, deb hisoblaymiz. Axborot-psixologik xavfsizlik ruhiy hodisa sifatida o‘z namoyon bo‘lish jihatlarida (mohiyati, tuzilishi, subyektiv va shaxsiy ta’siri) psixologik xavfsizlikka yaqin turadi. Biroq u asosan shaxs noqulay axborot sharoitida bo‘lganda va axborot bilan o‘zaro ta’sir muammoli tus olgan vaziyatlarda dolzarblashadi. Axborot-psixologik xavfsizlikning o‘ziga xosligi shundaki, unda shaxsning sub’yektiv va individual xususiyatlarini o‘zgartirishda axborotning hal qiluvchi roli namoyon bo‘ladi; bu esa xavfsizlik muammolarini aktual holga keltirishning zaruriy sharti hisoblanadi. Shunga ko‘ra, axborot-psixologik xavfsizlikni, inson holatini o‘zgartiruvchi ta’sir etuvchi omil bilan ajralib turadigan, psixologik xavfsizlikning maxsus shakli sifatida talqin etish mumkin [5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Voronkina L.B. Informaцionno-psixologicheskaya bezopasnost kak osnova profilaktiki agressivnosti v molodejnoy srede // Universitetskie chteniya – 2019. Materialы nauchno-metodicheskix chteniy. Pyatigorsk: PGU. S. 65-69.

2. Krasnyanskaya T.M., Тылец V.G. Informaцionno-psixologicheskaya bezopasnost: ugrozы lichnostnomu razvitiyu i ix preodolenie // Razvitie sistemы pedagogicheskogo obrazovaniya v sovremennoy Rossii: antropologicheskiy aspekt. Materialы XI Mejdunarod. nauch.-praktich. konf. / Pod red. L.L. Redko i dr. Stavropol. S. 54–59.

3. Krasnyanskaya T.M., Тылец V.G. Klassifikaцiya ugroz informaцionno-psixologicheskoy bezopasnosti lichnosti i osnovnые podxodы k ix preodoleniyu // Vestnik Dagestanskogo gosudarstvennogo universiteta. № 4. S. 210–216.

4. Krasnyanskaya T.M., Тылец V.G. Psixologicheskaya xarakteristika virtualnых resursov bezopasnosti lichnosti // Vesnik Magilëo‘skaga dzyarjao‘naga o‘niversitэta imya A.A. Kulyashova. Serыya C. Psixolaga-pedagagichnыya navuki: pedagogika, psixalogiya, metodыka. № 1 (47). S. 37–43.

5. Krasnyanskaya T.M., Тылец V.G. Sub’ektnыy imprinting prinцipa bezopasnosti v usloviyax massovых informaцionnых vozdeystviy // II Moiseevskie chteniya: kultura kak faktor naцionalnoy bezopasnosti Rossii. Dokladы i materialы Obщerossiyskoy (naцionalnoy) nauchnoy konf. / Pod red. A.V. Kostinoy, V.A. Lukova. M.: MosGU. S. 267–272.

6. Grachev G.V. Informaцionno-psixologicheskaya bezopasnost lichnosti.: sostoyanie i vozmojnosti psixologicheskoy zaщitы. Pod red. Anisimovoy SA i Derkacha AA. M., RAGS, 1998.

FABBING HARBIY XIZMATCHILARNING SOTSIAL ADAPTATSIYASIDA PSIXOLOGIK SEPARATSIYA OMILI SIFATIDA

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi o‘qituvchisi, psixol.f.b.f.d (PhD)
Saydiyev Furqat Farhod o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash yo‘nalishi 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: Fabbing (inglizcha *phubbing – phone snubbing*) harbiy xizmat kontekstida ham dolzarb bo‘lgan psixologik hodisa bo‘lib, unda harbiy xizmatchi yuzma-yuz muloqot paytida suhbatdoshni safdoshini, komandirini yoki bo‘ysunuvchisini e’tiborsiz qoldirib, diqqatini smartfoniga qaratadi. Psixologiya nuqtayi nazaridan, bu gadjetlarga qaramlikning ko‘rinishi bo‘lib, harbiy jamoada shaxslararo munosabatlarda sovuqlik, befarqlik va hissiy uzoqlikni kuchaytiradi**,** bu esa psixologik adaptatsiya jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Phubbing ko‘pincha munosabatlarda norozilik va uzilish (disconnect) keltirib chiqaradi. U samarali, ochiq muloqotga xalaqit beradi: “qabul qiluvchi” tomon – bu safdosh, komandir yoki bo‘ysunuvchi bo‘lishidan qat’i nazar – o‘zini e’tiborsiz, hurmat qilinmagan, muhim bo‘lmagan deb his qiladi. Shu sababli, phubbingning harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi munosabatlar va psixologik adaptatsiyaga qanday ta’sir qilishini anglash yuzma-yuz, jonli muloqotni, safdoshga diqqatni va xizmatdoshni tinglash madaniyatini birinchi o‘ringa qo‘yish zarurligini eslatadi. Bu nafaqat shaxsiy psixologik farovonlik, balki butun bo‘linmaning jipsligi, jangovar tayyorgarligi va ijtimoiy-psixologik barqarorligi uchun ham muhim omildir.

Kalit so‘zlar: adaptatsiya, harbiy xizmatchi, disfunksiya, segregatsiya, shaxslararo munosabat, muloqot, fabbing, e’tiborsizlik, selektivlik, emotsional tonus, begonalashuv.

“Phone” va “snubbing” so‘zlari qo‘shilib, 2012-yilda Avstraliyadagi Macquarie Dictionary tashabbusi va McCann reklama agentligi kampaniyasi doirasida yaratilgan. Maqsad telefon foydasiga atrofdagilarni e’tiborsiz qoldirish hodisasiga nom berish va muammoga e’tibor qaratish edi. Atama tezda ommalashdi. Yoshlar smartfon va ijtimoiy tarmoqlardan ko‘proq foydalanganlari uchun phubbing ularda ko‘proq uchraydi: raqamli “onlayn qolish” yuzma-yuz muloqotdan ustun keladi. Shuningdek, ijtimoiy xavotir yoki zerikish ham telefonga murojaat qilishni kuchaytiradi. Biroq phubbing faqat yoshlarga xos emas u har qanday yosh guruhida kuzatilishi mumkin. Phubbing zamonaviy raqamli davrning keng tarqalgan

muammosi. U ruhiy salomatlik va munosabatlarga zarar yetkazib, chetlatilganlik, stress va qadrsizlik hissini kuchaytiradi; nizolar va emotsional uzoqlashuvga olib keladi. Shunday qilib, fabbing zamonaviy “ijtimoiy ajratilish” shakli, unda texnologik aloqa real insoniy aloqani siqib chiqaradi.

Texnologik taraqqiyot va zamonaviy jamiyatning raqamlashtirilishi inson hayoti sifatini yaxshilashga qaratilgan. Yangi gadjetlar yaratish, internet-texnologiyalarni qo‘llash inson imkoniyatlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan. Virtual makon internet orqali unga ulangan istalgan inson bilan muloqot qilish uchun potentsial imkoniyat yaratadi. Telefon, kompyuter va boshqa qurilmalar funksiyalarini birlashtirgan smartfon uyali aloqa qamrovi mavjud bo‘lgan sharoitda insonni deyarli doim virtual makonda qolishiga imkon beradi.

Fabbing shaxsiy muloqot vaqtida smartfonga chalg‘ib, suhbatdoshni e’tiborsiz qoldirish hodisasi. Yuzma-yuz suhbatni buzib, shaxslararo o‘zaro ta’sir sifatini pasaytirgani uchun u o‘zini chetda qolgandek his qilish, yolg‘izlik, depressiya va xavotir kabi ruhiy muammolarni qo‘zg‘atishi mumkin. Demak, muloqot uchun smartfon va boshqa raqamli qurilmalarga tayanishimiz “narxsiz” emas. Phubbing ko‘pincha munosabatlarda norozilik va uzilish (disconnect) keltirib chiqaradi. U samarali muloqotga xalaqit beradi, “qabul qiluvchi” tomon o‘zini e’tiborsiz, muhim bo‘lmagan deb his qiladi. Bu e’tiborsizlik va qiziqmaslik tuyg‘ulari munosabatlarga bosim beradi, ularning sifati va qoniqishini pasaytiradi. Shuning uchun phubbing munosabatlarga qanday ta’sir qilishini anglash yuzma-yuz muloqotni birinchi o‘ringa qo‘yish zarurligini eslatadi. Bu nafaqat o‘z ruhiy salomatligiga, balki jufti, do‘stlari va oila a’zolari bilan bo‘lgan aloqalarga ham taalluqlidir: “Partner phubbing” munosabat sifatini sezilarli kamaytiradi. Muammoni hal qilishdagi birinchi qadam u borligini tan olish. Phubbing va ijtimoiy tarmoqlar salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan vaziyatlarni kuzatib boring. “Phubber” (phubbing qiluvchi) uchun xos belgilar:

- Telefonni odamlarga qaraganda ustun qo‘yish;
- Suhbat chog‘ida telefonga qarab turaverish;
- Haqiqiy vaziyatlardan chalg‘ish vositasi sifatida telefondan foydalanish.

Phubbing shunchaki “telefonni bir ko‘z tashlab qo‘yish”dan iborat emas u barqaror xulqiy naqshga aylanadi. Bunga quyidagilar turtki bo‘ladi: onglilikning pastligi (mindfulness yetishmasligi), raqamli qurilmalarga nosog‘lom bog‘lanish, FOMO (onlayn narsalardan “qolib ketish” qo‘rquvi). Phubbing suhbatdosh o‘rniga telefonni “tanlash” orqali odamda chetlatilganlik va e’tiborsizlik hissini kuchaytiradi; bu ruhiy salomatlik va o‘zaro munosabatlarga salbiy ta’sir qiladi. Romantik munosabatlarda u:

- Ishonchni kamaytirishi;
- Xavotir va depressiyani kuchaytirishi;

- Qoniqishni pasaytirishi;
- Muloqot sifati va psixologik farovonlikni buzishi mumkin.

Natijada noto‘g‘ri tushunishlar, nizolar va hasad paydo bo‘lib, munosabatdan qoniqish yanada tushadi.

Phubbingga qarshi strategiyalar

1) Yuzma-yuz muloqotni ustun qo‘yish

Raqamli davrda bu qadriyatlarga qaytish juda muhim: kuchliroq rishtalar, kamroq noto‘g‘ri talqin, ko‘proq ishonch, his-tuyg‘ularni aniqroq anglash. Shaxsiy uchrashuvlarga ustuvorlik berish:

- Telefonni ishlatish vasvasasini kamaytiradi phubbing holatlari qisqaradi;
- Aloqalar sifati va qoniqishini oshiradi, “tegishlilik” va tushunish hissini mustahkamlaydi;
- Raqamli qurilmalarga qaramlikni kamaytirib, ruhiy salomatlikni yaxshilaydi.

2) Texnologiya bilan chegaralar qo‘yish

- Telefonni tekshirish aniq vaqtlarini belgilash;
- Bildirishnomalarni o‘chirib qo‘yish;
- “Telefon taqiqlangan zonalar” joriy etish (masalan, ovqat stolida yoki yotoqda);
- **“**Do Not Disturb”/jim rejimdan foydalanish.

3) Yangi odatlarni joriy etish

- Ijtimoiy tadbirlarga telefonni olib bormaslik yoki alohida joyga qo‘yish;
- Ekran vaqtini cheklash;
- Qurilmadagi app va sozlamalar orqali foydalanishni boshqarish.

Biroq shu bilan birga gadjetlar, internet va kompyuterdan ortiqcha foydalanish oqibatida yangi turdagi qaram xulq-atvor va inson farovonligiga xavf tug‘ilish muammosi keskinlashib bormoqda. E.Karadağ (Karadag) telefoniya qaramligi bo‘yicha tadqiqotlarni tahlil qilib, telefonning yolg‘izlikdan qochish vositasi sifatida ishlatilishini ko‘rsatdi [1]. Telefoniga qaram odamlarda gadjetlaridan ajralganda xavotir, bezovtalik va deprivatsion buzilishlar kuzatiladi. Xorijiy tadqiqotlarda kompyuterga qaramlik [2] va internet-qaramlik mavzusi faol ishlab chiqilmoqda. Kompyuter va internetdan foydalanishda o‘z-o‘zini nazorat qilishning buzilishi sog‘liq holatining yomonlashuvi va distressga olib kelishi aniqlangan [3].

A.A.Gerasimova va A.B.Xolmigorovaga ko‘ra, internetdan muammoli foydalanish kognitiv jarayonlarning buzilishi (diqqat jarayonlari va konsentratsiya qobiliyatining pasayishi) hamda disfunksional xulq-atvor (kasbiy va oilaviy hayotdagi majburiyatlarni bajarmaslik kabi)ni o‘z ichiga oladi. Muammoli internetdan foydalanish psixopatologik simptomatika bilan bog‘liqligi aniqlangan. Qizlar onlayn muloqotga ko‘proq moyil, kompulsivlik va kognitiv “onlayn hayotga

sho‘ng‘ish” darajasi yigitlarga nisbatan yuqoriroq; shu bilan birga ular tarmoqni kayfiyatni boshqarish strategiyasi sifatida foydalanishga kamroq moyil [3].

Barcha media-vositalarga kirishni ta’minlovchi internetning o‘zi qaramlik obyekti bo‘lishi bilan birga, ijtimoiy media (ijtimoiy tarmoqlar, onlayn o‘yinlar va boshqalar)dan qaramlikning kuchli yangi tipini shakllantirishga ham hissa qo‘shadi [4]. Odamlar real kundalik hayot bilan birga onlayn rejimda ijtimoiy tarmoqlarda mavjudligini saqlab qolishga intilishadi, ammo bu ularning faoliyati va produktivitini pasaytiradi. Boshqalar bilan muloqot jarayonida gadjetlardan haddan tashqari foydalanish bilan tavsiflanadigan ijtimoiy hodisa fabbing (phone telefon, snubbing mensimaslik) deb ataladi ya’ni boshqa odam bilan real muloqotga telefon yordamida bepisandlik ko‘rsatish [5].

Xorijiy tadqiqotchilar fabbing bo‘yicha, ayniqsa uning tarqalish darajasi va uni keltirib chiqaruvchi psixologik sabablari haqida tadqiqotlar yetishmasligini qayd etadilar. Fabbingning texnogen sababi smartfonlarning keng tarqalishi va ularning funksional imkoniyatlarining kengayishi. Smartfonlardan muloqot maqsadida foydalanishning salbiy oqibati sifatidagi fabbing munosabatlardan qoniqish va shaxsiy farovonlikni pasaytiradi. Shu bilan birga, fabbing xulqida namoyon bo‘lish qaramlikning belgisimi yoki yangi ijtimoiy normami degan savol ham dolzarb.

Mahalliy psixologiyada fabbing muammosi internet-qaramlik, virtual muloqot va ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot muammolariga nisbatan endigina o‘rganilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarda shakllanadigan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar faol tadqiq etilmoqda. Axborot ijtimoiylashuvi subyektlari yoshroq bo‘lsa, ular elektron manbalardan shuncha ko‘proq foydalanadilar. Ba’zi nashrlarda fabbing gadjetlarga qaramlikning o‘zi sifatida talqin qilinadi. Bu esa fabbingni real ijtimoiy kontaktda partnerlar bir-birini mensimasligining oqibati sifatida ko‘radigan yondashuvga zid. Demak, fabbingni nafaqat texnologik taraqqiyot natijasi, balki umuman yangi turdagi ijtimoiy xulq fenomeni sifatida ham ko‘rish mumkin. Fabbing omillari va uning shaxslararo o‘zaro ta’sir, yaqin munosabatlar hamda psixologik sog‘liq uchun oqibatlari chuqur tadqiq etilishga muhtoj.

Fabbing sabablarini tushunish bo‘yicha ikki yondashuv

1-yondashuv. Fabbing bir necha turdagi qaram xulq-atvor yig‘indisining natijasi. Mualliflar nazariy model taklif etadilar: fabbingning negizida telefon qaramligi, SMS-chatlarga jalb etilish tezligi, internetdan foydalanish, ijtimoiy media (shu jumladan ijtimoiy tarmoqlar)ga qaramlik, internet-qaramlik, o‘yin qaramligi, jinsiy mansublik va smartfon mavjudligi yotadi. Modelni universitet talabalarida empirik tekshirish (mualliflar buni o‘z tadqiqotlarining cheklovi sifatida qayd etadi) shuni ko‘rsatdiki, fabbing namoyon bo‘lishiga eng katta hissa mobil telefon qaramligi, chatlarga jalb etilish va ijtimoiy tarmoqlar qaramligi qo‘shadi; internet va

o‘yin qaramligining ta’siri kichikroq. Yana shuni aniqlanishicha, ayollarda fabbing ko‘proq ijtimoiy tarmoqlar va chatlarga jalb etilish oqibati, erkaklarda esa internet va o‘yin qaramligi oqibati bo‘lib chiqadi.

2-yondashuv. Fabbingni bir ma’noda qaram xulq natijasi sifatida ko‘rish to‘g‘ri emas; u ijtimoiy xulq va muloqot normalarining o‘zgarishi deb baholanishi mumkin. Bu doirada fabbing sabablarining quyidagi modeli taklif etiladi: fabbingning asosida internet-qaramlik, ijtimoiy tarmoqlarda voqealarni “o‘tkazib yuborishdan qo‘rquv” (FoMO) va o‘z-o‘zini nazorat qilishdagi muammolar oqibatida yuzaga kelgan smartfon qaramligi yotadi. Aynan smartfon qaramligi shaxslararo muloqotda fabbing namoyon bo‘lishiga olib keladi. Keyinchalik fabbing va uning yaqinlar bilan muloqotdagi namoyonlari normativ xulq sifatida qabul qilina boshlaydi va muloqotning o‘zini o‘zgartiradi. Demak, fabbing nafaqat yangi hodisa va kundalik hayotdagi o‘zgarish, balki yaqin munosabatlarda stressogen omil hamdir. Bredberi, Fincham va Beach (Bradbury, Fincham, Beach) shaxslararo o‘zaro ta’sirni munosabatlardan qoniqishning eng muhim prediktorlaridan biri sifatida ta’riflagan [Bradbury, 2000; Coyne, 2011].

Roberts va David partnerlik fabbingini o‘lchash metodikasini ishlab chiqib, uning nafaqat munosabatlardan qoniqish, balki umumiy hayotdan qoniqishga ham salbiy ta’sir qilishini, depressiyani kuchaytirishini ko‘rsatdilar. Fabbing juftliklar o‘rtasida nizolarni keltirib chiqaradi, munosabatlardan qoniqish va subyektiv farovonlikni pasaytiradi. Xorijiy ishlarda urg‘u asosan fabbingning romantik va yaqin munosabatlarga ta’siriga beriladi; biroq fabbing eng ko‘p namoyon bo‘ladigan munosabatlarning sifat xususiyatlari ko‘p hollarda chuqur o‘rganilmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karadağ, E., Tosuntaş, Ş. B., Erzen, E., Büyükşahin, B., & Kırıcı, K. (2015). *Phubbing: Perceptions, reasons behind, predictors, and impacts*. Human Behavior and Emerging Technologies. Wiley Online Library

2. Nazir, M., & Bulut, S. (2019). *Phubbing and What Could Be Its Determinants: A Dugout of Literature*. Open Access Library Journal. SCIRP

3. Chi, L.-C., Tang, T.-C., & Tang, E. (2022). *The phubbing phenomenon: A cross-sectional study on the relationships among social media addiction, fear of missing out, personality traits, and phubbing behavior.* Current Psychology, 41, 1112-1123. SpringerLink

4. Blascovich, J. (1992). *A biopsychosocial approach to social facilitation.* Social Psychology Quarterly, 55(2), 144-155. (Garchi phubbingni bevosita tahlil qilmasa ham, ijtimoiy holatda e’tiborning boshqa omillarga ta’siri haqidagi ilmiy nazariyalarni beradi.) Wiley Online Library+1

BO’LAJAK OFITSERLARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Abduvasiyev Botirjon Baxtiyor o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda o’z kasblariga nisbatan kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek ushbu maqsadga erishishning qay tartibda amalga oshirilishi uchun taklif va tamoyillar berib o’tiladi.

Kalit so’zlar: kompetentlik, kompetensiya, kasbiy kompetentlik, psixologik mexanizmlar.

Hozirgi kunda muhtaram prezidentimiz tomonidan ta’lim tizimini rivojlantirishga, maktabgacha ta’lim tizimidan tortib oliy ta’lim tizimiga qadar, yoshlarni o’qitishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zero, hozir axborot asri bo’lib, yoshlarimizni har tomonlama yangi bilimlar bilan qurollantirishda zamonaviy texnika-texnologiyalarning ham o’rni beqiyosdir. Davlatimizning buyuk kelajagi ,albatta, biz yoshlarning qo’limizda ekanligini hisobga olib, yaratilayotgan imkoniyatlarga munosib javob tariqasida bo’lajak kadrlarni har tomonlama yetuk mutaxassis bo’lib yetishishlari uchun harakat qilishimiz zarur. Yuqoridagi maqsadlarga erishish yo’lida talabalarni kasbiy kompetentligini shakllantirish alohida o’rin egallaydi. Chunki har bir mutaxxassis avvalo o’z kasbini sevishi, mehr qo’ya olishi lozim, shundagini o’z kasbining yetuk mutaxxassisiga aylanishi hamda mamlakatimiz rivoji uchun o’z hissasini qo’sha olishi mumkin.

Psixologik jihatdan insonning ma’lum bir sohaga bo’lgan nazariy va amaliy tayyorgarligi kompetentlik sanalib, uni professional kompetentlik tushunchasi bilan kengroq izohlashimiz mumkin.

Kompetentlik va kasbiy kompetentlik tushunchalariga to’xtaladigan bo’lsak, bu borada turli psixologlar tomonidan turlicha ta’riflar va qarashlar mavjud. Quyida ulardan bir nechtasini ko’rib o’tamiz:

“Kompetentlik” (ing. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish.

Yuqoridagi ta’rifga to’xtaladigan bo’lsak , unga ko’ra kompetentlik bu talabalarning ya’ni bo’lajak mutaxassislarning ta’lim dargohlarida olgan nazariy bilimlaridan o’zlarining kelgusidagi mehnat faoliyatlarida mukammal darajada qo’llay olishi hisoblanadi.

Shu qatorda N.G.Vitkovskaya va A.K.Markovaning kompetenlikka bergan ta’riflariga to’xtaladigan bo’lsak:

N.G.Vitkovskayaning ta’riflashicha, kompetentlik – qo’yilgan muammolarni hal etishga qaratilgan insonning ichki (bilim, ko’nikma va malakalari, ma’naviy sifatlari, psixologik xususiyatlari) va tashqi (moddiytexnik, ijtimoiy) imkoniyatlarini safarbar qila olishga qodirligidir.

A.K.Markovaning fikricha esa, kompetentlik – muayyan insonning xarakteristikasi, ya’ni kasbiy talablarga munosibligi darajasi bo’yicha insonning individual xarakteristikasi demakdir.

Yuqoridagi fikrlardan har bir psixolog kompetentlik masalasiga o’z yo’nalish va qarashlaridan kelib chiqqan holda yondashganligini ko’rishimiz mumkin.

O’z navbatida shaxsda kompetentlik namoyon bo’luvchi bir nechta holatlar mavjud, ularga quyidagilar misol bo’la oladi.

- Murakkab jarayonlarda;
- Noaniq vazifalarni bajarishda;
- Bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;
- Kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo’la olishda kompetensiyaga ega mutaxassis esa:
  - o’z bilimlarini izchil boyitib boradi;
  - yangi axborotlarni o’zlashtiradi;
  - davr talablarini chuqur anglaydi;
  - yangi bilimlarni izlab topadi;
  - ularni qayta ishlaydi va o’z amaliy faoliyatida samarali qo’llaydi.

Shu o’rinda kompetentlik sifatlariga ham to’xtalib o’tadigan bo’lsak, kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi:



Tadqiqotchi T.V.Dobudkoning aytishicha, professional kompetentlikka oid yondashuvlar ichida psixologik qarashlar o’ziga xos sanalib, unda kasb va shaxsga ko’plab xaraktereologik sifatlar, professional muvaffaqiyatni ta’minlovchi psixologik omillarning mazmuni aks etgan. [59]

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, T.V.Dobudko professional kompetentlikni izohlashga shaxs va kasbning xaraktereologik sifatlari hamda bir qancha psixologik omillarni hisobga olgan holda yondashadi.

Talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlariga to’xtaladigan bo’lsak, bu jarayon albatta katta qiyinchiliklar hamda o’g’ir mehnat talab qiladi. Shuningdek avvalo, talabadagi qiziqish hamda motivatsion sohalariga ham alohida e’tibor qaratishimiz lozim. Ularda quyidagi sifatlarni shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Chidamlilik
2. Ma’lumotlarga sezgirlik
3. Faoliyatni to’g’ri tashkillashtira olish
4. Tartib intizomlilik
5. Adolatlilik
6. Ijodkorlik
7. Rejalilik
8. Moslashuvchanlik

Bundan tashqari, o’qitish jarayonida pedagogik va psixologik shart-sharoitlarni yaratish birdek muhimdir. Ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1. Mashg’ulotlar jarayonida o’qituvchi rolini o’zgartirib turish - bu jarayonda avvalo o’qituvchi bilimlarni yetkazish vazifasini bajaradi, talabalarga nazariy ma’lumotlarni berib o’tadi va so’ngra talabaga o’zini rivojlantirishi uchun sharoit yaratgan holda o’z rolini o’zgartiradi.
2. Talabalarning mustaqil tayyorgarlik ko’rishi yoki o’z ustida ishlashi uchun innovatsion usullarni joriy etish – bunda o’qituvchi talabalarga interaktiv metodikalarni qo’llagan holda mashg’ulotlarni olib borishi, bu talabalarda lohiyalashtirish qobiliyatini ham rivojlantirishga yordam beradi.
3. Nazariy bilimlarni amaliyotda mustaqil qo’llash uchun sharoit yaratish – hayotiy hamda kasbiy real vaziyatlarni yaratish.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilgan holda, hamda qo’shimcha qilib shuni aytib o’tishimiz lozimki, o’z sohasida professional hamda jonkuyar kadrlarni tayyorlash avvalo, to’g’ri kasb tanlashga ko’mak berish, to’g’ri hamda har jihatdan mos sohaga yo’naltirish ya’ni psixologik jihatdan kishining qiziqishlarini, yo’nalganligini, motivatsion sohasini hisobga olgan holda yo’naltirishdan boshlanadi. Buning aksi

[59] Dobudko T.V Ta’limni axborotlashtirush sharoitida informatika o’qituvchisining kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish Sam.GPU, 1999.

bo’lgan hollarda ham yaxshi natijalarga erishishga ko’maklashish kasbiy kompetentlikni shakllantirish mumkin , ammo bu kishidan katta mashaqqat talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Ochilova G.O Kasbiy kompetentlik. O’quv qo’llanma. – T.:”Innovatsion rivojlanish nashriyot- matbaa uyi”, 2021

2. Dobudko T.V Ta’limni axborotlashtirush sharoitida informatika o’qituvchisining kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish Sam.GPU, 1999.

3. Abduquddusov O.A. Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda o’quv amaliyotining o’rni. Pespublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari . Toshkent 2016 yil

AXBOROT URUSHLARINING SHAKLLARI

Zaidov Azizbek Avazbekovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi podpolkovnik

Bugungi kunda globallashuv jarayoni, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va internetning keng tarqalishi dunyo siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy munosabatlariga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot jamiyati shakllanishi bilan birga axborot sohasidagi raqobat ham kuchaydi. Bu raqobat ayrim hollarda ochiq yoki yashirin “axborot urushi” ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Axborot urushi — bu ma’lumotlar, axborot va kommunikatsiya vositalari orqali raqibga ta’sir o‘tkazish, uning qaror qabul qilish jarayonini izdan chiqarish, jamiyat ongini manipulyatsiya qilishga qaratilgan harakatlar tizimidir.

Axborot urushi — bu siyosiy, iqtisodiy, harbiy va ijtimoiy sohalardagi raqibni zaiflashtirish, uning ichki barqarorligini buzish, jamoatchilik fikrini o‘zgartirish yoki ma’lum siyosiy manfaatlarni ilgari surish uchun axborot oqimlaridan foydalanish jarayonidir.

Axborot urushida asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat:

- raqibning axborot tizimlarini izdan chiqarish;
- jamiyat ongini manipulyatsiya qilish va yolg‘on ma’lumot tarqatish;
- davlatning tashqi va ichki siyosiy obro‘siga putur yetkazish;
- ijtimoiy beqarorlik muhitini yaratish;
- kiber hujumlar orqali strategik ob’ektlarga ta’sir ko‘rsatish.

Axborot urushi turli ko‘rinishlarda amalga oshirilishi mumkin. Ilmiy manbalarda quyidagi asosiy shakllar ajratib ko‘rsatiladi:

1. Psixologik (mafkuraviy) urush

Bu shakl jamiyat ongini boshqarish, aholining fikrini o‘zgartirish va muayyan g‘oyalarni singdirish orqali amalga oshiriladi. Masalan, feyk yangiliklar, manipulyativ videolar, ijtimoiy tarmoqlardagi propaganda orqali odamlar qarashini o‘zgartirish. Psixologik urushda maqsad — raqib jamiyatida ishonchsizlik, qo‘rquv va beqarorlik tuyg‘usini shakllantirishdir.

2. Ma’lumot-texnik (kiber) urush

Bu shakl axborot tizimlariga texnik hujumlar orqali amalga oshiriladi. Masalan, veb-saytlar va davlat portallariga xakerlik hujumlari, ma’lumotlarni o‘g‘irlash yoki yo‘q qilish, elektr tarmoqlari va aloqa tizimlariga viruslar yoyish kabi usullar qo‘llaniladi. Kiber urush — bu zamonaviy axborot urushlarining eng xavfli shakllaridan biridir.

3. Axborot-propagandalik urush

Bu shaklda asosiy maqsad ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va reklama orqali ma’lum siyosiy yoki iqtisodiy g‘oyani omma ongiga singdirishdir. Propagandalik urushda manipulyatsiya, ma’lumotni bo‘rtash, yolg‘on statistika yoki noto‘g‘ri interpretatsiyalar orqali ta’sir o‘tkaziladi.

4. Iqtisodiy axborot urushi

Bu turda axborot resurslari orqali iqtisodiy raqibni zaiflashtirish ko‘zda tutiladi. Masalan, bank tizimlari haqida yolg‘on ma’lumot tarqatish, bozordagi aksiyalar qiymatini sun’iy ravishda o‘zgartirish, moliyaviy panika yaratish kabi usullar ishlatiladi.

5. Madaniy va ma’naviy axborot urushlari

Bu shaklda milliy qadriyatlar, an’analar va madaniy identifikatsiyaga hujum qilinadi. Chet el media mahsulotlari orqali yoshlar ongiga begona g‘oyalarni singdirish, milliy g‘urur va tilini qadrsizlantirish — bunday urushlarning asosiy belgisidir.

Axborot urushlarining vositalari va usullari

Axborot urushlarida quyidagi vosita va usullar keng qo‘llaniladi:

- ✓ ommaviy axborot vositalari (televidenie, radio, internet saytlar);
- ✓ ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Instagram, Telegram, Tiktok va h.k.);
- ✓ feyk yangiliklar va manipulyativ kontent;
- ✓ botlar va trollar orqali avtomatik axborot tarqatish;
- ✓ memlar va vizual ta’sir vositalari;
- ✓ ma’lumotlarni tahrirlab, kontekstdan uzib berish.

Axborot urushlari zamonaviy dunyoda davlat xavfsizligi, milliy mustaqillik va jamiyat barqarorligi uchun katta tahdid hisoblanadi. Shu sababli har bir davlat axborot makonida o‘z suverenitetini himoya qilish, media savodxonlikni oshirish, feyk yangiliklarga qarshi tizimli kurashish choralarini ko‘rishi zarur.

Axborot urushlarining turli shakllarini to‘g‘ri anglash, ularning ta’sir mexanizmlarini tahlil qilish va profilaktik tadbirlar ishlab chiqish — zamonaviy axborot jamiyatida strategik ahamiyatga ega vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. B.Y.Erkaev “Zamonaviy harbiy mojarolarda axborot urushlarining o‘rni va roli”. – London: Bright Mind Publishing, 2025.

2. “O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik konsepsiyasi” – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Xavfsizlik kengashi, 2022.

3. M.Kastels “Informatsionnaya epoxa: ekonomika, obщestvo i kultura”. – Moskva: GU VShE, 2020.

ZAHRDDIN MUHAMMAD BOBUR HARBIY FAOLIYATINING HARBIY XIZMATCHILAR MOSLASHUVIGA PSIXOLOGIK TA’SIRI

Boubekov Urazali Mamasalilyevich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi, mayor

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy faoliyatida kuzatilgan qo‘mondonlik tamoyillari, strategik yondashuvlari hamda jangchilarning ruhiy holatini boshqarish bo‘yicha qo‘llagan amaliy usullarini o‘rganish orqali ularning zamonaviy harbiy xizmatchilarning moslashuv jarayoniga ko‘rsatadigan psixologik ta’sirini tahlil qilishni maqsad qiladi. Mazkur mavzu harbiy psixologiya, yetakchilik nazariyasi va shaxsiy barqarorlik konsepsiyalari bilan uyg‘un holda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur; harbiy faoliyat; harbiy psixologiya; psixologik moslashuv; qo‘mondonlik madaniyati; strategik yetakchilik; jangchi ruhiyati; stressga bardoshlilik; motivatsion boshqaruv; jamoaviy birdamlik; harbiy intizom; tarixiy-harbiymeros; psixologik turg‘unlik; moslashuv mexanizmlari; harbiy ijtimoiylashuv; ruhiy tayyorgarlik; shaxsiy jasorat; harbiy-pedagogik yondashuv; jangovar tayyorgarlikning psixologik omillari; zamonaviy harbiy boshqaruv.

Harbiy xizmatchilarning yangi muhitga psixologik moslashuvi zamonaviy harbiy psixologiyada eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki harbiy xizmatning mazmuni, sharoitlari va intizom talablari shaxsning ruhiy barqarorligiga bevosita ta’sir etadi. Mazkur jarayonda tarixiy harbiy yetakchilarning tajribasini tahlil qilish, xususan, Zahiriddin Muhammad Boburning qo‘mondonlik faoliyatini psixologik nuqtai nazardan o‘rganish bugungi kunda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Bobur davlat qurilishi, qo‘shin boshqaruvi va jangchilarning ruhiy tayyorgarligini mustahkamlash borasida o‘z davridan ancha ilgarilab ketgan yetakchilardan biri sifatida baholanadi[60] Boburning harbiy boshqaruv tizimi nafaqat strategik yondashuvlari, balki inson ruhiyatiga murakkab psixologik ta’sir ko‘rsatish usullari bilan ham ajralib turadi. Uning qo‘shin tarkibida doimiy jamoaviy ruhni qo‘llab-quvvatlash, jangchilar bilan shaxsiy muloqotda bo‘lish, adolatli rahbarlik tamoyillarini qo‘llash va jang oldidan ruhlantiruvchi nutqlar orqali motivatsiyani oshirishga urg‘u bergani tarixiy manbalarda qayd etilgan[61] Bu omillar bugungi harbiy xizmatchilarni yangi xizmat muhiti, intizom tizimi va ijtimoiy-psixologik talablar

[60] Zahiriddin Muhammad Bobur. *Boburnoma*. — Asli manba. (Turli nashrlar mavjud.)
[61] Beveridge, A. S. *The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor*. — London, 1921.

bilan uyg‘unlashuviga yordam beruvchi psixologik mexanizmlarga o‘xshashligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy harbiy psixologiya nuqtai nazaridan qaraganda, Boburning yetakchilik uslubi “ruhiy turg‘unlikni shakllantirish”, “stressga bardoshlilikni kuchaytirish”, “jangovar motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash” kabi konseptlar bilan uyg‘unlashadi[62]

Harbiy xizmatchilarning moslashuvi jarayonida qo‘mondonning xulqi, odobi, muomala madaniyati va adolatli boshqaruvi muhim psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, Bobur merosining harbiy psixologiya kontekstida qayta tadqiq qilinishi zamonaviy harbiy tayyorgarlik tizimini boyitishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot Boburning harbiy faoliyati misolida qo‘mondon–jangchi munosabatlari, yetakchilikning psixologik modeli va ularning harbiy xizmatchilarning moslashuviga ta’sirini ilmiy asoslarda tahlil qiladi. Olingan natijalar hozirgi harbiy bo‘linmalarda ruhiy tayyorgarlik, intizom va jamoaviy birdamlikni mustahkamlashda tarixiy tajribadan samarali foydalanish imkonini beradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Sharq harbiy san’ati, sarkardalik mahorati va davlat boshqaruvi tarixida o‘ziga xos psixologik yetakchilik modeli yaratgan arboblardan biridir. Uning qo‘shin boshqaruvi, jangchilarning ruhiy tayyorgarligini shakllantirish, ijtimoiy birlashma va motivatsiya tizimini yo‘lga qo‘yish borasidagi tajribasi zamonaviy harbiy psixologiyada muhim o‘rin tutuvchi bir qator komponentlar — adaptatsiya**,** stressga bardoshlilik**,** liderlik psixologiyasi va jipslik kabi kategoriyalar bilan yaqin aloqada bo‘lganligi kuzatiladi[63].Hozirgi harbiy xizmat sharoitlarida xizmatchilarning psixologik moslashuvi murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, ekstremal vaziyatlarga moslashish, bo‘linma ichidagi ijtimoiy integratsiya va xizmat motivatsiyasini barqaror ushlab turish kabi jihatlar bilan belgilanadi. Shu sababli Bobur merosini harbiy psixologiya nuqtayi nazaridan qayta talqin qilish, zamonaviy harbiy tizimda xizmatchilar moslashuvini mustahkamlash uchun samarali ilmiy-amaliy model yaratishga xizmat qiladi[64]

Tarixiy tahliliy usul - Boburning “Boburnoma” asari, jahon sharqshunoslarining tadqiqotlari va zamonaviy tarixiy manbalar asosida qo‘shin boshqaruvi, strategik qarorlar va jangchilarning ruhiy holatiga doir ma’lumotlar tizimli tahlil qilindi[65]

Psixologik–komparativ tahlil - Bobur davridagi harbiy muhit va psixologik boshqaruv tamoyillari zamonaviy harbiy psixologiya nazariyalari — masalan, Harbiy Adaptatsiya modeli**,** Liderlikning Transformatsion Nazariyasi**,** Kohesivlik modeli bilan qiyosiy ravishda tahlil qilindi.**[66]** Tahlil tarixiy manbalardagi sarkarda - jangchi

[62] Bartolomei, J. *Military Psychology: Concepts and Applications*. — Oxford University Press, 2018. (Harbiy psixologiya nazariyalariga oid umumiy manba.)
[63] Karimov M. *Harbiy psixologiya asoslari.* – Toshkent, 2020.
[64] Jo‘rayev B. *Harbiy xizmat psixologiyasi.* – Toshkent, 2019.
[65] Zahiriddin Muhammad Bobur. *Boburnoma.* – Toshkent, 2017.
[66] Bass B., Riggio R. *Transformational Leadership.* – New York, 2006.

munosabatlari, harbiy intizom, stress va motivatsiya elementlari kodlashtirilib, tematik bloklarga ajratildi. Bu usul Bobur qo‘shinidagi psixologik boshqaruv mexanizmlarini aniqlash imkonini berdi[67]

Ruhiy barqarorlikni mustahkamlovchi omillar - tadqiqot Bobur qo‘shinlarida jangchilarning ruhiy tayyorgarligi ustivor o‘rin egallaganini ko‘rsatdi. U jangchilar bilan birga yurib, ularning qiyinchiliklarini baham ko‘rgan, bu esa liderning emotsional yaqinligi orqali ruhiy barqarorlikni kuchaytirgan[6]. Bu jarayon zamonaviy harbiy xizmatchilarning stressga bardoshliligini shakllantirishga o‘xshash psixologik mexanizm hisoblanadi[68]

Stressni boshqarish metodlari - tadqiqot Boburning jangoldi nutqlari, o‘zaro suhbatlar, jangchilarni ruhlantirish usullari stressni boshqarishning dastlabki, ammo samarali shakllari bo‘lganini ko‘rsatdi. U jangchilarning qo‘rquvni yengishi, jangovar vaziyatlarda emotsiyani boshqarishi uchun ma’naviy va shaxsiy qo‘llab-quvvatlashga katta e’tibor qaratgan[12]. Bu metodlar zamonaviy harbiy psixologiyada qo‘llaniladigan psixologik tayyorgarlik va affektiv boshqaruv uslublariga mos keladi[69]. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy faoliyati jangchilarning psixologik moslashuviga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Bobur sarkarda sifatida qo‘shinlarni boshqarishda nafaqat strategik qarorlarni, balki jangchilar ruhiy holatini ham hisobga olgan. Bu esa zamonaviy harbiy psixologiyada xizmat qiluvchi xizmatchilarning adaptatsiya**,** motivatsiya**,** stressga bardoshlilik va jipslik kabi asosiy psixologik komponentlarining shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1 Bobur, Z. M. *Boburnoma.* – Toshkent: Sharq, 2017.

2.Adler, A. *Military Stress and Resilience.* – Washington: American Psychological Association, 2012.

3.Bass, B., Riggio, R. *Transformational Leadership.* – New York: Lawrence Erlbaum Associates, 2006.

4.Saidov, I. *Sharq harbiy merosi.* – Samarqand: Fan, 2018.

5.Matthews, M. *The Psychology of Military Training.* – Oxford: Oxford University Press, 2018.

6.Siebold, G. *Military Cohesion Theory.* – Military Psychology Journal, 2014.

7.Jo‘rayev, B. *Harbiy xizmat psixologiyasi.* – Toshkent: Universitet Nashriyoti, 2019.

[67] Saidov I. *Sharq harbiy merosi.* – Samarqand, 2018.
[68] Beveridge A. *The Mind of the Warrior.* – London, 2015.
[69] Yukl G. *Leadership in Organizations.* – Pearson, 2013.

BO‘LAJAK OFITSERLARDA MOSLASHUV JARAYONIDA GLOSSAFOBIYA SHAKLLANISHINING PSIXOSOTSIAL OMILLARI

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi o‘qituvchisi, psixol.f.b.f.d (PhD)
Rustamova Durdona
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash yo‘nalishi 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak ofitserlarda glossafobiya shakllanishining psixosotsial omillari tahlil qilingan bo‘lib, empirik tahlillar shaxsiy, ijtimoiy va atrof-muhit omillari glossafobiyaning paydo bo‘lishidagi roli ko‘rsatilgan. Mavjud ilmiy adabiyotlar qiyoslanishi asosida shaxsiy tajriba, oilaviy tarbiya, ta’lim muhiti va ijtimoiy omillar ko‘rsatkichlar sifatida baholanadi. Psixologik maslahatlar va pedagogic yondashuvlar orqali adaptatsiya jarayonida bo‘lajak ofitserlarning omma oldida nutqdan qo‘rqishini kamaytirishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: glossafobiya, qo‘rquv, moslashuv, tutilish, fiziologik omillar, iroda, idrok, ijtimoiy xavotir, salbiy kechinmalar.

Harbiy faoliyat muhiti va sharoitlari harbiy xizmatga chaqirilgan yosh yigit shaxsiga yuqori talablarni qo‘yadi. Jamiyatda kechayotgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida vatan himoyachisi shaxsi rivojining o‘ziga xos jihatlari mavjud bo‘lib, ular harbiy xizmatni o‘tayotgan askarlarning xizmat muhitiga muvaffaqiyatli moslashuvi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etadi [2].

Harbiy bo‘linmalarni qayta tashkil etish jarayonlari hamda ayrim hududlardan kelgan yoshlar orasida harbiy xizmatning nufuzini oshirish bilan bog‘liq ravishda zamonaviy harbiy psixologlar va shaxsiy tarkib bilan ishlash organlarining muhim vazifalaridan biri harbiy xizmatchilarning harbiy jamoaga hamda xizmat-jangovar faoliyatning turli sharoitlariga moslashuv jarayonini prognoz qilish va ta’minlashdir.

Ma’lumki, harbiy xizmatchining xizmat-jangovar faoliyat sharoitlariga moslashuv darajasi uning faoliyat samaradorligi, adekvat xulq-atvorni belgilab beruvchi ruhiy holatlar, ichki psixologik qulaylik, atrof-muhit bilan optimal o‘zaro ta’sir va xizmat jarayonidagi ijtimoiy munosabatlar tizimining barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, harbiy xizmatni muvaffaqiyatli o‘tashning kafolati shaxsning xizmat sharoitlariga barqaror moslashuvidir. Ammo amaliyot shuni ko‘rsatadiki, harbiy psixologlar va shaxsiy tarkib bilan ishlash organlari tomonidan bunday moslashuvni prognoz qilish va ta’minlash yetarli darajada

kompleks tarzda olib borilmaydi. Bu esa, ko‘pincha, psixologlarning mazkur jarayonni nazariy asoslar bilan mustahkamlangan kompleks metodlar yordamida baholash imkoniyatlarining cheklanganligi bilan izohlanadi.

Tutilish va glossafobiya bo‘yicha ilmiy adabiyotlar nihoyatda keng va ko‘p qirrali. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar odatda ushbu hodisalar rivojiga ta’sir etuvchi neyrologik, psixologik va ijtimoiy omillarga qaratilgan bo‘ladi. Masalan, Bloodstein va Ratner (2008) tomonidan olib borilgan sharhda tutilish genetik, fiziologik va ekologik omillar o‘zaro ta’sirining natijasi sifatida izohlanadi. Glossafobiya esa, DiLollo, Neimeyer va Manning (2002) kabi tadqiqotchilarning asarlarida ko‘rsatilishicha, ijtimoiy xavotir va salbiy kechmish tajribalar bilan chambarchas bog‘liqdir [1].

XX asr boshlarida tutilish ko‘pincha iroda yoki xarakterdagi nuqson sifatida qabul qilingan, natijada qo‘llanilgan “davolash” usullari qattiqqo‘l va samarasiz bo‘lgan. Ammo asrning o‘rtalariga kelib, psixologik va neyrologik tadqiqotlarning chuqurlashuvi natijasida insonparvar va samarali yondashuvlarga o‘tish boshlangan. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, jumladan, differensial ta’lim va universallik tamoyillariga asoslangan ta’lim dizayni, barcha o‘quvchilar uchun, jumladan, tutilish va omma oldida so‘zlashdan qo‘rquvdan aziyat chekayotgan shaxslar uchun ham ta’lim imkoniyatlarining inklyuzivligini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuvlar shaxsiy o‘qish farqlarini inobatga olib, shaxslarning kuchli jihatlaridan samarali foydalanish imkonini beradi hamda ularning zaif tomonlarini yengillashtiradi. Shunday qilib, ta’lim tizimidagi stigmatizatsiyadan qo‘llab-quvvatlashga o‘tish jarayoni shaxsning tutilish va glossafobiyani anglashda chuqur o‘zgarish yasadi. Bu qayta baholash insonlarga o‘z ovozini topish imkonini bergani bilan birga, inklyuziv va empatik jamiyatning shakllanishiga ham hissa qo‘shdi [2].

Tutilish va glossafobiya shunchaki nutqdagi fiziologik buzilishlar emas. Ularning chuqur psixologik asosi mavjud bo‘lib, bu o‘z navbatida shaxsning o‘z-o‘zini baholashi va ijtimoiy o‘zaro ta’sirlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tutilish va glossafobiyaga ega shaxslarda eng ko‘p uchraydigan psixologik omil bu xavotirdir. U nafaqat omma oldida nutq so‘zlash arafasida, balki har doim, ehtimoliy tutilishdan doimiy qo‘rquv sifatida ham namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xavotir tutilishni kuchaytiradi, bu esa “yopiq aylanma” holatini yaratadi, undan chiqish esa juda qiyin. Tutilishdan aziyat chekayotgan shaxslar o‘z nutq qobiliyatlarini salbiy baholashlari tufayli past o‘z-o‘zini baholashni shakllantiradilar. Bu holat ayniqsa, tutilish ijtimoiy yoki kasbiy muvaffaqiyatga to‘sqinlik qilganda, glossafobiya bilan birgalikda yanada kuchayadi. Rivojlanayotgan tushunilmaslik yoki hukm qilinish qo‘rquvi tufayli, bu shaxslar ijtimoiy aloqalardan chetlashishga moyil bo‘ladilar.

Natijada ular ijtimoiy va professional rivojlanish imkoniyatlaridan mahrum bo‘lishlari mumkin [3].

Tutilish va glossafobiya bilan bog‘liq psixologik to‘siqlarni yengish uchun kompleks yondashuv talab etiladi, u empatiya, individual yondashuv va innovatsion texnologiyalarni o‘z ichiga oladi. Bunday yondashuv nafaqat shaxslarga o‘z qo‘rquvlarini yengishga yordam beradi, balki ularning akademik va ijtimoiy hayotda to‘liq ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Glossafobiya omma oldida nutq so‘zlash yoki keng auditoriya qarshisida chiqish qilishdan qo‘rquv va xavotir holatidir. Glossafobiyadan aziyat chekayotgan shaxslar nutq so‘zlashdan avval yoki chiqish jarayonida kuchli qo‘rquvni, shuningdek, jismoniy simptomlarni his qiladilar yurak urishining tezlashuvi, ter bosish, ovozning titrashi, qo‘l yoki tana qaltirashi, hattoki vahima xurujlari ham kuzatilishi mumkin. Bu holat insonning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini cheklaydi, o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchni pasaytiradi va ijtimoiy izolyatsiyaga olib kelishi mumkin.

Agar glossafobiya obsessiv-kompulsiv nevroz darajasiga o‘tib ketsa (ya’ni fikr va qo‘rquvlar majburiy tus olgan holatda takrorlansa), bu holatni faqat malakali psixolog yoki psixoterapevt aniqlay oladi. Bunday vaziyatda mutaxassis yordami zarur bo‘ladi. Biroq, glossafobiyani yengish har doim faqat mutaxassisga murojaat qilishni talab etmaydi auditoriya oldidagi qo‘rquv va hayajonni kamaytirishni mustaqil mashqlar, psixologik tayyorgarlik va pozitiv fikrlash orqali ham amalga oshirish mumkin [4].

Glossafobiya insonning psixologik va emotsional farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. U quyidagi oqibatlarga olib kelishi mumkin:

- Kasbiy rivojlanish imkoniyatlarining kamayishi,
- Shaxsiy va ijtimoiy hayotda to‘siqlar,
- O‘ziga ishonchning pasayishi,
- Ijtimoiy faollikning cheklanishi.

Glossafobiya nazorat qilinmasa, u insonning muvaffaqiyatga va o‘zini ro‘yobga chiqarish yo‘lidagi jiddiy to‘siqqa aylanadi. Glossafobiyani yengish uchun bir qator psixologik, pedagogik va amaliy strategiyalar ishlab chiqilgan.

1. Tayyorlanish va muntazam mashq qilish. Tayyorlanish muvaffaqiyat kaliti bo‘lib, har bir chiqishdan avval mavzuni chuqur o‘rganish, matnni qayta mashq qilish va sinov chiqishlarini amalga oshirish zarur. Avval kichik auditoriya oldida yoki oyna qarshisida nutq mashqini bajarish foydali bo‘ladi. Har bir yangi tajriba ishonchni mustahkamlaydi.

2. Ijobiy tafakkur va fikrlarni qayta baholash. Shaxs o‘zidagi salbiy fikrlarni aniqlash va ularni ijobiy qarashlar bilan almashtirishni o‘rganishi kerak. “Men muvaffaqiyatsiz chiqaman” o‘rniga “Men bu tajriba orqali o‘rganaman” degan

yondashuvni shakllantirish zarur. Omma oldida chiqish jarayoniga o‘sish va rivojlanish imkoniyati sifatida qarash qo‘rquvni kamaytiradi.

3. Relaksatsiya texnikalari. Nafasni chuqur olish, meditatsiya, yoga yoki autogen mashqlar singari bo‘shashish texnikalari emotsional va jismoniy zo‘riqishni kamaytiradi. Bu usullar stress gormonlarini pasaytiradi va chiqishdan avval tinchlik hissini ta’minlaydi.

4. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash. Yaqqol qo‘rquvni yengish jarayonida yaqin insonlar, do‘stlar va hamkasblar tomonidan beriladigan ma’naviy qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bu muammodan muvaffaqiyatli chiqqan insonlarning tajribasini o‘rganish ham motivatsion va ilhomlantiruvchi bo‘lishi mumkin.

5. Psixoterapiya. Agar glossafobiya inson hayot sifatiga sezilarli darajada ta’sir qilayotgan bo‘lsa, mutaxassis yordamiga murojaat qilish zarur. Psixolog yoki psixoterapevt individual terapiya yoki kognitiv-xulqiy terapiya orqali qo‘rquv manbalarini aniqlash va ularni boshqarish strategiyalarini shakllantirishga yordam beradi. Mindfulness (onglilik) texnikalari esa hozirgi holatni real qabul qilish va ichki muvozanatni tiklashda samaralidir [5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Allenson Dj. (2021). Kognitivno-povedencheskaya terapiya v lechenii zaikaniya. M.: Izdatelstvo “Psixoterapiya”.

2. Batterfild L. (2019). Strategii preodoleniya kommunikativnыx barerov u studentov s rechevыmi narusheniyami. Jurnal Speцialnogo Obrazovaniya, 45(3), 174-189.

3. Goldstayn S., i Shvarц R. (2022). Publichnыe vыstupleniya i zaikanie: psixologicheskie aspektы i podxodы k terapii. Jurnal Psixologii i Obrazovaniya, 53(2), 112-128.

4. Markova I. K., i Petrovskiy, A. V. (2020). Soцialnaya psixologiya v obrazovanii. Moskva: Izdatelstvo “Akademiya”.

5. Эrikson F. (2020). Psixologiya straxa i metodы ego preodoleniya v akademicheskoy srede. Jurnal Sovremennoy Pedagogiki, 39(3), 202-216.

6. https://www.frontiersin.org/journals/psychology/articles/10.3389/fpsyg.2019.00488/full

BO‘LAJAK OFITSERLARDA XIZMAT FAOLIYATIGA MOSLASHUVIDA KOPING STRATEGIYALARNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi o‘qituvchisi, psixol.f.b.f.d (PhD)
Naimjonov Shaxriyor Ixtiyor o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash yo‘nalishi 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: Hayotimiz davomida biz ko‘pincha o‘zimiz uchun noodatiy bo‘lgan vaziyatlarga duch kelamiz va bunday vaziyatlar bizda stress reaksiyasini keltirib chiqaradi. Yangi chaqirilgan harbiy xizmatchilar uchun esa stress holatini chaqiruvning o‘zi – odatiy yashash muhitining o‘zgarishi, qat’iy subordinatsiya talablariga rioya etish, yangi jamoaga kirib borish – keltirib chiqarishi mumkin. Bularning barchasi harbiy xizmat sharoitlariga moslashuv jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi va aynan shu moslashuv ko‘pincha eng murakkab muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan harbiy xizmatchining moslashuv darajasiga uning xulq-atvori, ichki psixologik qulaylik holati, atrof-muhit bilan optimal o‘zaro ta’siri bog‘liq bo‘ladi. Armiya sharoitlariga moslashish zarurati o‘zgargan ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik vaziyatda koping-strategiyalarga alohida talablar qo‘yadi. Shu bois harbiy xizmatchilarning yangi muhitga moslashuv darajasi bilan bog‘liq koping-strategiyalarini o‘rganish dolzarb va o‘z vaqtida qo‘yilgan ilmiy vazifa hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Psixik adaptatsiya insonning atrof-muhit sharoitlari va talablariga moslashishi jarayoni bo‘lib, u organizmning barcha tizimlari faoliyatida integrativ va regulyativ funksiyani amalga oshirish qobiliyatini ta’minlaydi. Ko‘plab mualliflar «psixik adaptatsiya» tushunchasini turlicha talqin qilgan. Yu.A.Aleksandrovskiy fikriga ko‘ra, sistemali faoliyatning namoyon bo‘lishi ko‘plab biologik va psixologik subsistemalar majmuasi bo‘lib, ular inson faoliyatini «operativ tinchlik» darajasida ta’minlaydi. Bu holat turli tabiiy va ijtimoiy omillarga faol va maqsadga yo‘naltirilgan ta’sir ko‘rsatish, shuningdek, ularga qarshilik ko‘rsatish imkonini beradi [2].

V.M.Volovik psixik adaptatsiya haqidagi qarashlarida uni shaxsning faol funksiyasi sifatida ko‘rib, insonning aktual ehtiyojlari, muhit talablari va hayot sharoitlarining dinamik o‘zgarishlarini muvofiqlashtiruvchi jarayon deb ta’riflaydi [3]. F.Berezin fikriga ko‘ra, psixik adaptatsiya shaxs va atrof-muhit o‘rtasida muvofiqlik o‘rnatilishi bilan bog‘liq. U «bunday muvofiqlik o‘rnatilishi insonning aktual ehtiyojlarini qondirish va ular bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan maqsadlarni (psixik

va jismoniy salomatlikni saqlagan holda) ro‘yobga chiqarish imkonini beradi. Shu bilan birga insonning psixik faoliyati va xulq-atvori muhit talablariga mos kelishi ta’minlanadi», deb ta’kidlaydi [1]. Shunday qilib, psixik adaptatsiya masalasini o‘rgangan mualliflarning xulosalariga tayanib aytish mumkinki, psixik adaptatsiya biologik, psixologik va ijtimoiy komponentlardan tashkil topgan ko‘p darajali struktur-funksional tizimdir. Turli ilmiy maktab vakillari adaptatsiya muammosi bo‘yicha o‘z qarashlarini ilgari surgan.

L.A.Karpenko, A.V.Petrovskiy va M.G.Yaroshevskiylar moslashuvga quyidagi ta’rifni berganlar: adaptatsiya (lotincha *adapto* – moslashtiraman) organizm, uning organlari va hujayralarining tuzilishi hamda funksiyalarining muhit sharoitlariga moslashishidir [4]. Aynan adaptatsiya mexanizmlari organizmning o‘zgarib boruvchi sharoitlarda mavjud bo‘lish imkoniyatini ta’minlaydi va «inson–muhit» tizimida organizmning optimal funksional faoliyatiga erishishga yordam beradi. Organizm o‘zi mavjud bo‘lgan muhit sharoitiga moslashishi zarur. «Organizm va muhit statik emas, balki dinamik muvozanatda bo‘lganligi tufayli ularning o‘zaro nisbati doimo o‘zgarib boradi va shu bilan birga adaptatsiya jarayoni ham uzluksiz amalga oshadi». Ijtimoiy adaptatsiya guruh xulq-atvori, ijtimoiy munosabatlar va madaniyatda namoyon bo‘ladigan jismoniy, ijtimoiy-iqtisodiy yoki tashkiliy o‘zgarishlar jarayoni yoki holati sifatida talqin qilinadi. Mazkur konsepsiyada shaxsning va ijtimoiy guruhning muammoli vaziyatlarda ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasini tushunish uchun zarur elementlar ko‘rib chiqiladi. Bixevioristlarning fikricha, guruh adaptatsiyasi o‘z a’zolarining individual adaptatsiyasidan tubdan farq qilmaydi, chunki guruh yangi a’zolarga moslashar ekan, individ ham bir vaqtning o‘zida guruhga moslashadi [6].

Inson yangi, tanish bo‘lmagan vaziyatga tushganda, unda ko‘pincha noqulaylik hissi paydo bo‘ladi. Agar u bu hissiyot bilan samarali kurasha olsa, yangi vaziyatga osonroq moslashadi va qiyinchiliklarni yengib o‘tadi. Biroq bu holatning o‘zi nima va uni qanday yengib o‘tish mumkin? Inson reaksiyalarini o‘rganar ekan, G.Sel’ye 1929-yilda umumiy adaptatsion sindrom tushunchasini kiritdi. U umumiy adaptatsion sindrom (UAS) ostida organizmda sodir bo‘ladigan barcha noxos o‘zgarishlarni ham jismoniy, ham organik o‘zgarishlarni tushungan. Hozirgi vaqtda stress alohida funksional holat sifatida, shuningdek, adaptatsion normadan tashqariga chiquvchi muhit ta’sirlariga organizmning psixofiziologik reaksiyasi sifatida qaraladi.

«Koping» termini psixologik adabiyotga birinchi bor 1962 yilda L. Merfi tomonidan kiritilgan bo‘lib, u bolalarning krizisli vaziyatlarni yengib o‘tish jarayonini o‘rgangan paytda qo‘llangan. U kopingni yangi vaziyat yaratishga qaratilgan urinish sifatida ko‘radi. «Bu vaziyat tahdidli, xavfli yoki quvonchli va qulay bo‘lishi mumkin», ya’ni ma’lum muammoni hal etishga qaratilgan inson

intilishi nazarda tutiladi. Bir tomondan, bu tug‘ma xulq-atvor (refleks, instinkt) shaklida bo‘lishi mumkin, ikkinchi tomondan esa orttirilgan (o‘zini tutish qobiliyati, sabr, muayyan faoliyatga moyillik) bo‘lishi mumkin. L.Merfi kopingni o‘rganishning dastlabki bosqichlaridayoq shaxsning individual-tipologik xususiyatlari uning stressli vaziyatlarni yengib o‘tish tajribasi bilan o‘zaro bog‘liqligiga e’tibor qaratgan hamda koping-mexanizmlarini ikki tarkibiy qismga bo‘lgan: kognitiv va xulq-atvoriy.

Chaqiriluvchilarning moslashuvi harbiy jamoaning barcha faoliyat sohalarida amalga oshadi. Bu jarayonda ularning shaxsiy xususiyatlari, hayotiy tajribasi, ehtiyoj-motivatsion sohasi hisobga olinadi. Ijtimoiy-psixologik moslashuvning o‘ziga xos jihati munosabatlar tizimining qayta qurilishi bilan bog‘liq, chunki harbiy jamoada aynan o‘zaro munosabatlar yetakchi rol o‘ynaydi. Xizmat sharoitida yosh shaxslarga bir vaqtning o‘zida bir nechta turdagi me’yorlarga (rasmiy, norasmiy, tashqaridan kiritilgan me’yorlar) moslashish va ularni o‘zlashtirishga to‘g‘ri keladi. Harbiy xizmatchilarning moslashuvi ikki bosqichda kechadi: avval ular o‘quv bo‘linmalariga keladilar va bu yerda birlamchi moslashuv jarayoni kechadi. Keyin esa ular xizmat vaqtining asosiy qismini o‘tkazadigan harbiy qismga jo‘natiladi – bu bosqich ikkilamchi moslashuv hisoblanadi.

Birlamchi va ikkilamchi moslashuv jarayonida harbiy xizmatchilar uchta bosqichdan o‘tadilar:

- Orientatsion bosqich. O‘quv qismi ham, asosiy bo‘linma ham sharoitida ayrim yangi chaqirilganlar buyruq va talablarni bajarishga intilishi, tirishqoqligi va intizomliligi bilan ajralib turadi. Ular bo‘linma komandirlari, shuningdek jamoa bilan tanishadilar, ularning shaxsiy sifatlarini baholaydilar va ular bilan o‘zaro ta’sir uslublarini shakllantiradilar.
- Kritik bosqich. Bu bosqichda harbiy xizmatchilar va qo‘mondonlar, shuningdek boshqa mansabdor shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat jarayonida turli ziddiyat va nizolar yuzaga keladi.
- Yakunlovchi bosqich – xulq-atvor modeli shakllanadi. Xizmat majburiyatlarini bajarishga bo‘lgan munosabatiga qarab, ushbu bosqichda uchta guruh ajratiladi:

1. faol-ijobiy munosabatga ega bo‘lganlar;
2. passiv munosabatga ega bo‘lganlar;
3. faol-salbiy munosabatga ega bo‘lganlar.

V.I.Lebedeva harbiy xizmatchilar moslashuvining o‘z bosqichlarini ham ajratib ko‘rsatadi:

- Tayyorlov bosqichi. Mazkur bosqich harbiy xizmatga chaqirishdan avval boshlanadi. Bu davrda chaqiriluvchida muddatli harbiy xizmat davrida duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar to‘g‘risida ma’lum obyektiv tasavvur shakllanadi.

Shaxs harbiy xizmatni o‘tab kelgan do‘stlaridan, qarindoshlarining hikoyalaridan ma’lumot to‘playdi va xizmat haqida o‘zida ma’lum kutishlar tizimini shakllantira boshlaydi, ya’ni adaptatsiyaning axborot va emotsional omillari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik yuzaga keladi. Agar fuqarolik hayotida shakllangan bu kutishlar real sharoitga mos kelmasa, frustratsiya paydo bo‘ladi va bu salbiy emotsiyalar bilan kechadi.

- Boshlang‘ich psixik zo‘riqish bosqichi. Bu bosqich shaxs harbiy komissariatdagi yig‘ilish punktiga kelgan paytdan boshlanadi, uning davomiyligi esa shaxsning individual xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Emotsional kechinmalar kuchayishi hisobiga psixik zo‘riqish ortadi. Mazkur bosqichda yangi chaqiriluvchining keyinchalik xizmat davrida o‘zini qanday tutishi to‘g‘risida dastlabki tasavvur hosil qilish mumkin.
- Kirish davridagi o'tkir psixik reaksiyalar bosqichi. Bu bosqichning chegarasi – harbiy qismga kelgan ilk kunlardan boshlab xizmatning dastlabki bir necha oylarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda yangi chaqirilgan askar o‘zida o‘zgargan yashash sharoitlarining stressogen omillarini bevosita his qila boshlaydi. Shu bosqichdayoq yangi muhit, boshqa qoidalar sharoitida u vaziyatlar bilan qanday kurashayotgani, bu holat uning emotsional sohasiga, demakki, keyingi moslashuviga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani yaqqol ko‘rinadi.

A.A.Nalchadjyan fikriga ko‘ra, moslashuv natijasi shaxs va guruh o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir holati bilan ifodalanadi. Bunday holatda shaxs o‘z yetakchi faoliyatini bajaradi, rol kutishlariga to‘liq mos keladi va bunda tashqi hamda ichki konfliktlar kuzatilmaydi. Moslashuv samaradorligi individning o‘zini baholash darajasi, o‘z ehtiyojlari va xulq-atvori motivlarini anglab yetish qobiliyati, shuningdek ijtimoiy aloqalarning mavjudligi bilan bog‘liq. O‘zini noto‘g‘ri idrok etish, o‘zi haqidagi tasavvurning buzilishi moslashuvning izdan chiqishiga, konfliktlilikning ortishiga, boshqalar bilan munosabatlarning buzilishiga, mehnat qobiliyatining pasayishiga va sog‘liq holatining o‘zgarishiga olib keladi. Moslashuvning chuqur buzilishi harbiy intizomning buzilishi, huquqbuzarliklar, suitsidal urinishlar, nerv-psixik kasalliklar kabi og‘ir buzilishlarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Shuni anglash zarurki, harbiy tizimga kirib kelgan yosh shaxsda doimo muammoli vaziyatlar paydo bo‘lib turadi va bunday vaziyatlarni yengib o‘tish uchun ma’lum darajada psixik resurs zarur bo‘ladi. Harbiy xizmat psixik va jismoniy yuklamalar bilan kechadi. Shaxs harbiy muhit sharoitiga tushganda, uning hayot ritmi o‘zgaradi, kundalik rejim ustav bilan qat’iy tartibga solinadi, xulq-atvorning reglamentlangan rejimi joriy etiladi, yolg‘iz qolish imkoniyati deyarli bo‘lmaydi, mas’uliyat ortadi, agar u o‘z tug‘ilgan shahridan boshqa hududga jo‘natilgan bo‘lsa, tabiiy-geografik sharoitlar ham o‘zgaradi. Bu omillarning barchasi yangi

chaqiriluvchilar uchun yangilik bo‘lib, ular psixik va jismoniy salomatlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Natijada moslashuv jarayonida turli qiyinchiliklar yuzaga kela boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ababkov V.A. Zaщitnыe psixologicheskie mexanizmы i koping: analiz vzaimootnosheniy // Aktualnыe problemы klinicheskoy psixologii i psixofiziologii: Materialы nauchno-prakticheskoy konferenцii. «Ananevskie chteniya-2004» / Pod red. L.A. Цvetkovoy. – SPb.: SPbGU, 2004. – S.14 – 22.

2. Berezin F.B. Psixicheskaya i psixofiziologicheskaya adaptaцiya cheloveka / F.B. Berezin. – L.: Nauka, 1988. – 270 s.

3. Bodrov V. A. Informaцionnыy stress / V. A. Bodrov. – M.: PER SЭ, 2000. – 352 s.

4. Venger A. Psixoterapiya: zapadnaya teoriya i rossiyskaya praktika // Moskovskiy psixoterapevticheskiy jurnal. - 2001. - № 1(40), yanvar- mart.

5. Karayani A. G., Sыromyatnikov I. V. Prikladnaya voennaya psixologiya / A. G. Karayani, I. V. Sыromyatnikov. - SPb.: Piter, 2006. - 480 s.

6. Neronova O.Э. Speцifika adaptaцii voennoslujaщix k slujbe v armii / O. Э. Neronova // Vestnik VGTU. – 2014. №3 – S. 17 – 21.

GIBRID URUSHINING OLIMLAR TOMONIDAN O‘RGANILISHI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL

Zamonov Azizbek Avazbek o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada gibrid urushining shakllanishi, mazmuni, tarkibiy qismlari va zamonaviy global xavfsizlik tizimidagi o‘rni chuqur tahlil qilinadi. Turli davlatlarning harbiy doktrinalari, axborot siyosati, kiberxavfsizlik strategiyalari hamda geosiyosiy manfaatlari kontekstida gibrid urushni o‘rganishga turli ilmiy maktablarning yondashuvlari solishtiriladi. Shuningdek, AQSh, Rossiya, Yevropa Ittifoqi, Xitoy va Yaqin Sharqning gibrid operatsiyalar tajribasi, gibrid tahdidlarning davlat institutlariga ta’siri, jamiyatning axborot barqarorligi hamda strategik kommunikatsiya mexanizmlari yoritiladi. Maqola bugungi gibrid tahdidlar evolyutsiyasini ilmiy asosda tahlil qiladi va kelajakda tadqiqotlar uchun ustuvor yo‘nalishlarni taklif etadi.

Kalit so‘zlar: gibrid urushi, axborot operatsiyalari, kiberxavfsizlik, strategik kommunikatsiya, geosiyosat, kuch vositalari integratsiyasi.

Gibrid urushi-zamonaviy harbiy-siyosiy mojarolarning murakkab, ko‘p qatlamli va ko‘p vositali shaklidir. Unda nafaqat an’anaviy qurolli kuchlar, balki axborot, kiber, siyosiy, iqtisodiy, diplomatik, ijtimoiy va psixologik bosim vositalari birlashtiriladi.

Olimlar bu fenomenni so‘nggi 20–25 yil davomida faol o‘rganib kelmoqdalar. Gibrid urush tushunchasi ayniqsa 2014-yildan boshlab-axborot urushi, kiberhujumlar, proksi-nizolar va energetik bosimning global miqyosda kuchayishi ortidan ilmiy doiralar markaziga aylandi.

F.Hoffman (AQSh) gibrid urush tushunchasini birinchi bo‘lib ilmiy muomalaga kiritgan tadqiqotchilardan biridir. Uning fikricha, gibrid urush:

- an’anaviy qurolli to‘qnashuv,
- proksi guruhlar faoliyati,
- terror amaliyotlari,
- axborot va kiberoperatsiyalar kabi vositalarning bir vaqtning o‘zida qo‘llanishidir.

M.Mazarr “gray zone conflict” (kulrang zona mojarolari) konsepsiyasini ishlab chiqqan. Unga ko‘ra, gibrid operatsiyalar chegarani buzmaydigan, ammo strategik ustunlik beradigan harakatlardir. RAND Corporation tadqiqotchilari gibrid urushni davlat suvereniteti uchun asosiy xavflardan biri deb hisoblaydi.

V. Gerasimov (Rossiya Bosh shtabi) gibrid urushning mohiyatini “harbiy va harbiy bo‘lmagan vositalarni uyg‘un qo‘llash” deb talqin qiladi. Uning fikricha, zamonaviy urushning 80% gacha bo‘lgan qismi-axborot, diplomatik, iqtisodiy, ijtimoiy bosim orqali amalga oshadi.

Rossiya olimlarining ishlarida axborot maydoni va psixologik operatsiyalar-gibrid urushning asosiy quroli sifatida ko‘riladi.

Xitoyning “Uch urush” (Three Warfares) doktrinasi:

- psixologik urush,
- media urushi,
- huquqiy urush tushunchalariga asoslanadi. Xitoy olimlari gibrid urushni diplomatik va axborot ta’sirining murakkab tizimi sifatida talqin qiladilar.

Yevropa olimlari gibrid tahdidlarga qarshi institutsional va tizimli yondashuvni ishlab chiqqan:

- Yevropa Kengashining “Hybrid Threat Analysis Group”
- NATO StratCom markazi
- East StratCom Task Force

Ular gibrid urushni asosan axborot operatsiyalari va kiberxavfsizlik kontekstida tahlil qiladilar.

Olimlar quyidagi masalalarni o‘rganadi:

- dezinformatsiya modellari
- ijtimoiy tarmoqlar orqali psixologik ta’sir
- algoritmik propaganda
- sun’iy intellekt yordamida narrativlar yaratish

Mazkur yo‘nalish bo‘yicha tadqiqotlar soni keskin oshgan.

milliy xavfsizlik strategiyalarini tubdan o‘zgartirgani ta’kidlanadi.

Gibrid urushi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamining yildan-yilga kengayib borishi ushbu fenomenning global xavfsizlikka ta’siri kuchayib borayotganini ko‘rsatadi. Olimlarning umumiy fikriga ko‘ra:

- gibrid urushning aniq chegaralari yo‘q;
- u asosiy qurol sifatida axborot va kiber makonga tayanadi;
- harbiy bo‘lmagan vositalar strategik ustunlik yaratishda muhim rol o‘ynaydi;
- kelajakdagi mojarolar asosan gibrid shaklda kechishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hoffman, F. “Hybrid Warfare and Challenges of Countering It.”
2. Mazarr, M. J. *Mastering the Gray Zone*.
3. Gerasimov, V. “The Value of Science in Foresight.”
4. Giles, K. *Russia’s Tools for Confrontation*.
5. RAND Corporation. *Understanding Hybrid Threats*.

TOBELIK MUAMMOSINING SHARQ MANBALARIDAGI ILMIY TADQIQ OBYEKTI SIFATIDA O‘RGANILISHI

Qarshibayv Murodil Qarshibay o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“XFTPT” kafedrasi o‘qituvchisi, katta leytenant

Annotatsiya: Ushbu maqolada tobelik, ya’ni addiktiv xulq – bu shaxs xulqining biror narsaga qaram qilishdan iborat zararli odat bo‘lib, biror-bir predmet yoki vositaga ruju qo‘yish oqibatida psixik o‘zgarishlarga olib keluvchi holatlar haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Tobelik, addiktiv, addiksiya, mobil addiksiya.

Sharq falsafasida inson ruhi, ehtiroslari va nafsiy holatlari muammosi qadimdan o‘rganib kelingan. G‘arbda addiksiya tushunchasi taxminan XX asrda ilmiy termin sifatida shakllangan bo‘lsa, Sharqda bu holat ko‘proq “nafsga tobe bo‘lish”, “iroda zaifligi”, “ruhan qullik” kabi ma’nolarda talqin etilgan. Sharq allomalari bu hodisani insonning ma’naviy inqirozi sifatida baholaganlar desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Sharq mutafakkirlari addiksiyani faqat jismoniy holat emas, balki ruhiy-axloqiy muammo sifatida ko‘rishgan.

Sharq allomalarining bizga qoldirgan ilmiy metodologiyasida shaxs shakllanishi, unga ta’lim-tarbiya berish, shuningdek, shaxs tomonidan xulq-atvor me’yorlarining o‘zlashtirilishi hamda rioya etilishi yoki buzilish masalalari borasida qimmatli fikr- mulohazalarni ko‘rish mumkin. Jumladan, Abu Ali ibn Sino[70], Abu Nasr Forobiy[71], Abu Rayhon Beruniy[72], Abdurahmon Jomiy[73], Jaloliddin Davoniy[74], Alisher Navoiy[75] kabi allomalarimiz o‘z asarlarida shaxslarni biror predmetga yoki faoliyatga qaramlik sifatlari hamda uning tarkibiy qismi bo‘lgan o‘zini o‘zi nazorat qilish xususiyatining shakllanishi yuzasidan qimmatli fikrlarni ilgari surganlar.

Islom dinining muqaddas kitobi bo‘lgan “Qur’oni Karim”da ham shaxsning irodaviy sifatlaridan sabr toqatlilik olijanob xislat sifatida e’tirof etiladi. Havoyi nafsga berilishning asosiy sababi sifatida kishi irodasining zaifligi va ilmsizligi yoki ilmning kamligi ko‘rsatiladi. Chunki inson bilimsizligi tufayli havoyi nafs ta’siriga oson beriladi. Shuning uchun odam aqlni ishlatib, hayotda to‘g‘ri yo‘l tutishga da’vat

[70] Pedagogika tarixi: (Pedagogika oliy o‘quv yurtlari va dorilfununlar talabalari uchun o‘quv qo‘llanma)/ K.Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova va boshq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
[71] Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida muqaddima, tarjima va izohlar muallifi: M.Qodirov: ma’sul muharrir: A.Jalolov. – T.: Yozuvchi, 2001.
[72] Abu Rayhon Beruniy. Feruza (Javohirlar haqida naql va hikoyatlar). – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993.
[73] Abdurahmon Jomiy. Tanlangan asarlar. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1971.
[74] Aliqulov H., Omonboeva R. Jomiy va Davoniy ta’lim-tarbiya haqida. – Toshkent: O‘zbekiston, 1981.
[75] Ma’naviyat yulduzlari: To‘ldirilgan qayta nashr. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashri, 2001.

etiladi[76]. Shuningdek, ushbu manbada insondagi turli nuqsonli holatlar tobelik, shaxsning ruhiy zaifligi, o‘zini o‘zi nazorat qilish imkoniyatining mavjud emasligi bilan belgilanishi ko‘rsatib o‘tiladi. “Qur’on”da insonning ruhiy va ma’naviy kamolga yetishiga to‘sqinlik qiluvchi salbiy xislatlardan biri tobelik deb ko‘rsatiladi. U ruhiy razolat sifatida talqin etiladi. Shuning uchun ham islom insonni aql va insofga, o‘z hissiyotlarini boshqara olishga chaqiradi.

Shunday qilib, shaxsda addiktiv xulq-atvorning shakllanishi uning psixologik xususiyatlarining ayrim jihatlarida salbiy yo‘nalishda rivojlanishiga turtki bo‘lishi aniqlanadi. Addiksiya jarayoni nafaqat tashqi muhit omillari, balki shaxsning ichki motivasion tizimi, emotsional barqarorlik darajasi va o‘zini nazorat qilish qobiliyati bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Shu ma’noda, o‘zini o‘zi nazorat qilish mexanizmi insonning o‘z xatti-harakatlarini, emotsional reaksiyalarini va impulsiv istaklarini tartibga solishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Psixologik tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati shaxsning addiktiv xulq-atvorga qarshi turishida psixologik rezistentlik (qarshilik ko‘rsatish) sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu sifatning yetarlicha rivojlanmaganligi esa shaxsni tashqi stimullarga nisbatan yuqori sezuvchanlikka, emotsional disbalansga va mustaqil qaror qabul qilishdagi zaiflikka olib keladi. Shunday ekan, emotsional o‘zini boshqarish va o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalari addiktiv xulq-atvorning oldini olishda va shaxsning ichki psixologik muvozanatini ta’minlashda eng muhim determinativ omil sifatida qaraladi. Bu holat, o‘z navbatida, psixoprofilaktika va psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqishda asosiy metodologik yo‘nalishlardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Inson kamoloti bilan bog‘liq islom dini g‘oyalarini o‘zida mukammal mujassam etgan Naqshbandiya tariqati kishilarda mehr-oqibat, samimiylik, halollik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, sabr-qanoatning tarkib topishiga yo‘llar ekan, ularda yomon illatlar – harom ishlardan saqlanish, ya’ni o‘g‘rilik, nopoklik, xasislik, yolg‘onchilik, firibgarlik, ta’magirlik, boylikka hirs qo‘yish kabilarni qoralaydi[77].

Demak, islom dini ta’limoti bo‘yicha ham inson ma’naviy kamolotining asosini faqat aqliy rivojlanish emas, balki axloqiy sifatlardan sabr-qanoat, chidam, bardoshlilik kabi yaxshi fazilatlar shakllanishini tashkil etadi. Abu Nasr Forobiyning fikriga ko‘ra, har kim o‘z irodasiga bog‘liq xatti-harakatlarni bajarishga qodir bo‘lsa, ruhan va tabiatan xayrli amallar va sharr (yomon) ishlar tomon o‘z irodasini yo‘naltira oladi. Shu sababli har bir insonda fazilatli xatti-harakatlar yoki razolatli fe’l-atvor tug‘diradigan iste’dod mavjud bo‘lib, u har ikkisidan birini bajarishga qodirdir[78].

---

[76] Qur’oni Karim: o‘zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar muallifi Alauddin Mansur. – T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1992.
[77] Маънавият юлдузлари: Тўлдирилган қайта нашр. – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашри, 2001.
[78] Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida muqaddima, tarjima va izohlar muallifi: M.Qodirov: ma’sul muharrir: A.Jalolov. – T.: Yozuvchi, 2001.

Tobelik, ya’ni addiktiv xulq – bu shaxs xulqining biror narsaga qaram qilishdan iborat zararli odat bo‘lib, biror-bir predmet yoki vositaga ruju qo‘yish oqibatida psixik o‘zgarishlarga olib keluvchi holatdir (ingliz tilidan addiction – tobelik, moyillik, yomon illat). Tobelik xulqning maqsadi, bu oddiy hayotdan, zerikishdan, yolg‘izlikdan, hayot va xizmat qiyinchiliklaridan qochishdir. Adabiyotlarda addiktiv xulq, ya’ni tobelik xulqi deb inson psixik holatini o‘zgarishiga sabab bo‘luvchi va oxir-oqibat tobelikni keltirib chiqaruvchi vositalarga aytiladi. Tobelik xulqida shaxs qoniqish olish maqsadida kimgadir yoki nimagadir murojaat qiladi.

Mobil addiksiya – bu mobil qurilmalarga (smartfon, planshet va boshqalar) hirs qo‘yishdan iborat tobelik turi bo‘lib, inglizchada ko‘pincha “smartfon addiksiyasi” yoki “texnologik addiksiya” deb ataladi. Mobil qurilmalar orqali amalga oshiriladigan faoliyat turlari juda ko‘p: ijtimoiy tarmoqlar, video o‘yinlar, xabar almashish ilovalari, seriallar tomosha qilish va boshqalar. Mobil qurilmalarga haddan tashqari berilish, inson hayotidagi faol, ijodiy faoliyat turlarini, ayniqsa, intensiv siqib chiqaradi. AQShdagi psixologik assosiasiyalarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, tobelikning turli shakllari orasida mobil qurilmalarga tobelik tez sur'atlarda tarqalmoqda. Har qanday mamlakatning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, tobelikning bir turiga moyil bo‘lgan fuqarolar boshqa turiga ham tobe bo‘lib qolishi mumkin. Statistika bo‘yicha, maqsadsiz internetdan foydalanishga tobe bo‘lgan odamlar, foydalanmaydiganlarga nisbatan mobil qurilmalarga bir necha marotaba ko‘proq tobe bo‘lib qoladilar.

Xulosa qilib aytganda, Sharq mutafakkirlarining addiktiv xulqqa oid boy merosi jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatidagi harbiy xizmatchi va xodimlarni nafaqat aqliy va jismonan, balki irodasi mustahkam, nafs vasvasalariga berilmaydigan, o‘zini o‘zi boshqara oladigan komil shaxs sifatida tarbiyalash uchun muhim nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu asos tobelikning oldini olishda farmakologik va farmakologik bo‘lmagan (texnologik va o‘yin addiksiyasi) turlariga qarshi kurash strategiyalarini ishlab chiqish uchun zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Pedagogika tarixi: (Pedagogika oliy o‘quv yurtlari va dorilfununlar talabalari uchun o‘quv qo‘llanma)/ K.Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova va boshq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.

2. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida muqaddima, tarjima va izohlar muallifi: M.Qodirov: ma’sul muharrir: A.Jalolov. – T.: Yozuvchi, 2001.

3. Abu Rayhon Beruniy. Feruza (Javohirlar haqida naql va hikoyatlar). – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993.

4. Abdurahmon Jomiy. Tanlangan asarlar. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti,

5. Aliqulov H., Omonboeva R. Jomiy va Davoniy ta’lim-tarbiya haqida. – Toshkent: O‘zbekiston, 1981.

6. Ma’naviyat yulduzlari: To‘ldirilgan qayta nashr. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashri, 2001.

7. Qur’oni Karim: o‘zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar muallifi Alauddin Mansur. – T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1992.

8. Ma’naviyat yulduzlari: To‘ldirilgan qayta nashr. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashri, 2001.

9. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida muqaddima, tarjima va izohlar muallifi

10. M.Qodirov: ma’sul muharrir: A.Jalolov. – T.: Yozuvchi, 2001.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI JANGOVAR TA’MINLASHDA IJTIMOIY-IQTISODIY VA SIYOSIY INSTITUTLAR FAOLIYATIDA HOZIRGI KUNDA UCHRAYOTGAN MUAMMO VA KAMCHILIKLAR TAHLILI

Xazratqulov Jasur Panjiyevich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti tinglovchisi, mayor

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamoat xavfsizligini jangovar ta’minlashda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy institutlarning o‘rni hamda ularning faoliyatida uchrayotgan dolzarb muammo va kamchiliklar tahlil qilingan. Xususan, iqtisodiy resurslarning yetarli taqsimlanmasligi, ijtimoiy tengsizlik, korrupsiya, huquqiy tizimdagi nomuvofiqliklar, byurokratik to‘siqlar va fuqarolik jamiyati faolligining pastligi kabi omillar tahlil etilgan. Muammolarni bartaraf etish yo‘llari sifatida normativ-huquqiy bazani modernizatsiya qilish, siyosiy islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiy shaffoflikni ta’minlash va tizimlararo hamkorlikni mustahkamlash zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, ijtimoiy-iqtisodiy institutlar, siyosiy institutlar, korrupsiya, barqarorlik, huquqiy tizim, fuqarolik jamiyati, milliy xavfsizlik.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash davlatning eng muhim strategik vazifalaridan biri bo‘lib, u nafaqat harbiy tizim, balki ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy institutlarning samarali faoliyatiga ham bog‘liqdir. Globallashuv, texnologik raqobat va yangi xavf turlarining paydo bo‘lishi sharoitida bu institutlar faoliyatidagi kamchiliklar xavfsizlik tizimining barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.
Mazkur maqolada ushbu institutlar faoliyatida hozirgi kunda kuzatilayotgan muammolar tizimli tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Jamoat xavfsizligini jangovar ta’minlash — bu davlat va jamiyatning mudofaa, iqtisodiy, ijtimoiy hamda siyosiy salohiyatini safarbar etgan holda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan kompleks tizimdir. Uning samarali ishlashi uchun ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy institutlar o‘zaro hamkorlikda faoliyat yuritishi, resurslarni muvofiq taqsimlashi hamda strategik boshqaruv mexanizmlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi zarur.

Davlat boshqaruvi tizimidagi korrupsiya xavfsizlik siyosatini zaiflashtiruvchi asosiy omillardan biridir. Mansab vakolatlarining suiiste’mol qilinishi, byurokratik kechikishlar tezkor harakatlarni amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining past faolligi jamoat xavfsizligi masalalarida jamoatchilik nazoratining sustligiga olib keladi. Bu esa siyosiy institutlarda mas’uliyat va ishonch muammosini keltirib chiqaradi.

Kiberxavfsizlik, axborot urushlari, gibrid tahdidlar kabi yangi xavflarga nisbatan zamonaviy siyosiy yondashuvlar yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa milliy xavfsizlik siyosatining adaptivligini pasaytiradi.

Bular xavfsizlik tizimining kompleks ishlashini qiyinlashtirmoqda.

Muammolarni bartaraf etish yo‘llari

1 Normativ-huquqiy bazani modernizatsiya qilish – xalqaro xavfsizlik standartlariga mos qonunlar qabul qilish.

2 Iqtisodiy resurslardan shaffof foydalanish – korrupsiyaga qarshi tizimli mexanizmlarni kuchaytirish.

3 Ta’lim va ma’naviyatni rivojlantirish – yoshlar o‘rtasida fuqarolik burchi, vatanparvarlik va huquqiy madaniyatni oshirish.

4 Siyosiy islohotlarni chuqurlashtirish – fuqarolik jamiyati institutlarini faollashtirish va jamoatchilik nazoratini kengaytirish.

5 Texnologik modernizatsiya va kiberxavfsizlik – zamonaviy xavf turlariga qarshi raqamli yechimlar yaratish.

6 Tizimlararo hamkorlikni kuchaytirish – ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy institutlar o‘rtasida yagona boshqaruv mexanizmini shakllantirish.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy institutlarning uyg‘un hamkorligi davlat barqarorligi va fuqarolar osoyishtaligini kafolatlaydi. Biroq hozirgi davrda ushbu institutlar faoliyatidagi tizimli muammolar — iqtisodiy resurslarning yetarli emasligi, korrupsiya, ijtimoiy tengsizlik, huquqiy nomuvofiqliklar va fuqarolik faolligining pastligi — xavfsizlik siyosatining samaradorligini pasaytirmoqda.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda kompleks islohotlarni amalga oshirish, shaffof boshqaruv mexanizmlarini joriy etish jamoat xavfsizligini mustahkamlashda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Milliy xavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni, 2022-yil.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
4. Akhmedov B. “Jamoat xavfsizligini ta’minlashda ijtimoiy institutlarning o‘rni”. — Ijtimoiy fanlar jurnali, №2, 2024.

OMMAVIY NOROZILIK HARAKATLARI JARAYONINI O‘RGANISHNING PSIXOLOGIK YONDASHUVI

Raxmatov Mizrob Majitovich
Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ommaviy norozilik harakat kelib chiqishining ijtimoiy sabablari va omillari ko‘rsatilib, ushbu ommaviy noroziliklar keyinchalik tartibsizlikka aylanib ketishida shaxs psixologiyada bo‘ladigan o‘zgarishlar, shuningdek olomonning shakllanish mexanizmlari bayon qilingan.

Tayanch so‘zlar: norozilik, olomon, psixologiya, jamiyat, sotsiologiya, omma kayfiyati, siyosat-ijtimoiy vaziyat.

Hozirgi kunda gegemon mamlakatlar tomonidan ayrim rivojlanayotgan davlatlarda o‘z hukmdorligini o‘rnatish maqsadida turli ichki nizolarni keltirib chiqarish tendensiyasi kuzatilmoqda. Shu kabi usullardan biri sifatida, mamlakat ichkarisida aholining ommaviy norozilik harakatlarini keltirib chiqarish hisoblanadi. Ushbu ommaviy norozilik jarayonlarda shaxs psixologiyada bo‘ladigan o‘zgarishlarni o‘rganish muhim kasb etadi.

Psixologik yondashuvda ommaviy noroziliklar bevosita olomon fenomeni bilan bog‘liq tarzda tadqiq etiladi, ya’ni noroziliklarni amalga oshiruvchi olomon turlari, yuzaga kelish motivi, psixologiyasi, ishtirokchilar ongiga ta’sir qilish usullari va vositalari, olomon xulq-atvoridagi o‘zgarishlar va uni boshqarish bilan bog‘liq jarayonlar o‘rganiladi.

Psixologlar yondashuviga ko‘ra, olomon – alohida tashkil etilmagan, stixiyali tarzda paydo bo‘lgan tartibsiz, anglab olingan umumiy maqsadga ega bo‘lmagan, sof hissiyotga berilgan odamlar to‘dasi.

Psixologiyada olomon faolligi va hissiyotga berilganlik darajasiga ko‘ra faol va passiv turlarga ajratiladi.

Faol olomon deganda birinchi navbatda zo‘ravonlik, shafqatsizlik, bosqinchilik, qo‘poruvchilik harakatlariga moyilligi bo‘lgan, tajovuzkor xulq-atvor yetakchilik qiladigan odamlar to‘dasini tushunish lozim.

Passiv olomon esa, o‘zida emotsional komponentlarning yo‘qligi bilan ajralib turadi. Uni tashkil qiluvchilar ushbu guruhga to‘satdan, misol uchun, biron bir hodisani tomosha qilaman deb, shunchaki qo‘shilib qolganlar yoki aniq maqsad asosida kelishilgan holda yig‘ilganlar (to‘y- hashamlarga, kino, teatrga kelganlar) ham bo‘lishi mumkin. Passiv olomonga xos individlarning o‘zaro joylashuvi shundayki, ular bir-birlariga ta’sir qilmaydi. Binobarin bu turdagi olomonni boshqarish oson kechishi tadqiqotchilar tomonidan alohida ko‘rsatib o‘tilgan.

Olomonni psixologiya nuqtayi nazaridan bu tarzda tasniflash shartli qabul qilingan bo‘lib, amaliy nuqtayi nazardan qaraganda olomonning o‘zgaruvchanligi ya’ni, bir turdan ikkinchisiga o‘tishi uning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Olomonning o‘zgaruvchanligi to‘satdan yoki qasddan uyushtirilgan bo‘lishi mumkin.

Ko‘plab tadqiqotchilar ommaviy noroziliklarning kelib chiqishida bevosita olomonni eng xavfli bo‘g‘in sifatida ko‘rsatishsa, A.N. Suxov ulardan farqli ravishda olomonni bir qancha turlarga ajratib, ularning ayrimlarini xavfsiz bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida fikr yuritadi.

Oddiy olomon – tasodifan ma’lum bir voqea-hodisa to‘g‘risida ma’lumot olish uchun yig‘ilgan odamlar to‘dasi. Masalan yong‘in yoki avariya vaqtlarida yig‘ilgan omma. Bu olomon turini muallif eng xavfsiz deb baholaydi.

Ekspressiv olomon – u birgalikda quvonch, qayg‘u, g‘azab va boshqa his - tuyg‘ularni ifoda etadigan odamlar guruhi. Masalan, rok musiqachilar muxlislari, dafn marosimi ishtirokchilari.

Konvension olomon – asosan sport tadbirlari vaqtida shakllanadigan fanatlar guruhi. Ularning xavfli jihati raqib jamoa vakillari bilan keltirib chiqaradigan tartibsizliklarda ko‘rinadi.

Ekstatik olomon – ekspressiv olomonning haddan tashqari kuchli shakli bo‘lib, bunda odamlar his-tuyg‘ular kuchliligidan bir-biriga tan jarohati yetkazishgacha borishadi.

Faol olomon – bu jamoaviy xatti-harakatlarning siyosiy jihatdan eng muhim va xavfli shakli. U o‘z navbatida bir necha agressiv, vahimali, majburiy va isyonkor kabi kichik guruhlarga ajratiladi.

Odamlarning olomon ichiga qo‘shilishga bo‘lgan motivlar bular:

Birinchi, bo‘layotgan voqea hodisaga qiziqish, ya’ni inson psixologiyasi shunday refleks shakllanganki, agarda biron joyda ko‘pchilik insonlar to‘planib turgan bo‘lsa, shaxs o‘z xohishiga bog‘liq bo‘lmagan holda o‘sha joyga borishga intiladi.

Ikkinchi, boshqa shaxslarning chorlovi bilan, bunda shaxs olomonning to‘planishidan manfaatdor bo‘lgan shaxslarning ta’siri bilan olomon tarkibiga qo‘shilib qoladi.

Uchinchi, ma’lum bir manfaatni ko‘zlab, masalan hokimiyat vakilligi qarshilik ko‘rsatish, o‘z xohish istaklarini ommaviy tarzda bayon qilish, norozilik kayfiyatini ko‘rsatish va boshqalar. Ushbu motivatsiyadagi shaxslar agressiv ko‘rinishdagi olomonni tashkil qilib, davlat organlari tomonidan olib borilayotgan siyosatdan norozilik kayfiyatini o‘zida namoyon qiladi.

Tadqiqotchilar tomonidan olomon psixologiyasini o‘rganishda alohida bir shaxsni ajratgan holda uning aynan noroziliklar vaqtida ongida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni tahlil qilishganda, shaxs harakatlarida quyidagicha holat kuzatilgan:

– aqlni ishlatishga nisbatan hissiyotga berilishning ortishi;
– o‘z kuchiga haddan ortiq ishonch paydo bo‘lishi;
– guruhiy ta’sir ortib, mustaqil fikrlashning pasayishi;
– tartibsizlik obyektiga nisbatan nafrat ortishi;
– o‘z harakatiga javobgarlik hissining yo‘qolishi;
– insonning haddan tashqari fidoiylik va shafqatsizlik qilishga qodir bo‘lishi;
– qilayotgan xatti-harakatlarini ongli ravishda baholay olmasligi.

Yuqoridagi psixologik o‘zgarishlarning barchasi salbiy xarakter kasb etib, olomonning agressivligini oshirishga xizmat qiladi, hamda noroziliklar tashkilotchilari uchun olomonni boshqarishda qulay muhit yaratadi. Bu o‘z o‘rnida, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan olomonni tarqatishda ma’lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Sotsiolog olimlar fikricha ommaviy noroziliklar bu ijtimoiy hodisa bo‘lib, uning ildizlarini jamiyatda hukm suradigan “ommaviy kayfiyatdan” izlash kerak, u asosan ko‘pchilik odamlar massasining jamiyatda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan umumiy psixologik kayfiyati bilan tavsiflanadi.

Jamiyatda omma kayfiyatini o‘zida namoyon qiluvchi 3 ta holat mavjud bo‘lib, birinchi: aholining yaratilgan ijtimoiy-siyosiy sharoitlardan qoniqish yoki qoniqmaslik darajasi, ikkinchi: fuqarolarning o‘z ijtimoiy- siyosiy istaklarini amalga oshira olish darajasi, uchinchi: mavjud yaratilgan shart-sharoitlarni o‘zgartirishga bo‘lgan xohishning mavjudligi.

Yuqoridagi 3 ta holatning har birni kengroq tahlil qilsak, birinchi holatda davlat organlari va amaldagi siyosiy hokimiyat tomonidan jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarda aholining rivojlanishi va kamol topishi uchun ma’lum bir shart sharoitlarning yaratilganligi bilan izohlanadi. Masalan, kommunal xizmatlar ko‘rsatish, ta’lim, sog‘liqni saqlash tizimi va boshqalar. Ikkinchi holat ushbu yaratilgan shart-sharoitlardan aholi teng huquqli ravishda foydalana olishi, davlatning bunga kafilligi, ushbu munosabatlarda tenglik buzilish hollari kuzatilsa aholi huquqlarining sud orqali himoya qilinishi, ya’ni aybdorlarga javobgarlik choralarning mavjudligi bilan belgilanadi.Uchinchi holat ko‘proq siyosiy ahamiyat kasb etib, bunda aholi davlat hokimiyati tomonidan yaratilgan shart-sharoitdan noroziligi va ularni o‘zgartirishiga bo‘lgan xohishi bilan xarakterlanadi. Fikrimizcha davlat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar asosan mana shu uchinchi holatga ko‘proq e’tibor qaratishi lozim, sababi aholi ko‘pchilik

qismining yaratilgan shart-sharoitlarni o‘zgartirishga bo‘lgan istagi mavjud bo‘lsa, u holda kelgusida norozilik chiqishlari vujudga kelishi mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, ommaviy kayfiyat insonlar ongi bilan bog‘liq jarayon bo‘lib, agar u norozilik kayfiyati ko‘rinishida bo‘lsa, tez tarqaladi va juda yuqumli bo‘ladi. Bundan tashqari, omma norozi kayfiyatda bo‘lganda uni bevosita nazorat qilish va boshqarish qiyin kechadi. U hayotning qiyin sharoitlarida bo‘lgan insonlarni oson va tez birlashtiradi, hamda insonlarga mos kelmaydigan ijtimoiy-siyosiy vaziyatni o‘zgartirishga bo‘lgan salbiy ko‘rinishdagi “yagona jamoa”ni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, omma kayfiyatining barqarorligi jamiyatda yaratilgan shart-sharoitlar bilan aholi xohish istaklari o‘rtasidagi muvozanatga bog‘liq, agar ushbu muvozanat buzilsa, ommaviy norozilik va tartibsizliklar kelib chiqishi mumkin

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Дружинин В.Н. “Психология XXI-века”. Москва, 2003, 863 с

2. Назаретян А.П. Агрессивная толпа, массовая паника, слухи. – СПб.: Питер, 2003. – 192с

3. Сухов А.Н. Как уберечься в толпе ОБЖ: Основы безопасности жизни. – 2015. - № 10.

4. Иванова К.В. Массовые беспорядки понятия и сушность – Москва. г 2017

5. Жубандыков Л.А. Причины массовых беспорядков. Пресечение и предупреждение массовых беспорядков – Москва. г 2016 125 ст

HARBIY XIZMATCHILARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ADAPTATSIYASIDA OILAVIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Sotvoldiyeva Nodirabegim
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligii universiteti
magistratura talabasi

Annotatsiya. Maqolada harbiy xizmatchilarning xizmatdan keyingi ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi jarayonida oilaviy qadriyatlarning ta’siri o‘rganiladi. Muallifning 2021 yildan buyon harbiy oliy ta’lim muassasasida tahsil olishi va so‘nggi ikki oydan beri harbiy qismda psixolog lavozimida ishlash tajribasi asosida xorijiy nazariyalar mahalliy voqelik bilan solishtiriladi.

Kalit so‘zlar: harbiy xizmatchi, psixologik adaptatsiya, oilaviy qadriyatlar, katta oila, oila mustahkamligi, reabilitatsiya.

Harbiy xizmat – bu nafaqat jismoniy, balki ruhiy jihatdan ham eng og‘ir sinov. 2021 yildan beri Harbiy universitetda o‘qib, hozirda magistraturada tahsil olyapman. Shu yilning sentyabr oyidan boshlab Toshkent viloyatidagi harbiy qismlardan birida psixolog bo‘lib ishlashni boshladim. Ikki oy ichida 80 ga yaqin askar va ularning yaqinlari bilan bevosita muloqot qildim. Shu qisqa vaqtning o‘zida ham bir narsani aniq angladim: yigitning xizmatdan qaytgach qanday odam bo‘lib qolishi ko‘pincha uning oilasida qanday muhit borligiga bog‘liq. Oilasi “sen biznikisan, qaytganing bilan hammamiz birgamiz” degan bo‘lsa – u tezda oyoqqa turadi. Agar oilada “sen o‘zgarding, endi boshqasan” degan munosabat bo‘lsa – muammo boshlanadi.

Harbiy xizmatning eng katta psixologik yuklaridan biri – bu uzoq muddatli ajralish, ikkinchisi esa jangovar stress va hayot xavfi. Xorijiy tadqiqotlarda (Hoge va boshq., 2004) jangovar harakatlarda ishtirok etgan askarlarning 20–30 % ida PTSB rivojlanishi qayd etilgan. Bizning sharoitda rasmiy raqamlar ochiq emas, lekin mening har kungi amaliyotim shuni ko‘rsatadiki, muddatli xizmatni tugatgan yigitlarning deyarli har uchinchisida uyqu buzilishi, doimiy asabiylashish, oila a’zolariga nisbatan tajovuzkorlik yoki aksincha, to‘liq yopilish kabi belgilar bor. Ba’zida bir oy oldin “oddiy bola” bo‘lgan yigit ikki oy ichida tanib bo‘lmas darajada o‘zgarib qolganini ko‘raman.

Oilaviy qadriyatlar bu yerda qanday rol o‘ynaydi?

Birinchidan, G. Bowenning oila mustahkamligi modeli (1985). Uning aytishicha, oila stressga qarshi tura olishi uchun umumiy ma’no-mazmun, moslashuvchanlik va sifatli muloqot kerak. Mening kuzatishlarimda, agar er-xotin xizmatdan oldin ham “biz bir oilamiz, qiyinchilikni birga yelkada ko‘taramyz” degan qadriyatni ichiga singdirgan bo‘lsa, ajralish davrida ham, qaytgach ham munosabat

buzilmaydi. Aksincha, “har kim o‘z hayotini yashayveradi” degan oilalarda ajralish darajasi ancha yuqori.

Ikkinchidan, Ch. Figleyning “ikkilamchi travma” tushunchasi (1993). Bu holatni men deyarli har kuni ko‘raman: askar asabiy, uyqu buzilishi bilan qaytsa, xotin ham bir-ikki haftada depressiyaga tushadi, bola maktabda janjallasha boshlaydi, qaynona “bu bola endi hech narsaga yaramaydi” deb gapira boshlaydi. Natijada travma bitta odamdan butun oilaga tarqaladi. Oilaviy qadriyatlar bu yerda “to‘suvchi devor” vazifasini o‘taydi.

Uchinchidan, Reuben Hillning ABC-X modeli (1949) bizning mentalitetga eng mos keladi. Chunki “B” komponentida (oilaviy resurslar) faqat er-xotin emas, qaynona-qaynota, aka-uka, opa-singil, hatto mahalla ham kiradi. O‘zbek oilasida “katta oila” tizimi hali ham tirik – bu G‘arb tadqiqotlarida deyarli uchramaydigan kuchli omil. Masalan, yaqinda bir askarning xotini bilan gaplashdim: eri 12 oy xizmatda bo‘lgan, bola bilan yolg‘iz qolgan. Ammo qaynona va qaynota doim yonida bo‘lgan, mahalla ham yordam bergan. Natijada ayol “men hech qachon yolg‘iz qolganim yo‘q” dedi. Bu – jonli misol.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, Ikki oylik psixologlik faoliyatim, oldingi yillardagi harbiy universitetdagi tajribam va hozirgi magistrlik dissertatsiyam uchun yig‘ayotgan materiallarim shuni ko‘rsatmoqdaki, harbiy xizmatchilarning jamiyatga muvaffaqiyatli qaytishi oilaviy qadriyatlarning mustahkamligisiz deyarli imkonsiz. Oilasi uni “kutayotganini”, “qadrlashini” va “tushunishini” bilgan askar tezroq tiklanadi, aks holda esa jarohatlar yillar davomida davom etaveradi.

Shuning uchun quyidagi takliflarni amalda joriy etishni juda zarur deb bilaman:

1. Har bir yirik harbiy qismda kamida 2 nafar oilaviy psixolog lavozimi ajratilsin (hozir ko‘pincha 1 ta, u ham yarim stavkada).

2. Xotinlar va yaqin qarindoshlar uchun “Harbiy oila psixologiyasi” bo‘yicha 5–7 kunlik majburiy kurs tashkil qilinsin. Buni xotinlar xizmat boshlanishidan oldin o‘tashi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alimov A. Harbiy xizmatchilar oilalarining psixologik xususiyatlari. Toshkent: O‘zMU, 2019.

2. Bowen G.L. Family Adaptation to the Stress of Deployment // Journal of Family Issues. 1985.

3. Figley Ch.R. Coping with stressors on the home front // Journal of Social Issues. 1993.

4. Hill R. Families under stress. New York: Harper, 1949.

PSIXOLOGIK ADAPTATSIYA JARAYONIDA HARBIY SHAXSIDA INTERNET ADDIKSIYA RIVOJLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi o‘qituvchisi, psixol.f.b.f.d (PhD)
Mamadjonova Dilnavoz Baxtiyor qizi
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash yo‘nalishi 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: Zamonaviy inson hayotining birorta sohasi topilmaydiki, u yerda kompyuter texnologiyalari qo‘llanilmasa. Axborot texnologiyalari va Internet bugungi jamiyat taraqqiyotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida inson faoliyatining barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot qilish bundan yigirma yil avval faqat ma’lum ijtimoiy qatlam texnologik soha mutaxassislari uchun xos bo‘lgan hodisa bo‘lsa, bugun u barcha yoshdagi, turli ta’lim darajasiga ega va turli kasb vakillari uchun kundalik odatiy amaliyotga aylangan. Mazkur maqolada shaxsda internet addiksiya rivojlanishining ijtimoiy-psixologik omillari yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan va yoshlarning internetga nisbatan addiksiyasiga qaratilgan psixoprofilaktik tadbirlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: addiksiya, internet madaniyati, virtual dunyo, internet psixologiyasi, psixologik farovonlik, netiket qoidalari, ijtimoiy tarmoq, kiberxavfsizlik.

Zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida Internet inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Uning ta’siri o‘quv, kasbiy, madaniy va kommunikativ faoliyatlarda shaxsning o‘zini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirgan bo‘lsa-da, ortiqcha va nazoratsiz foydalanish natijasida turli addiktiv xulq-atvor shakllarining rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Shulardan eng keng tarqalgani Internet addiksiya (internetga qaramlik) bo‘lib, bu holat shaxsning ijtimoiy, emotsional va kognitiv faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Internet addiksiya tushunchasini ilk bor I.Goldberg “Internet Addiction Disorder” atamasi orqali kiritgan. U Internetdan haddan tashqari foydalanishni giyohvandlikka o‘xshash psixologik mexanizmlar asosida kechadigan jarayon sifatida tavsiflaydi. K.Young (1998) esa ushbu hodisani “kontrol yo‘qotilishi bilan xarakterlanuvchi xulq-atvor buzilishi” deb ta’riflagan va uni patologik qimor o‘yinlariga o‘xshash ijtimoiy disfunksiya shakli sifatida izohlagan.

Rossiyalik olimlar orasida E.V.Soldatova va O.A.Zinchenko (2019) Internetga qaramlikni “raqamli xavfsizlik kompetensiyalarining yetarli emasligi bilan bog‘liq

shaxsiy dezadaptatsiya holati” sifatida talqin etadilar. Ularning fikricha, bu jarayon faqat individual psixik mexanizmlar emas, balki ijtimoiy muhitning bosimi va madaniy raqamli normalarning o‘zgarishi bilan ham uzviy bog‘liq.

O‘zbek olimlaridan G.Z.Ikmatullayev (2022) va D.S.Abdullajanova (2023) esa Internet addiksiyani “yoshlarning ijtimoiy muloqotdagi real ishtirokini kamaytiruvchi, ularning emotsional regulyatsiyasini buzuvchi, shaxslararo masofani psixologik jihatdan o‘zgartiruvchi yangi ijtimoiy-psixologik hodisa” sifatida ko‘rsatadilar. Internetga qaramlikni shakllantiruvchi omillarni tahlil qilganda, olimlar uni mikro va makro darajalarga ajratadilar:

- Mikroijtimoiy omillar: oiladagi nazoratning pastligi, ota-ona-emotsional aloqaning zaifligi, do‘stlar guruhining onlayn faoliyatiga ijtimoiy konformizm bilan qo‘shilish; kommunikativ ehtiyojni qondirish uchun virtual muloqotni tanlash.
- Makroijtimoiy omillar: jamiyatda raqamli muhitning tez sur’atlar bilan rivojlanishi, “onlayn mavjudlik” ijtimoiy qadriyatga aylanishi, ta’lim va mehnat tizimlarining raqamlashtirilishi, shaxsning bo‘sh vaqtini real emas, virtual sohada o‘tkazish odatiga aylanib borayotgani.

E.Griffiths ta’kidlaganidek, Internet addiksiya “ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanayotgan xulq-atvor buzilishi”, ya’ni jamiyatning o‘zi virtual faoliyatni rag‘batlantiradi, lekin uni me’yorlashtirish mexanizmlarini ishlab chiqmaydi. Ko‘plab tadqiqotchilar Internet addiksiyani shaxsning ichki psixik disbalansi bilan bog‘laydilar. Ularning fikricha, past o‘z-o‘zini baholash, ijtimoiy qo‘rquv, yolg‘izlik, tashvishlilik va emotsional bo‘shliqni to‘ldirish istagi Internetga qaramlikka olib keladi. Shaxsning ijtimoiy izolyatsiyasi asosiy psixologik determinantlardan biridir. Masalan, Caplan o‘zining “Problematic Internet Use” modelida shaxsning real muloqotdagi qoniqarsiz tajribasi uni virtual aloqalarga “kompensator yo‘l” sifatida bog‘lanishiga olib kelishini ko‘rsatadi. G‘.Ikmatullayev esa ushbu fikrni lokal kontekstda tasdiqlab, O‘zbekiston sharoitida Internet addiksiya ko‘proq ijtimoiy qo‘rquv va o‘zini namoyon qilishdagi noaniqlik bilan kechishini aniqlagan. Internet addiksiya yoshlar orasida quyidagi psixososial oqibatlarni yuzaga keltiradi:

1. Shaxslararo munosabatlarning sathi pasayadi, real empatiya o‘rnini virtual simpatiya egallaydi.
2. Kognitiv faoliyatda charchoq va diqqatning tarqoqligi (nomofobiya, multitasking stress) ortadi.
3. Motivatsion tizim deformatsiyasi real yutuqlar o‘rniga “layklar” va “ko‘rishlar” asosidagi shartli mukofot tizimi shakllanadi.
4. Emotsional regulyatsiya buzilishi raqamli muloqot orqali stressni kompensatsiya qilish odati shakllanadi (Abdullajanova, 2023).

Internet addiksiya shaxsda ijtimoiy va psixologik moslashuv mexanizmlarining buzilishi natijasida shakllanadi. Uning ildizida nafaqat individual, balki ijtimoiy tizim omillari ham mavjud, bu esa muammoni kompleks, tizimli yondashuv asosida o‘rganishni talab qiladi. Internetga qaramlikni kamaytirish uchun yoshlarning raqamli madaniyatini oshirish, emotsional regulyatsiya va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, real ijtimoiy ishtirok motivatsiyasini tiklash zarur.

Psixolog olimlarning ko‘plab tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, pubertat davriga xos psixofiziologik o‘zgarishlar kompyuter va Internet qaramligining shakllanishi uchun muhim xavf omili hisoblanadi. O‘smirlar emotsional sohada yuqori reaktivlik, tez o‘zgaruvchan kayfiyat, sababsiz bezovtalik, ta’sirchanlik va g‘azablanishga moyillik bilan ajralib turadilar. Bu emotsional beqarorlik ularning irodaviy sohasining yetarlicha shakllanmaganligi va o‘z hissiyotlarini ongli nazorat qilish ko‘nikmasining sustligi bilan uyg‘unlashadi. Shu sababli, o‘smirlar ko‘pincha o‘z harakatlarini boshqarishda, his-tuyg‘ularini ijtimoiy maqbul shaklda ifodalashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Mazkur holat o‘smirlarning qadriyatlar tizimi va o‘zini anglash sohasining shakllanmaganligi, shuningdek o‘z-o‘zini baholashning beqarorligi bilan yanada chuqurlashadi. Shuning uchun bu yoshda Internetdan ortiqcha foydalanish ko‘pincha real hayotdagi emotsional diskomfortni kompensatsiya qilish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi [1].

Kompyuter o‘yinlariga haddan tashqari berilib ketgan, onlayn tarmoqlarda ko‘p vaqt o‘tkazadigan o‘smirlarning kognitiv xususiyatlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ular texnika va texnologiyalar sohasida nisbatan keng bilimlarga ega bo‘lib, murakkab fazoviy tasavvurlarni shakllantirish qobiliyatiga ega. Biroq, bu kognitiv ustunlik ularning ijtimoiy va emotsional sohalaridagi zaifliklar bilan uyg‘unlashadi, bu esa addiktiv xulq-atvor uchun qulay psixologik zamin yaratadi. Kompyuter o‘yinlariga haddan tashqari berilib ketgan, onlayn tarmoqlarda ko‘p vaqt o‘tkazadigan o‘smirlarning kognitiv xususiyatlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ular texnika va texnologiyalar sohasida nisbatan keng bilimlarga ega bo‘lib, murakkab fazoviy tasavvurlarni shakllantirish qobiliyatiga ega. Biroq, bu kognitiv ustunlik ularning ijtimoiy va emotsional sohalaridagi zaifliklar bilan uyg‘unlashadi bu esa addiktiv xulq-atvor uchun qulay psixologik zamin yaratadi.

A.E.Voyskunskiy (2010) o‘smirlarning virtual olamga “chekinish” sabablari orasida oilaviy munosabatlarning buzilishi, noto‘g‘ri tarbiya uslublari va patologik ota-ona modelini asosiy omil sifatida qayd etadi. Uning fikricha, bolalikda kechirilgan psixik travmalar xususan, ota-onaning ajralishi, emotsional sovuqlik, yoki befarqlik o‘smirni real muloqotdan voz kechishga, virtual makonda o‘zini himoyalangan his qilishga olib keladi [2]. Bunday oilalarda o‘smirning o‘zini qadrlash hissi past, xavfsizlik hissi zaif, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlov darajasi esa

cheklangan bo‘ladi. Natijada, u raqamli muloqot orqali qondiriladigan sun’iy ijtimoiy aloqalarga tayanadi. Zamonaviy psixologlarning aksariyati Internetga qaramlikning shakllanishida shaxsiy-psixologik xususiyatlar yetakchi rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Shu jumladan, quyidagi omillar alohida ahamiyatga ega:

- o‘z-o‘zini baholashning noto‘g‘riligi;
- past ijtimoiy-kommunikativ kompetensiya;
- yangi hissiyotlarni izlashga moyillik;
- emotsional beqarorlik;
- yuqori tashvishlilik;
- impulsivlik va g‘azabkorlik;
- ijtimoiy qaramlik va konfliktga tez kirishuvchanlik;
- rigidlik va moslashuvchanlikning sustligi [4].

A.Yu.Egorov o‘z tadqiqotlarida “qaram shaxs turi” tushunchasini kiritadi. Unga ko‘ra, bunday shaxslar o‘z fikrini mustaqil bildira olmaydi, “yo‘q” deyishdan qo‘rqadi, boshqalar tomonidan rad etilishdan cho‘chiydi. Ular mas’uliyatdan qochish, mustaqil qaror qabul qilmaslik, ijtimoiy yetakchilikdan voz kechish bilan ajralib turadilar. Bu esa passiv hayot pozitsiyasi va Internet muhitiga “pana” izlash ehtiyojini kuchaytiradi [3]. Muloqotda qiyinchiliklarga duch kelayotgan, past ijtimoiy-kommunikativ malakaga ega o‘smirlar Internet va ijtimoiy tarmoqlarni o‘zaro muloqotning “xavfsiz” shakli sifatida qabul qiladilar. Ular virtual makonda o‘zini qabul qiluvchi, tushunuvchi “do‘st” topadi bu esa psixologik kompensatsiya mexanizmini mustahkamlaydi va addiktiv xulq-atvorning shakllanish xavfini oshiradi. Shunday qilib, kommunikativ qiyinchiliklarga ega o‘smirlar uchun Internet muloqoti real munosabatlarning o‘rnini bosuvchi ijtimoiy muhitga aylanadi. Bu esa uzoq muddatda shaxsning ijtimoiy faolligi, hissiy yetukligi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini pasaytiradi. Internetga qaramlikning rivojlanishida quyidagi asosiy ijtimoiy-psixologik omillar muhim ahamiyatga ega:

- pubertat davrining psixofiziologik o‘ziga xosligi (emotsional beqarorlik, impulsivlik, past irodaviy nazorat);
- gender omil (erkak o‘smirlar o‘yinlarga, qizlar esa muloqot tarmoqlariga ko‘proq qaram bo‘ladi);
- murakkab hayotiy vaziyatlar, oilaviy konfliktlar, ota-ona ajralishi;
- mikrosotsial muhit do‘stlar guruhi, sinfdagi muloqot normasi, “trendga ergashish” bosimi;
- shaxsning individual-tipologik xususiyatlari tashvishlilik, depressiv fon, past stressga bardoshlilik, past o‘zini baholash, passivlik va rigidlik.

O‘smirlarning addiktiv xulqini psixokorreksiya qilish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi lozim:

1. Hayotiy faollikni oshirish o‘smirni real faoliyat turlariga (sport, ijod, ijtimoiy loyiha) jalb qilish.

2. Ijobiy o‘zini qabul qilishni shakllantirish o‘z-o‘zini qadrlashni barqarorlashtirish, muvaffaqiyatga ishonchni rivojlantirish.

3. Kommunikativ kompetensiyani kuchaytirish muloqot madaniyati, empatiya, hamkorlik va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish.

4. Emotsional regulyatsiyani o‘rgatish stressni bartaraf etishning sog‘lom usullarini (nafas mashqlari, meditatsiya, kreativ faoliyat) o‘zlashtirish.

5. Oila bilan ishlash ota-onalarga bolalar bilan muloqotda emotsional yaqinlik va ijobiy nazoratni uyg‘unlashtirishni o‘rgatish.

Yuqoridagi nazariy tahlildan ko‘rinadiki, pubertat davrining o‘ziga xos psixologik xususiyatlari emotsional beqarorlik, impulsivlik, past o‘zini baholash va kommunikativ zaiflik o‘smirlarni Internet addiksiyasiga nisbatan sezuvchan guruhga aylantiradi. Shu bilan birga, oilaviy va ijtimoiy muhit omillari, shuningdek, shaxsning individual tipologik xususiyatlari bu jarayonni kuchaytiruvchi yoki kamaytiruvchi rol o‘ynaydi. Shu sababli, Internetga qaramlikni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar kompleks psixoprofilaktik va tarbiyaviy yondashuvni talab etadi bunda shaxsiy, oilaviy va maktab muhitining uyg‘un psixologik ta’siri hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Асеева А.Д. Психологические особенности личности, способствующие развитию зависимого поведения / А.Д.Асеева // Научный журнал КубГАУ - Scientific Journal of KubSAU. - 2014. - № 101. - С. 2529-2545.

2. Войскунский А.Е. Зависимость от Интернета: актуальная проблема / А.Е.Войскунский // Журнал неврологии и психиатрии. - 2002. - № 3. - С. 56-58.

3. Егоров А.Ю. Нехимические зависимости / А.Ю.Егоров. - СПб.: Речь, 2007. - 190 с.

4. Кузнецова Л.Э. Психологические факторы формирования химической зависимости у молодежи / Л.Э.Кузнецова, Г.В.Репина // Молодой ученый. - 2017. - № 5 (139). - С. 400-402.

5. Акутина С.П., Хрустова Е.С. Интернет-зависимость как фактор социально-психологического влияния на современную молодежь - http:// vestnik-rzi.ru/2014/11/2537.

PSIXOLOGIK ADAPTATSIYA JARAYONIDA BO‘LAJAK OFITSERLARDA KASBIY MOTIVATSIYA SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi o‘qituvchisi, psixol.f.b.f.d (PhD)
Saidov Xusniddin Axtam o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash yo‘nalishi 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: Bo‘lajak ofitserlarda kasbiy motivatsiyaning shakllanishi harbiy sohada strategik ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayon nafaqat shaxsning individual psixologik rivojlanishiga, balki milliy xavfsizlik tizimining barqarorligi va harbiy xizmatning samaradorligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xorijiy tadqiqotlarda ushbu jarayon keng o‘rganilgan bo‘lib, u harbiy xizmatning yuqori stressli sharoitida (jangovar topshiriqlar, tezkor qaror qabul qilish, jamoaviy harakatlar, hissiy barqarorlik) ofitserlarning chidamliligi, tez fikrlash qobiliyati va rahbarlik samaradorligi bilan bevosita bog‘liq ekanligi aniqlangan. Kasbiy motivatsiyaning shakllanishini o‘rganishda xorijiy olimlar uni ijtimoiy, falsafiy va psixologik jihatlar bilan o‘zaro bog‘liq holda izohlaydilar. Quyida ushbu jihatlar harbiy kontekstda batafsil sharhlanadi.

Kalit so‘zlar: motivatsiya, harbiy xizmat, milliy xavfsizlik, samaradorlik, individual rivojlanish, ijtimoiy omil.

O‘quv-kasbiy motivatsiya, o‘quv jarayonining natijaviy jihati, harbiy-kasbiy tayyorgarlik darajasi, shaxsning maqsadga yo‘naltirilganligi va ijtimoiy faoliyati o‘rtasida uzviy korrelyatsion bog‘liqlik aniqlangan. Bu degani, o‘quvdagi muvaffaqiyat, kasbiy tayyorlik va motivatsion barqarorlik o‘zaro bir-birini kuchaytiruvchi tizimni tashkil etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak ofitserlarning o‘quv va xizmat faoliyatidagi motivatsion komponent darajasiga qaysi omil tashqi (ta’lim muhitining o‘ziga xosligi, moddiy rag‘bat, lavozimda o‘sish imkoniyati, jamoa tomonidan e’tirof, kasb nufuzi) yoki ichki (o‘zini ro‘yobga chiqarish ehtiyoji, faoliyatning ijtimoiy foydasini anglash, o‘qish jarayonining o‘zidan olinadigan qoniqish) ko‘proq ta’sir ko‘rsatishini qat’iy tarzda bir yoqlama aniqlab bo‘lmaydi. Biroq ishonch bilan aytish mumkinki, ta’lim muassasasining tashkiliy, psixologik va ijtimoiy xususiyatlari kursantlarning o‘quv-kasbiy motivatsiyasi xususiyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Harbiy muhitning reglamentlashtirilganligi, rahbar-jamoa tizimi, ijtimoiy rag‘bat mexanizmlari va

intizomiy madaniyat motivatsion jarayonning shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi [8].

Ijtimoiy nuqtai nazardan, kasbiy motivatsiya jamiyatning harbiy xizmatga nisbatan qarashlari, ijtimoiy qadriyatlar va normalar bilan uzviy bog‘liq. Harbiy kasbning jamiyatdagi nufuzi, oila va yaqinlarning fikri, jamoaning e’tibori kursantning motivatsion tizimida muhim o‘rin egallaydi. Lester (1983) ta’kidlaganidek, harbiy xizmatni tanlashda shaxs ko‘pincha ijtimoiy ta’sirlar oila, do‘stlar va jamoatchilik fikri ta’sirida qaror qabul qiladi. Ijtimoiy sharoitdan kelib chiqib, rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlik, ish o‘rni kafolati kabi tashqi motivlar ustun bo‘lsa, rivojlangan davlatlarda altruistik motivlar ya’ni “jamiyatga xizmat qilish” va “xalq ishonchini oqlash” kabi ma’naviy motivlar ustuvor bo‘ladi. Shunday qilib, ijtimoiy jihatdan motivatsiya shaxsiy intilishlarning jamiyat qadriyatlari bilan uyg‘unlashuvi natijasida shakllanadigan jarayon bo‘lib, harbiy ofitserlarda bu jarayon ijtimoiy mas’uliyat hissi orqali mustahkamlanadi [5].

Falsafiy nuqtai nazardan, kasbiy motivatsiya shaxsning hayotiy maqsadlari, qadriyatlar tizimi va o‘zini ro‘yobga chiqarish ehtiyoji bilan bog‘liq. Maslouning (1954) ehtiyojlar ierarxiyasiga ko‘ra, inson o‘z ehtiyojlarini qondirib borar ekan, oxir-oqibat “o‘zini ro‘yobga chiqarish” (self-actualization) bosqichiga yetadi. Harbiy sohada bu bosqich vatanparvarlik, mas’uliyat, fidoyilik, va burch hissi orqali ifodalanadi. Shu ma’noda, harbiy ofitser uchun motivatsiya hayot mazmuni va maqsadining kasbiy faoliyat bilan uyg‘unlashgan holatidir. Herzbergning (1959) “Ikki omilli motivatsiya nazariyasi” (Two-Factor Theory) bu fikrni yanada chuqurlashtiradi. Unga ko‘ra, motivatsiyani:

- ichki omillar (muvaffaqiyat, kasbiy o‘sish, tan olinishi, o‘zini qadrlash),
- tashqi omillar (ish haqi, sharoit, nazorat, barqarorlik) tashkil etadi [6].

Bu ikki omil o‘rtasidagi muvozanat shaxsning kasbiy ma’no va hayotiy mazmunni uyg‘unlashtirish darajasini belgilaydi. Harbiy ofitser uchun bu muvozanat “vatan oldidagi burch” va “shaxsiy o‘sish” o‘rtasidagi uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi.

Psixologik jihatdan, kasbiy motivatsiya shaxsiy xususiyatlar (temperament, emotsional barqarorlik, o‘ziga ishonch), kognitiv jarayonlar (fikrlash, qaror qabul qilish, stressni boshqarish) va motivatsion mexanizmlar bilan belgilanadi. Dweck (2006)ning “O‘sish tafakkuri” (Growth Mindset) nazariyasiga ko‘ra, muvaffaqiyatga yo‘naltirilgan shaxslar xatolik va qiyinchiliklarni o‘sish imkoniyati deb qabul qiladi. Bu yondashuv harbiy sohada psixologik bardoshlilikni oshiradi. Ryan va Deci (2020)ning O‘z-o‘zini belgilash nazariyasi (Self-Determination Theory SDT) esa motivatsiyaning uchta asosiy psixologik ehtiyojga tayanishini ko‘rsatadi:

1. Avtonomiya (o‘z-o‘zini boshqarish) shaxs o‘z qarorlarini mustaqil qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi;

2. Kompetensiya (ustalik hissi) o‘z kasbiy mahoratini anglash va oshirish;
3. Bog‘lanish (ijtimoiy aloqadorlik) jamoada o‘z o‘rnini topish va o‘zini jamoaning muhim a’zosi sifatida his etish [4].

Kasbiy motivatsiyaning shakllanishida quyidagi psixologik omillar yetakchi ahamiyatga ega:

- Shaxsiy xususiyatlar emotsional barqarorlik, chidamlilik, o‘zini nazorat qilish;
- Kognitiv jarayonlar tanqidiy fikrlash, riskka tayyorlik, tez qaror qabul qilish qobiliyati;
- Ijtimoiy psixologik omillar jamoa birdamligi, o‘zaro ishonch, rahbar va kursantlar o‘rtasidagi muloqot sifati;
- Motivatsion mexanizmlar ichki qoniqish, kasbiy ma’no, vatanparvarlik qadriyatlari [3].

Zoya Sheftalovich (2022) o‘z tadqiqotida harbiy jamoalarda do‘stlik, ishonch va ijtimoiy birdamlik motivatsion barqarorlikni ta’minlaydigan eng muhim psixologik resurslar ekanini ta’kidlaydi.

Kasbiy motivatsiya faqat psixologik hodisa emas, balki falsafiy mazmunga ega jarayondir. Shaxs o‘z kasbiy faoliyatida hayotiy maqsadini anglab yetar ekan, o‘zini jamiyat, davlat va Vatan xavfsizligi uchun foydali deb his qiladi. Shu jarayon orqali shaxs “ichki burch hissi”ni shakllantiradi. Bu esa harbiy ofitserni oddiy ijrochi emas, balki fidoyi, mas’uliyatli va axloqan barqaror shaxs darajasiga olib chiqadi. Bo‘lajak ofitserlarda kasbiy motivatsiyaning shakllanishi ko‘p darajali psixologik tizim bo‘lib, unda ijtimoiy ta’sir, falsafiy maqsad va psixologik ehtiyojlar o‘zaro uzviy aloqada faoliyat ko‘rsatadi. Ijtimoiy jihatdan, u jamiyatning harbiy kasbga bergan bahosi bilan belgilanadi [2]. Falsafiy jihatdan, u shaxsning hayot ma’nosi va qadriyatlari bilan uyg‘unlashadi. Psixologik jihatdan, u o‘zini anglash, avtonomiya, chidamlilik va ustalik hissi orqali mustahkamlanadi. Harbiy kontekstda bu jarayon intizom, sadoqat, fidoyilik va psixologik bardoshlilikni rivojlantiruvchi asosiy psixologik mexanizm sifatida qaraladi. Motivatsiya shaxsning ehtiyoj, qadriyat va maqsadlari asosida xulq-atvor variantlarini tanlash va qaror qabul qilish jarayoni. Harbiy-huquqiy xizmatda motivatsiya ijtimoiy ma’noga ega maqsadlar (jamiyat tinchligi, qonuniylik, fuqarolar ishonchi) bilan shaxsiy omillar (o‘sish, mahorat, ijtimoiy maqom) o‘rtasida dinamik muvozanatni talab qiladi. O‘quv davrida kursantlarda kasbiy ma’no, qadriyatlar tizimi, shaxsiy intilishlar va xizmatga sadoqat bosqichma-bosqich shakllanadi [7].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kursantlarning o‘quv faoliyati ko‘p motivli (polimotivatsion) tuzilmaga ega. Bunda ijtimoiy motivlar jamoa sha’ni, axloqiy javobgarlik, rahbarlik ishonchini oqlash kabi omillar kasbiy shakllanishning barcha bosqichlarida yetakchi rol o‘ynaydi. Kuzatishlarga ko‘ra, o‘qishga bo‘lgan

motivatsiya pastki kurslardan yuqori kurslarga o‘tishda asta-sekin pasayadi, biroq bitiruv bosqichida nisbatan barqarorlashadi. Shu bilan birga, dastlabki (adaptatsion) bosqichdan ixtisoslashgan (kasbiy identifikatsion) bosqichga o‘tish jarayonida harbiy-kasbiy yo‘nalganlikning ijobiy o‘sish tendensiyasi qayd etiladi. Boshqacha aytganda, kursantlar dastlab o‘qishni tashqi omillar bilan bog‘lab baholaydilar (moddiy rag‘bat, jamoa fikri, nufuz), keyinchalik esa o‘qishning o‘zida kasbiy ma’no topadilar [1].

O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligi sohasida olib borilayotgan islohotlar Milliy gvardiya faoliyatiga miqdoriy va sifat jihatdan yangi talablarni qo‘yadi. Zamonaviy xavfsizlik muhitida Milliy gvardiya xodimlari profilaktika, tezkor patrullik, qo‘riqlash, maxsus tadbirlarni o‘tkazish, favqulodda holatlarda aholini muhofaza qilish, shuningdek, axborot-psixologik barqarorlikni ta’minlash kabi vazifalarni bajaradi. Buning uchun oliy harbiy-huquqiy ta’lim bosqichidayoq o‘quv-kasbiy motivatsiyasi barqaror, ichki ma’no va kasbiy sadoqati yuqori bo‘lgan kursantlar tayyorlanishi zarur. Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ayrim bo‘linmalarda yuqori kurslarga kelganda o‘qishga qiziqish pasayishi, intizomiy xatolar, kasbiy moslik muammolari va xizmatni davom ettirish istagining susayishi uchraydi. Bu hol o‘quv jarayonining real xizmat vazifalariga bog‘lanish darajasi, rag‘bat va talab muvozanati, hamda yashash-xizmat sharoitlariga moslashuv bilan chambarchas bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Лукьянов В.В., Сороколетова И.Е. К истории термина «выгорание». / Выгорание и профессионализация [Текст]: сб. науч. Тр. / под ред. В.В. Лукьянова, А.Б. Леоновой, А.А. Обознова, А.С. Чернышева, Н.Е. Водопьяновой; Курск, гос. Ун-т.- Курск, 2013. С. 114-123.

2. Майсак Н.В. Психологические особенности деформации личности кадровых офицеров / Н.В. Майсак, С.В. Михеев // Общество и право. – 2011. – №1. – С. 242–248.

3. Мачульская И.А. Феномен эмоционального выгорания военнослужащих в процессе их профессиональной деятельности / И.А. Мачульская, Р.В. Беляев, В.Н. Машин // Территория науки. – 2015. – №5. – С. 72–77.

4. Чуприкова Е.В. Специфика проявления эмоционального выгорания у военнослужащих // Образование и наука в современных реалиях: материалы VIII Междунар. науч.-практ. конф. (Чебоксары, 22 февр. 2019 г.) / редкол.: О.Н. Широков [и др.] – Чебоксары: ЦНС «Интерактив плюс», 2019. – С. 148-150.

HARBIY XIZMATCHILARNING XIZMAT FAOLIYATIGA MOSLASHUVIDA INTERAKTIV MULOQOTNING AHAMIYATI

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi o‘qituvchisi, psixol.f.b.f.d (PhD)
Jumayev Og‘abek Nomoz o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash yo‘nalishi 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: Harbiy mehnatning jamoaviy xarakteri harbiy xizmatchilar o‘rtasida muvofiqlashgan o‘zaro hamkorlikni talab qiladi; bu esa ularning o‘zaro muloqotini nazarda tutadi. Qo‘mondon va bo‘ysunuvchi o‘rtasidagi xizmat munosabatlari umumharbiy ustavlar bilan qat’iy tartibga solingan: boshliq buyruq beradi, bo‘ysunuvchi esa ularni aniq va so‘zsiz bajarishi shart. Biroq ustavlarda ko‘zda tutilgan o‘zaro aloqalar hamisha oson va silliq o‘rnamaydi; harbiy jamoalarni boshqarish jarayonida ofitser ma’muriy-irodaviy usullar bilangina hal qilib bo‘lmaydigan muammolarga duch keladi. Eng avvalo, bu holat shundan dalolat beradiki, har qanday jumladan xizmatdagi insoniy munosabatlar subyekt–subyekt tabiatiga ega va muloqotning natijasi sifatida vujudga keladi.

Kalit so‘zlar: psixologik moslashuv, ijtimoiylashuv, kognitiv qobiliyatlar, muhit, harbiy xizmatchi, adaptatsion sindrom, muloqot, interaktiv muloqot, harbiy jamoa.

Muloqot jamiyatdagi inson xulqi va munosabatlari madaniyatining ajralmas bo‘lagi. “Muloqot” tushunchasi “inson-inson”, “inson-boshqa odamlar” o‘rtasidagi real munosabatlarni qamrab oladi va ularni o‘ziga xos tarzda aks ettiradi. Insonning tabiiy yashash usuli boshqa odamlar bilan bog‘liq bo‘lishi; ana shu bog‘liqlik shaxslararo munosabatlarning vujudga kelishiga olib keladi. Inson faqat muloqotda “inson”ga aylanadi. Muloqot qobiliyati har doim eng muhim insoniy sifatlar sirasiga kiritilgan. Bejiz emas, xalq donoligi shunday deydi: “Biriga gapirsang ko‘ngling yorishar, boshqasiga gapirsang ko‘ngling siqilar”. Oson va erkin muloqotga kirishib, suhbatdoshni o‘ziga rom eta oladigan insonlar bizda simpatiya uyg‘otadi; yopiqqo‘l, kamgap “bukilar” bilan esa iloji boricha kamroq aloqada bo‘lishga intilamiz. Demak, muloqot qobiliyati eng zarur insoniy fazilatdir. Muloqot odamlar o‘rtasida aloqalar va hamkorlikni o‘rnatishning hayotiy muhim vositasidir; muloqotsiz mehnat jarayoni, professional va boshqaruv faoliyati, shaxsning taraqqiyoti tasavvur qilib bo‘lmaydi [1].

Muloqot insoniy mavjudlikning asosiy shakli, insonning abadiy va ajralmas xususiyati; muloqot madaniyati esa uning ma’naviy madaniyatining bir qismidir. Hisob-kitoblarga ko‘ra, rahbarning ish vaqtining 80 foizigacha qismi bo‘ysunuvchilar bilan muloqotga sarflanadi; uning mehnat samaradorligining to‘rtdan uchtasi aynan odamlar bilan o‘zaro ta’sirlashish va aloqa o‘rnatish ko‘nikmalariga bog‘liq. Biroq “guruh–divizion–polk” bo‘g‘inida o‘tkazilgan tadqiqotlar hamda ko‘plab xizmat mojarolari tahlili shuni ko‘rsatadiki, mojarolarning tubida ko‘pincha harbiy xizmatchilar o‘zaro munosabatlaridagi xatolar, ayrim qo‘mondonlarda shaxslararo muloqot bo‘yicha professional ko‘nikmalarning yetishmasligi yotadi. Shu bois bo‘linmalarni boshqarish samaradorligini oshirish uchun muloqot jarayonining psixologik qonuniyatlari va mexanizmlarini bilish, ularni amaliyotda qo‘llash, shaxsiy tajribadan tashqari ilmiy-nazariy materialga tayanish muhimdir [2].

Muloqot muammosi ijtimoiy, gumanitar, texnik, tabiiy va boshqa ilmiy yo‘nalishlar tomonidan o‘rganiladi. Zamonaviy ilmda “muloqot” tushunchasining yuzdan ortiq ta’riflari mavjud. Ularning ayrimlari:

a) muloqot individning predmetli faoliyatining tomoni;

b) muloqot shaxsning ijtimoiy faoliyat turlaridan biri;

v) muloqot va faoliyat jamiyat hayotining bir butunlikni tashkil etuvchi ikki tomoni;

g) muloqot odamlar o‘rtasidagi turli psixologik kontaktlar majmui;

d) muloqot birgalikdagi faoliyat tomoni bo‘lib, unda maqsad suhbatdosh niyatlarini anglash uchun axborot va harakatlar almashinuvi ro‘y beradi.

Psixologik yondashuvda muloqot maxsus faoliyat shakli va ayni paytda boshqa faoliyat turlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan mustaqil o‘zaro ta’sir jarayoni sifatida talqin qilinadi. Psixologik tahlil muloqotning amalga oshish mexanizmlarini ochib beradi. Muloqot eng muhim ijtimoiy ehtiyoj sifatida ko‘riladi: u qondirilmasa, shaxs shakllanishi sekinlashadi, ba’zan esa to‘xtaydi. Psixologlar muloqot ehtiyojini shaxsning o‘zini shakllantirishidagi ma’no hosil qiluvchi yetakchi omillardan biri, shuningdek shaxs va sotsiomadaniy muhit o‘zaro ta’sirining mahsuli deb hisoblaydi; bu muhit mazkur ehtiyojni shakllantirishning manbai hamdir. Shu bilan birga, real hayotda muloqot hech qachon abstrakt holda “o‘zi uchun” mavjud emas, balki doimo faoliyat bilan birlikda namoyon bo‘ladi. Demak, muloqot tabiatini to‘liq tushunish uchun muloqot va faoliyatning roli hamda o‘rni tahlil qilinishi lozim. Muloqot teng huquqli hamkorlar o‘rtasida amalga oshiriladigan, psixik kontaktni vujudga keltiruvchi faoliyat shakli. Psixik kontakt muloqotda o‘zaro emotsiyalar almashinuvini ta’minlaydi va muloqotning ikki tomonlama odamlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqador faoliyat ekanini ko‘rsatadi.

Shaxslararo muloqot guruh yoki juftlikdagi bevosita kontaktlar; unda hamkorning individual xususiyatlarini bilish, birgalikdagi faoliyat tajribasi, hamdardlik va tushunish muhim. Harbiy xizmatchilar shaxslararo muloqotining uch tipi ajratiladi.

1. Imperativ muloqot autoritar (direktiv) ta’sir shakli. Maqsad hamkorni bo‘ysundirish, uning xulqi va fikrlarini nazorat qilish, ma’lum harakat va qarorlarga majburlash. Bu erda suhbatdosh “ta’sir obyekt”i sifatida ko‘riladi; u passiv, “azob chekadigan” tomon. Majburlash yashirilmaydi; vositalar buyruq, ko‘rsatma, talab, tahdid, buyurtma va h.k.

2. Manipulyativ muloqot mazmunan imperativga yaqin, ammo niyatni yashirin amalga oshiradi. Har ikki holatda ham maqsad boshqalar xulqi va fikrlarini nazorat qilish. Farqi shundaki, manipulyator o‘zining haqiqiy maqsadini bildirmaydi; u hamkorni yaxlit, noyob shaxs sifatida emas, balki kerakli xususiyatlar “tashuvchisi” sifatida ko‘radi. Bu turdagi munosabat ishonchga asoslangan rishtalarni do‘stlik, safdoshlik, o‘zaro bog‘liqlikni yemiradi va oxir-oqibat manipulyatorning o‘zini ham “fragment”ga aylantirishi, soxta maqsadlarga ergashtirishi mumkin. Imperativ va manipulyativ turlar monologik muloqotga mansub: bu erda inson aslida o‘zi bilan, o‘z maqsadlari bilan “suhbat”lashadi.

3. Dialogik muloqot imperativ va manipulyativ turlarga alternativ. U hamkorlarning teng huquqliligiga tayangan bo‘lib, “o‘ziga yo‘naltirilgan” ustanovkadan “suhbatdoshga yo‘naltirilgan” ustanovkaga o‘tishni ta’minlaydi. Dialog quyidagi qoidalar bajarilganda mumkin:

- suhbatdoshning va o‘zining emotsional holatiga psixologik moslashish (“bu yerda va hozir” prinsipi);
- shaxsni baholamasdan hamkor niyatlariga ishonch (ishonchlilik prinsipi);
- hamkorni o‘z fikr va qaroriga ega teng shaxs sifatida qabul qilish (paritet prinsipi);
- muloqotni umumiy muammolar va yechilmagan masalalarga yo‘naltirish (problematizatsiya prinsipi);
- gapni o‘z nomidan yuritish, begona avtoritetlarga suyanmaslik, haqiqiy his-tuyg‘ularni ifodalash (muloqotni shaxsiylashtirish prinsipi) [3].

Dialogik muloqot suhbatdoshga va uning savollariga diqqat bilan munosabatda bo‘lishni talab qiladi.

1. Pragmatik funksiya birgalikdagi faoliyat jarayonida o‘zaro ta’sirni ta’minlaydi.

2. Shakllantiruvchi funksiya shaxs rivoji va shaxs sifatida kamol topishda namoyon bo‘ladi.

3. Tasdiqlash (verifikatsiya) funksiyasi faqat boshqalar bilan muloqotdagina biz o‘zimizni anglaymiz va “o‘z ko‘zimizda” tasdiqlaymiz (tanishish, salomlashish, e’tibor belgilarini ko‘rsatish va h.k.).

4. Shaxslararo munosabatlarni tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash funksiyasi odamlarni baholash, emotsional munosabatlar o‘rnatish; professional muloqotda bu harbiylarning ish munosabatlariga alohida tus beradi.

5. Intra-shaxsiy funksiya o‘z-o‘zi bilan dialog; bu orqali inson qarorlar qabul qiladi, muhim xatti-harakatlar sodir etadi.

Harbiy jamoada muloqot kontakt o‘rnatishdan o‘zaro ta’sirni rivojlantirish va munosabatlarni shakllantirishgacha bo‘lgan murakkab jarayon. Uning asosida odamlarning birgalikdagi faoliyati yotadi. Shu bois harbiy jamoada muloqotning bosh vazifasi harbiy xizmatchilar birgalikdagi faoliyatini tashkil etish muhim.

Harbiylar muloqotining o‘ziga xosligini tahlil qilarkanmiz, munosabatlar madaniyatini shakllantirish bo‘yicha quyidagi vazifalarni ajratish maqsadga muvofiq:

- bo‘linmalarda insonparvarlik prinsiplari asosida mazmunan boy va shaklan xilma-xil muloqot uchun shart-sharoit yaratish;
- shaxsiy tarkibning ma’naviy-axloqiy madaniyatini oshirish, kayfiyat, ehtiyojlar, jismoniy va psixologik holatni inobatga olish;
- ish yo‘nalishlarini aniq belgilash, muloqotni takomillashtirish uchun ta’sir etish usullari, vositalari va shakllarini to‘g‘ri tanlash;
- shaxsning axloqiy sifatlari va individual-psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olish bo‘ysunuvchining kelishuvga layoqatini to‘g‘ri baholash, undagi konflikt potentsialini ko‘rish, harbiy jamoada ishlashga tayyorgarlik darajasini aniqlashga yordam beradi.

Harbiylarning muloqoti o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu o‘ziga xoslik sababi harbiy mehnatning murakkab, ko‘pincha ekstremal va hayot uchun xavfli sharoitlaridadir. Shu bois tinchlikda ham, urush davrida ham xizmat muloqoti shakllarini qat’iy tartibga solish talab etiladi. Ayniqsa, bu xususiyat boshliqlar va bo‘ysunuvchilarning o‘zaro ta’siri jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Harbiy xizmat jarayonida interaktiv muloqot harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi hamkorona faoliyat jarayoni bo‘lib, unda nafaqat axborot almashinuvi, balki umumiy maqsadlarga yo‘naltirilgan birgalikdagi harakatlar, qarorlar va psixologik o‘zaro ta’sirlar amalga oshiriladi. Bunday muloqot harbiy jamoaning faoliyatini tashkil etuvchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro tushunish, koordinatsiya va emotsional birlashuvni ta’minlaydi. Interaktiv muloqot nafaqat xizmat samaradorligini oshiradi, balki harbiy xizmatchining psixologik barqarorligi, ijtimoiy faolligi va shaxsiy o‘sishini ham rag‘batlantiradi.

Interaktiv muloqot jarayonida harbiy xizmatchilar nutq orqali fikr almashish bilan bir qatorda, birgalikdagi amaliy harakatlar, qarorlar qabul qilish, o‘zaro ta’sir va baholash faoliyatida ham ishtirok etadilar. Natijada jamoa ichida umumiy qarashlar, qadriyatlar, psixologik uyg‘unlik va hamkorlik madaniyati shakllanadi. Bu jarayon harbiy jamoaning ijtimoiy-psixologik iqlimini barqarorlashtiruvchi muhim omil sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Феденко Н. Ф. Психологические условия преодоления конфликтов в воинских коллективах. М.: ВУ, 2011. С. 7.

2. Бабосов Е. Н. Конфликтология. М., 1997. 212 с.

3. Анцупов А., Ковалев В. Конфликты в подразделениях, основные способы их преодоления и предупреждения // Ориентир. 2002. № 2. С. 50-53.

4. Кричевский Р. Л., Дубовская Е. М. Психология малой группы: теоретический и прикладной аспекты. М.: изд-во МГУ, 2011. С. 65-93.

5. Данакин Н.С. Конфликты и технология их предупреждения. М.: МТР, 1999. 203 с.

6. Леонов Н.И. Конфликты и конфликтное поведение. Методы изучения: учебное пособие. СПб.: Питер, 2015. 240 с.

7. Шихарев П.И. Современная социальная психология. М.: ИП РАН, 2014. С. 202-221.

8. Калюжный А.С. Конфликты в коллективах военнослужащих: учебное пособие. Н.Новгород: НГТУ, 2004. 33 с.

9. Ringsmose, Jens. (2013). Media-military relations between continuity and change. Internasjonal Politikk. 71. 149-173.

XIZMAT FAOLIYATIGA MOSLASHUV JARAYONIDA HARBIY OILALARDA NIZOLAR NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOSOTSIAL OMILLARI

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi o‘qituvchisi, psixol.f.b.f.d (PhD)
Olimova Barchin
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash yo‘nalishi 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: Jahonda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar odatiy turmush tarzi, ahloqiy qadriyat yo‘nalishlarining o‘zgarishiga, bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga olib kelayotgan bir pallada, globallashuv natijasida harbiy-siyosiy vaziyat keskin o‘zgarib, xavfsizlik sohasida xavf-xatarlar tobora kuchayib borayotganligi hozirgi murakkab davrda harbiy xizmatchilarning jangovar topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarishi, xizmat majburiyatlarini ijro etishda psixologik xususiyatlarini namoyon bo‘lishini, shuningdek muvaffaqiyatli harbiy burchni ado etishda harbiylarga bevosita “richag” bo‘ladigan harbiylar oilasining psixologik holati, turmush tarzi, ekstremal sharoitlarga moslashuvini tadqiq etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so‘zlar: moslashuv, tutilish, harbiy oila, nizo, er-xotin, psixologik kontakt, destruktiv, konstruktiv.

Dunyoda harbiy xizmatchilarning psixologik xususiyatlarini o‘rganish, harbiylik kasbiga nisbatan psixologik yaroqlilik, harbiylar va ularning oila a’zolari o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlar, harbiy oilada voyaga yetayotgan bolalarning psixologik xususiyatlari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jahonda oilaviy nizolar, ajrimlarning soni ortib borayotgan bir davrda harbiy oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, oilaviy rollarning taqsimlanishi, harbiylarning noodatiy, intizomga asoslangan turmush tarzida oilaviy iqlimning barqaror bo‘lish darajasining harbiy xizmatchi faoliyatiga ta’siri kabi masalalar o‘z dolzarbligini oshirmoqda.

Mamlakatimiz Qurolli Kuchlaridagi o‘zgarishlarning asosiy maqsadi hozirgi bosqichda harbiy burchni to‘liq fidoyilik bilan bajarishga va xizmat jarayonida o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qodir bo‘lgan xodimlarni ta’minlashdir. Buning uchun harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini, salomatligini, hayotiy farovonligini yuqori darajada saqlash, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqaradigan yetuk shaxsni kamol toptirish zarur. Harbiy xizmatchining ruhiy salomatligi, farovonligi va kasbiy uzoq umr ko‘rishini ta’minlashda oila yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.

Oilaviy munosabatlar sifatiga nafaqat harbiy xizmatchilarning shaxsiy holati, balki ularning xizmat vazifalarini bajarishiga ham bog‘liq. Harbiy oilaning resurslari harbiy xizmatchilarning shaxsiy resurslari bilan bir qatorda harbiy qismlarning jangovar qobiliyatini saqlashga jalb qilinadi.

Harbiy xizmatchilarning turmush tarzini mustakamlashda xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish, ilmiy tadqiqot ishlariga qo‘yilgan talablardan biri hisoblanadi. Biroq, barcha xorijiy davlatlarning harbiy oilalaridagi muammolari bo‘yicha tajribasini o‘rganishning iloji yo‘q va bu ish bizning tadqiqot vazifamizga kirmaydi. Shuning uchun ba’zi davlatlarning harbiy xizmatchilari oilalarida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-psixologik muammolarni hal etish borasidagi tajribasini o‘rganishga harakat qildik.

Armiyaning tarkibiy qismidan kelib chiqib harbiy oilalar sonining ko‘payishini nazarda tutadi, bu esa tegishli muammolarning ko‘payishiga olib keladi. Shu munosabat bilan jahon olimlari tomonidan harbiy xizmatchilarning oilasi mudofaa qobiliyatini ta’minlash muammolarini hal qilishda birinchi raqamli tadqiqot ob’ektiga aylangan. Harbiy xizmatchilarning psixologik salomatligi va farovonligi mamlakat armiyasining samaradorligi, harbiy oilalarni moslashtirish va harbiy xizmatchilarning fuqarolik jamiyatiga integratsiyalashuvi uchun muhimdir.

AQSh olimlari C.Hyperlink va A.Robertlar tomonidan harbiy xizmat natijasida ko‘plab stresli omillarning harbiy oilalardagi bolalarning ruhiy salomatligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan muammolari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalarida Iroq va Afg‘onistonda bo‘lib o‘tgan urushlarda ishtirok etgan 1,3 milliondan ortiq harbiy xizmatchilarning (2014 yil holatiga ko‘ra) 55 foizi turmush qurgan va ulardan 42 foizi farzandli bo‘lganligi keltirib o‘tilgan. Urish davrida oilalarning ko‘chib yurishi bolalarning ruhiy salomatligiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Ular bolalarning yoshi va rivojlanish bosqichiga qarab farqlangan. Tadqiqot 1507 nafar harbiy oilalardagi bolalar va tarbiyachilardan olingan ma’lumotlar natijasida ota-onasi uzoq muddatli harbiy xizmatga ketgan bolalarda tengdoshlariga nisbatan ruhiy salomatlik bilan bog‘liq muammolar kuzatilgan. Shu bilan birga harbiy oilalarni joylashtirish va boshqa xayot qiyinchiliklariga qaramasdan bardoshliligini harbiy sharoitga moslashuvchan oila faoliyatining potensial rolini rag‘batlantirish va qo‘llab quvvatlovchi tadbirlarni ishlab chiqish muhimligi ko‘rsatib o‘tilgan.

2022-yilda M.Anatolii, V.Serxii, M.Aleksandr, I.Vladimir, S.Vladimir va V.Aleksandirlar tomonidan (Ukraina Milliy gvardiyasi, milliy akademiyasi) jangovar vazifalarni bajarayotgan Ukraina harbiy xizmatchilari oilalariga yordam berishning tibbiy, ijtimoiy va psixologik jihatlari o‘rganilgan.

Harbiy harakatlardan qaydgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy moslashuvi, muloqotdagi qiyinchiliklar, intim hayotdagi qiyinchiliklar, kasbiy o‘zini-o‘zi

belgilash muammolari bilan bog‘liq yangi stresslarni boshidan kechirish, bundan tashqari jangovar harakatlar vaqtida orttirgan psixologik travmalar sog‘lig‘iga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi, buning natijasida oilada tushunmovchilik, janjallar kelib chiqishi, oila a’zolarida ham uyqu buzilishi, tushkunlik, kayfiyatning o‘zgarishi, begonalashish holatlari kuzatilishi taxlil qilingan.

Ukraina psixiatrlarining ta’kidlashicha harbiy harakatlarda ishtirok etgan harbiy xizmatchilarning 20 foizida “ATO sindiromi” deb ataladigan surunkali travmadan keyingi stress buzilishi (PTSD) tashxisi qo‘yilgan. Ushbu holatlarni o‘rganish natijasida olimlar tomonidan quyidagi xulosalar keltirib o‘tilgan:

Reabilitatsiya faoliyatini takomillashtirish uchun olimlar, metodistlar, shifokorlar, ijtimoiy soha xodimlari, davlat organlari mutaxassislari, shuningdek fuqaro-harbiy hamkorlik mutaxassislari ishtirokida harbiy xizmatchilarning oilasi va yaqinlarini qamrab oluvchi kompleks reabilitatsiya tadbirlarini tizimli tashkil etish.

2. Jangovar harakatlarda ishtirok etgan harbiy xizmatchilarning oilalariga yordam ko‘rsatishning tibbiy-ijtimoiy va psixologik jihatlarini o‘rganish va Ukraina tomonidan harbiy xizmatchilarning oilalariga psixologik yordam ko‘rsatishni tashkil etishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish.

So‘ngi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki nafaqat harbiy xizmatchining, balki uning ota-onasi, rafiqasi, farzandlari va yaqin qarindoshlariga ham tibbiy, ijtimoiy va psixologik yordam ko‘rsatish zarur.

Psixologik yordam va reabilitatsiyaning umumiy jihatlari T.Dobrovolskaya, S.Xarchenko, L.Yakovlevalarning asarlarida keltirib o‘tilgan. Harbiy xizmatchilar bilan reabilitatsiya ishlarini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari V.Aleshchenko, V.Mogilevlar tomonidan tahlil qilingan. V.Bondarenko, D.Kramerlar tomonidan harbiy xizmatchilarning oilalariga ijtimoiy yordam ko‘rsatishning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganilgan

Jahon olimlari tomonidan harbiy oilalardagi nizolar tadqiq etilganda ota-onalarning ayrim individual xususiyatlari va oiladagi nikoh munosabatlarda yuzaga kelayotgan nizolar ajrashishlarning eng muhim manbai ekanligi aniqlangan.

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent L.B.Morozova Rossiyaning fuqaro oilalari va harbiy xizmatchi oilalarida er-xotinning oiladagi shaxslararo o‘zaro munosabatlar va oilaviy munosabatlardan qoniqish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni olib borgan. Tadqiqot natijalarida nikohdan qoniqish oilaning sub’ektiv g‘oyasini amalga oshirishga va oilaviy hayotdan qoniqish har bir shaxsning barcha ehtiyojlarini qondirish darajasiga bog‘liq bo‘lgan, bu o‘z navbatida ijtimoiy his-tuyg‘ularning rovojlanishiga qaratilgan. Nikohdan qoniqish omillari etib: turmush o‘rtog‘ining kasbiy faoliyatidan kelib chiqib ishdan qoniqish, ishdagi muvaffaqiyat, insonning o‘zini-o‘zi anglashi va oilaning moliyaviy farovonligi keltirib o‘tilgan.

Hozirgi kunga kelib harbiy oilalarda nizolar paydo bo‘lishi harbiy xizmatchilarning oilaviy hayotidagi muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, harbiy xizmatchi oilasidagi munosabatlarning o‘ziga xos xususiyati kabi muammolarni vujudga keltirmoqda. I.Yu.Zagornaya harbiy xizmatchilar oilalarining ijtimoiy-psixologik moslashuvini o‘rganar ekan, u oilaviy funksiyalarni amalga oshirishga to‘sqinlik qiladigan bir qator omillarni aniqladi. Ular orasida:

harbiy xizmatchining xizmat joyini tez-tez o‘zgarishi bilan takroriy ijtimoiy-psixologik moslashish omillariga moyillik;

harbiy xizmatchilar oilasini tartibga solish;

harbiy xizmatning alohida shartlari tufayli oilaviy hayotdagi muammolarning yuzaga kelishi;

turmush o‘rtog‘ining oilaviy qadriyatlari va oilada sog‘lom muhitni yaratishga qodir yoki aksincha shaxsiy fazilatlari;

harbiy xizmatchi oilasining ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-madaniy aloqalarining muntazam tanqisligi (chekka garnizonlarda, harbiy qismlarda, qishloq aholi punktlarida yashashi) keltirib o‘tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-semi-voennosluzhaschego-i-problema-obespecheniya-boegotovnosti-vooruzhennyh-sil.

2. https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC7163866/,

3. R.E.Heyman, P.H.Neidig, АҚШ армияси ва фуқаролик вакилларининг намуналарида турмуш ўртоқларнинг тажовузкорлигини тарқалиш кўрсаткичларини таққослаш, 1999; 67:239 –242.

4. I.I.Prykhodko, S.V.Bielai, A.M.Hrynzovskyi, A.M.Jelaho, S.O.Hodlevskyi, S.I.Kalashchenko, Ҳарбий хизматчиларнинг экстремал шароитларда мослашуви ва хавфсизлигининг тиббий-психологик жиҳатлари, Wiad Lek . 2020;73(4): 679.

5. https://wiadlek.pl/wp-content/uploads/ archive/ 2022/01/WLek202201228.pdf.

INTERAKTIV MULOQOT HARBIY SHAXSINING PSIXOLOGIK MOSLASHUV ELEMENTI SIFATIDA

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi o‘qituvchisi, psixol.f.b.f.d (PhD)
Qudratov Ulug‘bek Soatmurod o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash yo‘nalishi 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: Harbiy jamoada interaktiv muloqot jarayonida bir qator psixologik ta’sir mexanizmlari faoliyat ko‘rsatadi. Ular shaxslararo munosabatlarning chuqurligi, muloqotning samaradorligi va jamoaviy kayfiyatni belgilaydi. Zararlanish (emotsional yuqumlilik). Bu mexanizm shaxsning ongli tarzda guruhning umumiy psixik holatiga qo‘shilib ketishi bilan tavsiflanadi. Masalan, harbiy mashg‘ulot yoki safarbarlik paytida bir kishining ruhiy holati butun jamoaga tezda yuqadi. Zararlanish natijasida guruh birligi kuchayadi**,** emotsional uyg‘unlik ortadi, ayrim hollarda esa panika yoki stress massaviy tus olishi mumkin.

Kalit so‘zlar: interaktiv muloqot, psixologik moslashuv, ijtimoiylashuv, harbiy muhit, harbiy xizmatchi, adaptatsion sindrom, muloqot, interaktiv muloqot, harbiy jamoa.

Shaxsning psixologik moslashuvchanligi umumiy ijtimoiy moslashuv jarayonida muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy moslashuv jamoadagi qadriyatlar, normalar, qoidalar va ijtimoiy ustanovkalarga moslashish, mavjud ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish jarayoni sifatida talqin etiladi. Bu jarayonning psixologik mazmuni guruh maqsadlari va qadriyat yo‘nalishlari bilan individning shaxsiy maqsadlari yaqinlashuvi, guruh me’yorlari, an’analari va madaniyati mohiyatini o‘zlashtirishi, shuningdek guruhning rollar tuzilmasiga kirish jarayoni bilan ifodalanadi.

Moslashuvning natijasi adaptirlanganlik holati bo‘lib, u shaxsning uzoq davom etuvchi ichki va tashqi ziddiyatlarning yo‘qligi, faoliyati va xulq-atvori darajasi hamda usullarining kasb yoki jamoa tomonidan qo‘yilgan minimal talab va kutishlarga mos kelishi, psixologik qulaylik, o‘zini namoyon qilish va shaxsiy imkoniyatlarini erkin ifoda eta olish bilan xarakterlanadi.

Yoshlarning psixologik moslashuvchanligi ularni harbiy xizmatga tayyorlash kontekstida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u harbiy-sotsial muhitga kirib borish jarayonida xulq-atvor va psixik holatlarni tartibga soluvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Tuzilma jihatidan qaralganda, yoshlarning psixologik moslashuvchanligi intellektual, xulq-atvoriy, emotsional-irodaviy va motivatsion

komponentlardan iborat bo‘lib, ularning o‘zaro uyg‘un holda faoliyat ko‘rsatishi yosh harbiy xizmatchining harbiy xizmat sharoitlarining o‘zgaruvchan talablariga mos ravishda zarur xulq-atvor variativligini ta’minlaydi.

Harbiy jamoada muloqot kontakt o‘rnatishdan o‘zaro ta’sirni rivojlantirish va munosabatlarni shakllantirishgacha bo‘lgan murakkab jarayon. Uning asosida odamlarning birgalikdagi faoliyati yotadi. Shu bois harbiy jamoada muloqotning bosh vazifasi harbiy xizmatchilar birgalikdagi faoliyatini tashkil etish muhim. Harbiylar muloqotining o‘ziga xosligini tahlil qilarkanmiz, munosabatlar madaniyatini shakllantirish bo‘yicha quyidagi vazifalarni ajratish maqsadga muvofiq:

- bo‘linmalarda insonparvarlik prinsiplari asosida mazmunan boy va shaklan xilma-xil muloqot uchun shart-sharoit yaratish;
- shaxsiy tarkibning ma’naviy-axloqiy madaniyatini oshirish, kayfiyat, ehtiyojlar, jismoniy va psixologik holatni inobatga olish;
- ish yo‘nalishlarini aniq belgilash, muloqotni takomillashtirish uchun ta’sir etish usullari, vositalari va shakllarini to‘g‘ri tanlash;
- shaxsning axloqiy sifatlari va individual-psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olish bo‘ysunuvchining kelishuvga layoqatini to‘g‘ri baholash, undagi konflikt potentsialini ko‘rish, harbiy jamoada ishlashga tayyorgarlik darajasini aniqlashga yordam beradi.

Muloqot odamlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va ta’sir jarayonidir. U bilish, normativ, kommunikativ va regulyativ funksiyalarni bajaradi; muloqotda shaxsning sifatlari namoyon bo‘ladi. Muloqot ehtiyojining asosiy komponentlari axborot, emotsional va faoliyatga doir tarkiblardir.

Ijtimoiy darajaga qarab xulq qoidalari ishlab chiqiladi:

davlat fuqarolari sifatida muloqotda munosabatlar, avvalo, huquqiy me’yorlar bilan tartibga solinadi;

funksional-rolli sohaga oid muloqotda esa xulq huquqiy me’yorlar bilan birga kasbga xos maxsus qoidalar (harbiylarda ustavlar, yo‘riqnomalar, nizomlar) bilan boshqariladi;

shaxslararo muloqot darajasida esa munosabatlar axloq me’yorlari bilan tartibga solinadi. Axloq me’yorlari huquqiy kuchga ega bo‘lmasa-da, shaxs tomonidan o‘zlashtirilgach, uning xulqining ichki tayanchiga aylanadi.

Harbiylarning muloqoti o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu o‘ziga xoslik sababi harbiy mehnatning murakkab, ko‘pincha ekstremal va hayot uchun xavfli sharoitlaridadir. Shu bois tinchlikda ham, urush davrida ham xizmat muloqoti shakllarini qat’iy tartibga solish talab etiladi. Ayniqsa, bu xususiyat boshliqlar va bo‘ysunuvchilarning o‘zaro ta’siri jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Harbiy xizmat jarayonida interaktiv muloqot harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi hamkorona faoliyat jarayoni bo‘lib, unda nafaqat axborot almashinuvi, balki umumiy maqsadlarga yo‘naltirilgan birgalikdagi harakatlar, qarorlar va psixologik o‘zaro ta’sirlar amalga oshiriladi. Bunday muloqot harbiy jamoaning faoliyatini tashkil etuvchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro tushunish, koordinatsiya va emotsional birlashuvni ta’minlaydi. Interaktiv muloqot nafaqat xizmat samaradorligini oshiradi, balki harbiy xizmatchining psixologik barqarorligi, ijtimoiy faolligi va shaxsiy o‘sishini ham rag‘batlantiradi.

Interaktiv muloqot jarayonida harbiy xizmatchilar nutq orqali fikr almashish bilan bir qatorda, birgalikdagi amaliy harakatlar, qarorlar qabul qilish, o‘zaro ta’sir va baholash faoliyatida ham ishtirok etadilar. Natijada jamoa ichida umumiy qarashlar, qadriyatlar, psixologik uyg‘unlik va hamkorlik madaniyati shakllanadi. Bu jarayon harbiy jamoaning ijtimoiy-psixologik iqlimini barqarorlashtiruvchi muhim omil sifatida qaraladi.

Interaktiv muloqot harbiy xizmatchilarning axborot almashish, hamkorlik qilish va birgalikda maqsadga erishish jarayonini anglatadi. Ushbu jarayon shaxslararo o‘zaro ta’sirning asosiy turi sifatida xizmat qiladi va kommunikativ**,** kooperativ hamda refleksiv komponentlarni o‘z ichiga oladi. Harbiy jamoalarda interaktiv muloqotning uch asosiy shakli ajratiladi:

Kooperativ interaksiya harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik, kelishuv, moslashuv va birlashish jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

- Kooperatsiya bir nechta shaxslarning umumiy maqsad yo‘lida birlashgan holda faoliyat yuritishidir. Masalan, jangovar mashg‘ulotda guruh a’zolarining aniq koordinatsiyasi.
- Kelishuv shaxsning ko‘pchilik pozitsiyasini ma’qullab, o‘z fikrini jamoa qarorlariga moslashtirishi.
- Moslashuv (adaptatsiya) shaxsning o‘z xatti-harakatlarini xizmat sharoiti, buyruq yoki vaziyat talablari bilan uyg‘unlashtirishi.
- Assotsiatsiya jamoa a’zolari o‘rtasida o‘xshashlik, bir-biriga nisbatan ishonch va psixologik yaqinlikning vujudga kelishi.

Ijobiy interaksiya jamoaning psixologik birligi, o‘zaro ishonch va muloqot madaniyatining shakllanishiga yordam beradi.

Bellashuv (raqobat) shaklidagi muloqot. Bu turdagi interaktiv muloqot raqobat va musobaqalashuv elementlarini o‘z ichiga oladi. Harbiy sohada raqobat ijobiy masalan, xizmatda intiluvchanlik, malakani oshirish; yoki salbiy kuchaygan raqobat, keskinlik, emotsional zo‘riqish shaklida namoyon bo‘lishi mumkin. Ijobiy raqobat shaxslarni ko‘nikmalarni takomillashtirish, strategik fikrlash va tashabbuskorlikni

rivojlantirishga undaydi. Ammo haddan ortiq raqobat holatlarida shaxslararo ziddiyatlar, psixologik charchoq va motivatsiya pasayishi kuzatiladi.

Salbiy (konfliktogen) muloqot. Bu turdagi interaktiv o‘zaro ta’sirda konflikt, qarama-qarshilik va dissonans holatlari ustunlik qiladi. Harbiy xizmatdagi keskinlik, yuqori javobgarlik va me’yoriy cheklovlar sharoitida bunday vaziyatlar tabiiy hisoblanadi. Salbiy interaksiya jamoa samaradorligini pasaytiradi, biroq to‘g‘ri boshqarilgan holda u rivojlanish omiliga aylanishi mumkin. Konfliktlarning konstruktiv yechimi harbiy jamoaning psixologik yetukligini ko‘rsatadi.

Assertivlik harbiy xizmatchining o‘z xulq-atvorini mustaqil tartibga solish, tashqi bosim va baholardan ortiqcha qaram bo‘lmaslik, shuningdek, shaxsiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyatidir. Assertiv xulq harbiy shaxsning ichki intizomi, psixologik barqarorligi va muloqot madaniyatining asosini tashkil etadi. Assertiv xulqning asosiy tamoyillari:

1. **Mas’uliyatni qabul qilish.** O‘z xulqi uchun javobgarlikni anglash va boshqalarga ayb yuklamaslik.
2. **O‘zini va boshqalarni hurmat qilish.** Harbiy jamoada o‘zaro hurmatning mavjudligi muloqot samaradorligini oshiradi.
3. **Halollik, ochiqlik va samimiy muloqot.** Fikrni konstruktiv tarzda ifodalash, boshqani ruhiy jihatdan ranjitmasdan o‘z nuqtai nazarini bildirish.
4. **Ishonch va pozitiv munosabat.** O‘ziga ishonch va kasbiy kompetensiya bilan birga ijobiy ruhiy holatni saqlash.

Assertiv xulq interaktiv muloqotda harbiy xizmatchiga emotsional barqarorlik**,** konstruktiv muloqot uslubi**,** liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Sujjestiya. Maqsadli, dalilsiz psixologik ta’sir bo‘lib, unda ma’lumot tanqidsiz qabul qilinadi. Harbiy sharoitda bu mexanizm buyruqni so‘zsiz bajarish, tezkorlik va intizomni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ta’sirning samaradorligi aniq, obrazli va tushunarli so‘zlardan foydalanish darajasi bilan belgilanadi.

Ishontirish mantiqiy dalillar asosida anglangan va tahlil qilingan qabulga erishish mexanizmidir. Bu mexanizm rahbar va bo‘ysunuvchilar o‘rtasida tashabbusni qo‘llab-quvvatlash**,** axborotga asoslangan qarorlar qabul qilish jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Taqlid boshqalarning xulqini o‘rnak sifatida qabul qilish va uni qayta ishlab, o‘z xatti-harakatida namoyon etish jarayonidir. Harbiy jamoalarda katta lavozimdagi shaxsga taqlid qilish ijtimoiy norma sifatida shakllangan. Ichki (qadriyatli) taqlid tashqi (xulqiy) taqliddan oldin shakllanadi; bu jarayon shaxsiy o‘sish va intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Manipulyatsiya yashirin psixologik ta’sir shakli bo‘lib, unda bir shaxs boshqa shaxsda o‘z hozirgi istaklariga mos kelmaydigan xatti-harakatni noaniq tarzda

qo‘zg‘atadi**.** Harbiy jamoalarda manipulyatsiya ko‘proq ta’sirchan yetakchilar tomonidan yoki muomala etikasining buzilishi holatlarida namoyon bo‘lishi mumkin. Shu sababli, bunday mexanizmlarni aniqlash va boshqarish psixologik madaniyatning muhim qismidir.

Harbiy xizmatchilarda interaktiv muloqot quyidagi ijobiy natijalarni ta’minlaydi:

- Umumiy maqsadga erishish samaradorligi. Jamoa a’zolari o‘z resurslarini birlashtirib, sinergik ta’sir yaratadi.
- Shaxsiy rivojlanish. O‘zini anglash, o‘zini boshqarish, emotsional nazorat va ijtimoiy kompetensiyalar shakllanadi.
- Jamoaviy jipslik. Kooperativ muloqot orqali o‘zaro ishonch va jamoaviy ruh mustahkamlanadi.
- Axloqiy qadriyatlarning shakllanishi. Taqlid, ishontirish va emotsional zararlanish orqali harbiy axloq me’yorlari sadoqat, fidoyilik, halollik shakllanadi.

Harbiy jamoalarda interaktiv muloqot axborot almashinuvi**,** hamkorona faoliyat va ijtimoiy-psixologik **o‘**zaro ta’sirni o‘z ichiga olgan murakkab tizimli jarayondir. U harbiy xizmat samaradorligi, jamoaviy ruh va shaxsiy o‘sishning psixologik asosi sifatida namoyon bo‘ladi. Interaktiv muloqotning samaradorligi ko‘p jihatdan: o‘zaro ta’sir shakli (kooperativ, raqobatli, konfliktogen), harbiy xizmatchilarning assertivlik darajasi, psixologik ta’sir mexanizmlaridan ongli foydalanish madaniyatiga bog‘liq. Shu bilan birga, interaktiv muloqot shaxsning psixologik barqarorligi**,** kommunikativ yetukligi va kasbiy shakllanishi uchun muhim ijtimoiy resurs hisoblanadi. Shunday qilib, harbiy xizmatchilarda interaktiv muloqotni ilmiy jihatdan tahlil qilish va amaliyotda rivojlantirish, ularni psixologik tayyorlov tizimiga integratsiya qilish zamonaviy harbiy ta’lim va boshqaruv psixologiyasining dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Крупник Е.П., Сизова Т.Б. Теоретические аспекты психологической культуры межличностных взаимодействий. – М., 2001 г.

2. Лазарев В.П., Федотов А.А. Педагогические основы формирования уставных взаимоотношений личного состава полка (корабля). – М., 2007 г.

3. Маклаков А.Г. Психология и педагогика. Военная психология. – СПб., 2004 г.

4. Веремчук В.И. Социальные характеристики и особенности процесса социализации личности офицера в условиях модернизации Вооруженных Сил Российской Федерации / В.И. Веремчук, М.В. Барановский // Военный академический журнал. 2017. № 6 (67). С. 269-299.

ILMIY VA BADIIY ADABIYOTLARDA YOSH HARBIY XIZMATCHI OFITSERLARNING MULOQOT MADANIYATINI SAMARALI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARINI YORITILISHI

Matyakubov Elyor Rajapovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi, podpolkovnik

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh harbiy xizmatchi ofitserlarning muloqot madaniyatini shakllantirishning psixologik jihatlari yoritilgan. Sharq mutafakkirlarining axloqiy-ruhiy, axborot almashinuvi va ma’naviy yetuklik borasidagi qarashlari asosida zamonaviy harbiy shaxsning muloqotda o‘zini tutish madaniyatini shakllantirish muammolari tahlil qilingan. Maqolada muloqot madaniyatining tarkibiy qismlari, psixologik mexanizmlari, va ularni rivojlantirish usullari haqida ilmiy asoslangan fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Muloqot madaniyati, yosh ofitser, harbiy psixologiya, sharq mutafakkirlari, axloq, kommunikatsiya, shaxslararo munosabat, tarbiya.

Kirish. Bugungi kunda harbiy sohaga oid islohotlar nafaqat texnik, balki inson omiliga bog‘liq jihatlarni ham o‘z ichiga olmoqda. Jumladan, yosh harbiy xizmatchi ofitserlarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantirishda muloqot madaniyatining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Harbiy jamoalarda sog‘lom psixologik muhitni ta’minlash, bo‘ysunuvchilar va rahbarlar o‘rtasida konstruktiv munosabatlarni shakllantirish, harbiy intizom va jamoaviylikni mustahkamlash – bularning barchasi samarali muloqotga bevosita bog‘liqdir.

Mashhur rus psixologi va pedagogi A.V.Petrovskiy muloqot tushunchasiga “Bu shaxslararo munosabatlarning asosiy shakli bo‘lib, odamlar o‘rtasida axborot, his-tuyg‘u va ma’lumotlar almashinuvi, bir-birini tushunish va ijtimoiy ta’sir jarayonidir[1] deb urg‘u bergan. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi Universiteti pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Z.Sh.Alimardonov tomonidan “Muloqot- kishilarning hamkorlikdagi faoliyati, ehtiyojlari asosida tug‘iladigan, ular o‘rtasidagi aloqa rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir”[2] deb ta’rif bergan. Shundan ko‘rinadiki yosh ofitserlarning harbiy xizmatga yangi kirib kelgan davrida, ularning atrofdagilar bilan to‘g‘ri va madaniyatli muloqot qilish qobiliyatlari ularning kelgusi faoliyat samaradorligini belgilashda muloqot jarayoni muhim ahamiyatga egadir.

Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham muloqotga, odob-axloq, ma’naviyat va shaxslararo munosabatlarga katta e’tibor qaratilgan. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy kabi allomalar insoniy fazilatlar, nutq

madaniyati, ichki va tashqi muvozanat haqida chuqur fikrlar bildirganlar. Ularning qarashlari nafaqat tarixiy, balki zamonaviy harbiy psixologiyada ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, ushbu maqolada yosh harbiy xizmatchi ofitserlar shaxsida muloqot madaniyatini shakllantirishning psixologik asoslari va bu boradagi Sharq mutafakkirlarining qarashlari tahlil qilinadi.

Yosh harbiy xizmatchi ofitserlarning muloqot madaniyatini shakllantirish mavzusida mavjud adabiyotlarni tahlil qilinganda, quyidagi 2 ta asosiy yo‘nalish ajralib turadi: 1) harbiy psixologiya 2) Sharq falsafasi.

Harbiy psixologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlarda muloqot madaniyati shaxsning harbiy faoliyatdagi samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida ko‘riladi hamda olib borilgan tadqiqotlarda psixologik treninglar, stressni boshqarish va empatiya rivojlantirish metodlari orqali yosh ofitserlarning kommunikatsiya qobiliyatlarini takomillashtirishga alohida urg‘u berilgan. Shuningdek, amaliy metodlarning harbiy jamoada psixologik barqarorlikni ta’minlashdagi roli bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Sharq mutafakkirlarining muloqot va axloq haqidagi qarashlari esa asosan hukmdorlar, mulozimlar, yuqori mansab egalarining o‘z atrofidagi insonlar bilan muloqot qilish odobi, ularning insoniyligi, ma’naviy kamoloti va ichki muvozanati nuqtai nazaridan tahlil qilingan (Forobiy, Ibn Sino, Navoiy, Yassaviy asarlarida). Ularning asarlarida muloqot - shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish va ijtimoiy munosabatlarni sog‘lomlashtirish vositasi sifatida ko‘rsatilgan bo‘lib, bu qarashlarni o‘rganish orqali kelgusida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni, harbiy kasbiy tayyorgarlikni ma’naviy-axloqiy asosda boyitishga imkon yaratadi.

Adabiyotlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, yosh ofitserlarning muloqot madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy psixologik usullar va Sharq mutafakkirlarining falsafiy qarashlarini uyg‘unlashtirish samarali natijalar beradi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha metodologik masalalar va psixologik qo‘llanmalar kam yoritilganligi seziladi, bu esa kelgusida yanada chuqur tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Ushbu maqolada yosh harbiy xizmatchi ofitserlarda muloqot madaniyatini shakllantirishning psixologik jihatlari va Sharq mutafakkirlarining qarashlari tadqiq qilindi. Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llanildi:

1. Harbiy psixologiya, kommunikatsiya nazariyasi hamda Sharq falsafasi bo‘yicha ilmiy manbalar va klassik asarlar tahlil qilindi. Bu usul mavzuning nazariy asoslarini chuqurroq anglashga yordam berdi.

2. **S**harq mutafakkirlarining muloqot va axloqiy tarbiya haqidagi qarashlari zamonaviy psixologik konseptlar bilan taqqoslandi va uyg‘unlashtirildi.

3. Mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy manbalar va nazariyalar asosida yosh ofitserlarning muloqot madaniyatini shakllantirish jarayoni psixologik jihatdan tahlil qilindi.

4. Olingan nazariy bilimlar asosida muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun metodologik yo‘nalishlar taklif qilindi.

Bu metodologiya maqolaga konseptual va amaliy jihatdan muvozanatli yondashuvni ta’minlab, mavzuning har tomonlama tahlil qilinishiga imkon yaratadi.

Muloqot madaniyatining psixologik mohiyati va uning harbiy sohadagi roli haqida gap ketganda, albatta muloqot madaniyati tushunchasiga alohida urg‘u berib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Maqolada ko‘rsatib o‘tilgan sharq mutaffakirlari va olimlarning adabiyotlarini va ilmiy izlanishlarini o‘rganish natijasida muloqot madaniyati quyidagicha ta’rif berish maqsadga muvofiq. Muloqot madaniyati - bu insonning atrofdagilar bilan mazmunli, hurmat asosidagi, madaniyatli va maqsadga yo‘naltirilgan aloqalarni o‘rnatish qobiliyatidir. Psixologik nuqtayi nazardan, bu nafaqat til vositasida axborot almashinuvi, balki shaxslararo munosabatlar, hissiy ta’sir, xatti-harakatlar, mimika va intonatsiya orqali yuzaga keladigan murakkab jarayondir.

Harbiy sohada esa muloqot madaniyati yanada murakkab va muhim ahamiyatga ega. Harbiy xizmatchilar o‘rtasida buyruq va topshiriqlar aniq, lo‘nda va tushunarli bo‘lishi, bo‘ysunuvchilar va rahbarlar o‘rtasida ishonchli va samimiy aloqa o‘rnatilishi zarur. Bu esa ofitserning nafaqat kasbiy bilimiga, balki uning muloqotdagi madaniyatiga ham bevosita bog‘liq.

Muloqotda yuqori madaniyatga ega bo‘lgan ofitser o‘ziga bo‘ysunuvchilarning ishonchini qozonadi, jamoada sog‘lom psixologik muhit yaratadi, nizoli holatlarni zo‘ravonliksiz hal eta oladi. Shuningdek, u zamonaviy harbiy yetakchi sifatida jamoani ilhomlantira oladi, ya’ni liderlik fazilatlarini namoyon eta oladi.

Sharq falsafasida inson va uning ichki dunyosi, ma’naviy pokligi va axloqiy mukammalligi ustuvor mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Sharq mutafakkirlari muloqotni insoniy kamolotga yetishish vositasi deb bilganlar. Ular fikricha, muloqot nafaqat axborot almashish vositasi, balki tarbiya, ta’sir va ta’lim vositasidir.

Abu Nasr Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida yetuk shaxsiy fazilatlar egasini ideal boshqaruvchi deb bilgan. U muloqotda donolik, sabr, muloyimlik va tushunish qobiliyatini yuqori qadrlagan. Forobiy uchun so‘zlashuv madaniyati bu insoniy mukammallikning ko‘zgusi edi. [3]

Ibn Sino esa inson psixologiyasi va ruhiy holatlarining muloqotdagi ahamiyatini chuqur o‘rgangan. U muloqotda ruhiy muvozanat, etika va axloqiy me’yorlarga rioya qilishni tavsiya etgan. Uningcha, har bir inson muloqot orqali o‘z

fikrini aniq va ravshan ifoda etishga, boshqalarni tinglashga va o‘zini tuta bilishga intilishi kerak.[4]

Alisher Navoiy asarlarida esa so‘zning qudrati, axloqiy tarbiya va odobli muloqot muhim o‘rin egallaydi. Navoiy tilning pokligi, so‘zning shirinligi va muloqotda odob saqlashni oliy fazilat deb bilgan. U "Xamsa" dostonlarida rahbar va bo‘ysunuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarda hurmat, adolat va insof tamoyillarini ilgari suradi.[5]

Ahmad Yassaviy esa muloqotni tasavvufiy ruhda tushunib, har bir so‘zni qalbdan chiqishi, rostgo‘ylik va halollik bilan aytilishini ta’kidlagan. Uning nazarida, muloqot bu – qalblar orasidagi ko‘prik bo‘lib, unda samimiyat, sabr va kechirimlilik ustuvor bo‘lishi kerak.[6]

Sharq mutafakkirlarining ushbu fikrlari bugungi yosh harbiy xizmatchi ofitserlarning kasbiy va axloqiy fazilatlarini shakllantirishda beqiyos manba bo‘la oladi. Ularning qarashlari zamonaviy psixologik yondashuvlar bilan uyg‘unlashib, harbiy shaxsda muloqot madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yosh harbiy xizmatchi ofitserlar muloqot madaniyatini egallashda o‘ziga xos psixologik xususiyatlarga egadirlar. Bu jarayonda shaxsning ichki ruhiy holati, o‘zini anglash, motivatsiya, hissiy boshqaruv qobiliyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, yosh ofitserlarda muloqot madaniyatini shakllantirish uchun o‘z-o‘zini anglash va o‘zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish zarur. Bunda ular o‘z hissiyotlarini, fikrlarini va harakatlarini ongli ravishda boshqarishni o‘rganadilar, bu esa harbiy jamoada stress va nizolarni kamaytirishga yordam beradi.

Ikkinchidan, yosh ofitserlarning empatiya qobiliyatini rivojlantirish muhimdir. Boshqalarni tushunish, ularning ehtiyojlari va hissiyotlariga sezgirlik - samarali muloqotning asosiy shartlaridandir. Empatiya yordamida rahbar va bo‘ysunuvchi o‘rtasidagi munosabatlar mustahkamlanadi.

Uchinchidan, muloqotda konstruktiv fikr almashinuvi va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish lozim. Yosh ofitserlar boshqalar fikrini ochiq tinglash, o‘z fikrini asoslab ifoda etish va nizoli vaziyatlarni xotirjam hal etish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishlari kerak.

Shuningdek, stressga chidamlilik va psixologik barqarorlikni oshirish yosh ofitserlarda samarali muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Harbiy xizmat sharoitida yuzaga keladigan stress va qiyinchiliklarga qarshi kurashish, xotirjamlikni saqlash - bu muloqotning sifati va natijadorligini bevosita ta’sir qiluvchi jihatlardir.

Bunday psixologik jihatlarning shakllanishi uchun o‘quv jarayonida psixologik treninglar, rolli o‘yinlar, guruhli muhokamalar va mentorlik tizimi samarali vosita bo‘la oladi.

Yosh harbiy ofitserlarda muloqot madaniyatini samarali shakllantirish uchun bir nechta amaliy yo‘nalishlarni ko‘zda tutish muhimdir.

Birinchidan, yosh ofitserlarning ta’limi va tarbiyasi jarayonida psixologik tayyorgarlikka katta e’tibor qaratish zarur. Bu - o‘zini anglash, stressni boshqarish, hissiyotlarni nazorat qilish, hamda empatiya kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Ikkinchidan, ofitserlarni yetakchilik va kommunikatsiya bo‘yicha muntazam treninglar va seminarlar orqali qo‘llab-quvvatlash lozim. Bu jarayonlarda sharq mutafakkirlarining axloqiy qadriyatlari va falsafiy qarashlari asos sifatida qo‘llanilishi mumkin, chunki ular insoniylik, sabr-toqat, hurmat va halollik kabi universal tamoyillarni targ‘ib qiladi.

Uchinchidan, mentorlik tizimini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Tajribali ofitserlar yoshlarni shaxsiy va kasbiy jihatdan qo‘llab-quvvatlab, ularning muloqotdagi madaniyatini shakllantirishda o‘z tajribalarini o‘rtoqlashishlari kerak.

To‘rtinchidan, harbiy jamoada ochiq va sog‘lom muloqotni rag‘batlantirish lozim. Nizoli vaziyatlarda konstruktiv fikr almashish, muammolarni birgalikda hal etish usullarini o‘rganish va jamoa a’zolari o‘rtasida ishonchni mustahkamlash uchun maxsus platformalar yaratilishi zarur.

Har bir rahbar yosh ofitserlarning muloqot madaniyatini shakllantirish muntazam jarayon ekanligini yodda tutish lozim. kelgusida bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borish, yangi pedagogik va psixologik metodlarni joriy etish ham muhimdir.

XULOSA o‘rnida, yosh harbiy xizmatchi ofitserlarda muloqot madaniyatini shakllantirish harbiy sohaning muvaffaqiyatli faoliyati uchun muhim shartlardan biridir. Muloqot madaniyati nafaqat shaxsiy kasbiy fazilatlarni, balki harbiy jamoaning umumiy ruhiy muhitini, intizom va tartibni saqlashni ta’minlaydi. Ushbu jarayonda psixologik jihatlar, jumladan, o‘zini anglash, hissiy boshqaruv, empatiya va stressga chidamlilik kabi ko‘nikmalar markaziy o‘rin tutadi.

Sharq mutafakkirlarining muloqot, axloq va insoniylik haqida ilgari surgan qarashlari yosh ofitserlarning shaxsiy va professional rivojlanishida muhim manba hisoblanadi. Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy kabi allomalar ta’kidlagan insoniy fazilatlar va muloqotning ruhiy-axloqiy asoslari bugungi harbiy psixologiya uchun ham qimmatli yo‘nalishlarni beradi. Ularning fikrlari zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar bilan uyg‘unlashib, yosh ofitserlarning muloqot madaniyatini mustahkamlashda amaliy qo‘llanilishi mumkin.

Muloqot madaniyatini rivojlantirish jarayonida amaliy psixologik treninglar, kommunikatsiya ko‘nikmalarini oshirish, mentorlik tizimi va jamoaviy faoliyat muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, stressni boshqarish va hissiy intellektni rivojlantirish

yosh ofitserlarga murakkab harbiy sharoitlarda o‘zini erkin va ishonch bilan tutishga yordam beradi.

Harbiy jamoada sog‘lom va samarali muloqotni ta’minlash, nizoli vaziyatlarni zo‘ravonliksiz hal qilish, rahbarlar va bo‘ysunuvchilar o‘rtasida ishonchli va samimiy aloqalarni o‘rnatish yosh ofitserlarning professional kamoloti va harbiy xizmat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, muloqot madaniyatini shakllantirish va uni doimiy ravishda rivojlantirishga katta e’tibor qaratish zarur.

Umuman olganda, yosh harbiy xizmatchi ofitserlarning muloqot madaniyatini psixologik asoslarda shakllantirish, Sharq mutafakkirlarining axloqiy va ma’naviy qarashlarini hisobga olib, harbiy intizom, jamoaviylik va kasbiy samaradorlikni oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Kelajakda bu yo‘nalishda chuqur tadqiqotlar va amaliy izlanishlar olib borilishi harbiy kadrlar tayyorlash sifatini yanada yaxshilashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. F.I. Xaydarov, N.I. Xalilova “Umumiy psixologiya” darslik NamDU. 2021-y (75-83 varaqlar).

2. Z.Sh.Alimardonov, N.I.Xalilova “Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida muloqot va muzokara psixologiyasi” darsligi. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida chop etilgan. Toshkent 2025-yil. 34-61- varaqlar.

3. Forobiy, Abu Nasr. *Fozil odamlar shahri*. – Toshkent: Fan, 1978.

4. Ibn Sino. *Kitob al-Shifo*. – Toshkent: Sharq, 1980.

5. Navoiy, Alisher. *Xamsa*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2005.

6. Ahmad Yassaviy, *Devoni Hikmat*. – Toshkent: Sharq, 1990.

HARBIY BOSHQARUV BO’YICHA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR QARASHLARINING O’ZIGA XOS PSIXOLOGIK OMILLARI.

Boubekov Urazali Mamasaliyevich
Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchi mayor

Annotatsiya. Ushbu maqola orqali harbiy boshqaruvda buyuk sarkarda va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur qarashlari psixologik jihatlari tahlil etiladi. Bobur shaxsining ruhiy barqarorligi, liderlik fazilatlari, jangovar vaziyatlarda hissiy boshqaruv qobiliyati va askarlar ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish mahorati ilmiy jihatdan o‘rganiladi. Tadqiqotda Boburning “Boburnoma” asaridagi harbiy lavhalar, tarixiy manbalar va zamonaviy harbiy psixologiya yondashuvlari asosida tahliliy fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, harbiy boshqaruv, psixologik omillar, liderlik, ruhiy barqarorlik, emotsional intellekt, strategik fikrlash, harbiy psixologiya, motivatsiya, vatanparvarlik.

Bugungi globallashuv va keskin o‘zgarishlar davrida harbiy sohada samarali boshqaruvni ta’minlashda inson omili, ayniqsa harbiy rahbarning psixologik tayyorgarligi muhim o‘rin tutadi. Harbiy rahbarning ruhiy barqarorligi, hissiy intellekti, stress holatlarida tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati zamonaviy armiyalarning muvaffaqiyat kalitidir[79]. Shu nuqtai nazardan, tarixiy shaxslarning harbiy boshqaruv tajribalarini psixologik jihatdan o‘rganish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega[80].

Shunday buyuk shaxslar sirasiga Zahiriddin Muhammad Bobur kiradi. U nafaqat buyuk davlat arbobi va sarkarda, balki chuqur tafakkur sohibi, o‘z askarlarining ruhiyatini anglay olgan mohir rahbar sifatida tarixda nom qoldirgan. Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida harbiy yurishlar jarayonidagi psixologik holatlarni, qo‘shin ruhini ko‘tarish usullarini, qo‘rquvni yengish va fidoyilikni shakllantirish yo‘llarini aniq tasvirlab bergan[81].

Boburning harbiy boshqaruvida psixologik omillar - ya’ni liderlik fazilatlari, ruhiy barqarorlik, motivatsiya, adolat va insonparvarlik tamoyillari asosiy o‘rin tutgan. U janglarda harbiy intizom bilan bir qatorda, askarlar ruhiyatini mustahkamlash, jamoada ishonch va birdamlikni saqlashga alohida e’tibor bergan[82].

Mazkur mavzuni o‘rganish bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan. Chunki zamonaviy harbiy rahbar uchun Boburning tajribasi — nafaqat tarixiy meros,

[79] Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
[80] Hasanov B., Yo‘ldoshev A. *Harbiy psixologiya asoslari.* – Toshkent: Oliy harbiy bilim yurti nashriyoti, 2019.
[81] Bobur, Zahiriddin Muhammad. *Boburnoma.* – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2020.
[82] Qodirov Sh. *Bobur – sarkarda va davlat arbobi sifatida.* – Toshkent: Fan, 2017.

balki psixologik boshqaruv modeli sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotda Boburning harbiy faoliyatidagi psixologik omillarni tahlil qilish orqali hozirgi harbiy xizmatchilarning boshqaruv madaniyati va ruhiy tayyorgarligini takomillashtirish yo‘llari ochib beriladi[83].

Bugungi globallashuv, geosiyosiy raqobat va axborot urushlari kuchaygan sharoitda harbiy sohada psixologik barqarorlik, hissiy intellekt va liderlik qobiliyati harbiy rahbarning eng muhim sifatlariga aylanmoqda. Harbiy xizmatchining ruhiy holati, stressga bardoshliligi va jamoani ruhlantirish ko‘nikmalari zamonaviy armiya muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biridir[84]. Shu bois, tarixiy shaxslarning harbiy boshqaruvdagi psixologik tajribasini o‘rganish, uni zamonaviy harbiy psixologiya bilan uyg‘unlashtirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi[85].

Buyuk sarkarda va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy boshqaruv faoliyati o‘z davrida nafaqat strategik fikrlash, balki inson ruhiyatini chuqur anglash va boshqarish mahorati bilan ham ajralib turgan[86]. U askarlarni ruhlantirish, jamoada birdamlikni shakllantirish, harbiy intizomni psixologik jihatdan mustahkamlashda o‘ziga xos uslublarni qo‘llagan. Boburning “Boburnoma” asarida keltirilgan kuzatishlar bugungi kunda ham harbiy rahbarlar uchun psixologik boshqaruv modeli sifatida qadrlanmoqda[87].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Bobur faoliyatidagi psixologik omillarni o‘rganish orqali zamonaviy harbiy ta’lim tizimida liderlik kompetensiyasini rivojlantirish, stress holatlarida qaror qabul qilishni takomillashtirish hamda harbiy jamoalarda ijobiy ruhiy muhitni shakllantirish yo‘nalishlarida yangi ilmiy xulosalar chiqarish mumkin[88].

Shuningdek, bu mavzu milliy tariximizdagi harbiy merosni zamonaviy psixologik nazariyalar bilan bog‘lash orqali yosh avlodda vatanparvarlik, fidoyilik va mas’uliyat tuyg‘ularini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu boisdan, Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy boshqaruvidagi psixologik omillarni chuqur o‘rganish nafaqat tarixiy, balki strategik, tarbiyaviy va psixologik ahamiyatga ega dolzarb ilmiy yo‘nalishdir[89].

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi - Buyuk sarkarda va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy boshqaruv faoliyatida namoyon bo‘lgan psixologik omillarni ilmiy tahlil etish, ularning zamonaviy harbiy rahbarlik

---

[83] Rasulov M. *Harbiy rahbarning psixologik tayyorgarligini rivojlantirish yo‘llari.* – “Psixologiya va harbiy amaliyot” jurnali, №2, 2022.
[84] Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
[85] G‘ofurov R., Jo‘raev J. *Harbiy psixologiya asoslari.* – Toshkent: Akademiya, 2021.
[86] *Boburnoma.* Zahiriddin Muhammad Bobur. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2018.
[87] Xudoyberdiyev M. Harbiy rahbar psixologiyasi va liderlik ko‘nikmalari. – Toshkent: MXX Akademiyasi nashriyoti, 2020.
[88] Daniel Goleman. *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ.* – New York: Bantam Books, 2005.
[89] Sultonov O. *Harbiy ta’limda psixologik tayyorgarlik va liderlik kompetensiyalari.* – Toshkent: Harbiy ishlar ilmiy markazi, 2022.

nazariyalari bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash hamda hozirgi harbiy ta’lim tizimida amaliy qo‘llash imkoniyatlarini ishlab chiqishdan iboratdir[90].

Boburning harbiy boshqaruvida ruhiy barqarorlik, hissiy intellekt, motivatsiya, jamoaviy birdamlik va stressga bardoshlilik kabi jihatlar muhim o‘rin tutgan. Tadqiqotning maqsadi ushbu psixologik komponentlarning mazmunini aniqlab, ularni zamonaviy harbiy rahbar shaxsida shakllantirish mexanizmlarini o‘rganishdir[91]. Shuningdek, tadqiqot orqali Bobur davridagi harbiy boshqaruvdagi inson omiliga e’tibor, qo‘mondon va askar o‘rtasidagi ishonch, ruhiy-axloqiy birlik tamoyillari zamonaviy armiya psixologiyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi[92].

Tadqiqotning yana bir maqsadi - Boburning “Boburnoma” asarida aks etgan psixologik kuzatishlar, harbiy rahbarlik uslublari hamda shaxsiy fazilatlarini tahlil qilish orqali ularni hozirgi davr harbiy rahbarlariga tatbiq etish yo‘llarini ishlab chiqishdir[93]. Mazkur izlanishning yakuniy maqsadi — tarixiy meros asosida harbiy boshqaruv psixologiyasining milliy modelini yaratish, harbiy xizmatchilarda stressga bardoshlilik, yetakchilik va jamoaviy mas’uliyatni shakllantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdir[94].

Mazkur tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi:

- Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy boshqaruv faoliyatini tarixiy-psixologik tahlil qilish, uning yetakchilik fazilatlari, inson ruhiyatini boshqarishdagi o‘ziga xos yondashuvlarini ilmiy asosda o‘rganish[95];
- Boburning “Boburnoma” asarida ifodalangan psixologik kuzatishlar va boshqaruv tamoyillarini tahlil qilish, ularni zamonaviy harbiy psixologiya nazariyalari bilan qiyosiy o‘rganish[96];
- Harbiy rahbarlikda inson omilining ahamiyatini aniqlash, xususan, rahbarning emotsional intellekti, stressga bardoshliligi va motivatsion yetakchilik xususiyatlarini baholash[97];
- Bobur rahbarligidagi jamoaviy birdamlik, intizom va sadoqat tamoyillarining psixologik asoslarini ochib berish, ularning zamonaviy harbiy jamoalarda qo‘llanish imkoniyatlarini o‘rganish[98];

---

[90] G‘ofurov R., Jo‘raev J. *Harbiy psixologiya asoslari.* – Toshkent: Akademiya, 2021.
[91] Goleman D. *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ.* – New York: Bantam Books, 2005.
[92] *Boburnoma.* Zahiriddin Muhammad Bobur. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2018.
[93] Sultonov O. *Harbiy rahbarlik psixologiyasi va liderlik kompetensiyalari.* – Toshkent: Harbiy ishlar ilmiy markazi, 2022.
[94] *Xudoyberdiyev M.* Zamonaviy armiya va psixologik barqarorlik omillari. – *Toshkent: MXX Akademiyasi nashriyoti, 2020.*
[95] *G‘ofurov R., Jo‘raev J.* Harbiy psixologiya asoslari. – *Toshkent: Akademiya, 2021.*
[96] *Bobur Z.M.* Boburnoma. – *Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2018.*
[97] *Goleman D.* Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – *New York: Bantam Books, 2005.*
[98] Sultonov O. *Harbiy rahbarlik psixologiyasi va liderlik kompetensiyalari.* – Toshkent: Harbiy ishlar ilmiy markazi, 2022.

- Harbiy xizmatchilar psixologik tayyorgarligini oshirishga oid ilmiy takliflar ishlab chiqish, bu jarayonda Bobur tajribasidan pedagogik-psixologik model sifatida foydalanish[99];
- Zamonaviy harbiy ta’lim tizimiga Bobur merosidagi psixologik yondashuvlarni tatbiq etish orqali rahbarlarning ijtimoiy-psixologik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlarini asoslash[100];
- O‘zbekiston Qurolli Kuchlarida harbiy rahbarlar uchun milliy psixologik model ishlab chiqish, bunda tarixiy meros va zamonaviy ilmiy yondashuvlar integratsiyasiga asoslanish[101].

Ushbu vazifalar orqali Bobur shaxsining harbiy-psixologik qarashlari nafaqat tarixiy jihatdan, balki hozirgi harbiy boshqaruvda amaliy psixologik ko‘nikma va liderlik kompetensiyalarini shakllantirish uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy boshqaruv tajribasi psixologik omillar nuqtayi nazaridan birinchi marta tizimli va kompleks tarzda tahlil qilinmoqdi[102]. Avvalgi tadqiqotlarda Bobur asosan davlat arbobi, shoir yoki sarkarda sifatida o‘rganilgan bo‘lsa, ushbu ishda uning rahbarlik faoliyatining psixologik mexanizmlari, hissiy barqarorlik, motivatsiya va liderlik ko‘nikmalari ilmiy jihatdan asoslanmoqda[103].

Tadqiqotda quyidagi ilmiy yangiliklar aniqlanadi:

- Boburning harbiy boshqaruv tizimidagi psixologik yondashuvlari ilk bor zamonaviy harbiy psixologiya, emotsional intellekt va strategik liderlik nazariyalari bilan bog‘liq holda talqin qilindi[104].
- **“**Bobur rahbarlik modeli” tushunchasi kiritilib, unda harbiy yetakchining emotsional barqarorligi, irodaviy kuchi, jamoaviy birdamlikni shakllantirish qobiliyati hamda stress holatlarida qaror qabul qilish xususiyatlari aniqlab berildi[105].
- Tadqiqot natijasida harbiy rahbar shaxsining psixologik kompetensiyasini shakllantirishning milliy modeli ishlab chiqildi. Ushbu model Boburning tarixiy tajribasini zamonaviy psixologik nazariyalar - D. Goleman, K. Levin va R. Ketz de Vrieslarning yetakchilik konsepsiyalari bilan uyg‘unlashtiradi[106].
- Harbiy boshqaruvda inson omilining ustuvorligi Bobur faoliyati misolida isbotlandi. Uning rahbarlikda shaxsiy namuna, ruhiy qo‘llab-quvvatlash, adolat va

[99] Xudoyberdiyev M. *Zamonaviy armiya va psixologik barqarorlik omillari.* – Toshkent: MXX Akademiyasi nashriyoti, 2020.
[100] Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
[101] Nuriddinov B. *Harbiy ta’lim tizimida yetakchilik psixologiyasi.* – Toshkent: Harbiy akademiya nashriyoti, 2023.
[102] G‘ofurov R., Jo‘raev J. *Harbiy psixologiya asoslari.* – Toshkent: Akademiya, 2021.
[103] Bobur Z.M. *Boburnoma.* – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2018.
[104] Goleman D. *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ.* – New York: Bantam Books, 2005.
[105] Sultonov O. *Harbiy rahbarlik psixologiyasi va liderlik kompetensiyalari.* – Toshkent: Harbiy ishlar ilmiy markazi, 2022.
[106] Ketz de Vries, M. *Leadership Mystique: Leading Behavior in the Human Enterprise.* – London: Routledge, 2006.

ishonch tamoyillariga tayanishi bugungi rahbarlik madaniyatiga mos ilmiy asos sifatida qayta talqin qilindi[107].

- Ilk bor Boburning “Boburnoma” asaridagi psixologik kuzatishlar zamonaviy harbiy psixologiya metodologiyasi asosida tahlil qilinib, ular harbiy xizmatchilarning ruhiy tayyorgarligini oshirish uchun amaliy tavsiyalar bilan boyitildi[108].
- Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining hozirgi psixologik tayyorgarlik tizimi bilan Bobur davridagi boshqaruv tamoyillari qiyosiy o‘rganilib, ularning o‘zaro uyg‘unlashgan jihatlari aniqlab chiqildi[109].

Shunday qilib, mazkur ish tarixiy tajribani zamonaviy psixologik yondashuvlar bilan integratsiyalash orqali yangi ilmiy konsepsiyani taklif etadi. Bu konsepsiya harbiy ta’lim, rahbarlik tayyorgarligi va psixologik barqarorlikni rivojlantirishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bobur o‘z qo‘shinida ruhiy muhitni sog‘lom saqlash, askarlarda fidoyilik, sadoqat va vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytirish uchun psixologik motivatsiya va shaxsiy na’muna usullarini qo‘llagan. U rahbarning kuchi nafaqat harbiy bilimda, balki inson qalbini tushunish va to‘g‘ri yo‘naltirish qobiliyatida ekanini chuqur anglagan.

Zamonaviy harbiy ta’lim va boshqaruv tizimi uchun bu meros beqiyos ahamiyatga ega. Bugungi kunda global tahdidlar, informatsion bosim va stressli sharoitlarda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar uchun psixologik barqarorlik, hissiy intellekt va jamoaviy ruh strategik omilga aylanmoqda. Bobur tajribasi aynan shu jihatdan milliy harbiy psixologiya modelini boyituvchi tarixiy manba bo‘lib xizmat qiladi[110].

Tadqiqot davomida shuningdek quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelindi:

- Bobur faoliyatida rahbar shaxsining psixologik omillari — iroda, sabr, adolat, hissiy boshqaruv va motivatsiya -zamonaviy liderlik kompetensiyalarining tarixiy ildizidir.
- “Bobur rahbarlik modeli” konsepsiyasi hozirgi harbiy ta’limda yetakchilik, stressni boshqarish va ijobiy psixologik muhit yaratish jarayonlarini takomillashtirishda samarali qo‘llanishi mumkin.
- Boburning harbiy boshqaruvidagi psixologik yondashuvlar asosida O‘zbekiston Qurolli Kuchlari uchun milliy harbiy rahbarlik modeli ishlab chiqish imkoniyati mavjud.

Tadqiqot natijalari yosh harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik, mas’uliyat va jamoaviy birdamlik tuyg‘ularini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunday qilib,

[107] Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
[108] Nuriddinov B. *Harbiy ta’lim tizimida yetakchilik psixologiyasi.* – Toshkent: Harbiy akademiya nashriyoti, 2023.
[109] Xudoyberdiyev M. *Zamonaviy armiya va psixologik barqarorlik omillari.* – Toshkent: MXX Akademiyasi nashriyoti, 2020.
[110] Bobur Z.M. *Boburnoma.* – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2018.

Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy boshqaruvdagi psixologik qarashlari bu nafaqat o‘tgan asrlarning tarixiy tajribasi, balki bugungi zamonaviy harbiy psixologiyaning ilmiy-metodik asosini boyituvchi konsepsiyadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. *Boburnoma.* — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2017.

2. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi fondi. *Bobur merosi va uning harbiy-boshqaruv faoliyati to‘g‘risidagi manbalar to‘plami.* — Toshkent, 2020.

3. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. *Harbiy psixologiya asoslari: O‘quv qo‘llanma.* — Toshkent: Akademnashr, 2021.

4. Yo‘ldoshev, Sh. *Harbiy rahbarning psixologik tayyorgarligini shakllantirish asoslari.* — Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019.

5. Qodirov, B. *Harbiy boshqaruvda inson omilining o‘rni.* // “Jamoat xavfsizligi va psixologiya” ilmiy jurnali. — 2022. — №3. — B. 45–53.

6. Jo‘rayev, J. *Harbiy xizmatchilarning stress holatida qaror qabul qilish mexanizmlari.* — Toshkent: IIV Akademiyasi nashriyoti, 2023.

7. Abdurahmonov, A. *Liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishda milliy tarixiy tajribalar.* — Toshkent: Fan va taraqqiyot, 2020.

8. Nurmatova, D. *Boburning davlat boshqaruvidagi insonparvarlik tamoyillari.* // “Milliy meros va zamonaviylik” to‘plami. — Toshkent, 2021.

9. G. *Leadership: Theory and Practice.* — 8th edition. — Sage Publications, 2019.

BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING AQLIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRIISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

N.Jumanova
JDPU, Psixologiya kafedrasi katta o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantiriishning psixologik jihatlari to’g’risida ma’lumotlar keltirilgan

Kalit so’zlar: qobiliyat, sezgilar, diqqat, intellekt, tafakkur.

O’qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o’quvchining aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolish va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. SHu yoshdagi bola idrokining o’tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi o’zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi.

Kichik maktab davrida o’qish faoliyati bilan shug’ullanish, jumladan, moddiy narsalarning har xil xossalari bilan tanishish sezgilarning o’sishiga katta ta’sir ko’rsatadi. Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarda asosan farq qila olish, ko’rish va eshitish sezgilari ayniqsa tez o’sadi. Kichik maktab o’quvchilarini rasm chizishga o’rgatish ranglarni farqlash sezgirligining o’sishiga katta ta’sir ko’rsatadi. Ohanglarni farq qilish sezgirligi, ayniqsa bolalarga musiqa va ashula o’rgatish jarayonida kuchli suratda o’sadi. Sezgilarning o’sishida shuningdek, jismoniy tarbiya mashg’ulotlarining ham ahamiyati katta. Aniq harakat qilishga jalb etuvchi mashqlar bolalarning muskul-harakat sezgilarini o’stiradi.

Kichik maktab davriga kelib idrokning hamma turlari asosan ta’lim- tarbiya tufayli mazmun, aniqlik, ravshanlik jihatdan ko’p darajada takomillashadi. Mazkur yoshdagi bolalar o’z idroklarining aniqligi, ravonligi, o’tkirligi bilan boshqa Yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, o’ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o’zlashtirish imkoniyatiga ega bo’ladilar.

Birinchi sinfga kelgan bola predmetlarning rangi, shakli va kattaligini, ularni maqonda joylashishini bilish bilan, birga ularni taqqoslay oladi. Maktabda muvaffaqiyatli o’qish uchun bola sensor rivojlanganlik darajasining yuqori bo’lishi juda muhim hisoblanadi. Maktab Yoshiga kelib, normal rivojlanayotgan bolalar rasm va suratlar real hayotni aks ettirayotganligini yaxshi tushunadilar. SHuning uchun ham surat va rasmlarda nimalar aks etganini real hayotga

taqqoslagan holda bilishga harakat qiladilar. Bola rasmlarda atrof-hayotdagi narsalarni kichiklashtirib tasvirlanganligini anglay biladi. Bu tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlantiradi. CHunki, bola shu rasmlar orqali olam go’zalligini, uning turfa ranglardan iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va o’z munosabatini bildira oladi. Ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarda ixtiyoriy idrok va kuzata olish qobiliyati o’sadi. Kuzata bilish muvafaqqiyatli o’qish uchun zarur shartlardan biridir. O’quvchilarda kuzata bilish qobiliyati ularning tafakkuri, irodasi, qiziqish, havaslari bilan birgalikda o’sib boradi. Bu Yoshdagi o’quvchilar o’z idroklarini mustaqil idora eta oladilar. Boshlang’ich sinf o’quvchilari katta yoshdagi odamlardan deyarli qolishmasdan to’g’ri chiziqni ko’z bilan chamalab teng ikki bo’lakka bo’la oladilar, narsa va chiziqlarni katta-kichikligiga qarab taqqoslay oladilar, narsalarning fazoda turgan o’rnini, ularning qaysi biri yaqinroq yoki uzoqroq, qaysi biri balandroq yoki pastroq joylashganini ko’z bilan chamalab, shu masofani bosib o’tish uchun talab qilinadigan vaqtni ham taxminan hisoblay oladilar.

Maktab ta’limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo’ladi. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida diqqatni irodaviy zo’r berish bilan boshqarish va vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bo’lmaydi. Buning asosiy sababi, ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Bolalarda ixtiyorsiz diqqat ko’proq rivojlangan bo’ladi. Boshlang’ich sinf o’quv materiallarining yaqqolligi, yorqinligi, jozibadorligi, o’quvchida beixtiyor his-tuyg’ularni uyg’otadi va kuchli irodaviy zo’riqishsiz fan asoslarini egallash imkonini beradi. 1-2 sinf o’quvchilari diqqatining o’ziga xos xususiyatlaridan biri - uning etarlicha barqaror emasligidir. SHuning uchun ham ular o’z diqqatlarini uzoq muddat muayyan narsalarga qarata olmaydilar va diqqat ob’ektlari ustida uzoq tura olmaydilar.Ta’lim jarayoni kichik maktab Yoshidagi o’quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish jarayonida mustaqil aqliy mehnat qilish, misol-masalalar yechish, mashqlar bajarish, takrorlash irodaviy zo’r berish jarayonida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi. Bu Yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatni to’plash, tashkil qilish, uni taqsimlash, ongli ravishda boshqarish uquvi shakllana boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Psixologik maslahat R. Abdurasulov va G Qarshiboeva O’quv qo’llanma Bayoz-Toshkent 2022 yil
2. Karimova V. M. «Psixologiya» T.Sharq 2002y.
3.G‘oziyev E. G‘. «Umumiy psixologiya» 1-2 tom. Toshkent-2002y.

HARBIY PSIXOLOGIK XIZMAT TIZIMIDA YOSH HARBIY XIZMATCHI OFITSERLARDA MULOQOT MADANIYATINI SAMARALI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Matyakubov Elyor Rajapovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi, podpolkovnik

Annotatsiya. Maqolada yosh harbiy xizmatchi ofitserlarda muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonida harbiy psixologik xizmatning tutgan o‘rni, kommunikativ kompetensiyani oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy mexanizmlar, trening texnologiyalari, mentorlik tizimi, situatsion modellashtirish, raqamli vositalardan foydalanishning afzalliklari keng tahlil etilgan. Muloqot madaniyati harbiy jamoa samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy psixologik omil sifatida izohlangan.

Kalit so‘zlar: Harbiy psixologiya, muloqot madaniyati, yosh ofitserlar, kommunikativ kompetensiya, psixologik trening, situatsion modellashtirish, mentorlik tizimi, stress ostida muloqot, nizoli vaziyatlarni boshqarish, harbiy jamoa psixologiyasi.

Harbiy sohada boshqaruv jarayoni murakkab, ko‘p bosqichli va yuqori mas’uliyat talab etadigan faoliyatdir. Bunday sharoitda yosh ofitserlarning kasbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda, ularda muloqot madaniyatining shakllangan bo‘lishi zarur hisoblanadi. Chunki bo‘linmalarni boshqaruvi jarayonida buyruqlarni aniq yetkazish, jamoa bilan o‘zaro hurmatga asoslangan muomalani shakllantirish, stressli vaziyatlarda o‘zini boshqarish, nizolarni konstrukiv hal eta bilish strategik ahamiyatga ega[1].

Yosh harbiy xizmatchi ofitserlar o‘z faoliyatini boshlagan davrdanoq ko‘plab psixologik sinovlarga duch keladi. Ularning aksariyati nazariy bilimga ega bo‘lsa-da, amaliy faoliyatda talab etiladigan kommunikativ kompetensiyaning yetishmasligi sababli ko‘p hollarda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Masalan:

- bo‘ysunuvchilar bilan munosabatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olmaslik;
- buyruqlarni yetkazishda ortiqcha keskinlik;
- nizoli holatlarni yumshata olmaslik;
- stress ostida noto‘g‘ri kommunikatsiya qilish.

Bunday vaziyatda harbiy psixologik xizmat yosh ofitserlarning muloqot madaniyatini shakllantirishda asosiy tizimli institutsional tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Psixologiya fanida muloqot – bu o‘zaro axborot almashinuvi bilan birga, o‘zaro ta’sir, shaxslarning o‘zaro idrok etishi va emotsional aloqani o‘z ichiga oluvchi murakkab jarayon sifatida qaraladi. Uning tarkibiy qismlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi[2]:

- kommunikativ (axborot almashinuvi) jarayon**;**
- interaktiv (o‘zaro ta’sir) jarayon**;**
- perseptiv (shaxsni idrok qilish) komponentlaridan iborat jarayonlar.

Harbiy jamoa sharoitida ushbu komponentlarning har biri alohida funksional yuklamaga ega bo‘ladi. Muloqot madaniyati quyidagi tarkibiy unsurlardan tashkil topadi:

- nutq madaniyati;
- ijtimoiy-etika me’yorlari;
- psixologik kompetensiyalar;
- emotsional intellekt;
- konfliktologik savodxonlik;
- raqamli muloqot etikasi.

Harbiy xizmatda bu komponentlar keskin, tezkor, intizomiy xususiyatlar bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi.

Harbiy jamoada muloqot qat’iy lavozimiy bo‘ysunuv asosida quriladi. Har bir harbiy xizmatchi o‘z roli va mas’uliyatini aniq bilishi, muloqotda haddan oshmaslik, buyruqlarni bajarish tartibiga rioya etishi talab qilinadi[3].

Harbiy muhitning doimiy tayyorgarlik talablari emotsional zo‘riqishni kuchaytiradi. Bunday holat ko‘pincha yosh ofitserlarda stress ostida muloqotning sifati pasayib, agressivlik, bexotirlik, noto‘g‘ri talqinlar kuchayishiga olib keladi.

Bo‘linmalarda ko‘p hollarda qarorlar qisqa fursatda qabul qilinadi. Bunday holatlarda yosh ofitserlar muloqoti qisqa, lo‘nda va aniq bo‘lishi talab etiladi. Bu esa o‘zaro bo‘ysunuvchi rahbar o‘rtasidagi muloqot madaniyatining yuqori darajada bo‘lishini talab etadi[4].

Yosh ofitserlarning xizmatga moslashuvi – bu xizmatning birinchi kunidan 3 yilgacha bo‘lgan muddat davomidagi psixologik jarayon bo‘lib, unda:

- yangi jamoaga kirish;
- rahbar-ijrochi munosabatlarining shakllanishi;
- jamoaviy me’yorlarni o‘zlashtirish sodir bo‘ladi.

Bu davrda muloqotning noto‘g‘ri qurilishi ofitserning obro‘siga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Bugungi kunda yoshlar ko‘proq onlayn kommunikatsiyaga tizmidan foydalanganligi bois uklar ko‘proq kommunikatsiyaga tayanadi. Shuning uchun ularda og‘zaki nutq, notiqlik, hissiy nazoratda muammolar kuzatilishi tabiiy holat. Harbiy xizmatda esa aksincha, yosh ofitserlardan (rahbarlardan) real muloqot

madaniyatini talab qiladi. Yosh ofitserlarning temperamentiga qarab xizmatning boshlanish davrida ularning muloqotini quyidagicha ta’kidlash mumkin. Ya’ni xolerik tipiga mansub ofitserlarda tezkorlik va shoshma shosharlik, flegmatiklarda passivlik, sangviniklarda faol muloqot, melanxoliklarda esa tortinchoqlik kuzatiladi. Psixologlar bu xususiyatlarni hisobga olishi va ular bilan jamoaga tezda kirishib ketishlari muloqot madaniyati samaradorligini oshirishi uchun ularga mos trening dasturlarini tuzadi[5].

Psixologlar tomonidan tuziladigan treninglar quyidagi modullardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiq:

- Faol tinglash va aniq fikr ifodalash;
- Stress ostida muloqot;
- Nizoli vaziyatlar psixologiyasi;
- Liderlik va jamoani ruhlantirish;
- Og‘zaki va noverbal muloqot madaniyati;

Treninglar amaliy mashqlar, rolli o‘yinlar, simulyatsiya va muhokama metodlariga asoslanadi.

Situatsion modellashtirish (harbiy keyslar asosida) quyidagi holatlarda modellashtiriladi:

- buyruqni noto‘g‘ri tushungan askar bilan suhbat;
- nizoli ikki guruh o‘rtasidagi vaziyatni yumshatish;
- favqulodda vaziyatda jamoaga buyruq berish;
- yuqori rahbariyat bilan rasmiy muloqot olib borish.

Modellashtirish amaliy malakani mustahkamlaydi va muloqotdagi stressni kamaytiradi. Mentorlik tizimining afzalliklari quyidagilardan iborat:

- real xizmat tajribasini yetkazadi;
- yosh ofitserlarning xatolarini ko‘rsatib boradi;
- kommunikatsion xulqini nazorat qiladi;
- shaxsiy rivojlanish rejasini ishlab chiqishda ko‘mak beradi.

Bu tizim 3–6 oy davomida hamda kelgusida davomli ravishda bo‘lishi maqsadga muvofiq[6].

Yosh ofitserlarni muloqot madaniyatini samarali shakllantirish maqsadida zamonaviy vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Jumladan:

- VR simulyatorlar orqali muloqot amaliyotlari;
- onlayn testlar va psixologik diagnostika platformalari;
- mobil ilovalar orqali emotsional nazorat;
- interaktiv videodarslar.

Bu vositalar ofitserlarning o‘z-o‘zini baholashini va mustaqil o‘rganishini tezlashtiradi.

Yosh ofitserlar bilan muloqotni samarali shakllantirishda profilaktik faoliyat quyidagilarni qamrab oladi:

- emotsional charchoqni kamaytirish texnikalari;
- psixologik gigiyena ko‘nikmalari;
- sog‘lom jamoaviy muhitni shakllantirish;
- individual suhbatlar va konsultatsiyalar.

Harbiy psixologlar tomonidan yosh harbiy xizmatchi ofitserlarda samarali muloqotni shakllantirish maqsadida ular bilan quyidagi diagnostik va korreksion amaliyotlardan foydalanishi maqsadga muvofiq:

-MMPI, Kattell, Emotsional intellekt testlari;
- kommunikativ qobiliyatlarni baholash testlari;
- stress-indeks testlari;
- shaxslararo muloqot texnikalarini baholash metodikalari[7].

Ushbu testlar yordamida yosh ofitserlarda aniqlangan muammolarga ko‘ra individual dasturlar tuziladi. Jumladan:

-agressiyani boshqarish dasturi;
stressni kamaytirish dasturi;
nutq madaniyatini rivojlantirish dasturi;
o‘ziga ishonchni oshirish dasturi.

Harbiy psixolog tomonidan yuqorida talablar bo‘yicha ketma ket ishlar amalga oshirilsa yosh ofitserning harbiy jamoasida psixologik barqarorlik ta’minlanadi hamda nizolarni oldi olinadi. Muntazam harbiy jamoada monitoring o‘tkazadi.

Yuqorida talablar bo‘yicha bajarilgan ishlar ketma ketligi natijasida harbiy jamoaning sog‘lom psixologik muhitiga olib keladi hamda natijada,

- harbiy jamoa yosh ofitserlarni muloqotini va xizmat faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi;
- yosh ofitserning jamoaga moslashishini tezlashtiradi;
- uning kommunikativ xatolarini kamaytiradi;
- yosh ofitserda yetakchilik xususiyatlarini rivojlantiradi.

Komandirning shaxsiy namuna ko‘rsatishi bu jarayonda eng muhim omil hisoblanadi. Yosh ofitserlarning muloqot madaniyatini baholash mezonlari va indikatorlari quyidagicha:

- bo‘ysunuvchi shaxsiy tarkibga nutqning aniq yetkazilishi, lo‘ndaligi va mazmuni bilan;
- harbiy xizmatchilarning faol tinglash darajasi bilan;
- yosh harbiy xizmatchi ofitserning stress ostida o‘zini tutishi bilan;
- bo‘ysunuvchilarga nisbatan mashg‘ulot va muloqot jarayonida turli xil pedagogik yondashuvlardan foydalanishi bilan;

- jamoadagi konfliktlarni boshqarish mahorati bilan;
- noverbal muloqotga rioya qilishi bilan;
- buyruqlarni yetkazish sifati bilan
- harbiy jamaoda bo‘linmaning jamoaviy sog‘lom ruhini yaratish qobiliyati bilan o‘lchanadi.

Xulosa o‘rnida, yosh harbiy xizmatchi ofitserlarda muloqot madaniyatini shakllantirish - bu harbiy boshqaruv tizimi samaradorligini oshiruvchi strategik jarayon bo‘lib, u harbiy psixologik xizmat faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Zamonaviy treninglar, situatsion modellashtirish, mentorlik tizimi, raqamli texnologiyalar va psixoprofilaktik yondashuvlar yosh ofitserlarning kommunikativ salohiyatini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Natijada: bo‘ysunuvchilar bilan ishonchli muhit yaratiladi;
buyruqlar aniq va maqsadli yetkaziladi;
nizolar o‘z vaqtida yumshatiladi;
jamoa o‘rtasida barqaror psixologik muhit shakllanadi;
harbiy boshqaruv samaradorligi ortadi.

Demak, muloqot madaniyatini shakllantirish bo‘yicha tizimli, ilmiy asoslangan va uzoq muddatli yondashuvni kuchaytirish harbiy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayev Z. Harbiy psixologiya asoslari. Darslik. T.: Akademnashr, 2020.
2. Xalilova M. Shaxslararo muloqot psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma – T.: 2022.
3. Hasanov R. Harbiy boshqaruvda kommunikativ kompetensiya. darslik – T.: 2021.
4. Karimov A., Muloqot madaniyati va ijtimoiy psixologiya. Darslik – T.: 2019.
5. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy nizomlari. – Toshkent, 2025.
6. Goleman D. Emotsional intellekt. – Moskva, 2018.
7. Robbins S. Organizational Behavior. – New York, 2019.

KURSANTLARNING PSIXOLOGIK ADAPTATSIYASI VA IJTIMOIY FAOLLIK RIVOJLANISHINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Raximova Indira Igorevna
O‘zJOKUning “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti, psixol. f.b.f.d., PhD
E-mail: indira.rahimova.1987@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu tezisda kursantlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish jarayonida adaptatsiya mexanizmlarining psixologik, sotsiologik va pedagogik xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, ijtimoiy muhitga moslashuv jarayonining samarali tashkil etilishi shaxs faolligi, kasbiy o‘sish va ijtimoiy kompetentlikning oshishida tutgan o‘rni ilmiy manbalar asosida tahlil etiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida kursantlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni professional shaxs sifatida shakllantirish va jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bunda adaptatsiya jarayoni — yangi ijtimoiy, akademik, kasbiy talablar bilan moslashish — shaxsning ijtimoiy faollik darajasini belgilovchi bazaviy omillardan biri sanaladi. Shaxsning muhitga moslashish jarayoni ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan turli aspektlarda o‘rganilgan (L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev, R. Merton, N.V. Kuzmina, A. Bandura va boshqalar).

Psixologiyada adaptatsiya shaxsning tashqi talablar va ichki ehtiyojlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlash qobiliyati sifatida izohlanadi. A.N.Leontyev adaptatsiyani shaxsning faoliyatni o‘zlashtirish jarayoni bilan bog‘liq holda ko‘rib, uni motivlar, ehtiyojlar va maqsadlar tizimi orqali shakllanishini ta’kidlaydi. L.S.Vygotskiy fikriga ko‘ra, moslashuv jarayoni shaxsning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishi, yangi normalar va qadriyatlarni qabul qilishi asosida kechadi.

Bandura tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-kognitiv nazariya adaptatsiya jarayonida o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘ziga ishonch va faol ijtimoiy o‘rganish mexanizmlarining ahamiyatini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, shaxs ijtimoiy faol bo‘lishi uchun mos muhit, qo‘llab-quvvatlovchi sharoit va o‘z xatti-harakatlari ustidan refleksiyani shakllantirishi kerak.

Sotsiolog R. Merton “rolga moslashuv” tushunchasini kiritib, shaxsning jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun mavjud ijtimoiy rollarni ongli tarzda qabul qilishi va ularni bajarish mexanizmlarini o‘zlashtirishi muhimligini qayd etadi.

Kursantlarning ta’lim muassasasiga kirishi ularning hayotida muhim ijtimoiy-psixologik bosqich bo‘lib, bu davr bir vaqtning o‘zida bir nechta o‘zgarishlar bilan to‘qnash kelishi bilan tavsiflanadi. Adaptatsiya jarayoni nafaqat shaxsning yangi sharoitga moslashuv darajasini, balki kelajak kasbiy rivojlanishining poydevorini

ham belgilaydi [3]. Psixologiya fanida adaptatsiya shaxsning tashqi muhit talablariga mos ravishda o‘z faoliyati, xulq-atvori va emotsional holatini qayta tashkil qilishi sifatida izohlanadi (K. Levin, 1947). Kursantlar misolida ushbu jarayon yanada murakkabroq kechadi, chunki ular bir vaqtning o‘zida ijtimoiy, akademik va kasbiy omillarga moslashishga majbur bo‘ladilar.

Kursant ta’lim muassasasiga qadam qo‘ygan paytdan boshlab yangi jamoa, yangi ijtimoiy rollar, tartib-intizom va talablarga moslashishi lozim bo‘ladi. A. Maslowning ijtimoiy ehtiyojlar nazariyasiga ko‘ra, insonning o‘zini jamoaning bir qismi sifatida his qilishi uning psixologik barqarorligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun kursantning yangi guruhga qanchalik tez integratsiyalashuvi uning adaptatsiya jarayonining muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Ijtimoiy moslashuvda peer support — ya’ni tengdoshlar tomonidan ko‘rsatiladigan emotsional va axboriy yordam muhim o‘rin tutadi. R. Konnor va J. Davidson (2003)ning rezilientlik modeli shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash shaxsning stressga bardoshliligini kuchaytiradi va o‘zini xavfsiz his qilishiga yordam beradi. Ta’lim muassasasida mazkur qo‘llab-quvvatlashning mavjudligi kursantlarning o‘zaro hamjihatlikda ishlashini, jamoa ichida ijobiy psixologik muhit shakllanishini ta’minlaydi.

Kursantlar duch keladigan ikkinchi muhim bosqich — akademik moslashuv. Ta’lim jarayonining murakkabligi, nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning uyg‘unligi, intizomiy talablarning yuqoriligi stress, tashvish va o‘z kuchiga bo‘lgan shubha kabi psixologik holatlarni yuzaga chiqarishi mumkin [4].

N.V.Kuzmina ta’kidlaganidek, akademik adaptatsiya kasbiy kompetensiyalar shakllanishining asosiy shartidir. Shaxs o‘quv jarayonining mazmuni va talablari bilan uyg‘unlashgan sari uning maqsadga yo‘naltirilganligi, o‘z faoliyatiga mas’uliyatli munosabati kuchayadi. Akademik talablarning yuqoriligi kursantlarda bilimlarni chuqur egallash, mustaqil fikrlash va murakkab vaziyatlarda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi [1].

J.Brunerning kognitiv rivojlanish nazariyasi ham ushbu jarayonni tasdiqlaydi: yangi bilimlarni faol ravishda anglab olish shaxsning intellektual moslashuvchanligini oshiradi va mustaqil o‘rganish motivatsiyasini kuchaytiradi.

Adaptatsiyaning eng muhim tarkibiy qismidan biri kursantning tanlagan kasbiga nisbatan o‘zini identifikatsiya qila boshlashidir. E. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, yoshlik davri “identifikatsiya — rol chalkashuvi” bosqichi bilan tavsiflanadi. Agar shaxs kasbiy rolini to‘g‘ri aniqlasa, unda o‘ziga ishonch, barqaror kelajak tasavvuri va ijtimoiy faollik shakllanadi.

Kursantlar adaptatsiyasi masalasi nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, balki kelajakdagi kasbiy shakllanishni ta’minlash nuqtayi nazaridan ham hal

qiluvchi ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, harbiylashtirilgan yoki maxsus rejimli ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan yoshlarning psixologik moslashuvi ko‘p omilli va murakkab jarayon bo‘lib, unda ijtimoiy, emotsional, akademik va kasbiy komponentlar o‘zaro uzviy bog‘langan holda namoyon bo‘ladi [2].

Ijtimoiy moslashuvning muvaffaqiyatliligi kursantning yangi muhitga tezda integratsiyalashuvi, guruh ichida ijobiy ijtimoiy aloqalarni shakllantira olishi, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash tizimidan samarali foydalana bilishi bilan belgilanadi. Zamonaviy psixologiya vakillaridan T. Parsons va J. Homansning ijtimoiy almashinuv nazariyalariga ko‘ra, jamoaviy qo‘llab-quvvatlash va sog‘lom kommunikativ muhit shaxsning ijtimoiy faolligini sezilarli darajada oshiradi. Kursantlar o‘rtasidagi ijtimoiy integratsiya darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, ularda stressga bardoshlilik, o‘z-o‘zini boshqarish va motivatsiya darajasi ham shunchalik mustahkam bo‘ladi.

Akademik adaptatsiya esa o‘quv dasturining murakkabligi, nazariy-amaliy komponentlarning uyg‘unligi va intellektual yuklamaning ortishi sharoitida shakllanadi. N.V. Kuzmina, A.A. Rean, P.Ya. Galperinlarning ishlari shuni ko‘rsatadiki, akademik adaptatsiyaning muvaffaqiyatli kechishi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning eng muhim sharti hisoblanadi [1]. Shuningdek, o‘quv jarayonini psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash, differensial yondashuv, o‘qituvchi–kursant o‘rtasidagi konstruktiv muloqot akademik barqarorlikni ta’minlovchi asosiy omillardir.

Kasbiy identifikatsiya jarayoni kursantning o‘zini kelajak kasbining to‘laqonli subyekti sifatida anglashini bildiradi. E. Eriksonning psixoijtimoiy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, yoshlarning kasbiy “Men-kontsepsiyasi” shakllanishi ularning ijtimoiy faolligi, mas’uliyat hissi, qaror qabul qilish qobiliyati va o‘z hayotiy yo‘liga sodiqligini belgilaydi. Kursantlarda kasbiy identifikatsiyaning muvaffaqiyatli kechishi ularning kasbga bo‘lgan ijobiy munosabati, motivatsion tayyorgarligi va o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishga bo‘lgan intilishlarini kuchaytiradi.

Shu boisdan kursantlar adaptatsiyasini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan integrativ yondashuv — psixologik xizmat faoliyati, murabbiylik institutini kuchaytirish, jamoaviy treninglar, emotsional-irodaviy sifatlarni rivojlantiruvchi texnologiyalarni qo‘llash — ta’lim muassasalarida ijtimoiy faollikni rivojlantirishning muhim omili sifatida qaraladi. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, moslashuv jarayonining barqaror kechishi kursantlarning o‘quv faolligini, ijtimoiy tashabbuskorligini, kommunikativ madaniyatini va kasbiy yo‘naltirilganligini sezilarli darajada oshiradi.

Umuman olganda, kursantlar adaptatsiyasining psixologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish ta’lim muassasalarida samarali pedagogik strategiyalarni belgilash, kursantlarning psixologik farovonligini ta’minlash va ularning ijtimoiy

faolligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi kompleks mexanizmlarni yaratish imkonini beradi. Bu esa nafaqat individual rivojlanish, balki jamiyatning barqaror ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyoti uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Кузьмина Н. В. Профессионализм деятельности преподавателя и мастера производственного обучения. — Москва: Педагогика, 1990. — 144 с.
2. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. — Санкт-Петербург: Питер, 2002. — 720 с.
3. Петровский А. В., Ярошевский М. Г. Психология. — Москва: Академия, 2001. — 512 с.
4. Анцыферова Л. И. Психическая адаптация личности: динамика, механизмы, условия. // Психологический журнал. — 1994. — Т. 15, № 3. — С. 3–18.
5. Рахимова И.И., Юлдашева Н.Ш. РОЛЬ МОЛОДЁЖИ В БОРЬБЕ ПРОТИВ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА //BEING A MUSIC FAN: FANDOM EFFECTS ON THE PSYCHOLOGICAL WELL-BEING OF ITS PARTICIPANTS. 12. – 2021. – С. 237.

KURSANTLARDA PSIXOLOGIK MOSLASHISHNING REFLEKSIV XUSUSIYATLARI

Kamalova Zulfiya Xasanovna
O‘zJOKUning “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti, psixol. f.b.f.d., PhD
E-mail: z.x.kamalova@gmail.com

Jamiyatning globallashuvi va O‘zbekistondagi islohotlar sharoitida, huquqni muhofaza qilish va mudofaa tuzilmalari uchun kadrlar tayyorlash tizimiga bo‘lgan talablar keskin oshmoqda. Kursantlar – bu yangi, o‘ta mas’uliyatli, harbiy tartib-intizomga asoslangan muhitga, o‘quv jarayonidagi yuqori intellektual va jismoniy yuklamalarga, shuningdek, ekstremal vaziyatlarda tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qilish zaruratiga moslashishi kerak bo‘lgan shaxslardir. Aynan mazkur murakkab moslashish jarayonining samaradorligi, avvalambor, kursantning psixologik barqarorligi va ichki resurslari bilan belgilanadi. Ko‘pgina tadqiqotlar, an’anaviy moslashish yondashuvlari, ya’ni faqatgina tashqi nazorat va majburiy ko‘nikmalar shakllantirish, kursantning shaxsiy potensialini to‘liq ishga solishda va unda mustaqil professional sub’ektni tarbiyalashda yetarli emasligini ko‘rsatmoqda. Shu sababli, moslashishning sifatini tubdan oshiruvchi, shaxsning ichki imkoniyatlarini faollashtiruvchi, xususan, refleksiya kabi psixologik mexanizmlarning o‘rnini ilmiy-metodologik jihatdan asoslash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

D.A.Andreevaning fikricha, ijtimoiy-psixologik moslashuv insonning individual xususiyatlari va jamiyatdagi mavqei bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab hodisadir. Shaxsning jamiyatga moslashishi uchun birdamlik, shaxs va jamiyatning maqsad va vazifalarini aniqlash alohida ahamiyatga ega.

D.N.Dubrovin psixologik moslashuvni o‘rganadi, shu bilan birga "psixologik moslashuv zamonaviy hayotga ijtimoiy va shaxsiy moslashuvning birligi va o‘zaro ta’sirini anglatadi" deb hisoblaydi.

A.A. Rean ijtimoiy-psixologik moslashishni vaziyat talablariga muvofiq shaxsning faol o‘zini o‘zi o‘zgartirishi deb hisoblaydi.

Kursantlik davrida psixologik moslashuv muvaffaqiyatini ta’minlashning tan olingan samarali vositasi bu insonga atrof-muhit va shaxs o‘rtasidagi qarama-qarshilikni kuzatish, tahlil qilish va hal qilish imkonini beradigan refleksiyadir. Refleksiyaning rivojlanishi sub’ektning boshqalar va o‘zi haqidagi refleksiv g‘oyalarining yetarliligining oshishi, shaxslararo o‘zaro ta’sir vaziyatlarini tahlil qilish darajasining chuqurlashishi, tashqi va ichki nizolarni hal qilishning yangi, nostandart usullarining paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Shu munosabat bilan Kursantlarda psixologik moslashuvning ichki manbalaridan biri sifatida refleksiya va

uning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish biz uchun dolzarb va tubdan muhim bo‘lib tuyuladi.

Refleksiya - bu o‘z-o‘zini anglashga, o‘z his-tuyg‘ularini, holatlarini, qobiliyatlarini, xatti-harakatlarini tahlil qilishga qaratilgan fikrlash jarayoni.

V.S. Nurgaleev refleksiya deganda, nafaqat o‘z xatti-harakati va fikrlarini kuzatish qobiliyatini, balki uning harakatlari va fikrlarini boshqa bir kishining nuqtai nazaridan tadqiq qila olish qobiliyatini tushunishni taklif qiladi [3].

Y.Y. Rukovishnikovaning ta’kidlashicha, refleksiya tushunchasi asosan shaxsning o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan nisbatan murakkab jihatiga tegishlidir.

V.A. Metaevning fikricha, refleksiyani o‘z xatti-harakatlarini anglashga yo‘nalgan faoliyatning o‘ziga xos shakli sifatida tan olish refleksiyani faoliyatga psixologik tayyorlik sifatida o‘rganish imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, ushbu tayyorlikni aniqlovchi refleksiyaning shakllanishiga xizmat qiladi. Tayyorlik shaxsni bilim va tajribalarni qo‘llash, turli vaziyatlarda sharoitga moslashish imkoniyatini ta’minlaydi [4].

O.S.Pogrebnaya xulosalariga ko‘ra, aksariyat tadqiqotchilar refleksiyani asosan o‘z-o‘zini bilish va o‘z-o‘zini tartibga solish kabi jarayonlar bilan uzviy birlikda o‘rganadilar. Ularda o‘z-o‘zini anglashning predmet sohasini tashkil etuvchi muhit haqidagi ma’lumotlar, vaqtinchalik faoliyat sub’ekti sifatida esa o‘zi haqidagi ma’lumotlar o‘ziga xos tarzda o‘zaro uzviy bog‘langan. Boshqacha aytganda, refleksiyaning mohiyati shaxs o‘zi va faoliyatini anglab yetishidir. Shunday qilib, ijtimoiy o‘z-o‘zini nazorat qilishning shakllanganligi shaxsning o‘zi amalga oshirmoqchi bo‘lgan hamma narsani boshqalarning nuqtai nazaridan tekshirish uchun atrofdagilar ko‘zi bilan, tashqaridan qarash qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, bu holda ijtimoiy o‘z-o‘zini nazorat qilish tushunchasi refleksiya tushunchasiga yaqinlashadi [4].

Refleksiya - bu o‘z fikrlari, his-tuyg‘ulari va xatti-harakatlariga ongli ravishda e’tibor berish, qarorlar, istiqbollar va o‘z-o‘zini baholash qobiliyatidir.

Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra refleksivlik turli vaziyatlarda shaxsning xatti-harakatlarini bevosita o‘z-o‘zini nazorat qilishda, sodir bo‘layotgan voqealarni tahlil qilishda, me’yordan og‘ish holatida maqbul qaror qabul qilish qobiliyati, rejalashtirilgan harakatlar, vaziyat haqiqatini anglash, faoliyat haqida o‘ylash, o‘z harakatlarini o‘z-o‘zini tahlil qilish, axborotni yetarli idrok qilish, diqqat, xotira va boshqalar bilish jarayonlarida namoyon bo‘ladigan shaxsiy xususiyat sifatida namoyon bo‘ladi.

V.D.Gavrilov, refleksiyani shaxsning kasbiy takomillashish mexanizmi deb hisoblaydi, uning ikki asosiy jihatini aniqlaydi:

- nazorat va baholash;
- konstruktiv va ijodiy.

Ulardan birinchisi faoliyat jarayonining borishini kuzatish, maqsadlarning realligi va ularga erishish vositalarining mosligini baholash, olingan natijalarni asl maqsad bilan taqqoslashdan iborat. Xususan, nazorat va baholash mexanizmi o‘z-o‘zini kuzatish, o‘z-o‘zini baholash, maqsadlarni aniqlash, baholash va ularning boshqalar tomonidan erishilishini kuzatishdan iborat [2].

Ikkinchidan, konstruktiv-ijodiy mexanizm faoliyatini amalga oshirishning yuqori, ijodiy darajasida ishlaydi. Refleksiya ob’ekti predmetli, intellektual faoliyat, ijtimoiy munosabatlar, sherik shaxsi, refleksiya sub’ekti shaxsiyati bo‘lganda, faoliyat tuzilishi, asoslari va hayot mazmunini anglash, muloqotdagi sherigining mohiyat xususiyatlari va xulq-atvor omillari muhim nuqta sanaladi va buning asosida ong (qayta anglash) va o‘z o‘zini anglash yoki o‘zaro ta’sir va faoliyatni qayta qurish amalga oshiriladi. Shu bilan birga refleksiya harakatning mantiqiy shaklini oldindan o‘ylangan, maqsadga yo‘naltirilgan mantiqiy anglash, tabiiy ko‘rsatmalar va faoliyat asoslarini, xulq-atvor, munosabat, holatni o‘rnatishga qaratilgan maxsus faoliyatdir. Insonning o‘ziga murojaatini amalga oshiruvchi barcha harakatlar refleksiv bo‘lmaydi, faqat ularning namoyon bo‘lish xususiyatlari emas, balki insonning o‘z harakatlari asoslarini aniqlashga qaratilgan harakatlar refleksiv sanaladi [1].

Kursantlarda psixologik moslashishning samaradorligi refleksiv qobiliyatlarning rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq. Refleksiya – kursantga yangi, murakkab sharoitlarga ongli, faol va konstruktiv tarzda moslashish imkonini beruvchi muhim psixologik mexanizmdir.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kursantlar tayyorlash jarayoniga refleksiv mashqlarni, treninglarni va interfaol metodlarni (keyslarni tahlil qilish, rolli o‘yinlar) keng joriy etish (psixologik treninglar samaradorligi haqidagi ma’lumotga asoslanadi), ularning psixologik moslashish darajasini oshirishning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida, kasbiy shakllanish va psixologik sog‘lom mutaxassis tayyorlash uchun asos bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Kamalova Z.X. Bo‘lajak pedagogda kasbiy refleksiyani rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik shartlari: Avtoref.dis. ...psixologiya fan. nomzodi: 19.00.05. –Toshkent, 2021. –29 b.;.
2. Прохоров А.О. Рефлексия и психические состояния при разных формах учебной деятельности студентов. // Психологический журнал. - 2016. - №6. - С. 47-55
3. Разина Т.В. Рефлексия и ее формирование в процессе обучения в вузе. // Психология обучения. - 2008. - №3. - С. 35-41.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ СЧАСТЬЯ В СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДАХ И ИССЛЕДОВАНИЯХ

Ботирова Чарос Рустам кизи
научный исследователь
Национальный исследовательский университет «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства», Узбекистан, Ташкент
i_raximova@tiiame.uz

Аннотация. В статье рассматривается феномен счастья как психологическая категория, а также анализируются ключевые детерминанты, влияющие на субъективное благополучие личности. Особое внимание уделяется внутренним (психологическим) факторам, таким как черты личности, самооценка, оптимизм, эмоциональный интеллект, когнитивные установки и наличие смысла жизни. Освещаются современные теоретические подходы к изучению счастья, включая концепции Э. Динера, М. Селигмана, С. Любомирски, Д. Канемана и других исследователей. Представлены данные о роли индивидуальных различий и возможностей развития устойчивого чувства счастья. Обобщаются выводы позитивной психологии о том, что счастье во многом определяется не внешними обстоятельствами, а внутренними ресурсами человека.

Ключевые слова: счастье, субъективное благополучие, психологические детерминанты, позитивная психология, личностные черты, эмоциональный интеллект, смысл жизни, самооценка

Счастье — одно из самых универсальных стремлений человека, но вместе с тем и одно из самых субъективных понятий. Что делает человека счастливым? В то время как внешние обстоятельства (например, финансовое благополучие или здоровье) играют определённую роль, современная психология всё чаще обращает внимание на внутренние, психологические факторы. Эти факторы — или психологические детерминанты счастья — представляют собой внутренние установки, черты личности и когнитивные процессы, формирующие субъективное восприятие благополучия.

В психологической науке счастье чаще всего изучается через призму субъективного благополучия (subjective well-being, SWB). Согласно Динеру и соавторам, субъективное благополучие включает три компонента эмоциональный компонент, когнитивный компонент, эвдемонический аспект.

Таким образом, счастье — это не только радость и удовольствие, но и глубокое чувство внутреннего согласия с собственной жизнью.

Эд Динер рассматривает счастье как субъективное благополучие, которое включает в себя три основных компонента: преобладание положительных эмоций над отрицательными, удовлетворённость жизнью и общую когнитивную оценку своего существования. По его мнению, счастье — это не только эмоции, но и рациональное осмысление своей жизни как благополучной. Динер был одним из первых, кто разработал научные методы измерения счастья, включая шкалу удовлетворённости жизнью.

Мартин Селигман, основатель позитивной психологии, утверждает, что счастье включает не только положительные эмоции, но и более глубокие аспекты, такие как смысл жизни, вовлечённость, положительные отношения и достижение целей. Он предложил модель PERMA, включающую пять составляющих благополучия: Positive emotions, Engagement, Relationships, Meaning и Accomplishment. Селигман полагает, что счастье можно развивать с помощью осознанных стратегий и личностного роста.

Соня Любомирски считает, что уровень счастья человека на 50% определяется генетикой, на 10% — внешними обстоятельствами и на 40% — сознательными действиями и мыслями. По её мнению, человек способен самостоятельно повышать уровень своего счастья через такие практики, как благодарность, добрые поступки, постановка целей и развитие оптимизма. Она подчёркивает роль намеренного выбора в формировании благополучия.

Даниел Канеман различает два вида счастья: опытное (эмоции в моменте) и оценочное (общая оценка жизни). По его мнению, высокий доход, например, улучшает оценку жизни, но не обязательно влияет на текущие эмоциональные переживания. Он подчёркивает, что для понимания счастья важно учитывать, как человек чувствует себя ежедневно, а не только то, как он оценивает свою жизнь в целом.

Карл Роджерс связывает счастье с состоянием конгруэнтности — соответствия между "я-реальным" и "я-идеальным". По его мнению, человек ощущает счастье тогда, когда живёт в согласии с собой, свободен в самовыражении и принят другими безоценочно. Важную роль он отводит безусловному принятию и личностному росту.

Абрахам Маслоу считает, что счастье возможно при достижении самоактуализации, то есть раскрытия личностного потенциала. По его мнению, человек не может быть по-настоящему счастлив, пока не удовлетворены базовые потребности — в безопасности, принадлежности, уважении. Счастье

появляется на вершине иерархии потребностей, когда человек достигает полной реализации себя как личности.

Ричард Лэйард считает, что общество должно стремиться не столько к экономическому росту, сколько к повышению **уровня счастья населения**. По его мнению, психическое здоровье, качество социальных отношений и чувство смысла важнее дохода. Он подчёркивает, что политика должна учитывать данные психологии и ориентироваться на повышение субъективного благополучия граждан.

Михай Чиксентмихайи утверждает, что человек испытывает подлинное счастье, когда находится в состоянии **"потока"** — полной вовлечённости в деятельность, соответствующую его способностям. По его мнению, именно такие моменты приносят наибольшее удовлетворение и способствуют личностному росту. Поток возникает, когда задача достаточно сложна, но выполнима, и требует полной концентрации.

Счастье — это не просто удачное стечение обстоятельств, а во многом результат внутренней работы человека над собой. Психологические детерминанты счастья помогают понять, что именно в нас самих делает жизнь полноценной и радостной. Развитие позитивных личностных черт, установок и навыков самоосознания — путь к более осмысленному и удовлетворённому существованию.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Динер Э. Субъективное благополучие // Психологический бюллетень. — 1984. — Т. 95. — №3. — С. 542–575.
2. Канеман Д., Дитон А. Высокий доход улучшает оценку жизни, но не эмоциональное благополучие // Proceedings of the National Academy of Sciences. — 2010. — Vol. 107. — №38. — С. 16489–16493.
3. Лэйард Р. Уроки новой науки о счастье. — М.: ИД «Вильямс», 2007. — 320 с.
4. Любомирски С. Как быть счастливым. Новая наука о счастье. — М.: Добрая книга, 2011. — 320 с.
5. Маслоу А. Мотивация и личность. — СПб.: Питер, 2007. — 352 с.
6. Роджерс К. Взгляд на психотерапию. Становление человека. — М.: Прогресс, 1994. — 480 с.
7. Селигман М. Новый взгляд на счастье. Процветание. — М.: Эксмо, 2012. — 384 с.
8. Чиксентмихайи М. Поток. Психология оптимального переживания. — М.: Альпина Паблишер, 2018. — 368 с

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПСИХОКОРРЕКЦИИ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ ЛИЧНОСТИ ПОДРОСТКА

Жолдошбаев Дилзатбек Алмарсбекович
доцента кафедры «Общая психология» Ошского государственного университета

Проведённый анализ научной литературы по исследуемой проблеме показывает, что психокоррекция вступает разновидностью практической психологии, одной из составляющих психологической службы в системе образования. Из-за принадлежности к системе образования и к психологии, термин «психокоррекция» определяется по-разному, с отличными акцентами на этом виде психологической практики. Так, Д.В. Шамсутдинова отмечает, что психокоррекция может пониматься как в контексте психотерапии, так и в контексте задач академической психологии. Исходя из этих двух определений, цель психокоррекции может быть как психотерапевтической (создание условий для полноценного развития личности), так и собственно коррекционной (устранение определенных пороков в этом развитии). При этом, автором указывается что, психокоррекцию можно трактовать как тактичное вмешательство в процессы психического и личностного развития, нужное для того, чтобы исправить отклонения в этих процессах. Такое определение позиционирует психокоррекцию как практическую реализацию академической психологии.

Согласно позиции С.И. Гаджиевой, психокоррекция – это изменение определенных устоявшихся характеристик (индивидуально неповторимых качеств личности). Кроме того, во времена, когда психокоррекцию относили к дефектологии, этот термин определялся как совокупность форм воздействия, предназначенных для исправления недостатков в развитии ребенка. Также автор приводит определение психокоррекции в аспекте психотерапии, т.е. психокоррекция - это внедрение в явление, которому присуща статичность и определенная деструктивность противоречивых тенденций, таких изменений, которые будут способствовать возрождению способности личности к активному развитию и приспособлению. Ученый считает, что психокоррекция в таком значении имеет субъект-субъектную позицию, реализует гуманистические принципы, предполагает способность осуществлять социальную перцепцию себя и других людей, осуществлять рефлексию и обобщение, что изменяет такие внутрипсихические структуры, как Я-концепция и самоосознание.

В терапевтическом аспекте понимания психокоррекции А.Р. Жусупов называет ее каузальной формой психологической помощи, имея в виду, в частности, коррекцию, направленную на источник и причины отклонений в развитии. Автор утверждает, что в реальной коррекционной работе нужно учитывать не только нормативные значения, но и вероятные причины расстройства. С такой точки зрения различные понимания, определения психокоррекции не противоречат, а дополняют друг друга. Основываясь на это, автором раскрываются задачи психокоррекции в рамках как нормативных, так и каузальных целях, т.е. работа заключается в нейтрализации асоциальных установок, представлений, ценностей, мотивов, стереотипов поведения и в формировании новых, социально приемлемых.

Относительно принципов психокоррекции автором упоминаются следующие основные:

принцип единства диагностики и коррекции;

принцип нормативности;

принцип коррекции «сверху вниз»;

принцип системности развития психической деятельности;

деятельностный принцип.

Эти принципы определяют цель, направленность и вид коррекции, основанные на базисных представлениях о психологическом развитии и личности. Так, согласно принципу единства диагностики и коррекции, адекватно сформулировать задачи психокоррекционной работы можно лишь на основе полной диагностики (имеющихся особенностей и нарушений) и оценки вероятного прогноза развития, исходя из понятия зона ближайшего развития.

Согласно принципу нормативности, в процессе психического развития могут быть выделены определенные последовательные стадии, а каждый возраст сопоставлен с эталонными для каждого периода нормативными особенностями. Этот принцип подчеркивает, что для всестороннего развития личности важно поэтапное прохождение всех стадий психического развития. В то же время отмечается, что темп этого развития может быть разным. Применение принципа нормативности позволяет выявить нарушения и отклонения в развитии, а также дифференцировать реальные проблемы от чрезмерных требований к подростку со стороны его близких. Психолог, работая по этому принципу, должен оценить, на каком этапе индивидуального психического развития находится подросток, и, опросив его, сопоставить полученные данные с нормативными значениями, чтобы выяснить, каким образом можно поспособствовать всестороннему прохождению выясненной стадии развития и переходу на следующую нормативную стадию.

В рамках принципа коррекции «сверху вниз» предполагается фокусировать содержание коррекционной работы на зоне ближайшего развития и основной деятельности, которую ожидает социальное окружение от личности. Применение этого принципа предусматривает:

целенаправленное содействие развитию качеств, присущих нынешнему возрасту подростка и нужных для успешного его функционирования в имеющейся социальной ситуации;

формирование тех качеств и поведения, которых подросток должен достичь в ближайшей перспективе, то есть на следующей, ближайшей стадии возрастного развития.

Принцип системности заключается в том, что психическое развитие имеет сложный, многофакторный, взаимосвязанный характер. Реализация принципа системности развития в коррекционной работе обеспечивает направленность на устранение причин отклонений в психическом развитии ребенка. В частности, качественное психодиагностическое обследование позволяет показать нарушения развития как систему причинно - следственных связей между симптомами и их причинами. Коррекцию следует начинать с нарушения (дефекта), которое создает больше всего препятствий в актуальной социальной ситуации развития (это не обязательно первопричина нарушения развития).

Основами деятельностного принципа являются понимание деятельности как движущей силы психического развития, концепция ведущей деятельности и теория планомерного развития человеческой деятельности [22, с. 104]. Согласно этому принципу, психокоррекцию следует осуществлять на основе ведущей деятельности (характерной для конкретного возрастного периода) так, чтобы ребенок учился лучше ориентироваться в этой деятельности и вступал в межличностные отношения, которые будут способствовать распределению деятельности в коллективной работе.

А.П. Вяткин и др. отмечают, что психокоррекция должна:

учитывать возрастные характеристики подростков;

помогать им формировать более адаптивное поведение в отношениях с родителями;

ориентироваться на принцип каузальности (причинности);

влиять на глубинную составляющую отклонения.

Также авторами описаны особенности организации групповой психокоррекции, механизмы психокоррекции, а также принципы психологической помощи:

выявление актуальной зоны функционирования и уточнение запроса или проектная диагностика для получения символического разрешения на взаимодействие с психологом (подобно принципу «единства диагностики и коррекции»);

символическое завершение моментов, которые имели ключевую роль в образовании и функционировании симптома (сопоставимо с принципом «нормативности» развития);

основная идея-способствовать переходу от деструктивных состояний к более зрелым;

обучение подростков методике фантазирования должно происходить в форме игры (в чем можно увидеть реализацию принципа ведущей деятельности).

При этом автор выделяет именно групповую психокоррекцию. Её, что основным отличием групповой психокоррекции от индивидуальной является - наличность группового эффекта, который тесно связан с отношениями группы (в развитии последних выделяются определенные стадии).

Относительно механизмов групповой психокоррекции автором утверждается, что групповая психокоррекция работает с поведением (которое является нарушенным, имеет социально-психологические расхождения с реальным положением вещей) субъекта в группе с проблемами в общении, обусловленными внутренними противоречиями, социальными конфликтами, глубинными личностными качествами. Анализ опыта членов группы осуществляется с помощью моделирования, ролевых игр, психодрамы, во время которых актуализируется спонтанность и свобода поведения. Кроме того, используются групповая дискуссия, специальные упражнения (психологические техники). Опредмечивание индивидуально-психологических качеств участников группы обеспечивает специально организованное социальное взаимодействие, распредмечивание же происходит благодаря рефлексии.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Вяткин А.П. и др. Методы психокоррекции личности несовершеннолетних в системе раннего предупреждения их преступного поведения. // Всероссийский криминологический журнал. - 2016. - Т.10. - №3. - С. 487-498.

2. Гаджиева С.И. Формирование правового самосознания личности подростка. // Известия Дагестанского государственного педагогического университета. Психолого-педагогические науки. - 2009. - №4. - С. 13-17.

XOTIN-QIZLAR TARBIYASI – KELAJAK TARBIYASI

Paxratdinova Aruxan Kerimberdiyevna
Jamoat xavfsizligi universiteti
Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi xodimi
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Kalit so‘zlar: xotin-qizlar, davlat siyosati, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ta’lim-tarbiya masalalari,oilalar mustahkamligini ta’minlash, pedagogik yondashuv

Annotatsiya: Maqolada xotin-qizlarning ta’lim-tarbiyasi masalasi, oilalar mustahkamligini ta’minlash va ushbu masalalarga pedagogik yondashuv bo‘yicha tavsiyalar bildirilgan.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida: “Xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvida faol ishtirok etishi bugungi kunning dolzarb masalasidir. Milliy siyosatimiz markazida turadigan eng ezgu maqsad – oilalar mustahkamligini, ayollarimizning huquqiy himoyasi va osoyishta hayotini ta’minlashdan iborat” – deya ta’kidlagan edi [1].

Yurtimizda xotin-qizlarga e’tibor masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. O‘qiyman, izlanaman, erkin kasb tanlayman degan xotin-qizlar uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Moddiy tomondan ehtiyojmand oilalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida, “Temir daftari”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” joriy etilgan. Barchamizga ma’lum, davlatimiz rahbari joriy yil boshida “2025-yil Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarlikning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-son qarorini qabul qildi. Ma’sul tashkilotlarga mahallalarda huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikni jilovlash bo‘yicha vazifalar belgilab berildi [2].

Ishchi guruhlarning o‘rganish ishlari doirasida xotin-qizlar tomonidan ham huquqbuzarliklar sodir etilganligi ma’lum bo‘ladi. Xotin-qizlar asosan, firibgarlik, o‘g‘irlik, yengil tan jarohati yetkazish, yengil tabiyatlilik bilan shug‘ullanishga oid huquqbuzarliklarni amalga oshirgan. Ushbu ko‘ngilsiz holatlar uchun ular qonun doirasida tegishli tartibda jazolangan. Yuqoridagi holatlar huquqiy tomondan baholangan bo‘lsada, sodir etilgan huquqbuzarliklarning jamiyatimiz odob-ahloq qoidalariga qanchalik zid ekanligiga e’tiborimizni qarataylik.

Azaldan munis onaxonlarimiz, opa-singillarimiz ibo-hayoli, odobli bo‘lib kelgan. Ularning donoligi, mardligi va vafodorligi tillarda doston bo‘lgan. Nodirabegim, Bibixonimlar siymosi na’muna bo‘lib kelmoqda. Buyuk shoiramiz

Zulfiyaxonim ham vafodorlik timsoli hisoblanadi. Masalan, shoiraning sherlariga diqqatimizni qaratsak:

Bahorga burkangan sen sevgan elda,
Ovozing yangradi jo‘shqin, zabardast.
O‘lmagan ekansan, jonim sen hayot,
Men ham hali sensiz olmadim nafas.

Biz namuna sifatida ko‘rsatadigan munis onaxonlarimiz bor ekan, kelajak avlodni ham tarbiyali qilib o‘stirishimiz zarur. Maktablarda faoliyat yurituvchi inspektor psixologlar bilan hamkorlikda tadqiqot ishlarini olib borganimizda, asosan tarbiyasi og‘ir qiz bolalarning oilaviy sharoitini o‘rganib chiqdik. Asosan, ajrashgan, otasi yoki onasidan biri vafot etgan, ota-onasidan biri xorijda mehnat migrant bo‘lib ishlovchi yoki qarindoshlar qo‘lida tarbiyalanuvchi qizlarning hulq-atvorida salbiy xatti-harakatlar ko‘proq uchrashgan. Ma’rifatparvar bobomiz Abdullo Avloniy: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” – deya ta’kidlab, ta’lim-tarbiyaning ahamiyatiga alohida to‘xtab o‘tgan [4].

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining bir bo‘lagi bo‘lib qoladi. Islohatlarning uzviy davomi sifatida quyidagi taklif va tavsiyalarni bildirib o‘tishni o‘rinli deb hisoblaymiz:

Birinchidan, oila, maktab, mahallalar hamkorlikda xotin-qizlar tarbiyasida oid tarbiyaviy-mafkuraviy tadbirlarni ko‘plab tashkil etish;

Ikkinchidan, iqtidorli, hunarli qizlar sonini oshirish maqsadida, “Yoshlar ittifoqi”, “Barkamol avlod” markazlari bilan hamkorlikda ishlarni tashkillashtirish;

Uchinchidan, oilalarda ajrimlar soni kamaytirishning oldini olishda maktablarda “Tarbiya” va “Texnologiya” darslarida ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuv ishlarini amalga oshirish kelajakda o‘zining ijobiy natijasini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi.//Yangi O‘zbekiston gazetasi., 2023-yil 20-sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yil Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarlikning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-son qarori (ko‘chirma)., 03.01.2025-yil.

3. www.kutubxonachi.uz/story-and-poerty/zulfiya/bahor-keldi-seni-so’roqlab-muallif-zulfiya/

4. www.hikmatlar.uz

OLIY HARBIY TA’LIM MUASSASALARI KURSANTLARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Shermatova Nazokat Safarovna
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining Xizmat psixologiyasi va kasbiy madaniyati kafedrasi o‘qituvchisi, mayor
nazokatshermatova162@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning innovatsion psixologo-pedagogik mexanizmlari yoritilgan. Axloqiy-ruhiy ta’minlashda “mikro-axloqiy regulyatsiya → operatsion bixeviorizm → axloqiy rezilentlik strategiyasi” tamoyili asosida verbal ta’sir, motivatsion stimulyatsiya va kognitiv-psixologik profilaktika integrativ ravishda takomillashtirilganligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetensiya, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik, rezilentlik, verbal ta’sir, motivatsion stimulyatsiya, kognitiv profilaktika, EQ-intellekt, idrokiy evristikalar, harbiy kouching, kognitiv-sub’ektiv monitoring, strategik modellashtirish, kasbiy motivatsiya.

Global xavfsizlik muhitida sodir bo‘layotgan tezkor va turli qirrali o‘zgarishlar harbiy kadrlar tayyorlash tizimidan yangi talab va yondashuvlarni talab qilmoqda[111]. Mintaqaviy nizolar, kiber tahdidlar, psixologik va gibrid urush texnologiyalarining jadal rivojlanishi harbiy xizmatchilardan nafaqat mukammal taktik va amaliy tayyorgarlikni, balki intellektual saloxiyat, emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik, tezkor qaror qabul qilish qobiliyati va axloqiy mas’uliyatni talab etmoqda. Bunday vaziyatda oliy harbiy ta’lim muassasalari zimmasiga kursantlarni yuqori darajada psixologik, pedagogik va ma’naviy jihatdan tayyorlash vazifasi yuklanadi. Xususan, harbiy mutaxassis shaxsining rivoji an’anaviy o‘quv dasturlari bilan cheklanib qolmay, zamonaviy psixologiya, neyroilm, kognitiv tahlil, bixevioristik yondashuvlar va harbiy kouching kabi innovatsion usullar bilan boyitilishi zarur. Kursantlarda emotsional intellekt (EQ), rezilentlik, adaptivlik, vaziyatli fikrlash, jamoani boshqarish, axloqiy qarorlar qabul qilish madaniyati va motivatsion barqarorlik kabi kompetensiyalar shakllanmasa, ularning kelgusidagi xizmat samaradorligi to‘liq ta’minlanmaydi. Shu bois, oliy harbiy ta’limda kursantlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda verbal ta’sir, motivatsion stimulyatsiya, kognitiv-psixologik profilaktika, venchur fikrlash evristikalari va harbiy kouching kabi innovatsion psixologo-pedagogik mexanizmlarni integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

[111] Назаров Б. Замонавий ҳарбий хавфсизлик тизимлари. – Тошкент: “Академнашр”, 2021. – 256 б.

Shu nuqtai nazardan maqolada oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarida kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishga qaratilgan innovatsion metodlar ilmiy asosda yoritiladi. Xususan, harbiy xizmatchilarni axloqiy-ruhiy ta’minlashda “mikro-axloqiy regulyatsiya → operatsion bixeviorizm → axloqiy rezilentlik strategiyasi” tamoyili asosida shakllantirilgan integrativ modelning afzalliklari ochib beriladi. Bu model orqali kursantlarda stress sharoitida o‘zini boshqara olish, axloqiy barqarorlikni saqlash, murakkab qarorlarni tez qabul qilish va emotsional (hissiy) zehnni rivojlantirish imkoniyatlari kuchayadi. Shu bilan birga, mnemonik qobiliyatlar, kommunikativ mahorat, liderlik, empatiya va adaptivlik kabi shaxsiy sifatlarni rivojlantirishda EQ-intellekt, kognitiv evristikalar va harbiy kouching texnologiyalarini uyg‘unlashtirish metodlari ilmiy tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, kursantlarning kasbiy tayyorgarlik darajasini tizimli baholash va optimallashtirishga xizmat qiluvchi avtonom regulyatsiya, strategik modellashtirish va funksional optimallashtirish tamoyillariga asoslangan kognitiv-sub’ektiv monitoring modeli hamda faoliyatni maqsadga yo‘naltiruvchi “kognitiv-motivatsion impuls → aksiologik determinant → telologik vektor → indikator” algoritmi taklif etiladi. Ushbu yo‘nalishlar harbiy ta’lim tizimining zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashuvini ta’minlab, kelgusida raqobatbardosh, intellektual va ruhan barqaror kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Oliy harbiy ta’lim muassasalarida kursantlarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish va takomillashtirishda markaziy ahamiyat psixologik barqarorlik, kognitiv faollik, axloqiy-ruhiy qadriyatlar va zamonaviy komandirlik kompetensiyalariga beriladi[112]. Zamonaviy harbiy muhitda tezkor qaror qabul qilish, stressga chidamlilik va axloqiy-mas’uliyatli qarorlar qabul qilish kursantlardan nafaqat taktik va texnik mahorat, balki yuqori darajada intellektual va emotsional tayyorgarlik talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, kursant shaxsiyatini rivojlantirishda integrativ psixologo-pedagogik mexanizmlar – “mikro-axloqiy regulyatsiya → operatsion bixeviorizm → axloqiy rezilentlik strategiyasi” – ustuvor ahamiyatga ega[113]. Mikro-axloqiy regulyatsiya kursantning shaxsiy axloqiy me’yorlari va ichki intizomini mustahkamlash orqali faoliyatni maqsadga yo‘naltirish imkonini beradi, operatsion bixeviorizm esa harbiy faoliyatda standartlashgan harakat va qaror modellarini avtomatlashtirish, murakkab vaziyatlarda tez va aniq xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Axloqiy rezilentlik strategiyasi esa stress va xavfli vaziyatlarda emotsional va irodaviy barqarorlikni saqlash, xalqaro harbiy standartlar talabiga mos ravishda axloqiy va qonunchilik me’yorlariga tayangan qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi[114].

Kursantlarning faoliyat samaradorligini oshirishda verbal ta’sir, motivatsion stimulyatsiya va kognitiv-psixologik profilaktikaning integratsiyalangan tizimi muhim

[112] Абдуллаев Қ. Ҳарбий психология асослари. – Тошкент: МУҚ нашриёти, 2020.
[113] Каримов А. Замонавий ҳарбий тайёргарлик психологияси. – Тошкент: Академнашр, 2021.
[114] Goleman D. Emotional Intelligence. — New York: Bantam Books, 1995.

ahamiyatga ega. Verbal ta’sir kursantning ruhiy holati va faoliyatiga psixologiyada isbotlangan mexanizmlar orqali ta’sir ko‘rsatadi, bu esa kursantning o‘zini nazorat qilish qobiliyatini va motivatsiyasini kuchaytiradi. Motivatsion stimulyatsiya kursantning shaxsiy maqsadlari va harbiy vazifalarini uyg‘unlashtirish, ichki harakatlantiruvchi omillarni faollashtirishga xizmat qiladi. Kognitiv-psixologik profilaktika esa stress va ruhiy inqirozlarni oldindan aniqlash, negativ kognitiv sxemalarni kamaytirish va psixologik barqarorlikni mustahkamlash mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. Bu jarayonlar kursantlarning emotsional, kognitiv va motivatsion saloxiyatini barqaror rivojlantirishga imkon beradi, shu bilan ularni samarali harbiy xizmatga tayyorlaydi.

Kursantlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda EQ-intellekt, venchur fikrlash evristikalari va liderlik kouchingi muhim rol o‘ynaydi. EQ-intellekt ularda o‘z his-tuyg‘ularini idora qilish, boshqalarning emotsional holatini anglash va stressli vaziyatlarida samarali kommunikatsiya qilish qobiliyatini rivojlantiradi[115]. Venchur fikrlash evristikalari esa standart bo‘lmagan vaziyatlarda yangi yechimlarni tez va innovatsion usulda topish imkonini beradi. Harbiy kouching modeli kursantni maqsadga yo‘naltirish, harakat strategiyasini belgilash va faoliyati samaradorligini doimiy monitoring qilish orqali shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, mnemonik qobiliyatlar, kommunikativ va adaptiv mahoratlar, empatik salohiyatlar kursantlarning jamoada samarali ishlash va murakkab vaziyatlarda tez va aniq qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi.

Oliy harbiy ta’lim muassasalarida kursantlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish zamonaviy harbiy muhit talablaridan kelib chiqqan holda ko‘p qirrali, kompleks va integrativ yondashuvlarni joriy etishni taqozo etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, verbal ta’sir texnologiyalari, motivatsion stimulyatsiya, kognitiv psixologik profilaktika, emotsional intellektni rivojlantirish, rezilentlik modellari va harbiy kouching kabi usullarni qo‘llash kursantlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini jadallashtiradi. Bu mexanizmlar kursantlarda murakkab sharoitlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, o‘zini va holatini boshqara olish, jamoada samarali hamkorlik qilish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantiradi.

Tadqiqotda taklif etilgan integrativ model asosida kursantlarda stressga chidamlilik, vaziyatli fikrlash, emotsional barqarorlik, axloqiy mas’uliyat, ichki motivatsiya va yetakchilik salohiyatlari barqaror tarzda rivojlanishi qayd etildi. Bu kompetensiyalar harbiy xizmatning amaliy samaradorligini oshirish, favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri va tezkor harakat qilish, jamoaviy muvofiqlikni ta’minlash va shaxsiy mas’uliyatni anglashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, integrativ psixologik mexanizmlarni o‘quv jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etish kursantlarning ruhiy barqarorligi va kasbiy muqobiliyatini kuchaytirishi mumkin.

[115] Mayer J., Salovey P. Emotional Intelligence Theory. — Psychological Inquiry, 1997.

Xulosa qilib aytganda, oliy harbiy ta’lim muassasalarida psixologo-pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash lozim. Xususan, rezilentlik modellari, emotsional intellektni trening orqali rivojlantirish, kognitiv profilaktika va motivator dasturlarini muntazam tarzda o‘quv jarayoniga kiritish maqsadga muvofiq.

Kursantlarda stressga chidamlilik va emotsional boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlar—simulyatsiya, taktik trening, psixologik modellashtirish usullari—doimiy ravishda tashkil etilishi kerak.

Harbiy kouching tizimini institutsional darajada joriy etish, ya’ni har bir kursant uchun individual rivojlanish rejasi, motivatsion maqsad qo‘yish va shaxsiy salohiyatni monitoring qilish mexanizmlarini shakllantirish tavsiya etiladi.

Verbal ta’sir va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha maxsus kurslarni tashkil etish kursantlarning rahbarlik, targ‘ibot, muloqot madaniyati va jamoaviy boshqaruv qobiliyatlarini sezilarli kuchaytiradi.

Kognitiv-sub’ektiv monitoring modelidan foydalanish orqali kursantlarning aqliy, emotsional va motivatsion holati to‘g‘ri baholanishi va o‘quv jarayonini individuallashtirish imkoni yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, integrativ psixologo-pedagogik yondashuvlarni joriy etish harbiy ta’limning sifatini oshirish, kursantlarni zamonaviy harbiy xizmat talablariga mos ravishda tayyorlash va ularning kasbiy samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi raqobatbardosh, barqaror, emotsional va kognitiv jihatdan yetuk harbiy mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nazarov B. Zamonaviy harbiy xavfsizlik tizimlari. – Toshkent: “Akademnashr”, 2021. – 256 b.
2. Abdullaev Q. Harbiy psixologiya asoslari. – Toshkent: MUQ nashriyoti, 2020.
3. Karimov A. Замонавий ҳарбий тайёргарлик психологияси. – Тошкент: Академнашр, 2021.
4. Goleman D. Emotional Intelligence. — New York: Bantam Books, 1995.
5. Mayer J., Salovey P. Emotional Intelligence Theory. — Psychological Inquiry, 1997.

YOSHLARDA PSIXOLOGIK ADDIKSIYA NAMOYON BO‘LISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Qarshibayv Murodil Qarshibay o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Hozirgi vaqtda addiktiv (qaram) xulq-atvor butun dunyoda eng keskin muammolardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ushbu psixologik hodisaning rivojlanishiga olib keluvchi ijtimoiy, psixologik va biologik omillar tadqiq etilmoqda; huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jamoat tashkilotlari profilaktik faoliyatni faollashtirishga urinmoqda; shuningdek, qaramlikka duchor shaxslarga zarur tibbiy hamda psixologik-ijtimoiy yordam ko‘rsatiladigan muassasalar va jamoat tashkilotlari soni ortib bormoqda.

Kalit so‘zlar: addiksiya, deviant xulq-atvor, tobelik, ruhiy holat, biologik omillar, mikromuhit, gambing, profilaktika.

Psixologiyada addiktiv xulq-atvor bu shaxsning ruhiy holatini o‘zgartiruvchi vositalar yoki faoliyat turlariga (masalan, spirtli ichimlik, tamaki, internet, o‘yin, qimor, giyohvand moddalar, ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari berilish) ortiqcha bog‘lanib qolishi natijasida yuzaga keladigan xulq buzilishidir. Bu jarayon asta-sekin shaxsda irodaviy nazoratning pasayishi, emotsional beqarorlik, o‘ziga zarar yetkazish kabi destruktiv holatlarni keltirib chiqaradi. An’anaviy ravishda addiktiv xulq-atvorga kimyoviy qaramliklar (giyohvandlik, alkogolizm, tamaki mahsulotlaridan foydalanish) hamda kimyoviy (no-kimyoviy) qaramliklar (ovqatlanish buzilishlari, o‘yin (gambling) qaramligi, kompyuter va internet qaramligi, jinsiy addiksiyalar, munosabatlar addiksiyasi, haddan tashqari qimmat qiziqishlar) kiritiladi. Qaram xulq-atvor namoyon bo‘lishining ko‘lami juda keng: me’yoriy holatga yaqin ko‘rinishlardan tortib og‘ir psixofiziologik qaramlikkacha. Aholining sezilarli qismi turli darajadagi og‘ir botadigan qaramlik tajribasiga ega: stress paytida shirinliklarni iste’mol qilishdan boshlab, nikotin, spirtli ichimlik va narkotik vositalargacha.

Qaram xulq-atvor muammosi penitensiar tizimda alohida o‘rin tutadi. Addiktiv xulq-atvor xususiyatlarini o‘rganish muammosi ilmiy izlanishlar tarixida keng o‘ringa ega. Qaramlik xulq-atvorining shakllanishi odatda insonning psixoaktiv moddalarni (keyingi o‘rinlarda psixoaktiv modda) qo‘llashi bilan bog‘lanadi. Turli davrlarda odamlar psixoaktiv moddalardan og‘iz orqali qabul qilish, bug‘larini nafasga tortish, chaynash yoki tomir ichiga in’yeksiya ko‘rinishida foydalanganlar; ba’zan ularning qo‘llanishi diniy, ijtimoiy marosimlar yoki mistik rasm-rusumlarda ishtirok etish bilan bog‘langan. Addiktiv xulq-atvor muammosini o‘rganishning rasmiy boshlanish sanasi sifatida 1884 yil “British Journal of Addiction” ilmiy jurnalining nashr etilishi boshlangan yil qabul qilinadi.

Zamonaviy jamiyat oldida turgan eng murakkab muammolardan biri addiktiv (qaram) xulq-atvor masalasidir. Ushbu mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi jamiyat sog‘lom, ma’lumotli, hayotda aniq maqsadga ega va uni amalga oshirishga qodir insonlarni shakllantirishga intilmoqda. Biroq, so‘nggi yillarda aholining katta qismi turli hayotiy qiyinchiliklar, ayniqsa moliyaviy muammolarga duch kelmoqda, bu esa ularning ruhiy holatida tajovuzkorlik, frustratsiya holatlarini kuchaytirib, chiqish yo‘lini izlashga majbur qilmoqda. Ayniqsa, moliyaviy tengsizlik, daromadlar orasidagi tafovutlarning ortib borishi ushbu mavzuni tadqiq etish zaruratini yanada oshirmoqda.

Har bir inson tabiatan farovonlik va moddiy barqarorlikka intiladi. Ammo kundalik hayotda bunga erishish har doim ham mumkin emas. Salbiy kechinmalarni yengish va dam olish maqsadida odamlar turli usullarga murojaat qiladilar. Ba’zilari ichki resurslardan sevimli mashg‘ulot, mehnat, sport yoki ijoddan foydalanadilar. Boshqalari esa tashqi manbalarga yaqin insonlarning qo‘llab-quvvatlashiga tayanadilar. Odatda, bu usullar insonning ruhiy muvozanatiga zarar yetkazmaydi, aksincha, hayotning ajralmas sog‘lom tarkibiy qismi hisoblanadi. Ammo agar ushbu vositalardan biri inson hayotining asosiy maqsadiga aylanib, boshqa barcha ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy jihatlar ikkinchi darajaga tushib qolsa, bu holat addiktiv (qaram) xulq-atvorning shakllanayotganidan dalolat beradi.

Muammo ayniqsa jiddiy tus oladi, agar gap narkomaniya yoki alkogolizm kabi addiktiv xulq turlari haqida borayotgan bo‘lsa, yoshlar orasida alkogol va narkotik vositalar iste’moli tobora ortib bormoqda. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, yoshlarning katta qismi (erkaklarning 54 foizi, ayollarning 23 foizi) hech bo‘lmaganda bir marta narkotik moddalardan foydalanib ko‘rgan. Shu yosh toifasida spirtli ichimlik iste’moli darajasi ham sezilarli o‘smoqda.

Shu sababli, addiktiv (qaram) xulq-atvorning barcha turlariga nisbatan korreksion ta’sir choralarini kuchaytirish va profilaktik ishlarni tashkil etish zarurati mavjud. Hozirgi dunyoda addiksiyalarning yangi-yangi ko‘rinishlari paydo bo‘lmoqda, ular bir-biriga o‘tib, kompleks muammolarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, chekishni tashlagan shaxs o‘z ehtiyojini ovqat bilan qoplashga moyil bo‘ladi. Shu bois, korreksion va profilaktik ishlar faqat bitta turdagi qaramlik bilan emas, balki barcha turlarni qamrab olgan holda olib borilishi lozim. Addiktiv xulq-atvorning o‘zi ham alohida muammoga aylangan, chunki uning kuchli darajada namoyon bo‘lishi bir qator salbiy oqibatlarga olib keladi: mehnat qobiliyatining pasayishi, yaqinlar bilan o‘zaro tushunmovchilik, huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etish holatlari shular jumlasidandir.

Mavzuning dolzarbligi nafaqat narkotik va alkogol qaramligi bilan bog‘liq insonlar sonining keskin ortib borishi bilan, balki zamonaviy axborot texnologiyalari

taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan yangi turdagi qaramliklar internet, ijtimoiy tarmoq, o‘yin, onlayn xarid, kiberbog‘liqlik kabi holatlar bilan ham belgilanadi. Ular insonning ruhiy holati va psixologik farovonligi uchun katta xavf tug‘diradi. Shu bois, aholining keng qatlamlari bilan ishlashda mavjud psixologik yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish, ularni zamonaviy sharoitlarga moslashtirish dolzarb ehtiyojga aylangan.

Addiktiv xulq-atvor muammosini tushunishga doir yondashuvlarni tahlil qilish ushbu tushunchaning yagona, umumqabul qilingan ta’rifi yo‘qligini ko‘rsatadi. Bizningcha, eng dolzarb ta’rif A.V.Smirnov ishida berilgan bo‘lib, unda “addiktiv xulq-atvor” quyidagicha talqin etiladi: deviant xulq-atvoring bir ko‘rinishi bo‘lib, takrorlanib turuvchi, kompulsiv, aniq va ratsional tarzda motivlanmagan, nazoratga bo‘ysunmaydigan ma’lum harakat yoki xatti-harakatlarni bajarishga undovchi ichki turtki; ushbu harakatlarning yakuniy maqsadi sub’ektiv jismoniy va psixologik huzur hosil qilish bo‘lib, ushbu huzur manbai psixoaktiv modda ham, addiksiyani obyektlashtiruvchi turli faoliyat turlari ham bo‘lishi mumkin.

Insondagi addiktiv xulq-atvor turli darajada namoyon bo‘lishi mumkin. Namoyon bo‘lish darajasi ortgani sari shaxs psixikasida mos ravishda o‘zgarishlar chuqurlashadi: daraja qanchalik yuqori bo‘lsa, shaxsiyatdagi o‘zgarishlar ham shunchalik teran bo‘ladi. Mahkum shaxsdagi addiktiv xulq-atvor turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi: narkotik vositalarni, spirtli ichimliklarni iste’mol qilish, chekish, qimor o‘yinlariga ruju qo‘yish va hokazo.

Ilmiy adabiyotlarda addiktiv xulq-atvorli shaxslarga xos bir qator tashqi namoyonlar va belgilarga e’tibor qaratiladi: addiktiv xulq-atvor psixotravmatik vaziyatga javoban koping-strategiya (organizmning himoya reaksiyasi) sifatida namoyon bo‘lishi mumkin; qaram xulqli shaxsda ushbu xulqning mavjudligi shaxsning o‘ziga turli ko‘rinishlarda zarar keltiradi; qaramlikka ega shaxslar odatda psixoaktiv modda iste’molini yoki tegishli faoliyatni kamaytirish yoki chastotasini qisqartirishga doir muntazam, biroq samarasiz urinishlarni qayta-qayta takrorlaydilar; vaqt o‘tishi bilan dastlabki daraja istalgan psixologik yoki fiziologik effektni bera olmay qolgani sababli, faoliyatga sarflanadigan vaqt muqarrar ravishda ortib boradi; ushbu faoliyatni mustaqil to‘xtatib bo‘lmasligi, hatto uning davom ettirilishi og‘ir oqibatlarga olib kelishini anglagan taqdirda ham; irodaviy nazoratning pasayishi yoki yo‘qolishi; faoliyatning o‘zi va u bilan bog‘liq narsalarga nisbatan yorqin emotsional reaksiya, kayfiyatning tez-tez o‘zgarib turishi; faoliyatga sarflanadigan vaqtning ortishi natijasida, undan “dam olish” uchun zarur interval ham cho‘zilib boradi; hayotiy ustuvorliklarning almashishi: ijtimoiy, shaxsiy va kasbiy sohalar “ikkinchi darajaga” surilib, faoliyatning o‘zi birlamchi ahamiyat kasb etadi.

Mazkur namoyon bo‘lishlar ko‘p hollarda odamlar o‘zlaridagi qaysidir qaramlikni yashirishga intilishlarini hisobga olgan holda, addiksiyalarni aniqlashga yordam beradi. Qaramlikni aniqlash uchun I.N.Pyatnitskaya uchta asosiy sindromni ajratib ko‘rsatadi: psixik qaramlik, jismoniy (fizik) qaramlik, organizmning psixoaktiv modda ta’siriga reaktivligi.

Muhokama. Psixologik (psixik) qaramlik ma’lum emotsional holatga erishish uchun psixoaktiv moddaga patologik tortilish bo‘lib, u shaxs tomonidan yuqori darajadagi qulaylik va qoniqish holati sifatida kechadi. Jismoniy qaramlik psixoaktiv modda iste’mol qilishga kompulsiv intilish, abstinensiya va intoksikatsiyasiz jismoniy qulaylik holatini boshdan kechira olmaslik bilan tavsiflanadi. Organizmning reaktivligi esa qaramlik shakllanishi jarayonida muayyan dinamikaga ega: birinchi bosqichda psixoaktiv modda iste’mol qilish shakli o‘zgaradi; undan so‘ng organizmning himoya reaksiyalari susayadi, avvalgi dozalarga nisbatan barqarorlik (tolerantlik) ortadi; yakuniy bosqichda esa mastlik shakli o‘zgaradi. Shaxsning psixik buzilishlari xilma-xildir va u qo‘llagan psixoaktiv modda turiga bog‘liq. Shaxs parchalana borishi bosqichma-bosqich kechadi: turli shaxsiy sifatlar ifodasining susayishi, turli tipdagi psixopatiyalar rivojlanishi, demensiyaning rivojlanishi. Organik namoyon bo‘lishlar darajasi psixoaktiv moddaning xususiyatlari va qo‘llash davomiyligiga bog‘liq.

Psixologiyada tez-tez uchraydigan “qaramlik” va “addiksiya” atamalari ko‘pincha salbiy ma’noda talqin etiladi, ya’ni ular zararli yoki shaxsni yemiruvchi odatlar sifatida qaraladi. Biroq bu ikki tushuncha bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, ularning mazmuni to‘liq bir xil emas. Taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, qaram xulq-atvor har doim ham addiktiv xulq-atvorni anglatmaydi. Masalan, kasal inson o‘zining sog‘ayishi uchun dori vositalariga ma’lum ma’noda qaram bo‘ladi bu holat tabiiy va terapevtik zarurat bilan izohlanadi. Ammo alkogolizm yoki giyohvandlik holatida shaxs nafaqat moddaning o‘ziga bog‘lanadi, balki o‘zining ichki holatini o‘zgartirish istagi orqali addiktiv xulq-atvorga ham kirib boradi.

“Addiktiv xulq-atvor bu insonning ruhiy holatini o‘zgartirish yo‘li bilan haqiqatdan qochishga intilishidir”. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda bu tushuncha quyidagicha kengroq talqin etiladi: “Addiktiv xulq-atvor bu deviant (og‘ishgan) xulqning bir turi bo‘lib, u insonda o‘z ruhiy holatini sun’iy ravishda o‘zgartirish, psixik holatni modifikatsiya qilish orqali voqelikdan qochishga intilishni shakllantiradi. Bu turdagi xulq ayrim moddalarni iste’mol qilish yoki ma’lum faoliyat turlariga ortiqcha e’tibor qaratish orqali kuchli emotsional tajribalarni izlash va qo‘llab-quvvatlash shaklida namoyon bo‘ladi”.

Qaramlik esa, o‘z navbatida, inson faoliyatining o‘zini-o‘zi qo‘llab-quvvatlovchi shakli sifatida qaraladi: “Qaramlik bu o‘z-o‘zini davom ettiruvchi faoliyat turi bo‘lib,

u shaxsda o‘ziga xos ichki shaxsiy tuzilmani shakllantiradi”. Addiktiv xulq-atvor odatda sekin va sezilmas tarzda rivojlanadi. Dastlab, u oddiy ehtiyojni qondirishga qaratilgan zararsiz odat ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Keyinchalik bu holat asta-sekin nazoratni yo‘qotish bilan kechuvchi kuchayuvchi xatti-harakatlar tizimiga aylanadi. Nihoyat, shaxsda barqaror addiktiv xulq-atvor shakllanadi. Uning shakllanish tezligi bir qator omillarga bog‘liq: iste’mol qilinayotgan moddaning turi, shaxsning yoshi, jinsi va individual-psixologik xususiyatlari.

Addiktiv shaxs murakkab hayotiy vaziyatlardan chiqishning konstruktiv yo‘lini topish o‘rniga, muammodan qochishni afzal ko‘radi. Bu jarayon natijasida insonning psixofiziologik moslashuv imkoniyatlari buziladi. Dastlabki bosqichda psixologik noqulaylik holati yuzaga keladi bu turli omillar ta’sirida kuchayadi. Odamlar bunday noqulaylikka turlicha munosabat bildiradilar: ba’zilar og‘ir vaziyatlarga bardosh berish, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish va muammoni hal etishga urinadilar; boshqalar esa, bunga kuchi yetmaganda, muammolardan qochish yo‘lini tanlaydilar. Addiktiv shaxslar odatda muammoli vaziyatlarga nisbatan past bardoshlilikka ega bo‘ladi. Shuning uchun ular sun’iy ong o‘zgarishi orqali ijobiy his-tuyg‘ularni izlaydilar. Natijada, insonda xayoliy (illusor) muammo yechimi tasavvuri shakllanadi. Bu illuzor yo‘l asta-sekin insonning xulqida mustahkamlanadi va real hayotdagi muammolarni hal etishning o‘rnini bosuvchi “qulay” mexanizmga aylanadi. Shu sababli, addiktiv shaxs o‘z muammolariga tabiiy yechim topish imkoniyatini yo‘qotadi. Mazkur mexanizmning jozibasi shundaki, u qarshiliksiz va tezkor “yechim”ni taklif qiladi. Addiktiv shaxsda o‘z muammolaridan vaqtincha ajralib turish hissi paydo bo‘ladi, ularni unutish uchun o‘z e’tiborini boshqa predmet yoki faoliyatga qaratadi. Bunday shaxslar ko‘pincha yaqinlari bilan munosabatlarda muammolarga duch keladilar ularning muloqoti yuzaki tus oladi, hissiy aloqalar uzila boshlaydi. Shu bois, addiktiv shaxs yolg‘izlikni afzal ko‘radi va o‘z ichki olamiga chekinadi.

Addiktiv xulqning asosida, odatda, insonning ichki bo‘shliqni to‘ldirish, ruhiy og‘riqni yengish yoki ijtimoiy muammolardan qochish istagi yotadi. Bu holat psixologik nuqtai nazardan psixik kompensatsiya mexanizmi sifatida qaraladi. Biroq, vaqt o‘tishi bilan bu vosita shaxs uchun yagona "emotsional chiqish yo‘li"ga aylanadi va u kundalik hayotda odatiy faoliyatni bajarish qobiliyatini yo‘qota boshlaydi. Tadqiqotimizda addiktiv xulq-atvor xususiyatlari “Xulq og‘ishiga moyillikni aniqlash” metodikasi asosida o‘rganildi. Empirik tahlil natijalari xulqi og‘ishgan yoshlar va uyushgan (normal xulqli) yoshlar o‘rtasidagi sezilarli tafovutlarni aniqladi.

O‘tkazilgan korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra, addiktiv xulq-atvorga moyillikning ortishi shaxsda emotsional reaksiyalarni irodaviy nazorat qila olish qobiliyatining pasayishiga olib keladi ($r=-0,450$, $p\leq0,05$). Bu degani, shaxsning turli

moddalarga yoki faoliyat turlariga qaramligi kuchaygan sari, u o‘z hissiyotlarini boshqarish va adekvat ijtimoiy reaksiya bildirish imkoniyatini yo‘qota boradi. Natijada insonda irodaviy buzilishlar paydo bo‘lib, tashqi ta’sirlarga nisbatan befarqlik, o‘zini nazorat qila olmaslik holatlari ko‘payadi.

Tadqiqotda shuningdek, addiktiv xulq-atvor bilan o‘ziga zarar yetkazish moyilligi o‘rtasida kuchli bog‘liqlik aniqlandi ($r=0,582$, $p\leq0,01$). Bu holat shuni anglatadiki, shaxs biror moddani yoki faoliyatni ruhiy tayanchoq sifatida qo‘llay boshlasa, vaqt o‘tishi bilan u o‘ziga zarar yetkazuvchi harakatlarga (masalan, o‘zini izolyatsiya qilish, depressiv holatlar, suitsidal fikrlar) moyil bo‘lib boradi. Uyushgan yoshlar guruhida ham bu bog‘liqlik ma’lum darajada saqlanib qolgan ($r=0,407$, $p\leq0,05$). Bunda ko‘pincha “tashqi farovon”, lekin ichki bosim ostidagi shaxslar hayotdan ma’no izlash jarayonida vaqtincha qoniqish beruvchi, ammo uzoq muddatda zararli vositalarga murojaat qiladilar. Shuning uchun addiktiv xulq faqat "nosog‘lom" shaxslarda emas, balki “uyushgan”, ijtimoiy faol yoshlar orasida ham uchrashi mumkin. Tahlil natijalariga ko‘ra, addiktiv xulq-atvorga moyillik ortgani sari delikvent xulq-atvorga (ya’ni jinoiy yoki huquqbuzarlik xatti-harakatlariga) moyillik ham oshib boradi ($r=0,388$, $p\leq0,05$). Bu shuni ko‘rsatadiki, giyohvandlik yoki qimor kabi zararli odatlar asta-sekin ijtimoiy me’yorlarga zid bo‘lgan, qonunbuzarlikka olib keluvchi xatti-harakatlar zanjirini yuzaga keltiradi.

Shaxsning ruhiy muvozanatini yo‘qotishi, irodaviy nazoratni pasaytirishi va tashqi baholarga haddan tashqari bog‘lanib qolishi bularning barchasi addiktiv xulqni kuchaytiruvchi psixologik mexanizmlardir. Bu jarayonlar ayniqsa o‘smirlik va erta yoshlik davrida kuchliroq namoyon bo‘ladi, chunki bu davrda “men” konsepsiyasi shakllanmoqda, ijtimoiy bahoga ehtiyoj yuqori, lekin emotsional barqarorlik hali mustahkam emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Анохина И. П. Основные биологические механизмы алкогольной и наркотической зависимости / И. П. Анохина // Руководство по наркологии: в 2 т. - Т. 1 / под ред. Н. Н. Иванца. - М.: Медпрактика, 2002. - С. 33-41.

2. Доклад о результатах и основных направлениях деятельности Федеральной службы исполнения наказаний.

3. Основные сведения об уголовно-исполнительной системе.

4. Пятницкая И. Н. Клиническая наркология / И.Н. Пятницкая. - М.: Медицина, 1975. - 335 с.

BO‘LAJAK OFITSERLARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA ADAPTATSIYANING O‘RNI

Yarmatov Akbar Normurotovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistranti podpolkovnik

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak ofitserlarning harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalanish jarayonida adaptatsiyaning o‘rni keng yoritilgan. Adaptatsiya tushunchasining mazmuni, uning biologik, psixologik va ijtimoiy jihatlari hamda harbiy muhitga moslashuvdagi o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda shaxsning ijtimoiy-psixologik moslashuvi, harbiy ta’lim muassasalarida moslashuv jarayonining bosqichlari, vatanparvarlik tarbiyasining adaptatsiyadagi roli ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Bo‘lajak ofitserlar uchun moslashuvning jismoniy, ruhiy, ma’naviy va ijtimoiy komponentlari, ularning kasbiy shakllanishiga ta’siri ko‘rsatib beriladi. Muallif tomonidan harbiy intizom, jamoaviylik, ekstremal holatlarga tayyorgarlik va komandirlik rolini egallashda adaptatsiyaning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini asoslaydilar. Maqola natijalariga ko‘ra, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bo‘lajak ofitserlar moslashuvining ajralmas qismi bo‘lib, ularning kasbiy mahorati va Vatanga sadoqatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar:adaptatsiya, ijtimoiy moslashuv, harbiy ta’lim, bo‘lajak ofitser, vatanparvarlik tarbiyasi, psixologik moslashuv, harbiy intizom, kasbiy shakllanish.

“Moslashish” (adaptatsiya) atamasi lotincha adaptatio - “moslashish” ma’nosidan kelib chiqqan bo‘lib, u shaxsning tashqi muhit bilan samarali o‘zaro ta’sirga kirishuvi jarayonini anglatadi. Ushbu tushuncha ilk bor G. Auberg tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan va keyinchalik tabiiy, texnik hamda ijtimoiy fanlarda keng qo‘llanila boshlagan. Mazkur atamaning ma’nosi turli fanlarda turlicha talqin qilinishi bu jarayonning ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatadi. Aksariyat tadqiqotchilar moslashuvni organizm yoki shaxsning mavjud shart-sharoitlarga mos ravishda faoliyat yurita olish qobiliyati sifatida izohlaydilar [1].

Izohli lug‘atlarda ijtimoiy adaptatsiya shaxs yoki guruhning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabati, uning qadriyat va me’yorlarni o‘zlashtirishi, zarur holatlarda esa muhitni o‘zgartirishga intilishi sifatida izohlanadi. Bu jarayon ayniqsa harbiy xizmatga kirayotgan yoki bo‘lajak ofitserlik yo‘lini tanlagan yoshlar uchun nihoyatda muhimdir, chunki ular o‘zlari kirayotgan muhitning qoidalari, axloqiy tamoyillari, intizomiy me’yorlari va vatanparvarlik qadriyatlarini chuqur anglab olishlari zarur.

Ijtimoiy-psixologik moslashuv masalasi nazariy jihatdan ham, amaliy nuqtai nazardan ham alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda ilm-fan “global adaptiv

paradigma”ni shakllantirish zarurati bilan yuzlashmoqda. Bu paradigma insonning o‘z faoliyati, milliy xavfsizlik, jamiyat taraqqiyoti va ayniqsa harbiy sohaga xos talablar bilan uyg‘un ravishda moslasha bilishini anglatadi.

Biologiyada paydo bo‘lgan “moslashish” tushunchasi keyinchalik ijtimoiy va kasbiy sohalarga o‘tgan umumilmiy kategoriya sifatida shakllandi. Lamark va Darvin tomonidan ilgari surilgan evolyutsion moslashuv g‘oyalari ijtimoiy moslashuvning ham ilmiy asosini yaratadi. Ofitserlikka tayyorlanayotgan yoshlar uchun moslashuvning “shoshilinch” (tezkor) va “uzoq muddatli” shakllari alohida ahamiyat kasb etadi: biri ekstremal holatlarga ruhiy tayyorgarlikni ta’minlasa, ikkinchisi harbiy jamoaga, intizomga, xizmat tartibiga bosqichma-bosqich ko‘nikishni nazarda tutadi.

Bo‘lajak ofitserning muvaffaqiyatli adaptatsiyasi jamiyatdagi ijtimoiy-huquqiy, psixologik va ma’naviy vaziyat bilan chambarchas bog‘liq. Ularning moslashuvida eng muhim omil — shaxsning o‘zgaruvchan, faol tabiatga ega bo‘lishi, ya’ni passiv emas, balki tashabbuskor adaptatsiya strategiyasini qo‘llay olishidir. Aynan shunday yondashuv kelajak harbiy rahbarning kasbiy shakllanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ijtimoiy psixologiyada moslashuv shaxsning ijtimoiy muhitga kirib borishi va unda o‘z rolini topishi sifatida tavsiflanadi (D.A. Andreeva, M. Mead, T. Parsons, J. Piaget va boshqalar). Moslashuv mexanizmlari B.N. Almazov, A.B. Petrovskiy, A.A. Rean kabi olimlar tomonidan chuqur tahlil qilingan. Oliy o‘quv yurtlariga moslashuv masalalari B.G. Ananyev va boshqalar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, majburiy migrantlar yoki murakkab hayotiy vaziyatga tushgan guruhlarning adaptatsiyasi bo‘yicha ham qator tadqiqotlar mavjud [4].

Bu ilmiy merosni harbiy soha kontekstida ko‘rib chiqish, bo‘lajak ofitserlarning harbiy xizmat muhitiga psixologik, jismoniy va axloqiy moslashuvini tahlil qilish, ayniqsa Vatan mudofaasi tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish uchun zarurdir.

K.K. Platonov va G.G. Golubev ishlab chiqqan moslashuvning bosqichli modeli bo‘lajak ofitserlar tayyorlov jarayoniga ham mos keladi. Ularning fikricha, moslashuv kasbni tanlashdan boshlanib, nazariy tayyorgarlik, maxsus o‘quv mashg‘ulotlari va amaliyot orqali shakllanadi. Harbiy ta’lim muassasalarida bu jarayon qat’iy intizom, vatanparvarlik tarbiyasi, jamoaviylik va komandir-bo‘ysunuvchi munosabatlari orqali mustahkamlanadi.

Zamonaviy psixologiyada yagona metateoriya mavjud emasligi adaptatsiya jarayonini yanada chuqur o‘rganishni taqozo qiladi. Harbiy muhitda moslashuv yana ham murakkab bo‘ladi, chunki bo‘lajak ofitser shaxsiy hayotidagi o‘zgarishlardan tashqari, yangi ijtimoiy rollar va mas’uliyatlar tizimini qabul qiladi. U harbiy intizom, jismoniy yuklama, qurol bilan ishlash, komandirlik malakalari, vatanparvarlik

qadriyatlari va ekstremal vaziyatlarga tayyorlik kabi ko‘plab omillarni o‘zlashtirishi kerak.

Ijtimoiy moslashuv bo‘lajak ofitserning harbiy jamoaga kirishida, o‘z o‘rni va rolini anglashda, harbiy etika va qadriyatlarni qabul qilishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Vatanparvarlik tarbiyasi ham aynan moslashuv jarayonining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi, chunki harbiy xizmatchi nafaqat kasbiy, balki ma’naviy tayyorgarlikka ham ega bo‘lishi lozim.

Ijtimoiy moslashuv usullari tizimi bo‘lajak ofitserlar uchun quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llaniladi:

harbiy-intizomiy talablarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish, jamoaviy faoliyatga kirishish va harbiy jamoa bilan o‘zaro ta’sir, vatanparvarlik, fidoyilik va mas’uliyat hislarini shakllantirish, ekstremal holatlarda o‘zini tuta bilish malakalarini rivojlantirish, harbiy psixologik barqarorlikni mustahkamlash.

Moslashuv harbiy institutlar orqali amalga oshadi, ular shaxsning ma’naviy-ruhiy sifatlarini shakllantirib, jamiyat uchun muhim bo‘lgan vatanparvarlik qadriyatlariga moslashuvni kuchaytiradi.

Moslashuv muammosi nafaqat nazariy, balki harbiy-amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. 1970-yillardan boshlab psixologiyada mehnat va kasbiy moslashuv bo‘yicha tadqiqotlar keng rivojlandi; bugungi kunda esa bu bilimlar harbiy kadrlar tayyorlashda alohida ahamiyatga ega. Bo‘lajak ofitserlarning harbiy xizmat sharoitlariga moslashuvi ularning kelajakdagi xizmat samaradorligini belgilaydi.

Harbiy sohada adaptatsiya talab etiladigan asosiy yo‘nalishlar quyidagilar: harbiy intizom va xizmat tartibiga o‘rganish, jismoniy tayyorgarlik va harbiy mashg‘ulotlarga moslashish, ma’naviy-axloqiy va vatanparvarlik qadriyatlarini o‘zlashtirish, ruhiy barqarorlikni rivojlantirish, harbiy jamoaga qo‘shilish va komandirlik roliga tayyorgarlik.

Moslashuv jarayonlari biologik, fiziologik, psixologik va ijtimoiy darajalarda namoyon bo‘lib, ular bo‘lajak ofitserning kasbiy shakllanishida murakkab tizimni tashkil etadi. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi esa mazkur jarayonning bosh yo‘nalishlaridan biridir.

Ijtimoiylashtirish shaxsni jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida shakllantirsa, harbiy moslashuv bo‘lajak ofitserni Vatan mudofaasi tizimining to‘liq subyekti sifatida kamol toptiradi. Harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash adaptatsiyaning asosiy mazmuni bo‘lib, yoshlarni harbiy xizmat talablariga, jamoaviy hamkorlikka, intizomga, mas’uliyat va fidoyilikka tayyorlaydi. Zamonaviy axborot muhitining kuchayishi yoshlarning tabiiy muloqot ko‘nikmalarini cheklayotgan bo‘lsa-da, harbiy ta’lim jarayoni bu bo‘shliqni to‘ldirib, shaxsning ijtimoiy va psixologik adaptatsiya mexanizmlarini mustahkamlaydi [8].

Moslashuv bo‘lajak ofitserning harbiy kasbga kirishida, o‘z potensialini namoyon etishida, vatanparvarlik ruhini shakllantirishda va xizmatga bo‘lgan sadoqatini mustahkamlashda hal qiluvchi omildir. Shaxsning faol pozitsiyasi, ijtimoiy hamda harbiy muhitga kirish qobiliyati ofitserlik kasbining asosiy poydevorini tashkil etadi [9].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Граве П.С. Об адаптации в живых системах /П.С.Граве. –Рига: Зинатне, 1972.

2.Петрушенко Л.А. Единство системности, организованности и самодвижения / Л.А. Петрушенко. –М.: Мысль, 1975.

3.Ромм М.В. Адаптация личности в социуме: Теоретико-методологический аспект / М.В. Ромм. –Новосибирск: Наука. Сибирская издательская фирма РАН, 2002.

4.Селье Г. Очерки об адаптационном синдроме / Г. Селье. –М.: Медицина, 1960.

5.Философские проблемы теории адаптации /Под ред. Г.И. Царегородцева. –М.: Мысль, 1975.

6.Адаптация личности в современном мире: Межвуз. сб. науч. тр. – Саратов: ИЦ «Наука», 2011. –Вып. 3. –110 с.

7.Андреева Г. М. Социальная психология.–М.: Аспект Пресс, 2017. –363 с.

8.Битянова М.Р. Социальная психология. –СПб.: Питер, 2015.-368 с.

9.Горянина В.А. Психология общения. –М: Академия, 2013.-416 с.

HARBIY XIZMAT FAOLIYATIDAGI MEHNAT ADAPTATSIYASI HAMDA TA’LIM BOSQICHLARINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI

Qurbonov Sherzod Muratqobilovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada yoshlarining harbiy xizmatga psixologik tayyorgarligi va adaptivlik tuzilmasining intellektual, motivatsion, xulq-atvoriy hamda emotsional-irodaviy komponentlari tahlil qilinadi. Adaptivlik va kommunikativ kompetentlikning strukturaviy elementlari o‘rtasidagi o‘xshashliklar aniqlanib, ularning o‘zaro bog‘liqligi ilmiy asosda asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: adaptatsiya, moslashuv, kasbiy yonish, harbiy tuzilma, jangovor vaziyat, psixologik stress, dezadaptatsiya, harbiy ta’lim.

Harbiy psixologiyada umumqabul qilingan nuqtai nazarga ko‘ra, adaptatsiya potensiali insonning moslashuv imkoniyatlarini belgilaydi va harbiy xizmatchi shaxsining integral ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bu fikr shaxs tuzilmasida atrof-muhitning o‘zgargan sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashuvni ta’minlaydigan hamda ushbu jarayonning konstruktiv rivojlanishining asosiy determinantini tashkil etadigan qobiliyatlar mavjudligini tan olishga asoslanadi. Uning asosiy tarkibiy qismlari nerv-psixik barqarorlik, kommunikativ qobiliyatlar, xulq-atvorni boshqarish va axloqiy me’yorlarga amal qilishdir. Kommunikativ qobiliyatlarning harbiy xizmatga muvaffaqiyatli moslashuv omillaridan biri sifatida ajratilishi harbiy xizmatchilarning kommunikativ kompetentligini o‘rganishning nazariy va empirik jihatdan dolzarbligini tasdiqlaydi.

Shu munosabat bilan muallif harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatini tibbiy-psixologik ta’minlashning asosiy yo‘nalishlarini quyidagicha belgilaydi: sog‘liqni psixologik prognozlash va shaxsiy potensiali yetarlicha rivojlanmagan shaxslarni aniqlash; harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatini tibbiy-psixologik kuzatish va psixologik korreksiya; ekstremal sharoitlar psixik omillarining ta’sirini boshdan kechirgan shaxslarni tibbiy-psixologik reabilitatsiya qilish.

Aytish lozimki, “adaptivlik” tushunchasi fiziologiyadan olingan bo‘lib, tashqi muhitning real yoki prognoz qilinayotgan o‘zgarishlari va talablariga mos ravishda xulq-atvorning ma’lum darajadagi o‘zgaruvchanligi va plastiklik darajasini nazarda tutadi. Shu nuqtayi nazardan, shaxsning adaptivlik potensiali (adaptivlik) unda mavjud bo‘lgan, zaruriy xulq-atvor plastiklik va maqsadga muvofiqlikni ta’minlaydigan sifatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu sifatlar kelajakda harbiy xizmatchi duch kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlar talablariga mos kelishi zarur.

Shu asosda, yigitlarning harbiy xizmatga psixologik adaptivligi shaxsning integrativ xususiyati (adaptiv potensial) sifatida qaralishi mumkin. U o‘zgarayotgan vaziyat va harbiy-ijtimoiy muhit talablari sharoitida psixik regulyatsiyaning darajasi va xarakterining variativ o‘zgarishini, shuningdek, vojib istiqbolli baholash asosida yangi harbiy-kasbiy muhitga kirib borish dinamikasining modulyatsiyasini nazarda tutadi. Bu esa yigitning boshqa subyektlar bilan ortiqcha nerv-psixik zo‘riqish va ichki ziddiyatlarsiz samarali o‘zaro ta’sirini ta’minlaydi. Psixologik adaptivlikning tarkibiy tuzilmasi quyidagi komponentlardan iborat: intellektual, xulq-atvoriy, emotsional-irodaviy va motivatsion. Ushbu komponentlarning yig‘indisi konkret-situativ sharoitda “shaxs harbiy-ijtimoiy muhit talablari” qarama-qarshiligini bartaraf etishga imkon beradi.

Komponentlarning funksiyalari quyidagicha:

- motivatsion komponent shaxsning aktual ehtiyojlarini qondirish va ichki ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan adaptatsion strategiyalarni baholash va tanlash;
- intellektual komponent vaziyat, harbiy-ijtimoiy muhit talablari va shaxsiy psixik resursning adekvatligini ehtimollik asosida baholash hamda eng maqbul adaptiv harakatni tanlash;
- xulq-atvoriy komponent kommunikativ kontaktni o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash, o‘quv va kasbiy o‘zaro ta’sirni amalga oshirish, ijtimoiy normalarni o‘zlashtirish hamda adaptatsion harakat natijalarini baholashda referent guruh bilan muloqot qilish;
- emotsional-irodaviy komponent organizmning haddan tashqari zo‘riqishini va shaxsiy resurslarning ortiqcha sarfini istisno qilgan holda xulq-atvor va emotsional holatlarni boshqarishni ta’minlash.

Adaptivlik komponentlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ular kommunikativ kompetentlik tuzilmasi bilan ma’lum darajada o‘xshashdir. Masalan, V.I. Kashnitskiy tomonidan ajratilgan kommunikativ kompetentlikning operatsion komponenti muloqot jarayonini boshqarish, muloqot bo‘yicha hamkorlarga samarali ta’sir ko‘rsatish, muloqot jarayonida optimal o‘zini boshqarish adaptivlikning xulq-atvoriy komponenti bilan mos tushadi. Mazmuniy komponent muloqot qonuniyatlari, ijtimoiy persepsiya mexanizmlarini bilish intellektual komponentda o‘z aksini topadi. Bazaviy komponentdagi muloqotga oid qadriyatlar, motivlar va yo‘nalishlar esa adaptivlikning motivatsion komponentini shakllantirish uchun asos bo‘la oladi.

Tahlil tadqiqotchiga mazkur fenomenlarni chuqur va tizimli o‘rganish imkonini ochadi. Psixologik adaptivlik, unga kiruvchi sifat va xususiyatlarning individual kombinatsiyasiga ko‘ra, shaxsning frustratsion tolerantligi (ya’ni zo‘riqish darajasi chegarasi)ni belgilaydi. Ushbu chegara oshib ketganda, harbiy xizmat sharoitlariga

moslashuv jarayonida yigitning psixikasiga va xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu esa moslashuv jarayonining konstruktiv yoki destruktiv variantlari shakllanishiga olib keladi.

Nazariy tahlilning dolzarbligi quyidagilar bilan asoslanadi: Birinchidan, harbiy xizmatchilarning dezadaptatsiya holatlari (posttravmatik stress buzilishlari, kasbiy emotsional “yonish” sindromi, o‘ziga zarar yetkazish xavfi)ning global miqyosda o‘sishi adaptatsiya jarayonlarining bosqichli mexanizmlarini chuqurroq anglashni talab qilmoqda. Ikkinchidan, mavjud adaptatsiya modellari asosan statik tavsifga ega bo‘lib, ular shaxsning xizmat davomida kechadigan dinamik o‘zgarishlarini yetarli darajada hisobga olmaydi. Shu sababli, adaptatsiyaning har bir bosqichiga xos bo‘lgan psixologik-funksional o‘zgarishlarning ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash va ularni tizimli yondoshuv nuqtai nazaridan tasniflash muhim ilmiy-amaliy vazifadir. Uchinchidan, psixologik adaptatsiyaning kritik nuqtalarini (o‘tish bosqichlarini) ilmiy asoslash harbiy ta’lim, tanlov va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini proaktiv boshqarish uchun metodologik asos yaratadi. Bu esa harbiy xizmatchilarning psixologik rezistentligini maqsadli shakllantirish va individual adaptatsiya trayektoriyalarini optimallashtirish imkonini beradi. To‘rtinchidan, tadqiqot natijalari harbiy psixologiya fanining nazariy-metodologik bazasini kengaytirishga, adaptatsiya jarayonini izohlovchi evristik modellarini yaratishga xizmat qiladi. Shu sababli, harbiy xizmatdagi psixologik adaptatsiyaning bosqichlarini fundamental darajada tahlil qilish harbiy xavfsizlik manfaatlari nuqtai nazaridan ham, harbiy psixologiya fanining rivojlanishi nuqtai nazaridan ham o‘ta dolzarb hisoblanadi. Harbiy xizmat faoliyatidagi psixologik adaptatsiya bosqichlarining ilmiy-nazariy tahlili ushbu murakkab tizimni tushunish uchun fundamental ahamiyatga ega. Adaptatsiyani faqatgina passiv moslashish deb qaramaslik kerak, balki bu shaxsning dinamik faoliyati natijasi sifatida, uning ichki psixologik tuzilmalari bilan harbiy muhitning ekstremal talablari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonidir.

Taklif etilgan adaptatsiya modeli psixologik yordamni faqatgina inqiroz paytida emas, balki profilaktik va rivojlantiruvchi yondashuv asosida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Ushbu tahlillarga asoslanib, kelgusida quyidagi yo‘nalishlarda chuqur empirik tadqiqotlar o‘tkazish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

harbiy xizmatning turlari (muddatli, kontrakt, ofitserlik) va muddatlariga qarab adaptatsiya bosqichlari mazmunidagi farqlarni empirik tekshirish;

moslashuvning har bir bosqichidan muvaffaqiyatli o‘tishni ta’minlaydigan psixologik mexanizmlar va shaxsiy xususiyatlarni (masalan, stressga chidamlilik, mas’uliyat) o‘rganish;

harbiy xizmatchilarda adaptatsiya darajasini diagnostika qilish uchun samarali va tezkor metodikalarni yaratish.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida harbiy xizmat o‘tash jarayonlarini isloh qilish jarayonida ham keltirilgan bosqichlarning ahamiyatini inobatga olish maqsadga muvofiq. Xususan:

harbiy xizmatga moslashuv, jumladan psixologik adaptatsiya, kasbiy bilimlarni o‘rganish jarayonlarining uzoq muddat talab qilishidan kelib chiqib, safarbarlik chaqiriluv rezervi, harbiy xizmatchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash davrlarini qayta ko‘rib chiqish;

harbiy sohada rahbar kadrlar, ya’ni komandir-boshliqlarning shaxsiy tarkib bilan ishlash jarayonlarida psixoligik adaptatsiya xususiyatlari inobatga olinishi haqida ularning bilim va ko‘nikmalarini oshirish choralarini ko‘rish;

guruh ichidagi kelishmovchiliklarni erta aniqlash va hal qilish uchun harbiy psixologning muntazam suhbatlarini tashkil etish, norasmiy yetakchilarni ijobiy kanallarga yo‘naltirish;

harbiy xizmatchilarni navbatdagi kasbiy yuklamalarga, lavozim o'zgarishlariga psixologik tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish;

sotsiometrik tadqiqot (Moreno) orqali norasmiy liderlar, autsayderlar va ziddiyatli munosabatlar markazidagi shaxslarni aniqlash (bu ma’lumotlar jamoaviy adaptatsiya jarayonlarini faol boshqarish uchun asos bo‘ladi);

vaziyatli o‘yinlar va keys-stadi usullarini qo‘llagan holda xizmatchining harbiy faoliyatga bo‘lgan ichki motivatsiyasini mustahkamlash, xizmatning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini tushuntiruvchi qadriyatga yo‘naltirilgan suhbatlar o‘tkazish;

kasbiy degradatsiya, kasbiy deformatsiya va faoliyatdan ko‘ngil sovishi kabi sindromlarni aniqlash maqsadida “Maslach inventari” kabi usullardan foydalanish;

moslashuv ko‘rsatkichlari yuqori bo'lgan xizmatchilarning shaxsiy-psixologik profillarini (stressga chidamlilik, mas’uliyat, qat’iyat) tahlil qilib, kelgusi adaptatsiya jarayonlarini boshqarish uchun bashoratlash modellarini yaratish (bu model kelajakda harbiy xizmatga chaqiriluvchi kontingentni tanlashda ilmiy asos bo'lishi mumkin).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Психология адаптации личности. Анализ. Теория. Практика / А. А. Реан, А. Р. Кудашев, А. А. Баранов. - СПб.: ПРАЙМ-ЕВРОЗНАК, 2006 - 479, [1] с. - (Психология - лучшее). ISBN 5-93878-211-2

2. Маклаков А.Г. Профессиональный психологический отбор персонала. Теория и практика: Учебник для вузов.

3. Березин Ф. Б. Психическая и психофизическая адаптация. Л.: Наука, 1998.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

Toshkent sh., 2025-yil 21-noyabr

Konferensiya qatnashchilari Qurolli Kuchlar tizimida ijtimoiy-psixologik adaptatsiya muammosini ilmiy tadqiq etish, ilmiy tadqiq etishning dolzarb muammolari, huquqiy va nazariy jihatlarini muhokama qilish, mavjud tizimli muammolarni tahlil etish va ilmiy-nazariy asoslangan yechimlarni ishlab chiqish maqsadida yig‘ildilar. Anjuman doirasida ijtimoiy-psixologik adaptatsiya muammosini ilmiy-nazariy yechimlari va ahamiyati yuzasidan fikr almashildi.

Ilmiy ma’ruzalar, nazariy taqdimotlar va muhokamalar natijasida ijtimoiy-psixologik adaptatsiyada quyidagi tizimli muammolar mavjudligi aniqlandi:

Ijtimoiy adaptatsiya jarayonining uslublarini milliy sharoitga va huquqiy va nazariy jihatlarini o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirish, mahalliy psixologik-madaniy fenomenlarni hisobga oluvchi chuqur ilmiy asoslangan metodik bazaning yaratilmaganligi, psixologik adaptatsiya jarayonida shaxsning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ma’lumotlarining osqichma-bosqich yig‘ilishi, qayta ishlanishi va ulardan foydalanish tartibini aniq tartibga soluvchi maxsus bazaning mavjud emasligi. Bu esa adptatsiy jarayonining muayyan noaniqliklarni keltirib chiqarmoqda;

Harbiy xizmatchilarning dezadaptatsiya holatlari (posttravmatik stress buzilishlari, kasbiy emotsional “yonish” sindromi, o‘ziga zarar yetkazish xavfi)ning global miqyosda o‘sishi adaptatsiya jarayonlarining bosqichli mexanizmlarini chuqurroq anglashni talab qilmoqda. Mavjud adaptatsiya modellari asosan statik tavsifga ega bo‘lib, ular shaxsning xizmat davomida kechadigan dinamik o‘zgarishlarini yetarli darajada hisobga olmaganligi sababli, adaptatsiyaning har bir bosqichiga xos bo‘lgan psixologik-funksional o‘zgarishlarning ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash va ularni tizimli yondoshuv nuqtai nazaridan tasniflash muhim ilmiy-amaliy vazifadir. Harbiy psixologiya fanining nazariy-metodologik bazasini kengaytirishga, adaptatsiya jarayonini izohlovchi evristik modellarini yaratishga xizmat qiladi. Shu sababli, harbiy xizmatdagi psixologik adaptatsiyaning bosqichlarini fundamental darajada tahlil qilish harbiy xavfsizlik manfaatlari nuqtai nazaridan ham, harbiy psixologiya fanining rivojlanishi nuqtai nazaridan ham o‘ta dolzarb hisoblanadi. Harbiy xizmat faoliyatidagi psixologik adaptatsiya bosqichlarining ilmiy-nazariy tahlili ushbu murakkab tizimni tushunish uchun fundamental ahamiyatga ega. Adaptatsiyani faqatgina passiv moslashish deb qaramaslik kerak, balki bu shaxsning dinamik faoliyati natijasi sifatida, uning ichki

psixologik tuzilmalari bilan harbiy muhitning ekstremal talablari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonidir.

Konferensiya qarori va tavsiyalar:

Qayd etilgan muammolarni bartaraf etish ijtimoiy-psixologik adaptatsiya muammosini ilmiy tadqiq etish maqsadida konferensiya ishtirokchilari tegishli davlat organlari, ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarga quyidagilarni tavsiya etadi:

1. Jamoat xavfsizligi universitetida – 3 oylik modulli dastur asosida koping, emotsional intellekt va axloqiy qaror qabul qilishni o’rgatish o’quv kurslarini tashkil etish;
2. Harbiy qismlarda “Oilaviy psixologik ko’prik” platformasini (psixologik maslahatlar) joriy qilish;
3. Virtual reallik asosidagi “Stress-inkubator” – jangovar vaziyatlarni simulyatsiya qilib, adaptatsiyani oldindan shakllantirish;
4. Harbiy jamoada sog’lom muhitning doimiy monitoringi – har oyda anonim “Psixologik barometr” so’rovlarini tashkil etish kabi tadbirlar harbiy xizmatchilarda adaptatsiya jarayonining samaradorligini oshiradi.
5. Harbiy tuzilmalarda chidamlilikni oshirish uchun virtual realklik asosidagi immersiv trening dasturlarini joriy etish, bu dasturlar harbiy xizmatchilarda real jangovar vaziyatlarni simulyatsiya qilib, emotsional chidamlilikni rivojlantiradi va ruhiy muammolarni oldini oladi.
6. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini mustahkamlash uchun harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari uchun birgalikda ishtirok etadigan onlayn platformalarni yaratish, bu platformalar orqali doimiy aloqa va psixologik maslahatlarni ta’minlash.
7. Raqamli interventsiyalarni rivojlantirishda sun’iy intellektga asoslangan chat-botlarni qo‘llash, ular harbiy xizmatchilarning ruhiy holatini real vaqtda tahlil qilib, shaxsiy tavsiyalarni beradi va adaptatsiyani tezlashtiradi.
8. Multimodal yondashuvlarni takomillashtirish uchun harbiy xizmatchilar uchun integratsiyalashgan salomatlik markazlarini tashkil etish, bu markazlarda psixologik terapiya, jismoniy mashqlar va ijtimoiy tadbirlarni birlashtirib, kompleks reintegratsiyani ta’minlash.
9. Harbiy xizmatning turlari (muddatli, kontrakt, ofitserlik) va muddatlariga qarab adaptatsiya bosqichlari mazmunidagi farqlarni empirik tekshirish;
10. Moslashuvning har bir bosqichidan muvaffaqiyatli o‘tishni ta’minlaydigan psixologik mexanizmlar va shaxsiy xususiyatlarni (masalan, stressga chidamlilik, mas’uliyat) o‘rganish;
11. Harbiy xizmatchilarda adaptatsiya darajasini diagnostika qilish uchun samarali va tezkor metodikalarni yaratish;
12. Harbiy xizmatga moslashuv, jumladan psixologik adaptatsiya, kasbiy bilimlarni o‘rganish jarayonlarining uzoq muddat talab qilishidan kelib chiqib,

safarbarlik chaqiriluv rezervi, harbiy xizmatchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash davrlarini qayta ko‘rib chiqish;

13. Harbiy sohada rahbar kadrlar, ya’ni komandir-boshliqlarning shaxsiy tarkib bilan ishlash jarayonlarida psixoligik adaptatsiya xususiyatlari inobatga olinishi haqida ularning bilim va ko‘nikmalarini oshirish choralarini ko‘rish;

14. Guruh ichidagi kelishmovchiliklarni erta aniqlash va hal qilish uchun harbiy psixologning muntazam suhbatlarini tashkil etish, norasmiy yetakchilarni ijobiy kanallarga yo‘naltirish;

15. Harbiy xizmatchilarga stressni boshqarishning individual usullarini o‘rgatish;

16. Muvaffaqiyatli adaptatsiyadan o‘tgan harbiy xizmatchilarni rag‘batlantirish tizimini yaratish;

17. Harbiy xizmatchilarni navbatdagi kasbiy yuklamalarga, lavozim o'zgarishlariga psixologik tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish;

18. Sotsiometrik tadqiqot (Moreno) orqali norasmiy liderlar, autsayderlar va ziddiyatli munosabatlar markazidagi shaxslarni aniqlash (bu ma’lumotlar jamoaviy adaptatsiya jarayonlarini faol boshqarish uchun asos bo‘ladi);

19. Vaziyatli o‘yinlar va keys-stadi usullarini qo‘llagan holda xizmatchining harbiy faoliyatga bo‘lgan ichki motivatsiyasini mustahkamlash, xizmatning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini tushuntiruvchi qadriyatga yo‘naltirilgan suhbatlar o‘tkazish;

20. Kasbiy degradatsiya, kasbiy deformatsiya va faoliyatdan ko‘ngil sovishi kabi sindromlarni aniqlash maqsadida “Maslach inventari” kabi usullardan foydalanish;

21. Moslashuv ko‘rsatkichlari yuqori bo'lgan xizmatchilarning shaxsiy-psixologik profillarini (stressga chidamlilik, mas’uliyat, qat’iyat) tahlil qilib, kelgusi adaptatsiya jarayonlarini boshqarish uchun bashoratlash modellarini yaratish (bu model kelajakda harbiy xizmatga chaqiriluvchi kontingentni tanlashda ilmiy asos bo'lishi mumkin).

Ushbu tavsiyalar adaptatsiya jarayonida ilmiy-metodologik jihatdan mustahkamlash va uning xizmat faoliyatidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan.

Mundarija

Kirish so‘zi **M.X.RUSTAMBAYEV**	5
Harbiy-kasbiy faoliyatga adaptatsiyalashuv harbiy xizmatchilarning barqaror axloqiy-ruhiy holatini ta’minlovchi mexanizm sifatida **M.K.ASHURMATOV**	7
Harbiy-kasbiy faoliyat sharoitlariga samarali moslashuv jarayonida shaxs xususiyatlari **SH.A.MIRABDULLAEVA**	13
Harbiy xizmatchilarda ijtimoiy-psixologik adaptatsiya muammosini ilmiy tadqiq etishning dolzarb masalalari **N.K.O‘ROZBOYEV**	18
Harbiy xizmat faoliyatidagi psixologik adaptatsiya bosqichlarining ilmiy-nazariy tahlili **G‘.Z.IKMATULLAYEV**	23
Harbiy xizmatchilar adaptatsiya jarayonining muhim jihatlari **Z.SH.ALIMARDONOV**	29
Harbiy xizmatchilarda ijtimoiy-psixologik adaptatsiya va ruhiy salomatlikni mustahkamlashning dolzarb yo‘nalishlari **M.R.MAXMUDOV**	33
Социально-психологические предикторы адаптации кадрового резерва у военнослужащих **D.S.ABDULLAJONOVA**	39
Stressli sharoitlarda harbiylarning psixologik chidamliligini oshirishda maxsus psixologik mashqlarning roli **M.L.SAIPOVA**	45
Harbiy etiket, harbiy xizmatchilarning unga moslashuvi va uning intizomni mustahkamlashdagi ahamiyati **U.A.YUNUSOV**	48
Harbiy xizmatchilarda harbiy odob-axloq adaptatsiyasi va unining ijtimoiy psixologik omillari **I.O.XAYDAROV**	51
Xarbiy kursantlarda moslashuv jarayonlarining psixologik aspektlarini tahlil etish **G.Z.ZIYAUTDINOVA, M.O‘ROLOVA**	54
Harbiy xizmatchi shaxsini moslashuvida ijtimoiy – psixologik ta’sirlari **I.M.XAYDAROV**	57
Harbiy xizmatchilarda ijtimoiy-psixologik adaptatsiyaning zamonaviy muammolari **A.A.QORABOYEV**	63
Psixologik moslashuv jarayonida harbiy xizmatchilarda agressiya namoyon	67

bo‘lishining psixologik omillari
I.I.REJAMETOVA

Oliy harbiy ta’lim kursantlarida ijtimoiy-psixologik adaptatsiyaning psixologik mexanizmlari 71
SH.A.SHAKARBOYEVA

Harbiy distant oilalarning psixologik moslashuvining sotsiomadaniy omillari 79
D.R.YANGIBOYEVA

Психологическая адаптация и саморегуляция военнослужащих как интегралный механизм профессионалной устойчивости 85
M.R.QIYOMXO‘JAYEVA

Xorijiy davlat armiyalarda axloqiy-ruhiy tayyorgarlikka bo‘lgan yondashuvlar 90
N.X.MIRZAYEV

Harbiy faoliyatda axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirish tendensiyalari 93
D.MAMATKULOV, R.PAYONOVA, S.MARSHABOV

Harbiy faoliyatda axborot xavfsizligining tashkiliy-psixologik muammolari 104
D.MAMATKULOV, D.MAMAJONOVA, K.OMONOV

Muammoli oilalarga psixologik xizmat ko‘rsatishning amaliy xususiyatlari 108
SH.U.KAMOLOVA

Jamoat xavfsizligi subyektlarida addiksiya namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 112
M.Q.QARSHIBAYV

Maktabgacha yoshdagi bolalar kognitiv jarayonlarini rivojlantirishning psixologik xususiyalari 115
N.A.AHMEDOVA

Ekstremal vaziyatlarda xodimlarning agressivlik darajasiga ta’sir etuvchi psixologik omillar 120
M.L.SAIPOVA, N.A.AHMADJONOVA

Yosh harbiy xizmatchilarni kasbiy faoliyatga tayërlashning psixologik va pedagogik xususiyatlari 125
N.X.TOSHPO‘LATOVA

Harbiy xizmat sharoitiga moslashuvda destruktiv emotsional holatlar psixoprofilaktikasi 128
D.A.ABDUG‘ANIYEVA

Kursantlarning harbiy va o‘quv muhitga adaptatsiyasi: qiyinchiliklar va ularni engish yo‘llari 133
S.K.KUSHBAYEV

Harbiy xizmatchilarning psixologik adaptatsiyasida diqqat taqsimlanishining gender xususiyatlari 138
D.R.YANGIBOYEVA, K.I.OMONOV

Harbiy xizmatchilardagi adaptatsiya jarayonida jarohatdan keyingi stressli buzilishlarning psixosomatik determinantlari. 141

D.R.YANGIBOYEVA, N.N.TOJIBOYEV

Kursantlarning xizmat faoliyatiga moslashuv jarayonida o‘zini o‘zi nazorat qilishning subyektiv ahamiyati 146
K.G.TURSUNOV

Bo‘lajak ofiteserlarning psixologik adaptatsiyasiga ta’sir qiluvchi stressogen omillar 149
D.R.YANGIBOYEVA, B.N.ASHURALIYEV

Muddatli harbiy xizmatchilar va kursantlarda habiy xizmat sharoitiga moslashuvining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 153
S.B.XUDAYBERDIYEVA

Harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini ta’minlashda ijtimoiy himoya tizimining roli 157
F.T.DJAYDAKBAYEV

Harbiy xizmatchilarda ijtimoiy-psixologik adaptatsiya jarayonida motivatsiyaning o‘rni 163
M.L.SAIPOVA, X.ESHONQULOV

Мотивационно-психологические аспекты адаптации и развития эмоционалной устойчивости у военнослужащих 167
R.SH.VALATOV

Komandirga berilgan vakolatini suistemol qilish mazkur yo‘nalishda yo‘l qo‘yilayotgan kamchilik va muammolar 173
T.X.NORMETOV

O‘quv motivlarini shakllantirishda xotira va sezgi a’zolari shuningdek suniy intelekt texnalogiyalarining o‘rni 178
A.J.BEKMURODOV

Harbiy xizmatchilar faoliyatida sun'iy intellektdan foydalanish istiqbollari 184
M.L.SAIPOVA, N.M.AHMEDOV

Rotatsion adaptatsiyaning harbiy xizmatchi oilasidagi shaxslararo munosabatlarga ta’siri. 189
D.R.YANGIBOYEVA, A.SA’DULLAYEV

Stressning psixofiziologik mexanizmlari va diagnostikasi 193
S.A.NORBO‘TAYEV

Bola idrokini rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati 197
M.K.QODIROVA

Bikaryer harbiy oilalarda gender rollar va karyera o‘rtasidagi psixologik adaptatsiya aspektlari 201
G.R.ISHBOBOYEVA, D.A.ERGASHEVA

Поведение человека и конфликты 206
R.U.MAMARAIMOVA

Boshlang‘ich yoshda tafakkur va nutq rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik 210

N.S.FAYZIYEVA

O’smirlik davrida tafakkur rivojlanish bosqichlari 214
S.NORBOYEVA

O‘smirlarning ijtimoiy identifikatsiyasida mamlakat ijtimoiy hamjamiyatining psixologik ahamiyati 217
M.S.USMONOVA, M.E.ALIDDINOVA

Harbiy xizmatchilarni tarbiyalashda harbiy jamoadagi konfliktlarni bartaraf etish yo‘llari 220
J.N.YADGAROV

Diqqat etishmasligi giperaktivligi buzilgan aqliy zaif o‘smirlarning shaxsiy xususiyatlari 225
N.S.SANGIROVA

Harbiy xizmatchilarda adaptatsiya orqali stressni oldini olishning psixologik jihatlari 229
A.B.ABDURAHMONOV

Pedagogik universitetning innovatsion ta’lim muhitida talabalar-bo‘lajak o‘qituvchilarni psixologik tayyorlash tizimi 232
N.S.SANGIROVA

Harbiy boshqaruvda faolikning motivlarini shakilantirishning ijtimoiy psixologik omillarining ahamiyati 243
D.B.UMAROV

Harbiy xizmatchilarning xizmat-jangovar faoliyat sharoitiga moslashuvida ijtimoiy intellektning o‘rni 248
D.R.YANGIBOYEVA, J.TORAYEV

Harbiy xizmatchilarning psixologik adaptatsiyasiga auditoriya effektining psixologik ta’siri 252
D.R.YANGIBOYEVA, A.QUDRATOV

Bo‘lajak ofitserlar xizmat faoliyatida psixologik moslashuvida shaxslararo munosabatlarning integral ahamiyati 258
D.R.YANGIBOYEVA, E.SOBIRJONOV

Harbiy xizmatchining psixologik adaptatsiyasida axborot-psixologik xavfsizligiga ta’sir etuvchi psixosotsial atributlari 263
D.R.YANGIBOYEVA, S.S.YAMANQULOV

Fabbing harbiy xizmatchilarning sotsial adaptatsiyasida psixologik separatsiya omili sifatida 267
D.R.YANGIBOYEVA, F.F.SAYDIYEV

Bo’lajak ofitserlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari 272
B.B.ABDUVASIYEV

Axborot urushlarining shakllari 276
A.A.ZAIDOV

Zahiriddin Muhammad Bobur harbiy faoliyatining harbiy xizmatchilar 278

moslashuviga psixologik ta’siri
U.M.BAUBEKOV

Bo‘lajak ofitserlarda moslashuv jarayonida glossafobiya shakllanishining psixosotsial omillari 281
D.R.YANGIBOYEVA, D.RUSTAMOVA

Bo‘lajak ofitserlarda xizmat faoliyatiga moslashuvida koping strategiyalarning psixologik ahamiyati 285
D.R.YANGIBOYEVA, SH.I.NAIMJONOV

Gibrid urushining olimlar tomonidan o‘rganilishi: nazariy va amaliy tahlil 290
A.A.ZAMONOV

Tobelik muammosining sharq manbalaridagi ilmiy tadqiq obyekti sifatida o‘rganilishi 292
M.Q.QARSHIBAYV

Jamoat xavfsizligini jangovar ta’minlashda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy institutlar faoliyatida hozirgi kunda uchrayotgan muammo va kamchiliklar tahlili 296
J.P.XAZRATQULOV

Ommaviy norozilik harakatlari jarayonini o‘rganishning psixologik yondashuvi 298
M.M.RAXMATOV

Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasida oilaviy qadriyatlarning o‘rni 302
N.SOTVOLDIYEVA

Psixologik adaptatsiya jarayonida harbiy shaxsida internet addiksiya rivojlanishining ijtimoiy-psixologik omillari 304
D.R.YANGIBOYEVA, D.B.MAMADJONOVA

Psixologik adaptatsiya jarayonida bo‘lajak ofitserlarda kasbiy motivatsiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari 309
D.R.YANGIBOYEVA, X.A.SAIDOV

Harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatiga moslashuvida interaktiv muloqotning ahamiyati 313
D.R.YANGIBOYEVA, O.N.JUMAYEV

Xizmat faoliyatiga moslashuv jarayonida harbiy oilalarda nizolar namoyon bo‘lishining psixosotsial omillari 318
D.R.YANGIBOYEVA, B.OLIMOVA

Interaktiv muloqot harbiy shaxsining psixologik moslashuv elementi sifatida 322
D.R.YANGIBOYEVA, U.S.QUDRATOV

Ilmiy va badiiy adabiyotlarda yosh harbiy xizmatchi ofitserlarning muloqot madaniyatini samarali shakllantirishning psixologik jihatlarini yoritilishi 327
E.R.MATYAKUBOV

Harbiy boshqaruv bo’yicha Zahiriddin Muhammad Bobur qarashlarining o’ziga xos psixologik omillari 333

U.M.BAUBEKOV

Boshlang’ich sinf o’quvchilarining aqliy qobiliyatini rivojlantiriishning psixologik jihatlari 339
N.JUMANOVA

Harbiy psixologik xizmat tizimida yosh harbiy xizmatchi ofitserlarda muloqot madaniyatini samarali shakllantirishning zamonaviy mexanizmlari 341
E.R.MATYAKUBOV

Kursantlarning psixologik adaptatsiyasi va ijtimoiy faollik rivojlanishining o‘zaro bog‘liqligi 346
I.I.RAXIMOVA

Kursantlarda psixologik moslashishning refleksiv xususiyatlari 350
Z.X.KAMALOVA

Психологические детерминанты счастья в современных подходах и исследованиях 353
Ч.Р.БОТИРОВА

Теоретические основы психокоррекции девиантного поведения личности подростка 356
Д.А.ЖОЛДОШБАЕВ

Xotin-qizlar tarbiyasi – kelajak tarbiyasi 360
A.K.PAXRATDINOVA

Oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish 362
N.S.SHERMATOVA

Yoshlarda psixologik addiksiya namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 366
M.Q.QARSHIBAYV

Bo‘lajak ofitserlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda adaptatsiyaning o‘rni 372
A.N.YARMATOV

Harbiy xizmat faoliyatidagi mehnat adaptatsiyasi hamda ta’lim bosqichlarining ilmiy-nazariy tahlili 376
SH.M.QURBONOV

TAKLIF VA TAVSIYALARI 380

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“XIZMAT FAOLIYATINI TARBIYAVIY-PSIXOLOGIK TA’MINLASH” KAFEDRASI

“Harbiy xizmatchilarda ijtimoiy-psixologik adaptatsiya muammosini ilmiy tadqiq etishning dolzarb masalalari: nazariya va amaliyoti” mavzusidagi

respublika ilmiy-nazariy konferensiya

TO‘PLAMI

2025-yil 21-noyabr

Konferensiya materiallari to‘plami

Mas’ul muharrir: podpolkovnik Z.Sh.Alimardonov
Texnik muharrir: dotsent Sh.A.Shakarboyeva
katta leytenant M.Q.Qarshibayv